TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHOISLOM SHOMUHAMEDOV NOMIDAGI YOSH SHARQSHUNOSLARNING VII FORUMI MATERIALLARI TO'PLAMI

17-APREL 2023-YIL

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHOISLOM SHOMUHAMEDOV NOMIDAGI YOSH SHARQSHUNOSLARNING VII FORUMI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2023-YIL 17-APREL

Toshkent – 2023

Ushbu to‘plamda sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullanayotgan bo‘lajak tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi yoshlarimizning ilmiy izlanishlaridan namunalar jamlangan.

Mas’ul muharrir:
t.f.d., prof.v.b. D.Sayfullayev

Muharrirlar:
PhD. Abdullayeva Dilafruz
PhD. Rasuleva Nigina
PhD. Alimov Zuhriddin
PhD. To‘rayev Laziz
PhD. Po‘latov Sherdor
PhD. Alimov Oqiliddin
PhD. Xodjimuratova Dilshoda
PhD. Bo‘ronov Suhrob
PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:
Y. Kushanova
I. Karimov

Mazkur to‘plam 2023-yil 1-apreldagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

TILSHUNOSLIK

TURK TILIDA MAQOL, MATAL, TURG‘UN BIRIKMALARDA EGALIK QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANILISHI

Bekzod NIG‘MONOV
TDSHU, lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti.
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. L. Aminova

Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap maqol deb ataladi. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg‘ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi[1].

Maqollar ba’zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, hattoki, g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So‘z ko‘rki — maqol! *Geçmişten günümüze gelen, uzun deneyimlerden yararlanarak kısa ve özlü öğütler veren, toplum tarafından benimsenerek ortak olarak kullanılan kalıplaşmış sözlere atasözü denir. Türkçe’de “sav” ve “irsal-i mesel” olarak da adlanılır (tarixdan bugungi kunimizgacha yetib kelgan, katta tajribalarga suyangan holda qisqa va ma’noli o‘gitlar beradigan, xalq tomonidan yaratilib, barcha insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan, aniq bir qolipdagi so‘zlarga maqollar deyiladi)*[2].

Maqollar xalq madaniyati, tarixi, qadriyatlarini aks ettirish bilan birga, til imkoniyatlarini ham ko‘rsatib beradigan bir mezondir. Bu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, maqollarda egalik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi ham tildagi mühim bir unsurdir.

[1] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma’nolar maxzani, T., 2001. – S. 14.
[2] https://aregem.ktb.gov.tr/TR-12770/atasozleri.html 16.03.2023.

Maqollarda egalik qo‘shimchalari so‘zning egasining kim ekanligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Odatda biror narsa-buyumning egasi, bajaruvchisi, so‘zlovchisi bilan bog‘liq so‘zlarda qo‘llaniladi. Misol uchun, *“Çocuk evin meyvesidir”* maqolida *“evin”* ifodasi bilan bolaning ota-onasi ifodalangan bo‘lsa, *“meyvesi”* so‘zi farzand so‘zini bildirib, bu ikkisidan birining ikkinchisiga tegishligini egalik qo‘shimchasi ifodalamoqda. Xuddi shu shaklda *“Alma mazlumun âhını, çıkar âheste âheste”* maqolida *“mazlumun”* so‘zi *“âhı”* bo‘lgan kishining kim ekanligini ko‘rsatib berish uchun egalik qo‘shimchasi qo‘llanilgan.

Maqollar tarkibidagi egalik qo‘shimchalari tildagi xususiyatlarni va turlichalikni ifodalar ekan, bunga qo‘shimcha tarzda grammatik xususiyat sifatida ham mühim o‘rin tutadi. Turk tili egalik qo‘shimchalari borasida juda boy tillardan hisoblanadi. Bu egalik qo‘shimchalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi tilning to‘g‘ri va sof tarzda iste’mol qilinishida ahamiyatlidir. Faqat egalik qo‘shimchalarining qo‘llanilishida xatolar kuzatiladi. Xususan turk tilidagi ba’zi sinonim so‘zlarning qo‘llanishida bu xatolar ko‘plab kuzatiladi. Misol uchun, *“Babasına hayır etmeyenin kimseye hayrı olmaz”* maqolida sözünde, *“hayır”* so‘zi o‘rnida *“fayda”* so‘zi egalik qo‘shimchasisiz qo‘llanilsa maqolning ma’nosiga putur yetar edi va noto‘g‘ri qo‘llanilish shakli kelib chiqar edi.

Turk tilida eng ko‘p qo‘llanilgan maqollarni internet saytlaridan [1] yig‘ib, orasidan egalik shakllari mavjud bo‘lgan maqollarni saralab olishga harakat qildik. Ma’lumki, egalik qo‘shimchalari qaratqich kelishigi bilan izofa hosil qilib keladi. Bu izofalar moslashuvchi so‘z birikmalari deb ham ataladi. So‘z birikmalari ikki qismdan iborat bo‘lib, qaratqich kelishigini olgan so‘z tobe, egalik shakllarini olgan so‘z hokim qismdir. Maqollarda ham egalik qo‘shimchalarini tadqiq qilar ekanmiz, hokim va tobe qismlarning kelish shakllari va funksiyalari jihatidan tadqiq qildik. Bunga ko‘ra maqollarda izofalarning asosan to‘rt xil shaklda kelishi mumkinligini aniqladik. Bu orqali maqollarda egalik shakllarining xususiyatlarini shakllantirishga harakat qildik. Bularni quyida birma-bir ko‘rib chiqamiz:

1. Izofaning ikki qismi ham kelgan maqollar. Faqat bunda izofaning kelish shakllari jihatidan yana uch sinfga bo‘lishimiz mumkin.

a) Tobe qism ham, hokim qism ham, qaratqich kelishigi ham, egalik qo‘shimchalari ham mavjud bo‘lgan izofalar:

Alma mazlumun âhını, çıkar âheste âheste

[1] https://aregem.ktb.gov.tr/TR-12770/atasozleri.html ; https://egitim.com/en-cok-kullanilan-atasozleri-ve-anlamlari; https://www.cnnturk.com/egitim/atasozleri-ve-anlamlari-en-cok-bilinen-atasozleri-sozlugu-kisa-uzun-atasozleri-ornekleri; 16.03.2023.

Al malın iyisini çekme kaygısını
Bir elin nesi var, iki elin sesi var
Budalanın yağı çok olursa sakalına sürer
Çocuk evin meyvesidir
Ekmeğin kestiğini kılıç kesmez
Fukaranın tavuğu tek tek yumurtlar
Leyleğin ömrü laklak ile geçer
Perşembenin gelişi çarşambadan bellidir
Pilâvdan dönenin kaşığı kırılsın
Sabrın sonu selâmettir
Ucuz etin yahnisi yavan olur
Umut, fakirin ekmeğidir
Vakitsiz öten horozun başını keserler
Yalancının mumu yatsıya kadar yanar
Yardımcının yardımcısı olur
Zararın neresinden dönülse kârdır
Zenginin malı, züğürdün çenesini yorar

b) Tobe qismda aratqich kelishigi tushib qolgan maqollar:

Çam sakızı çoban armağanı
Laf ile peynir gemisi yürümez
Mum dibine karanlık
Su testisi su yolunda kırılır

c) Tobe qism va hokim qism orasiga boshqa so‘z qatnashgan maqollar:

Babasına hayır etmeyenin kimseye hayrı olmaz
Her yiğidin bir yoğurt yiyişi vardır

2. Izofaning tobe qismi va qaratqich kelishigi tushib qolgan maqollar. Bunday izofalarda hokim qismidagi egalik qo‘shimchalaridan tobe qismni tiklash mumkin. Tiklangan tobe qismni maqollar ichiga kiritganimizda ma’noda g‘alizlik sodir bo‘ladi. Lekin ma’noda hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi. Faqatgina maqollarda ta’kidlash ma’nosi ortadi. Bunga sabab tushib qolgan tobe qism asosan ikkinchi va uchinchi shaxs kishilik olmoshlaridir. “sen” va “u” olmoshlariga qaratqich kelishigi qo‘shilib izofa hosil qilinganda, tobe qismga ehtiyoj sezilmasdan, tushirilib qoldirilishi og‘zaki nutqning asosiy qoidalaridan biridir. Tushib qolgan olmoshlar tiklangan taqdirda ta’kidlash va kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Faqat maqollar qolip shaklga kelib qolganligi uchun asl ko‘rinishida qilingan har qanday o‘zgarish g‘alizlik tug‘diradi.

“sen” olmoshi tushirib qoldirilgan maqollar:

Ağustosta beynin kaynasın, kışın da tenceren kaynasın

Ayağını yorganına göre uzat
Besle kargayı oysun gözünü
Bin atın varsa bin dinlen, bir atın varsa in dinlen
Bir (sağ) elinin verdiğini öbür (sol) elin görmesin
Düşmanın karıncaysa, sen fil ol
Gülme komşuna, gelir başına
“u” olmoshi tushirib qoldirilgan maqollar:
Acele bir ağaçtır, meyvesi pişmanlık
Allah kulunu kısmeti ile yaratır
Al malın iyisini çekme kaygısını
Gelin bindi deveye gör kısmeti nereye
Gülü seven dikenine katlanır
Herkes kaşık yapar ama sapını yapamaz
Minnetle gül koklama, dikeni sancar seni

3) Izofaning tobe qismini tiklab bo‘lmaydigan maqollar. Bunday maqollarda izofaning tobe qismi mantiqan mavjud, ammo uni tiklab bo‘lmaydi. Aslini olganda, bunday izofalarning tobe qism o‘zlik olmoshidan tashkil topgandir. Bu o‘zlik olmoshi ishora qiladigan bo‘lak esa gapda qaratqich aniqlovchi emas, boshqa gap bo‘lagi vazifasini bajarib kelgan bo‘ladi.

Allah kulunu kısmeti ile yaratır
Bahar çiçeğiyle güzeldir
Bebeler birbirinden huy kapar, ayranlarına su katar
Dişi kuş yapar yuvayı, içini dışını sıvayı sıvayı
Huylu huyundan vazgeçmez
Minareyi çalan, kılıfını hazırlar
Tatlı dil yılanı deliğinden çıkarır

Yuqoridagi misollarda ko‘ringani kabi, egalik qo‘shimchalari qo‘shilgan so‘z izofa uchun hokim qism vazifasini bajarib kelmoqda. Ammo unga bog‘langan tobe qismni maqollarga olib kirib bo‘lmaydi. Chunki qarashlilikni bildirib kelgan so‘z gapda boshqa gap bo‘lagi bo‘lib kelmoqda. Asosan ega bo‘lib kelmoqda, lekin ega tarkibida qaratqich kelishigi qo‘llanilmaydi. Shuning uchun qaratqich kelishigi uchun bir o‘zlik olmoshini orttirishga majburmiz. Ya’ni mantiqan bir o‘zlik olmoshi bor deb faraz qilamiz. Maqollarga esa ana o‘sha o‘zlik olmoshini olib kirib bo‘lmaydi. Bir jihatdan bu tur xususiyat bir oldingisiga o‘xshab ketadi, ammo undan farqi egalik qo‘shilgan so‘z kimga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirib kelgan so‘z ikkinchi xususiyatda tamomila tushib qolgan. Uchinchi xususiyatda esa tushib qolmagan, faqat qaratqich kelishigi

qo‘shimchasini ololmaydigan boshqa bir funksiyani bajarib kelgan. “*Allah kulunu kısmeti ile yaratır”* misolida ega “Allah” kesim “yarat*ır*” to‘ldiruvchi “kulunu” va “*kısmeti ile*” lekin to‘ldiruvchi tarkibidagi egalik qo‘shimchasi o‘zidan oldin qaratqich kelishigini olgan aniqlovchi talab etadi. Ammo qaratqich kelishigini olishi kerak bo‘lgan so‘z maqolda ega va to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kelgan.

4) Egalik qo‘shimchalari xoslikni bildirib kelgan maqollar.

Etme bulma dünyası

İğneyi kendine batır, çuvaldızı başkasına

Üzerine laf düşmedikçe konuşma

Bu turdagi maqollarda egalik qo‘shimchasi izofa hosil qilmagan. Aksincha, bir o‘zi xoslikni bildirib kelgan. Xoslik deganda bir narsa uchun xos bo‘lgan xususiyat tushuniladi. Egalik qo‘shimchalari ham bunday maqollarda o‘zi qo‘shilgan so‘zni boshqa bir so‘zga tegishli ekanligini emas, shu so‘zning o‘zgacha ekanligini bildirib keladi. “*Etme bulma dünyası”* maqolini misol qilib oladigan bo‘lsak, egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘z “*dünya*” so‘zidir, ammo egalik qo‘shimchasi “*dünya*” so‘zini biror-bir kishiga tegishli ekanligini bildirib kelmayapti. Shunchaki xoslikni bildirib kelmoqda. Bu jihatdan oladigan bo‘lsak, bu tur maqollarda egalik qo‘shimchasi o‘z vazifasidan chiqishi kuzatilgan deyishimiz mumkin. Chunki egalik qo‘shimchalari, birinchi bo‘limda aytib o‘tganimizdek, bir narsa-buyumni boshqa bir narsa-buyumga tegishli ekanligini bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollar tarkibida egalik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi izofa holatiga deyarli to‘liq mos tushadi. Bundan tashqari, izofalik bilan birga xoslikni ham bildirib keluvchi egalik qo‘shimchalari ham bor. Egalik qo‘shimchalari bir narsa-buyumni boshqa bir narsa-buyumga tegishli ekanligini bildirishini hisobga oladigan o‘lsak, xoslikni bildirib kelgan maqollarda egalik qo‘shimchasi o‘z vazifasidan chiqishi kuzatilgan deyishimiz mumkin. Shu tariqa, maqollarda kelgan egalik shakllari to‘rt xilda qo‘llanishiga guvohi bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asıl E. “Türkiye Türkçesi Ağizlari Üzerine Il Ve Ilçeler Düzeyinde Yapilmiş Lisansüstü Çalişmalar.” International Journal of Filologia 6: 2021. – S. 203-227.

2. Başdaş C. Orhun abidelerinde iyelik, belirtme ve yükleme hâli //Electronic Turkish Studies. – 2009. – T. 4. – №. 8. – S. 182-191.

3. Başdaş C. Türkçede üçüncü şahis iyelik eki ve zamir n'si //The Journal of Academic Social Science Studies. – 2014. – T. 30. – №. 1. – S. 147-161.
4. Bulak Ş. Üçüncü kişi iyelik eklerinin kelime türetme işlevi //Journal of International Social Research. – 2016. – T. 9. – №. 42. – S. 48-69.
5. Çelik N. Tarihi Türk Lehçelerinde İyelik Ekinin Gelişimi ve Değişimi //Aydın Tömer Dil Dergisi. – T. 2. – №. 2. – S. 57-78.
6. Choi H. W. Ana Altayca iyelik zamiri //Türk Dilleri Araştırmaları. – 1991. – T. 1991. – S. 191-196.
7. Daşdemir M. Anadolu ağizlarinda çekimli yapilarda ortaya çikan/+(e) n/eki ve buna bağli ses değişmeleri //Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. – 2010. – T. 14. – №. 36. – S. 1-16.
8. Dinar T. Türkçede Bir Deyimleşme Örneği: Gibime gelmek //Türkbilig. – 2016. – №. 31. – S. 145-152.
9. Halıcı K. H. Günümüz türkiye türkçesinde meşhur galatlar //Genç türkologlar çaliştayi bildiri kitabi. –2018. – S. 273-286.
10. Hunutlu Ü. Eski türkçeden oğuz türkçesine/-dik/+ isim+ iyelik eki>/-dik/+ iyelik eki+ isim //Dil Araştırmaları. – 2020. – T. 14. – №. 26. – S. 227-242.
11. https://www.dilbilgisi.net/ek-konu-anlatimi

TURK TILIDA KIRITMA KONSTRUKSIYALARNING BERILISHI

Madina SUBXONOVA
TDSHU, 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. L. Aminova

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk tilida kiritma konstruksiyalarning berilishi, kiritmalar qatnashgan gaplarning sintaktik tahlili, ularning gapda bajaradigan vazifasi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga turk tilida kiritmalarning berilishi turli xil misollar bilan ko'rsatilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kiritma konstruksiyalar, kirish so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma birikmalar, kiritmalarning xususiyatlari, unsur, tasviriy vosita, gap bo'laklari.

So‘zlovchining bayon etayotgan fikriga munosabatini bildiradigan so‘z yoki so‘z birikmasi kirish so‘z yoki kiritma birikma deyiladi. Ular xuddi undalmalar kabi gapning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishi mumkin. Ushbu qoida turk tilida keluvchi kiritma konstruksiyalarga ham taalluqli hisoblanadi. Kiritmalar so‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig‘i, inkori va hokazo), fikrning birovga nisbatlanishi, o‘z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi, fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo‘shimcha axboroti yoki izohi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

O‘zbek tilida kiritma konstruksiyalar uch turga bo‘lib o‘rganiladi. Bular *kirish so‘zlar, kiritma birikmalar va kiritma gaplardir.* Lekin turk tilida kiritmalar ikki turga bo‘linadi: *ara sözler* va *ara cümleler.* Bulardan *ara söz* kirish so‘zlar bo‘lsa, *ara cümle* esa kiritma gaplardir. Lekin bundan tashqari turk tilida kiritma konstruksiyalar yana boshqa nomlar ostida atalganini va bu borada olimlarning hali-hanuz aniq bir to‘xtamga kelolmaganini ham ko‘rishimiz mumkin. Quyida bu atamalarga bir qancha misollar keltirib o‘tamiz:

Ara tümce, aradeyi, araönerme, arasöz, aratümce, ara anlatım, parantez cümle, cümle dışı öge, açıklama cümlesi, ara cümlecik, katık cümlecik, iç içe birleşik cümle, saplamalı birleşik cümle, ara cümleciği, saplama cümle, açıklayıcı cümle va h.k.zo.

Mehmet Hengirmenning *“Türkçe Temel Dilbilgisi”*[1] (Turk tilining nazariy grammatikasi) kitobida kiritmalar haqida qisqa lekin shu bilan birga juda yaxshi ma’lumotlar berilgan. Bu qoidaga ko‘ra, sodda va qo‘shma gaplarda fikrni yanada yaxshiroq ifodalash uchun gap bo‘laklarining orasiga kirgan va o‘zi mustaqil gap bo‘la oladigan kiritmalarga *ara cümleler* deyiladi. Kiritma gaplar gapning ma’nosini aniqroq ifodalashga xizmat qiladi, lekin hech qachon gap bo‘lagi bo‘lolmaydi.

Masalan: *Gerçekler, **ben buna yürekten inanıyorum**, er geç ortaya çıkar.* [2]

Ushbu gapdagi *ben buna yürekten inanıyorum* jumlasi adresantning o‘z fikriga bo‘lgan ishonchining qat’iyligini ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Bu *ara cümle* ya’ni kiritma gapdir. Ushbu kiritma gapni olib tashlasak ham asosiy gapning ma’nosi va strukturasi o‘zgarmaydi. Masalan: *Gerçekler,* (ben buna yürekten inanıyorum) er *geç ortaya çıkar.*

Endi boshqa misolga nazar tashlaydigan bo‘lsak:

Gözlerimiz ***hiç süphesiz***, dünyaya açılan tek penceredir.

[1] M.Hengirmen. “Türkçe Temel Dilbilgisi”. Engin Yayın Evi. Ankara. 359-s.
[2] O‘sha asar. 360-b.

Bu gapdagi *hiç şüphesiz* bo‘lagi kirish so‘zdir va uni gap tarkibidan olib tashlasak ham gap qurilishi o‘zgarmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki kiritmalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu — gapning sintaktik qurilishiga ta’sir ko‘rsatmasligidir.

Kirish so‘z va kirish gaplar ma’lum strukturadagi gapga qo‘shimcha sifatida orttiriladi; o‘sha gapning sintaktik qurilishiga o‘zgarish kiritmaydi, lekin mazmun va intonatsiya jihatidan biroz o‘zgarish kiritadi. Masalan: U boradi. – To‘g‘ri, u boradi. (Bu yerda to‘g‘ri kirish so‘z bo‘lib so‘zlovchining gapga tasdiq munosabatini bildiryapti)

Turk tilida kiritma konstruksiyalar gapda ikki tomondan vergul, chiziqcha yoki qavs belgilari bilan ajratiladi. Lekin mashhur turk tilshunosi Z.Korkmaz keltirgan misollarda kiritmalarning ikki tomondan nuqtali vergul bilan ajratilganini ham ko‘rishimiz mumkin.

Elindeki notlara baqarak; ***bakmasa da olurdu ya***; konuştu. [1]

Kirish so‘zlar grammatik yoki sintaktik jihatdan biror bir so‘z turkumiga oid bo‘lishi shart emasdir. Masalan: *Ne yaptığımı – **belki**- tahmin edebilirsiniz* gapidagi belki so‘zi hech qaysi so‘z turkumiga tegishli emasligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek kirish so‘zlar faqatgina bitta so‘z shaklida kelishi kerak degan qarash ham noto‘g‘ri. Chunki kirish so‘zlar ba’zan bitta ba’zan esa bir nechta so‘zlardan iborat bo‘lishi ham mumkin.

Kiritmalarni so‘zlovchining gapda qanday munosabat ifodalashiga qarab guruhlarga bo‘lib o‘rganish, shuningdek ularni turk va o‘zbek tilidagi farqini yanada yaxshiroq tushunish uchun bir-biri bilan taqqoslash mumkin.

O‘zbek tilida kiritmalarning ma’no jihatidan turlanishi:

1. Ta’kidlash, tinglovchining diqqatini bayon qilinayotgan fikrga tortish: *takrorlayman, muhimi, ishonsangiz, masalan, misol uchun, ta’kidlayman, aytish kerakki.*

2. Subyektiv munosabat: *baxtimizga, baxtga qarshi, o‘ylayman, umid qilaman, o‘ylaymanki, shubhasiz, ehtimol, shu ma’noda, qaysidir ma’noda, afsuski, attang, essiz.*

3. Fikrni bayon qilish usuliga munosabat: *to‘g‘risini aytganda, bir so‘z bilan aytganda, sodda qilib aytganda, aniqrog‘i, qisqasi, gapning indallosi.*

4. Fikrning bog‘lanishini, matn tarkibiy qismlari orasida munosabat, ichki aloqa kabilarga so‘zlovchining qanday qarashini: *demak, xulosa, sababi, shunday qilib, ko‘rinadiki, ma’lum bo‘ladiki, buning ustiga, odatda.*

[1] Z. Korkmaz. “Gramer terimleri sözlüğü” Ankara. 1992-y. Türk Dil Kurumu Yayınları. 13-b.

5. Aytilayotgan fikrning kimga tegishli ekanligini bildiruvchi so‘zlar: *menimcha, fikrimcha, uning so‘ziga qaraganda, aytishlaricha, xabar berishiga qaraganda.*

6. Fikrning tartibini, izchilligini bildiradigan so‘zlar: *birinchidan, avvalo, ikkinchidan.*[1]

Turk tilida kiritmalarning ma’no jihatidan turlanishi:

1. Fikrning haqqoniyligini tasdiqlovchi so‘zlar: *aslında, doğrudan, doğrusu, elbette, gerçekten, hakikaten, sahiden.*

2. Taxmin so‘zlari: *belki, diyesin, galiba, güya ki.*

3. Gapda majburiyat, hukm kabi hissiyotlarni aks ettiruvchi so‘zlar: *gerek, hükmen, mutlak, şüphesiz (ki), kuşkusuz (ki).*

4. Umumlashtiruvchi va natija bildiruvchi so‘zlar: *böylelikle, demek (ki), hülasa, nihayet, umumiyetle, genellikle, kısacası.*

5. Aytilayotgan fikrning kimga tegishli ekanligini bildiruvchi so‘zlar: *bence, diyilene göre.*

6. O‘xshatish so‘zlari: *âdeta, sanki, güya*.

7. Subyektiv munosabat: *maalesef, acaba, keşke.*

Bulardan ko‘rinib turibdiki turk va o‘zbek tillarida kiritma konstruksiyalar ham funksional jihatdan, ham turlarga bo‘lib o‘rganish jihatdan bir biriga juda o‘xshashdir.

Xulosa: Bulardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo‘lsak kiritmalarning turk tilida umumiy va o‘ziga xos jihatlari quyidagilardir:

► Grammatik shakllanganlik nuqtayi nazaridan kirishlar rang-barangdir. Unda tusangan fe’llar ham (söylesem), tuslanmagan fe’llar ham (böylece), otlar ham (şüphesiz), olmoshlar ham (bence) kirish vazifasida keladi. Ammo ular, ba’zan qisman, ba’zan butunlay o‘z lug‘aviy ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi.

► Kiritmalarning barchasi “so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini bildirish” umumiy ma’nosi ostida birlashadi.

► Kiritmalarning gapdagi o‘rni qat’iy emas.

► Kiritmalar gap bo‘laklaridan, gapdagi boshqa elementlardan pauza orqali ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘.G‘ulomov, M.A. Asqarova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1965.

2. M.Hengirmen. “Türkçe Temel Dilbilgisi”. Engin Yayın Evi. Ankara.

[1] R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis”. Toshkent. 2009. 127-b.

3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis”. Toshkent. 2009.
4. Z. Korkmaz. “Gramer terimleri sözlüğü” Ankara. 1992-y. Türk Dil Kurumu Yayınları.

TURK TILIDA HAMDARDLIK MA’NOSINI IFODALOVCHI SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARI

Feruza MURODOVA
TDSHU, magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. L. Aminova

Annotatsiya: Insonlar ma’lum bir vaziyat masalan, ishdan ayrilish, oilaning buzilishi, biznesda inqirozga uchrash, yutqazish, ma’raka, yaqin insonini vafoti kabi paytlarda hamdardlikni ma’lum ibora, birikma va so‘zlar bilan izhor etishadi. Turkiya madaniyatida ham birovning qarindoshi vafot etganida aytiladigan qolip birliklar bor. Biror kishining qarindoshi olamdan o‘tganida ta’ziya bildirish o‘sha insonlar bilan birga ekanligingizni va ularni qo‘llab-quvvatlashingizni anglatadi. Bunday kunlarda odamlar juda g‘amgin bo‘lishadi. Shu sababli ular bilan birga bo‘lish, dardlarini baham ko‘rish do‘st sifatida qilish to‘g‘ri ishdir.

Ushbu maqolada turk tilidagi ta’ziya davrida ta’ziya egalariga bildiriladigan hamdardlik ma’nosini anglatuvchi birliklarni talqin qilamiz. Ta’ziya va janoza egalariga bildiriladigan turkcha birliklarni bir oraga to‘plab, ularni talqin qilishni joiz deb bildik. Bu birliklar turkchada umumiy qilib *“Baş sağliği sözleri”* deb nom berilgan. Buning bilan birga, nazokat ifodasi kuchaytirish, insonlar uchun yaqinlikni bildirish maqsadida yana ham nozikroq va samimiyroq shaklda ta’ziyalarini bildirish mumkinki, ularning asosiylarini ushbu maqolaga to‘plashga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Hamdardlik, empatiya, so‘z birikmasi va birliklar, “Baş sağlığı dilemek”, ta’ziya.

Insonning hayotdagi asosiy maqsadlaridan biri bu baxtli bo‘lishdir. Hayotda siylai rahmsiz to‘liq baxtga erishish mumkin emas. Inson yomon va achchiq kunlarida dardlarga beriladi. Bu dardlardan xalos bo‘lishning yo‘llaridan biri esa o‘ziga mos hamdard insonga dardini ochishdir. Insonning bir dardli insoning hissiy tuyg‘ularni boshdan kechirish qobiliyati

hamdardlik deb ataladi. Bu qobiliyat psixologiya fanida empatiya so‘zi bilan izohlanadi. Zamonaviy psixologiya fanida bu so‘zning ma’nosi boshqa odamning ichki holatini tushunish, hissiy hayotiga qo‘shilish, o‘z tajribalari bilan bo‘lishish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Empatiya – bu atrofingizdagi odamlarning ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini ongsiz ravishda anglash[1].

Empatiya, hamdardlik yoki darddoshlik boshqa birovning his-tuyg‘ularini, holatini yoki xatti-harakatlaridagi motivatsiyani tushunish va o‘zida his qilishni anglatish bilan birga, u o‘z his-tuyg‘ularini boshqa narsalarda aks ettirish uchun ham ishlatiladi.

Hamdardlik bildirmoq (yoki izhor qilmoq) 1) yaxshi gaplar bilan birovning dardini, xafaligini yozishga, unga tasalli berishga urinmoq, taskin bermoq. Farhod achinganday dardiga hamdardlik izhor qilmoqchi bo‘lib, unga yaqinroq suriladi. A. Xakimov, “ilon izidan; 2) ko‘ngil ko‘tarish uchun, yaqin kimsasi o‘lgan kishining qayg‘usiga sherik ekanligini bildirmoq”. Umurzoq otaning vafoti munosabati bilan institut kollektivi o‘z xodimiga hamdardlik bildirdi. D.Nuriy, “Osmon ustuni”[2] .

Chaqaloqlar ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, bizning tug‘ma empatiya qobiliyatimiz yuqori darajada bo‘lsa-da, ma’lum sharoitlarda tezda yo‘qolishi mumkin bo‘lgan qobiliyatdir.

Ijobiy maqsadlarda foydalanilgan empatiya hamkorlikni, mahsuldorlikni, farovonlikni va baxtni oshiradi. Lekin bu qobiliyat yomon maqsadlarda foydalanilganda manipulyatsiya holatiga aylanib qoladi.

Bir so‘z bilan aytganda, hamdardlik/empatiya – bu odam o‘zini boshqa odamning o‘rniga qo‘yib, uning his-tuyg‘ularini va fikrlarini to‘g‘ri tushunishidir. Insoniy munosabatlar empatiya orqali rivojlanadi. Odamlar o‘rtasidagi janglar vaqt o‘tishi bilan kamayadi va yo‘qoladi. Shunday qilib, odamlar biror bir vaziyatga boshqa odamlar qanday munosabatda bo‘lishini bilishadi va shunga mos ravishda harakat qilishadi.

Insonlar ma’lum bir vaziyat masalan, ishdan ayrilish, oilaning buzilishi, biznesda inqirozga uchrash, yutqazish, ma’raka, yaqin insonini vafoti kabi paytlarda hamdardlikni ma’lum ibora, birikma va so‘zlar bilan izhor etishadi.

Ushbu maqolada turk tilidagi ta’ziya davrida ta’ziya egalariga bildiriladigan hamdardlik ma’nosini anglatuvchi birliklarni talqin qilamiz.

---

[1] Ciaramicoli A., Ketcham K., The Power of Empathy: A Practical Guide to Creating Intimacy, Self-understanding, and Lasting Love in Your Life Hardcover. Boston, April 1, 2000. P.23.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati H-harfi. (A.Madvaliyev tahriri ostida). Toshkent. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2008. B. 497.

Turk tilida ta’ziya bilan bog‘liq hamdardlik ma’nosini ifodalovchi birliklar talqini.

Inson kuchlı ijtimoiylashgan mavjudotdir. Ular oilalari bilan yashaydilar va ularning oilaviy rishtalari juda mustahkam. Biror bir odamning qarindoshi vafot etganida, uning juda qayg‘uli payt hisoblanadi. Shu sababli, yaqinlaringiz vafot etganida, tezda dardi yengillashishi uchun uni qo‘llab-quvvatlash va u bilan birga ekanligingizni his qilish muhimdir.

Turkiya madaniyatida birovning qarindoshi vafot etganida aytiladigan qolip birliklar bor. Biror kishining qarindoshi olamdan o‘tganida ta’ziya bildirish o‘sha insonlar bilan birga ekanligingizni va ularni qo‘llab-quvvatlashingizni anglatadi. Bunday kunlarda odamlar juda g‘amgin bo‘lishdi. Shu sababli ular bilan birga bo‘lish, dardlarini baham ko‘rish do‘st sifatida qilish to‘g‘ri ishdir.

Musulmon urf-odatlarida tanishining qarindoshi vafot etganida janoza namoziga qatnashish va ularga hamdardlik bildirish an’anaga aylangan. Dafn etilganidan keyin odamlar ta’ziya uyiga borib, marhumning yaqinlariga hamdardlik bildiradilar.

Ta’ziya (arab. – yupatish, hamdardlik bildirish) – azador kishiga tasalli berish, ahvol so‘rash odati. Ta’ziyada marhumning oila a’zolari va yaqinlariga qarindoshlari, do‘st-yorlari, qo‘shnilari, hamkasblari tomonidan hamdardlik bildiriladi. Islomda ta’ziya bildirish savob ishlardan hisoblanadi. Vafot etgan birodarga eng kerakli va foydali narsa uni duo qilishdir. Janoza va ta’ziyadan maqsad aynan shunday duodir. Ta’ziyaning muddati va adadi 3 kun ichida bir bor ta’ziya bildirish, mabodo buning iloji bo‘lmasa, so‘ng bildirsa ham bo‘ladi. Kimsaning vafoti haqidagi yozma xabar – ta’ziyanoma (nekrolog), motam marosimi o‘tkazilayotgan xonadon – ta’ziyaxona, motam tutgan, azador kishi – ta’ziyachi deyiladi[1].

Ushbu maqolada ta’ziya va janoza egalariga bildiriladigan turkcha birliklarni bir oraga to‘plab, ularni talqin qilishni joiz deb bildik. Bu birliklar turkchada umumiy qilib *“Baş sağliği sözleri”* deb nom berilgan. Chunki turk millatining madaniyatida bir ko‘rgilikka uchragan kishi uchun: *“Başınız sağ olsun!”*- deb hamdardlik bildiriladi. Bundan tashqari, biror qiyin vaziyatni boshdan kechirgan inson uchun: *“Geçmiş olsun!”*- deb hamdardlik bildirilsa, vafot etgan inson uchun: *“Mekanı cennet olsun!”*- deb empatiya bildiriladi. Bular eng ko‘p qo‘llanilgan birliklardir. Buning bilan birga, nazokat ifodasi kuchaytirish, insonlar uchun yaqinlikni bildirish maqsadida yana ham

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi T – harfi. Toshkent. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2005. B. 178.

nozikroq va samimiyroq shaklda ta’ziyalarini bildirish mumkinki, ularning asosiylarini ushbu maqolaga to‘plashga harakat qildik:

1. *Ailesine başsağlığı diliyoruz, mekânı cennet ruhu şad olsun.*
2. *Allah bütün insanlara, bütün kullarına güzel ölümler nasip etsin, mekanımız cennet olsun, kabrimiz iman dolsun. Allah’ın huzurunda günahlarımız af, başımız sağ olsun*
3. *Allah geride bıraktıklarına sabır ihsan eylesin, kendisinin de mekanlarını cennet eylesin.*
4. *Allah mekanını cennet eylesin, (ismini kullanarak) çok iyi insandı.*
5. *Allah ölen kişiye rahmet, sizlere sabrı cemillerini eylesin.*
6. *Allah’ım mekanını cennet eylesin dualarımızı kabul etsin, acınızı sizinle paylaşıyoruz. Allah güç versin ailesine ve yakınlarına.*
7. *Allah’ım ölen merhuma rahmet sizlere de sabrı cemillerini eylesin. Başınız sağolsun, Allah geride kalanlara uzun ömürler nasip eylesin.*
8. *Başınız sağolsun. Dualarımız Allahtan merhum/merhumenin tüm günahlarını affederek cennetinde en güzel yeri hediye etmesidir.*
9. *Bir gün gelir biter bu canda bir gün gelir gülen gözlerimiz ağlar bir anda, herzaman dua edelim kalbimizi temizleyelim ölümü hayatımızda hissedelim başınız sağolsun.*
10. *Bu acı gününüzde yanınızda olmayı isterdik, bedenimiz orda olmasa da kalbimizin sizinle olduğunu bilin. Başınız sağolsun…*
11. *Bugün gönlümüz hüzünlü, gözlerimiz yaşlı olsa da, canımız kardeşimizin güzel geçen ömrü son bulsa da Allah’ım onu cennetine koysun. Mekânı cennet olsun… Sizlerin de başı sağolsun…*
12. *Can dostumuzu kaybetmenin derin üzüntüsü içerisindeyiz. Merhuma Allah’tan rahmet diler, kederli ailesine ve sevenlerine sabrı cemil dileriz.*
13. *Cennetin suyu ruhuna işlesin, toprağı bol ruhu huzurlu olsun başınız sağolsun.*
14. *Dualarımız birlikte olsun dileğimiz tek olsun, mekânı cennet olsun başımız sağ olsun.*
15. *Gönlünüzdeki keder bizimde gönlümüzün en derin yerindedir. Merhum kardeşimize Allah’tan cennet mekanlar dileriz geride kalan siz sevgili dostlarımıza da sabırlar dileriz. Başınız sağolsun…*
16. *Gönlünüzdeki kederi paylaşarak en derin üzüntülerimi belirtmek isterim. Geride kalanlara uzun ömür diliyorum.*
17. *Güzel günde nasıl yanınızdaysak, kötü gününüzde de her zaman yanınızdayız, başınız sağolsun…*
18. *Hayata elveda deyip, ölüme merhaba diyen ruhlara birlikte dua edelim. Ruhları şad mekânları cennet olsun. Hepimizin başı sağ olsun.*

19. Hayatımızı idame ettirmekte olduğumuz fani dünyada kötü gününüzde yanınızda olduğumuzu unutmayınız, başınız sağolsun… Allah yardımcınız olsun…

20. Hayatın acı gerçekleri gelir bir gün vurur ummadığımız bir anda, acınızı içten paylaşıyoruz ruhuna dua ediyoruz. Başınız sağ olsun.

21. İnsan doğar büyür yaşar ve ölür, önemli olan yaşadığı süre içindeki görevleri dualarımız muhteremle olsun başımız sağolsun…

22. Mutluluğu paylaştığımız en güzel günlerde yanınızdaydık fakat bugün acı gününüzde olamıyoruz. Rabbim sabırlar ihsan eylesin.

23. Mutluluklarınızda yanında olmuşken kardeşimizin cenazesinde uzaklarda olmak bize derin keder vermekte. Yanınızda olamasak da kalbimizin sizlerle olduğunu unutmayınız. Başınız sağolsun…

24. Ölen dostumuza Allah'ım rahmetlerini bol bol ihsan eylesin. Onu cennetine buyur eylesin. Geride kalan sevdiklerine de bol bol sabreylesin…

25. Ölen kişinin niyetini biliyorduk, Allah da ona niyeti gibi bir yer versin.

26. Ölen kişinin yeri nur, mekanı cennet olsun.

27. Ölüm bir son değil başlangıçtır. Ölen de yok olmaz. Allah sevdiği kullarını yanına alırmış. Merhumun mekânı cennet olsun, Allah'ım sizlere de sabırlar versin, başınız sağolsun.

28. Ölüm her insana gelecek, ummadığı bir anda, imanımızı kuvvetli tutalım ve Allah'a dua edelim, yaşanmış güzel günlerin hatırına ölümü unutmayalım. Acıyı da paylaşalım bir arada… Başınız sağ olsun.

29. Sevapları günahlarından çok olsun, inşallah mekanı cennet olsun başınız sağolsun…

30. Sevgili dostumuz merhume Allah'tan rahmet dileriz. Rabbim mekânını cennet eylesin geride kalanlarına da sabır ihsan eylesin.

31. Sevgili dostumuzu kaybetmenin üzüntüsü içerisindeyiz. En yakın zamanda sizlerle olacağız.

32. Sevgili dostumuzu kaybetmiş olmanın derin üzüntüsünü yaşıyoruz. Merhuma Allah'tan rahmet, ailesine ve yakınlarına başsağlığı dileriz.

33. Topraktan geldik toprağa gideceğiz, yaşadığımız hayatın hesabını toprak da vereceğiz, acınızı yürekten paylaşıyoruz, dualarımızı kalpten ediyoruz, başınız sağ olsun.

34. Vefat eden değerli merhumun ailesine dualarımızı, acılı kederli ailesine başsağlığı diliyoruz…

35. Vefat eden değerli merhumun, acılı ve kederli ailesine, başsağlığı diliyoruz.

36. Vefatı ile bizlere acıyı ve kederi bıraktı bu dünyada, Yüce Allah'ım, dualarımızla merhuma cennet yüzü görmeyi nasip etsin, acınızı gözyaşlarımızla paylaşıyoruz başınız sağ olsun.

37. Yanınızda olamasak da kalbimizin sizlerle olduğunu unutmayınız. Başınız sağolsun…

38. Yüce Allah'tan merhum/merhumenin tüm günahlarını affederek, cennetinde en güzel yeri hediye etmesini temenni ederiz. Başınız sağ olsun[1].

Ko‘rinib turibdiki, bu birliklarning deyarli barchasi duo ko‘rinishidadir. Chunki Turkiyada davlat dini Islom dini va aholining ko‘pchiligi bu dinga yuz yillardan beri e’tiqod qilib keladi. Inson vafot etgan vaqtda ham hamdardlik Islom aqidasidan chiqmagan holatda bo‘lishi tabiiydir. Fikrimiz dalili sifatida yuqoridagi duo jumlalaridagi *“Alloh”, “Jannat”, “gunoh”, “sabr”, “marhum”* kabi so‘zlar bunga guvohlik beradi.

Endi bu jumlalar tarkibidagi birikmalar va birliklarni talqin qilishga kelsak, avvalo, shuni e’tiborga olishimiz kerakki, bizning maqsadimiz, birliklarni tahlil qilishdir. Demak, yuqorida keltirgan jumlalarimiz ichidan biz so‘z birikma va til birliklarini ajratib olishimiz kerak bo‘ladi. Bu so‘z birikmalari va birliklar quyidagichadir:

1. *Mekânı cennet, ruhu şad olsun.*
2. *Allah mekanını cennet eylesin, (ismini kullanarak) çok iyi insandı.*
3. *Allah ölen kişiye rahmet, sizlere sabrı cemillerini eylesin.*
4. *Başınız sağolsun.*
5. *Can dostumuzu kaybetmenin derin üzüntüsü içerisindeyiz.*
6. *Mekânı cennet olsun, başımız sağ olsun.*
7. *Geride kalanlara uzun ömür diliyorum.*
8. *Hayata elveda deyip, ölüme merhaba diyen ruhlara birlikte dua edelim.*
9. *Allah yardımcınız olsun.*
10. *Rabbim sabırlar ihsan eylesin.*
11. *Ölen kişinin niyetini biliyorduk, Allah da ona niyeti gibi bir yer versin.*
12. *Ölen kişinin yeri nur, mekanı cennet olsun.*
13. *Ölüm bir son değil, başlangıçtır.*
14. *Ölen de yok olmaz.*
15. *Sevapları günahlarından çok olsun.*
16. *Rabbim mekânını cennet eylesin geride kalanlarına da sabır ihsan eylesin.*
17. *Topraktan geldik toprağa gideceğiz.*
18. *Başsağlığı diliyoruz.*

[1] https://www.kulturportali.gov.tr/turkiye/bitlis/kulturatlasi/taziye-bassagligi

19. Nurlar içinde yatsın.

Yuqoridagi birliklardan anglashiladiki, inson vafot etgandan keyin ortida kimnidir qoldirib ketadi. Qolgan insonlar esa uning ortida duo etadilar. Boshqa insonlar esa marhumning yaqinlariga bosh sog‘lig‘i tilashadi. Nega aynan turkchada marhum yaqinlariga “*Başınız sağolsun*” iborasi qo‘llanadi? Bu birikma ichida “bosh” so‘zi kelganligi uchun ko‘pchilik insonlar *“Ölen öldü, sizle sağ olun”,* shaklida tushunishadi. Aslida bu birikmaning ma’nosi bunday emas. Bu jumadagi “*sağ olsun*” fe’li eskidan biror bir yara tuzalib ketsin ma’nosidagi “sog‘aysin” so‘zini ifoda etgan. *“Baş”* so‘zi ham aslida insonning kallasi ma’nosida emas, aynan “*yara*” ma’nosida kelgan. Ya’ni bu birlikning ma’nosi eskidan *“Yarang tuzalib ketsin”* ma’nosida edi. Oradan vaqt o‘tishi bilan ma’no ko‘chishning metonimiya hodisasi sodir bo‘ldi. Inson vafot etgandan keyin ortda qolgan yaqinlari ko‘nglida yara qoldiradi. Aynan ana shu yaraga ishora sifatida ko‘nglingdagi yara tuzalib ketsin ma’nosidagi “*Başınız sağolsun*” o‘rtaga chiqadi degan fikrni ilgari surmoqchimiz.

Yuqoridagi qolgan birliklar deyarli islom aqidasi natijasida shakllangandir. “*Topraktan geldik, toprağa gideceğiz*”, “*Mekânı cennet, ruhu şad olsun*”, “*Ölüm bir son değil, başlangıçtır*” kabi birliklar Alloh insonni tuproqdan yaratganligiga, jannatning va ruhning mavjudligiga ishonch, inson o‘lgan vaqti faqatgina tanasi o‘ladi ruhi esa yashashda davom etishi va haqiqiy hayot o‘limdan so‘nggina bo‘lishiga ishoratdir. Demakki, bu jumlalar hamdardlik bilan bir paytda duo, e’tiqod, diniy ishonch, diniy bilimlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jumlalarning har birida islom tushunchasining bir parchasi yotadi. Bu tushunchalar yuz yillar davomida shakllangan va hozirgi ko‘rinishiga kelgandir.

Xulosa. Empatiya, hamdardlik yoki darddoshlik boshqa birovning his-tuyg‘ularini, holatini yoki xatti-harakatlaridagi motivatsiyani tushunish va o‘zida his qilishni anglatish bilan birga, u o‘z his-tuyg‘ularini boshqa narsalarda aks ettirish uchun ham ishlatiladi. Turkiya madaniyatida birovning qarindoshi vafot etganida aytiladigan qolip birliklar bor. Biror kishining qarindoshi olamdan o‘tganida ta’ziya bildirish o‘sha insonlar bilan birga ekanligingizni va ularni qo‘llab-quvvatlashingizni anglatadi.

Ushbu maqolamizda biz ta’ziyada hamdardlik sifati turk tilida qo‘llaniladigan 38 ta birlikni yig‘ishga muvaffaq bo‘ldik. Ular tarkibida ibora va qolip shakliga aylangan 19 ta so‘z birikmasini ajratib oldik. Bu birikmalarda Alloh insonni tuproqdan yaratganligiga, jannatning va ruhning mavjudligiga ishonch, inson o‘lgan vaqti faqatgina tanasi o‘ladi ruhi esa yashashda davom etishi va haqiqiy hayot o‘limdan so‘nggina bo‘lishiga

ishora borligini koʻrishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib, bu jumlalar hamdardlik bilan bir paytda duo, eʼtiqod, diniy ishonch, diniy bilimlarni ham oʻz ichiga oladi.

Bundan tashqari, "*Başınız sağolsun*" iborasidagi "sağ olsun" feʼli eskidan biror bir yara tuzalib ketsin maʼnosidagi "sogʻaysin" soʻzini ifoda etgan. "Baş" soʻzi ham aslida insonning kallasi maʼnosida emas, aynan "yara" maʼnosida kelgan. Yaʼni bu birlikning asl maʼnosi eskidan "Yarang tuzalib ketsin" maʼnosida edi. Oradan vaqt oʻtishi bilan maʼno koʻchishning metonimiya hodisasi sodir boʻldi. Inson vafot etgandan keyin ortda qolgan yaqinlari koʻnglida yara qoldiradi. Aynan ana shu yaraga ishora sifatida koʻnglingdagi yara tuzalib ketsin maʼnosidagi "Başınız sağolsun" oʻrtaga chiqadi degan fikrni ilgari surmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Arkonaç, O. (1999). Psikiyatri Sözlüğü. İstanbul, Nobel. Tıp Kitabevleri. 1999.
2. Basch, M.F. Empathic understanding: A review of the concept and some theoretical considerations. JAm Psychoanal Assoc, 31, 1983.101-126.
3. Ciaramicoli A., Ketcham K., The Power of Empathy: A Practical Guide to Creating Intimacy, Self-understanding, and Lasting Love in Your Life Hardcover. Boston, April 1, 2000. P.23.
4. Gülseren, Ş. Eşduyum (Empati): Tanımı ve kullanımı üzerine bir gözden geçirme. Türk Psikiyatri Derg.,12. 2001.133-145.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati H-harfi. (A.Madvaliyev tahriri ostida). Toshkent. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2008. B. 497.
6. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi T – harfi. Toshkent. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2005. B. 178.
7. https://www.birbilenesorduk.com/yasam/50-secilmis-bassagligi-mesaji-taziye-ve-vefat-mesajlari/
8. https://www.gazetevatan.com/gundem/basin-sagolsun-ne-demek-basiniz-sagolsun-ne-zaman-denir-2017758
9. https://www.kulturportali.gov.tr/turkiye/bitlis/kulturatlasi/taziye-bassagligi
10. https://www.nkfu.com/empati-ile-ilgili-sozler-empati-hakkinda-soylenmis-guzel-sozler-kurulmus-cumleler/

XITOY TILIDA IQTISODIYOT, BANK – MOLIYA TERMINLARINING LEKSIK - SEMANTIK, STRUKTUR TAHLILI

Safiyaxon ABDULLAYEVA
TDSHU, Xitoy filologiyasi kafedrasi 4 -kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. L.A. Sultanova

Annotatsiya: Termin va terminologiyaga borasida tilshunos olimlarning olib borgan ilmiy ishlarini o‘rganib chiqish; termin va terminologiya haqida asosiy tushunchalarni shakllantirish; iqtisodiyot, bank – moliya terminlarining yasalishining leksik – semantik tahlilini yoritib berish va struktur tahlil qilish.

Kalit so‘zlar: Termin, terminologiya haqida tushuncha, leksika, so‘z qo‘shilishi, iqtisodiyot, bank – moliya terminlar.

Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlar tizimi sifatida ta’riflanadi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Umum-iste’moldagi so‘zlardan farqli ravishda terminlarning qo‘llanishi ma’lum nazorat ostida bo‘ladi. Termin o‘z mohiyatiga ko’ra, fikrni, maqsadni yaqqol, aniq qilib berishda ma’nosi aniqlashgan, ishlatilish darajasi nihoyatda cheklangan, muayyan bir tushunchani ifodalab kelgan so’zlar majmuidir. Terminlarning muhim xususiyati – ular ko‘p ma’noli bo‘lmaydi, ko‘chma ma’nolarda ishlatilishi nihoyatda kam uchraydi.

Terminologiyaga sohasida quyidagi ikki ta’rifni keltirish mumkin. 1) leksika – nutqning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. A. Hojiyev: “Terminologiya tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika.” [1] Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma’lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o‘sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi. Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan o‘zlashtirish, yangi so‘z yasash, ayrim kategoriyalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalar kiradi. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi

[1] Hojiev. A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.:1985. 94 b.

va muntazamligidir. Terminologiya ma’lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma’lum terminologik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.[1]

So‘z qo‘shilishi (词的复合 - cí de fùhé) natijasida vujudga keladigan leksik birlik – murakkab so‘z (复合词 – fùhécí) deb ataladi. Murakkab so‘zlarning asosiy qismi ikki morfemadan iborat bo‘lgan leksik birliklar tashkil etadi. Ular putunxuada asosiy leksik birliklar bo‘lib hisoblanadi.[2] Bunday so‘zlar xuddi o‘zbek tili leksikologiyasidagi “ko‘zoynak”, “qo‘lqop” singari so‘zlarga o‘xshab yasaladi.

Xitoy tilidagi murakkab so‘zlar ichki tuzilish formasining yorqinligi bilan ajralib turadi. Murakkab so‘z ma’nosi shu so‘zni hosil qiluvchi morfemalar ma’nosiga bog‘liq. Lekin, ba’zi hollarda, murakkab so‘zning aniq ma’nosi tarkibiy qismlar ma’nolarining birlashuvi, ularning boshlang‘ich ma’nolarining o‘zgarib yangi mazmun – mohiyati kasb etishi natijasida vujudga keladi. Bunda, murakkab so‘zni hosil qilgan o‘zaklar boshqa so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa ham, hosil bo‘lgan murakkab so‘z boshqa bir so‘z turkumiga tegishli bo‘lishi mumkin.[3] Ikki bir bo‘g‘inli so‘zlar qo‘shilishi natijasida yasalgan so‘z qismlari orasida aloqa mavjud bo‘ladi. Ushbu aloqa teng (kopulyativ) yoki tobe bo‘lishi mumkin. Teng aloqada so‘zning har ikki qismi o‘z ma’nosini yo‘qotmaydi, balki saqlab qoladi. Tobe aloqada esa aksincha so‘zning u yoki bu qismi o‘z ma’nosini yo‘qotib boshqasiga tobelanib qoladi. Masalan, 兑换 - [duìhuàn] – ayirboshlash atamasi (兑- [duì] – ayirboshlash + 换 – [huàn] – almashtirish); 消费 – xiāofèi – xarajat (消 – [xiāo] – yo‘q bo‘lib ketish + 费 – [fèi] – sarflanish); 办理 – bànlǐ — amalga oshirmoq (办 – [bàn] – qilmoq, tayyorlab qo‘ymoq + 理 – [lǐ] -to‘g‘rilamoq, amalga oshirmoq, boshqarmoq); 租赁 - [zūlìn] – ijaraga olish (租 ijaraga olmoq + 赁 ijara haqi); 生产 – [shēngchǎn] – ishlab chiqarish (生 – [shēng] – yaralish, tug‘ilish, o‘stirish + 产 – [chǎn] – yaratish, ishlab chiqarish) ma’nolarini beradi. “Kopulyativ so‘z yasalishi tushunchasi ostida vazifaviy-sintaktik va semantik teng huquqli morfemalar (leksema)ning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladigan, yagona ma’no kasb

[1] Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T,: 1977. 45 b.
[2] Горелов В.И. Лексикология современного китайского языка. – М., 1984.-С. 20.
[3] Sultonova Lola Akmalovna. Xitoy tili leksikologiyasi. Toshkent 2013. 25-bet.

etadigan so‘zlar yasalishi tushuniladi” (Semenas L.A. Xitoy tilida kopulyativ so‘z yasalishining sintagmatik semantikasi haqida).

Xitoy tilida ikki bo‘g‘inli so‘zlarning qismlari orasida 4 usuldagi tobelanish aloqasi mavjud:

Birinchi usulda ikki bo‘g‘inli so‘zning ikkinchi qismi predmetni anglatsa, birinchisi uning belgisini ifodalab keladi, masalan: 租金 – [zūjīn] – ijara haqi, ijara puli (金 – [jīn] – pul + 租 – [zū] – ijara puli), 租税 – [zūshuì] – ijara solig‘i (税 – [shuì] – soliq, 租 – [zū] – ijara).

Ikkinchi usulda ikki bo‘g‘inli so‘zning birinchi qismi harakatni, ikkinchi qismi esa natijani ifodalab keladi, masalan: 上涨 – [shàngzhǎng] – o‘smoq (价格上涨 – [jiàgé shàngzhǎng] — narx o‘sishi) (上 – [shàng] – yuqoriga harakatlanmoq + 涨 - [zhǎng] — o‘sish), 提高 - [tígāo] – ko‘tarish (提高程度 – [tígāo chéngdù] darajani ko‘tarish) (提 – [tí] – ko‘tarish + 高 – [gāo] – baland), 降低 – [jiàngdī] – pasayib ketish (降 – [jiàng] – pasayish, inqiroz + 低 – [dī] past) kabi so‘zlar moyil bo‘la oladi.

Uchinchi usulda ikki bo‘g‘inli so‘zning birinchi qismi harakatni, ikkinchisi esa obyektni ifodalaydi, masalan: 投资 – [tóuzī] – investitsiya (投 – [tóu] – tashlamoq, qo‘ymoq + 资 – [zī] – pul, mablag‘, subsidiya), 透支 – [tòuzhī] — overdraft (kreditning oshib ketishi) (透 – [tòu] – o‘tkazmoq, kesib o‘tmoq + 支 – [zhī] – to‘lov, pul), 份额 – [fèn’é] – hissa, ulush (份 – [fèn] – qism + 额 – [é] – pul, mablag‘) degan ma’nolarda keladi.

To‘rtinchi usulda ikki bo‘g‘inli so‘zning birinchi qismi subyektni, ikkinchisi esa harakatni ifodalab keladi. Alohida hollarda ikki bo‘g‘inning ikkinchi qismi belgini, birinchisi esa, belgining egasini ifodalab keladi, masalan: 存款 – [cúnkuǎn] – depozit (存 – [cún] – saqlamoq, mavjud bo‘lmoq + 款 – [kuǎn] – summa, mablag‘), 负债 – [fùzhài] – passiv (bankning qarz yoki majburiyatlari majmui) (负- [fù] – o‘z bo‘yniga olmoq + 债 – [zhài] – majburiyat, vazifa), 保证 – [bǎozhèng] – kafolat (保 – [bǎo] – asramoq, himoya qilmoq + 证 – [zhèng] – sertifikat, hujjat) kabi ma’nolarda keladi.

Mamlakatlar va mintaqalararo munosabatlar mustahkamlanib borar ekan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tibbiy, ilmiy – texnik va boshqa qator sohalarda munosabatlar ham rivojlanadi. Shu sababdan ham, ushbu

sohalarga oid ilmiy ishlar, maqola, lug‘at va qo‘llanmalarga bo‘lgan ehtiyojlar ham ortadi. Iqtisodiy muammolarni hal qilish va yangidan yangi aloqalarni o‘rnatish uchun ushbu sohadagi mutaxassis va tarjimonlar soha bilan bog‘liq so‘z yasalish xususiyatlarini bilish va e’tiborga olish joiz bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev. A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.:1985.
2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T,: 1977.
3. Горелов В.И. Лексикология современного китайского языка. — M., 1984.
4. Sultonova Lola Akmalovna. Xitoy tili leksikologiyasi. Toshkent 2013.

PASHTU TILI FONETIK TERMINLARI

Shodiyaxon AKROMOVA
Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi
2-kurs pushtu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Z. Normatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada pashtu tili terminlari, xususan fonetikaga oid terminlar haqida fikr yuritilgan. Mazkur mavzu yuzasidan o‘zbek va afg‘onshunos olimlar tomonidan qilingan tadqiqotlar ham tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Termin, terminotizm, fonetika, dublet, tilshunoslik, o‘zlashma.

Termin so‘zi turlicha tushunchalarga ega. Chunonchi, mantiqshunoslar uchun termin aniq obyektga tegishli tavsiflar yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi[1]. O‘zbek tilshunosi A. Hojiyev o‘zining “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da terminga quyidagicha ta’rif bergan: “Termin (lot. chek, chegara, chegara belgisi) Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi: atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi

[1] Dadaboyev H. O’zbek terminologiyasi. – T., 2019 – B. 6.

belgilari bilan ham umum-iste’moldagi so‘zlardan farqlanadi. Mas., lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush…; geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak…; fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimyoga oid terminlar: suv, kumush, ishqor, tuzlar va b.

Bitta soha doirasidagi terminlar terminotizmni tashkil qiladi. Terminlar fanning metatili va ilmiy tadqiqotlarning, shuningdek, insonning amaliy faoliyati sohalarining o‘ziga xos voqeligini anglatuvchi so‘zlar sifatida belgilanishi mumkin[1]. Yuqorida biz o‘zbek olimlarining terminga bergan ta’riflarini keltirib o‘tdik. Yevropa olimlaridan biri O. Vinokumning fikricha, termin har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o‘z o‘zidan, stixiyali tarzda paydo bo‘lmaydi, balki, zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj sezilgani bois yaratiladi[2].

Jahon ilm-fanining jadal rivoji tilshunoslikda terminologiyaning alohida mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi. Ma’lumki, terminologiya fanning sohalariga oid tushunchalarni o‘rganish, turli kasb-hunar, ixtisosliklarni o‘zlashtirishda, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda salmoqli o‘rin tutadi. Bu esa mazkur sohadagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Jahon tilshunosligida XVIII-XIX asrlardayoq terminologiya muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshlagan edi[3].

Termin haqida izlanishlarimiz davomida asosan o‘zbek tilshunosligidagi termin borasidagi tadqiqot va manbalardan foydalandik. “O‘zbek terminologiyasi” qo‘llanmasi terminologiya sohasida nafaqat respublika, balki chet el tilshunoslari tomonidan yaratilgan lug‘atlar, monografiyalar, qo‘llanmalar, yoqlangan dissertatsiyalar asosida tayyorlangan bo‘lib, terminshunoslikka oid bilim, xususiyat va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan. Mavzularni xronologik izchillik va tartib bilan joylashtirishda talabalarning malakasi hamda fikrlash qobiliyatlari e’tiborga olingan. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida termin haqida yozilgan maqolalar ham salmoqli hissani tashkil etadi. A. Sabirov tomonidan yozilgan “Termin va terminologiyaga berilgan ta’riflar” nomli maqolada terminga berilgan nafaqat o‘zbek olimlari, balki, Yevropa olimlarining ham ta’riflari keltirib o‘tilgan. U. Ubaydullayeva tomonidan yozilgan maqolada terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari, terminologiya sohasidagi muammolar haqida so‘z boradi.

---

[1] Pardayev A.B., Urinboyeva D.B., Islamova D.A. O‘zbek terminologiyasi. – Samarqand 2020. – B. 108-109.

[2] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T., 2019 – B. 7.

[3] Ubaydullayeva U. “Terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari”. – Samarqand 2022.

Ushbu ma’lumotlar asosida termin haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘lgan holda pashtu tilshunosligining terminlarini tahlil qilishga harakat qilamiz Muayyan tilning so‘z boyligi o‘z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi tilshunoslikda e’tirof etilgan voqelik hisoblanadi. Har bir tilning tilshunosligida aniq bir ma’noga ega, doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun yo‘naltirilgan terminlar mavjud bo‘lganidek, pashtu tili ham bundan mustasno emas.

Pashtu tili grammatik terminlari fondini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda iste’molda bo‘lgan terminlar kelib chiqishi va rivojlanish nuqtai nazaridan xilma-xil ko‘rinishga ega. Afg‘onshunos olim R. Inomxo‘jayev fikriga ko‘ra, pashtu tili tilshunoslik terminlari quyidagi besh manba asosida shakllangan bo‘lib, ular yakka holda ham, turli tarkibdagi kombinatsiyalarda ham namoyon bo‘ladi, jumladan, 1) arabcha o‘zlashmalar va arab tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 2)dariycha o‘zlashmalar va dariy tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 3) pashtu tili asosida va pashtu tili resurslari ishtirokida yasalgan terminlar, 4) xorijiy til o‘zlashmalar, 5)pashtu tili fonetik-morfologik xususiyatlariga moslashgan o‘zlashmalar[1]. Pashtu va dariy tillari Afg‘oniston hududida so‘zlaniladigan rasmiy til bo‘lganligi har ikki tilda ham bir-biridan so‘zlarni o‘zlashtirishiga sabab bo‘lgan. R. Inomxo‘jayev fikricha, pashtu tilshunosligida dariy tili va dariy tili resurslari asosida yasalgan va pashtu tiliga o‘zlashgan terminlar salmoqli hissani tashkil etadi. Shu bilan birga pashtu tili grammatikasi tarixan arab tilshunosligi va grammatik nazariyasi asosida shakllanganligini nazarda tutish lozim. Bu esa pashtu tili terminlar fondining arab tili va arab tili resurslari ishtirokida yasalgan o‘zlashma terminlar bilan boyishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. E’tiborli jihati shundaki, pashtu tilshunosligiga kirib kelgan bunday o‘zlashmalar terminning dublet holatini yuzaga keltirgan. Hozirgi pashtu tilshunosligida ayrim o‘zlashgan terminlarni pashtuchaga almashtirish yoki har ikkisini baravar ishlatish tamoyili mavjud. Chunonchi, ba’zi tilshunoslar terminologiyada neytrallik bo‘lishini hisobga olib, bir tushunchani anglatuvchi turlicha ifodalarni “*dublet terminlar*” deb atashsa, boshqa bir qator olimlar esa uni “*sinonim*” deb ham atash mumkinligini qayd etganlar. Ba’zi olimlar esa, terminologiyadagi sinonimlik umumadabiy tildagidan bir muncha farq qilishini va shu boisdan ham ularni “*dublet*”deb aytayotganliklarini qayd etganlar.

Umuman, nafaqat terminologiyada, hatto tilshunoslikda ham “*sinonim*”, “*dublet*” va “*variantlilik*” kabi tushunchalarning o‘ziga xos

[1] Inomxo‘jayev R. Pashtu tili grammatik terminlar lug‘ati. – T., 2020. – B. 4.

xususiyatlari aniq belgilanmagan hamda ularni farqlash masalasi hali to‘liq hal etilmagan[1].

Grammatika kengligi va unga oid terminlarning ko‘pligi sababli ularni bo‘limlarga bo‘lib tahlil qilishni ma’qul ko‘rdik. Ushbu maqolada pashtu tilshunosligining fonetik terminlari tadqiq etildi.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo‘lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo‘linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o‘rganiladi[2].

Pashtu tili hind-yevropa tillariga mansub bo‘lib, uning grammatikasi, jumladan, fonetikasida ham o‘zbek tilidan farq qiluvchi terminlar mavjud.

Maqolamizning asosiy masalasi pashtu tilida terminlarning dublikat holati mavjudligidir. Pashtu tilshunosligi fonetika bo‘limining terminlari misolida bu holatni ko‘rishimiz mumkin. Birgina fonetika termini غږپوهنه، آوازشناسی؛ آوازپوهه ؛ فونولوجی؛ واکشناسی kabi variantlariga ega. Pashtu olimlarining grammatik asarlariga nazar tashlansa, ular tomonidan pashtu tiliga oid terminlar ishlatilishiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, pashtu tilshunosi Mujovir Ahmad Ziyor o‘zining “پښتو پښویه” nomli grammatik asarida fonetikani آوازپوهه shaklida qo‘llagan.

Darhaqiqat, ma’lum bir tilshunoslik terminining o‘z tilida ifoda qilish imkoni bo‘lsa, aksariyat olimlar o‘z tilida yasalgan terminlardan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Fonetika bo‘limidagi asosiy terminlardan biri tovush pashtu tilida صوت غږ, اواز, واول, variantlarida ifoda etiladi. Mujovir Ahmad Ziyor “د پښتو ګرامر” grammatik kitobida tovush terminini اوازغږ v shakllarida qo‘llagan. Pashtu tilshunosi Kamron Mangal Afg‘onning kitobida tovush terminiغږ shaklida berilgan.

Pashtu tili fonetikasida ham o‘zbek tili fonetikasida bo‘lganidek tovushlar 2 turga: 1) unli, 2) undoshga bo‘linadi. Undosh tovushlar pashtu tilida اصلي آواز , اصلي غږ,صامیت terminlari bilan nomlanadi. Unli tovushlar uchunامدادي آواز, تورې حپ,آمدادي حرف,terminlari foydalaniladi. Pashtu tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda diftong (دیفتونګ , غږ غبرګ) termini mavjud.

Maqolamizda termin haqida fikr yuritilib, o‘zbek va pashtu tilshunoslik terminlarini solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlari o‘rganib chiqildi. Bundan tashqari pashtu tilshunosligida terminlarning dublikat holati mavjudligi va hozirgi pashtu tilshunosligida bu terminlarning qaysi muqobil varianti

[1] Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – T., 2007 – B. 107.
[2] Nabiyeva D.A. Zokirova H.R. O‘zbek tili fonetikasi. – Andijon 2016 – B. 4.

kengroq qo‘llanilishi masalasi muhokama qilindi. Pashtu tilshunoslik terminlariga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali tadqiq etiladigan masalalar ko‘p. Chunonchi, pashtu tilshunoslik terminlari borasida ko‘proq materiallar yig‘ish, yanada chuqur nazariy tahlil olib borgan holda pashtu tilshunoslik terminlarining kelib chiqish va rivojlanish bosqichlarini alohida o‘rganish hamda ularning tildagi ahamiyatini tahlil qilish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dadaboyev H. “O‘zbek terminologiyasi”. – T., 2019
2. Inomxo‘jayev R. Pashtu tili grammatik terminlar lug‘ati. – T., 2020.
3. Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O‘zbek tili fonetikasi. – Andijon 2016.
4. Pardayev A.B., Urinboyeva D.B, Islamova D.A. O‘zbek terminologiyasi. – Samarqand 2020.
5. Ubaydullayeva U. Terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari. – Samarqand 2022.
6. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – T., 2007.

ОТРАЖЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ ФЕМИННОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ЯПОНСКОГО ЯЗЫКА)

Наргиза ДЖАБРИЕВА
ТГУВ, Факультет японоведения. Специальность японская лингвистика. Магистрант 2-курса
Научный руководитель: PhD Ш.М .Шорасулова

Аннотация: В статье рассматриваются феминнные стереотипы на материале японского языка, отражающиеся в современном художественном дискурсе произведения японской писательницы Ёсимото Банана «Цугуми». В данной статье анализируются особенности языкового отражения феминнности на материале художественного текста на японском языке.

Ключевые слова: феминнные стереотипы, феминнность, женская роль, стандартизация, языковая репрезентация, японский язык, Ёсимото Банана, художественный дискурс.

Исследование художественного дискурса с позиций рассмотрения в нем гендерных стереотипов позволяет узнать и углубить понимание этнокультурных особенностей, нашедших свое отраженные при создании писателем образов женщины.

Художественный текст как продукт определенной культуры аккумулирует ценности, опыт поколений, знания, значимые для определенного социума, в том числе, содержит в себе информацию о гендерных категориях, которые привлекают внимание людей, а также вызывают постоянные споры и разногласия.

Представления о женственности (фемининности) сложились не только в соответствии с культурной традицией народа, но и представляют из себя концепты, которые подверглись изменениям с течением истории.

Актуальность настоящей работы обусловлена возрастающим интересом к изучению гендерных аспектов процесса коммуникации. Исследование влияния гендерных стереотипов, т.е. стандартизированных представлений о моделях поведения и чертах характера, соответствующих понятиям «женское», на речевое общение приобретает большую значимость [1]. Более того, значительные изменения в социокультурном обществе, интерференция гендерных ролей, демократизация общества и отношений в значительной степени влияют на динамику гендерных стереотипов, что отражается при выборе языковых средств реализации женственности.

Т. В. Беидас пишет, что в гендерной проблематике существуют понятия и феномены, которые не совсем вписываются в чисто научную область: это стратификация полов (их иерархия), гендерная идеология, гендерные стереотипы, существующие в виде предписаний поведения женщин [2]. Всё это порождение политики, которая проводится в различных культурах и обществах по отношению женщинам, и также должно быть предметом научного изучения.

Предметом исследования является рассказ японской писательницы Ёсимото Банана «Цугуми» на японском языке. Объектом исследование является выявление отражений гендерных стереотипов в художественном дискурсе на материале японского языка.

---

[1] Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосферы человек в японской языковой картине мира: дисс. … д-ра культурол. наук. М., МГУ, 2006. 330 с. – с. 140-142.
[2] Новости из Японии. URL: http://news.leit.ru/archives/13775 (Дата обращения: 27.01.2023)

Вопросом гендерных стереотипов занимались многие исследователи, тем самым, сделав его предметом мирового исследования.

Как отмечает Кирилина А.В. «социально и культурно значимые различия в поведении, обычаях и социализации в целом мужчин и женщин фиксировались в научном описании, особенно в антропологии и этнографии. Однако идея о разграничении понятий биологического пола и пола социального (гендер) возникла лишь в период постмодернизма» [1].

Понятие «гендер» впервые появилось в работе Столлера Р. в 1968 году [2] . В дальнейшем термин «гендер», заимствованный из лингвистики (gender – род (англ.)), использовался для обозначения культурных и социальных характеристик мужчин и женщин в отличие от пола как совокупности биологических характеристик. Интерес к изучению взаимосвязи пола и языка возник задолго до возникновения гендерной лингвистики и уходит корнями в исследования Есперсена О. [3] и Лабова У[4].

Западные исследователи взаимосвязи пола и языка находят истоки ее возникновения в народной лингвистике (folk linguistics), которая фиксировала стереотипные представления мужественности и женственности в языке и находило свое отражение в произведениях.

Немецкий грамматист XIX века Гримм Я. считал, что грамматическая категория рода приобретает метафорическое значение при описании картины мира в целом [5]. Согласно его исследованию, женскому роду приписывались такие характеристики как уменьшение, мягкость, пассивность, размеренность. Вслед за Гриммом Я., другие грамматисты подчеркивали превосходство мужчин над женщинами и считали, что женщина должна заниматься домом и семьей, потому что

[1] Ingrained ideas on gender roles. 2014. URL: http://www.japantimes.co.jp/opinion /2014/07/19/editorials/ingrained-ideas-gender-roles/#.VoF7VlLTSSo (Дата обращения: 27.01.2023)

[2] Ko D., Haboush J. K., Piggott J.R. Women and Confucian Cultures in Premodern China, Korea, and Japan. Berkeley: University of California Press, 2003. 350 p.

[3] Hearn L. (1904) *Japan: An Attempt at Interpretation*. New York (Russ. ed.: Khern L. (2000) *Mir po-yaponski*. Saint Petersburg).

[4] Izotova N.N. (2015) Transformation of gender stereotypes in Japanese society. Culture and Civilization, 6, pp. 83-96.

[5] Силласте Г.Г. Тендерная социология как частная филологическая теория // Социологические исследования. 2000. №11.

слово семья женского рода; мужчины же должны заниматься государственными делами, т.к. слово государство в мужского рода[1].

Различные временные периоды истории диктовали свои нормативные представления о гендерном поведении и гендерной идентификации. На каждом этапе истории Японии характер гендерных отношений детерминировался уровнем социокультурного развития. В древности Япония была матриархальным обществом, семейная собственность переходила по наследству женщинам.

В наши дни стираются границы между мужскими и женскими гендерными стереотипами: с точки зрения японских женщин, которые в состоянии создать семью по традиционному образцу и обеспечить ей достойное существование, катастрофически мало[2].

Современная японская проза, представленная в частности рассказами и новеллами (тампэн сесээцу) имеет ряд объединяющих тенденций, характерных для женской литературы.

Для обозначения подобной литературы был создан специальный термин – «женская проза», под которой принято понимать социокультурный феномен, который возникает в процессе освоение женщинами публичного пространства и находит свое выражение в литературных произведениях, в которых заключены описание окружающего мира социального опыта женщины. К 1970 годам отмечается очевидных расцвет женской прозы.

Специфика женского творчества репрезентирует особую художественную картину мира с кардинальными отличиями мужского миропонимания, и это, естественным образом, предопределено биологическими, психологическими, социальными особенностями женского отношения к жизни, к реальности, к самой себе и как следствие к самовыражению и самодостаточности. Творчество женщины имеет свои характерные черты, что писательницы могут выражать как общечеловеческий, так и сугубо женский взгляд на мир, который уже благодаря своей специфике, представляет ценность.

Авторы-женщины сами подвержены влиянию гендерных стереотипов, как и созданные ими персонажи. Нами были изучены с 1

---

[1] Сафонова М.В. Тендерные стереотипы и их влияние на поведение человека // Практикум по тендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной. СПб., 2003.

[2] 「調査」«結婚もせす親と同居» ハプサイトシンクル、今はハプサイト中年に (Исследование феномена паразитов-одиночек: почему они не женятся и живут с родителями, какова их численность) URL: http://uni.2ch.net/test/read.cgi/newsplus/1335946886/ (Дата обращения: 27.01.2023)

по 4 главы рассказа современной японской писательницы Ёсимото Банана «Цугуми» на языке оригинала на предмет наличия гендерных стереотипов в художественном тексте на основе ранее полученных данных из обзорной литературы.

С самого начала произведения, описание Цугуми нам представлено, как:

ツグミは生まれた時からむちゃくちゃ弱くて、あちこちの機能がこわれていた。

С момента рождения Цугуми была чрезвычайно хилым ребёнком с различными поражениями функций внутренних органов.

Это даёт нам представление о том, что все маленькие девочки «чрезвычайно хилые» с «момента рождения», что они требуют особенного ухода.

人々は皆、ツグミの優しさや美しさが否応なく人をひきつけてしまうのだと信じていた。

Однако все без исключения были очарованы её добротой и красотой.

Данным описанием главной героини Цугуми автор подчеркивает, что для того, чтобы быть очаровательной для всех, достаточно быть доброй. Это то качество, которое может воспитать в себе любой человек, однако автор также добавляет, что Цугуми очаровывала «красотой», внешним фактором, никак не определяющим человека, ведь по ходу рассказа нам открывается, что у нее был «агрессивный характер», «острый язык», что совсем не соотносится с женским понятием «красота» и «очарование».

何年も待って、やりたかった生活をしているんだ、楽しいよ。

前の女とうまくいかなかったけど。あの人は子供が嫌いで、出歩くのが大好きだった。家事も苦手でね。

Сколько лет я ждал момента жить так, как хочу, и теперь, наконец, наслаждаюсь этим. С прежней женой у нас не сложились отношения. Она не любила детей, ей нравилось проводить время вне дома, она не умела вести домашнее хозяйство.

Данной фразой отец сестры главной героини показывает читателям, что для него наиболее важно в характере супруги: желание иметь детей, находиться большую часть времени дома, а также умело вести домашнее хозяйство. Данная картина образа женщины сложилась еще в давние времена, однако, в современном мире все чаще женщины предпочитают не рожать детей, чаще проводить время не с семьей, а с друзьями, а также не заинтересованы в домашнем

хозяйстве. Особенно данный феномен встречается в Японии, где за последнее время увеличился процент женщин, предпочитающих карьеру семье [1].

Изменение ориентации личности на внесемейные ценности сопровождается отчуждением, приводит к распространению эгоистических одиночно-коммунальных форм существования. Проблема сокращения рождаемости – 少子化 *се:сика* становится все более острой.

Часто можно встретить указание «женских» дел и увлечений. К ним, по результатам анализа художественного текста, можно отнести «уборку дома», «помощь на кухне», «стирка белья», «икебана».

急ぎましょう。私は午後からお花に行くけど。

Надо поторопиться. Во второй половине дня у меня занятия икебаной.

В этой фразе матери главной героини автор показывает, что в современном мире искусство аранжировки цветов принадлежит к деятельности женщин, так как это занятие не требует большой физической силы, а также позволяет проявить свою женственность при составлении композиций. Сама же героиня не испытывает по отношению к этому особенных чувств и больше ничего не дополняет.

Однако, когда это искусство только зарождалось, им занимались буддийские монахи, которые и стали основоположниками икебаны [2]. Это может быть примером того, что даже современные гендерные стереотипы могут бы случаем неверного понимания истории культуры.

В форме опосредования, предполагающего наличие в тексте оценочных суждений, читатель подталкивается к определенному стереотипу. «Особенно это касается девушек, которые вместо того, чтобы встречаться с молодым человеком без стабильного заработка, годами живут с родителями в ожидании достойного жениха», — отмечает профессор М.Ямада [3].

Проанализировав данное художественное произведение, становится понятен образ женщины в представлении японской

---

[1] 玄田 有史。孤立無業 (SNEP). 日本経済新聞出版社. (Одинокие неработающие люди). 2013. 236 p.

[2] Женщина в Японии. Часть 1. URL: http://www.liveinternet.ru/users/levasseur/post176161267/ (Дата обращения: 28.01.2023)

[3] 日本人の家族観変化する意識・変化しない制度 (Японская семья. Сознание меняется, порядок остается). URL: http://www.nippon.com/ja/currents/d00095/ (Дата обращения: 28.01.2023)

писательницы Ёсимото Банана. Анализ показал, что женские произведения содержат гораздо меньше экспрессивно-эмоциональных выражений, но имеют больше примеров независимой оценки проблемы и объективного суждения. Образ героини представлен в виде немощного, но красивого вида девушки, которая увлечена домашним бытом и весьма хорошо это делает, не грубит старшим, заботится о детях, помогает на кухне, и никак не может иметь «агрессивный нрав и «острый язык».

Использованные гендерные стереотипы феминности, при помощи которых они были представлены в данном художественном произведении, могут быть рассмотрены не в качестве мыслей самого автора, а его попытка раскрыть абсурдность данных стереотипов. Такой вывод можно сделать, проанализировав описания, использованные по отношению к другим героям женского пола, которые не всегда могут понять поступки «женственных» персонажей и их проявление фемининности.

Таким образом, гендерная противопоставленность в полной мере отражена и в современной художественной литературе, с одной стороны отображающей наиболее типичные, стереотипизированные представления о женщинах в японском обществе, с другой – стремящейся качественно изменить «худшие из них», в понимании автора произведения, предлагая читателям поразмыслить, актуальны ли все гендерные стереотипы в современном обществе.

Список используемой литературы:

1. Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосферы человек в японской языковой картине мира: дисс. … д-ра культурол. наук. М., МГУ, 2006. 330 с.

2. Женщина в Японии. Часть 1. URL: http://www.liveinternet.ru/users/levasseur/post176161267/ (Дата обращения: 28.01.2023)

3. Новости из Японии. URL: http://news.leit.ru/archives/13775 (Дата обращения: 27.01.2023)

4. Силласте Г.Г. Тендерная социология как частная филологическая теория // Социологические исследования. 2000. №11.

5. Сафонова М.В. Тендерные стереотипы и их влияние на поведение человека // Практикум по тендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной. СПб., 2003.

6. Hearn L. (1904) *Japan: An Attempt at Interpretation*. New York (Russ. ed.: Khern L. (2000) *Mir po-yaponski*. Saint Petersburg).

7. Ko D., Haboush J. K., Piggott J.R. Women and Confucian Cultures in Premodern China, Korea, and Japan. Berkeley: University of California Press, 2003. 350 p.

8. Ingrained ideas on gender roles. 2014. URL: http://www.japantimes.co.jp/opinion/2014/07/19/editorials/ingrained-ideas-gender-roles/#.VoF7VlLTSSo (Дата обращения: 27.01.2023)

9. Izotova N.N. (2015) Transformation of gender stereotypes in Japanese society. Culture and Civilization, 6, pp. 83-96.

10.「調査」«結婚もせす親と同居» ハプサイトシンクル、今はハプサイト中年に (Исследование феномена паразитов-одиночек: почему они не женятся и живут с родителями, какова их численность) URL: http://uni.2ch.net/test/read.cgi/newsplus/1335946886/ (Дата обращения: 27.01.2023)

11.玄田 有史。孤立無業 (SNEP). 日本経済新聞出版社. (Одинокие неработающие люди). 2013. 236 p.

12.日本人の家族観変化する意識・変化しない制度 (Японская семья. Сознание меняется, порядок остается). URL: http://www.nippon.com/ja/currents/d00095/ (Дата обращения: 28.01.2023)

DARIY TILIDA SHART ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR TAHLILI

Jasmina IBODOVA
2-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi
Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi
Ilmiy rahbar: PhD X. Uktamova

Annotatsiya. Mazkur maqolada dariy tilidagi shart ergash gap haqida umumiy ma’lumot berilgan. Maqolada dariy tilidagi shart ergash gapning tuzilishi, tarkibiy qismlari va turlari batafsil tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: komponent, qo‘shma gap, real shart ergash gap, noreal shart ergash gap, aorist.

Ma’lumki, XX asr o‘rtalarigacha fors, dariy va tojik tillariga umumiy bitta til sifatida qarash davom etgan. Shu davrga kelib, dariy tili Afg‘oniston konstitutsiyada rasmiy maqomni olgandan so‘ng dariy tilshunosligida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. 1950-yilda Bertls klassik davrda

ishlatilgan til uchun “dariy tili” atamasini qo‘llagan, tillarni ajratish uchun boshqalarni esa “klassik fors-tojik adabiy tili”, “klassik dariy tili”, “klassik davr tili” deb nomlagan[1]. Shu tariqa “dariy” atamasi ham rasmiy, ham ilmiy doiralarda tan olina boshlandi. Mazkur maqolada dariy tilida shart ergash gapli qo‘shma gaplar tuzilishi, tarkibiy qismlari o‘rganilgan.

Ma’lumki, sintaksis grammatikaning bo‘limi sifatida ikki qismga bo‘linadi: 1) so‘zlarning grammatik bog‘lanish usullari haqidagi ta’limot yoki so‘z birikmalari haqidagi ta’limot; 2) gap hosil bo‘lishi haqidagi ta’limot.

Jahon tilshunosligida qo‘shma gap talqiniga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-monografik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, rus tilshunosi M.N. Peterson “Очерк синтаксиса руского языка” nomli asarida qo‘shma gaplarning teng va tobe bog‘lanishlarini tavsiflaydi [2] . O‘zbek tilshunoslaridan R.R Sayfullayeva o‘zining “Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional talqini” nomli qo‘llanmasida qo‘shma gaplarni batafsil tadqiq etgan[3]. U qo‘shma gaplar sintaksisning bo‘limi ekanligi ta’kidlaydi.

Afg‘on olimlari orasidan Muhammadulloh Lutf, Abdulhabib Hamidiy va Azima Majid kabi tilshunoslar o‘z qo‘llanmalarida shart ergash gapning tuzilishi, uning bog‘lovchi qurilmalari va uning turlari haqida umumiy ma’lumotlarni berib o‘tishgan [4] . Rus dariyshunosi L.N. Kiselevaning ta’kidlashicha, dariy tilida murakkab gap sodda gaplarni va ular orasidagi aloqa vositalarini birlashtiradi. U semantik va strukturaviy yaxlitlikka ega bo‘ladi. Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari tobe munosabat orqali bog‘lanishi mumkin. Tobe bog‘lanish orqali sodda gaplar bir-biriga bir xil bog‘liqlik asosida murakkab gapga birikadi, deydi[5].

Gap hosil bo‘lishini tadqiq etuvchi ta’limotni ham ikki bo‘limga ajratish mumkin: sodda gap va qo‘shma gap haqidagi ta’limot[6]. Bundan ko‘rinadiki, qo‘sh-ma gap sintaksisning bo‘limidir. Shuningdek, o‘zbek tilida sintaksis va morfologiya alohida bo‘limlar sifatida o‘rganiladi, biroq dariy tilida bu

---

[1] Уктамова, Х. А. (2019). Форси-йе дарий тили грамматик асарларининг шаклланиши. in культурология, искусствоведение и филология: Современные взгляды и научные исследования (pp. 78-85).

[2] Петерсон М.Н. Очерк синтаксиса русского языка. – М., 1923.

[3] Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional (zotiy) talqini. – T.: Fan, 2007.

[4] لطف م. دستور زبان دری. نحو. – کابل، ۱۹۵۴.

[5] Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – С.111.

[6] Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplar ning substansional (zotiy) talqini. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 9.

jarayonni koʻrmaymiz, dariy tilida morfologiya va sintaksisni qorishiq holda yoki bir-biridan ajratilmagan holda uchratish mumkin. Shunga qaramay, qoʻshma gaplar alohida boʻlim sifatida ajratilgan. Qoʻshma gapga taʼrif berayotganda olimlardan ayrimlari ega va kesimlar soni haqida, baʼzilari qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplar soni va yana baʼzilari esa bu ikki holatni birlashtiradilar[1].

Bitta kesimlik belgisiga mazmun va ohang tugalligiga ega boʻlgan komponent sodda gap, tuzilishiga koʻra ikki yoki undan ortiq gapning grammatik, mazmun va ohangiga koʻra birikishidan tashkil topgan komponentlar esa qoʻshma gaplar, deyiladi. Sodda gap bilan qoʻshma gapning bir-biridan farqi shundaki, birinchidan, ularning tuzilishiga koʻra boʻlsa, ikkinchidan, ularni tashkil etgan materialning turlichaligidir, yaʼni sodda gaplarning materiali soʻz va soʻz birikmalaridan iborat boʻlsa qoʻshma gaplarning materiali sodda gaplardan iborat boʻladi. Birdan ortiq sodda gaplar mazmun va ohang jihatidan birikib qoʻshma gap tashkil qilganda, gaplar biroz oʻz mazmuni va grammatik mustaqilligini yoʻqotadi. Qoʻshma gap qismlari bir-biri bilan qoʻshilgandagina toʻla mustaqil boʻla oladi. Qoʻshma gap qismlarining baʼzilari mustaqil holatini bir oz yoʻqotadi (teng bogʻlovchilar yordamida birikkan qoʻshma gaplar), ayrimlarida (ergashgan qoʻshma gap qismlarida) esa mustaqillik holati anchagina yoʻqolgan boʻladi. Demak, qoʻshma gaplar alohida mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir biriga bogʻliq qismlardan tashkil topgan boʻladi.

Yu.A. Rubinchik fors tilida barcha qoʻshma gaplar tarkibiy qismlarining semantik aloqasi, bu bogʻlanishning yasalish usullariga koʻra bogʻlangan va ergashgan turlarga boʻladi. Qoʻshma gapning har bir turi oʻziga xos tuzilish va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi, deydi[2].

Oʻzbek tilidagi kabi dariy tilida ham qoʻshma gaplarning uch xil turi mavjud. Bular: bogʻlangan qoʻshma gaplar, ergashgan qoʻshma gaplar va bogʻlovchisiz bogʻlangan qoʻshma gaplardir. Dariy tilida ergashgan qoʻshma gaplar ikki qismdan: tobe va hokim qismdan iborat boʻladi. Bunda qoʻshma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning biri ikkinchisiga mazmunan va grammatik jihatdan tobe boʻlib, hokim qismni aniqlash, toʻldirish kabi vazifalarni bajaradi. Dariy tilida ergashgan qoʻshma gaplarning bir necha turlari bor, jumladan, maqsad ergash gap (جملهٔ معترضهٔ مقصد), aniqlovchi

[1] Sayfullayeva R.R. Hozirgi oʻzbek tilida qoʻshma gaplarning substansional (zotiy) talqini. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 11.

[2] Рубинчик Ю.А. Современный персидский язык. – М.: Восточная литература, 1960. – С.119.

ergash gap (جملۀ معترضۀ معیین کننده), shart ergash gap (جملۀ معترضۀ شرط), payt ergash gap (جملۀ معترضۀ زمان), sabab ergash gap (جملۀ معترضۀ طرز عمل), kabi turlari bor.

Shart ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildiradi. Dariy tilida shart ergash gap bosh gapdan oldin keladi va bosh gap bilan اگر (agar) bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi. Ergashtiruvchi اگر*agar* bog‘lovchisi ergash gap boshida keladi. Bundan tashqari اگر (agar) bog‘lovchilarini گر،ار،بهشرطیکه،،چنانچه،درصورتیکه bog‘lovchisining ekvivalentlari sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, gapdagi bog‘lovchi shart mazmunini oydinlashtiradi va ta’kidlab ko‘rsatadi. Shart ergash gapning kesimi shart mazmunining xarakteri va paytiga ko‘ra tegishli zamon fe’l shakllari bilan ifodalanadi[1].

Dariy tilida shart ergash gapda qo‘yilgan shartning amalga oshishi yoki amalga oshmasligiga ko‘ra real shart ergash gap va noreal shart ergash gapga bo‘linadi. Shart ergash gapdagi ish-harakat yoki holatning bajarilishi, amalga oshishi mumkin bo‘lgan, real ekanligini bildirgan shart ergash gap real shart ergash gap, deyiladi. Real shart ergash gapda gapning kesimida ifodalangan shartning xarakteriga ko‘ra, shart ergash gapning kesimi turli zamonlarda kelishi mumkin. Shunga ko‘ra, shart ergash gapda ish-harakat kelasi zamonga xos bo‘lsa, shart ergash gapning kesimi aorist (hozirgi kelasi zamon shart-istak mayli) shaklida, bosh gapning kesimi esa fe’lning hozirgi-kelasi, kelasi zamon shakllari bilan ifodalanadi. Masalan,

اگر این خیوان های درنده بدانندکی من در این جا اَمده ام فوراً مرا پاره پاره خواهند خورد

Agar bu hayvonlar mening bu yerga kelganimni bilishsa, meni pora-pora qilishadi.[2]

اگر باران ببرد منزل میمانیم

Agar yomg‘ir yog‘sa, biz uyda qolamiz[3].

Agar shart mazmuni hozirgi zamonga tegishli bo‘lsa, u holda ergash gapning kesimi hozirgi-kelasi zamon fe’li bilan ifodalanadi. Masalan,

اگر همین حالا دیوار بغلتد، این مارغ چی خواهد شد؟

Agar hozir devor qulasa, bu qush nima qiladi?[4]

Agar shart o‘tgan zamonga xos bo‘lsa, ergash gapning kesimi ماضی التزامی yoki ماضی نقلی (o‘tgan zamon shart-istak maylida yoki o‘tgan zamon natijali fe’lida) shaklida bo‘ladi. Masalan,

اگر برادر کوچک شما به خانه اَمده است، من به او شیرینی میدهم

---

[1] Xalilov L. Fors tili. – T.: O ’qituvchi, 1992. – B. 149.

[2] ریدمین. داستان هوشنگ و مراد ادبیات دری. – کابل، ۱۳۶۰.

[3] Mace J. Persian garmmar.–Routledge Curzon, 2003. – P. 161.

[4] رهنورد زریاب .دوستی از شهری دور. – کابل، ۱۳۶۵.

Agar kichik ukangiz uyga kelgan bo‘lsa, men unga shirinlik beraman.

Agar shart ergash gapda ish-harakat ma’no jihatidan kelasi zamonga xos bo‘lsa ham, ba’zan ergash gapning kesimi oddiy o‘tgan zamon shaklida kelishi ham mumkin. Bunda shart ergash gapning kesimi bosh gap orqali ifodalangan ish-harakatga nisbatan ilgari bajarilgan ish-harakatni bildiradi. Shuningdek, bu turdagi shart ergash gaplarda ergash gapning kesimi aorist shaklida ham kelishi mumkin.

سوداگر فکر کرد که اگر این جوان دختر مرا بگیرد به میراث من شریک خواهد شد و جایداد مرا از من خواهد گرفت.

Savdogar: Agar shu yigit mening qizimni olsa, mening merosimga sherik bo‘lib, mulkimni mendan tortib oladi, — deb o‘yladi[1].

Mazkur keltirilgan gaplar real shart ergash gapga mansub, chunki ushbu gaplarda shart ergash gapdagi ish-harakat va holatlar aniq amalga oshishi mumkin.

Dariy tilida shart ergash gaplarda ish-harakat yoki holatning amalga oshishi mumkin bo‘lmagan shart ergash gap noreal shart ergash gap, deyiladi.

اگر باران نمیبارید حاصل فراوان به دست نمییامد.

Agar yomg‘ir yog‘maganda, mo‘l hosil bo‘lmasdi[2].

اگر آن را میدانستم به شما میگفتم.

Agar bilsam, sizga aytaman[3].

اگر نزدیک میشدم، چیغ میکشد.

Agar yaqinlashsam, u qichqirardi[4]

Ba’zan noreal shart ergash gapning kesimi uzoq o‘tgan zamonga ham tegishli bo‘ladi.

اگر دریا راهش را گج نکرده بود چمن زیر اب نمیشد

Agar daryo o‘z irmog‘ini o‘zgartirmaganida, o‘tloqni suv bosmagan bo‘lar edi[5].

Ushbu gaplar esa noreal shart ergash gapga mansub, sababi ushbu shart ergash gapning kesimi shart mazmunining xarakteriga va paytiga ko‘ra o‘tgan zamonga tegishli.

Bundan tashqari داشتن “ega bo‘lmoq” vaبودن “bo‘lmoq, emoq” fe’llari noreal shart ergash gaplarning kesimi vazifasida kelganda, *me-* old qo‘shimchasi tushib qoladi va gap oddiy o‘tgan zamonda ifodalandi.

---

[1] ریدمین ادبیات دری داستان سوداگر. – کابل، ۱۳۶۰.

[2] Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.:Наука, 1985. – С. 115.

[3] Mace J. Persian garmmar.–Routledge Curzon,2003. –P.162.

[4] لطف م. دستور زبان دری. نحو. – کابل، ۱۹۵۴.

[5] Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.:Наука, 1985. – С. 115.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu maqolamizda dariy tilidagi shart ergash gap haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek, shart ergash gapning har bir turlariga alohida to‘xtalib, tushuntirilib o‘tilgan va har biriga alohida misollar keltirilgan. Maqolamizda دوستی از شهری دور va مراد و هوشنگ داستان kabi doston va hikoyalardan umumiy qirqqa yaqin misollar topdik, shulardan ayrimlarini maqolamizda keltirib o‘tdik. Keltirilgan misollardan beshtasi real shart ergash gapga, qolgan to‘rttasi noreal shart ergash gapga taalluqli. O‘z o‘rnida real va noreal shart ergash gaplarga keltirilgan misollarda ish-harakatining qaysi zamonlarda anglashilganini aniq ifodalab bergan. Real shart ergash gaplarga keltirilgan misollarda ish-harakat va holatlarning amalga oshishi kuzatiladi, noreal shart ergash gaplarga keltirilgan misollarda esa ish-harakat va holatning amalga oshishi mavhum bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mace J. Persian garmmar. – Routledge Curzon, 2003.
2. Sayfullayeva R. R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplar ning substansional (zotiy) talqini. – T.: Fan, 2007.
3. Xalilov L. Fors tili. – T.: O‘qituvchi, 1992.
4. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985.
5. Рубинчик Ю.А. Современный персидский язык. – М.: Восточная литература, 1960.
6. Уктамова, Х. А. (2019). Форси-йе дарий тили грамматик асарларининг шаклланиши. in *культурология, искусствоведение и филология: Современные взгляды и научные исследования* (pp. 78-85).
7. رهنورد زریاب. دوستی از شهری دور. – کابل، ۱۳۶۵.
8. ریدمین ادبیات دریداستان سوداگر. – کابل، ۱۳۶۰.
9. لطف م.دستور زبان دری. نحو. – کابل، ۱۹۵۴.

XITOYCHA FRAZEOLOGIZMLARDAGI MILLIY XOSLIKNING O‘ZBEK TILIDA IFODALANISHI

Madina KARIMOVA
TDSHU, “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
Sinxron tarjima yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dots.v.b N.R. Ismatullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqola xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida frazeologik birliklarni tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan. Bu ishda tadqiqot obyekti sifatida xitoy tilidagi frazeologik birliklarning tarjima qilish usullari va strategiyalari xizmat qiladi.

Kalit so‘zlari: frazeologik birliklar, realiya, ekvivalent, analog tarjima, frazeologik lakuna, kalkalash usuli.

Xitoy tilshunosligining frazeologik birliklar bo‘limi milliy o‘ziga xoslikka ega. Shu tufayli Xitoy xalqining turmush tarzi, xarakteri, madaniyati, an’analari frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, 凿壁借光 *záo bì jiè guāng* Ilm olish – igna bilan quduq qazishdir, 揠苗助长 *yà miáo zhù zhǎng* / Besabrning nafsi shoshar, tusagani kuzda pishar.

Muayyan realiyani bilmaslik ma’ruzachilarning tushunmovchiligiga olib keladi va eng muhimi muloqot jarayonini murakkablashtiradi. Kelajakdagi har qanday turdagi tarjima mutaxassislari tarjimonning kasbiy mahoratini o‘rganishi, shu jumladan o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira olishi uchun barcha zarur bilim, ko‘nikma va tajribalarni shakllantirish uchun xitoy tilining boy frazeologik fondini o‘rganishlari kerak. Frazeologik birliklarning ma’nosini anglash uchun klassik va Xitoy xalq adabiyoti manbalariga murojaat qilish kerak: falsafiy risolalar va masallar, tarixiy yilnomalar, fantastika, afsonalar va hikoyalar, iboralarning kelib chiqish hikoyalari va boshqalar.

Frazeologik birliklar xitoy leksikologiyasining muhim birliklaridan biridir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xitoy tilida umumiy 50 mingdan ortiq frazeologik birliklari mavjud bo‘lib, ularning 96% to‘rt xonali iboralar tashkil qilar ekan. Bu idiomalarning deyarli barchasi yuqorida aytilganidek, ertaklar, adabiy yodgorliklar, afsona va boshqa madaniy-moddiy meroslar orqali bizning zamonimizga qadar yetib kelgan. Song Junfen tomonidan tahrirlangan 熟语汇学 (Frazeologiya) da shunday deyilgan: “Frazeologik birliklar ham "so‘z qatlami" hisoblanadi. Bu tilni tashkil etuvchi asosiy materialdir, shuning uchun idiomalarni to‘plash va tadqiq etishga yangi

davrda alohida e’tibor berila boshlandi. Xitoy tilida frazeologizmlarni idiomalar, maqollar, aforizmlar, an’anaviy matallar tashkil qiladi”.[1,180]

Yuqorida ta’kidlanganidek, frazeologik birliklar xalqning tarixi, madaniyati, yashash tarzi, dini, e’tiqodi, milliy ongi va mentaliteti fonida shakllangan bo‘ladi. Shuning uchun ham ularni tarjima qilish butunlay boshqa jamiyatda yashagan tarjimonga anchagina qiyinchilik tug‘diradi. Xitoy va O‘zbekiston sharqiy davlatlardan bo‘lishiga qaramay, bu ikki davlat, millat orasidagi tafovut juda katta. Xitoy frazeologik birliklari zamiridagi ma’no, milliy-diniy qarashlar, unda ishtirok etgan tarixiy yoki to‘qima obrazlar, unda aks etgan hayot tarzi o‘zbek madaniyati va frazeologiyasiga to‘g‘ri kelmasligi yoki unga muqobil ekvivalent topilmasligi mumkin. Shu sababli frazeologik birliklarni tarjima qilish tarjimondan alohida bilim va mahorat talab qiladi.

Mazkur maqola, xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida frazeologik birliklarning tarjima qilinishi masalalari hamda bu jarayonda duch kelinadigan muammolar va unga yechim berish usullarini ochib berishdir. Ishning vazifalari quyidagilar:

– Xitoycha frazeologik birliklar xususida qisman to‘xtalib o‘tish va tegishli ma’lumotlarni berish;

– Xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida frazeologik birliklarni tarjimada berilishi;

– Frazeologik birliklarning tarjima qilishda duch kelinadigan muammolarni aniqlash va unga yechim berish;

– Frazeologik lakunarlikni bartaraf etish masalalari.

Mavzuni yoritish jarayonida shu sohaga oid manbalar o‘rganildi, qiyosiy-chog‘ishtiruv metodlaridan foydalanildi.

Maqolaning manbasi sifatida rus, ingliz, xitoy va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning tarjima masalalari va muammolariga oid ilmiy ishlar olindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida xitoy tilidagi frazeologik birliklarning tarjima qilish masalalari va bu jarayonda foydalaniladigan tarjima strategiyalari olindi.

Xitoy frazeologik birliklarni tarjima qilish masalalari dunyo tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Ingliz, rus, xitoy, o‘zbek tilshunoslari xitoy tili frazeologik birliklarini tarjima qilishda turli yondashuv, usul va strategiyalarni ilgari suradilar. A.D.Shveysar “Frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga urinish tarjimonlarning xatolarining asosiy sabablaridir”, – deya ta’kidlaydi. [2,215] Uning fikricha, frazeologik birliklarni har doim ham so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Frazeologik

birliklar tarkibidagi arxaik va polisemiya xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar o‘quvchida frazeologik birlikning ma’nosining tushunilishi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, ruslardan E.V.Aleksandrovaning ishida xitoy frazeologik birliklarini milliy xususiyatidan kelib chiqqan holdagina filologik germenevtikaga muvofiq tarjima qilish ilgari surilsa, [3,204], N.Juvnaning dissertatsiyasida rus-xitoy tillari kombinatsiyasida frazeologik birliklarni lingvo-kognitiv xususiyatlarga tayanib tarjima qilish masalalari ko‘tariladi. Tadqiqotchi B.M.Ogoltsev “Frazeologik birliklar milliy xarakterga ega. Ularning asosini tashkil etuvchi ma’noning madaniy komponenti semantik strukturaning asosini tashkil qiladi. Tilning eng yorqin ifodasi frazeologik birliklarida aks etadi.” [4,130]

Mazkur tilshunos olim ham boshqalar kabi frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida milliy o‘ziga xoslikni asosiy fonga olib chiqqan.

Xitoy tilshunosi Ma Guofan xitoy tili frazeologik birliklarini 5 ta asosiy kategoriyasini ajratib ko‘rsatadi:

1) 成语 *chéngyǔ* – “turg‘un iboralar” (to‘rt iyerogliflikar);

2) 谚语 *yànyǔ* – “maqollar”;

3) 歇后语*xiēhòuyǔ* – noto‘liq shakldagi, oxiriga yetkazilmagan xitoycha iboralar;

4) 惯用语 *guànyòngyǔ* – “ko‘p qo‘llanadigan jumla” (uch iyerogliflikar);

5) 俗语 *súyǔ* – “maqol va matal” birlashmasidir. [5,11]

Ushbu bo‘limlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ammo ularning barchasi bir nuqtada birlashadi. Ma Guofanning fikricha, tildagi barqaror birikmalarini bir tildan boshqasiga tarjima qilish qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, shuning uchun frazeologik iboralar tarjima qilinmaydi, balki ona tilidan mos idioma bilan uzatiladi. Xitoy tili sohasida yuqori malakali mutaxassis bo‘lish uchun biz nafaqat uning grammatikasi va individual leksik birliklarini bilishimiz, balki frazeologik iboralarni tushunishimiz va to‘g‘ri talqin qilishimiz kerak.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjimon asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

1. Asl birlik tasvirini ham, uning semantik tasvirini ham yetkazadigan frazeologik ekvivalentni tanlash. Ma’lumki, asl birlikka mutlaqo teng keladigan frazeologiyani tanlash qiyin. Bu lingvistik (ishchi tillar tuzilishidagi farq) va psixolingvistik (lingvistik dunyoqarashlardagi farq), shuningdek ekstralingvistik (tarix, madaniyat) bilan bog‘liq.

Shunga qaramay, bir qator koʻrib chiqilgan frazeologik birliklar tarkibiy qismlari nuqtai nazaridan tahlil qilish ularning toʻgʻridan-toʻgʻri va majoziy maʼnolarini aniqlash, shuningdek stilistik va hissiy maʼnolarining tasodifiyligi nuqtai nazaridan olib qaralganda ularni qisman yoki toʻliq ekvivalentlar guruhiga kiritish imkonini beradi.

Misol uchun, 半途而废 *Bàn tú ʼér fèi* soʻzma-soʻz tarjimasi: “Ishni yarim yoʻlda tashlab ketmoq” boʻlib, oʻzbek tilida ham xuddi shunday ibora mavjud. Mazkur ibora toʻliq ekvivalentlar guruhiga kiradi. Demak, 半途而废 *Bàn tú ʼér fèi* “Ishni yarim yoʻlda tashlab ketmoq”, “Ishni chala-chulpa qilmoq” deb tarjima qilinadi.

2. Frazeologik analog yordamida tarjima. Frazeologik birliklarni bir tildan tarjimada ikkinchi tildagi xuddi shu birlikni majoziy maʼnoda frazeologiyani tanlash lekin boshqa tasvirga asoslanib, hissiy va stilistik maʼnolarni saqlashga imkon beradi va shu bilan tarjimaning yuqori darajadagi ekvivalentligini taʼminlaydi.

Misol uchun, 抱薪救火 *Bào xīn jiù huǒ* soʻzma-soʻz tarjimasi: “Yoqilgʻi bilan yongʻinga qarshi kurashmoq” boʻlib, balodan qutulish uchun notoʻgʻri yoʻldan borib, uni yana-da kattalashtirib yuborishni bildiradi. Oʻzbek tiliga “Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqarmoq” maqoliga toʻgʻri keladi. Oʻzbek tilshunosligida aynan “yongʻin”, “uni oʻchirish uchun olovga oʻtin tashlash” voqeligi bilan bogʻliq frazeologik birlik mavjud emas. Shu sababli yuqoridagi iboralarni analogini izlaganimiz toʻgʻri yechim hisoblanadi. Maʼno bir, ammo shakl farqli.

3. Muayyan frazeologik birlikning soʻzma-soʻz tarjimasi. Bunda mutaxassislar fikri boʻyicha ikki guruhga boʻlinadi. Bir guruh tilshunoslar bunga nisbatan “soʻzma soʻz tarjima koʻpincha oʻzini oqlaydi” – desalar, ikkinchi guruh olimlari “tarjima qilinayotgan tilga nisbatan zoʻravonlik” – deb taʼrif beradilar.

Shu bilan birga, ekvivalenti boʻlmagan milliy xarakterdagi frazeologik birliklar soʻzma-soʻz tarjima qilinishi mumkin, bu tasvir oʻzbek oʻquvchisi tomonidan osongina idrok etiladi va unga gʻayritabiiylik taassurotini bermaydi.

Misol uchun, 我听说有志气的人不喝’盗泉’的水，廉洁的人不吃别人呼唤着施舍的食物 *Wǒ tīngshuō yǒu zhìqì de rén bù hē’dàoquán’de shuǐ，liánjié de rén bù chī biérén hūhuàn zhe shīshè de shíwù* “Yuksak fazilatli inson qaroqchilik bilan egallangan buloq suvini ichmaydi, or-nomusli esa tilab olingan sadaqani yemaydi”. Xitoy tilidagi ushbu maqolni soʻzma-soʻz tarjima qilish usulidan foydalanilganda, oʻzini oqlaydi deb hisoblaymiz. Sababi, maqol mazmuni yetarlicha yoritilib, oʻzbek oʻquvchisiga yetkazib berildi.

Ammo bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri, so‘zma-so‘z tarjima qilish har doim ham maqsadga muvofiq emas. Xitoy va o‘zbek tillarida frazeologik lakunarlik yuzaga kelganda, uni bartaraf etish uchun lakunarlik hodisasi frazeologik birlikning aynan qaysi turida ulushi katta ekanligini aniqlab olish kerak. Xitoy tilida frazeologik birlik turlarini yuqorida sanab o‘tdik. Xitoy tilidagi maqol, matallar o‘zbek tilida ham uchraydi. Ammo siehuoyu, guanggongyu, chengyular mavjud emas, bu esa tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘dirib, frazeologik lakuna(bo‘shliq)ni paydo qiladi. Mazkur atama ilk bor J.Shershunovichning ishlarida tilga olinadi va frazeologik lakunarlikni bartaraf etish uchun quyidagi usullarni taklif qiladi:

1) So‘zma-so‘z tarjima
2) Yangilik kiritish
3) Almashtirish
4) Tushirib qoldirish.[6,339]

Rus tilshunoslari esa obrazni qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlash; obrazni qisman o‘zgartirish; obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish; tarjimada obrazni butunlay saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish kabi to‘rt metodni ilgari suradilar. [7,157]

N.Ismatullayevaning “Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar” nomli monografiyasida frazeologik lakunarlikka ham to‘xtalib o‘tilgan va tilshunos olima quyidagi usullar yordamida frazeologik lakunarlikni bartaraf etish mumkinligini ta’kidlaydi.

a) so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida berish;
b) kalkalash;
c) tasviriy tarjima;
d) ma’lumot qo‘shish;
e) tushirib qoldirish. [8, 144]

Xulosa. Mazkur ishimiz davomida xitoy-o‘zbek tillari kombinatsiyasida frazeologik birliklarning tarjima masalalari, muammolari va uslublarini ko‘rib chiqish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

a) Frazeologik birliklar o‘zida xalqning milliy mentaliteti, an’analari, tarixi, millatning qarashlarini aks ettirgan bo‘ladi. Xitoy-o‘zbek xalqlarining xususiyatlari orasidagi tavofutlar katta bo‘lganligi bois frazeologik birliklarni tarjima qilish mushkulotni yuzaga keltiradi. O‘zbek o‘quvchisiga adekvat tarjima orqali mazmunini to‘liq yetkazib berish uchun tarjimon ekstralingvistik bilimlarga ham ega bo‘lmog‘i kerak.

b) Xitoy frazeologik birliklarini tarjima qilish masalalari dunyo tilshunoslari tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ingliz, rus tilshunos olimlari ularni tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjima, tushirib qoldirish,

almashtirish, analog tarjima, ekvivalentlik berish kabi usullarni surgan ekanlar.

c) O‘zbek tilshunosligida ham xitoy frazeologik birliklari borasida ham talaygina ishlar amalga oshirilgan. Xitoy-o‘zbek kombinatsiyasida frazeologik birliklarni tarjima qilishda so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida berish, kalkalash, tasviriy tarjima va ma’lumot qo‘shish yoki tushirib qoldirish kabi tarjima usullarini taklif qilgan ekanlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 宋均芬。汉语词汇学。北京：知识出版社，2002.页 180
2. Швейцер А. Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты.М.: Наука, 1988. 215 с.
3. Александрова Е. В. Фразеологизм как национально-культурная метафора: филолого-герменевтический аспект: Дис. канд. филологических наук. Тверь, 2015. 204 с.
4. Огольцев В. М. Семантизация культурного компонента языковой единицы в учебном словаре устойчивых сравнений // Словари и культуроведение. М. 1982. С. 130-137.
5. 马国凡. 成语 概论. 内蒙古人民出版社 呼和浩特, 1973 年.– 11 页. Mă Guófan. Iboralar haqida umumiy tushuncha. – Hū hé hào tè: Ichki mo‘g‘ul xalq nashriyoti, 1973. – B.11.
6. Szerszunowicz J. Frazeologik bo‘shliqlar tarjima muammosi sifatida. Qit’alar bo‘ylab frazeologiya bo‘yicha tadqiqotlar. Bialustok universiteti nashriyoti, Belystok, 2013. — B. 339.
7. G‘ofurov I, Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — Toshkent: Tafakkur. bo‘stoni, 2012.-B. 157.
8. Ismatullayeva N.R. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 144 b.

FORS TILIDA TILSHUNOSLIK TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI[1]

Muso FAYZULLAYEV
filologiya va tillarni o‘qitish (fors tili) yo‘nalishi, 3-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.N. Nuriddinov

Annotatsiya: Maqola Ahmadjon Quronbekovning “Forscha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari” lug‘ati asosida to‘plangan ba’zi tilshunoslik terminlari tadqiqiga bag‘ishlanadi. Terminlarning har biri struktur va semantik jihatdan tahlil qilindi. Terminlar guruhlarga ajratilgan holda izohlandi. Shuningdek, termin va terminologiya borasida soha mutaxassislari tomonidan keltirilgan ta’riflar kiritildi.

Kalit so‘zlar: so‘z, termin, tub so‘z, yasama so‘z, qo‘shma so‘z, birikma terminlar, istiloh.

Bugungi globallashuv zamonida yashar ekanmiz, o‘ziga xos bo‘lgan va jamiyat hayotida muhim o‘rin egallagan sohalar mavjud. Xususan, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy-huquqiy, ta’lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va shu kabi barcha sohalar yuzasidan olib borilgan islohotlar sabab tilshunoslikning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar soni ortmoqda. Va albatta bular ayni soha vakillari mutaxassisligidagi termin va tushunchalar borasida ma’lumotlardan xabardor bo‘lishlarini talab qiladi.

Termin so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, *terminus* — “oxiri”, “chek”, “chegara”, “tugash” degan ma’nolarni bildiradi. Istilohda tilning ma’lum sathidagina qo‘llanilib, ma’lum so‘z yoki so‘z birikmasining ma’nosini xususiy ma’no bilan ifodalab beruvchi so‘z birikmasi hisoblanadi [2].

Termin va so‘z tushunchasi o‘rtasida qanday farq mavjud. Termin haqida yuqorida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. So‘zga ta’rif keltiradigan bo‘lsak, *so‘z* – tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil ma’no ifodalaydigan eng kichik nutq birligi. Taqqoslasak: so‘z insonning ong-u tafakkuridagi o‘y va fikrlarni tilda ifodalaydigan tushuncha bo‘lib, keng qamrovli hisoblanadi va keng doirada foydalaniladi. Termin esa aynan bir soha, yo‘nalishda ishlatiladi va ma’lum

[1] Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, “Eron-afg‘on filologiyasi “kafedrasi ustozi, “Do‘stlik” ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori Ahmadjon Quronbekov (1943-2021) ning “Tilshunoslik terminlarining forscha-o‘zbekcha lug‘ati” ilmiy maqolamiz uchun asosiy manba vazifasini o‘taydi. 2012-yilda nashr etilgan lug‘atda terminlar alifbo tartibida berilgan bo‘lib, albatta o‘zbek tilidagi tarjimalari bilan birga ba’zi terminlarga izohlar keltirib o‘tilgan.

[2] www.linguistics.ru

bir sohadagi terminlar keyingi o‘zining ziddi bo‘lgan boshqa sohada ishlatila olmaydi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, “organik kimyo”, ushbu termin faqatgina kimyo fanida foydalaniladi. Biroq undan tarix fanida foydalana olmaymiz.

Termin borasida turli kitoblar, olimlar tomonidan turlicha ta’rif va fikrlar keltirib o‘tilgan. Termin yasash metodlariga qiziqish o‘tgan asrning 70-80-yillariga borib taqaladi. V.A.Tatarinov ta’kidlaganidek, terminlar paydo bo‘lmaydi, ular ehtiyoj natijasida o‘ylab topiladi[1].

AQSHda o‘tgan asrning 70-yillarida yaratilgan “The world encyclopedia dictionary” nomli kitobda terminga quyidagicha ta’rif beriladi:“Terminology – the special words and terms used inscience, art, business and economy”. Ma’nosi: “Terminologiya – fanda, san’atda, biznes va iqtisodda ishlatiladigan maxsus so‘zlardir[2].

A.A. Reformatskiy terminga quyidagicha ta’rif beradi: “Termin bu so‘z bo‘lib, o‘zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi, fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida bir ma’noli aniq so‘zdir. U ekspressivlikdan holi, muayyan predmet yoki tushunchani ifoda etuvchi, o‘zining qat’iy va aniq mazmuniy chegarasiga hamda izohiga ega bo‘ladi”[3].

Danilenka terminga quyidagicha aniqlik kiritadi.“Terminlar-lug‘at tarkibining bir qismi hisoblanib, muayyan fan va soha leksik birliklarining aniq nomi, ta’rifidir”[4].

G.Abdurahmonov shunday yozadi: “Atamalarning aniqligi va qat’iylashishligi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo‘lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog‘liq. Bu taraqqiyot to‘xtovsiz bo‘lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga solinishi ham uzluksiz bo‘ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi,darslik va qo‘llanmalar tuzish uchun ham,ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo‘lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi”[5].

[1] Татаринов В.А. История отечественного терминоведения: в трех томах. Московский Лицей, 1994, 311 с.
[2] https://fa.m.wiktionary.org
[3] https://termin.fan.taraqqiyot.org
[4] www.d.errsrgf/brtg/fgfg/
[5] www.effsf.ghtt.//ttyty/hh/

“Fors tili lug‘at tarkibining boyishida har doim ichki lingvistik usul ustun bo‘lib kelgan. Fors tilining qadimgi va o‘rta davrdagi so‘z yasalish jarayonlari va bu jarayonlarda qaysi bir so‘z yasash usuli yetakchi bo‘lganligi hali oxirigacha o‘rganilmagan. Bu o‘rinda shuni aytish kerakki, hozirgi fors tili so‘z yasalishida ot bilan bog‘liq so‘z turkumlariga oid so‘zlarda affiksatsiya, yarim affiksatsiya, transpozitsiya, qo‘shma so‘z, leksikalizatsiya usullari yetakchilik qilsa, fe’l bilan bog‘liq so‘z turkumlariga oid so‘zlarda frazeologik modelda so‘z yasash ustunlik qiladi. Shuningdek, fe’llarda qisman affiksatsiya usuli bilan yasalgan fe’llar va ba’zi konversiya usuli bilan yasalgan fe’llar uchrasa ham bu fe’llar allaqachon shakllanib ulgurgan. Hozirgi davrda so‘z yasash jarayonida asosiy ko‘zga tashlanadigan hodisa bu qadimiy va o‘rta fors tilidagi mavjud bo‘lgan morfema, o‘zak so‘zlar va affikslarni qayta tiklash va shuningdek, hozirgi zamon sof fors tili o‘zaklari va so‘z yasovchi qo‘shimchalari bilan yangi so‘zlarni yasash va muomalaga kiritish jarayonidir”[1]

Biz bevosita bu maqolamizda fors tilidagi tilshunoslik terminlarining struktur-semantik va genetik tahlilini amalga oshirdik. Biz bu manbadan topilgan misollar asosida terminlarimizni tub, yasama, qo‘shma, birikma, o‘zlashma terminlarga bo‘lib o‘rgandik.

Tub so‘z – so‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft, takror kabi turlarga bo‘linadi. Endi albatta bu atamalarning hammasi haqida so‘z yuritishimiz mumkin, ammo maqolamiz doirasidan tashqariga chiqmaslik uchun ayni yuqorida keltirilganlarning ayni bitta turiga bir oz to‘xtalib o‘tsak. Fanda sodda so‘zlarning o‘zi *sodda tub* va *sodda yasama* kabi qismlarga ajratilgan. Ular orasidagi farq so‘z yasovchi qo‘shimchaning bolish va bo‘lmasligida edi. Demak, tub so‘zlar yagona asosdan tashkil topgan va tarkibida hech qanday so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lmagan so‘z.

Biz manbalardan tub terminlarga oid 15 ta o‘zimiz uchun tanish bo‘lgan quyidagi terminologik misollarni kuzatdik:

T/R	Forschasi	Transkripsiyasi	Tarjimasi
1	تجوید	*Tajvid*	orfoepiya
2	مفضل	*Mofazzal*	qiyosiy daraja sifati
3	اشتقاق	*Ešteγāy*	so‘z yasalishi
4	تصریف	*Tasrif*	tuslanish
5	مفعول	*maf’ul*	to‘ldiruvchi
6	موصوف	*Mousuf*	aniqlanmish

[1] Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. Toshkent, 2019. 18-19 b.

7	اطناب	Etnāb	perifraza (bir so‘z o‘rniga boshqa so‘zning qo‘llanilishi. Masalan, podshoh o‘rniga olam panoh)
8	ادات	*Ādāt*	yuklama
9	التقاطی	*Elteγāti*	sinkretika
10	تحلیلی	*Tahlili*	analitika
11	ضمیر	*Zamir*	olmosh
12	تضاد	*Tazād*	antonim
13	مبتدا	*Mobtadā*	Ega
14	کنایت	*Kenāyat*	omonim
15	ریشه	*Rise*	o‘zak

تصریف ***Tasrif****-rā nabāyad bā* **ešteγāγ** *eštebāh gereft* اشتباه گرفت. را نباید با **اشتقاق**

“Tuslanishni yasalish bilan adashtirmaslik kerak” (https://www.almaany.com/fa/dict/arfa/%D8%AA%D8%B5%D8%B1%D9%8A%D9%81).

Yuqoridagi jumlada tilshunoslikka oid 2 ta tub so‘z kuzatildi.Bu terminlarimiz arab tiliga xos bo‘lib, تصریفso‘zi arab tilidagi II bob masdari bo‘lmish تفعیل qolipi asosida yasalgan. اشتقاقesa VIII bob masdar bo‘lmish افتعالqolipidan olingan.

Affiksatsiya. Hozirgi fors tilining boyish usullaridan biri affiksatsiya (lot.*affixus*-biriktirilgan) usuli bo‘lib, undan 80 dan ortiq so‘z yasovchi affiks ma’lum. Fors tilida so‘z yasash bo‘yicha O‘zbekistonda N.A. Muhammedova, A.A.Vohidov va boshqalarning bir qator ishlari mavjud. Rus olimlaridan L.S. Peysikovning “Очерки по словообразованию персидского язык” (M-1959) kitobi, L.N. Kiselevaning “Очерки по лексикологии языка дари” (1973) kitoblari mavjud. Shuni aytish kerakki, affiksatsiya usuli bilan so‘z yasash asosan doimiy jarayon bo‘lsa ham lekin affikslarning tarkibi va miqdori o‘zgaruvchan bo‘lgan.

Ushbu usulga xos quyidagi tilshunoslik terminlar kuzatildi:

T/R	Forschasi	Transkripsiyasi	Tarjimasi
1	واژک	*Vāžak*	Morfema
2	خیشومی	*Xišumi*	dimog‘dor tovush
3	بیشکل	*Bišekl*	Allamorf

واژک ***Vāžak*** *kučektarin vāhed-e ma'nādār-e zabān mibāšad* کوچکترین واحد معنادار زبان می باشد. "**Morfema** tilning eng kichik ma'noli birligidir".

https://fa.m.wiktionary.org/wiki/%D9%88%D8%A7%DA%98%DA%A9

Yuqoridagi jumlada affiksatsiya usulida yasalgan 1 ta tilshunoslik termini kuzatildi. Uning yasalishiga e'tibor bersak, واژک [*vāžak*] so'zining asosi واژه[*vāže*] va unga ک [ak] suffiksi qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Blokli fe'liy yarimaffiks - o'z mohiyatiga ko'ra so'z yasalishining ikki asosiy usulini o'zida mujassamlashtiradi. Yarimaffikslar sodda va murakkab shakllarda bo'lib, ko'pincha so'zlarning hozirgi zamon negizi hamda ot so'z turkumiga oid so'zlar bo'ladi. Yarim affikslarning affikslardan farqi shundaki, ular o'z ma'nosini aniqroq saqlab qolgan bo'ladi. Yarimaffikslar orqali yasalgan so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan blokli yarimaffikslar hosil qilinadi. Hozirgi fors tilida yarimaffikslarning ikki turi mavjud:

1) Fe'liy yarimaffikslar

2) Ismiy yarimaffikslar

Tahlillar davomida tilshunoslik terminlari asosan blokli fe'liy yarimaffikslar bilan yasalishi aniqlandi:

T/R	Forschasi	Transkripsiyasi	Tarjimasi
1	**نوپردازی**	*noupardāzi*	neologizm
2	**سازگاری**	*sāzgāri*	moslashuv
3	**واجشناسی**	*vājšenāsi*	fonologiya
4	**بازگویی**	*bāzguyi*	parafraza

از نظر **ریشه شناسی** واژه **نولاژیزم (نوپردازی)** از زبان یونانی گرفته شده است.

*Az nazar-e **rišešenāsi**, vāže-ye noulāžizm (**noupardāzi**) az zabān-e yunāni gerefte šode ast* "Etimologik nuqtai nazardan **neologizm** yunon tilidan olingan" (https://uz.warbletoncouncil.org/neologismo)

Bevosita yuqorida keltirilgan misolning tarkibiga e'tibor qaratsak, **نوپردازی***[noupadāzi*] so'zini 3 qisimga ajratamiz a)**نو** [*nou*][1] 1) "yangi" – asl forscha so'z; b) **پرداختن** [*pardāxtan*] hozirgi zamon negizi **پرداز** [*pardāz*][2] "to'lamoq" – asl forscha so'z. ***ی*** esa affiksal so'z yasovchi qo'shimchadir.

[1] Персидско-русский словарь в 2-х томах под ред. Ю.А. Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. II том С. 669.

[2] Персидско-русский словарь в 2-х томах под ред. Ю.А. Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. I том С. 282.

Ushbu qo ’shimcha fors va arab tilida ham mavjud. Demak, mazkur tilshunoslik termini to‘laligicha fors tiliga xos ekan.

So‘z birikma shaklidagi terminlar – birikma terminlar ko‘proq terminologik xarakterda bo‘ladi va u birikma holida bir tushunchasini beradi. Unda hokim bo‘lak tushuncha mohiyatini bildirib, tobe bo‘lak uning nimaga xosligini belgilaydi yoki ma’noni mo‘ljallagan hajmigacha toraytirib ifoda etishga xizmat qiladi. Birikma terminlar ma’nosi terminologik xarakterda bo‘ladimi yoki yo‘q albatta, nomlovchilik xususiyatini saqlab qoladi. Bu uning nomlovchi ma’nosi ham hokim, ham tobe bo‘lakdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ular so‘z turkumlari nuqtai nazaridan cheklangan emas va asosan ular ot turkumida ko‘p kuzatilganligi bilan diqqatga sazovordir [1].

Izlanishlar natijasida so‘z birikma shaklidagi 25 ta tilshunoslik terminlari aniqlandi:

T/R	*Forschasi*	*Transkripsiyasi*	*Tarjimasi*
1	ادات عطفی	*ādāt-e atfi*	bog‘lovchi
2	ادات ندا	*ādāt-e nedā*	undov yuklamalari
3	ضمیر پرسش	*zamir-e porseš*	so‘roq olmoshlari
4	ارکان جمله	*arkān-e jomle*	gap bo‘laklari
5	اسم جامد	*esm-e jāmed*	sodda ot
6	اسم جمع	*esm-e jam’*	ko‘plik sondagi ot
7	اضافه ی تبیینی	*ezāfe-ye tabyini*	Aniqlovchi
8	فعل کمکی	*fe’l-e komaki*	yordamchi fe’l
9	فعل امر	*fe’l-e amr*	buyruq mayli
10	بحث صرفی	*bahs-e sarfi*	morfologik tahlil
11	بحث نحوی	*bahs-e nahvi*	sintaktik tahlil
12	فعل ماضی بعید	*fe’l-e māzi-ye baid*	uzoq o‘tgan zamon fe’li
13	جمله ی اخباری	*jomle-ye axbāri*	darak gap
14	زبان تصریفی	*zabān-e tasrifi*	felektiv til
15	فعل متعدی	*fe’l-e motaaddi*	o‘timli fe’l
16	فعل لازم	*fe’l-e lāzem*	o‘timsiz fe’l
18	جمله ی فعلی	*jomle-ye fe’li*	fe’l kesimli gap
19	اسم مصدر	*esm-e masdar*	harakat nomi
20	زبان کلاسیک	*zabān-e kelāssik*	klassik til
21	زبان مرده	*zabān-e morde*	o‘lik til
22	ساختمان فعل	*sāxtemān-e fe’l*	fe’l tarkibi
23	صفت شمارشی	*sefat-e šomāreš*	miqdor son

[1] A.Madaliyev. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiya masalalri. – Toshkent. – B.60.

24	فعل ماضی	*fe’l-e māzi*	o‘tgan zamon fe’li
25	اسم نکره	*esm-e nakare*	noaniq ot

ضمیر پرسش ***Zamir-e porseš*** برچند پدیده دلالت می کند *barčand padide delālat mikonad* “**So ’roq olmoshi** bir necha hodisalarga ishora qiladi”. *https://utype.ir/docs*

Yasalishi jihatdan ضمیر [*zamir]* so‘zi "الدروس النحو"*[addurusun nahu]* va مبدأالنحو *[mabdaunnahu]* [1] kabi arabiy manbalarda olmosh ضمیر deb keltiriladi. پرسش *[porseš]* so‘zi esa پرسیدن *[porsidan]* “so‘ramoq”[2] felining hozirgi zamon negiziga harakat nomini yasovchi qo‘shimcha ش*[eš]* qo‘shish orqali yasalgan. Demak, mazkur tilshunoslik termini forsiy-arabiy hisoblanadi.

Fors tili tilshunoslik terminlarining struktur-semantik tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Nazariy bilimlarga asoslangan holda manbadan to‘plangan jami 47 ta tilshunoslik termini o‘rganildi va tahlil etildi. Mazkur terminlarning 60% dan ko‘p qismi o‘z qatlam va 40%dan kamroq qismini esa o‘zlashma qatlam tashkil qildi. Terminlarning so‘z yasalishidagi tahlilida tilshunoslikka oid tub terminlar (15 ta), affiksatsiya usuli orqali yasalgan terminlar (3 ta), blokli fe’liy yarimaffiksatsiya usulida yasalgan terminlar (4 ta), birikma shaklidagi tilshunoslik terminlari (25 ta) mavjudligi aniqlandi. Tahlillar natijasi tub va birikma shaklidagi terminlarning sermahsulligini ko‘rsatdi. Tub tilshunoslik terminlarining katta qismini (11 ta) arab tilidan o‘zlashgan terminlar tashkil etdi. Birikma shaklidagi tilshunoslik terminlari orasida izofali so‘z birikmalarining mahsuldorligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Quronbekov. Tilshunoslik terminlarining forscha-o‘zbekcha lug‘ati. –Toshkent, 2012. – 73 b.
2. A. Quronbekov, N. Nuriddinov. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019. – 144 b.
3. A.Madaliyev. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiya masalalari. – Toshkent. – B.60.
4. Sunnatillox Bekpo‘latov. Nahu fanidan darslik. – Toshkent, 2018. – B.125.
5. Персидско-русский словарь в 2-х томах под ред. Ю.А.Рубинчика. – М.: Русский язык, 1983. – 800 с, 864 с.

[1] Sunnatillox Bekpo‘latov. Nahv fanidan darslik. Toshkent, 2018. – B.125.

[2] Персидско-русский словарь в 2-х томах под ред. Ю.А. Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. I том С. 286.

6. Татаринов В.А. История отечественного терминоведения: в трех томах. – Московский Лицей, 1994, – 311 с.
7. www.linguistics.ru
8. https://fa.m.wiktionary.org
9. https://termin.fan.taraqqiyot.org
10. www.d.errsrgf/brtg/fgfg/
11. www.effsf.ghtt.//ttyty/hh/

YAPON TILSHUNOSLIGIDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

Madina ABDUKAYUMOVA
TDSHU, magistranti

Annotatsiya: Til – o‘zida milliy qadriyatlarni birlashtirib, xalqning boy va cheksiz madaniyatini namoyon etib turuvchi eng mustahkam zanjir, ma’naviy xazina hisoblanadi. Tilning nisbiyligi esa madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam doimo bir-birini taqozo etadi. Til o‘zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o‘rinda tilsiz mukammal namoyon bo‘la olmaydi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, milliylik, aspekt, urf-odatlar, lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, lison, iyerarxiya, muloqot, kundalik hayot, hurmat kategoriyasi.

Atrofimizda sodir bo‘layotgan har qanday voqelikni idrok etish va anglash uni milliy-madaniy xususiyatlarini bilishga bo‘lgan qiziqish qadimdan barcha olimlarni qiziqtirib kelgan. Bu borada turli xil qarashlar ham shakllangan. “Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishadi “ [1] (Gachev 1967: 78; Qarang: Gachev 1995). G.D. Gachevning bu fikri bundan 30-yil avval aytilgan bo‘lsa-da, barcha tilshunoslar, olimlar uchun bu yangilik emas edi. Yapon tilshunos olimi yamamoto(1982) ta’kidlaganidek, “Til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, u madaniyatni o‘zida aks ettiradi”. [2] Ishii, Kume va Toyamaning (2001)

[1]Гачев Г. Национальная образы мира. Космо – психологос. М., 1995.

[2] 山本七平.日本人と外国語」「国際交流と言語文化 』企業内語学教育研究会編 ,語研. 1982

fikricha, “Madaniyat bu odamlarning atrofdagi ish-harakat va narsalarni talqin qilish uchun tayanadigan “mulohazalar me’yori”, shuningdek, odamlar ma’lum bir vaziyatlarda deyarli ongsiz ravishda foydalanadigan “yashirin mezonlar”dir. Madaniyat bu hayot qoidasidir va hayot muammolarini hal qilish harakatlarida “nazorat minorasi” vazifasini bajarib keladi[1]. Shuning uchun odamlar muloqot qilganda, ularning xatti-harakatlariga madaniyat katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, tilni jonli muloqot kontekstida ko‘rib chiqsak, biz ushbu tilda gapiradigan odamlarning madaniy kelib chiqishi haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin.

Darhaqiqat har qanday insonning shakllanishida, rivojlanishida madaniyatning o‘rni o‘zgachadir. Insonlarning nafaqat aqliy faoliyati, balki oddiy hayotdagi faoliyatlari ham madaniyatda namoyon bo‘ladi. Har bir millatning madaniyati bir-biridan moddiy va ma’naviy jihatlari bilan ajralib turadi. Bunday farq kelib chiqishining asosiy sababi o‘sha millatning tushunish qobiliyati, o‘zlashtira olish jarayonidadir. Bundan tashqari madaniyatga inson yashayotgan hududi, undagi tabiat hodisalari ham katta ta’sir o‘tkazadi. Madaniyat ham til kabi bo‘lib, u ham hech qachon qotib qolmaydi, u doimo o‘zgarishda bo‘ladi, boshqa madaniyatlar bilan qorishib, taraqqiy topadi. Hech bir xalq vakili madaniyatli bo‘lib tug‘ilmaydi, u yillar davomida jamiyat tarkibida madaniyatga erishadi. Madaniyatni shakllanishida insonlar o‘rtasidagi muloqot muhim o‘rin egallaydi.

Til doimo madaniyat bilan bog‘liq. Til orqali shu davlatning iqlimi, geografik joylashuvi, urf-odatlari, mentaliteti, his-tuyg‘ulari ifodalanadi. Insonlarning turmush tarzi ham uning tilida namoyon bo‘ladi. Shunchaki tilni o‘rganib, shu til tashuvchilari bilan gaplashganda orada ba’zi bir tushunmovchiliklar ham kelib chiqishi mumkin. Bu kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab tilni madaniyat bilan bog‘lab o‘rganilmagan-ligidandir. So‘nggi yillarda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar muammosiga qiziqish tobora oshib borishi tufayli yangi fan – lingvomadaniyat vujudga keldi. Til va madaniyat orasidagi masalalarini lingvokulturologiya fani atroflicha o‘rganishga kirishdi. Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma’naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g‘oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya

[1] 石井敏久米昭元遠山淳．『異文化コミュニケーションの理論 :新しいパラダイムを求めて』2001 .

fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi[1].

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliyava, V.V.Vorobyov, V.A.Maslovava boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar[2]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi[3]. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarashlarga ko‘ra, til nafaqat madaniyat bilan bog‘liq, balki u o‘zida madaniyatning o‘sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o‘zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta’minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma’naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi. Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi va XX asrning 90- yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

Til o‘zida voqelikni aks ettirsa, madaniyat esa shu voqelikning bir qismi sifatida ta’riflanadi. Shu sababdan ham bu ikki tizimni o‘zaro aloqador deb ta’riflashadi. Shu sababdan ham bu ikkala tizimni o‘xshash, umumiy tomonlari borligini ham yoddan chiqarmasligimiz darkor.

“Lingvomadaniyat” tushunchasini rivojlanishida muhim o‘rin egallagan V.N.Teliya bunday umumiyliklar sirasiga quyidagilarni kiritgan:

Madaniyat, xuddi lison kabi bo‘lib, u insonlarning dunyoqarashini aks ettiruvchi ongning bir shaklidir

Til va madaniyat o‘zaro muloqotda bo‘ladi

Til va madaniyatning subyekti –individ yoki ijtimoiy guruh sanaladi

Me’yoriylik, tarixiylik til va madaniyat uchun umumiy xususiyatlardir

---

[1] Z.N.Xudoyberganov, “Tarjimaning lingvomadaniy masalalari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent- 2016, 20-21-betlar

[2] V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to‘g‘risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. NurmonovA.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.23-40

[3] Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.

Til va madaniyatga “dinamika –statika” qarama-qarshiligi bir xilda xosdir (Teliya 1996: 225-226). Bu ikki tushuncha bir – biriga qanchalar yaqin bo‘lmasin, lekin ularni ajratib turuvchi xususiyatlar ham talaygina. Masalan, bu ikki hodisaning tizimiylik ko‘rsatkichida farq seziladi, ya’ni madaniyat ham o‘ziga xos belgilar sistemasidir. Lekin u til sistemasidan farqli ravishda tuzilishi, vazifalariga ko‘ra boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Tildan jamiyat a’zolari bir xil vazifada foydalansalar-da, madaniyatdan elitarlik namoyon bo‘ladi. Tilning madaniyat uchun “xizmat” qilishini madaniy – ma’naviy boylik, axborot manbalarini saqlash, ularni avloddan – avlodga yetkazish hamda madaniy tushunchalar va konseptlar, stereotip va etalon-namunalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etishini hech qachon inkor etib bo‘lmaydi. Til va madaniyat o‘rtasidagi determinizm, ya’ni o‘zaro bir-birini taqozo etish haqiqiy “o‘zarochilik”dir. Shu sababdan ham dunyo olimlari tomonidan til va madaniyat munosabati turli jabhalarda o‘rganilayotgani ham bejiz emasdir. Bu borada ayniqsa, Y.Sorokin, V.Teliya, E.Vereshagin, A.Vejbitskaya, V.Kostomorov, D.Olford, D.Xayms kabi tilshunos olimlarning e’tiborini tortib kelmoqda. Bu masala nutq madaniyatiga oid Y.Skvortsov, E.Begmatov, A.Mamatov, B.O‘rinboev kabi olimlarning tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi Keyingi yillarda tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakl topishi V.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, S.Ter-Minasova, D.Ashurova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan.

Lingvokulturologiya faning rivojlanish bosqichlari ikki davrga bo‘linadi: birinchi davr V.Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir va boshqa olimlar ishlarning rivojlanish davri, ikkinchi davr esa lingvokulturologiyani mustaqil o‘rganish tarmog‘i sifatida shakllanishidir. Fanning rivojlanish dinamikasi esa yana bir davr, ya’ni uchinchi davrni kuzatishni taqozo etadi, bu lingvokulturologiyani fanining fundamental fan sifatida paydo bo‘lishidir. Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til , tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, tili ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakteri, milliy mentaliteti sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning fikricha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”[1]. Lison va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyatni birgalikda, bir-biridan ayro qilmagan holda.

“Til va madaniyat” muammosining o‘rganilishida bir qancha yondashuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondashuv faylasuf olimlar: S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryanlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’siridan borliqning o‘zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi[2].

Navbatdagi yondashuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali tomoni – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat

[1] Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ.в.1.М.,1960.
[2] Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1. М.,1960

sifatida tushunish bu yondashuvning asosiy g‘oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish V.Gumboldt, A.A.Potebnya kabi olimlarning ishlarida, shu asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya’ni har bir xalq borliqni o‘z ona tilisi orqali ko‘radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g‘oya yotadi. Bu g‘oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O‘tkinchi dunyo”, ya’ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qaraluvchi g‘oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko‘pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo‘lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo‘lgan hodisalarni anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy va izdoshlarining lingvoantropologik yo‘nalishdagi ishlari buning yorqin isbotidir. Uchinchi yondashuv to‘g‘ridan-to‘g‘ri til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va aloqadorligi g‘oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning maxsus qirralarini o‘zida aks ettiradi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda” joylashgan, ya’ni u matnda to‘laligicha o‘zini ifoda etadi.

Yaponiya davlati o‘ziga xos orollar jamlanmasidan tashkil topgan, qadimgi davlatlardan biri hisoblanadi. Uning atrofini to‘rt tomondan suv qoplab, iqlimi issiq ham emas, sovuq ham emas, bu esa Yaponiyani yashash uchun qulay hududga aylantiradi. Yaponiyaning joylashuv hududi va tabiati qadim zamondan yapon xalqining fikrlash tarziga ta’sir etib kelgan. Yapon xalqining dunyoning yaralishi, Yaponiyaning paydo bo‘lishi haqida qarashlarida ham tog‘lar, tepaliklar obrazlari uchrab turadi. Dunyodagi har qanday qit’adan ajralib turuvchi bu davlat odamlari o‘zlarining tarixlarini xudolar va ma’budalar haqidagi afsonalarga bog‘laydilar. Vaqti-vaqti bilan tabiat ofatlari, tayfun, zilzila sodir bo‘lib turadi, lekin bu ofatlar o‘tib ketgach yaponlar yana tabiat bilan do‘st bo‘lib yashay boshlaydilar. Ular boy tabiatga egalar, shu sababdan ham istagan narsalarini qo‘lga oson kiritadilar. Shu sababdan bo‘lsa kerak yaponlardagi tabiat haqidagi qarashlar, tabiat bilan uyg‘unlik tuyg‘ulari, tabiatga moslashuvchanlik boshqa biron-bir xalq madaniyatida bu darajada chuqur berilmagan. Ularning dunyoqarashi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan o‘ljalarning kam-ko‘pligi bir inson tomonidan boshqarilmaydi, tabiat tomonidan belgilanadi. [1]

Yaponiya davlati o‘rta asrlarga qadar chet elliklar uchun yopiq davlat bo‘lgan. Meyji tiklanishidan oldin Tokugava syogunlari yapon va gaijin (chet elliklar) o‘rtasidagi aloqaga qattiq cheklovlar qo‘ygan edilar. Hattoki Yaponiyani tark etgan yaponlarga o‘lim azobi ostida qaytish taqiqlangan edi. Bu orqali ular o‘z madaniyatlarini saqlab qolmoqdamiz deya

[1] O Hui Wang. Language and its cultural context. China and Japan compared. Dissertation 2003 .67-69pg

o‘ylaganlar. Yaponlar madaniy va ijtimoiy jihatdan bir xil irqiy jamoa bo‘lib, bu holat hozirgi kungacha deyarli o‘zgarmagan. Bundan tashqari yapon madaniyati boshqa barcha madaniyatlardan o‘zgachaligi bilan farq qiladi(Gudykunst, 1993)[1]. Buni hattoki tilda ham yaqqol uchratish mumkin. Yapon tiliga o‘tgan asr davomida boshqa madaniyatlardan o‘zlashib kirib kelgan so‘zlar yapon tilidagi so‘zlardan farqli ravishda yoziladi, ya’ni ularga katakana alifbosi qo‘llaniladi, deya ta’kidlaydi Shilling(2000)[2].

Yaponiya madaniyati ko‘pincha iyerarxiya, uyat, burch, uyg‘unlik va qaramlikka asoslangan jamiyat hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida uning tilida ham aks etadi: ya’ni Yaponiyadagi muloqot vazminlik, hissiyot, sukunat, ikkilanish, subyektivlik, vaziyatni o‘ylash va o‘ziga xoslikni qadrlaydigan tilga asoslanadi.[3]

Yaponiyada tilshunoslikka oid qarashlar mashhur rus tilshunosi Alpatovning ishlarida ham keng yoritib berilgan. Qadimdan Xitoy va hind tillari ta’sirida shakllangan yapon tiliga XIX asrdan boshlab Yevropa tillarining ta’siri orta borgan[4]. Ikkinchi jahon urushiga qadar Yaponiyada yozma tiling ba’zi bir jabhalaridagina ko‘zga tashlanuvchi bir ikkita tadqiqotlar bo‘lgan bo‘lsa-da, Tokieda Motoki (1990-1967) va Nishio Minoru (1889-1979) kabi tadqiqotchilarning asarlari, tilga doir ishlari, “Til – borliq” (“Lingvistik borliq”) deb atalmish maktab tufayli bu boradagi tadqiqotlar ko‘paya boshladi. “Lingvistik borliq” maktabi deb ataladigan lingvistik yo‘nalish tildan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Ma’lum ma’noda bu yo‘nalish lingvokulturologik xususiyatga ega, chunki u zamonaviy madaniyat sharoitida tilning funksiyalarini ushbu madaniyatga xos bo‘lgan tushunchalar tizimiga asoslanib o‘rganadi.[5] So‘nggi yillarda yapon tilshunoslari so‘zlashuv nutqi va tilning kommunikativ jihatlariga ko‘proq e’tibor bera boshladilar, sotsiolingvistika va psixolingvistik tadqiqotlar amaliyoti yanada rivojlandi. Biroq, zamonaviy yaponshunoslar

[1] Гудынкунст В.Б. Связ в Японии и США.Олбани.Нью-Йорк: Государственный университет Нью-Йорка Press.1993.

[2] Shilling M.” The Encyclopedia of Japanese Pop Culture”. New York: Weatherhill. 2000.

[3] Maynard.S. Priniples of Japanese Discourse. Cambridge University Press 1998; Spencer-Oatey, H. Culturally speaking: Managing Rapport through Talk across Culture. London. Continuum International Publishing Group.2000

[4] Алпатов В.М..Япония: язык и общество. – Москва.2003

[5] Гуревич Т.М.Концепт «человек» в японской языковой картине мира. Дис... канд.филол.наук. М., 2006. С. 65-66.

aytganidek, “bu erda hali so‘zlashuv nutqining milliy nazariyasi shakllanmagan” [1].

Yaponiyaliklar nuqtai nazaridan madaniyat haqida gapirganda, ularning ushbu tushunchani idrok etishlarida ba’zi o‘ziga xosliklarni qayd etmaslik mumkin emas. Rus tilshunosi Gureyevichning so‘zlariga ko‘ra Yevropa tillariga “madaniyat” deb tarjima qilingan yaponcha ぶんか bunka so‘zi Xitoy tilidan kelib chiqqan: 文 birinchi iyeroglifining etimologiyasi “chizma” , “bezak”, ikkinchisi – 化 “o‘zgarish”, “sehr” ma’nosini beradi. Demak yapon tilida so‘zlashuvchining ongida 文化 “go‘zallik va o‘zgarish” so‘zlari bilan bog‘langan holda namoyon bo‘lar ekan.[2]

Yapon tilida til va madaniyat orasida o‘zaro aloqa mavjud bo‘lib, dunyoda yapon tili kabi gap qurilishiga ega bo‘lgan tillar 45%ni, Ingliz tili kabi gap qurilishiga ega bo‘lgan tillar 35%ni tashkil etadi. Shu sababdan ham har qanday tilda madaniyat va til munosabatlarini o‘rganishda har bir tilni alohida ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi[3]. Tilshunoslardan Mie Tsunoda til o‘rganishda ikki xil munosabat borligini aytib o‘tgan ,bulardan biri lingvistik instrumentalizm, hamda madaniy rakurs deya aytib o‘tgan[4]. U tilni shunchaki muloqot vositasi deya aytadi. Bundan tashqari, Tsunoda o‘zaro madaniy tushunish – ta’limni til va madaniyat bilan bog‘laydigan muhim nuqtai nazar ekanligini targ‘ib qildi va buning sabablarini batafsil tushuntirgan.

Yapon tilshunosligida faqat 20-asrning o‘rtalaridan boshlab e’tiborni tilning yozma shakllaridan og‘zaki tilga, nutq kommunikativ faoliyatiga qayta taqsimlash boshlangan. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda ko‘plab xorijiy, yapon olimlari, tilshunoslar, sotsialingvistlar, psixolingvistlar, madaniyatlararo aloqalar sohasida faoliyat yurituvchi tadqiqotchilar lingvomadaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qiladigan ko‘plab asarlarini yozishda davom etmoqdalar. Ushbu yo‘nalishda ish olib borayotgan tadqiqotchilar ro‘yxatida R.A. Miller, S. Makino, L. Loveday,

---

[1] Тумаркин П.С. Лексические и фразеологические свойства японской разговорной речи. Дис... канд.филол.наук. — М. 1999

[2] Гуревич Т.М. Концепт «человек» в японской языковой картине мира. Дис... канд.филол.наук. М, 2006. С.

[3] Steele, Susan, Word order variantion. Universals of Human Languages 4:585-623. Stanford: Stanford University Press.1978.

柴谷、影山太郎　他”言語の構造—意味、統語篇“東京：くろしお出版.1982.

[4] 三枝角田 “日本語クラスの異文化特徴：日本語教育の新たな視点”東京：くろしお出版.2001.

H. Befu, R.T. Donahue,M. Koul, J. Hinds, J.V. Neustupny, Doi T., Oono S, Suzuki T., Shibatani M., Fukuda E. va Yu., Haga Y. va boshqalardir.

Muloqot kommunikatorlarning madaniy namunalari va qadriyatlarini aks ettiradi. Yapon tili xilma-xillikka yo‘naltirilgan tildir. Til va madaniyat o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatni taxmin qilmasak ham, tan olish kerakki, xilma-xillikka sezgir bo‘lgan yapon tili asosan yapon madaniyati naqshlarini o‘zida aks ettiradi. Yapon tili — erkak va ayol lug‘ati, iboralar va urg‘ularni ajratib turadigan til. Yapon tilida erkaklar nutqiga oid so‘zlar qo‘polroq, qat’iyatli shaklda bo‘lishi kerak, ayollar nutqiga oid so‘zlar esa yumshoq, xushmuomala va itoatkor so‘zlarni , birikmalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Hatto o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish darajasida ham, “men”, boku, ore va washi ning erkak iboralari rasmiylik darajasi jihatidan ayollar ishlatadigan vatashi va vatakushidan farq qiladi (Oatey, 2000)[1].

Yapon tili ham iyerarxiyaga yo‘naltirilgan tildir (Yoshio, 2004)[2]. Hech shubha yo‘qki, iyerarxik farqlar yaponiyaliklarning kundalik hayotidagi o‘zaro munosabatlariga ta’sir qiladi. Darhaqiqat, ko‘p holatlarda, agar siz boshqa odamlarni o‘zingizga nisbatan dinamik jihatdan qaysi pog‘onada ekanliklarini bilmasangiz, o‘zingizni bu inson oldida qanday tutish kerakligini tushunish qiyin bo‘ladi. Bunga misol tariqasida salomlashishni olsak. Chunki salomlashish jamiyatdagi eng sodda muloqot ko‘rinishidir. Martabasi jihatidan yuqori bo‘lgan shaxslar oldida chuqur ta’zim, mansabi yuzasidan pastroq kishilar oldida esa yengil ta’zim qilish kifoyadir. Shu o‘rinda agar qarshimizdagi insonni qay maqomda ekanligini bilmasak, kutilmagan vaziyat yuzaga keladi, chunki har bir tomon yuqori tomonda emas, balki pastki tomonda xato qilish yaxshiroq degan taxmin bilan chuqurroq ta’zim qilib turishga harakat qiladi. Shu sababdan ham Yaponiyada ilk marta uchrashganda tashrif qog‘ozlarini almashtirish odat tusiga kirgan. Shu o‘rinda Yaponiyada lingvomadaniyat, madaniyatning tilda aks etishini yana bir yaqqol namunasi sifatida ikki kishi orasidagi kundalik suhbatlarda ham ko‘rish mumkin. Suhbatdoshlar o‘rtasidagi suhbat ularning yoshi, maqomi, jinsi, oilaviy qarindoshligiga qarab belgilanadi, nutqda kerakli bo‘lgan hurmat kategoriyalaridan biri tanlanadi. Agar bu kategoriyalar xato tanlansa, bu haqoratli vaziyat yuzaga kelishiga sabab bo‘lib qolishi, yoki aksincha yaqin insonga o‘ta rasmiy shakldan foydalanilsa oraga sovuqchilik tushishiga sabab bo‘ladi. Suhbatdagi

[1] Spencer-Oatey, H. Culturally speaking: Managing Rapport through Talk across Culture. London. Continuum International Publishing Group. 2000.

[2] Yoshio S. An Introduction to Japanese Society. Cambridge University Press. 2003

hamrohimizni kim ekanligini, oradagi munosabatni aniqlashtirib olinmasa, suhbatni davom ettirib bo‘lmaydi.[1]

Ma’lumki, turli madaniyatlar suhbat davomida suhbatdoshlar o‘rtasida saqlanadigan turli masofalar bilan tavsiflanadi. Yaponiyada bunday masofa doimiy qiymat emas, balki tanishlik darajasi, joylashuvi, rasmiy mavqeyi, yoshi, jinsi, hurmat darajasi va muloqotning umumiy kontekstiga qarab har doim o‘zgarib turishi bilan muammo murakkablashadi. . Aytgancha, yapon tilida xushmuomalalikni ifodalash vositalarining taniqli keng rivojlangan murakkab tizimi yaponlar uchun bu masofani tartibga soluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Suhbatdoshning ma’lum toifadagi xushmuomalalikdan foydalanishi darhol yaponlarga bu holda qaysi masofa jismoniy jihatdan maqbul bo‘lishini ko‘rsatadi. Yaponlarning eng o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ehtimol, xushmuomalalik va rasmiyatchilik darajasidagi keskin farqlardir. Bu farqlar, ayniqsa, Yaponiyada ikki sababga ko‘ra seziladi. Birinchidan, Yaponiyaning feodal o‘tmishidan kelib chiqqan va hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan ijtimoiy kelib chiqishi va yoshdagi farqlarining ahamiyati; ikkinchisi yaponlarning suhbatdagi ba’zi bir jumla elementlarini, ayniqsa kontekst yoki xushmuomalalik darajasidan allaqachon aniq bo‘lgan qismlarni tashlab gapirishlaridir(Reichauer, 1994)[2]. Bunday qoida oilada ham, oila munosabatlarida ham yaqqol ko‘rinadi: aka-uka va opa-singillar har doim katta yoki kichikligiga qarab ajralib turadi. Oilaning yoshi kichik a’zolari yoshi kattalarga qarindoshlik atamasi bilan murojaat qilishadi, kattalar esa kichiklarga ismlari bilan murojaat etishadi. Bu qoida jamiyatda ham davom etadi. Jamiyat a’zolari iyerarxik miqyosda nomlangan lavozimlarga ega bo‘lgan muassasalarda, martabasi kichiklarga ismlari bilan murojaat qilishsa, martabasi quyi shaxslar mansabi yuqori shaxslarga lavozimlarini aytib murojaat etishadi. Shunday qilib, yapon tilining eng xarakterli xususiyatlaridan biri onorifikatsiya juda murakkabligi ko‘rishimiz mumkin. Hurmat kategoriyalarining iboralari turlarining soni ularning murakkabligi bevosita tilda ham madaniyatda ham aks etadi. Bu kategoriya so‘zlovchi va tinglovchi va gapirilayotgan shaxs o‘rtasidagi har xil munosabatga asoslanib, turli so‘zlar yordamida inson munosabatlarini oydinlashtirib beradigan iboralardir (Nagara, 1990)[3]. “Keygo ta’limining

[1] Hendry J. Intercultural communication: An introduction. Thousand Oaks, CA: Sage publications. 2003

[2] Reischaur E.O. The Japanese today: change and continuity. Charles E. Tuttle Company.1994

[3] 名柄迪 . 講座日本語と日本語教育 :日本語の文字表記 . 明治書院 . 1990

asosiy muammolari” asarida iyerarxik munosabatlar va intim munosabatlar quyidagicha tasniflanadi. Iyerarxik munosabatlar:

1. Ierarxik munosabatlar (taxminan ijtimoiy tizim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy tabaqa)
2. Tug‘ma iyerarxik munosabatlar (yosh eng asosiy hisoblanadi. Turli ijtimoiy guruhlar va odamlar o‘rtasidagi yosh farqi
3. Tarixiy iyerarxiya (xizmat muddati, undan oldin) va tajribaga asoslangan; katta / kichik va h.k.)
4. Martaba iyerarxiyasi (masalan, kompaniyadagi martaba, prezident, bosh direktor, bosh menejer va boshqalar)
5. Jinsiy iyerarxiya aloqalari (odamlar yoki odamlar guruhlari qiymatdan ajratilgan. Buning uchun mantiqiy sabablarni topish qiyin)
6. Qobiliyatga bog‘liq iyerarxiya, ya’ni rahbar va shogird aloqalari
7. Holat iyerarxiyasi, ya’ni sotuvchi va oluvchi munosabatlari;
8. Mutlaq iyerarxik munosabatlar (sinto yoki buddizm yoki g‘ayritabiiy mavjudotlar kabi diniy transsendensiya) [1]

Kundalik muloqot yaxshi kechishini ta’minlash uchun yaponlar iyerarxik munosabatlarga e’tibor bergach keyin tildagi hurmat iboralarini qo‘llaydilar. Bu yapon madaniyatining tilda aks etishidir. Bunda yaponlar suhbatdoshiga nisbatan ehtiyotkor bo‘lib, o‘z fikrini aytishdan oldin suhbatdoshining kayfiyatini his qilib, imkon qadar kelishmovchiliklardan qochishga intilishadi. Boshqa tillarda “ha” va “yo‘q” so‘zlari rozilik, inkorni ifodalasa yapon tilida “yo‘q” so‘zidan ishlatmaslikka urinishning kamida 16 usuli mavjud, hamda suhbatdoshni ko‘ngliga tegmasdan, uning his-tuyg‘ularini tushunayotganligini ifodalash uchun ko‘plab aisatsu yoki “muloyim iboralar” dan foydalanadi. Shu sababdan ham kayfiyat hukm qilishdan ko‘ra muhimroq bo‘lgan yapon tilida “yo‘q” kamdan-kam qo‘llaniladi. Aksincha “ha” so‘zi “sizni eshitaman” yoki hatto, “ha, lekin ...” degan ma’nodagi inkor ma’noni ham anglatishi mumkin. Shu sababdan ham Condon (1984) amerikaliklar yaponlarning nima demoqchi ekanliklarini tushunmasliklarini, ba’zida yaponlar ham o‘zlarining yapon suhbatdosh-larining fikriga tushunmaganliklarini aytgan. [2] Yapon tilida lingvokulturologiyani suhbatning har bir elementida ko‘rishimiz mumkin. Yapon tili boshqa tillarga qaraganda mantiqan qat’iyroq, ammo yaponlarning suhbatdoshga bo‘lgan alohida munosabati boshqa tillarda namoyon bo‘lmaydi. Yapon tili suhbatning maxsus qurilishi bilan ajralib turadi, unda suhbatdoshning fikri, his-tuyg‘ulari muhim hisoblanadi.

[1] 名柄迪 . 講座日本語と日本語教育 :日本語の文字表記 . 明治書院 . 1990

[2] Condon J.C. 1984. With respect to the Japanese. Boston, MA: Intercultural Press

Shunday qilib, hamma narsa suhbatdoshning savoliga javobning yetarli darajada mos kelishi, suhbatdoshga xushmuomalalik koʻrsatish, unda yaxshi kayfiyat yaratish vazifasiga qaratiladi[1]. Yaponlar oʻzlarining his-tuygʻulari va tajribalarini tashqi koʻrinishlarida ifodalashga odatlanmaganlar. Ammo bu bu ularning his-tuygʻulari yoʻq degani emas. Aksincha, yapon tilshunosi Tada yozganidek, muloqot jarayonida yapon sherigining holatiga bor e'tiborini qaratadi. Bunda u eshitgan gapiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlgan va uni tushunishga, keskin ifodalangan mulohaza bilan suhbatdoshni xafa qilmaslikka, hamdardligini bildirishga intiladi. Bularning barchasini imo-ishora yoki yuz ifodasi bilan ifodalab boʻlmasligini, hatto bunga urinish ham oʻsha koʻrinmas koʻprikni buzishi mumkinligini anglaganliklari uchun ham ular suhbatdoshlarini gapini jilmaygancha, hech qanday imo-ishoralarsiz eshitishadi.

Yevropa mamlakatlarida insonlar oʻzlarining madaniyatlaridan kelib chiqib oʻz his-tuygʻularini imo-ishoralar bilan ifodalashga oʻrganishgan, uzoq asrlar davomida oʻz madaniyati bilan boshqalardan alohida yakkalanib rivojlangan Yaponiya madaniyatida esa insonlar nim tabassum ila bir-birlariga hislarini yetkazganlar.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Yaponiyada lingvomadaniyat tushunchasi qadimdan mavjud boʻlib, bu borada olimlar tomonidan tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Aynan lingvomadaniyat atamasi yapon tilida "Gengo to bunka" soʻzlari bilan ifoda etiladi. Bu sohada ish olib borgan yapon olimlari ichida ayniqsa, lingvomadaniyat sohasida tilshunos Suzuki tomonidan yozilgan "Gengoto Bunka" ("Til va madaniyat") nomli kitobda til bilan madaniyat tushunchalari, ularning tuzilishi, oʻzaro bogʻliklari, toʻgʻrisida qimmatli mulohazalar yapon tili, yapon madaniyati, mentaliteti doirasida Yevropa tillarini solishtirgan holda yozilgan. Hamda ularning barchasi misollar orqali yaqqol ifodalab berilgan. U aynan madaniyat soʻziga quyidagicha izoh beradi: Madaniyat – jamiyatga meros boʻlib oʻtgan, inson xatti-harakatlarini boshqaradigan tugʻma va instinktiv tamoyillar yoʻq qilinganidan keyin ham saqlanib qoladi (Suzuki, 1973).

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Takao Suzuki.Kotobato gengo. Iwanami Shinshyo.1973
2. Yukinori Takubo.Yapon tilidagi kishilik olmoshlari. Shitento gengokoudou. Kurosio Publishers.1997.12-44-b

[1] Qarang: Хорикава Наоёси. Логика японца в устной речи. "Характер японца", т. 2. Токио, 1971, стр. 125-139.

3. Yamamoto.Yapon tili va chet tili. Kokusai kouryuu to gengo bunka.1982
4. 比嘉正範 1976「日本語と日本人社会」[岩波講座日本語］
5. 岩波書店金田一春彦 1933 日本語新版（下）.I 岩波書店
6. 山本.日本人と外国語.１９８２
7. 鈴木孝夫『ことばと文化』岩波新書、1973
8. 鈴木孝夫『日本語と外国語』岩波新書、1990
9. 福　沢　将　樹　「三人称普通名詞としての人称代名詞」２０１８
10. バグ　アンドリュ・上原「日本語とヨロッパ語の二人称代名詞　」１９９９

FORS TILIDA “ARABCHA ISM + KO‘MAKCHI FE’L” SHAKLIDAGI QO‘SHMA FE’LLAR TAHLILI (SAMAD BEHRANGIYNING "ماهی سیاه کوچولو" HIKOYASI ASOSIDA)

Muhammadali NIG‘MATILLAYEV
ShF va tarjimashunoslik fakulteti 1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N. Nuriddinov

Annotatsiya: Maqolada Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" asaridagi ismiy qismi arabcha o‘zlashmalar bilan ifodalangan qo‘shma fe’llar tahlilga tortilgan. Tahlil davomida qo‘shma fe’llar tarkibidagi sermahsul va kammahsul arab fe’l bobi hamda ko‘makchi fe’l vazifasidagi forscha sodda fe’llar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: qo‘shma fe’l, arabcha o‘zlashma, fe’l boblari, masdar, aniq daraja sifatdoshi, majhul daraja sifatdoshi, uch o‘zakli fe’l, to‘rt o‘zakli fe’l.

Til lug‘at tarkibining rivoji ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug‘at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o‘tishi bilan o‘ziga xos ma’lum o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ma’lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta’sirida, obyektiv ravishda, ma’lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so‘z qabul qilinishi ham shunday. Til o‘zida vositalar, imkoniyatlar bo‘lgan holda boshqa, o‘zga tildan so‘z olmaydi. Qabul qilinuvchi so‘z ma’lum biror yangi tushuncha

anglatsa, yangi informatsiya tashisa yoki u yoki bu semantik yukka ega bo‘lsagina tilga kirishi mumkin[1].

Til ijtimoiy hodisa va u doimo rivojlanishda bo‘ladi. Uning rivojlanishi ikki omilga bog‘liq: Ichki va tashqi omilga. Tashqi omilga o‘zlashmalar kiradi. O‘zbek tili leksikologiyasida o‘zlashmaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bir tildan ikkinchi bir tilga til elementlarining qabul qilinishi, o‘tishi o‘zlashtirish deb yuritiladi. O‘zlashtirish tufayli bir tildan ikkinchisiga o‘tgan til elementlari o‘zlashmalar deb yuritiladi [2].

Dunyo tillarining hech biri yo‘qki, rivojlanish va o‘sish bosqichini tashqi omillar ta’sirisiz bosib o‘tgan bo‘lsa. Har bir tilning lug‘at boyligi shakllanishi uchun avvalambor, tilning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan so‘zlar va boshqa tillar bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sir natijasida tilning lug‘at boyligiga qabul qilingan so‘z va qo‘shimchalar, ya’ni o‘zlashmalar asos bo‘ladi. Albatta, mazkur holat har bir tilda turlicha kechadi. Bu ushbu tilning boshqa tillar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qay darajada aloqaga kirishganligiga bog‘liqdir. Tillarning o‘zaro so‘z almashinuvi qadimgi davrlardan boshlangan. So‘zlarning bir tildan boshqa tilga kirishi va singishi shunchaki oddiy jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liq qonuniyatdir. Bu holda, o‘zlashayotgan termin yoki affiks qaysi tilga qarashli ekanligidan qat’iy nazar o‘sha tilning talaffuz normasiga, so‘z yasalish sistemasining umumiy xarakteriga, uning “qonuniyat”lariga bo‘ysunadi [3].

Arab tilining o‘tmishda ishlatilish ko‘lami nihoyatda kengayib ketganidan ko‘plab tillarga, jumladan fors tiliga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Fors tilidagi aksar diniy-irfoniy, ilmiy-adabiy, devonxona-idoraviy va siyosiy atama va terminlar arabcha so‘zlar bilan boyib borgan. So‘z o‘zlashtirish, ayniqsa, arab tilidagi kitoblarni o‘z tillariga o‘girayotgan paytlarida sodir bo‘lgan.

Tadqiqotning maqsadi: Fors tilidagi ismiy qismi arabcha o‘zlashmalar bilan ifodalangan qo‘shma fe’llarni tadqiq etish. Ko‘zlangan maqsadga yetish uchun quyidagi ishlar bajarildi*:* 1. Arabcha so‘zlarning fors tiliga ta’sirini o‘rganish maqsadida 20-asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yozuvchi Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" asari tanlandi. 2. Fors tilida yozilgan bu asardan arabcha o‘zlashmalar ajratib olindi va ular arab fe’l boblari hamda shakllariga ko‘ra turli guruhlarga bo‘lib chiqildi. 3. So‘ng

[1] Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. – Б. 48.
[2] Ko‘rsatilgan kitob. – B. 82.
[3] Мадвалиев А. Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. – Т.: Фан, 1986. – Б. 20.

qo‘shma fe’lning ismiy qismi bo‘lib kelgan arabcha so‘zlar forscha ko‘makchi fe’llar bilan birga tahlil etildi.

Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" asaridagi “*arabcha ismiy so‘z + forscha ko‘makchi fe’l*” tuzilishidagi qo‘shma fe’llar tahlili: " ماهی سیاه کوچولو" hikoyasi tahlil etilganda jami 45 ta qo‘shma fe’l aniqlandi. Ular bir necha xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratildi: 1. Ularning ismiy qismi arab tilida qaysi bob va shakllarga to‘g‘ri kelishiga qarab guruhlandi:

Пример 4.「大金をかけて 4 番打者ばかり集めても勝てないのに、地味にフォアボールで出塁し、送りバントも確実に決まっている渋い選手が脇を固めた方が結果的にチームを勝利に導くのと近いものを感じだ。」 – «Даже если вы потратите много денег и соберете 4 отбивающих, вы не сможете победить, но если терпеливый игрок, который идет на базу решительно и в головном уборе, в конечном итоге он обязательно приведет команду к победе».

Данная модальная связка несет в себе смысл предположения с высокой степенью предположения, допуская слабое сомнение в точности данных.

Выводы: В ходе проведенного нами исследования было выявлено, что сложность интерпретации модальных значений предположения в современном японском языке отчасти состоит в том, что в поверхностной структуре предложения они могут быть выражены как минимум на двух уровнях, двумя различными группами средств. Один из них – модальные концовки различной степени грамматикализации, от словоизменительных форм глагола, специальных форм, передающих

слушателю информацию о том, что говорящий видел сам факт произошедшего или же услышал от кого-то, до устойчивых сочетаний.

Второй – модальные наречия. Модальные наречия встречаются в текстах научного дискурса гораздо чаще, чем модальные связки. Исходя из жанровых особенностей научно-исследовательского текста, авторы научных статей из ряда синонимичных лексических средств выражения модальности отдают предпочтение наименее экспрессивным и эмоционально окрашенным.

Основываясь на предыдущих исследованиях, становятся понятно, что необходимо провести корпусное исследование на предмет употребления в японской речи модальных связок, выражающих предположение.

Список используемой литературы:

1. Ахманова О.С. Лингвистический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 520 с.

2. Беляева Е.И. К проблеме лексико-грамматических полей в языке. – Воронеж, 1977. – 120 с.

3. Тестелец Я.Г. К вопросу о содержании языковой категории модальности // Вопросы языкознания. – 1961. – № 1.

4. Теория функциональной грамматики: Темпоральность. Модальность. – Л.: Наука, 1990. – 201 с.

5. Ушаков Д.Н. Толковый словарь. – М.: Дом славянский, 2008. – 959 с.

6. Sasamoto R. Japanese discourse markers and the communication of emotions. – linguistic semantics and pragmatic inference. – University of Salford, 2005.

7. 山岡政紀 発話機能論 くろしお出版、東京 (Ямаока М. Теория речевых функций). – Токио: Куросио, 2008. – 188 с.

FORS TILIDAGI INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING FONETIK MOSLASHUVI (ایران GAZETASI MISOLIDA)

Robiya NURIDDINBEKOVA
ShF va tarjimashunoslik fakulteti 3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N. Nuriddinov

Annotatsiya: Ma’lumki, bir tildan boshqa bir tilga so‘zlarning o‘zlashishi hech birimiz uchun yangilik emas. O‘zlashmalar bir tildan boshqasiga o‘tar ekan, turli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zlashma qabul qilayotgan tilning ehtiyoji va o‘zaro til qoidalaridan kelib chiqqan holda yuz beradigan hodisadir. O‘zlashmalar bilan yuz beradigan ushbu hodisa fors tilidagi inglizcha o‘zlashmalarni ham chetlab o‘tgan emas. O‘zlashmalarning fonetik moslashuvini o‘rganish muhim masala hisoblanadi. Mazkur maqolada fors tilidagi ayrim inglizcha o‘zlashmalarning fonetik moslashuvi, tovush o‘zgarish jarayoni misollar orqali tahlil qilingan va ingliz tilidagi shakli bilan qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, fors tili, o‘zlashma, ingliz tili, ilm-fan, islomgacha bo‘lgan davr, hozirgi davr fors tili.

Ushbu maqolamizda fors tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan o‘zlashmalar tahlili, ularning qo‘llanilish darajasi va jamiyat so‘zlashuvidagi ahamiyati haqida bo‘lib, Eronda chop etiladigan «ایران» gazetasi manba qilib olingan va undagi maqolaning tahlili orqali matbuot va keng omma orasida o‘zlashmalarning qo‘llanilish doirasi va darajasi tadqiq qilingan. Shu bilan bir qatorda, so‘zlarni tahlil qilishda فرهنگ فارسی معین (F.M) hamda فرهنگ عمید (F.A) lug‘atlaridan foydalanilgan.

Turli qabila va xalqlar qadimdan o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganlar. Buning natijasida bir tildan ikkinchi bir tilga ayrim so‘zlar kirib o‘zlashib kelgan. Dunyoda boshqa til vositalarini o‘zlashtirmagan birorta “sof” til yo‘q. Boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar tilning grammatik-lug‘aviy tarkibiga hech qanday ta’sir qilmasdan o‘zlashtiriladi. Ular odatda, narsalik tushunchasini ifoda qiluvchi so‘zlar bo‘ladi; yangi narsalar o‘ziga xos nomlar bilan o‘zlashtiriladi. Boshqa tillardan ehtiyoj natijasida qabul qilingan so‘zlar tilning lug‘at boyligini kengaytirib, nutq vositalarini boyitadi. Odatda boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar “begona so‘z” deb ajratilmasdan nutqda qo‘llaniladi. Xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari fan va texnika sohasida umumiylik yuzaga kelishi natijasida tillarning boyligida internatsional elementlar yuzaga keladi. Ular

boshqa tillardan qabul qilingani uchun aynan o‘sha tildagidek talaffuz qilinishi ma’qul hisoblanadi[1].

Fors tili o‘zining manbalariga asosan 25 asrlik tarixida o‘zga tillar bilan chambarchas aloqada bo‘lgan va bu davrda unga yaqin aloqada bo‘lgan tillar ta’sir o‘tkazgan. Islomgacha bo‘lgan davrda fors tiliga yunon, oromiy, lotin, hind va turk tillaridan o‘zlashmalar kirib kelgan. Buning dalili bu so‘zlarning o‘rta fors tili va ilk klassik davr fors tili manbalarida uchrashi bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamon fors tilining mukammal lug‘atlaridan Ali Akbar Nafisiyning “Farnudsar” lug‘atida 158.431 lug‘at birligi ro‘yxatga olingan, shu jumladan, 99.522 lug‘at birligi (63%) arab tiliga oid so‘zlarni tashkil qiladi. Undan tashqari lug‘atga kirgan turkiy tilidan o‘zlashmalar va Yevropa tillaridan o‘zlashmalar hisobga olinadigan bo‘lsa, fors tilining asl lug‘ati uchdan bir qisminigina tashkil qilishi ma’lum bo‘ladi. Albatta bu hozirgi zamon fors tili holatini aniq aks ettirmaydi, chunki bu lug‘at 1938- yilda tuzib chiqilgan bo‘lib, lug‘at birliklarining manbai, uslubiy qatlamlari va statistik ma’lumotlari aniq ma’lum emas.

Hozirgi zamon fors tili va boshqa tillar aloqalarining yangi bosqichi 1979- yil Eron Islom Inqilobidan so‘ng boshlanadi. Bu davrga kelib, Eron Islom Respublikasi barpo etilgandan so‘ng, davlatning til siyosati ham o‘zgardi. Agar bundan ilgari 1972-yili faoliyatini boshlagan Eron til akademiyasi (Farhangestān-e zabān-e fārsi-ye Irān) fors tilidagi Yevropa tillaridan o‘zlashmalar qatorida asrlar davomida fors adabiyotida o‘zlashib, singib ketgan arabiy o‘zlashmalarni forsiy muqobili bilan almashtirishga harakat qilgan bo‘lsalar, Islom inqilobidan so‘ng sharoit butunlay o‘zgardi [2].

Hozirgi zamon fors tilida Yevropa tillaridan o‘zlashmalar ham ko‘payib bormoqda. Ayniqsa, ilm-fan va fanniy jihozlar sohasida minglab ingliz, fransuz tillaridan o‘zlashmalarni kuzatish mumkin. Masalan, G‘ulom Husain Sadri Afshor tuzgan فرهنگ فارسی امروز *Farhang-e fārsi-ye emruz* lug‘atiga bir yengil nazar yuritishning o‘zi kifoya: *berigād* “brigade”, *bereyl* “brayl xati” va boshqalar. Yevropa tillaridan ilmiy-fanniy terminlarning selday oqib kelishi fors tilining kelgusi rivojiga o‘ta katta xavf tug‘diradi. Chunki shu ketishda yevropeizmlar oqimi tinimsiz tilga kirib kelaversa, yaqin kelajakda fors tili faqat maishiy mavzularda aloqa vositasiga aylanib qolishi, ilm-fan tili esa ingliz tili va internatsional terminlarning o‘zlashmalaridan iborat bo‘lish xavfi bor [3].

---

[1] Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq nashriyoti, 2010. B. 90-91.
[2] Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDShI, 2019. B. 48-49.
[3] Ko‘rsatilgan kitob. B. 49-50.

Ingliz tilidan o‘zlashmalar ham fransuz tili kabi XIX asr oxiri va XX asr 50-60-yillarida kirib kela boshladi. Buning asosiy sabablaridan biri Angliya – Eron mutaxassislarining neft sanoati bo‘yicha hamkorligi, Amerika Qo‘shma Shtatlarining shoh davrida Eron nufuzi va ayniqsa, ilm-fan, ishlab chiqarish mahsulotlarining ko‘plab chetdan keltirilishi va chetdan keltirilgan mollarning asosan ingliz tilida atalishi edi. Masalan, Eronda avtomobil sanoatining rivojlanishi Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik natijasida yuzaga kelgan. Demakki, avtomobil bilan bog‘liq yuzlab atamalar fors tiliga kirib kelgan. Masalan, *māšin* “avtomobil”, *fonar* “prujina”, *kalač* “uzatkich” va hokazo. Ilm-fan sohasida nimaiki yaratilgan bo‘lsa, ko‘pincha u inglizcha nomi bilan muomalaga kiritiladi: *jat* “reaktiv samolyot”, *helicopter* “vertolyot”, *tayp* “yozuv mashinasi” va boshqalar. Shuningdek, iqtisodiy – siyosiy va maishiy mavzudagi bir qator so‘z va terminlar ingliz tilidan kirib kelgan. Masalan, *miting* “miting”, *futbāl* “futbol” va hokazo. Ingliz tilidan sport mavzusiga oid so‘zlar ham o‘zlashgan. Masalan “kubok”, *tim* “komanda”, *kamp* “lager” va shunga o‘xshash so‘zlar.

Shuni ham zikr etish joizki, Eronda purizm til siyosati, Farhangestonning faoliyati va ziyolilarning chet el o‘zlashmalaridan fors tilini saqlab qolishga qilayotgan sa’y – harakatiga qaramasdan fors tiliga ilm – fan sohasi va ilmiy tilning turli yo‘nalishlaridagi yevropeizmlarning, ayniqsa, ingliz tilining ta’siri kuchli bo‘lib qolmoqda. Buning dalili uchun Eron gazetalaridan birontasini varaqlab, undagi e’lonlar qismiga nazar tashlashning o‘zi kifoya [1].

Masalan «ایران» Eron gazetasining 2021 yil 16 – dekabrda chop etilgan nashrida ilm-fanga oid فناوری *fanāvari* “texnologiya” ruknida quyidagi inglizcha o‘zlashmalar kuzatildi:

ma’nosi	**inglizcha transkripsiya**	**inglizcha shakli**	**forscha transkripsiya**	**forscha shakli**
telefon	*telifəun*	Telephone	*telefon*	تلفن
bekor qilmoq	*kənsel*	Cancel	*kansel kardan*	کنسل کردن
internet (tarmog‘i)	*inte:net*	Internet	*internet*	اینترنت
video	*vidiou*	Video	*vidyu*	ویدیو
ekotizim	*ékòsistəm*	Ecosystem	*ekosistem*	اکوسیستم

[1] A Quronbekov, N. Nuriddinov. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDShI, 2019. B. 67-68.

Yuqoridagi misollarni birma-bir tahlil qiladigan bo‘lsak, ingliz tilidagi “cancel” fe’li fors tiliga kirgach, کنسل کردن *kansel kardan* “bekor qilmoq” qo‘shma fe’lida ismiy qism vazifasini bajarib kelmoqda. Ma’lumki, ingliz tilidagi “cancel” so‘zi ham xuddi shu ma’noni anglatadi. Talaffuzda esa “cancel” fe’lining birinchi bo‘g‘inidagi *ə* tovushi fors tiliga o‘zlashgandan so‘ng *a* tovushiga o‘zgarib, *kansel* talaffuzini hosil qilgan.

این نرم‌افزار به شما امکان می دهد تا بتوانید به ویندوز می شود دسترسی یافته و مواد دلخواه‌را **کنسل کنید** (ایران، ص.۱۱)

*In narmāfzār be shomā emkān midehad tā betavānid be vindouz mishavad dastresi yāfte va mavād-e delxāh-rā **kansel konid*** “Ushbu dastur sizga Windowsga kirish va kerakli tarkibni **bekor qilish** imkonini beradi”.

Internet so‘zida esa talaffuz jihatidan ingliz tilida tushirib qoldiriladigan "r" tovushi (*inte:net*) fors tiliga o‘zlashganda aniq talaffuz qilinishiga guvoh bo‘lamiz: **اینترنت** *internet*

Fors tilidagi **ویدیو** o‘zlashmasi ingliz tiida *vidiou* shaklida talaffuz qilinadi. Ma’lumki, fors tilida ko‘p holatlarda ikkita unli yonma-yon kelishi kuzatilmaydi, shuning uchun *io* diftong tovushlari tushib qolib, o‘rniga *y* tovushi talaffuzi bilan kirgan holda *vidyu* shakliga o‘zgargan.

این عکس‌ها و **ویدیو**ها در آی‌کلود ذخیره می شوند (ایران، ص.۱۱)

In aks-hā va vidyu-hā dar āykelod zahire mišavad “Ushbu fotosuratlar va **video**lar iCloudda saqlanadi”.

Shu bilan birga fors tilida ma’nosi o‘zgarmaydigan atoqli otlar ham talaygina:

ma’nosi	**inglizcha transkripsiya**	**inglizcha shakli**	**forscha transkripsiya**	**forscha shakli**
Amerika	*Amerika*	America	*Emrikā*	امریکا
Windows operatsion) (tizimi	*vindous*	Windows	*Vindouz*	ویندوز
Iphone (telefon rusumi)	*ayfəun*	Iphone	*Āyfon*	آیفون
Facebook ijtimoiy) (tarmog‘i	*feisbük*	Facebook	*fisbuk*	فیسبوک
Android	*Əndroid*	Android	*enderoyd*	اندروید

What’s up ijtimoiy) tarmog‘(i	*Vats ap*	What’s up	*vātsāb*	واتس آپ
Google (internet tarmog‘i)	*Gu:gəl*	Google	*gogal*	گوگل

Ingliz tilidan o‘zlashgan **America** so‘zining fors tilida ikki xil ko‘rinishi mavjud. امریکا*emrikā* va آمریکا*āmrikā*. Gazeta manbalarida esa biz aynan امریکا *emrikā* shaklining ishlatilishiga guvoh bo‘ldik va bu shakl asl tildagi shakliga yaqinrog‘i hisoblanib *ā* emas balki *e* tovushi bilan boshlanadi. Shu bilan birga o‘zlashmada fonetik o‘zgarish ham yo‘q emas, ya’ni ingliz tilida so‘zning o‘rtasida keluvchi, *m* va *r* tovushlari orasidagi *e* tovushi tushirib qoldirilgan hamda oxiridagi *a* tovushi *ā* ga o‘zgarishi kuzatilgan. Natijada, *əmerika* emas balki *emrikā* talaffuzi hosil bo‘lgan.

وزرات بازرگانی **امریکا** در NSO Group را فهرست سیاه خود قرار داد. (ایران، ص.۱۱) نوامبر

*Vezārat-e bāzargāni-ye **emrikā** dar novāmbr NSO group-rā feherest siyāh-e xod ɣarār dād* “Noyabr oyida **Amerika** Savdo vazirligi NSO guruhini o‘z qora ro‘yxatiga kiritdi”.

Windows so‘zini aslida inglizlar ham so‘z oxiridagi w ni u tovushi bilan vindouz shaklida diftongli talaffuz qilishadi. Bilamizki fors tilida ham aynan shu ou diftongi وorqali ifodalanadi. Shu sabab hech qanday tafovut yuzaga kelmagan va bu so‘z **ویندوز**shaklida hech qanday o‘zgarishsiz o‘zlashgan.

مایکروسافت نواروظیفه **ویندوز** ۱۱ را با تغییرات مهمی همراه می‌کند

*Māykrosāft navār-e vazife-ye **vindouz** yāzdah-rā tayyirāt-e mohemmi hamrāh mikonad* “Microsoft **Windows** 11 vazifalar paneliga muhim o‘zgarishlar kiritdi” (https://www.zoomit.ir)

Ingliz tilidagi “Iphone” so‘zining ham fors tilida ikki xil ko‘rinishi mavjud ekan. Biri **آیفون**, ikkinchisi esa **ایفون**, lekin gazeta maqolalarida **آیفون**shakli qo‘llanilishi kuzatildi. Bunda o‘zlashma so‘zning faqat birinchi bo‘g‘inida tovush o‘zgarishi hodisasi yuz bergan. Ingliz tilidagi *a* tovushi fors tilida *ā* ga aylangan, ya’ni *ayfon* talaffuzi *āyfon* ga o‘zgargan.

از ظرفیت ذخیره‌سازی **آیفون** خود به بهترین شکل استفاده کنید (ایران.ص.۱۱)

Az *zarfiyyat-e zahiresāzi-ye **āyfon-e** xod be behtarin shekl estefāde konid* “O‘z **Iphone**ningiz saqlash hajmidan maksimal tarzda foydalaning”.

Facebook فیسبوک so‘zi fors tiliga o‘zlashganda esa tovush tushib qolishi hodisasi yuz bergan va asl talaffuzdagi (*feisbuk*) *ei* diftongi *i* ga o‘zgarib, *fisbuk* shakliga kelgan.

با اقدام حقوقی یا انتقاد از سوی شرکت‌های مایکروسافت و **فیس‌بوک** (متا پلتفرمز) روبه رو است.

*Bā eqdām-e huquqi yā enteqād az suye šerkathā-ye māykrosāft va **fisbuk** (metā pelatformez) ruberu ast* “U Microsoft va **Facebook** (Meta Platforms) tomonidan qonuniy choralar yoki tanqidlarga duch keladi” (https://www.zoomit.ir)

Android اندروید va google گوگل so‘zlari esa tovush almashinishi hodisasiga uchrab, *əndroid* talaffuzidagi diftonglardan biri bo‘lgan *i – y* tovushiga, gugəl talaffuzidagi *ə – a* tovushiga o‘zgarib, gogal shaklidagi talaffuzga aylangan. Shu bilan birga android so‘zida 3 undosh ketma – ket kelgani sababli *d* va *r* tovush lari orasiga *e* tovushi orttirilib, *enderoyd* shakliga o‘zgargan:

وقتی که از **گوگل** استفاده می کنید روی سه نقطه ضربه بزنید

*Vaqtike az **goqal** estefāde mikonid ruye se noqte zarbe bezanid* “Qachonki **Google**dan foydalansangiz, uch nuqta ustiga bosing” (https://www.zoomit.ir.)

این گوشه‌های سامسونگ نو به روزرسانی **اندروید** ۱۴ را دریافت نمی کنند

*In gušehā-ye sāmsung-e nou be ruzrasāni-ye **anderuyd**-e chahārdah-rā daryāft namikonand* “Ushbu yangi Samsung programmasi **Android** 14 yangilanishini qabul qilmadi” (https://www.zoomit.ir)

What’s up واتس آپ so‘zida esa tovush o‘zgarishi yuz berib up so‘zidagi *a* tovushi fors tiliga kirganda *ā* tovushi bilan almashgan.

متا، شرکت مادر فیسبوک و اینستاگرام و **واتس آپ** در حال برنامه‌ریزی برای یک سری اخراج‌های جدید در این هفته است.

*Metā šerkat-e mādar-e fisbuk-o instāgrām-o **vāts āp** dar hāl-e barnāmerizi barāye yek seri ehrājhā-ye jadid dar in hafte ast* “Facebook, Instagram va **What’s up**ning bosh kompaniyasi Meta shu haftada bir qator ishdan bo‘shatishlarni rejalashtirmoqda”. (https://www.zoomit.ir)

Eron ایران gazetasining فناوری(ilm-fan) ruknidan yuqorida o‘zlashma sifatida keltirilgan jami 12 ta misollarning deyarli barchasi ism ya’ni ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ulardan faqatgina bittasi fors tilida yangi qo‘shma fe’l yasalishiga xizmat qiladi (کنسل کردن). Gazeta sahifasidan olingan misollar shuni ko‘rsatadiki, fors tiliga ingliz tilidan bu sohada ko‘proq atoqli otlar: ijtimoiy tarmoq nomlari, internet tizimlari nomi, turli platformalar va ommaviy axborot vositalari nomlari o‘zlashma sifatida kirib kelgan. O‘zlashmalar tilga kirib kelish jarayonida ular orasida fonetik qoidalar yuzasidan tafovut bo‘lmasa, talaffuz jihatidan hech qanday o‘zgarishsiz tilga o‘zlashishi kuzatiladi, masalan, تلفن، اکوسیستم kabi so‘zlar hech qanday o‘zgarishsiz asliy talaffuzi bilan o‘zlashgan. Ko‘p holatlarda unli tovushlarning o‘zgarishi, masalan, *a* ning ā ga, *e* ning *a* ga o‘zgarish holatlari, ketma – ket kelgan undoshlar orasiga bir unli orttirilish holatlari kuzatildi. Shu

bilan birga ba’zi hollarda ketma – ket kelgan unlilarning tushib qolib, o‘rniga bir undosh orttirilishi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq nashriyoti, 2010. B. 90-91.
2. Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDShI, 2019. B. 48-49.
3. Nodir Mr, N. (2020). Copulative compounds formed by prepositional interfixes in persian language. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(10), 71.
4. Нуриддинов, Н. Н. (2012). Деривативная редупликация в персидском языке (на примере имен существительных, прилагательных и числительных). *Вестник Челябинского государственного университета*, (33 (287)), 161-164.
5. Djafarov, B., Nishanbaeva, A., Mirzakhmedova, K., & Nuriddinov, N. (2021). GRAMMATICAL ADAPTATION OF THE TURKIC LOANWORDS IN PERSIAN (IN THE EXAMPLES OF ADJECTIVE PHRASES). In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 102-106).

ARAB TILIDA EGAGA TA’SIR QILUVCHI YUKLAMALAR

Shahobiddin YO‘LDOSHEV
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Arab filologiyasi kafedrasi, 1-kurs talabasi,kunduzgi,1-guruh
Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi A. Rustamov

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida egaga ta’sir qiluvchi yuklamalar haqida ilmiy asosda yozilgan. Maqola yaratilishidan asosiy maqsad arab tilidagi murakkab Grammatik qoidalarni soddalashtirish va turli grammatik shakllar haqida bilimlarni egallashni talabalar uchun osonlashtirish. Maqolada mantiqiy xulosa ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Ega, yuklama, birikma olmosh, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, shaxsi noma’lum gap.

Arab tili – Somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub til. Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Arab tilida 200 mln.dan ortiq aholi gaplashadi (1997). Qadimiy Arab tili mil. av. 5-4-asrlarga taalluqli obidalar orqali ma’lumdir. U mumtoz arab tilining paydo bo‘lishiga zamin bo‘lgan. Mumtoz Arab tilining leksik va grammatik shakllanishi johiliya davri (5-7-asrlar) shoirlarining og‘zaki ijodlarida namoyon bo‘la boshlagan. Qur’oni Karimning nozil bo‘lishi natijasida mumtoz Arab tili badiiyati yanada go‘zallashdi va grammatik me’yorlari mukammallashdi. 8- 9 asrlarda mumtoz Arab tili grammatikasi ishlab chiqildi, islom yoyilgan o‘lkalarda rasmiy va ilmiy til bo‘lib qoldi. Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy va boshqa ilmiy asarlarini ana shu tilda yozganlar. Mumtoz Arab tili leksik jihatdan bir oz o‘zgargan holda, hozirga qadar arablarning adabiy tili bo‘lib kelmoqda[1]. Arab tili butun musulmon sharqi hududida Yevropadagi lotin tili kabi fan tiliga aylandi.Bundan tashqari, u ko‘plab musulmon sharq mamlakatlarida uzoq vaqt davlatlararo muomala tili bo‘lib ham xizmat qildi. Bugungi kunda dunyoning har bir qismida bu til o‘rganuvchilarini topish mumkin.Bu til grammatikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Arab tilida ega gapning bosh bo‘laklaridan biri hisoblanadi va ism so‘z turkumi egani hosil qiladi. Yuklamalar esa gapga qo‘shimcha ma’no yuklab keladi va bundan tashqari, ular eganing ifodalanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi.Lekin arab tilida shunday yuklamalar ham mavjudki, ularning ta’sirida ega tushum kelishigida kelishga majbur bo‘ladi[2].Arab tilida oltita shunday yuklama mavjud:

1. إِنَّ- haqiqatda,haqiqatan. Bu yuklamaning o‘zbek tilida aynan tarjimasi mavjud emas,shuning uchun shartli ravishda shunday nomlanadi.

Masalan: إِنَّ الجَامِعَةَ : كَبِيرَةٌ- (haqiqatan) universitet kattadir.

Agar إِنَّ va shu turdagi yuklamalar fe’l kesimli gap tarkibida kelsa, gapning egasi oldinga o‘tadi,ya’ni bu yuklamalardan keyin bevosita gapning egasi keladi.

Masalan: قَرَأَ التَلَامِيذَةُ هَذَا الكِتَابَ – o‘quvchilar bu kitobni o‘qidilar.

إِنَّ التَلَامِيذَةُ قَرَؤُوا هَذَا الكِتَابَ- (haqiqatda) o‘quvchilar bu kitobni o‘qidilar.

Agar gapning egasi kishilik olmoshidan iborat bo‘lsa, yuklamadan keyin shu kishilik olmoshiga mos birikma olmosh keladi va yuklamalarga qo‘shilib yoziladi.

Masalan: هُوَ قَرَأَ بَالكِتَاهَذَا- u (mz) bu kitobni o‘qidi.

[1] https://enc.for.uz/wiki/Arab_tili

[2] N.Ibragimov, M.Yusupov- Arab tili grammatikasi 1-jild.B 343.

: إِنَّهُ قَرَأَ هَذَا بَالكِتَا- (haqiqatan) u bu kitobni o‘qidi.

❖ 1-shaxs birlik va ko‘plik qo‘shiluvchi olmoshlar ikki variantda qo‘shilishi mumkin:

إِنَّنِي=إِنِّي

إِنَّ yuklamasi oldidan gapda لَ yuklamasi qo‘shilishi mumkin va u ma’noga ta’sir qilmaydi.

Masalan: إِنَّ اللَّهَ لرَؤُوفٌ رَحِيمٌ – Olloh mehribon va rahmlidir.

لِلْمُعَلِّمِ كِتَابٌ tipidagi gaplarda ham إِنَّ yuklamasi qo‘shilib kelsa, ega tushum kelishigida kelaveradi.

Masalan: إِنَّ لِلْحِيطَانِ اذَانًا – devorning ham qulog‘I bor.(Maqol)[1]

Agar إِنَّ yuklamasiga مَا yuklamasi qo‘shilib kelsa, gapning egasi bosh kelishikda keladi,ammo ma’noda hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi.

Masalan: قَدْ يَكُونُ الغَيبُ احْلوَ إِنَّمَا الحادِرُ أَحْلَى- kelajak shirin bo‘lsa, ehtimol,aslida hozirgi payt eng shirinidir[2].

2. كَأَنَّ- go‘yo, go‘yoki,…dek. Bu yuklama ham إِنَّ yuklamasi kabi morfologik xususiyatlarga ega.

Masalan: كَأَنَّ فَاطِمَةَ مَلَكٌ- Fotima farishta kabidir.

3. أَنَّ- ki yuklamasi. Bu yuklama ko‘pincha to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda yoki shaxsi noma’lum gaplarda ergashtiruvchi bog‘lovchi vazifasida keladi.

Masalan: مِنَ المَعْلُومِ أَنَّ مَحمُودًا شَيْخٌ عَاقِلٌ- ma’lumki, Mahmud oqil qariyadir.

سَمِعْنَا كُلُّنَا الصِيَامَ مُفِيدٌ- biz hammamiz eshitdikki, ro‘za tutish foydalidir.Yoki biz hammamiz ro‘za tutish foydali ekanligini eshitdik.

❖ To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapning kesimi قَالَ- demoq fe’lidan iborat bo‘lsa, أَنَّ yuklamasi ma’nosida إِنَّ yuklamasi ishlatiladi.

4. وَ لَكِنَّ- lekin, biroq. Zidlov bog‘lovchisi ma’nosida keluvchi bu yuklama ham egaga ta’sir qiladi.

Masalan: نَحْنُ كَتَبْنَا المَوْضُوعَ وَ لَكِنَّ زَيْنَبَ مَا كَتَبَتْ- biz mavzuni ko‘chirdik, lekin Zaynab yozmadi.

5. لَعَلَّ- ehtimol, shoyad. Bu yuklama,asosan,sodir bo‘lishi ham bo‘lmasligi ham mumkin bo‘lgan istak,gumonni bildiradi.

Masalan: لَعَلَّكُمْ تُفلِحُونَ- shoyadki(zora), sizlar yutuqqa erishsangiz.

6. لَيْتَ- koshki.Bu yuklama amalga oshishi mumkin bo‘lmagan istakni bildiradi.

Masalan: يَا لَيْتَنِي كُنْتُ تُرَابًا- oh, koshki edi men tuproqqa aylansam[3].

---

[1] N.Ibragimov,M.Yusupov- Arab tili grammatikasi 1-jild.B 344.

[2] N.Ibragimov, M.Yusupov- Arab tili grammatikasi 1-jild.B 344.

[3] N.Ibragimov, M.Yusupov- Arab tili grammatikasi 1-jild.B 346.

Xulosa qilib yozadigan bo‘lsak, arab grammatikasi yoki arab tili ilmlari (arabcha: النحو العربي yoki arabcha: عُلُوم اللغَة العَرَبِيَّة) – arab tili grammatikasini tashkil qiladi. Arab tili som tillari oilasiga mansub bo‘lib, uning grammatikasi boshqa som tillari oilasi grammatikasi bilan juda ko‘p o‘xshashliklarga ega. Klassik va zamonaviy arab tillari asosan bir xil grammatikaga ega bo‘lib, arabcha so‘zlashuv uslubi esa ko‘p jihatdan farq qiladi.Demak, bu tilda yuklamalar ham egaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligini ko‘rib o‘tdik va bu arab tili tarjimalari va gap tuzishda bizga grammatik kerak bo‘lagi jihatlar hisoblanadi, ya’ni bu bilimlarni bilish orqali biz grammatik to‘g‘ri va murakkab strukturali gaplarni tuzishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Ibragimov,M.Yusupov- Arab tili grammatikasi 1-jild. B 343, 344, 346.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_tili
3. https://enc.for.uz/wiki/Arab_tili

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ЯПОНСКОЙ РЕЧИ

Мунисахон СОЛИЕВА (АЛИМОВА)
ТГУВ, Факультет японоведения. Специальность японская лингвистика. Магистрант 2-курса
Научный руководитель: PhD Н. Халмурзаева

Аннотация: В статье приводится характеристика лингвопрагматического подхода, анализ его основных компонентов, отражающих взаимосвязь лингвопрагматики и английских заимствований в японской речи. Также разработаны рекомендации по эффективному обучению профессиональной межкультурной компетенции, необходимой при коммуникации преподавателей и студентов международных образовательных программ на основе анализа культурно-специфических поведенческих стратегий, типичных для японской академической среды общения.

Ключевые слова: прагматика, лингвопрагматический подход, лингвистические и экстралингвистические факторы, профессиональная межкультурная компетенция, культурно-специфические поведенческие стратегии.

Наличие общей истории между Японией и США привело к проникновению в японскую речь большого количества английских заимствований, которые закрепились в речи японского народа. Благодаря этому все чаще начал подниматься вопрос о повышения уровня иноязычного профессионального общения, профессиональной межкультурной компетенции, освоение межкультурного социального фона, умение проводить чужой культуры. В связи с этим проблема изучения правильного и осознанного отбора использования английских заимствований в японской речи получила свою актуальность.

В настоящее время изучение проблем речевого общения находится в центре внимания лингвистической науки и целого ряда смежных наук, таких, как психолингвистика, социолингвистика, нейролингвистика, теория коммуникации и другие. Одной из перспективных областей исследования речи выступает лингвистическая прагматика, которая изучает речевую деятельность с позиций выявления взаимозависимостей между использованием языковых единиц и целеустановками говорящих [1].

Согласно определению, выведенному английским ученым Дэвидом Кристалом, прагматика – наука, изучающая язык с точки зрения его использования в реальном общении. Данная научная область изучает причины, определяющие выбор определенных языковых средств из их многообразия в конкретных ситуациях коммуникации, и влияние, которое они оказывает на сознание других людей [2].

На современном этапе возможно выделить такие основные направления, как:

1) систематическое исследование, напраленное на изучение прагматических свойств таких языковых единиц, как тексты, предложения, слова, а также явления фонетико-фонологической сферы;

2) изучение функционирования языка в областях наук, переплетающийся в повседневное практическое взаимодействие

[1] Арутюнова Н.Д. Дискурс. БЭС. Языкознание / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Большая Российская Энциклопедия, 1998. – С. 136-137.

[2] Crystal David. The Cambridge Encyclopedia of Language. 2nd edition. – Cambridge University Press, 1997.

людей в процессе коммуникации, как компонент взаимодействия людей, оказывающий влияние на когнитивные процессы всех участников [1].

Особенное значение здесь придается правилам и языковой конвенции, реализуемой при поочередном речевым ходам коммуницирующих в диалоге, их структурировании и Особое внимание здесь уделяется правилам и конвенциям языкового общения, организующим чередование речевых ходов коммуникантов в диалоге, структурирование и регулировании дискурса, а также применение и отбор языковых средств в том количестве, качестве и релевантности, соотносимых с требованиями, ее передачи адекватным способом, учетом статусных ролей коммуницирующих людей.

В настоящей статье объектом исследования являются английские заимствования в японской речи, встречающихся в интернет-журнале TOWN WORK. Предметом исследования является особенности лингвопрагматического анализа в изучении английских заимствований в японской речи.

Исследования в области лингвистической прагматики имеют интернациональный характер. Лингвистическое исследование текста с точки зрения прагматики началось в 60-70 годах XX века и получило развитие благодаря теории речевых актов Дж.Остина, Дж.Р.Сёрля, согласно которой наша речь может быть представлена в виде процесса, включающего в себя порождение речи и целеполагания [2]; прагматической теории значения П.Грайса, в которой ученым была представлена теория, согласна которой, то, что говорит человек, и то, что он хочет, чтобы было понято, отличается, иначе говоря, в свою речь человек закладывает иной смысл, который отличается от его прямой речи [3]; прагматической теории референции Дж.Р.Сёрля, который считал, что основное назначение языка не в описании объектов действительности, а в осуществлении целенаправленных действий [4]; работам П.Ф.Стросона, который акцентировал свое исследование на

[1]Евдокимова М.Г. Система обучения иностранным языкам на основе информационно-коммуникационной технологии (технический вуз, английский язык): Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – М., 2007.

[2] Hofstede G. Cultural differences in teaching and learning // International Journal of Intercultural Relations. — 1986, #10. — P. 301—320.

[3] Лотман Ю.М. Семиосфера. СПб.: Искусство-СПБ, 2000. С. 203.

[4] Моль А. Социодинамика культуры. М.: КомКнига, 2005. С. 45.

«обыденном» языке [1]. В.В. Богданов изучил типовые роли, при смене которой, меняется и цель высказывания говорящим [2], Г.Г. Почепцов подробно изучил модели коммуникации, которые заключали в себя социологические, психологические и семиотические модели, а также изучал методы анализа массовой коммуникации [3]; Е.В. Падучева расскрыла референциальные аспекты семантики местоимений, роль местоимений в осуществлении референции [4].

Лингвопрагматический анализ относится к функциональным методам исследования с дополнительными способами систематизации, соотношения и сравнение содержания информационного сообщения или жанра, заключающий в себе не только изучение взаимодействия языковых знаков в речи, но и рассмотрение вопросов взаимодействия в акте речи между субъектом (адресантом) и получателем сообщения (адресатом) [5].

Используя полученные данные из обзорной литературы, разберем этапы лингвопрагматического анализа и выделим использованные английские заимствования в японской речи. Нами было выделено шесть этапов.

Первый этап, позволяющий проанализировать структуру изучаемой единицы речевого акта, «Предварительный (ситуационный) анализ текста» предполагает выявление внешних причин и поводов, которым обусловлен выбор тех или иных английских заимствований в японской речи. Основным мотивом является создание положительного имиджа адресанта, продвижение собственной точки зрения в медиа-массы и привлечение внимания наибольшего числа пользователей социальных сетей в условиях ограничения во времени концентрации на просматреваемом контенте. Помимо этого, дополнительным внешним фактором для выбора языковых средств при общении в социальных сетях или при чтении интернет-журналов может стать событие, соотносящиеся с датой/днем непосредственного написания и опубликования своих мыслей (к примеру, подготовка к праздникам,

[1] Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton, 1981. – XII, 331p.

[2] Шамне Н.Л. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации / Н.Л. Шамне. – Волгоград: Изд-во ВГУ, 1999. – 208 с.

[3] Там же.

[4] Шишкина Т.А. Косвенные высказывания в теории речевой деятельности / Т.А. Шишкина // Прагматика и структура текста. – М., 1983. – С. 83-92.

[5] Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. М.: Наука, 1981. Т. 40. № 4. – С. 356-367.

отличающихся по способу проведения и масштабности), либо иной лично значимый или важный эпизод из жизни друзей или знакомых, а также проишествие, привлекшее пристальное внимание общественности, общественных деятелей или государства.

学校以外でも友だちができた！バイト仲間とエンジョイしてます！[1]

«Я смог подружиться с кем-то не из школы! Веселюсь с друзьями с подработки!»

Следом необходимо определить насколько актуальна выбранная тема, или поднятая социальная или политическая проблема и насколько она может быть применима для дискуссии, также рассматриваются отсылки и связи в речевом акте на другие речевые акты. При проведении анализа на усваемость и понимание речевого акта принимается во внимание специфическое воздействие речевого акта на ориентированную публику, специфику восприятия речевого акта адресатом, иначе говоря, уровень сложности самого речевого акта.

Второй этап проходящий при лингвопрагматическом анализе «Описание содержания и структуры текста» позволил установить пространственно-временные рамки публикуемого материала (время и место публикации), событийный аспект речевого акта, при коллективном создании (при публикации интервью), участников процесса коммуникации и их ролевая функция, социальные отношения между участниками процесса коммуникации, помимо этого на этом этапе разбираются структурные составляющие публикуемого материала и использованных речевых актов [2]. Структура, построенная в соответствии с логикой и последовательный ход изложения мысли при составлении материала для публикации статьи в интернет-журнале является обязательным условием для облегчения понимания и восприятия речевого акта адресатом.

インターネットをきっかけに、動画や歌の配信、ゲームや楽曲制作などマルチな才能を発揮して今を走り抜けるデジタルクリエイターたち。そんな著名人たちの学生時代・駆け出し時代の貴重な経験や今に活かせていることを中心に『クリエイターの原点』として読者にお届けしていきます。第 8 回目はソロでもユニットでも活躍の場を広げ続けている踊り手、仮面ライアー217 さん！

[1] Интернет-журнал TownWork. URL: https://townwork.net/magazine/job_wpaper/hst_trend/56516/

[2] Фэ Х. Семантика высказывания / Х. Фэ // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 399-405.

Проведение третьего этапа «Лингвистический аспект и нарративная структура текста» включает в себя наиболее объемную и детальную информацию, поскольку затрагивает большое количество аспектов. Таким образом, мы установили, что:

1) частое использование местоимений, показывающих степень приближенности к объекту, о котором идет речь; 私, 他の踊り手さん

2) характерное употребление заимствований для имени существительного и глагола, другие же части речи используются лишь для модификации двух преобладающих; 清々しいライヴになっている

3) выявлено наличие английских заимствований, образующих семантическое поле, и заключающих в себе дискурсивное значение (имена собственные, терминология); リリース, ボーダーライン

4) для придания эмотивного окраса тексту, применяется резкое противопоставление положительных и отрицательных английских заимствований; ソロ, ユニット

5) фразеологическая составляющая текстов интернет-журнала выражается преобладанием единиц с отрицательным значением, что может быть объяснено при описании психических особенностей человеческого мозга, который склонен к применению устойчивых выражений в стрессовых ситуациях; 協会のマウスように貧しい

6) английские заимствования, выраженные глаголами, чаще всего представлены в форме долженствования. エンジョイしないといけない

Проведение четвертого этапа «Анализ иллокутивной структуры текста» позволило показать намерение автора сообщения посредством общедоступного и переносного способов использования глаголов.

コミュニケーション能力を上げるには、相手から話を引き出しやすくするのがコツです。コミュ強に近づくためのテクニックを紹介します。

При проведении пятого этапа «Анализ сообщения и его смысл» были рассмотрены преобладающие стратегии в различных жанрах, среди которых наиболее часто использованными тактиками являются презентация продуктов, побуждения к действиям, если статья включает в себя советы из различных сфер жизни, предупреждения.

周囲とコミュニケーションを上手に取ることで、友達や先輩に好感を持たれ可愛がられたり、チームワークが向上するといったメリットもあります。コミュニケーション強者になりたい人は、ぜひ今回紹介したテクニックを使ってみてください。

Последний шестой заключительный этап «Установление коммуникативной цели послания». Главной коммуникативной целью

интернет-журнала в медиа-пространстве является получение сведений адресатом и знакомство с ранее неизвестной информацией.

Поскольку коммуникативными особенностями авторов и публикуемым ими материалов является публичность и информативность, содержание их статей должно соответствовать достоверности и актуальности публикуемых ими новостных заметок и рекомендаций, а также легкость в понимании для всех читателей выбранной целевой аудитории.

Вывод. Изучив лингвопрагматические подходы к изучению иностранных языков, а также проанализировав интернет-журнал Town Work, мы пришли к выводу, что: использование английских заимствований в текстах японского интернет-журнала, связано с необходимостью привлечь внимание читателей, хоть и особой необходимости в их использовании нет.

Мы выделили шесть этапов лингвопрагматического подхода и рассмотрели каждый из них. Тем самым провели ситуационный анализ текста, описали содержание и структуру текста, изучили семантические поля английских заимствований, выяснили намерение автора, провели анализ сообщения и его смысл, а также установили коммуникативную цель послания.

Список используемой литературы:

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс. БЭС. Языкознание / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Большая Российская Энциклопедия, 1998. – С. 136-137.
2. Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. М.: Наука, 1981. Т. 40. № 4. С. 356-367.
3. Евдокимова М.Г. Система обучения иностранным языкам на основе информационно- коммуникационной технологии (технический вуз, английский язык): Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – М., 2007.
4. Лотман Ю.М. Семиосфера. СПб.: Искусство-СПБ, 2000. С. 203.
5. Моль А. Социодинамика культуры. М.: КомКнига, 2005. С. 45.
6. Шамне Н.Л. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации / Н.Л. Шамне. – Волгоград: Изд-во ВГУ, 1999. – 208 с.
7. Шишкина Т.А. Косвенные высказывания в теории речевой деятельности / Т.А. Шишкина // Прагматика и структура текста. – М., 1983. – С. 83-92.
8. Фэ Х. Семантика высказывания / Х. Фэ // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 399-405.

9. Crystal David. The Cambridge Encyclopedia of Language. 2nd edition. – Cambridge University Press, 1997.
10. Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton, 1981. – XII, 331p.
11. Hofstede G. Cultural differences in teaching and learning // International Journal of Intercultural Relations. – 1986, #10. – P. 301-320.
12. Интернет-журнал TownWork. URL: https://townwork.net/ magazine/job_wpaper/hst_trend/56516/

FORS TILIDA “SON+OT” MODELIDAGI DETERMINATIV QO‘SHMA SO‘ZLARNING YASALISHI

Xadicha BEGALIYEVA
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti 3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N. Nuriddinov

Annotatsiya: Ushbu maqola fors tilida determinativ qo‘shma so‘zlar haqida ma’lumot berish va “son+ot” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: determinativ qo‘shma so‘zlar, son, ot, yangi so‘zlar.

O‘zi mustaqil ma’noda ishlatiladigan so‘zlar o‘zaro qo‘shilishi natijasida yaxlit ma’no beradigan yangi so‘zlarga qo‘shma so‘zlar deyiladi. Qo‘shma so‘zlar tarkibidagi komponentlarning o‘zaro munosabatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi[1]:

1. Kopulyativ qo‘shma so‘zlar;
2. Determinativ qo‘shma so‘zlar;
3. Chatishuv usulida yasalgan qo‘shma so‘zlar.

Ma’lumki, determinativ qo‘shma so‘zlar kompozitsiya usuli orqali yasaluvchi qo‘shma so‘zlardir. Determinativ qo‘shma so‘zlar o‘z tarkibidagi komponentlarining o‘zaro munosabatiga ko‘ra hokim va tobe so‘z orqali bog‘lanuvchi so‘z birikmalarini eslatadi. Bu kabi qo‘shma so‘zlarda bir komponent boshqa bir komponent ma’nosini aniqlashtiruvchi bo‘lib, ular o‘zaro birgalikda yagona tugal ma’noni anglatib keladi[2].

[1] Quronbekov A. Fors tili. Darslik. – Toshkent, 2009. B. 166.
[2] Рубинчик Ю. А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М. 2001. – С. 161.

Determinativ qo‘shma so‘zlarda bir komponent ikkinchisining ma’nosiga aniqlik kiritib tobe so‘z sifatida keladi. Masalan: صاحب خانه *sāhebxāne* “uy egasi”, خورده مالک. *xordemālek* “kichik tadbirkor” kabi. Maqolada xuddi shu usulda yasalgan qo‘shma so‘zlarning *“son+ot”* modeli ko‘rib chiqiladi. Qo‘shma so‘zlarni tadqiq etish jarayonida fors tilida aynan shu model asosida bir qator yangi determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishi ma’lum bo‘ldi. Quyida ushbu model asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar va ularning ba’zilariga misollar keltiriladi.

“یک + ot”modeli orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:

یک بند *yekband* “uzluksiz”, “surunkali”, یک اسبه *yekasbe* “bir otli arava”, یک پا*yekpā* “bir oyoqli”, “cho‘loq”, یک تنه *yektane* “yolg‘iz”, “bir o‘zi”, یک تیغ *yektiγ* “butunlay”, “to‘liq”, یک جا *yekjā* “birga”, “to‘liq”, “butunlay”, “bir yo‘la”, یک جور *yekjur* “o‘xshash”, “bir turdagi”, یک جهت *yekjehat* “birdam”, “yakdil”, یک چشم *yekčašm* “bir ko‘zli”, “munofiq”, یک چند *yekčand* “ozgina”, “sal”, یک خورده *yekxorde* “ozroq”, “sal”, یک دفعه *yekdaf’e* “birato‘la”, “birdan”, یک دم *yekdam* “uzluksiz”, “to‘xtovsiz”, یک راست *yekrāst* “to‘g‘ridan-to‘g‘ri”, یک زن *yekzan* “bir xotinli”, یک سر *yeksar* “barcha”, “hammasi”, یک شاخ *yekšāx* “bir shoxli”, یک شکم *yekšekam* “yetarlicha”, “to‘yib”, “xumoridan chiqquncha”, یک عالم *yekālam* “ko‘p”, “bir dunyo”, یک کاسه *yekkāse* “birga”, “birgalikda”, یک میزان *yekmizān* “o‘zgarmas”, “mo‘tadil”, یک نوع *yeknou* “o‘xshash”, “bir xil”, یک باله *yekbāle* “bir qanotli”, یکدل*yekdel* “birdamlik bilan”, “hamjihatlik bilan”, یک کلام *yekkalām* “uzil-kesil”, “qat’iy”, یک هو *yekhou* “birato‘la”, 2) “daf’atan”, یک هوا *yekhavā* “sal-pal”, “oz-moz”.

Quyida keltiriladigan gapda یک yek “bir” va هوا havā “havo” so‘zlaridan hosil bo‘lgan “sal-pal”, “oz-moz” ma’nosini beruvchi so‘z ishtirok etgan:

U ***yekhavā*** *az to bolandtar ast* “U sendan **sal-pal** uzunroq” [4:2:754].

او **یک هوا** از تو بلندتر است.

Quyidagi jumlada یک باره *yekbāre* determinativ qo‘shma so‘zi یک *yek* “bir” va باره *bāre* “marta” so‘zlarining birikuvidan tashkil topib, jumla tarkibida “kutilmaganda” degan ma’noni ifodalayapti:

نفهمید چطور شد که **یک باره** همه چیز تغییر کرد و چشمش را باز کرد دید که توی آپارتمان استNafahmid četour šod-ke ***yekbāre*** *hame čiz tayyir kard va češmaš-rā bāz kard did-ke tu-ye āpārtemān ast* “U qanday qilib hammasi **kutilmaganda** o‘zgarib ketganini, ko‘zlarini ochganda esa kvartirada ekanligini tushunmadi” [3:8544]

Quyida berilgan gapda یک *yek* “bir” va تیغ *tiγ* “shu’la”, “yog‘du” so‘zlari birlashib “boshdan oyoq”, “butunlay” ma’nosida kelganini kuzatish mumkin:

لباسش **یک تیغ** سیاه بود. *Lebāsaš **yektiy** siyāh bud* “Libosi **boshdan oyoq** qora edi” [3:8549].

“دو + ot”modeli orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:

دوباره *dobāre* “takroran”, “yana”, دوپاره *dopāre* “ikkiga bo‘lingan”, “qoq o‘rtasidan bo‘lingan”, دو پهلو *dopahlu* “ikki ma’noli”, “kinoyali”, “pichingli”, دو پیکر*dopeykar* “egizaklar” (burj), دوتک*dotak* “juft”, دوچرخه *dočarxe* “velosiped”, دوجانبه*dojānebe* “o‘zaro”, “ikki tomonlama”.

Quyidagi jumlada دو *do* “ikki” va چرخه *čarxe* “gildirak” so‘zlarining birikib, “velosiped” ma’nosida kelmoqda:

جوان معقول و مؤدبی است که با **دوچرخه** می آید و کاغذ ها را می دهد. *Javān-e ma’γul-o mo‘dabi ast ke bā **dočarxe** miyāyad va kāγazhā rā midehad* “**Velosipedda** kelayotgan aqlli va odobli yigit hujjatlarni beradi [3:3365].

Yana bir gapda esa دو *do* “ikki” va جانبه *jānebe* “taraf”, “tomon” so‘zlari birikib kelib “o‘zaro” degan ma’noni bermoqda:

پدر و مادر ما متوجه این عشق **دوجانبه** شده بودند. *Pedar-o mādar-e mā motavajjeh-e in ešγ-e **dojānebe** šode budand* “Ota-onalarimiz bu **o‘zaro** muhabbatni payqashgan edi” [3:3374].

“سه+ ot”modeli orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:

سه انگشت *seangošt* “panshaha”, سه تیر *setir* “uch o‘qli revolver”, سه گوش *seguš* “uchburchak”, سه قولو *seγoulu* “uch egizaklar”, سه کله *sekalle* “xumkalla”, “kallaxum”, سه کنج *sekonj* “muyilish”.

Quyida سه *se* “uch” va کله *kalle* “bosh”, “kalla” so‘zlarining birikuvidan kelib chiqqan “xumkalla” so‘zi qatnashgan jumlani keltiramiz:

از اون سو اکبر **سه کله** هم مي آمد *Az un su Akbar **sekalle** ham mi-āmad* “U tomondan Akbar **xumkalla** ham kelardi” [4:73].

Yana bir jumlada esa سه *se* “uch” va کنج *konj* “burchak” so‘zlari qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan “muyilish” so‘zi qatnashgan:

مغازه نانوایی در **سه کنج** آن قرار داشت. *Maγāze-ye nānvāyi dar **sekonj**-e ān γarār dāšt* “Non do‘koni ana uning **muyulishida** joylashgan edi [3:4334].

“چهار+ ot”modeli orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:

چهار ابرو *čahār abru* “serqosh”, چهار پا *čahārpā* “to‘rt oyoqli”, “hayvon”, چهار راه *čahārrāh* “chorraha”, چهار شانه *čahāršāne* “yelkador”, “keng yelkali”, چهار زانو *čahārzānu* “chordana” (ikki oyog‘ini bir-biriga bog‘lab o‘tirish) , چهار گوشه *čahārguše* “to‘rtburchak”, چهار صبا *čahārsabā* “hayallamay”, “tezda”, چهار آینه *čahārāyine* “qurol-aslaha”, چهارزبان *čahārzabān* “ezma”, “sergap”,چهار چوب *čahārčub* “deraza ramkasi”,چهار طاق *čahārtāγ* “lang”, “ochiq”, چهار چرخه*čahārčarxe* “bolalar aravachasi”, چهارچنگولی *čahārčanguli* “siniq”, “bukchaygan”, چهارچشم

čahārčašm “sergak”, “hushyor”, چهار تکبیر *čahārtakbir* “janoza namozi”, = چارقد چهارقد *čahārγad* = čārγad “ayollar sharfi”, “ro‘mol”.

Quyida چهار *čahār* “to‘rt” va زانو *zānu* “tizza” so‘zlarining birikishi orqali yasalgan “chordana qurib o‘tirish” ma’nosi ifodalangan so‘z نشستن *nešastan* “o‘tirmoq” fe’li bilan bog‘langan jumla keltirilgan:

مردی که **<u>چهار زانو</u>** نشسته با دوستش صحبت می کرد *Mardi ke **<u>čahārzānu</u>** nešaste bā dustaš sohbat mi-kard.* “**<u>Chordana</u>** qurib o‘tirgan kishi do‘sti bilan suhbatlashardi”[4:481].

پهلوان رستم **<u>چهار شانه</u>**، قوی و نیرومند بود *Pahlavān Rostam **<u>čahāršāne</u>**, γavi va nirumand bud* “Pahlavon Rustam **<u>yelkador</u>**, kuchli va baquvvat edi” [4:481].

Yuqoridagi gapda چهار *čahār* “to‘rt” va شانه *šāne* “yelka” so‘zlari birikib kelgan va “to‘rt yelka” emas, balki “yelkador” deb tarjima qilinadi.

“پنج، شش، هفت، هشت، نه و ده” + ot”modellari orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar:

پنج انگشت *panjangošt* 1) “panshaha”, 2) “beshbarg” (*bot.*), پنج پایه = پنج پا *panjpā, panjpāye* “qisqichbaqa” (burj), پنج پر= پنج برگ *panjpar, panjbarg* “besh qirrali”, پنج وجهی = پنج سطحی*panjvajhi, panjsathi* “besh yoqli”, “besh tomonli”, شش قبرغه *šešγabarγe* “yomon”, “noxush”; “aqli noqis”, شش روزن *šešrouzan* “dunyo”, “ochun”, شش دانگ *šešdāng* “boricha”, “bor ovozi bilan”,هفت گوش *haftguš* “yetti qirrali”, هشت پا *haštpā* “sakkizoyoq”,خط هشت *haštxat* “ayyor”, “mug‘ombir”, ده دله *dahdele* “befavo”; “ikkiyuzlamachi”.

Quyidagi jumlada شش *šeš* “olti” va دانگ *dāng* “ovoz”, “sado” so‘zlari birikib “bor ovozda” degan ma’no anglashilishini ko‘rish mumkin:

او **<u>شش دانگ</u>** میخواند *U **<u>šešdāng</u>** mixānd* U **<u>bor ovozi bilan</u>** kuylardi [4:101].

Quyida taqdim etiladigan misolda هشت *hašt* “sakkiz” va خط xat “yo‘l”, “chiziq” ma’nosidagi so‘zlar birikib, “hiylakor” ma’nosini ifodalab keladi:

این خاله بیکار **<u>هشت خط</u>** بسر من بلایی آورد که نپرس. *In xāle-ye bikār-e **<u>haštxat</u>** be sar-e man balāyi āvard ke napors* “Bu **<u>hiylakor</u>** be’mani ayol boshimga balo bo‘ldi, so‘rama” [3:8350].

Fors tilida پنج *panj* “besh”, شش *šeš* “olti”, هفت *haft* “yetti”, هشت *hašt* “sakkiz”, نه *noh* “to‘qqiz” va ده*dah* “o‘n” sonlari bilan birikib, yangi ma’no anglatadigan determinativ qo‘shma so‘zlar miqdori nisbatan kamchilikni tashkil etishi tadqiqotimiz davomida oydinlashdi. Bu raqamlar, asosan, گوشه *guše* “taraf”, “tomon”, سو *su* “tomon”, سطحی*sathi* “maydon” kabi so‘zlar bilan birikib, matematik shakllar va tomonlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Determinativ qo‘shma so‘zlar ichida bir soni bilan birikib yasalgan yangi so‘zlar eng ko‘p uchradi (27 ta), ikki soni bilan 7 ta, uch soni bilan 6 ta, to‘rt soni bilan 17 ta, besh soni bilan 7 ta, olti soni bilan 2 ta, yetti soni bilan 1 ta, sakkiz soni bilan 2 ta va o‘n soni bilan 1 ta, jami 70 ta “son+ot” modelidagi

determinativ qo‘shma so‘zlar ushbu izlanishlar samarasi o‘laroq aniqlandi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bu tadqiqot faqatgina 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni o‘z ichiga olgan, bu esa hali o‘rganilayotgan model asosida yana yangi so‘zlar topilishi mumkinligini anglatadi. Shunisi qiziqki, 9 soni bilan yasalgan bironta determinativ qo‘shma so‘z o‘rganib chiqilgan manbalarda kuzatilmadi. Yuqorida aniqlangan so‘zlar ham og‘zaki (سه کله *sekalle* “xumkalla”, یک چشم *yekčašm* “munofiq” kabi), ham ilmiy tilda (دو پیکر *dopeykar* “egizaklar” (burj nomi), پنج پایه *panjpāye* “qisqichbaqa” (burj nomi) kabilar) ishlatiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, determinativ qo‘shma so‘zlarning salmoqli qismi “son+ot” modeli asosida yasalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronbekov A. Fors tili. Darslik. – Toshkent, 2009.
2. Рубинчик Ю. А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М, 2001.
3. Anvari H. Farhang-e bozorg-e soxan. Tehron, 1381.
4. Персидско-русский словарь: В 2-х томах под ред. Ю.А.Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с., 848 с.
5. Nuriddinov, N., & Nizamova, F. (2022). Theoretical views of Iranian linguists on the classification of word-combinations. In *ИННОВА-ЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 86-90).
6. NURIDDINOV, N., & AKMALOV, S. (2022). THE ROLE OF IRANIAN ACADEMIES OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF PERSIAN LEXICON. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (6), 140-143.

INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING XITOY TILI MARKETING TERMINLARIGA TA’SIRI

Nargiza YAKUBOVA
TDSHU, Xitoy filologiyasi kafedrasi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD N.A. Rasuleva

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoy tiliga, marketing hamda iqtisodga oid terminlarning o‘zlashish jarayonida, ingliz tilining ta’siri haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: marketing, ingliz tili, 《四洲志》, 《海国图志》, transliteratsiya

Angliya 18-19-asrlarda eng kuchli mustamlakachi davlat bo‘lib, Xitoy – Britaniya savdosi uzoq vaqt davomida Xitoyning tashqi savdosining asosiy oqimini egallagan. Shuning uchun, transliteratsiya qilingan so‘zlar iqtisodiy so‘zlarning katta qismini tashkil qilsa-da, bu biz ingliz tilining ta’sirini e’tiborsiz qoldirishimiz mumkin degani emas. Darhaqiqat, ingliz tilining xitoy tilining lug‘atiga ta’siri yapon tiliga qaraganda ancha oldinroq va ta’sir qilish kanallari ko‘proq.

Birinchi usul – Yangjing ingliz tili, asosan kanton tili orqali xitoy lahjalariga kirish va keyinchalik boshqa dialektlarga tarqalib, ularning ba’zilari mandarin tiliga singib ketgan. Birinchi afyun urushidan oldin Xitoy faqat Guanjouni tashqi savdo porti sifatida ochdi va Guanjou lahjasi mantiqan birinchi bo‘lib ingliz tili bilan aloqada bo‘ldi. O‘sha davrda Sin hukumati tomonidan olib borilgan tashqi siyosat va mutasaddi olimlarning chet el millatlariga bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlari tufayli bu davrda g‘arbliklar bilan xitoylar o‘rtasidagi aloqa bilvosita bo‘lib, pastdagi xalq bilan aloqadan boshlangan. Bu davrda qabul qilingan so‘zlarning aksariyati transliteratsiya qilingan so‘zlar, masalan, “麦 Mai”. Bu so‘z “savdo belgisi” transliteratsiyasi uchun ishlatiladi va uning kanton tilida talaffuzi [mak][1]. Agar uni mandarin tilida o‘qisangiz, bu so‘z inglizcha “marka”dan ancha farq qiladi, ammo kanton lahjasida ko‘proq talaffuz ohangi. Mandarin ko‘proq o‘rta asr fonetik komponentlarini saqlaydi. “麦 Mai” [-k] bilan tugaydigan kiruvchi ohang belgisi bo‘lib, “belgi”ni transliteratsiya qilish uchun ko‘proq mos keladi. Mandarin tilida "唛" deb yozilgan, masalan, "唛头".

Darhaqiqat, yangi ma’nolarni ifodalash uchun belgilar shaklini o‘zgartirish hodisasi xitoy tilida birinchi marta kuzatilayotgani yo‘q. Bu qadimgi xitoy tilidagi Tongjia belgilarining qadimgi va zamonaviy belgilarga farqlanishiga o‘xshaydi. Qadimgi xitoy tilidagi Tongjia belgilari ikki turga bo‘linadi: "本有其字" va "本无其字". Aslida o‘z qahramonlariga ega bo‘lgan bahonasi dastlab kitob yoki oddiy belgilar bo‘lgan, lekin u bir xil yoki o‘xshash tovushli boshqa belgida yozilganligini anglatadi; Bir xil yoki o‘xshash tovushli so‘zlar va unga ko‘ra ma’lum ma’nolarni ifodalaydi.[2] Qadimgi belgilar qarz olish tufayli yangi ma’nolarga ega bo‘lgandan so‘ng, qarz olish ma’nosini ifodalovchi yangi belgilar paydo bo‘ldi. Masalan, "舍"

[1] “mark” 在普通话中后来出现了新的音译词：马克，如“马克笔”。但这里的“马克”意为“记号”，与“商标”不同。

[2] 赵克勤.古代汉话词汇学[M.北京：商务印书馆，1994，200-203

so‘zining asl ma’nosi mehmonxona,《说文》: shahar turar joyi uyi. Keyinchalik, taslim bo‘lish niqobi ostida, 《荀子·劝学》: Sabr-toqat va taslim bo‘l, chirigan yog‘och hech qachon sinmaydi. Bu ma’no keyinchalik “捨” tarzida yozilgan bo‘lib, asl “舍” belgisidan farq qiladi. Kantoncha mandarin tiliga singib ketgan va o‘simliklar ma’nosini bildiruvchi “麦” dan farqlash uchun “mark” ga o‘zgartirilgan “唛”ni transliteratsiya qilish uchun “麦” so‘zidan foydalanadi. Farqi shundaki, bu yerda yangilik xitoycha belgilar yordamida inglizcha so‘zlarni transliteratsiya qilish orqali yaratilgan bo‘lsa, Tongjiazi yangi g‘oyalar niqobi ostida so‘z o‘zlashish orqali yaratilgan.

Ikkinchi yo‘l – davlat amaldorlari va Qing hukumati tomonidan tashkil etilgan rasmiy tarjima agentliklarining uyushgan tarjimasi. Birinchisining vakillari – Lin Zexu va Vey Yuan, ikkinchisining vakillari – Pekin Tongven muzeyi va Shanxay ishlab chiqarish byurosi tarjima instituti.

1839 yilda Lin Zexu imperator Daoguang buyrug‘i bilan Guanjouga jo‘nadi. G‘arb hukumatining Xitoyga bo‘lgan urinishini tushunish uchun u Guanchjouga kelganidan so‘ng darhol odamlarni yollab, Murreyning 《世界地理大全》(“Jahon geografiyasi ensiklopediyasi”)ni tarjima qilib, 《四洲志》 ga jamladi. Biroq, birinchi afyun urushi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, Lin Zexu o‘z lavozimidan bo‘shatilgan va armiyaga surgun qilingan, shuning uchun bu tarjima o‘z vaqtida nashr etilmagan. Keyinchalik Lin Zexu tarjimani Vey Yuanga topshirdi. Vey Yuan Lin Zexu G‘arb bo‘yicha to‘plagan barcha materiallarni Guanjouda jamladi, boshqa missionerlar tomonidan yozilgan materiallarni qo‘shib, 1844-yilda 60 jildlik 《海国图志》ni tahrir qilib nashr ettirdi.

《海国图志》da ba’zi iqtisodiy so‘zlar paydo bo‘ldi, masalan, savdo, kompaniya, import, eksport va boshqalar.[1] Bu so‘zlarni yapon tilidan kelib chiqqan deb hisoblash mumkin emasligini aytish kifoya, garchi ular yapon tilida ham mavjud. Yana asosli tushuntirish shuki, bu so‘zlar Yaponiyaga G‘arb asarlarining xitoycha tarjimalari orqali kiritilgan (Yaponiyada 《海国图志》ning to‘liq to‘plami nashr etilgan) keng qo‘llanilgan.

Pekin Tongven muzeyi 1862 yilda tashkil etilgan va 1898 yilgacha u 20 ga yaqin g‘arbiy asarlarni tarjima qilgan. Shanxay ishlab chiqarish byurosida tarjima ishlari asosan amerikaliklar Frayer va Syu Shou tomonidan amalga oshirildi. Ular hamkorlikda Shanxay ishlab chiqarish byurosi tomonidan nashr etilgan 91 ta asarni tarjima qilishdi. Ushbu nashr

[1] 关于《海国图志》的资料转引白马西尼 《现代汉语词汇的形成》31-39.

etilgan tarjimalar xitoy tiliga G‘arb tillaridan (asosan ingliz tilidan) o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynadi.

Uchinchi yo‘l – transliteratsiya so‘zlari orqali xitoy lug‘atiga kirish. Yuqorida aytib o‘tilganidek, xitoy tili yapon tilidan ko‘plab transliteratsiya qilingan so‘zlarni o‘zlashtirdi. Ammo, aslida, bu so‘zlar yapon tiliga xos bo‘lgan mahalliy so‘zlar emas, ular yapon tiliga ham o‘zlashgan so‘zlar sifatida kirdi. Yapon tilidan olingan so‘zlarni olib kirishni taxminan uch bosqichga bo‘lish mumkin: Meydzi davridagi bepul tarjima bosqichi; Shouning dastlabki davrida katakana so‘zlarining ko‘payishi va Ikkinchi jahon urushi davrida so‘z so‘zlariga dushmanlik bosqichi.[1] Zamonaviy jamiyatda Katakana so‘zlari bosqichi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Meiji restavratsiyasi yaponcha so‘zlarning xitoy tiliga singib ketishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yapon tilidagi so‘zlarning import tarixi bilan solishtiradigan bo‘lsak, bu davrda yapon tilidagi so‘zlarni kiritish usuli asosan xitoycha belgilarning tarjimasi bo‘lib, xolisona xitoy tilini o‘zlashtirish imkoniyatini ta’minladi. Agar yapon tili chet el so‘zlarini katakana shaklida boshidan o‘zlashtirib olsa, xitoy tili yapon tilidan so‘zlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yo‘qotishi shubhasiz. Bundan yapon tili aslida xitoylar uchun tranzit stansiya ekanligini anglash qiyin emas. Yapon tilidan olingan so‘zlar orasida eng katta raqam ingliz tilidan olingan. Ayrim olimlarning ta’kidlashicha, yapon tilidan ingliz tilidan import qilingan xorijiy so‘zlar faqat Meidzi davrida 1294 taga yetgan va bu umumiy ingliz lug‘atining 12,23% ni tashkil qilgan.[2] Muallif xitoycha iqtisodiy so‘zlardagi etimologiyasi tekshiriladigan transliteratsiya so‘zlari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tuzgan va ingliz tilidan 37 ta va nemis tilidan 3 tasi mavjud. Bu raqamlar to‘liq ko‘rsatadiki, transliteratsiya orqali xitoy lug‘atiga bilvosita kirish ingliz tili uchun Xitoyning iqtisodiy so‘zlariga ta’sir qilishning qiyin, ammo juda muhim usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 赵克勤.古代汉话词汇学[M.北京：商务印书馆，1994，200-203。
2. 关于《海国图志》的资料转引白马西尼 《现代汉语词汇的形成》31-39.
3. 王吗.日本外来语输入的历史考察 1-.日语学习与研究，2006，第三期

[1] 王吗.日本外来语输入的历史考察 1-.日语学习与研究，2006，第三期

[2] 王玉芝关于日语西化现象分析----以来自英语的外来语为例以.日语学习与研究，2004，第二期

FORS TILIDA “خوراک” XORĀK “TAOM” SO‘ZINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI

Shahrizoda KARIMXO‘JAYEVA
filologiya va tillarni o‘qitish (fors tili) yo‘nalishi, 3-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.N. Nuriddinov

Annotatsiya: Ushbu maqola fors tilidagi taom so‘zining leksik-semantik maydoni haqida bo‘lib, bunda taom so‘zining ma’nolari, turlari – birinchi, ikkinchi va uchinchi taomlar bilan tanishib, ularning bir nechta hikoya va maqollar tarkibida kelishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ular manbalardan to‘plangan misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: taom, leksik maydon, birinchi taom (غذای اول), ikkinchi taom (غذای دوم), uchinchi taom (غذای سوم) , maqollar.

Til bu tizimli tuzilma sifatida insonlar o‘rtasidagi muloqot va bir-birini tushunish, anglash vositasidir. U barcha darajadagi birliklardan bir vaqtning o‘zida foydalanish bilan ishlaydi. Nutqda ma’lum bir kategorik semantikaga murakkab tizim bo‘lgan tilning ko‘p darajali vositalarining o‘zaro ta’siri orqali erishiladi va lug‘at uning asosiy tizimlaridan biri hisoblanadi[1].

Hozirgi zamon tadqiqotchilari til semantikasini tizimli strukturaviy tahlil qilishning turli uslub va sistemalaridan foydalanadilar. Bularning asosiylaridan biri “maydon” atamasi edi. Uning elementlari tilda yagona vazifani bajaradi.

Biz ko‘rib chiqayotgan خوراک *xorāk “*taom” so‘zining leksik-semantik maydonidagi eng muhim identifikator “taom, taomga munosabat” yadro semasi mavjudligidir.

Ovqatlanish ijtimoiy normalar va urf-odatlar bilan tartibga solinadi. Inson nima iste’mol qilishiga qarab uning ijtimoiy va madaniy darajasini baholash mumkin.

Taomning nomi ma’lum bir xalqning qiziqishlari va ta’m haqida fikr beradi. Pazandachilik va oshpazlik kitoblari mualliflari, faylasuflari, madaniyatshunoslari, tarixchilari, etnograflarning matnlarida “taom” so‘zining nafaqat lingvistik maydonini, balki ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan ijtimoiy-madaniy va tarixiy komponentlar haqida ma’lumotlar mavjud.

Endi “خوراک” – so‘zining fors tilidagi ma’nolari bilan tanishamiz:

1) Oziq-ovqat, ovqat, ozuqa, rizq;

[1] https://www.dissercat.com/content/leksiko-semanticheskoe-pole-eda-v-persidskom-i-russkom-yazykakh

2) taom, yegulik:خوراکهای اول *xorākhā-ye avval* “birinchi taom”, خوراکهای ایرانی *xorākhā-ye irāni* “Eron taomlari”, خوراک باب طبع *xorāk-e bob-e tab’* “sevimli taom”, خوراک تفننی *xorāk tafannoni* “shirinliklar”, خوراک دل و قلوه *xorāk-e del va γolve* “yurak va buyrakdan tayyorlangan taom”, نهار مرکب از سه خوراک *nahār-e morakkab az se xorāk* “uch taomdan iborat tushlik”;

3) tibbiyotda qo‘llanilishi:1) do‘za; یک خوراک آسپیرین *yek xorāk-e āspirin* aspirin dozasi;

4) so‘zlashuvda: 1) ishtaha; این بیمار خوراک ندارد “bu kasalning ishtahasi yo‘q”, نه خواب داشت و نه خوراک *na xāb došt va na xorāk* “u uyquni ham ishtahani ham yo‘qotdi”.

5) Kamdan-kam iste’mol, iste’mol (nima-dir); این مقدار کاغذ خوراک یکماه چاپخانه است *in meγdār kāγaz xorāk-e yekmāh-e čāpxāne* “bu qog‘oz miqdori bosmaxonaning oylik qog‘oz miqdori hisoblanadi”

6) خوراک خوردن *xorāk xordan* “ovqat yemoq, ovqatlanish, yemoq”, خوراک دادن *xorāk dādan* a) ovqatlantirish, oziqlantirish (kimnidir; را به؛ ko‘makchilari bilan keladi); b) stolga taom tortish yoki olib kelish;

7) خوراک پز *xorākpaz* “oshpaz” خوراک پزی *xorākpazi* a) ovqat pishirish; پزی خوراک چراغ *pazi čeroγ-e xorāk* a) gaz, plita; b) oshpaz kasbi, pazandachilik;

Biz o‘zbek tilida “taom” deganda ko‘proq faqatgina “ovqat”ni tushunamiz. Umumiy so‘zning semantik maydoni bu “taom” bo‘lsa, endi uni ayrim semantik birikmalar orqali qo‘shib o‘rganamiz. Bunda ko‘proq o‘zbek va fors tillaridagi misollarni o‘zaro solishtiramiz.

Masalan, umumiy maydon hosil qilsak pomidor, olma, shirinliklar, sho‘rva bularning hammasi “taom” ning ichiga kiruvchi leksik birliklardir. Bular mustaqil ravishda shakllanishlari ham mumkin, hozir esa umumiy maydon sifatida olindi. Eronda asosiy ovqatlar sabzavot, dukkakli ekinlar, go‘sht va guruchga asoslangan.

Bilamizki taomlar iste’mol qilinishi jihatidan turlarga bo‘linadi. Masalan, birinchi taom, ikkinchi taom, shirinliklar va ichimliklar. Eron taomlaridan esa birinchi ovqat nomlari (غذای اول *γazā-ye avval)* bilan tanishamiz. Bunda eng mashhuri:

<u>سوپ</u>*sup* **<u>sho‘rva</u>**

Dalillar shuni ko‘rsatadiki “sho‘rva” ga o‘xshash taomlarni pishirish tarixi miloddan avvalgi 5000 yilga borib taqaladi. Forslar ham o‘zlarining takrorlanmas sho‘rvalarining xilma-xilligi va mazaliligi bilan shoh oshxonalar qatoridan o‘rin egallagan. Shu sababli ham غذای اول *γazā-ye avval* deganda hamma birinchi bo‘lib سوپ *sup* ya’ni sho‘rvani ko‘z oldiga keltiradi. Bir qancha sho‘rvalarning nomlari bilan tanishamiz:

1) سوپ جو قرمز با مرغ مجلسی *Sup-e jow-e γermez bā morγ-e mejlesi* “Qizil arpa **sho‘rva**si tovuq bilan tayyorlangan*”.* (DelBaraneh.com)

2) سوپ گولاش مجاری *Sup-e gulāš-e majāri* “Vengriya gulosh ***sho‘rva***si”. (DelBaraneh.com)

3) سوپ برش روسی *Sup-e borš-e rusi* “ Bo‘rsh **sho‘rva**si”.(DelBaraneh.com)

4) سوپ شیر با جوپوست کنده *Sup-e šir bo joupustkande* “Arpa bilan tozalangan sutli **sho‘rva**”.(DelBaraneh.com)

5) سوپ گوجه فرنگی با برنج و جو و خامه و ریحان ***Sup-e*** *guje farangi bā berenj va jou va xāme va reyhān* “Pomidor **sho‘rva** guruch, arpa, qaymoq va rayhon bilan tayyorlanadi”.(DelBaraneh.com)

6) سوپ ماست *Sup-e māst* “Qatiq **sho‘rva**”. (DelBaraneh.com)

7) سوپ اسفناج *Sup-e esfenāj* “ Ismaloq **sho‘rva**”. (DelBaraneh.com)

9) سوپ کدو *Sup-e kadu* “Qovoq **sho‘rva**”. (Delbaraneh.com)

10) سوپ جوانه گندم و جو *Sup-e javāne gandom va jou* “Bug‘doy urug‘i va arpa **sho‘rva**”. (DelBaraneh.com)

Eronda sho‘rva bilan bir qatorda غذای اول uchun **سالاد***sālād* salat” ham iste’mol qilishadi. Eronning eng mashhur salatlari nomlari bilan tanishamiz. Bular:

1) سالاد ماکارونی *Sālād-e mākāruni* “ Makaronli **salat**”.

2) سالاد سزار *Sālād-e sezār* “ Sezar **salat**i”.

3) سالاد انواع با سیب زمینی *Anvā-e sālād bo sibzāmini* “Ko‘katli **salat** turlari”.

4) سالاد پیازچه *Sālād-e piyāzče* “Piyozli **salat**”.

5) سالاد چلیپایی *Sālād-e čelipāyi* “Karamli **salat**”.

6) سالاد مرغ رژیمی *Sālād-e morγ-e režimi* “Diyet tovuqli **salat**”.

7) سالاد میموسا *Sālād-e mimusā* “Mimuza **salat**i”.

8) سالاد کلم مخلوط *Sālād-e kalam maxlut* “Aralash karam **salat**i”.

9) سالاد نواری *Sālād-e navāri* “Somoncha **salat**”.

10) سالاد از کلم قرمز *Sālād-e az kalam-e γermez* “Qizil karamdan **salat**”

Keyingi uchinchi taom (خوراک *xorāk*) **غذای اول***yazā-ye avval* ning asosiylaridandir. U nafaqat Eronda balki butun dunyoga keng tarqalgan taomdir. Bu taom juda tez tayyorlanadigan taomlardan biri bo‘lib kayfiyat va ishtahangizni ochadi deb ta’kidlashadi. Bu taomni Eronda:

سیب زمینی سرخ کرده *Sib zaminiy-e sorx karde* “**Qovurilgan kartoshka**” (fri) deb atashadi va sevib iste’mol qilishadi.

Eronda hamisha birinchi ovqat, yegulik sifatida mana shu uchta ovqatdan ko‘p foydalanishadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, birinchi taom (غذای اول *yazā-ye avval)* iste’mol qilinayotgan paytda bir-biri bilan qizg‘in

suhbatga kirishib ketishi ham taomga bog‘liq. Shu taomlar orqali eronliklar biz o‘zbeklar kabi yoki bizdan ancha ko‘proq maqol va kinoyalar bilan ham qizg‘in suhbat olib borishadi. Masalan, خوراک*xorāk* “taom”ga oid maqollar:

1) آشپز که دو تا شد غذا یا شور می شود یا بی نمک[1] *Āšpaz ke do tā shod, γazā yā šur mišavad yā binamak* “Ikkita oshpaz bo‘lgan joyda ovqat yo sho‘r bo‘ladi yoki tuzsiz”.

2) براي من غذای خوب با محصول خوب شروع می شود[2] *barāye man γazā-ye xub bā mahsul-e xub šoru’ mišavad* “Men uchun yaxshi ovqat yaxshi mahsulotdan boshlanadi”.

3) آدم گرسنه سنگ را هم می خورد[3] *Ādam-e gorosne, sang-rā ham mixorad* “Och qolgan odam toshni ham yeydi”.

4) همان آش و همان کاسه[4] *Hamān āš va hamān kāse* “ Xuddi shu osh va xuddi shu piyola”.

5) شکم گرسنه و دوغ تلخ[5] *Šekam goresne-vo duγ-e talx* “Och qorin va achchiq ayron”.

Endi taomga oid so‘zlarning bir nechta hikoyalar tarkibida kelishini ko‘ramiz:

1 - **غذا و نان**

یکی از آنها ضعیف بود و هر دو شب یکبار **غذا می خورد** *Yeki az ānhā zaif bud va har do šab yek bār* ***γazā mixord*** “Ulardan biri kuchsiz edi va har ikki kechada bir marta **ovqatlanardi**”.(از حکایت : پر خور و کم خور)[6]

دیگری قوی بود و روزی سه بار **غذا می خورد** *Digari γavi bud va ruzi se bār* ***γazā mixord*** “Boshqasi kuchli edi va kuniga uch mahal **ovqatlanardi”** (از حکایت: پر خور و کم خور)[7]

نان می خواهم چه کنم قیمتی ندارند! *Non mixāham če konam, γiymati nadārand* “**Non** xohlayman nima qilay narxi yo‘q!” [8] (از حکایت: برکت در نان است)

برکت در **نان است** ! *Barakat dār non ast* “Baraka **nondadir**”. (از حکایت: برکت در نان است)[9]

2 **-سالاد**

علی گفت که در تهیه **سالاد** از آنها استفاده می شود عبارتند از: گوجه فرنگی- خیار- قارچ – پیاز و غیره *Ali goft ke dar tahiyye-ye sālād az ānhā estefāde mišavad ebāratand*

[1] https://www.daneshchi.ir
[2] https://doctoreto.com
[3] https://www.daneshchi.ir
[4] https://abadis.ir
[5] https://www.beytoote.com
[6] https://www.epubfa.ir
[7] https://www.epubfa.ir
[8] https://khaandaniha.ir
[9] https://khaandaniha.ir

az: guje farangi, xiyār, γārch, piyāz va γeyre “Ali **salat** nimalardan tayyorlanishini aytdi: pomidor, bodring, qo‘ziqorin, piyoz va boshqalar”. (از حکایت: رستوران رایگان)[1]

بعضی اوقات فقت **سالاد سبزیجات** می خوری. چرا اینطور می کنی؟ *Bazi ouγāt faγat sālād-e sabzijāt mixori. Čerā intour mikoni?* “Ba’zi paytlarda faqat **sabzavotli salat** yeysan. Nega bunday qilasan?”. (از حکایت: آداب غذا خوردن)[2]

مامان به من بگو نام این **سالاد** چیه؟ *Māmān be man begu nām-e in sālād čiye?* “Oyijon menga ayting bu **salatning** nomi nima?”. (از حکایت: آداب غذا خوردن)[3]

Mavzu tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Matnlarda “taom” so‘zining nafaqat lingvistik maydonini, balki ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradigan ijtimoiy-madaniy va tarixiy komponentlar bilan tanishdik.
2. Umumiy so‘zning semantik maydoni ayrim semantik birikmalar orqali qo‘shib o‘rganildi.
3. Maqol va xalq orasida ishlatiladigan gaplarning fors tili va o‘zbek tilidagi ma’nolarining qisqacha tahlili o‘rganildi.
4. Hikoyalarda خوراک *xorāk* “taom” so‘zining leksik-semantik maydoniga oid so‘zlarning kelishi ularning sermahsulligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Quronbekov, N. Nuriddinov. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019. – 144 b.
2. К.М. Мухаммадбеги. Лексико-семантическое поле “еда – خوراک” в персидском и русском языках. – Душанбе. – 25 с.
3. https://khaandaniha.ir
4. https://namakstan.net
5. https://www.chtor.com
6. https://cofelink.com
7. https://doctoreto.com
8. https://www.daneshchi.ir
9. https://abadis.ir
10. https://www.beytoote.com
11. https://www.epubfa.ir
12. https://khaandaniha.ir

[1] https://namakstan.net
[2] https://www.chtor.com
[3] https://cofelink.com

MALAY TILIDA KO‘PLIK SHAKLINING IFODALANISHI

Shahlo RAHIMOVA
TDSHU bakalavr 4-kurs
“Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kafedrasi”
Yo‘nalish Filologiya (malay tili)
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi E. Bekkulov

Annotatsiya: Mazkur maqolada malay tilida ko‘plik yasalishi, ma’no turlari, affiks, prefiks, suffiks qo‘shimchalari bilan ko‘plikning ifodalanishi, ma’nolari turlari, ot, son, sifat va fe’l kabi so‘z turkumlari bilan ko‘plik so‘zlarning ma’nolari hamda har qanday ko‘plik shakli formasida yozilgan so‘zlar ko‘plik ma’nosini bermasligi, unli va undosh tovushlarning ko‘plik shaklda ifodalanishi kabi ma’noviy yozilishi va qoidalari kabi o‘zgarishlar bir necha so‘zlar misoli tahlilida ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: prefiks, suffiks va affikslar, unli va undosh tovushlar o‘zgarishi, qofiyaviy va ritmik ko‘plik so‘zlar.

Malay tilida so‘zlovchilar haqida bir qancha fikrlar aytib o‘tilgan bo‘lib, u Avstranez deb ataluvchi odamlar guruhidan kelib chiqqan. Ular Yunoniston hududidan kelgan va Jabubiy-Sharqiy Osiyo hududiga kelib joylashganlar. Bu mil.av. 2500-yilda sodir bo‘lgan bo‘lib, birinchi kelgan guruh Malay Proto deb nomlangan. Taxminan mil.av.500-yilda Malay Deutro deb nomlanuvchi ikkinchi guruh kelib joylashgan. Ular Janubiy-Sharqiy Osiyoning sohil va vodiylariga kelib o‘rnashganlar va dehqon-chilik, dengizchilik bilan bilan shug‘ullanishgan. Austraneziya tili bitta til tarmog‘i bo‘lib, bir katta til oilasi guruhiga kiradi va Austris til oilasi deb ataladi. Austraneziya tarmog‘idan tashqari yana ikkita til oilasi tarmog‘i mavjud bo‘lib, ular Austroasia va Tibet-China tillaridir. Ular quyidagilar :

Austris tillari : 1.Austroasi 2.Tibet-China 3. Austroneziya

Malay tili Austroneziya til oilasining Nusantara tarmog‘idagi 200tadan ortiq tillaridan biri hisoblanadi.

Malay tilida uyg‘unlikdagi ko‘plik yasalishi so‘zlarning takrorlanish, qaytarilish jarayonlaridandir. Biroq, ba’zi tadqiqotchilar tushuntirsalar ham, uning mavjudligi omili so‘zlarning xususiyatlari va shakllanishi jarayoni haligacha noma’lum. [1] Tilshunos Ueskottning fikricha, hissiyotlarni ifodalovchi, ma’nodor so‘zlar ba’zilarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, ritmik takrorlangan qofiyali so‘zlarni yaratishga asos bo‘lgan.

[1] Collins, James (1979) Expressives in Kedah Malay, dlm South-east Asian Linguistic Studies Vol. 4, ed. N.D. Liem, vol. 4, pp. 379-406.

Makna kata ganda ialah kata ganda yang dihasilhan oleh penggandaan atau pengulangan kata dasar yang terderi daripada kata tunggal, kata terbitan, ataupun kata majmuk. [1] Koʻplik soʻzining maʼnosi soʻzni ikki marota qoʻshib yozish orqali hosil qilingan soʻzdir yoki asos soʻzlardan tashkil topgan soʻzlarni yoki oʻzak soʻzlarni takrorlashdir.

Malay tilida soʻzning koʻplikdagi shakli – bu soʻzlarni takrorlash jarayonida hosil boʻladi. Ikkala soʻz – bu butun yoki qisman qoʻshilib yoziladigan soʻzdan hosil boʻlgan soʻzdir. Koʻplik shaklini hosil qiluvchi soʻzlarning birinchi turi quyidagicha yasaladi, yaʼni bir soʻzning affikssiz takror holda chiziqcha bilan yozilishi asosida yasaladi. Koʻplik shaklini hosil qiluvchi soʻzlarning birinchi turi quyidagicha yasaladi, yaʼni bir soʻzning affikssiz takror holda chiziqcha bilan yozilishi asosida yasaladi.

Butun soʻzning takrorlanishi. Masalan: **buku** (kitob), **buku-buku** - kitoblar, **orang** (odam), **orang – orang** – odamlar, **budak**(bola), **budak – budak** – bolalar, **jalan** (koʻcha) **jalan-jalan**- koʻchalar, **negara**(mamlakat), **negara-negara** – mamlakatlar, **guru**(ustoz), **guru-guru**- oʻqituvchilar, **murid**(shogird), **murid-murid**-shogirdlar va boshqalar.

Orang-orang di pantai Timur suka bermain **layang-layang**.[2] Sharqiy sohilda ***yashovchilar*** *varraklar*ni uchirishni yaxshi koʻrishadi. Ushbu gapni tahlil qiladigan boʻlsak, ajratib koʻrsatilgan *orang-orang* (odamlar) soʻzi koʻplik maʼnoda, layang-layang soʻzi aslida birlikda *varrak* ikki marotaba takrorlanib yozilishiga qaramasdan, ammo ushbu gapda olmosh koʻplikda boʻlgani uchun ***varraklar*** koʻplik maʼnosini ifodalagan.

Oʻzbek tilida bizga maʼlumki, soʻzlarda koʻplik shakli yasash uchun soʻzlar ikki marta takror yozilmaydi, aksincha otlarda grammatik koʻplik - ***lar*** lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha bilan ifodalanadi. Koʻplikning bunday maxsus affiks bilan ifodalanishi koʻplikning morfologik usul bilan ifodalanishi deyiladi. Masalan: **stollar**, **bolalar, kitoblar** kabi.

Malay tilida Kata Ganda – koʻplik shaklini yasovchi soʻzlarning 5 xil usuli mavjud.[3] Ular quyidagilar:

1. Kata Ganda Penuh
2. Kata Ganda Semu
3. Kata Ganda Separa
4. Kata Ganda Berentak

[1] Nik Safiah Karim, Asmah Haji Omar,et.al (2008).Tatabahasa Dewan.K.L:Dewan Bahasa dan Pustaka, p-75

[2] Larry Gonick Jakarta :KPG.p-102"Kartun riwayat peradaban" JILID I p-47

[3] Nik Safiah Karim, Asmah Haji Omar,et.al (2008). Tatabahasa Dewan. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, p-75

5. Kata Ganda Berimbuhan

Kata ganda penuh (to‘liq ko‘plik so‘zlar) hech qanday affiks va suffikslarsiz, so‘zning to‘liq holda takrorlanishi hosilasidir. Masalan: **sekolah – sekolah** (maktablar), **makan – makan (**ovqatlar) va hokazo.Ushbu qoidada yasalgan so‘zlar o‘zining ichida 3 qoidaga ko‘ra yasaladi, ya’ni:

1. Kata ganda seluruh (kata nama – ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan).

2. Kata ganda seluruh (kata kerja – fe’l so‘z turkumidagi so‘zlar bilan).

3. Kata ganda seluruh (kata adjektif – sifat so‘z turkumidagi so‘zlar bilan).

(I) *Penggandaan penuh kata tunggal*. So‘zning to‘liq holda takrorlanishi:

Meja – meja (stollar), ***ayat – ayat*** (gaplar), ***buku – buku*** (kitoblar), ***tadika – tadika*** (bog‘chalar), ***ketua – ketua*** (boshliqlar), ***kekasih – kekasih*** (sevishganlar).

(a) Dengan awalan. Prefiks (old qo‘shimcha) bilan:

Pemimpin – ***pe***mimpin (boshliqlar), ***ke***tua – ***ke***tua (rahbarlar)

(b) dengan akhiran. So‘z oxirida qo‘shimcha bilan:

Amal**an**-amal**an** (amallar), dapat**an**-dapat**an** (topilmalar), ajar**an**-ajar**an** (ta’limotlar), jual**an**-jual**an** (sotish jarayoni);

(b) Dengan apitan. Old va orqa qo‘shimchalar bilan:

Persatu**an-per**satu**an** (uyushmalar), **per**main**an-per**main**an** (o‘yinlar), **ke**menteri**an-ke**menteri**an** (vazirliklar), **per**tanding**an-pe**rtanding**an** (musobaqalar)[1] va hokazo.

Orang Mesir suka **gambar – gambar** yang menceritakan suatu kisah.[2]

Misrliklar hikoya qiluvchi rasmlarni yaxshi ko‘radilar.

Yuqoridagi keltirilgan ***kata ganda penuh-to‘liq ko‘plik so‘zlar*** o‘zbek tili grammatikasida bu usulda ko‘plik so‘zlar yasalishi kuzatilmaydi, lekin juft so‘zlar takroriy chiziqcha bilan yozilsa-da, ammo ular ko‘plik ma’nosini bermaydi.

Penggandaan separa. Qisman ko‘plik so‘zlar.

Qisman ko‘plik – bu faqat o‘zak so‘zning bir qismini qo‘shadigan jarayondir. Tayanch so‘z bir so‘z yoki hosila bo‘lishi mumkin. Tilshunos Nik Safiah Karim: “ Qisman ko‘plik so‘z-asosiy so‘zda unli tovushdan tashqari, e harfi bilan ifodalangan unli tovushga o‘zgarib, birinchi bo‘g‘inning takrori bo‘lgan ko‘plik so‘z”- deb ta’riflagan. O‘z o‘rnida Kata Ganda Separa – qisman takrorlangan ko‘plik so‘zlar ichida yana *prefiks*, *suffiks* va *affiks* qo‘shimchalar yasalishi jihatidan bo‘limlarga bo‘linadi:

[1]“Tatabahasa Dewan” Nik Safiah Karim.Dewan Bahasa dan Pustaka 2002. p-76

[2]Kartun riwayat peradaban JILID I .Larry Gonick JAKARTA: KPG p-102

(I) Penggandaan separa kata tunggal. Bitta so‘zning takrorlanishi:

Laki (o‘g‘il bola), laki-laki = **le**laki (o‘g‘il bolalar), *pohon* (daraxt), pohon-pohon=**pe**pohon (daraxtlar), gelang (bilakuzuk), gelang-gelang = **ge**gelang (bilakuzuklar), tikus(sichqon), tikus-tikus= **te**tikus (sichqonlar),daun(barg), daun-daun=**de**daun[1] (bargalar) va hokazo. Ushbu keltirilgan misollardan ko‘rinib turganidek, so‘zlarni ikki xil variantda qo‘llash xato sanalmaydi. Faqat masalan, **dedaun** bo‘lganida ***barglarning tur xildali***gini anglatadi.

Kata kerja. Fe’l:

Ber: **ber**lari – lari (yugurmoq-uzoq muddat davomida), **ber**kata – kata (gaplashmoq), **ber**bisik – bisik (shivirlamoq), ya’ni harakatning uzoq vaqt davom etishi, takrorlanishi ma’nosida;

Ter- : **ter**senyum – senyum (jilmaymoq), **ter**esak – esak (yig‘lamoq), **ter**cengang – cengang (hayratda qolmoq);

di- : **di**tanya – tanya (savol berildi), **di**risik – risik (sinchiklab tekshirildi), **di**marah – marah (jahli chiqmoq);

meN- : (a) **men**cari – cari (qidirmoq), **me**ronta – ronta (urishmoq), **me**rayu – rayu (iltimos qilmoq);

(b) cari – **men**cari (izlamoq), bantu – **mem**bantu (yordamlashmoq), tolong – **me**nolong (bir – biriga yordamlashmoq);[2]

*Komputer itu tidak boleh digunakan kerana **te**tikusnya rosak.* Ana u kompyuter sichqonchasi buzilgani sababli yaroqsiz.*Mereka bermain **le**layang di padang*. Ular dalada *varraklar* uchirishdi.[3]

Istisno holatlardan biri: *kupu – kupu* so‘zi ko‘plikda emas, ya’ni tarjimasi: *kuya kapalak*. Ushbu so‘zga o‘xshagan bir necha so‘zlar malay tilida bisyor. Masalan: ***kadang – kadang*** so‘zi *ba’zan* deb tarjima qilinadi va bu ham ko‘plik ma’nosida emas, garchi takror yozilgan bo‘lsa ham.***Tiba – tiba*** so‘zi ham ***to‘satdan*** ma’nosini bildirib, agar **yakka holda** tiba bo‘lib kelsa, *yetib kelmoq*ni bildiradi.

Tiba – tiba dia terbangun sebab terdengar bunyi guruh kuat.[4] *To‘satdan* u kuchli momaqaldiroq ovozini eshitgani sababli uyg‘onib ketdi.

Penggandaan berentak. Ritmik ko‘plik so‘zlar.

Penggandaan berentak- ritmik ko‘plik so‘zlarda asosiy so‘zni shu *asos so‘zdagi ma’lum tovushlar ritmiga ko‘ra takrorlash jarayonidir*. Ritmik

[1] Bahasa Malaysia UPSR Tatabahasauntuk tahun 2&3 Sulaiman Zakaria Cetakan Peertama 2017 page 104

[2] “Tatabahasa Dewan”Nik Safiah Karim.Dewan bahasa dan Pustaka 2002 pp-76

[3] Kata Majmuk dan Kata Ganda.Napisah Muhammad pp-103

[4] Tatabahasa Dewan” Nik Safiah Karim. Dewan Bahasa dan Pustaka,KL p-78, 2022

koʻplik soʻzlar butun tayanch soʻz ikkilanadi va maʼlum tovushlar takrorlanadi yoki oʻzgartiriladi. Bunday tovushlarning takrorlanishining oʻzgarishiga qarab, ritmik ikkilanish uch turga boʻlinadi, yaʼni:

(a) Penggandaan berentak pengulangan vokal. Unlilarni takrorlashning ritmik ikkilanishi.

(b) Penggandaan berentak pengulangan konsonan.Undosh takrorning ritmik ikkilanishi.

(c) Penggandaan berentak bebas. Erkin holdagi koʻplik soʻzlar ikkilanishi.

Ot soʻz turkumidagi soʻzlar bilan : ***kuih – muih*** (har xil turdagi shirinliklar), **lauk – pauk** (bu soʻz tarjimasi oʻzbek tilidagi *ovqat-povqat* soʻziga mos boʻladi), **sayur – mayur** (har xil turdagi sabzavotlar), **kayu – kayan** (har xil yogʻoch), **saki – baki** (har xil qoldiqlar) va boshqalar.

Feʼl soʻz turkumidagi soʻzlar bilan: ***cerai – berai*** (ajrashgan), ***gotong – royong*** (bir – biriga yordam berish), ***ulang – alik*** (qatnamoq), ***kumat – kamit*** (topshirmoq) va hokazo.

Sifat soʻz turkumidagi soʻzlar bilan: ***hiruk-pikuk*** (jinnilik), ***gopoh-gapah*** = ***gopoh-gapik = gopoh-mamang*** = ***gapah-gopoh*** (qoʻpollik) kabilar.

Undosh tovushlar bilan ritmik takrorlanish malay tilida oʻziga xos uslub hamda yasalish shakllariga ega. Bu turdagi koʻplik soʻzlar maʼlum undosh tovushlarda oʻxshashliklarga ega boʻlgan qoʻllanish formasidir. Masalan:

Kata nama. Ot soʻz turkumi bilan: **Datu-batan** (turli turdagi toshlar), **gunung-ganang** (turli turdagi togʻ-u toshlar), ***suku-sakat*** (turli qarindoshlar);

Kata kerja. Feʼl soʻz turkumi bilan: **Dolak-dalik** (doimiy emas,oʻzgaruvchan), **huyung-hayang** (atrofida aylanish), **mundar-mandir**[1] (borib-kelish) , yaʼni harakatning koʻp takrorlanishi.

Kata adjektif. Sifat soʻz turkumi bilan: **Huru-hara** (tartibsizlik), **kontang-kanting** (erkin), **kucar-kacir** (tartibsizlik) kabi koʻplik soʻzlar harakatning koʻp marotaba takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi holatlarni tovushlar almashinishida ifodalashi malay tilida koʻplik shaklining oʻziga xos ajralib turuvchi soʻzlaridan hisoblanadi. Ushbu soʻzlar soʻzdagi kuchli ritmik ohangdorlik, jozibadorlik va emotsional hodisalarning turli shaklda ifodalanishini bildiradi. Masalan: Fikirannya berserabut dan ***kacau – bilau***.[2] Uning fikri *chigal* va *tartibsiz* edi.

---

[1] Bahasa Malaysia UPSR Tatabahasauntuk tahun2&3 Sulaiman Zakaria Cetakan Peertama 2017 page 104

[2] Kamus melayu inggeris dewan Dewan B.dan Pustaka K.Lumpur 2012 p-145

Malay tilida son so‘z turkumidagi so‘zlar takror yozilsa **~ ber** – fe’l va sifat yasovchi old qo‘shimchasi bilan birgalikda umumlashtiruvchi ma’noga ega bo‘ladi: ***berpuluh – puluh*** (pulau) – *o‘nlab* (orollar), ***beribu – ribu***[1] (orang) – *minglab* (odam) kabilar. Bu so‘zga sinonim **~ an -** suffiksi bo‘ladi: ***puluhan***, ***ribuan***. Keltirilgan ikki xil yozilgan sinonim so‘zlardan birini jumlalarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir va bu ba’zan so‘zlarni qisqartirish hodisasiga ham misol bo‘la oladi va bu xato sanalmaydi.

Fe’llarni takrorlash natijasida turli o‘ziga xos ma’noga ega so‘zlar hosil bo‘ladi: takrorlash, takrorlanish, noaniqlik, maqsadsizlik ifodalanadi. Masalan: ***berjalan – yurmoq***, *berjalan – jalan – sayr qilmoq*, bemalol shoshmay aylanib yurmoq; *duduk – o‘tirmoq, duduk – duduk* (sahaja) – shunchaki, hech nima qilmasdan o‘tirish, biror ish bilan shug‘ullanmasdan bekor o‘tirish; *melambai – silkitmoq, melambai – lambai (uzoq vaqt qo‘l silkitib turmoq)* kabi ma’nolarni bildiradi.

Istisno holatlardan yana biri! meN – fe’llarga qo‘shiluvchi old qo‘shimchasining ba’zi fe’llarida takroriy so‘zlarning quyidagi holatlari kuzatiladi: ***memotong – motong*** (kesmoq, qirqmoq); ***menengok – nengok***[2] (qaramoq, tekshirmoq uzoq vaqt davomida), ya’ni harakatning uzoq davom etishi kabi ma’nolarini anglatadi hamda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tovush o‘zgarishi hodisasiga uchragan.

Kuih – muih di atas meja terdapat ***banyak-banyak***. ***Shirinliklar*** stol ustida *juda ko‘p* edi. Riuh-rendah suara **kanak-kanak** bersorak di taman itu.[3] Bolalarning bog‘da shovqinli ovozlari bog‘da eshitildi.

Yuqorida keltirilgan misollarni biz yana ham ko‘p davom ettirishimiz mumkin. Bu kabi ko‘plik so‘zlarning ifodalanishi malay tilida jozibadorlik, ohangdorlik va so‘zga yana ham urg‘uni kuchliroq berish uchun ham qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganimizda, malay tilida ko‘plik shakli ifodalanishi affiks, suffiks va prefikslar yordamida yasalishi so‘zning nafaqat ko‘pligini, balki umumiyligini, boshqa bir qancha ma’nolarni anglatadi. So‘zlarning bu kabi ko‘plik anglatishi malay tilining ajralmas grammatik xossalaridan biridir.

[1] Дорофеева Т.В.,Кукушкина Е.С.,Академия гуманитарных исследований, 2006. стр-246
[2] Дорофеева Т.В., Кукушкина Е.С.,Академия гуманитарных исследований, 2006. стр-242
[3] Napisah Muhammad. Kata Majmuk dan Kata Ganda. Dewan Bahasa dan Pustaka KL, 2013,page- 51

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Учебник малайского языка”/Т.В.Дорофеева, Е.С.Кукушкина: Московский гос. университет им. М.В.Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки. -Москва:Акад. Гуманитарных исслед., 2006.
2. Tatabahasa Dewan Edisi Ketiga/Nik.S.Karim,Farid M.Onn,Hashim Haji Musa, Abdul H.Mahmood :Dewan Bahasa dan Pustaka-Kuala Lumpur 2008
3. O‘zbek tili/ M.Mirzayev,S.Usmonov. Toshkent 1970
4. Bahasa Malaysia UPSR Tatabahasauntuk tahun2&3 Sulaiman Zakaria Cetakan Peertama 2017 .
5. Kata Majmuk dan Kata Ganda. 2002. Napisah Muhammad
6. http://linguallyspeaking.blogspot.com
7. https://ling-app.com

HINDIY TILIDAGI REDUPLIKATSIYAGA OID LEKSEMALARNING TAHLILI

Ozoda QURBONOVA
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, M.K. Sodiqova

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz “Hindiy tilida reduplikatsiya” hodisasini tadqiq qilishga bag‘ishlanadi. Ishimizning obyekti hindiy tilidagi takror so‘zlar bo‘lib, tuzilish jihatidan o‘rganib turlarga ajratib chiqish hamda morfologik tahlil qilishdan iboratdir. Ya’ni otlarda, sifatlarda, ravishlarda va fe’llarda takroriy shakllarning qo‘llanilishdagi o‘ziga xosliklarini tahlil qilish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: reduplikatsiya, morfologiya, bo‘g‘in, o‘zak, takroriy so‘z, juft so‘z, ot, sifat, ravish, fe’l

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish hamda o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat qaratilmoqda. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallab borayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashga hojat yo‘q.

Keyingi yillarda Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasining yirik davlatlaridan biri bo‘lib kelayotgan mamlakat Hindiston tilini o‘rganish, bu sohada kerakli mutaxassislarni tayyorlash va shu orqali o‘z o‘qituvchi va

tarjimonlariga ega bo‘lish masalasi O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda, bu ham hukumatimizning mamlakatimizda sharq tillarni rivojlantirish uchun tashlagan muhim qadamlari sifatida baholanmoqda.

Shu ma’noda biz ham Hindistonning davlat tili hindiy tilini yurtimizda rivojlantirish maqsadida, universitetda olgan bilimlarimiz natijasida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Hindiy tilida reduplikatsiya hodisasi” mavzusi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishga harakat qildik.

Hindiy tilidagi otlarning takroriy shakli o‘zbek tili grammatikasiga mos keladi, ammo o‘zbek tilida otlarning juft shakllari ham mavjud, hamda ularda ham reduplikatsiya hodisasi uchraydi. Juft va takror shakllar o‘zbek tili grammatikasida alohida-alohida bo‘lim bo‘lsalarda, ammo hindiy tilida juft so‘zni ham takror so‘zni ham bir termin ostida o‘rganamiz.

Reduplikatsiya (lot. reduplicatio ikkilanish, qo‘shaloqlanish) (tilshunoslikda) – so‘zdagi dastlabki bo‘g‘inni yoki o‘zakni, butun so‘zni takror qo‘llash bilan takroriy so‘z, grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida takror so‘z, juft so‘z va qo‘shma so‘zlarning farqi bog‘lanmagan holda ko‘rib chiqiladi. B. Madaliev “O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar” nomli ilmiy asarida o‘zbek tilida takror so‘zlarning mavjudligi haqida va ular juft so‘zlar bilan bir-biriga teng va qo‘shma so‘zlarga ma’no jihatdan yaqinroq kelishini aytib o‘tadi.[1] So‘z yasalishi usulida bir xil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar qaytariladi yoki ma’nolari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar keladi. Fransuz olimi- sharqshunos J.Leni takror so‘zlarni turkumlarga ajrata turib, sifatlarni 2 xil reduplikatsiya holatida uchrashini ta’kidlab o‘tadi: To‘liq va to‘liqsiz.

Hindiy tilida reduplikativ so‘zlarning tuzilish jihatdan turlari 3 ga bo‘lib o‘rganildi.

1. To‘liq reduplikatsiya
2. Qisman reduplikatsiya
3. Juft so‘zlar.

Izlanishlarimiz davomida hindiy tilidagi reduplikatsiyaga oid so‘zlarning 300 tasi tahlilga tortildi.

To‘liq reduplikativ so‘zlar shunday so‘zlarki, hech qanday o‘zgarishlarsiz o‘zakni yana bir bor qaytarib takrorlashdir. Bunday so‘zlarga hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi. Masalan :

[1] https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:l_plIEZ9gvgJ:https://hozir.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-instituti-uzoq-sharq-va-janubiy2.html%3Fpage%3D3+&cd=8&hl=ru&ct=clnk&gl=uz

धीरे-धीरे sekin-sekin
आहिस्ता-आहिस्ता sekin-asta
बड़े-बड़े katta-katta
कभी-कभी ba’zan
साथ-साथ birga

Ba’zi to‘liq reduplikatsiyaga oid so‘zlar ओं yoki ब qo‘shimchalari orqali ham bog‘lanadi. Masalan :

सालों साल yildan yilga
दिन-ब-दिन kundan kunga
जंगलों- जंगलों o‘rmonlar orqali
बीचों-बीच o‘rtada
रातों-रात tunlarda

Qisman reduplikativ so‘zlar shunday so‘zlarki, bunda o‘zak ikkinchi bor takrorlanayotganda birinchi o‘zakning yarmigina takrorlanadi xolos. O‘zak birlikda yoki yasama so‘z bo‘lishi mumkin. Yarim takror so‘zlar o‘zakning oldidan yoki orqasidan kelishi mumkin. Agarda takror so‘z birlik ma’nosida qo‘llanilsa o‘zakning birinchi bo‘g‘ini takrorlanadi va birinchi takrorlangan bo‘g‘in o‘zakning oldidan qo‘llaniladi. Birinchi bo‘g‘indagi cho‘ziq unli takrorlanganda kuchsizlanib, qisqa unliga o‘zgaradi. Yarim takror so‘zlarda qo‘shimchali so‘z kelsa takrorlanib kelgan ikkinchi qismi qo‘shimchasiz ishlatiladi. Bunday holatlar ko‘pincha sifatlar va fe’llarda ko‘zga tashlanadi. Fe’llarda bu shakllar o‘zakning boshida yoki oxirida qo‘llanilishi mumkin.Masalan:

आस – पास yon-atrof
अदला-बदली almashinuv, o‘zgarish
इधर-उधर u yer – bu yerda
ऐसा- तैसा oddiy

Ma’nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma’noli ikki asosning qo‘shiluvidan tashkil topgan so‘zlarga juft so‘zlar deyiladi. Juft so‘z asoslari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.Masalan:

लेना-देना oldi-berdi
इधर-उधर u yer – bu yerda
आगे – पीछे orqa-oldi
किस्सा- कहानी qissa-hikoya

Tahlil qilingan reduplikativ so‘zlarning 60%i qisman reduplikatsiyaga oid so‘zlar, 21%i juft so‘zlarni va 19%i to‘liq reduplikatsiyaga oid so‘zlar tashkil etdi.

Hindiy tilidagi reduplikativ so‘zlarni morfologik jihatdan tahlil qilinganda reduplikativ so‘zlar ot, sifat, ravish va fe’llarda ko‘proq uchrashi kuzatildi.

Ot so‘z turkumiga oid reduplikatsiyalar:

पानी- आनी sharshara

जन- जन aholi

काम- काज ish, faoliyat

बाल-बच्चे bolalar

झगड़ा-झांसा janjal

Sifat so‘z turkumiga oid reduplikatsiyalar:

हरी- हरी yam-yashil

उल्टा-पुल्टा tartibsiz

बड़े-बड़े katta-katta

सीधा- साधा sodda

Ravish so‘z turkumiga oid reduplikatsiyalar:

इर्द-गिर्द atrof

आगे- पीछे oldi-orqa

इधर-उधर u yer – bu yerda

पाँव- पाँव yayov, piyoda

धीरे-धीरे sekin-sekin

Fe’l so‘z turkumiga oid reduplikatsiyalar:

अछताना- पछताना afsuslanmoq

उठना- बैठना suhbatlashmoq

लड़ना- भीड़ना bahslashmoq

बोलना- चलना gaplashmoq, gapirmoq

आना- जाना qatnamoq, kelib ketmoq

Fe’lning funksional shakli bo‘lgan sifatdoshga oid reduplikativ so‘zlar ham hindiy tilida anchagina. Xususan, sodda notugal sifatdosh va sodda tugal sifatdoshga oid reduplikativ so‘zlar aniqlandi.

Sodda notugal sifatdoshga oid reduplikativ so‘zlar:

उलटता -पलटता tartibsiz

गिरते- पड़ते yiqilib-surilib

चलता-फिरता harakatlanuvchi

Sodda tugal sifatdoshga oid reduplikativ so‘zlar:

टूटा- फुटा buzilgan

आया- गया kelgan-ketgan

छपा- छापाया bosilgan Tahlil natijasida bitta reduplikativ so‘zlar bir nechta so‘z turkumiga mansubligi kuzatildi.

उत्तर -पूरब (ot) shimoli-sharq

(ravish) shimoli-sharqiy

उत्तर- पश्चिम (ot) shimoli-g‘arb

(ravish) shimoli-g‘arbiy

उथल-पुथल (ot) tartibsizlik

(sifat) tartibsiz Ushbu reduplikativ so‘zlar ham ot ham sifat so‘z turkumiga mansubligi kuzatildi.

Ilmiy kuzatuvlarimiz natijasida ot va fe’l so‘z turkumlariga oid reduplikativ so‘zlar ham uchradi. Masalan:

उठना- बैठना (fe’l) muloqot qilmoq

(ot) muloqot

आना- जाना (fe’l) kelib-ketmoq

(ot) bordi-keldi, keldi-ketdi

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hindiy tilida reduplikativ so‘zlarni 3 turga ajratish mumkin. Bular: to‘liq reduplikatsiya, qisman reduplikatsiya va juft so‘zlar.

2. Jamlangan misollar tahlil qilinganda, ular orasida qisman reduplikativ so‘zlar ko‘pchilikni ya’ni 60% ni tashkil etdi. Ikkinchi o‘rinni juft so‘zlar (21%) egalladi. Uchinchi o‘rinni to‘liq reduplikativ so‘zlar (19%) egalladi.

3. Jamlangan reduplikativ so‘zlar tahlil qilinganda, ularning ot, sifat, ravish va fe’l so‘z turkumlariga mansubligi kuzatildi. Ular orasida ot so‘z turkumiga oid reduplikativ so‘zlar 42% ni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda sifat (21%), ravish (19%), fe’l so‘z turkumiga oid reduplikativ so‘zlar (18%) egalladi. Fe’l so‘z turkumining funksional shakllaridan biri bo‘lgan sifatdosh (sodda notugal sifatdosh va sodda tugal sifatdosh)ga oid reduplikativ so‘zlar ham ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. З.М.Димшиц “Грамматика языка хинди”, Москва, 1986.

2. Камтапрасад Гуру «Грамматика Хинди» Часть II, Москва, 1962.

3. Азим Ҳожиев Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, Тошкент, «Узбекистон Миллии Энциклопедияси» Давлат илмий нашриети, Т, 2002.
4. Хинди-русский словарь Под Ред. В.М. Бескровного. М., 1972
1.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Reduplikatsiya
2.https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:l_pliez9gvgj:https://hozir.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-instituti-uzoq-sharq-va-janubiy-v2.html%3fpage%3d3+&cd=8&hl=ru&ct=clnk&gl=uz
3. https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-fanlar akademiyasi.html?page=45

HINDIY TILIDA MORFOLOGIK USUL: SUFFIKSATSIYA VA PREFFIKSATSIYA SO‘Z YASASH USULLARI

Mahfuza MIRZAMURODOVA
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, M.K. Sodiqova

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz “Hindiy tilida morfologik usul yordamida, ya’ni suffiksatsiya va preffiksatsiya so‘z yasash usullari” hodisasini tadqiq qilishga bag‘ishlanadi. Ishimizning obyekti hindiy tilida morfologik so‘z yasalishi uslubi bo‘lib, u haqida umumiy tushunchalar berish, morfologik so‘z yasash usullarining ya’ni suffiksatsiya va preffiksatsiya so‘z yasash usullarini bir-biridan farqli tomonlarini ko‘rsatish, yasama so‘zlarni gapda to‘g‘ri qo‘llay bilish, tarjima davomida yangi ma’noda kelgan so‘zlarni to‘g‘ri tahlil qilish uchun umumiy ma’lumotlarni berishdir.

Kalit so‘zlar: morfologiya, suffiksatsiya, affiksatsiya, prefikslar, so‘z yasash.

Ma’lumki, chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz O‘zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Chet tillarini o‘rganish uchun yoshlarga, qolaversa barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o‘zining ijobiy natijasini isbotlab bermoqda. Bunga esa faqatgina chet tillarini mukammal bilish, tilga oid barcha qonun-qoidalarni egallash zarur. Shu maqsadda chet tillarini o‘rganishning yanada samarali yo‘llarini izlash, turli xildagi o‘qitish

metodlarini yaratish olimlarimiz, izlanuvchi o‘qituvchi va bilimli yoshlarimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu ma’noda biz ham Hindistonning davlat tili hindiy tilini yurtimizda rivojlantirish maqsadida, universitetda olgan bilimlarimiz natijasida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Hindiy tilida morfologik usul yordamida, ya’ni suffiksatsiya va preffiksatsiya so‘z yasash usullari” mavzusi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishga harakat qildik.

So‘z yasalish so‘z yasalish usullari hind tilida quyidagi grammatik vositalar va usullar bilan ifodalanadi:

1) suffiksatsiya (so‘z oxiriga qo‘shiladigan, yangi so‘z yoki so‘z shakli yasaydigan qo‘shimcha yordamida so‘z yasalishi);

2) Prefiksatsiya (o‘zak oldidan qo‘shiladigan so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida so‘z yasalishi) so‘z yoki asos qo‘shish (qo‘shma so‘zlar);

3) juftlashgan birikmalar (juft so‘zlar):

a) sinonomik (qiyosiy) va b) antonomik (qarama-qarshi);

4) so‘zlarning takrorlanishi (takror so‘zlar): a) tovush takrori yoki so‘zning takrorlanishi bosh yoki o‘zak tovushlarining ikkinchisida, ayrim hollarda esa birinchi qismida kuzatilishi mumkin, b) hech qanday fonetik o‘zgarishlarsiz so‘zlarning ikki marotaba qo‘llanilishi, buni tavtologik takrorlash deb atashimiz ham mumkin. (faqat alohida hollarda ular so‘z yasash usuli sifatida ishlatiladi);

5) o‘zak yoki o‘zak tovushlarining almashinishi (ichki fleksiya: so‘z o‘zgartirishning shunday usuliki, unda so‘z shakllari asos tarkibidagi tovushlarning o‘zgarishi orqali hosil qilinadi): a) ildiz unlining almashinishi, b) ildiz yoki o‘zakning undosh tovushining almashinishi (ko‘pincha bu usullar qo‘shimchaning qisqarishi bilan birga keladi ;

6) leksiklashtirish: a) so‘zlarning sintaktik birikmasi, so‘zning grammatik shakli (qoida tariqasida, sanskrit tilidan o‘zlashgan so‘zlarda).

Ko‘pincha, ayniqsa amaliy grammatikalarda juft so‘zlar qo‘shma birikmalar (dvandva) tarkibiga kiradi. Alliterativ takrorlar (hind grammatik an’anasiga ko‘ra itaretara dvandva deb ataladi) ham keng ma’noda so‘z birikmasiga kirishi mumkin.

Zamonaviy hindiy tilida so‘z yasash quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Agglyutinatsiya (so‘z o‘zakka, o‘zgarishsiz so‘z yasovchi qo‘shimchalarning ketma ket qo‘shilishi). Masalan:

मित्रतापूर्ण do‘stona, मित्र– do‘st + ता+ पूर्ण:

प्रतिक्रियावाद – reaksionlik– प्रति ,qarshi – क्रिया + reaksiya वाद

2. Gibridlik (genetik jihatdan turli xil elementlardan yangi so‘zlar yasash).

Masalan: Dendar – qarzdor, – den (xindi) – qarz, + dar (forscha); G‘eyrparti – partiyasiz, g‘eyr (arab) – siz + parti (ingliz) partiya;

भाषावार.tilga oid, bhasha (sanskrit) til +var (forscha) –

3. Kalkalash (leksik-semantik va leksik-sintaktik modellarni o‘zlashtirish va ularni o‘sha til morfemalari bilan to‘ldirish).

Masalan: Samacharpatr – gazeta, samachar – yangilik + patr – varaqa (ingliz tilidagi –newspaper dan); Pradhan mantri bosh vazir, pradxan bosh, birinchi + mantri vazir prime minister so‘zidan: Navupniveshvad mustamlakachilik.

Hindiy tilida so‘z yasalishini quyidagi usullarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Morfologik
2. Sintaktik
3. Morfologik -sintaktik
4. Leksiko-sintaktik
5. Leksiko semantik

Morfologik usul haqida gapirganda, bunda eng asosiy turi sifatida suffikslash gavdalanadi. Bu tur hindiy tilining barcha leksik qatlamlarni qamrab oladi. Xususan, hindiy yoki tadbhava tubidagi suffikslar bilan birga aktiv ravishda sanskritcha suffikslar tizimi hamda forsiy tubiga mansub ayrim suffikslar qo‘llaniladi. Hindiy tilida alohida mahsuldor suffikslash yordamida yasaladigan tarkiblarda so‘z o‘zagining o‘zgarmasligi, boshqacha aytganda turli oraliq qo‘shimchalar ishlatilmasligi bilan xarakterlanadi.

Morfologik usul hindiy tilida keng tarqalgan bo‘lib, u quyidagi tiplarga bo‘linadi:

1) Suffiksatsiya. Bunda 2 holat kuzatiladi:

a) so‘z o‘zagida hech qanday o‘zgarish bo‘lmasligi:

बल – kuch – बलवान;kuchli –

प्रभाव – ta’sir – प्रभावपूर्ण.samarali –

b) so‘z o‘zagida unlilarning o‘zgarishi

लड़का – bola लड़कपन;bolalik –

इतिहास ,tarix – ऐतिहासिक;tarixiy –

खेल – o‘ ,yinखिलाड़ी – o‘.yinchi

So‘zning boshida qo‘shiluvchi affikslar prefikslar (उपसर्ग) deyiladi. (प्रत्यय) suffikslar esa so‘z oxirida qo‘shiluvchi so‘zlardir. Prefikslash usuliga kelganda, adabiy hindiy tiliga xos yaxlit tizim shaklida shakllangan

prefiks orqali so‘z yasash jarayonida ot va sifat yasovchi tarkiblarning ko‘pligi, jumladan atamalar, umumiy iste’moldagi so‘zlar, ijtimoiy-siyosiy va maxsus ilmiy atamalar sohalarida namoyon bo‘ladi.

Bu yo‘nalishda qo‘llanish jihatidan hamda janr-uslubiy jihatdan butunlay har xil prefikslar guruhlari ajratiladi. Birinchisi tubdan sanskritcha prefikslar tizimi va ikkinchidan ayrim nosanskritcha prefikslar guruhlari. Prefikslash usuliga misollar:

घर ,uy –बेघर;uysiz –

जान ,bilish – अनजान.bilimsiz –

Hindiy tilida asosan 4 turdagi preffikslar farqlanadi:

Sanskrit preffikslari: Tatsam=> प्रदान, परिक्रमा, सन्तोष, अनुपयोगी

Hindiy preffikslari: Tadbhav => परदेसी, सफल, बहुमूल्य, अनचाहा

Urdu preffikslari=> गैरकानूनी, हमदर्दी, बदसूरत

Ingliz tili preffikslari: Videshi=> हाफटिकट, हैडमास्टर

So‘zning boshida qo‘shiluvchi preffikslardam yasalgan so‘zlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

अति + पावन = अतिपावनjuda muqaddas <=

अति + अधिक = अत्यधिकyuqori darajada <=

अति + रिक्त = अतिरिक्तq <= o‘shimcha, qo‘shilgan

अति + क्रमण = अतिक्रमणbosqinchilik, qonun buzarlik <=

अति + उक्ति = अत्युक्तिb <= o‘ ,rttirishorttiribyuborish

अति + आचार = (harakat-atvor, xatti-xulq)अत्याचारazob, jafo, <= qurbon qilish

अति + उत्तम = अत्युत्तम ,juda yaxshi, ajoyib <=

अनु + वाद =(nazariya, fikr) अनुवादtarjima<=

अप + यश = अपयशhaqorat, tahqir, isnod <=

अप + मान = अपमानhurmatsizlik, haqorat <=

अप + कर्ता = अपकर्ताz <= o‘ravon, jinoyatchi

अप + शब्द = अपशब्दhaqoratli s <= o‘zlar

अप + कार = अपकारharakat-attix yomonlik, ziyon yetkazadigan <=

अप + हरण = अपहरण <= o‘ ,g’riliko‘g’irlash

अप + वाद = अपवादtuhmat, istisno <=

अप + शकुन = अपशकुनyomon belgi <=

अभि + कथन = अभिकथनqat’iy davo <=

अभि + आस = अभ्यासamaliyot, mashq <=

अभी + रक्षा = अभिरक्षाvasiylik, tergov hibsxonasi <=

अभी + नेता = अभिनेताijrochi <=

अभी + शाप = अभिशापla’nat <=

अभी + योग = अभियोगayblash, qoralash <=

अभी + मुख = अभिमुखy <= o‘naltirilgan

अभी + नव = अभिनवbutunlay yangi, zamonaviy uslubga oid <=

अव + तार = अवतारpastga tushish <=

अव + चेतन = अवचेतनongsiz, beixtiyor, ong osti <=

Ba’zan bir so‘zda ikki yoki undan ortiq prefikslar ham ishlatiladi. Bu faqat sanskrit so‘zlarida sodir bo‘ladi. Masalan,

पर्यावरण <=परि+आ+वरणmuhit, iqlim :

समालोचन <= सम+आ +लोचनtanqidiy mulohaza

व्याकरण <= वि+आ+करण : grammatika

दुर्व्यवहार <=दुर+वि+अव+हार noto‘ g’rixattiharakatlar-

Aralash: suffiks va prefiks qo‘shish bilan: Sharm – uyat, hayo – besharm – uyatsizlik, hayosizlik; Nagar – shahar – antrnagriy – shaharlararo.

ग़ैर +सरकार+ई <- ग़ैरसरकारीnorasmiy –

(अति + आचार + ई) → अत्याचारी zolim

(अभि + मान + ई) → अभिमानी- dimog‘dor

(निर + भय + ता) →निर्भयता qaramlik

(अप + शकुन + ई)→ अपशुकनी omadsizlik

(निर + बल + ता) → निर्बलता zaiflik

(न + पुंसक +ता)→ नपुंसकता (zaiflik, ojizlik)

(आ+ लोक + इक)→ आलौकिक (g‘ayritabiiy, mo‘jizaviy)

(अ + नीति + इक)→ अनैतिक (axloqsiz, axloq qoidalariga zid)

(कु + कर्म + ई)→ कुकर्मी- yomon ish qiluvchi, buzuq

(परि + पूर्ण +ता)→ परिपूर्णता (muvaffaqiyatli tamomlash, eng yuqori daraja

अ + धर्म+ इक <=अधार्मिकdinsiz

अन +उदार+ता <=अनुदारताsaxiylikning yetishmasligi, xasislik

अप+मान+इत <=अपमानितkamsitilgan, tahqirlangan

उप+कार+क <=उपकारक xayrixoh

स्व+तंत्र+ता <= स्वतंत्रताmustaqillik

दुस+साहस+ई <=दुस्साहसी ,jasur o‘ylamasdan ish qiladigan

बद+चल+नी <=बदचलनीhuquqbuzarlik

Innfiksatsiya bu ichki fleksiya, unlilarni qisqartirish, cho‘zish va o‘rnini almashtirish yo‘li bilan (ba’zan undoshlarni ham) yasaladi. Ko‘pincha o‘timli fe’llardan o‘timsiz fe’llarni yasashda qo‘llaniladi:

खुलना<-ochilmoq खोलनाochmoq

भीगना , ivimoq – भिगोनाivitmoq –

छूटनाozod b – o‘ ,lmoqछोड़नाozod qilmoq –

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, so‘z yasashning usullari nuqtai nazaridan qaraganda hindiy tilida suffikslash va so‘z- suffikslash kabi usullar ancha faoldir. Ulardan so‘ng esa qo‘shma so‘z yasash usuli turadi. An’anaviy hind tasnifiga ko‘ra bular orasida dvandva, tatpurusha, bahuvrihi, avyyabhava kabi usullar mavjud.. So‘ngra prefikslash orqali so‘z yasash usullari ham salmoqli o‘rinni egallaydi.So‘z yasash usullarining turli qorishmalarining hindiy tilida rivoj topgan turlari xususida fikr yuritilsa, bu yerda asosan morfologik va sintaktik usullarning turg‘un qorishmasi ayniqsa ko‘p uchraydi. Ushbu usullar ichida eng keng qo‘llaniladigan usul morfologik usuldir. Ayniqsa, morfologik usulning suffiksatsiya tipi keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бархударов, Алексей Степанович. Словообразование в хинди. Акад. наук СССР. Ин-т народов Азии. – Москва : Изд-во вост. лит., 1963

2.Бескровный 1972: Хинди-русский словарь под ред. В.М. Бесковного. М., 1972.

3. Г.А. Ходжиев. Методическая разработка по общественно-политической лексике для студентов 3 курса. Т. 1988, 5, 7, 9, 11, 12, 15 бетлар.

4. З.М. Дымщиц, Грамматика языка хинди. Т II. -Наука, 1986. – С.84-85

5. З.М. Дымшиц, О.Г. Ульциферов, В. И. Горюнов. Учебник языка хинди. Часть II, Москва 1980.

6. З.М. Дымшиц и др. Учебник языка хинди III. қисм. М. 1983. 106, 107, 127, 129, 155, 197, 223, 259, 292, 320, 349, 388 бетлар.

7. З.М. Дымшиц и др. Грамматика языка хинди. 1986. 83-84, 88, 89, 90-93, 98-99 бетлар.

8. Камтапрасад Гуру Грамматика хинди часть I Перевод с хинди П. А. и Р. И. Бапранников Под редакцией и с предисловием проф. Б. А. Москва, 1957. С 79.

9. Р.А. Аулова. Методическая разработка по общественно-политической лексике для студентов 3 курса 1989, 3, 5, 8, 10 бетлар.

Hindiy tilidagi adabiyotlar:

1. प्रो० चतुर्भुज सहाय, प्रो० अरुण चतुर्वेदी, व्यावहारिक हिंदी व्याकरण और वार्तालाप,म.-आगरा, 72-81-b

2 . डॉ . वासुदेवनन्दन प्रसाद आधुनिक हिन्दी व्याकरण और रचना — पटना : 2000, b- 111

3.चतुर्भुज सहाय हिंदी पदविज्ञान . — आगरा : 2007,b. 567-569

MALAY TILIGA SO‘ZLARNI O‘ZLASHTIRISH TURLARI XUSUSIDA

Gulzoda UTKUROVA
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD N.R. Ismatullayeva

Annotatsiya: Tilda so‘zlarni o‘zlashtirishning 6 xil usuli mavjud bo‘lib, bular sof o‘zlashtirish, ma’noviy jihatdan o‘zlashtirish, gibrid o‘zlashtirish, transfer o‘zlashtirish, dialektik o‘zlashtirish, arxaik o‘zlashtirishlardir. Ushbu maqola malay tili talqinida ushbu o‘zlashtirish jarayonlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: idea, bajukot, purnama, ladang, kapal terbang, to‘lin oy.

Tilda o‘zlashtirilishi sodir bo‘lganda, o‘zlashtirilgan so‘zlar qabul qilinmaguncha va tilning lug‘at majmuasiga singib ketgunga qadar tilda moslashish va o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Haddan tashqari tildan o‘zlash-tirish zarar keltiradi, chunki til o‘zligini yo‘qotadi va bozor tiliga aylanadi. Tildan o‘zlashtirish natijasida gap qurilishining strukturasi ham buzilishi mumkin. Bundan tashqari, o‘zlashtirish jarayoni tildagi tovush yoki fonologiya, so‘z shakli yoki morfologiyasi, shuningdek, jumla shakli yoki sintaksisining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Malay tili fonologiyasidagi o‘zgarishlar arab va ingliz tillaridan olingan so‘zlarning kirib kelishi bilan bog‘liq. Biroq, sanskrit tilining ta’siri malay tilida fonologik o‘zgarishga sabab bo‘lmadi, garchi sanskrit tili arab va ingliz tillariga nisbatan ilk ta’sir ko‘rsatgan til bo‘lsa-da.

Ayni vaqtda malay tilida sof va gibrid o‘zlashtirish jarayoni katta o‘rin egallamoqda, dunyo va fanning jadal rivojlanishi fan va texnika sohasida ingliz tilidan texnik va maxsus atamalarni olish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Malay tilini zamonaviy tilga aylantirishi uchun tashqi tomondan atamaning tilga o‘zlashishi jahondagi xorijiy tillar bilan tenglashishiga olib kelmoqda[1].

Sof o‘zlashtirish jarayoni malay tilida ma’lum so‘zga tegishli maxsus yoki ma’noviy jihatdan yaqin bo‘lgan termin yo‘qligi sababli yuzaga keladi. Sof qabul qilingan so‘zlar o‘zlashtirish jarayonida tilning shakl va tovush tizimiga moslashtiriladi. Yuqorida keltirilganlarni dalillash uchun ingliz tilidan qabul qilingan o‘zlashmani tahlil qilamiz: *“idea”* so‘zi ingliz tilida *“yangi g‘oya, fikr”* degan ma’noni anglatadi. Malay tilida *“fikiran”*, *“gagasan”* so‘zlari *“fikr”* ma’nosini beradi va aynan *“yangi g‘oya”* shaklidagi ma’noni beruvchi muqobil so‘zning yo‘qligi sababli *“idea”* so‘zi *“ide”* shaklida o‘zlashtirilgan.

Keyingi o‘zlashtirish turi esa ma’no jihatdan o‘zlashtirishdir. Ushbu shakldagi o‘zlashtirish tilni boyitadi. Sababi o‘zlashayotgan so‘zning ekvivalenti mavjud bo‘ladi. Ammo tilda yangi ma’no hosil qilish va kengroq tushunilishi uchun til qabul qiladi. Malayziya Til va kutubxona qo‘mitasi tomonidan tuzilgan lug‘atga asoslangan holatda, “ladang” so‘zi ayni “plantatsiya” ma’nosini berganligi uchun o‘zlashtirilgan[2].

Gibrid so‘z o‘zlashtirish jarayoni bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida ikkala xorijiy elementning kombinatsiyasidan hosil bo‘ladi. Quyida keltiriladigan so‘zlar malay tili grammatikasiga zid, lekin kundalik suhbatda faol qo‘llaniladi. *“bajukot”* va *“kasutbut”* ushbu qo‘shma so‘zlar ingliz va malay tili so‘zlaridan yasalgan[3]. *“kiyim”* so‘zi malay tilida “baju” ma’nosini bersa, *“coat”* ingliz tilidan *“kot”* tarzida o‘zlashishi orqali “palto” kiyimi ma’nosini beryapti. Ushbu so‘zlar og‘zaki so‘zlashuvda faol.

Chet el madaniyatidan olingan so‘zlarni malay tilidagi so‘zlar bilan almashtirish qiyin. Su sababdan o‘sha so‘zdagi asosiy vositalar orqali yangi so‘z hosil qilinadi. Ingliz tilidagi “plane” ya’ni “samalyot” so‘zi malay tiliga

[1] Carmel Lee Hsia Heah. *The influence of English on the lexical expansion of bahasa Malaysia*. -P, 1989. – h. 38p

[2] https://prpm.dbp.gov.my/

[3] Tatabahasa. Bab 8: Peminjaman dalam bahasa Melayu. 2018. 3-17pp.

“kapal terbang” bo‘lib o‘zlashgan. “kapal” – “kema”, “terbang” esa “uchmoq” deb tarjima qilinsa, “uchadigan kema” ma’nosini hosil qiladi.

Mahalliy dialekt so‘zlari standart malay tilida qo‘llanilishi ham malay tilidagi o‘zlashtirish jarayoniga kiradi. So‘zlar Kedah, Perak, Kelantan shtatlar dialektikasidan olinadi[1]. Hokkien lahjasidagi “teh” to‘g‘ridan to‘g‘ri malay tiliga kirib kelgan[2].

Keyingi usul esa qadimgi tillardan olinadigan shakllar bo‘lib, hozirgi vaqtda esa nofaol bo‘lgan so‘zlardir. Bu jarayon, shuningdek, ayni vaqtda bo‘shliqni yoki ehtiyojni to‘ldirish uchun eski yoki qadimgi so‘zlarni jonlantirish deyiladi. Ya’niki, qadimda shu nom bilan atalgan, yoki unvon berilgan shaxs, narsa, joy nomlari zamonaviy malay tiliga kiritiladi. Sababi bu nomlar ayni vaqtda o‘z qiymatini yo‘qotganligi va bunday nomlardan foydalanilmayotganligi sabab bo‘ladi. Ushbu so‘zlar tarix, adabiyot, jug‘rofiya kabi fanlarni o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. *“purnama”* so‘zi sansikrit tilidan malay tiliga qabul qilingan. Ushbu so‘z “Hikayat Pandava Lima” da keltirilgan. Bu so‘z *“to‘lin oy”* ma’nosida vaqtga nisbatan ishlatilgan.

So‘zlarni o‘zlashtirish ba’zan zaruriyat omilini keltirib chiqaradi. Biroq, ba’zi holatlarda olinayotgan so‘zning shu tilda muqobil variant mavjud bola turib o‘zlashtirish, tilning saviyasini pasaytiradi. Ingliz tilidan *aktiviti* (kegiatan), *servis* (khidmat), *dialek* (loghat) kabi o‘zlashgan so‘zlarning malay tilida ekvivalenti mavjudligi, malay tilini rivojlantirish uchun tuzilgan maxsus lug’at borligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillaridan so‘zlarni o‘zlashtirish ikkita asosiy samarani beradi, ya’ni foyda beradi va aksincha. Afzalligi shundaki, u aytilayotgan tushunchaning ma’no kuchini oshirishi mumkin. Bu boshqa zamonaviy tillar bilan o‘zaro tarjima qilish holatini yaratadi, aksincha, xorijiy tillardan so‘zlarni noo‘rin ishlatish til saviyasini tushirishi mumkin. Bu malay tilining ko‘rinishi va tovush tizimini yomonlashtiradi, va o‘quvchi tushunmaydigan so‘zlarni ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tatabahasa. Bab 8: Peminjaman dalam bahasa Melayu. 2018. 3-17pp.

[1] Asmah Haji Umar.“Kepelbagaian fonlogi dialek-dialek Melayu” DBP, 1977. 149p
[2] Tatabahasa dewan. – P,2008. –h. 247p.

2. Asmah Haji Umar.“Kepelbagaian fonlogi dialek-dialek Melayu” DBP, 1977. 149p

3. Tatabahasa dewan. –P,2008. –h. 55p.

4. Dewan Bahasa dan Pustaka.1975 dan 1987. Pedoman Umum Pembentukan lstilah Bahasa Malaysia. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.

5. Heah, Lee Hsia Carmel.1989. The Influence of English on the Lexical Expansion of Bahasa Malaysia. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka

6. Zainal Abidin bin Ahmad. Pelita III Bahasa Melayu. 1970. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka

7. https://eng.ichacha.net/ie/baju%20kot.html

8. https://prpm.dbp.gov.my/Search?k=ladang

9. https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Flimaumandarin.com%2Fketahui-kata-pinjaman-bahasa-mandarin-yang-sering-digunakan%2F&psig=AOvVaw3Oe4vooCQuzs4mR977t0lm&ust=1679514531407000&source=images&cd=vfe&ved=0CBIQ3YkBahcKEwiw36-_r-39AhUAAAAAHQAAAAAQJQ

HINDIY TILIDA SON SO‘Z TURKUMIGA OID NAZARIY QARASHLAR TAHLILI

Maftuna BOVATOVA
TDSHU 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, M.K. Sodikova

Annotatsiya: Mazkur maqolada hindiy tilidagi son so‘z turkumi va unga oid hindshunos olimlarning nazariy qarashlari, qarashlar o‘rtasidagi farqlar va umumiy jihatlar, umumiy jihatdan mos tushuvchi turlari o‘rganildi. Hindshunos olimlarning nazariy qarashlari misollar orqali tahlil qilindi, ularning yasalish uslubiga alohida e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: son, aniq miqdor sonlar, noaniq miqdor sonlar, sanoq sonlar, tartib sonlar, jamlovchi sonlar, ko‘paytiruvchi sonlar, ajratuvchi sonlar, taxmin sonlar, aralash sonlar.

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. …Bugun jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin

egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”[1], chunki O‘zbekiston davlatining jahondagi nufuzi kun sayin yuksalib bormoqda.

Haqiqatdan ham, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarimiz tiklanishi bilan, hukumatimiz xorijiy tillarni o‘rganishga keng yo‘l ochib berdi. Endilikda yurtimizda g‘arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o‘rganishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Sharq tillarining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, sharq tillarining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, biz yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar amalda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Endilikda biz nafaqat hindiy tili va adabiyotini, balki shu xalqning tarixi, madaniyati hamda urf-odatlari, turmush tarzini bevosita o‘rganish,yaqindan tanishish imkoniyatiga egamiz. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Hindistonga qilgan bir nechta rasmiy safaridan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar hindiy tilini o‘rganish zarurligini kun tartibiga qo‘ydi. Shuning uchun biz ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada yuksaltirishga o‘z salohiyatimizni safarbar etishimiz darkor.

Hozirda Hindiston raqamli texnologiya dunyosidan yetakchi o‘rin egallaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyaning asosini esa sonlar tashkil qiladi.

Ta’kidlash joizki, hindiy tilida sonlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi hindiy tilining o‘ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, lekin ushbu tildagi son so‘z turkumiga oid ma’lumotlar o‘zbek hindshunosligida maxsus va tizimli o‘rganilmagan.

Son so‘z turkumi **(संख्यावाचक शब्द)** [2] sanaluvchi predmetlarning miqdorini, son-sanog‘ini, tartibini bildiradi. Sonlar ifodalanishiga ko‘ra o‘ziga xos umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Doim otlar bilan birga qo‘llaniladi: छः लड़कियां , चार बैग

[1] Karimov I. A. “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.: Sharq, 1997. 8-9 bet

[2] R.A.Aulova, B.Rahmatov, M.K.Sodikova “Hindiy tili darsligi 1-qism”. Toshkent., 2008, 126-129-betlar.

2. Sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi:

तीन सहेलियॉ आ रही हैं।

हमारे कमरे में छः मेज़ें और बारह कुर्सियां हैं।

3. Son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi:

दो सुंदर पोशाक, सैकड़ों ऊंची इमारतें

4. Sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi:

हमारा लक्ष्य एक है।

उसने पाँच कलम लिए।

Hindiy tilshunosligida sonlarning aniq bir turlarga bo‘linishi haqida haligacha aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Son so‘z turkumini o‘rganish mobaynida ko‘plab hindshunos olimlar (Гуру К., Дымшиц З.М., Зограф Г.А., Ульциферов О.Г.) son so‘z turkumi haqida turlicha fikrlar berilib, ularning o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishgan.

K.Guru[1]ning fikriga ko‘ra, sonlar 3 asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1. Aniq miqdor sonlar
2. Noaniq miqdor sonlar
3. O‘lchov birliklari

Aniq miqdor sonlar shaxs, narsa-buyumlarning sanog‘ini, miqdorini bildiradi. Aniq miqdor sonlar 5 turga bo‘linadi:

1) Sanoq sonlar;
2) Tartib sonlar;
3) Ko‘paytiruvchi sonlar;
4) Jamlovchi sonlar;
5) Ajratuvchi sonlar

Sanoq sonlarda o‘nlik sonlarni ifodalash uchun (20 dan 80 gacha) o‘nlik sonlar oldidan keluvchi so‘zga -उन (sansk) so‘zi (bitta kam) qo‘shiladi.

उन्नीस – o‘n to‘qqiz

उंतीस – yigirma to‘qqiz

उनसठ - oltmish to‘qqiz

नव va निन्ना orqali नवासी – sakson to‘qqiz, निन्नानवे – to‘qson to‘qqiz yasaladi. Sanskrit tilida esa ular quyidagicha ifodalanadi.

नवाशीति – sakson to‘qqiz

नवनवति – to‘qson to‘qqiz

K.Guru tartib, ko‘paytiruvchi va jamlovchi sonlarda sinonimiya hodisasini (sanskrit tilida) ham kuzatadi.

[1] Гуру К. Грамматика хинди. Часть I, II. М., 2004, с.131

Tartib sonlarda:

पहला – प्रथम - birinchi
दूसरा – द्वितीय — ikkinchi
तीसरा – तृतीय — uchinchi
चौड़ा – चतुरर्थ – to‘rtinchi
पांचवां (वीं) – पंचम — beshinchi
छठा – षष्ट — oltinchi
दसवां (वीं) – दशम – o‘ninchi

Ko‘paytiruvchi sonlarda:

दुगुना – द्विगुरण – 2 marotaba

तिगुना – त्रिगुरण – 3 marotaba

चौगुना — चतुर्गुरण – 4 marotaba

Jamlovchi sonlarda:

दोनों — युग्म — ikkovlon
पांचों — पंचक – beshovlon
आठों — अष्टक – sakkizovlon

K.Guru ajratuvchi sonlarda हर so‘zi (fors tili) o‘rniga ba’zan फी (arab tili) – har bir ma’nosida qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi.

कीमत फी जिल्द – har bir jildning qiymati

Dimshits Z.M.[1] ning fikriga ko‘ra, mazmuni va grammatik jihatdan hindiy tilida sonlar sanoq va tartib sonlarga bo‘linadi. Yasalishi va qo‘llanishi bo‘yicha sanoq sonlar ichida jamlovchi sonlar ham mavjud. So‘z va so‘z birikmalaridan iborat kasr, aralash va ko‘paytiruvchi sonlardan alohida guruh ajratiladi. Alohida mustaqil holda taxmin sonlari ham ajratiladi.

Dimshits sanoq sonlarni strukturaviy jihatdan 3 turga bo‘lib o‘rganadi:

1. Sodda sonlar – bitta asosdan tashkil topadi. Bu sonlar 1 – 9 gacha tashkil qiladi. Bundan tashqari, butun o‘nliklar ham shu guruhga tegishlidir. Misol uchun, दस, बीस, तीस, सौ, हजार, लाख.

2. Murakkab sonlar – ikki asosdan tashkil topadi. Bu sonlar 11 dan boshlanuvchi sonlarni (butun o‘nliklardan tashqari) o‘z ichiga oladi. नव va निन्ना orqali नवासी – sakson to‘qqiz, निन्नानवे – to‘qson to‘qqiz yasalgan sonlar ham shu turga kiradi.

3. Yasama sonlar – 2 yoki undan ortiq turli turdagi (sodda va murakkab) sonlardan tashkil topadi. Bu sonlar yuzdan yuqori bo‘lgan sonlardan tashkil topadi.

Taxmin sonlarni esa leksik jihatdan quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganadi:

[1] Дымшиц З.М. Грамматика языка хинди. Ч. I. М., 1986, с.86

- लगभग, करीब — taxminan. Misollar: लगभग पांच मिटर कपड़ा, करीब दस कलम
- कोई – qandaydir bir. Misol: कोई तीस व्यक्ति
- एक – bir (taxminan) . Misol: दस एक कापियां
- दो-चार – ikki-to‘rtta, पंद्रह – बीस – o‘n besh – yigirma ta (taxmin)

Hindshunos olim **Zograf** [1] ham K. Guruning son so‘z turkumi haqidagi fikriga qo‘shiladi. U hindiy tilidagi sonlarni (singal tilidagi sonlardan farqli) alohida gap bo‘lagi sifatida o‘rganilishiga yetarlicha asos yo‘q deb hisoblagan.

“Sintaktik vazifasiga ko‘ra sonlar sifatlar birikib, otlarning old qismiga qo‘shiladi va uning miqdor ko‘rsatkichi rolini egallaydi.” (Zograf 1976, 144-b.)

Hindshunos olim **Ultsiferov** [2] ham Dimshitsning son so‘z turkumi haqidagi fikrlariga qo‘shiladi va uning fikrlariga qo‘shimcha tarzda noaniq miqdor sonlarini ham qo‘shadi.

“Qabul qilingan va foydalaniladigan son so‘z turkumi ichidan noaniq miqdordagi sonlarni alohida ajratish lozim. Noaniq miqdordagi sonlarni anglatgan leksemalar aniq miqdordagi sonlar bilan muloqotda bo‘lmaydi va ular olmosh yoki sifatlar doirasida ko‘rib chiqilishi lozim”.

Hozirda hindiy tilida son so‘z turkumini asosan quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Sanoq sonlar – गणनावाचक संख्या
2. Tartib sonlar – क्रमवाचक संख्या
3. Jamlovchi sonlar – समुदायवाचक संख्या
4. Kasr sonlar – भिन्नात्माक संख्या
5. Ko‘paytiruvchi sonlar – आवृत्तिवाचक संख्या

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, hindiy tilida son so‘z turkumiga oid fikrlar qarama -qarshiligi mavjudligi tufayli hindiy tilshunosligiga katta hissa qo‘shgan olimshunoslar Гуру К., Дымшиц З.М., Зограф Г.А., Ульциферов О.Г. larning fikrlari taqqoslanib, o‘rganildi. Son so‘z turkumiga oid misollar keltirilib, ularning yasalish uslublariga alohida e’tibor qaratildi. Гуру К. va Дымшиц З.М. ning fikrlari asosli ekanligi e’tiborga olinib, hozirda hindiy tilida son 5 turga bo‘lib o‘rganilishi ko‘rib chiqildi.

---

[1] Зограф Г.А. Морфологический строй новых индоарийских языков (опыт структурно-типологического анализа). М., 1976, с.144

[2] Ульциферов О.Г. Практическая грамматика современного литературного языка хинди. М., 2005, с.230, 235-236.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бескровный 1972: Хинди-русский словарь под ред. В.М. Бескровного. М., 1972
2. Гуру К. Грамматика хинди. Часть I, II. М., 2004, с.131
3. Дымшиц З.М. Грамматика языка хинди. Ч. I. М., 1986, с.86
4. Зограф Г.А. Морфологический строй новых индоарийских языков (опыт структурно-типологического анализа). М., 1976, с.144
5. Ульциферов О.Г. Практическая грамматика современного литературного языка хинди. М., 2005, с.230, 235-236.
6. A. Anorbekova, Sh. Mirzayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, “Bayoz” nashriyoti, 2016, 130-140 betlar.
7. R.A.Aulova, B.Rahmatov, M.K.Sodikova “Hindiy tili darsligi 1-qism”. Toshkent., 2008, 126-129-betlar.

TILSHUNOSLIKDA LAKUNA ATAMASI

Aziza AXMEDOVA
TDSHU, Sinxron tarjima (yapon tili) yo‘nalishi
magistratura 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. B.B. Shamsiyeva

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri lakuna hodisasi, uning fanga kirib kelishi, ushbu birlik doirasida turli tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ularning qarashlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy tilshunoslik, lakuna, bo‘shliq, muqobilsiz leksika, tadqiqotlar, termin.

Lingvomadaniyatshunoslik til haqidagi fanning eng ilg‘or yo‘nalishi sifatida milliy madaniyatning izlarini, ta’sirlarini tildan axtarib topmoqda. Milliy madaniyatdagi originallik, dunyoni idrok etishdagi o‘ziga xoslik lakunar birliklarda namoyon bo‘lib, lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishida uning boshqa tilda tarjima qilish usullari o‘rganilmoqda. Lakunar birliklar bir tildagi tushuncha uchun ikkinchi tilda uchramaydigan hodisadir. Bu boradagi olib borilgan tahlillar, izlanishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, har bir til kesimida to‘liq lakunarlar hali topilmagan. har bir til. Lakunarlik hodisasini tadqiq etish lakunologiya fani taraqqiyotiga, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rsatib

berish, madaniyatlararo muloqotdagi to‘siqlarni yengish va xorijiy o‘rgatish ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[Ismatullayeva.N.2021]

Lakuna (lotincha so‘z bo‘lib lakuna-chuqurlashish, tushkunlik, muvaffaqiyatsizlik; fransuzcha lacuna-bo‘shliq). Lakuna termini ilk bor Kanadalik olim J.Vine va J.Darbelnilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotchilar “Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli kitobida, shu ikki tilni qiyoslash va solishtirish orqali lakunaga ta’rif berib o‘tishgan: “Bir tildagi so‘zning boshqa tilda muqobili topilmagan o‘rinlarda lakuna hodisasi voqealanadi”[Ismtullayeva.N]. Shuningdek, olimlarning lakunarlik hodisasini turli hil nomlaganlar. Ingliz tilshunosligida lakuna so‘zi lexical gap, lexical hole, lexical vacancy terminlari bilan ifodalanadi. Ular orasida lexical gap so‘zi “bo‘shliq”, “bo‘sh joy” degan ma’nolarni anglatadi. Tasodifiy lakunalar madaniyatlararo muloqotda jig‘iga tegadigan elementlar – turlicha etnik jamoalar olamning milliy manzarasidagi ichki obraz, tarjima qilinmaydigan leksika, adekvatsiz leksika va turli izohlar bilan ham keltirilgan ta’riflarni ham uchratish mumkin.

J.P.Vine, V.L.Muravyov, J.Darbelne va boshqalar “Tushirib qoldirilgan tushuncha” (probel, lakuna), K.Xeyl “Tilning semantik xaritasidagi “Oq dog‘lar”, tushirib qoldirilgan tushunchalar” (антислова, пробелы, лакуны, или белые пятна на семантической карте языка), Yu.S.Stepanov “Tarjimaga tortilmaydigan so‘zlar” (примеры непереводного характера), V.G.Chernov “Ekvivalentsiz leksika, nol leksema, leksik nol” (лексический нуль, нулевая лексема), I.A.Sternin “Ekvivalentsiz, yoki fon ma’noli leksika, L.S.Barxudarov, E.M.Vereshagin “Bir til matnidagi til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tushuniladigan qorong‘i ma’noli so‘zlar – tasodifiy qoldirib ketishlar” va shu kabi ta’riflar keltirilgan[Sanaqulov. Z. 2021].

Lakunalar chet tillarnio‘rgatishdao‘ziga xos to‘siq hisoblanadi. Biroq, madaniyatlararo muloqot tajribasi mazkur madaniyatlarning milliy o‘ziga xos farqlaridagi qiyinchilik va tushunmovchiliklarni bartaraf qilishda turli usullarning mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, O.A. Donskix, I.Y. Markovina, G.A. Antipov va Y.A. Sorokinlar ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning 2 usulga ajratadi. Ular *to‘ldirish* va *kompensatsiyalash* usullaridir. “Lakuna”larni *to‘ldirish* qabul qiluvchi (retsipient) uchun boshqa madaniyatga tegishli bo‘lgan ayrim tushunchaning ma’nosini ochib berish jarayonidir. Lakunalarni to‘ldirishning eng ko‘p tarqalgan turi matn tarjimasida milliy – madaniy xususiyatga ega bo‘lgan unsurni saqlab qolishdir. Ijtimoiy lakuna larni bartaraf etishning yana bir usuli *kompensatsiyalash* usuli hisoblanib, uning asosiy vazifasi sifatida milliy

oʻziga xos toʻsiqni olib tashlash keltiriladi [山本・今村　「日本のくらしと文化」東京・2006年]. Matndagi lakunalarni kompensatsiyalashning eng sodda turi boshqa madaniyatga oid boʻlgan parchani retsipient tilida berishda muallif tomonidan oddiy leksik birliklar yoki realiyalardan foydalanish hisoblanadi. Ushbu tadqiqotchilar nafaqat tillarni, balki madaniyatning boshqa baʼzi jihatlarini ham solishtirganda ushbu atamani qoʻllashni maqsadga muvofiq va uslubiy jihatdan asosli deb bilishadi. Shuni taʼkidlash joizki, lakuna tushunchasi bilan yonma-yon tarzda reaksiya istilohi ham qoʻllaniladi. Lakuna va realiyani bir-biriga yaqin va oʻxshash jihati shundaki, bu ikki tilni va madaniyatini qiyoslashda aniqlanadi. Ushbu qiyoslanadigan tillarning bir-biriga nisbatan muqobil soʻz mavjud boʻlmaydi. Lakuna va realiyani farqi esa lakunalar millat ongida mavjud, ammo millat tilida nomlanmagan, yaʼni ommalashmagan va yuqori darajada tushunilmagan hisoblanadi. Ammo baʼzi lakunalarni til, millat vakillari osongina anglay oladi. Realiya esa tushunish va tasavvur qilish biroz mushkul masala hisoblanadi, chunki u til, millat vakillarining urf- odatlari, dunyoqarashlari natijasida vujudga kelgan boʻlib, shu boisdan ham oʻzga millat vakillarining ongida mavjud emas.

Hozirgi kunda tilshunoslikning zamonaviy yoʻnalishlaridan biri tarjimashunoslik, likgvakulturologiya, lingvomamlakatshunoslik va yana bir qancha sohalarida tilning farqlarini oʻrganish ancha kuchaygan. Turli tillardagi soʻzlarni, matnlarni solishtirsak, koʻpincha bir tilning leksik birligi, boshqa tildagi ekvivalentini topa olmasligini uchratishimiz mumkin. XX asrning 70-yillarida “lakuna” atamasining qoʻllanilishi keng ommalasha boshladi. Lakuna atamasi tilshunoslikda lakuna, zid maʼnoli soʻzlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dogʻlar, tarjima qilib boʻlmaydigan tarjimasiz leksemalar va yana fanda koʻplab nomlar bilan nomlanadi.Leksikalar singari lakunalar ham tillarning bir-biriga qiyosida yaqqol namoyon boʻladi. Masalan ingliz tilidagi “yurist, advokat” maʼnosini ifodalaydigan lawyer soʻzidan boshqa advokatlik kasbining turli tumanligini ifodalaydigan attorney “vakil”, counsellor “maslahatchi”, advocate “oliy darajadagi advokat “. Bundan xulosa shuki, oʻzbek va rus tillarida qoʻllaniladigan ifodalarga faqatgina advokat soʻzini misol qilish mumkin [Usmonova.Sh .2019] Tilshunoslikda lakuna tushunchasining nutqimizda keng qoʻllanilishi va oʻrganilishi, yondosh hodisalardan farqlanishi, oʻzi alohida lingvistik kategoriya sifatida tan olinishiga sabab boʻldi. Buning natijasida lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajada muayyanlashdi.

Yuqoridagi tilshunoslarning fikriga koʻra, xulosa qiladigan boʻlsak, tilshunoslikda lakunani unga yondosh hodisalardan farqlash butunlay yakun topgan. Lakunalarning bugungi kundagi vazifasi faqat ikki tilni vazifalarini aniqlab farqlashdan iborat emas, til tizimini va uning leksikasini boyitishga katta xizmat qilmoqda. Tilshunoslar oʻz ona tilini boshqa til bilan qiyoslab, tilshunoslikdagi boʻshliqlarni aniqlab, uni toʻldirishga va muammoni bartaraf etishga urinishmoqda. Bu faqat tilni rivojlantiribgina qolmasdan ongni, tafakkurni va tasavvurni ham rivojlantirmoqda. Ushbu usul orqali har ikki til madaniyatining oʻxshashligi va farqli jihatlarini oʻrganish, globallashuv jarayonida chuqurlashayotgan madaniyatning yangilanishi va olib boriladigan muloqotlarni toʻsiqsiz ravishda amalga oshirishga imkon yaratadi. Shu bilan birgalikda, chet tillarini muammosiz oʻrganishimizning samaradorligini yanada takomillashuviga sabab boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ismatullayeva N. Xitoy va oʻzbek tillarida lakunalar: monografiya/ Toshkent: Nodirabegim,2021.-144 b.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). -Toshkent: TDoʻTAU, 2019.
3. Sanaqulov Z., Joʻraboyev B. “Chet tili oʻqitish metodikasi zamonaviy metodlar” Academic research in educational sciences. Volume 2/ Issue4/2021.
4. 山本・今村　「日本のくらしと文化」東京・2006 年.

АРАБ ТИЛИДАГИ ФЕЪЛИЙ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ГРАММАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ, УЛАРНИНГ СИНТАКТИК ТАСНИФЛАНИШИ ВА ҚИЁСЛАНИШИ

Ирода МУХАМЕДХАНОВА
ТДШУ, Шарқ филологияси ва таржимашунослик факультети араб филологияси кафедраси 2-босқич талабаси
Илмий раҳбар: PhD К.А. Рахматжанова

Аннотация: Ушбу мақолада умумий фразеология ҳақида қисқача маълумот берилиб, араб тилидаги феълий фразеологик бирликларнинг грамматик хусусиятларини кўриб чиқишга ҳаракат қилинади ва

таркибида феъл компонентига эга бўлган фразеологик бирликлар гуруҳини тўплаш, тизимлаштириш, таснифлаш, қиёслаш муаммолари хақида сўз боради.

Калит сўзлар: фразеологизм, грамматик, феълий, кесим, араб тили.

Фразеология – бу икки ёки ундан ортиқ сўзлардан ташкил топган, таркиби ва тузилиши жиҳатидан барқарор мажозий ибора бўлиб, у сўз бирикмаларининг манбаларини ўрганадиган тилшуносликнинг бир соҳасидир.

“Фразеология” сўзи икки юнонча сўздан келиб чиққан бўлиб “фразис” – “ифода” ва “logos” – “таълим” маъносини англатади. Фразеологияни ўрганишнинг асосий объекти эса фразеологик бирликлар деб аталади. Баъзан уларни ифодалаш учун бошқа атамалар, жумладан, идиома ва фразеологик бирикма номлари ҳам ишлатилади. Фразеологик бирликлар яхлит маънога эга бўлган барқарор иборалардир. Экспрессивлик ва маъно бирлиги тасвири каби хусусиятлари туфайли нутқимиз янада ёрқинроқ, ҳиссий, ифодали ва образли бўлади. Шунинг учун ҳам деярли барча машҳур ёзувчилар ўз асарларининг ранг-баранглиги ва стилистик бойлигини яратиш учун фразеологик бирликлардан фойдаланганлар.

Мисол:

“Кўзида сув ва лекин ***кўнглида ўт****,*

Бўлиб ҳар сори боқмоқдин ***кўзи тўрт.”*** **(А. Навоий)**

“Ниҳоят, секин-секин ***дамини ростлади****, ҳовлига тикилганча бир текис, чуқур – чуқур нафас ола бошлади*.” **(Ўткир Хошимов)**

“Бахтлилар ***соатга қарамайдилар.”*****(Грибоедов А.С.)**

Илмий нуқтаи назардан, фразеологияни ўрганиш тилнинг ўзини билиш учун муҳимдир. Фразеологик бирликлар луғат билан чамбарчас боғлиқ ҳолда мавжуд бўлиб, уларни ўрганиш уларнинг тузилишини, таълимини ва нутқда ишлатилишини яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Фразеологик бирликларнинг грамматик тузилишига кўра, улар жумлалардир. Баъзи фразеологик бирликларни таққослашда, улар ўртасида синонимлар ва антонимлараро муносабатлар мавжудлигини кўрамиз. Эквивалент фразеологик синонимлар бу- семантикада бир-бирига энг яқин синонимик фразеологизмлар бўлиб, улар маънодошдир ва контекстда бир-бирини ўрнини боса олади.

Мисол:

Синонимик фразеологизмлар:

-Юзма-юз = Очиқчасига;

-Хафсаласи пир бўлди = Қовуни қўлтиғидан тушди.

Антонимик фразеологизмлар:

-Бахти кулди = Холига маймунлар йиғлади.

Омоним фразеологизмлар:

-Бурнидан ип ўтказди = Бурнини бировни ишига суқди = Бурни кўтарилди; -Кўзга суртди = Кўз-кўз қилди = Кўз тегди = Кўз қорачиғидек асради.

Муҳим жиҳати, фразеологик бирликларни эркин бирикмалардан ажрата билиш керак. Эркин ибораларда бир сўзни бошқасига алмаштириш мумкин. Бироқ фразеологик бирикма доимий лексик таркибга эга бўлгани сабабли, ундаги иборалар ўзбошимчалик билан алмаштирилиши мумкин эмас. Бу фразеологик бирликлар ва эркин бирикмалар ўртасидаги алоҳида фарқ.

Фразеологик бирликлар эркин бирикмалар ва маъно яхлитлигидан ҳам фарқ қилади – фразеологик бирликдаги сўзлар семантик мустақиллигини йўқотади. Фразеологиянинг бир қисми сифатида алоҳида сўзлар маънога эга эмас, балки фақат бутун бир ифодани ташкил этади. Бу шуни англатадики, фразеологик бирликлар нутқда тайёр ҳолда ишлатилади, яъни уларни тилда ўрнатилган шаклда, белгиланган маъно бўйича эслаб қолиш керак.

Фразеологиянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши В.Виноградов, А.Ларин, А.Кунин каби таниқли олимлар томонидан амалга оширилди ва фразеология турли жиҳатларда тадқиқот қилинди: грамматик, морфологик, стилистик, тарихий, албатта, семантик. Бундай адабиётлар мавжудлигига қарамай, фразеология ягона тизим сифатида етарлича ўрганилмаган, деб таъкидлаш мумкин.

Инсоният жамияти ривожланишининг ҳозирги босқичида тилни такомиллаштириш муаммоларига тобора кўпроқ эътибор қаратилмоқда.

Араб тили узоқ давр мобайнида ривожланган тизим бўлиб , хозирги кунда БМТнинг олтита ишчи тилларидан бири ҳисобланади. Замонавий араб адабий тили семит тилларининг энг кенг тарқалганидир. Типологик жиҳатдан араб адабий тили кўпроқ рус тилига яқин. Араб тили фонетик, морфологик, лексик, грамматик ва бошқа соҳаларда маълум бир барқарорлиги билан ажралиб туради. Бу ҳолат замонавий ва ўрта аср манбаларини тўлиқ ва аниқ ўрганиш ва тушуниш имконини беради. Бироқ фразеология соҳаси, уни таснифлаш учун кўплаб уринишлар қилинганига қарамай, кам ўрганилган соҳа бўлиб қолмоқда.

Тадқиқот мавзусининг долзарблиги, биринчи навбатда, халқаро муносабатларнинг жадал кенгайиши, таржима фаолиятини, шунингдек, мамлакатимизда чет тилларини ўқитиш сифатини ошириш зарурати билан изоҳланади. Шу билан бирга қуйидаги омиллар билан белгиланади: 1) ўзбек ва араб тилларининг феълларини қиёсий ўрганиш бўйича тадқиқот материалларининг етишмаслиги; 2) араб фразеологик бирликларининг маъносини ўзбек тилига етказиб берувчи луғатларнинг етишмаслиги; 3) ўзбек ва араб тилларининг фразеологик тизимларини қиёсий маънода етарли даражада ўрганилмганлиги сабабли уларни таржима қилиш методологияси ишлаб чиқилмаганлиги илмий мақола мавзусини танлашга асос бўлди.

Ушбу ёритилиши мақсад қилинган мавзу ҳам араб тилининг феълий фразеологик бирликлари араб тилшунослигида кам ўрганилган соҳалар қаторига кириб, фразеология фақат стилистика, риторика ва бошқа фанларнинг ёрдамчи бўлими сифатида кўриб чиқилган. Замонавий арабшуносликда феълий фразеологик бирликларни ўрганиш ва шу асосда луғатлар, қўлланмалар ва бошқа лексикографик нашрларни ишлаб чиқиш араб тилшунослиги такомиллашувида аҳамиятли бўлиши шубхасиз.

Ушбу соҳадаги илмий тадқиқотлар учун бирламчи манбалар маълумотлари (исломгача бўлган шеърият асарлари, Қуръон, классик ва замонавий араб адабий тили материаллари ва жонли маҳаллий ва бошқа ёзма манбалар), шунингдек, араб ўрта аср муаллифларининг маълумотлари, араб соҳасидаги замонавий тадқиқотлар етарли материал сифатида хизмат қилиши мумкин. Ушбу вазифани ҳал қилиш учун умумий тилшуносликда олдин ишлаб чиқилган бундай тадқиқотлар методологиясидан, яъни қиёсий – тарихий, тавсифловчи, қиёсий- функционал ва типологик ҳамда тадқиқот усулларидан фойдаланиш керак.

Феълий фразеологик иборалар араб тилида энг бой ва самарали ҳисобланади. Бу шундай фразеологик бирикмалар бўлиб, уларнинг асосий компонентлари араб фразеологиясининг кўп қисмини ташкил этувчи феъллардир. Араб тилини ўзлаштиришда уларни ўрганиш, шубҳасиз, қизиқиш уйғотади.

Аввалги тадқиқотларда таъкидланганидек, фразеологик бирикма жумлада у ёки бу гап бўлаги сифатида синтактик жиҳатдан ажралмас ҳаракат қилади.

Фразеологик бирикмалар қуйидагиларга бўлинади: феълий ва исмий. Уларга мисоллар келтириб, синтактик таҳлил қиламиз:

1.Феълий фразеологизмлар: (кесим+воситасиз тўлдирувчи)

ابيض وُجهه*(сўзма-сўз «кимнидир юзини оқартирмоқ») маъноси –* ***ишончни оқлаш ;***

اكل لحمه*(сўзма-сўз «гўштини еди») маъноси –* ***гийбат ва тухмат қилиш;***

اسمك الكبير ياكل الصغير*(сўзма-сўз «катта балиқ кичигини ейди») маъноси –* ***кучли олдида кучсиз доим айбдор.***

2.Исмий фразеологизмлар:

على ظهر القلب(*сўзма-сўз «қалбнинг белида») маъноси –* ***ёдаки*** *ва хоказолар.*

Араб ва ўзбек тилларидаги бир маънога эга фразеологизмлардан баъзи мисоллар :

1. Шер каби довюрак (довюрак, жасур) – شجاع كا لاسد

2. Чин кўнгилдан (самимий) – بقلب صاف

3. Тили ва дили бир (очиққўнгил) – اللي في قلبه علئ لسانه

4. Тепа сочи тикка бўлди (қўрқоқ) – وقف شعر راسه

5. Ўз соясидан ҳам қўрқади (қўрқоқ) – يخاف من خياله

6. Тилни ютиб юбормоқ (индамас) – انعقد لسانه

Бошқа халқларнинг фразеологик бирликларини ўрганиш маълум даражада, у халқ дунёқараши, ахлоқий устуворликларини тушуниш имконини беради. Бу эса цивилизациялар ўртасида мулоқотлар енгиллашиши, турли этник маданият вакилларининг ўзаро яқинлашишига ҳисса қўшиши мумкин.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, феълий фразеологик бирликларни қуриш учун жуда кўп моделлар мавжуд. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, араб тилининг феъл фразеологиясини ўрганишдаги истиқболли режалар, унинг таснифи, қурилиш моделлари, шунингдек, араб фразеологиясини ўрганиш , тизимлаштириш ва қиёслаш билан боғлиқ муаммоларнинг долзарблиги аниқдир. Араб фразеологик бирликларини ўрганиш биринчи навбатда филолог- талабаларига араб тилини ўқитиш амалиётига кириши лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Рахматуллаев Ш., “Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари” 1952 й.

2. Рахматуллаев Ш., «Ҳозирги узбек адабий тили», 1992 й.

3. Нурмонов А., «Ўзбек тилшунослиги тарихи», 2002 й.

4. Шанский Н.М., «Фразеология современного русского языка», 1996

5. Виноградов, В.В., «Об основных типах фразеологических единиц в русском языке». 1977 г.

6. Бекиров Р. А., «Глагольные фразеологические сращения современного арабского языка». 2016 г.

7. Закиров Р.Р., «Способы передачи фразеологии Корана в переводах на русский язык». Хрестоматия, 2020 г.

8. Раҳматуллаев Ш., «Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати»,1978 й.

9. Баранов Х.К. “Арабско-русский словарь”, 1989 г.

10. Умарова Х. “Қизиқарли грамматика”, 2002 г.

YAPON TILIDAGI NOVERBAL VOSITALAR TAHLILI

Mehriniso BOBOQULOVA
Yaponshunoslik fakulteti
Yapon filologiyasi kafedrasi
2-kurs talabasi, kechki, yapon-ingliz
Ilmiy rahbar: PhD, K.A. Rahmatjonova

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon qo‘l harakatlari va ularning ma’nosi, hamda aynan shu qo‘l harakatlari boshqa mamlakatlarda qanday foydalanilishi haqida ma’lumot beriladi. Maqolada G.Y. Kreydlin nazariyasiga tayanildi.

Kalit so‘zlar: noverbal, noverbal semiotika, kinema (jest), paralingvistika, kinesika, okulesika, auskultatsiya, olfaksiya

Bir vaqtlar AQSh prezidenti Richard Nikson bilan noqulay hodisa sodir bo‘ldi. U Braziliada nutq so‘zlab bo‘lib, odatiga ko‘ra qo‘lini baland ko‘tarib, ko‘rsatkich va bosh barmoqlarini aylanaga birlashtirdi. Bu jest u va barcha amerikaliklar uchun “okey” belgisi. Lekin brazilialiklar uchun bu jest o‘ta qo‘pol haqorat belgisi hisoblangan.

Odatiy hayotda, ishda, ko‘chada, do‘stlar davrasida, umuman har doim, hattoki uhlagan vaqtda ham insonlar ishoralar orqali his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Imo-ishoralar orqali, gapirilayotgan gap va o‘ylangan fikrlarni suhbatdoshga yanada tushunarli yetkazib berish uchun, so‘zlovchi ongli va ongsiz ravishda signallar yuboradi. Bu signallar jest ya’ni “kinema” (yunoncha “harakat”) lar deb ataladi. Tabiiy so‘zlashuv tili kabi jest tilida ham o‘zgaruvchanlik mavjud.

Asosiy tizimni tashkil qiladigan, har doim ishlatiladigan jestlar, geografik, ijtimoiy, konfessional va boshqa turdagi jest dialektlariga ega.

Xuddi shunday Yaponiyada ham o‘ziga xos va o‘z ma’nosiga ega bo‘lgan, shu bilan bir qatorda barcha uchun tanish bo‘lgan odatiy va noodatiy noverbal so‘zlashuv harakatlari mavjud. Noverbal so‘zlashuvda harakatlar faqat qo‘l bilan cheklanib qolmay, yuz, ko‘z va tananing boshqa qismlarini ham qamrab olgan. Bu harakatlarning barini noverbal semiotika tizimi o‘rganadi. Uning ichiga:

1. Paralingvistika (noverbal kommunikatsiyadagi tovushli kodlar haqida fan).
2. Kinesika (jestlar va jest harakatlari, jest prosseslari va jest sistemalari haqida fan).
3. Okulesika (muloqot vaqtida ko‘z va vizual xatti-harakatlarini o‘rganuvchi fan).
4. Auskultatsiya (muloqot vaqtida tovushlarni eshitish orqali idrok etish va eshitish harakatlari haqida fan).
5. Olfaksiya (hidlar tili, ma’nosi, hidlar orqali beriladigan va hidlarning kommunikatsiyadagi rolini o‘rganuvchi fan) kiradi.

Ko‘pchilik uchun odatiy bo‘lgan barmoqlar harakati ba’zida kutilganday ish bermay, balki uning aks reaksiyasiga sabab bo‘lishi mumkin. Bizga tanish bo‘lgan hamma jestlar ham universal bo‘lmaydi, shuning uchun ular ham tarjimon talab qiladi. Ko‘plab mamlakatlarda hamma joyda mavjud jestlar bilan bir qatorda, faqatgina o‘sha arealga tegishli bo‘lgan, o‘zicha talqin qilinadigan va ular madaniyatida saqlanib qolgan mahalliy noverbal kommunikatsiya vositalari ham qo‘llaniladi. Ko‘rinishi bir xil bo‘lsa-da lekin, nafaqat boshqa, balki qarama-qarshi ma’noni anglatuvchi kinemalar ham uchraydi. Masalan, Gollandiyaga borganda, ko‘rsatkich barmoqni peshonaning yon tarafida aylantirib, kimningdir salgina jinniroq ekaniga ishora qilganda, siz o‘zingizni ahmoqona vaziyatga solib qo‘yishingiz mumkin, negaki bu jest ularda o‘tkir aql sohibini bildiradi. Yaponiyada aynan shu harakat bajarilsa, sizni yaponlar tushunishadi, lekin ularda bu harakat sal boshqacha, ya’ni quloqning oldida aylantirish bilan ko‘rsatiladi.

O‘zi haqida gapirganda yevropalik ko‘ksiga qo‘lini qo‘yadi, yaponiyalik esa burniga ko‘rsatgich barmog‘ini yaqinlatadi. Malta aholisi “yo‘q” deyish uchun barmog‘ini jag‘iga sal tekkizadi. Fransiya va Italiyada esa aynan shu jest tananing qayeridadir og‘riq borligini anglatadi.

Gretsiya va Turkiyada ofitsiantlarga ikki kishi uchun stol buyurtma qilmoqchi yoki ikkita narsa olib kelishini so‘ramoqchi bo‘lganda, ko‘pchilikda

odatga aylangan ikki barmoqni ko‘rsatish mumkin emas, negaki bu jest ularda insonni yerga urish bilan barobar.

Jestlar paydo bo‘lish tarixiga ko‘ra:

a) o‘sha joyda shakllangan

b) chetdan kirib kelganlarga bo‘linadi.

Yaponiyaliklar foydalanadigan ba’zi jestlar, chetdan kirib kelganday ko‘rinsa-da, lekin ularning mahalliy ma’nolari ham mavjud. Quyida aynan shunday jestlar haqida gapiriladi. Jumladan,

Hamma uchun tanish bo‘lgan bu mashhur kinema juda ommabop, uni filmlar, multfilmlar, reklama roliklari, jurnallar va yana ko‘plab ommaviy dasturlarda uchratish mumkin. Ko‘pincha “Zo‘r!” belgisi sifatida qo‘llanadigan bu jest har doim ham bizga ma’lum ma’nosida kelavermaydi.

G‘arbiy, Sharqiy va Shimoliy Yevropa, Rossiya, AQSh, Avstraliya Yangi Zelandiya mamlakatlarida bu jestni qo‘llash mumkin bo‘lsa, Urugvay, Eron, Tailand, Afg‘oniston, Yaqin Sharq mamlakatlari, Bangladesh, Gretsiyada esa mumkin emas. Negaki, Yevropada bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarib qo‘lni yelka tomonga bukish, qo‘pol tarzda “Ko‘zdan g‘oyib bo‘l!” deganga ishora qiladi. Chexiya, Daniya va Niderlandiyada “Ko‘zimga ko‘rinma!”, Gresiyada “Ovozingni o‘chir!” degan ma’nolarga ega. Eng yomon talqin Yaqin Sharqda bo‘lib, u o‘rta barmoq bilan teng qilib ko‘rsatiladi.

Yaponiyada bu jestni “erkak; er; ota; boshliq” sifatida tushunishadi. Kimdir haqida gapirilganda ishlatiladi. Masalan, “Uning (jest, “otasi”) boshliq”. Jimjiloq “ayol; xotin; boshliq(ayol)” ni bildiradi.

Shunday bo‘lsa-da, You tube, Instagram, Facebook va boshqa mashhur internet saytlari bilan tanish bo‘lgan, zamonaviy qarashlarga ega Yaponiya fuqarosi bu jestni “Zo‘r” deb tushunadi.

Do‘stlar, yaqinlar yoki umuman jamiyatda, ishlar yaxshi ketayotgani, ahvoli yaxshiligini, “Hammasi ajoyib!” ekanligini gapirmay, bosh va ko‘rsatgich barmoqlarni aylanaga birlashtirib ko‘rsatishning o‘zi yetarli. Biroq Yaponiyada bunday jestning ma’nosi butunlay boshqacha. Ular pul haqida gapirganda, uning ishorasi sifatida shu jestdan foydalanadilar. “O.K” ni paydo bo‘lishi haqida taxminlar ikkita:

1. AQSh prezidenti Martin von Byurenning shiori «Old Kinderhook is O.K».;

2. Boston gazetasida qisqartirib chop etilgan «all correct». Fransiya va Germaniyada bu “Nol (insonga nisbatan)” degani, Turkiya va Suriyada bunday jest yoqlanmaydi. Tunisda bo‘lsa bu jest “O‘ldiraman!” degan ma’noni bildiradi.

Ikki barmoqni ko‘tarib rasmga tushish tabiiy hol bo‘lib qolgan, uning paydo bo‘lish tarixi haqida, ikki xil faraz mavjud.

Birinchisi; Yuz yillik urushda fransuzlar ingliz va boshqa asirlarni o‘ng qo‘lidagi aynan shu ikki barmog‘ini kesib, oddiy lotin harfi “V” (Victoria – G‘alaba ma’budasi) orqali g‘olibligini ko‘rsatganlar.

Ikkinchisi esa, Vyetnam urushiga qarshilik qilgan hippi(AQShda 1960-yillar atrofida paydo bo‘lgan subkultura)lar tomonidan foydalanganligi to‘g‘risida. Bu jest universal bo‘lib hamma yerda bir xil tushuniladi. Buyuk Britaniya, Avstraliya va Irlandiya bundan mustasno, ularga qo‘lni orqa qilib ko‘rsatish “O‘chir” deyish bilan barobar. Yaponiyada esa bu jest eng ko‘p foydalaniladi. Ko‘pincha rasm tushganda foydalaniladi. G‘oliblikni ko‘rsatmoqchi yoki tabriklamoqchi bo‘lgan yaponlar ikki qo‘lini yuqoriga ko‘tarib “Ban-zay!” (Ura!) deb baqiradilar.

“Mening qo‘limdan keladi!”; “Men bunga qodirman!”: Barmoqlar mushtga siqilgan, tirsak bukilgan, ikkinchi qo‘l yelka muskuliga qo‘yilgan holatda bo‘ladi. Bu jest bilan, oldinga harakat qilishga qodirligini, o‘ziga bo‘lgan ishonchi juda balandligini ko‘rsatadi.

Qolaversa “va’da”ni ifodalash uchun jimjiloqlar birlashtiriladi va yengil silkinadi. Bolalar bu jestdan ko‘proq foydalanadilar. “Yubikiri da! (kelishdik)” so‘zi bilan tasdiqlanadi. Yana berilgan va’da uchun maxsus

Bundan tashqari chaqiruvchi jest ham mavjud bo‘lib, asosan Rossiya, O‘zbekiston va unga qo‘shni bo‘lgan davlatlarida yashovchi insonlar hayoliga keladigan harakat bu, barmoqlarni kaftga yig‘ib faqat ko‘rsatkich barmoq harakati ketma-ketligidir. Lekin Osiyo mamlakatlarining aksarida bu harakat taqiqlangan, Filippinda esa bu jestni ishlatgan odamni qamoqqa olinishi ham mumkin. Bunda, harakatni kimga qo‘llagan bo‘lsa o‘sha insonni o‘zidan past ko‘rish va yerga urish bilan barobar.

Yaponiyada ham yuqoridagi jest qo‘pol ma’noda keladi. Agar kimnidir chaqirmoqchi bo‘lsa, yaponlar, qo‘lini oldinga cho‘zib barmoqlarini yerga qaratib pastdan-yuqoriga harakatlantiradi, bu Maneki-neko (Yaponiyadagi mashhur omad keltiruvchi mushuk haykalchasi) ning o‘ziga tortuvchi jestiga o‘xshaydi. Ko‘p joylarda bu harakat “Kish-kish! Ket bu yerdan!” sifatida

qo‘llaniladi. Aytishlaricha shu sababli ko‘pincha chetelliklar bilan tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi.

“Mumkin emas!”: jest qo‘l yoki barmoqlarni “X” harfiga birlashtirish bilan ifodalanadi. Bu jest yapon madaniyatida chuqur ildiz otgan, u bilan norozilik, taqiq, rad va qarshilik bildiriladi.

“Yo‘q-yo‘q”, “yo‘q unaqa emas”, “yo‘q bu men emas”, “yo‘q bu boshqa narsa” – yuzning oldida, kaft yoni suhbatdoshga qaratilgan holatda u-yondan bu-yonga harakati bilan ifodalanuvchi jest ham mavjud. Bu jest yaponiyaliklar tomonidan tez-tez qo‘llaniladi, boshqa mamlakat vakillari buni ba’zida “Fu, badbo‘y hid!” sifatida tushunadi.

“O‘tib ketsam maylimi?” degan so‘zni noverbal uslubda yaponiyaliklar odamlar orasidan yoki kimningdir oldidan o‘tguncha, qo‘lni ko‘tarib, kaftni yonlamasiga qilgan holda, o‘tish uchun “Sumimasen(kechirasiz)” deb asta egilgan holatda yo‘lni kesib o‘tadilar.

Noverbal semiotika sistemasi fanlari o‘rganuvchi obyektlar orasida eng ko‘p foydalaniladigani bu kinesika fani obyekti bo‘lmish jestlardir. Tarixdan ma’lumki ko‘p mashhur insonlarning o‘z jestlari bo‘lgan va aynan o‘sha jestni ko‘rsatishning o‘zi, suhbatdoshga nima demoqchi ekanligini bildirish uchun yetarli. Yaponiyaliklar jestlarida ham aynan shu ma’no yashirin. Har doim ham hislarni yetkazib berish uchun so‘zlar yetarli bo‘lmaydi, shunday vaqtda jestlar yordamida ham ifodalash eng to‘g‘ri yechim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Крейдлин Г.Е. -Невербальная семиотика. Москва, Новое литературное обозрение 2002
2. Рогозная Н.Н. Японские невербальные средства общения, Мацура Аки (Япония), 2001
3. Журнал «Коммерсантъ Власть» – статья “Словарь жестов”, kommersant.ru
4. Ст. Жесты японцев: зовут, а можно подумать, что гонят (dzen.ru)
5. Ангелина Герус, рубрика: Лайфхаки (34 travel.me)

Konfessiya (lat. Confessio “tavba qilish, tan olish) yoki din – ma’lum dinga tegishli diniy ta’lim, aynan bir dinga sig‘inuvchilar birlashmasi.

Hippi – dastlab protestant cherkovlarining puritan axloqiga qarshi chiqqan, shuningdek sevgi va tinchlik orqali tabiiy poklikka qaytish istagini ilgari suradi

XITOY TILIDA RAVISHLARNI O‘RGANGAN OLIMLAR VA ULARNING TADQIQOT ISHLARI

Dilmira MAMIDOVA
TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti
Xitoy Filologiyasi kafedrasi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: J.T Kuralova

Annotatsiya: Xitoy tilida ravishlarni o‘rganish hamisha grammatik doira tomonidan qadrlangan, ushbu maqola “马氏文通”(*mǎ shì wéntōng*) deb keyingi Xitoy tili ravishlar tasnifi, ta’rifi va tadqiqot usullarini umumlashtirib, uning tadqiqotdagi kamchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ravishlarni o‘rganish, olimlar asarlari, ravishlarni ta’rifini tasniflash, tadqiqot usuli.

Xitoy tilida ravishlarni o‘rganish grammatik doirada keng tarqalgan. 自马健忠(*Zì mǎjiànzhōng*）ning “马氏文通”(*mǎ shì wéntōng*)[1] (1898) dan beri “Barcha haqiqiy belgilar shakl belgilar deb ataladi”. Ravishlarning ta’rifi, nutq qismi va tasnifi doimo bahs-munozaralar markazida bo‘lib kelgan. Ravishlarga oid ko‘plab asarlar yaratilgan. Misol uchun 黎锦熙(*líjǐn xī*) ning “新著国语文法” (*xīnzhe guóyǔ wénfǎ*)asari (1924), 杨树达(*yángshùdá*)ning “高等国文法”(*gāoděng guówénfǎ*)asari (1930), 吕叔湘 (*lǚshūxiāng*)ning “中国文法要略”(*zhōngguó wénfǎ yàolüè*)asari (1941-1944), 王力(*wáng lì*)ning “中国现代语法”(*zhōngguó xiàndài yǔfǎ*)asari (1943), 张志公(*zhāngzhìgōng*)ning “汉语知识”(*hànyǔ zhīshì*)asari (1952), 赵元任(*zhàoyuánrèn*)ning “汉语口语语法”(*hànyǔ kǒuyǔ yǔfǎ*)asari (1968), 朱德熙(*zhūdé xī*)ning “语法讲义”(*yǔfǎ jiǎngyì*) asari (1982), 杨伯俊(*yángbójùn*)ning “古汉语语法及其发展”(*gǔ hànyǔ yǔfǎ jí qí fāzhǎn*)asari (1992) va boshqalar;

Mazmun jihatidan Xitoycha ravishlarning ma’lum bir davrda rivojlanishi haqida umumiy tadqiqotlar mavjud. 杨伯俊(*yángbójùn*)[2]ning《古汉语语法及其发展》(*gǔ hànyǔ yǔfǎ jí qí fāzhǎn*)asari（1992）,蒋绍愚曹广顺 (*jiǎngshàoyú cáoguǎngshùn*)ning 《近代汉语语法史研究综述》(*jìndài hànyǔ yǔfǎ shǐ yánjiū zòngshù*) asari （2005）, 杨荣祥(*yángróngxiáng*)ning《近代汉语副词研究》(*jìndài hànyǔ fùcí yánjiū*)asari,

[1] 张明辉,朱红雨. 21 世纪现代汉语副词研究综述[J]. 云南师范大学学报(对外汉语教学与研究版), 2019.
[2] 王坤.汉语副词研究综述[J]. 西华大学学报(哲学社会科学版), 2017.

（2005）va boshqalar;Aniq bir tarixiy davrga oid monografiya va monografiyaga oid tadqiqotlar ham mavjud. Ularga misol qilib: 何乐士(*hélèshì*)ning《左传范围副词》(*zuǒ chuán fànwéi fùcí*)asar (1994）,唐贤清(*tángxiánqīng*) ning 《朱子语类》(*zhūzi yǔ lèi*) va《副词研究》(fùcí yánjiū) asarlari（2004）,崔立斌(*cuīlìbīn*) ning《孟子》(*mèngzǐ*) va 《词类研究》(*cílèi yánjiū*) asarlari（2004）va boshqalar;

Yana qo‘shimcha yoki ergash gaplar guruhini o‘rganish ham mavjud. Ularga ham turli asarlarni misol qila olamiz. 周小兵(*zhōu xiǎobīng*) ning《限定副词“只”和“就”》(*xiàndìng fùcí “zhǐ” hé “jiù”*)[1]asari（1991），卿显堂(*qīng xiǎn táng*) ning《副词“尽情”的形式化标志》(*fùcí “jìnqíng” de xíngshì huà biāozhì*) asari (2003)，詹卫东(*zhānwèidōng*) ning《范围副词“都”的语义指向分析》(*fànwéi fùcí “dōu” de yǔyì zhǐxiàng fēnxī*) asari （2004），唐贤请 (*tángxiánqīng*) va 罗主宾(*luó zhǔ bīn*) larning《明清时期副词“真个”的句法表现和主观性分析》(*míng qīng shíqí fùcí “zhēn gè” de jùfǎ biǎoxiàn hé zhǔguān xìng fēnxī*) asari（2014）va boshqalar; Shu bilan birga, tadqiqot obyekti sifatida ravishlardan foydalanilgan ko‘plab nomzodlik dissertatsiyalari ham mavjud. Xitoy tili ravishlarini tadqiq qilish tarixi davomida biz uning tadqiqot natijalarini, ravishlarning ta’riflari, tasniflari va tadqiqot usullari nuqtai nazaridan umumlashtiramiz.

Birinchidan: Ravishlarning ta’rifi va ularning o‘rgangan olimlar

Xitoyning birinchi grammatika monografiyasi “马氏文通”(*mǎ shì wéntōng*)[2] zamonaviy “副词”(*fùcí*) ga o‘xshash “状子”(*zhuàng zì*) ni taklif qilgandan beri qo‘shimchalarning ta’rifi haqida turli fikrlar mavjud. Tahlilni ikki toifaga bo‘lish mumkin:

1. Ravishlar mustaqil ma’noli so‘zlardir. Ular haqida ushbu asarlardan ma’lumotlar olishimiz mumkin. Masalan: 马建忠(*Mǎjiànzhōng*) ning《马氏文通》(*mǎ shì wéntōng*) asari（1898），陈望道(*chénwàngdào*) ning《**文法**简论》(*wénfǎ jiǎn lùn*) asari（1978），**胡裕**树主编(*húyùshù zhǔbiān*)ning《现代汉语》(*xiàndài hànyǔ*) asari（1979），**黄伯荣** (*huángbóróng*) va **廖序**东主编 (*liàoxùdōng zhǔbiān*) larning《现代汉语》(*xiàndài hànyǔ*) asari（1978）va 张静主编(*zhāng jìng zhǔbiān*)《**新**编现代汉语》(*xīn biān xiàndài hànyǔ*)asari（1986）.

[1] 王倩.汉语动源副词研究综述[J]. 励耘语言学刊, 2016.

[2] 邓慧爱.汉语副词研究综述[J]. 文教资料, 2015.

2. Ravishlar yarim vazifali so‘zlardir. 王力 (*wáng lì*)[1] ning《中国现代语法》(*zhōngguó xiàndài yǔfǎ*)（1943）va 《郭绍虞汉语语法修辞新探》*(guōshàoyú hànyǔ yǔfǎ xiūcí xīn tàn*)[2]asarlari（1979）ushbu mavzuga oid yaratilgan asarlarga yorqin misol bo‘la oladi.

Ikkinchidan: Ravishlarning grammatik vazifasi va ularni o‘rgangan olimlar

Ushbu toifaga oid ravishlarni va ularni o‘rganishni ham ikki toifaga bo‘lishimiz mumkin:

9. Ravishlar faqat fe’l va sifatdoshlaring kichik qismini o‘zgartirishi mumkin, lekin asosiy fe’llarni o‘zgartira olmaydi. Ushbu mavzuda ham ko‘plab izlanishlar olib borgan olimlar mavjud. Misol uchun: 吕叔湘 (Lǚshūxiāng)[3]（1952）， 丁声树 (*dīng shēng shù*)（1953）， 黄伯荣 (*huángbóróng,)* va 廖序东 (*liàoxùdōng)*（1978）， 胡裕树 (*húyùshù*)（1979）， 朱德熙(*zhūdé xī*)（1982）， 李泉 (*lǐ quán*)（1996）va boshqalar.

10. Ravishlar fe’llarni, sifatdoshlarni va hattoki asosiy so‘zlarni ham o‘zgartirishi

mumkin. Ushbu mavzu ham olimlar tarafidan keng o‘rganib, tadqiq qilib chiqilgan. Ushbu olimlar qatoriga biz 赵元任 (*Zhàoyuánrèn)*（1968），张静 (*zhāng jìng*)（1961），邢福义 (*xíngfúyì*)（1962），张谊生 (*zhāngyìshēng*)（1996），唐贤清 (*tángxiánqīng*)（2004）kabi olimlarni qo‘shishimiz mumkin.

Uchinchidan: Tadqiqot va ravishlarni o‘rganish usullari

Ko‘pchilik tadqiqotchilar ravishlarni o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanadilar: Diaxronik va sinxronik usul; Sifatli tahlilni miqdoriy tahlil bilan birlashtirish usuli; Ta’rifni tahlil va tushuntirish bilan birlashtirish usuli; Umumiy tadqiqotlarni amaliy tadqiqotlar bilan birlashtirish usuli. Kognitiv grammatika kiritilishi bilan induktiv, deduktiv va abduktiv fikrlash yuzaga kela boshladi[4]. Ayniqsa, abduktiv fikrlash, chunki u kuzatilgan ravishli hodisaga eng yaxshi izoh izlash usulidir. Shuning uchun u ko‘plab olimlar tomonidan ham qo‘llaniladi.

To‘rtinchidan: Mavjud muammolar

Mavjud muammolar Akademiyada ravishlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, hali hanuz ba’zi kamchiliklar mavjud.

---

[1]段泗英.现代汉语副词研究综述[J].保山师专学报,2008

[2] 王坤.汉语副词研究综述[J].西华大学学报(哲学社会科学版),2017.

[3] 王倩.汉语动源副词研究综述[J].励耘语言学刊,2016.

[4]肖奚强,钱如玉.现代汉语副词研究综述[J].云南师范大学学报,2006.

1. Ko‘pgina maqola va kitoblarda turli davrlarga oid adabiy asarlarda uchraydigan diapazon ravishlarining batafsil tavsifi berilgan. Til hodisalariga tushuntirishlar kam bo‘lishining sababi shundaki, tarixiy evolyutsiya qonuniyatlari ochib berilganligi sababli uning kelajakdagi rivojlanishini oldindan aytish qiyin.

2. Sinxron tadqiqotlarga e’tibor berish, tarixiy tadqiqotlarga yetarlicha e’tibor bermaslikka olib keladi. Muayyan kitoblarda va ma’lum bir davrda ravishlarni batafsil o‘rganish, ammo ularning tarixiy manbalari va rivojlanish qonuniyatlari bo‘yicha tizimli tadqiqotlarning yo‘qligi ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

3. Tilning tashqi omillariga e’tibor bermaslik. Ravishlar bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar tilning ichki jihatlari nuqtai nazaridan olib boriladi va tildan tashqari omillarga kamroq e’tibor beriladi.

Kelajakda ravish va unga oid so‘zlarni o‘rganishda hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Xorijiy tilshunoslik nazariyalarini to‘liq o‘rganishimiz va o‘zlashtirishimiz, xitoycha ravishlarni o‘rganishga mos keladigan tegishli nazariyalarni yaratishimiz va bu nazariyalardan xalqning til hayotiy amaliyotiga to‘g‘ri yo‘naltirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 .张明辉,朱红雨.21 世纪现代汉语副词研究综述[J].云南师范大学学报(对外汉语教学与研究版), 2019,17(01):45-56. DOI:10.16802/j.cnki.ynsddw.2019.01.005.

2 .王坤.汉语副词研究综述[J].西华大学学报(哲学社会科学版), 2017,36(04):43-51.DOI:10.19642/j.issn.1672-8505.2017.04.008.

3. 王倩.汉语动源副词研究综述[J].励耘语言学刊,2016(03):201-212.DOI:10.13554/b.cnki.liyunyuyan.2016.03.020.

4.邓慧爱.汉语副词研究综述[J].文教资料,2015(18):26-27.

5 .段泗英.现代汉语副词研究综述[J].保山师专学报,2008(04):66-69.

6.肖奚强,钱如玉.现代汉语副词研究综述[J].云南师范大学学报, 2006(03):55-62.DOI:10.16802/j.cnki.ynsddw.2006.03.012.

INSON TILINING KELIB CHIQISHI MUAMMOSI

Bahtiyor SAIDOV
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Arab filologiyasi kafedrasi
2-kurs talabasi, kechki, 3-guruh
Ilmiy rahbar:PhD, K.A. Rahmatjanova

Annotatsiya: Maqolada gumanitar fanlar mutaxassislari tomonidan olingan inson tilining kelib chiqishi muammosiga qarashlar va yondashuvlar, shuningdek, ushbu mavzu bo‘yicha an’anaviy dinlarning dogmalari muhokama qilinadi. Kompleks (fanlararo) yondashuv zarurligi qayd etildi va ushbu mavzu bo‘yicha teologik dogmalar tahlil qilindi. Maqola fanlararo xarakterga ega bo‘lib, gumanitar fanlar (tilshunoslik, falsafa, teologiya va boshqalar) bo‘yicha ko‘plab mutaxassislar uchun mo‘ljallangan. Maqola teologik yondashuv asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, til, logos, so‘z, teologik nazariya.

Til qanday paydo bo‘lganligi haqidagi savol qadim zamonlardan beri odamlarni qiziqtirgan, chunki u insonning kelib chiqishi, umuman yer yuzidagi aqlli hayot muammosi bilan chambarchas bog‘liq.

Bugungi kunda tilning kelib chiqishi haqida 500 dan ortiq farazlar mavjud, ammo savol hali ham ochiq. Bundan tashqari, tilning kelib chiqishi lingvistik muammoga qaraganda kengroq muammo ekanligi haqida bahslashish mumkin, chunki u tilshunoslikdan ko‘ra falsafa va teologiya tomonidan faol o‘rganilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, har qanday hodisalarning kelib chiqishini hodisalarning o‘zi o‘rganadigan fan o‘rganishi kerakligi aniq. Biroq, tilning kelib chiqishi muammosi bilan bunday bayonot ishlamaydi. Masalan, fransuz tilshunosi J. Vandries o‘zining “Til” (1937) kitobida tilning kelib chiqishi muammosi tilshunoslikka taalluqli emasligini va boshqacha fikrda bo‘lgan tadqiqotchilar xato qilishlarini yozadi[1]. Shu bilan birga, din ushbu muammoga mutlaq aniq javob beradi: – “Til asosan ilohiy kelib chiqishga ega”. Ushbu bayonot tilning kelib chiqishi teologik nazariyasining asosidir. Ushbu nazariya eng qiziqarli bo‘lib tuyuladi, diqqat bilan e’tibor berishni talab qiladi va bundan tashqari, uning ishonchliligi asossiz emas.

Tilning kelib chiqishi teologik nazariyasi (bundan buyon matnda nazariya deb yuritiladi) — bu tilning ilohiy kelib chiqishi nazariyasi deyarli har bir dinda (nasroniylik, islom va boshqalar) kuzatish mumkin. Masalan, **Rigvedaga** ko‘ra, (diniy madhiyalar to‘plami, Vedalar deb nomlangan

[1] J.Vandries Til – tarixga lingvistik kirish kitobi.

to‘rtta hind diniy matnlaridan biri, miloddan avvalgi XVIII asr), ismlarni o‘rnatuvchi ma’bud – osmon va yerni yaratgan asosiy umumiy hunarmand, haykaltarosh, temirchi va duradgor. U bo‘ysunuvchi xudolar uchun nomlarni o‘rnatdi. Nutqning boshlanishi va ismlarning o‘rnatilishi odamlar, birinchi buyuk donishmandlar, notiqlik va she’riyatning ilhomi bo‘lgan Xudo Brixaspati boshchiligida amalga oshirildi[1].

Nasroniylik diniga ko‘ra, so‘zning tashuvchisi (manbai) (yunoncha Logos: fikr, ovoz, so‘z, aql, qonun, ma’no, tushuncha, aql, raqam) Xudo. Yuhanno xushxabari boshida kalom bor edi, Xudo yorug‘lik, mustahkamlikni yaratadi va ularga nom beradi. Xudo bunday nomlarni ozgina belgilaydi: kun, tun, osmon, er, dengiz. U qolganini odam Atoga nomlashni buyurdi (Eski ahd, Ibtido kitobi I va II boblar)[2]. Shunday qilib, muqaddas kitobga ko‘ra, Xudo odamlarga narsalarni nomlash uchun til berdi. Bu yerda muqaddas kitob qoidalarining Rigveda bilan o‘xshashligi aniq.

Islom ta’limotiga ko‘ra, Odam ato payg‘ambarning (alayhi va salom) eng katta mo‘jizasi shundaki, Alloh unga barcha tillarni bilish va hamma narsaning nomini bergan. Qur’onda shunday deyilgan: “u (Alloh) odam atoga har xil ismlarni o‘rgatgan (2-sura Al-Baqara, 31-oyat)”. Keyin Alloh farishtalarga bu narsalarning nomini aytishni buyurdi. Farishtalar o‘zlarining zaifliklarini va bu nomlarni nomlay olmasliklarini tan olishganda, Alloh taolo: “Ey odam!” Ularga ismlari haqida aytib bering (2- sura Al-Baqara, 33-oyat). Shundan so‘ng, Adam (alayhi salam) farishtalarga ularning ismlari va boshqa barcha narsalarning nomlarini berdi[3].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tilning kelib chiqishi masalasi muhokama qilinmaydi: til Xudoning ijodi ekanligiga ishonish kifoya. Qaysidir ma’noda, bu javob eng oson. Va shu bilan birga, bu qisqacha ko‘rinishi mumkin bo‘lgan darajada oddiy emas. Bu yerda eng muhim muammo, barcha qarama-qarshiliklarning kelib chiqishi yotadi: birinchi navbatda ruhmi yoki materiyami? Nima nimadan kelib chiqdi? Ilmiy nuqtai nazardan, nazariya muhim kamchilikka ega – isbotlab bo‘lmaydi, chunki u faqat iymon asosida qurilgan.

Ammo, shu bilan birga, diniy yondashuvni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilgan dinlar turli xil geografik va vaqt ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, so‘zning ilohiy kelib chiqishi

[1] Rigveda online kitobi https://www.rulit.me
[2] Eski ahd, Ibtido kitobi I va II boblar
[3]Qur’on, 2-sura Al-Baqara, 33-oyat

to‘g‘risida yagona tushunchaga ega va bu bizga nazariya haqiqatini tasdiqlashga imkon beradigan ma’lum bir naqshga ega.

Yuqoridagi teologik nazariyalarni birlashtirib, agar (va masalan) Yuhanno Xushxabarining (ularning bittasining) iborasiga yana bir bor murojaat qilinsa: “boshida bir kalom bor edi, kalom Xudodan edi va kalom Xudo edi...” bu turli xil talqinlarga imkon beradi va cheksiz munozaralarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi, keyin uning mumkin bo‘lgan talqinlari orasida tilshunoslarga yaqin bo‘lgan “filologik” uchun joy mavjud.

Demak, insoniyat dunyosi so‘z bilan yaratilgan. Til – bu insonni va uning atrofini yaratgan narsa, mana bu boshlanishning haqiqiy boshlanishidir. Inson bu dunyoni obyektlar dunyosi bilan, obyektiv haqiqat bilan doimiy ravishda bog‘lashga majbur bo‘lsa ham, til unga yaqinroq va birlamchidir. Ushbu talqin bilan til ilohiy mavzuga aylanadi.

Nazariya foydasiga filologiya vakolatining fikrini berish o‘rinli. Umumiy tilshunoslik va til falsafasining eng yirik tilshunos asoschisi Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) tilni ruhning faoliyati deb hisoblaganligi fikrimizga dalil bo‘ladi.

Ma’lum darajada, teologik nazariya o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sakrashning ko‘proq “ilmiy” gipotezasiga o‘xshaydi, unga ko‘ra til hech qanday shartlarsiz to‘satdan paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, u darhol boy lug‘at va rivojlangan til tizimi bilan jihozlangan. Muqaddas bitik matnlariga asoslanib, ushbu “sakrash” ning egasi Xudo degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagi faktik manbalarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

- *tilning paydo bo‘lishi muammosi aslida shunchaki lingvistik emas, balki ko‘p qirrali;*
- *ushbu muammoga teologik yondashuv asosli va haqiqatga eng yaqin.*

Biroq til hali ham chuqur o‘rganishni talab qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, tilning kelib chiqishi muammosini hal qilish quyidagilarga imkon beradi: dunyoni yaratish masalalariga chuqurroq nazar tashlash, ko‘p narsalar va hodisalarning mohiyatini tushunish va umuman olganda, inson va jamiyatni atrofdagi voqelik bilan to‘liq uyg‘unlikda yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vandries J. (1937) til: tarixga lingvistik kirish // Moskva: davlat ijtimoiy. ekon. nashr, 410-sahifa.

2. Leontiev A. A. (1990) til, nutq, nutq faoliyati, 1969 Moskva, — 3-4 betlar

3. Norman B. Yu. (1996) Til nazariyasi (mualliflik ma’ruzalari kursi), 2003 Moskva 101 bet.

5. “Lomonosov 2015” konferensiyasidagi Kondratskaya E. A. Nutqi tilning paydo bo‘lishi muammosi Talaba (bakalavr, jurnalistika fakulteti), M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya.

6. Rigveda, 1971 Moskva (Sharq adabiyotining bosh nashri), online kitob https://www.rulit.me.

7. Qur’on, 1991 Moskva (Krachkovskiy I.Yu tarjimasi).

8. Xushxabar, Eski ahd (ibtido), Moskva Patriarxiyasining rasmiy veb-sayti.

HINDIY TILIDAGI RASMIY MATNLARDA FE’LLAR STRUKTURASI

Nurxon DADASHOVA
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.B Xodjayeva

Annotatsiya. Hindiy tilida rasmiy uslubga xos matnlarni o‘rganish va ularning tarjimasi alohida e’tibor talab qiladi, negaki ushbu tilda so‘zlashuv uslubida boshqa ma’noni anglatgan so‘z rasmiy uslubga o‘tganda butkul boshqa ma’noni ifodalashi mumkin. Ushbu holat tarjima jarayonida ham sinchkovlik va kuchli so‘z boyligini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada hindi tilidagi rasmiy uslubga xos matnlarda fe’l so‘z turkumi hamda uning struktur tahlili ko‘rib chiqiladi. Maqolada fe’llarning tuzilishi tarjimaga ko‘chganda asliyat holatidan farq qilishi mumkinligi ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Rasmiy uslub, hindiy tili, fe’l so‘z turkumi, struktur tahlil, tarjima, fe’l kategoriyalari, rasmiy tarjima, morfologik o‘zgarish.

Huquqiy, iqtisodiy, diplomatik va rasmiy ish hujjatlarini tarjima qilish nafaqat atamalar, iboralar va iboralarni yetarli darajada bilishni talab qiladi, balki jumla tuzilishini va ushbu uslubga xos bo‘lgan ba’zi o‘ziga xos grammatik va sintaktik naqshlarni aniq tushunishga bog‘liq.

Bu uslub boshqa uslubdan lug‘aviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan

chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki, tantanavor yoki shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’min etiladi. Bu uslubdagi gap qurilishi, odatda, tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga asoslanadi. Shuning uchun ham rasmiy ish qog‘ozlari (hujjatlar)da nisbatan uzun jumlalar, murakkablashgan, uyushiq bo‘lakli gaplar ko‘p qo‘llanadi. Rasmiy gap tarkibida odatdagi so‘z tartibiga qat’iy rioya qilinadi. Rasmiy uslubda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnini tuzishda turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi. Masalan, buyruqda “... so‘m maosh bilan... lavozimiga tayinlansin”, yoki xizmat yozishmalarida “Sizga...ni ma’lum qilamiz”. “...ga korxona kafolat beradi” kabi qoliplashgan tuzilmalar qo‘llanishi mumkin.

Fe’llar tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) Sodda
2) Qo‘shma

Shuningdek tub va yasama fe’llar ham mavjud. Ushbu bo‘limda rasmiy matnlardagi fe’llar strukturasi ustida ish olib boramiz.

Hindiy tilidagi rasmiy uslub matnlarida qo‘shma fe’llar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda fe’llar asosan qo‘shma shaklda, majhul nisbatda ifodalanadi. Ushbu mavzuni ko‘rib chiqish uchun Hindiston tashqi ishlar vazirining 2021-yil 16-iyulda “Markaziy va Janubiy Osiyo: aloqadorlik masalalari” mavzusidagi yalpi majlisda so‘zlagan nutqi matni[1] olindi va matndagi fe’llar tuzilishi va morfologik xususiyatiga ko‘ra tahlil qilindi.

Matndan topilgan fe’l	**Tarjimasi**	**Fe’lning matnda kelgan holati**	**Gapdagi vazifasi**
भाग लेना	Ishtirok etmoq	भाग लेकर	Ravish, hol
प्रसन्नता होना	Mamnun bo‘lmoq	प्रसन्नता हो रहा है	Kesim, III shaxs, hozirgi

[1] “मध्य तथा दक्षिण एशिया: कनेक्टिविटी" के पूर्ण सत्र में विदेश मंत्री की टिप्पणी, जुलाई 16, 2021.

			protsessiv zamonda
धन्यवाद देना	Minnatdorchilik bildirmoq	धन्यवाद् देता हूँ	Kesim, I shaxs, hozirgi oddiy zamon
खत्म होना	Tugamoq	खत्म हो गए थे	Kesim, III shaxs, uzoq o‘tgan zamon
अवरुद्ध करना	Blokirovka qilish	अवरुद्ध करने से	Hol
फैलना	Yoyilmoq	फैले हुए है	Kesim, III shaxs, o‘tgan zamon
समाधान करना	Yechim topmoq	समाधान किया जाना	Harakat nomi (ega), majhul nisbat
क़दम उठाना	jadallashtirmoq	क़दम उठाए है	Kesim, III shaxs, o‘tgan zamon
प्रदान करना	Taqdim etmoq	प्रदान करता है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
शामिल करना	O‘z ichiga olmoq	शामिल करने का	Aniqlovchi
प्रस्ताव रखना	Taklif bildirmoq	प्रस्ताव रखा है	Kesim, III shaxs, o‘tgan zamon
संचालित होना	Olib borilmoq	संचालित होता है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
सुनिश्चित करना	Ta’minlamoq	सुनिश्चित करने के लिए	Hol
आना	Kelmoq	आने की (ज़रूरत है)	Aniqlovchi
साकार करना	Bir shaklga keltirmoq	साकार करने में	To‘ldiruvchi

होना	Bo‘lmoq	हो सकती है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon, qo‘shma fe’l shaklida
समझना	Tushunmoq	समझने की	Aniqlovchi
दावा करना	Talab qilmoq	दावा करते हुए	Hol
लाभ होना	Foyda bo‘lmoq	लाभ नहीं होता है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
महत्व रखना	Ahamiyat bermoq	महत्व रखती है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
अहसास होना	Amalga oshirilmoq, kengaymoq, oshmoq	अहसास हो रहा है	Kesim, III shaxs, hozirgi protsessiv zamon
लागू होना	Amalda qo‘llanmoq	लागू होता है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
चलना	Yurmoq	चलती है	Kesim, III shaxs, hozirgi oddiy zamon
भरोसा होना	Ishonch bo‘lmoq	भरोसा होना (चाहिए)	Harakat nomi, kesim.
अपेक्षा करना	Kutmoq	अपेक्षा करते हैं	Kesim, III shaxs ko‘plikda, hozirgi oddiy zamon
विस्तार करना	Ishlab chiqarmoq	विस्तार करते (समय)	Payt holi
ध्यान देना	E’tibor bermoq	ध्यान देने (की ज़रूरत है)	Aniqlovchi
तैयार करना	Tayyor qilmoq	तैयार कर सकते हैं	Kesim, III shaxs ko‘plikda,

			hozirgi oddiy zamon, murakkab fe’l shaklida
अनुरूप होना	To‘g‘ri kelmoq	अनुरूप होना (चाहिए)	Harakat nomi, kesim
सम्मान करना	Hurmat qilmoq	सम्मान करना	Harakat nomi, ega
आधारित होना	Asoslanmoq	आधारित होना (चाहिए)	Harakat nomi, kesim
आश्वस्त करना	Ishontirmoq	आश्वस्त करना	Harakat nomi, ega
सुनना	Tinglamoq	सुनने के लिए	Sabab holi

Matndan jami 33 ta fe’l topilgan bo‘lib, shulardan 6 tasi sodda fe’l, 27 tasi qo‘shma fe’ldir. Matn tarkibidagi fe’llarning 1 tasi to‘ldiruvchi, 3 tasi ega, 4 tasi aniqlovchi, 5 tasi hol hamda 20 tasi kesim vazifasida kelmoqda. Kesimlarning 1 tasi I shaxsda, 19 tasi III shaxsda bo‘lib, II shaxsda qo‘llanilgan kesim shakli topilmadi.

1-Diagramma.



Shuningdek, kesim vazifasidagi fe’llarning tahlili quyidagicha:



Gap bo‘lagi nuqtai nazaridan olib qaraganda, hindiy tili va o‘zbek tilida tarjima jarayonida ba’zi farqlar kuzatilishi mumkin, ya’ni morfologik o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

क्षेत्रीय सहयोग और समृद्धि सुनिश्चित करने के लिए तीनों को एक साथ आने की जरूरत है। – *Mintaqaviy hamkorlik va farovonlikni ta’minlash uchun uchtasi ham birlashishi kerak.*

Yuqoridagi misolda hindi tilidagi variantda आने की fe’li aniqlovchi vazifasida kelmoqda, ya’ni so‘zma-so‘z tarjima qilib ko‘rsak, “Mintaqaviy hamkorlik va farovonlikni ta’minlash uchun uchalasining ham **birlashishining zarurati** bor” degan ma’no chiqadi. Bu, albatta, hindi tili nuqtai nazaridan. Lekin o‘zbek tiliga bu zaylda tarjima qila olmaymiz. Uni o‘z tilimizda kerakli qoliplarda tarjima qilganimizda “Mintaqaviy hamkorlik va farovonlikni ta’minlash uchun uchtasi ham birlashishi kerak” degan mazmundagi gap hosil bo‘ladi va “birlashishi kerak” iborasini o‘zbek tilida bir butun kesim sifatida qabul qilamiz.

Bundan ko‘rinib turibdiki, fe’llar tarjimada morfologik o‘zgarishga ham uchrashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “मध्य तथा दक्षिण एशिया: कनेक्टिविटी" के पूर्ण सत्र में विदेश मंत्री की टिप्पणी, जुलाई 16, 2021.
2. Translation: Its Theory and Practice. – Singh, Avadhesh Kumar. New Delhi: Creative Books, 1996.
3. Translation as Craft, as Recovery, as the Life and Afterlife. Text: Sujit Mukherjee on Translation in India. – Elena Di Giovanni, University of Macerata, Italy.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T., 2009.
5. Tarjima nazariyasi asoslari. – G‘.Salomov, O‘qituvchi:.1983.

ADABIYOTSHUNOSLIK

NAJIB MAHFUZNING “QALAMPIR” VA ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Xurshidaxon ABDUSALOMOVA
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Arab filologiyasi kafedrasi 1-kurs talabasi, kunduzgi, 1-guruh
Ilmiy rahbar: f.f.d.dots. D.Z. Muxiddinova

Annotatsiya: ushbu maqolada arab adabiyoti yetuk namoyondalaridan biri, “Nobel” mukofoti sovrindori Najib Mahfuzning “Qalampir” hikoyasi va adabiy merosi jihatidan katta ahamiyatga, o‘zbek hikoyanavisligida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ijtimoiy hayotdagi muammolarning tasvirlanishligidagi o‘xshashligi va g‘oyaviy jihatdan yakdilligi badiiy jihatdan tahlil qilinadi va ikki adib hayotidan kerakli ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: muallif tili, ijtimoiy muammolar, poraxo‘r amaldorlar, qahvaxona, og‘ir hayot tarzi, o‘g‘rilik, maqollar, hikoya.

Barchamizga ma’lumki, har bir xalq mustaqillikka erishguncha, turli qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, yuqori tabaqa vakillarining quyi qatlam insonlariga qilgan adolatsiz munosabatlari esa barcha xalqlar tarixidagi og‘riqli nuqtalardan biridir. Xalqlarning ijtimoiy hayotining og‘irligi, davlat odamlarining unvon va mansabini suiiste’mol qilishi o‘sha qiynalgan aholi orasida yashab ijod qilgan har bir shoir-u yozuvchilarni junbushga keltirishi tabiiy holat. Mana shunday tarixning oddiy xalq boshiga tushgan qora kunlarini yorituvchi asarlardan biri bu Najib Mahfuzning “Qalampir” hikoyasidir.

Najib Mahfuz 1911-2006-yillar oralig‘ida yashagan Misr yozuvchilaridan biridir. Hayoti davomida nafaqat Misr adabiyoti, balki jahon adabiyot xazinasiga ham salmoqli hissa qo‘sha olgan adib “Nobel” mukofotiga sazovor bo‘lgan. “Bema’ni shivir shivir” novellalar to‘plami jamiyatdagi boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi ziddiyat haqida bo‘lsa, romantik-tarixiy romanlarini (“Taqdir o‘yini”, “Radobis”, “Fiv kurashi”) yozgach, u yana ijtimoiy mavzuga murojaat qilgan. “Yangi Qohira” romanida Ikkinchi jahon urushidan avvalgi Misr yoshlarining hayoti aks ettirilgan. “Nil ustidagi safsata” va “Miramor pansionat”, “Yomg‘ir ostidagi sevgi” romanlarida Misrdagi 1952-yildagi inqilob va undan keyin yuzaga

kelgan muammolar tasvirlangan. “O‘g‘ri va it” romani hamda “Ilohiy dunyo”, “Badnom xonadon”, “Qora mushuk qovoqxonasi” kabi bir qancha novellalar to‘plamlari muallifi bo‘lgan Najib Mahfuz o‘zidan katta ahamiyatli adabiy meros qoldirgan va uning bir qancha asarlari o‘zbek tilida chop etilgan. Asarlari orasida “Qalampir” hikoyasi hajm jihatidan kichik bo‘lsa ham, Najib Mahfuz ijodida mavzusining haqqoniy va realistik jihatdan yoritib berilganligi uchun kitobxonlarning e’tiboridan tushmay kelmoqda. Bu asar nomlanishi qahvaxonada ertadan kechgacha yugur-yugur bilan tinmaydigan Taha Sankar ismli, ammo tevarak-atrofdagilar

uning erta sahardan to tun yarmigacha stollar orasida ivirsib, yugurgilab, lov–lov cho‘g‘ tashishi, olovday tez, sapchib turadigan, har burchakda hozir-u nozir bo‘lgani uchun[1]

“qalampir” deb nomlagan o‘n ikki yoshlar chamasidagi bolaga bog‘liq. Hikoya muallif tilidan bayon qilingan bo‘lib, asarda Qalampirning qahvaxonada kun bo‘yi tinmay ishlashi va bu uchun atigi bir qirsh qo‘lga kiritganligi sabab o‘zini omadli deb hisoblashidan ayonki, u tengi bolalar undan ham og‘ir sharoitda kun kechiradi. U yerga talabalar tashrif buyurib, turli voqealarni muhokama qilishadi, kunlardan bir kun gapdan gap chiqib pora olgan amaldorning qamalishi haqidagi yangilikka borib taqaladi, shu payt ulardan biri quyidagi gaplarni aytadi:

“*Mansabdorlargina oladi deysanmi porani… boshqalarchi, e, bu hammaga ayon-ku! Agar mamlakatda hamma adliya xodimlari chinakam odil bo‘lsa bormi, qasrlar huvullab qolib, qamoqxonalar to‘lib-toshib ketardi, ha!*[2]”

Asarda qahvaxonaga talabalar tez-tez to‘planib kelishlari, chilim tortib, davlatdagi voqealarni o‘z bilganlaricha muhokama qilishlari, adolatsizlig-u xo‘rliklarni ochiq-oydin bilib turishsa ham, amalda hech nima qila olmasliklari o‘sha davrdagi yupun bo‘lsa ham, ammo ziyoli talabalarning kunlari qimor o‘ynash bilan o‘tishi qalamga olingan. Yosh bolalarning qahvaxonada yugurdaklik qilishi, talabalarning esa tamaki chekish va qimor o‘ynashga ruju qo‘yishlaridan davlatning kelajagi ne ham bo‘lardi? Fursatdan foydalangan ayrim “davlatning ravnaqini o‘ylaydigan” amaldorlarning cho‘ntaklarining qappayishiga shular emasmi sabab? Bahslarning esa qizigandan qizishi hikoya qahramoni Qalampirga yoqar edi:

Zap topib gapiryapti: “O‘g‘rilar mamlakati!”, “O‘g‘rilar qonun homiyligida!” Qalampir buni yaxshi biladi, tubdan tushunadi, o‘zi ham o‘g‘ri emasmi axir… Onasi ham, pista sotib kelayotganida, tor ko‘chada

[1] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-1.
[2] Najib Mahfuz.. “Qalampir” hikoyasi. B-1.

adashib yurgan jo‘jaxo‘rozni… qo‘yniga joylab qaytadi… Otasi-chi, kunduzi bodomfurush, kechasi esa tomma-tom sakrab, birovlarning arqondagi kirlarini…[1]

Demak, Qalampir ham, uning onasi ham, uning otasi ham o‘g‘ri, lekin ularni bu ishga undagan sabab nimada? Tirikchilikning o‘g‘ir zarbasi emasmi? Davlatning qo‘ynida qonni so‘rayotgan zulukdek tirmashib olgan amaldorlar, pora olish evaziga biror-bir ish qilishni o‘ziga maqsad qilib olgan jirkanch kimsalar sabab ro‘zg‘orning qiyinchiliklariga dosh berish uchun uyida biror burda qolmaganida o‘g‘rilik qilish orasida farq bor emasmi? Qalampir ishdan chiqib, uyiga kelayotganida otasini o‘g‘rilikda ayblashib, qamoqqa olishadi, va yig‘layotgan onasiga *qahvaxonadagi suronli gurunglarni eslab, bu yurt – o‘g‘rilar yurti ekanini, o‘g‘rilikka qonun o‘zi homiylik qilishini onasiga hikoya qilib berdi… Onasining g‘ashi kelib, “bas qil!”, deya jerkib berdi. Qalampir esa hayajonda gapiraverdi. Onasidan bir tarsaki yegandan keyingina uyquga ketdi.*[2]

Hikoyaning yuqoridagi parchasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, alamda turgan onaning begunoh, oq-u qorani tanishga ulgurmagan o‘smir farzandiga tarsaki tushirishga nima undaganini tushunib yetishimiz qiyin emas. O‘g‘ir hayot tarzi, har doim tahlikada yashash, kambag‘alchilik va undagi xo‘rliklar, ijtimoiy hayotdagi notenglik, amaldorlarning tazyiqlari-barcha-barchasi xalqimiz tili bilan aytganda, hiqildog‘iga kelgan va mana shu voqeadan xo‘rligi kelib, jahli chiqqan paytda farzandining o‘g‘rilar yurti ekanini gapirganida yosh go‘dakning jamiyatdagi asl haqiqatlarni bilmasdan aytgan gaplari onasining yana-da alamini keltirgan.

Qisqa so‘zda katta ma’no bera olish qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘zbek adabiyotida kitobxonlar uchun sevimli bo‘lgan adiblardan biri Abdulla Qahhor 1907-1968- yillar oralig‘ida yashab ijod qilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvonini bilan taqdirlangan adib umri mobaynida komediya, roman, qissa janrlarida ijod qilgan bo‘lsa ham, u hikoyanavislikda ko‘proq shuhrat qozongan. Abdulla Qahhor ijodiy hayoti davomida 40 dan ziyod asar e’lon qilgan bo‘lsa, bu kitoblar orasida 30 ga yaqin hikoyalar ham bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. Abdulla Qahhorning nasriy asarlari orasida “Qo‘shchinor chiroqlari” romani hamda “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar” va “Muhabbat” qissalari muhim o‘rin tutadi. Undan tashqari “Boshsiz odam”, “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Millatchilar”, “San’atkor”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar”, “Asror bobo” kabi o‘nlab

[1] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-2.
[2] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-2.

hikoyalar yozgan. “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” nomli komediyalar muallifidir. Felyetonlar, adabiy-tanqidiy maqolalar ham yozgan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi ham o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Najib Mahfuzning “Qalampir” asariga o‘xshash bu hikoyada ham jamiyat hayotidagi o‘g‘rilar fosh qilingan. Asar ho‘kizning o‘g‘irlanishi bilan boshlanadi va ellikboshi, amin, tilmoch, pristavga ho‘kiz topilishi uchun berilgan hadyalar, o‘zi og‘ir ahvolda bo‘lsa ham, yordam berishlariga umid bog‘lab, amaldorlarning ishlarini yakunlab berishi uchun berilgan ma’lum miqdordagi pul, bir qancha tovuq va tuhfalar yana-da vaziyatni chigallashtiradi.

Ellikboshi ho‘kizni juda naqd qilib qo‘ydi – go‘yo u ko‘chaga chiqsa bas – ho‘kiz topiladi. Bu “xudo yarlaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo‘lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.[1]

Shuncha porani qo‘lga kiritishsa ham na bir foydali yordam berishadi, na bir ho‘kizni topishga harakat qilishadi.

Barchamizga ma’lumki, Abdulla Qahhor qisqa matnda katta ma’no ifodalashi, xalq maqollaridan unumli foydalanishi bilan ham hikoyalarida keng ko‘lamli mavzuni yoritib beradi. “O‘g‘ri” hikoyasida ham quyida keltirilgan maqollar mavzuni yana-da ochib berishda muhim ahamiyatga egadir:

Quruq qoshiq og‘iz yirtadi;[2]

Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz;[3]

O‘ynashmagin arbob bilan — seni urar har bob bilan;[4]

Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.[5]

Ikki hikoyadagi o‘xshash tomonlarga, ular ochib beradigan mavzuga to‘xtalsak, ikkisida ham qiyinchiliklarga uchragan oila, davlat amaldorlari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lgan aholining achinarli hayoti keltirilgan. “Qalampir” da ham, “O‘g‘ri” da ham o‘g‘rilar haqida fikr yuritilsa ham, u yerda ko‘chma ma’no borligi asar yakunlanganidan so‘ng kitobxonga namoyon bo‘ladi.

[1] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.124.
[2] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.124.
[3] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.126.
[4] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.125.
[5] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.125.

Asarlarda turmush qiyinchiliklaridan azoblanayotgan xalqning bor-budini shilayotgan, odamlarning koʻz oʻngida ularning choʻntagidan oʻgʻirlayotgan amaldorlar keskin ravishda fosh etilgan. “Qalampir” hikoyasida roʻzgʻor sabab kundalik yegulikka oʻgʻrilik qilayotgan bosh qahramon oilasi yoki “Oʻgʻri” hikoyasidagi hoʻkizni oʻgʻirlagan inson ham oʻsha davr ijtimoiy hayotidagi qoloqliklar, yashash sharoitining ogʻirligi sabab bu ishga qoʻl urishgan. Lekin birinchi hikoyada oʻgʻrilik qilgan inson jazolanishi, poralar evaziga amaldorlik kursida oʻtirayotgan xalqning choʻntagidan ochiqdan ochiq pul oʻmarayotganlar tasvirlangan boʻlsa, ikkinchi hikoyada hoʻkizni kim oʻgʻirlagani maʼlum boʻlmasa ham, undan-da qimmatga tushirayotgan, ishlarni bitirib beradigan insonlarni, davlat amaldorlarini, rozi qilish uchun berilayotgan tuhfalar xalqni shunga oʻrgatib qoʻygan edi, yaʼni amaldorlar oʻz ishini bajarishdan oldin arzgoʻydan maʼlum miqdorda pul yoki biror arzigulik narsa olishi ham odat sifatida qabul qilinishni boshlagan edi.

Xulosa. Bu asarlar turli davlatlarda yozilgan boʻlsa ham, ularning ikkisida poralar evaziga xalqni xonavayron qilayotgan amaldorlarning fosh qilinishi mavzusi yoritilgan. Har ikki adib tomonidan mahorat bilan yozilgan hikoyalar doimo kitobxonlar tomonidan sevilib oʻqiladi, chunki bu mavzu har zamon va makonlarda xalqlarning ogʻriqli nuqtasi boʻlib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdulla Qahhor. Anor. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/najib-mahfuz-1911-2006-misr/najib-mahfuz-qalampir-hikoya

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Najib_Mahfuz

MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING “QISH” RADIFLI G‘AZALIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

Durdona CHORIYEVA
TDSHU, Turkshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Z. Salimova

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan serqirra iste’dod sohibi, zamonasining peshqadam shoiri, tarjimoni, tarixnavisi sifatida adabiyotimizga ulkan hissa qo‘shgan olim Ogahiyning “Qish” radifli g‘azalida qo‘llanilgan badiiy san’atlar, ularning tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, “Qish”, badiiy san’at, mukarrar, takrir, tazod, tashxis, tashbex, tanosib, nido, ta’did.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo‘lib, Navoiydan keyin eng “ko‘p va xo‘b” she’r aytgan shoirlar, buyuk ijodkorlardan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U ijodining ko‘lami, she’riyatining ko‘rkamligi va badiiy salmog‘i bilan o‘z davrining buyuk siymosi sifatida e’tirof etiladi. Donishmand shoir Komil Xorazmiy unga juda yuqori baho beradi. Ogahiyning fazl-u donishda yagonaligi, so‘zining qadri balandligi, ishqning tilsimlaridan, pinhon sirlaridan ogoh ijodkorligini e’tirof etadi:

Ulki ogahlarning ogahidur,
Fahm-u donish sipehrining mahidur
So‘zi ortiqdur guhardin ham,
Fazl-u donishda olam ichra alam.
So‘zni har necha qilsa bozori
Bordur olamda bir xaridori.[1]

Ogahiyning asosiy she’riy merosi ona tilimizda yozilgan bo‘lib, “Taviz ul-oshiqin” (Oshiqlar tumori) devonida to‘plangan. Devon ma’rifatparvar shoh va shoir Feruz Muhammad Rahimxon Soniy taklifi va talabi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o‘zbek she’riyatining benazir namunasi hisoblanadi. Devonga shoirning. 20 ming misradan ortiq she’rlari kiritilgan bo‘lib, ularning 1 300 misraga yaqini forschada bitilgan. Ogahiy she’riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbih-u qiyoslar silsilasi o‘ziga xos, yangicha. Uning bu fazilati g‘azallaridagi o‘xshatishlar, badiiy

[1] O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent “Noshir” 2019. B-399.

san’atlar ifodasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ogahiyning “Qish” radifli g‘azalini tahlil qilish orqali uning uslubiyatini yanada chuqurroq o‘rganishimiz mumkin:

Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish,
Ki aql-u hisg‘a yaksar mone’ oldi borcha ishdin qish.[1]

Ushbu “Qish” radifli g‘azalidan olingan baytning birinchi misrasida jahonga qattiq qish kelganligini xabar qilmoqda. Birinchi misradagi qish so‘zini takror qo‘llash orqali takrir san’atini yuzaga keltirgan. Takrir –bu gapda biror so‘zni takrorlash orqali vujudga keladi. Bunda “qish” so‘zini ham radif ham qofiya holida ishlatish so‘zga badiiy vazifa yuklab, ma’no kuchaytirishga, g‘azalning dastlabki misrasidayoq o‘quvchining qish sovug‘ini his qilishga undaydi.

Ikkinchi misrada esa bu sovuq barcha ishlarga to‘sqinlik qilganligi haqida so‘z boradi va bu misradagi “aql-u his” so‘zlari orqali tanosib san’atini yuzaga keltirgan. Tanosib – she’r baytlarida bir-biriga bog‘liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash san’ati. Biror narsani o‘ylaganimizda ko‘z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog‘liq ko‘z, qosh, lab, og‘iz kabilar xayolda jonlanadi. Bu yerda ham aql va his bir-birini taqozo etadigan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan so‘z hisoblanadi.

Agarchi asradim ojiz tanim qat-qat libos ichra,
Sovuq yel birla lekin qoltiratdi ko‘p qamishdin qish.[2]

Bu parchada qahramon ojiz tanasini qat-qat libos ichida saqlasa ham, sovuq qotganligidan qamishdan ham ko‘p qaltiraganini aytadi. Birinchi misradagi “qat-qat” so‘zlari mukarrar san’atini vujudga keltirgan. Mukarrar – bu so‘zlarning qayta-qayta takrorlanib, juftlashib kelishidir. Bu san’at so‘zning ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab keladi.

Ikkinchi baytda esa qahramon sovuqligidan qamishdan ham ko‘p qaltirashi aytilmoqda. Bu yerda qamishning qaltirashi tashxis san’atini vujudga keltirgan. Tashxis bu-jonlantirish badiiy san’atining bir turi bo‘lib turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o‘simliklarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish. Tashxis badiiy tasvirning aniqroq, yorqinroq, bo‘lishiga xizmat qiladi.

Qabob kulbam aro, qo‘ymay chiqorg‘a sarsar afvoji,

[1] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni” mavzuidagi Republika anjumani materiallari. Toshkent-2020. B-223.
[2] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni“ mavzuidagi Respublika anjumani materiallari.Toshkent-2020. B-223.

Mani mahrum qildi el bila boorish-kelishdin qish.[1]

Ushbu baytda qishning sovuqligi qahramonni, hattoki, kulbasidan chiqishiga va el bilan borish–kelish qilishiga ham to‘sqinlik qilganligi tasvirlangan. “Borish- kelish” so‘zlari orqali tazod san’ati yuzaga kelgan. Tazod – narsa- hodisalarni zidlash orqali hosil qilinadi. Bu misrada “borish – kelish” so‘zlari bir-biriga qarama-qarshi hisoblanadi.

Burudat shiddati ostida qaddim xam yilib yodek,

Zaif-u notavon-u nozik yetti ham kirishdin qish. [2]

Bu baytning birinchi misrasida qaddining yodek egilganligi tashbeh san’atini yuzaga keltirgan. Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o‘xshatish deb yuritiladi. U shunday san’atki, unda so‘zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi, o‘zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta’sirliroq ochib beriladi.

Ikkinchi misrada tanosib san’atidan foydalanilgan. Shoirning mantiqan bir-biriga bog‘liq va bir-birini taqozo etadigan so‘zlardan foydalanishi tanosib deyiladi. Masalan: “bulbul” so‘zi gul, bog‘, chaman, navo so‘zlari bilan; “Ka’ba” esa haj, farz, Tangri, ziyorat so‘zlari bilan mazmuniy bog‘lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi. Bu yerda zaif, notavon, nozik so‘zlari bir-biriga bog‘liq hisoblanadi.

Manga mushkuldurur topmoq ilojnikim, g‘ino ahli

Iloj aylar sovuqqa qoqim-u sinjob-u kishdin qish. [3]

Ushbu baytda bu sovuqdan saqlanish uchun qahramonga silovsin, olako‘zanak va qunduz terili po‘stin kerakligini aytmoqda. Birinchi misrada shoir g‘ino ahliga murojaat qilib, nido san’atini yuzaga keltirgan. Nido boshqa she’riy san’atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg‘ulari po‘rtana misoli junbishga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin.

Ikkinchi misrada ta’did san’ati vujudga kelgan. Ta’didning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fikriy rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni

[1] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni“ mavzuidagi Respublika anjumani materiallari. Toshkent-2020. B-224.

[2] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni“ mavzuidagi Respublika anjumani materiallari. Toshkent-2020. B-224.

[3] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni“ mavzuidagi Respublika anjumani materiallari. Toshkent-2020. B-224.

anglatadi. Bu yerda “qoqim-u sinjob-u kishdin qish” ketma –ketlikni yuzaga keltirgan.

Yetishdi, Ogahiy qish mavsumi, vah, emdi naylarsan
Ki, qottig‘dur qari-yu ojiz elga borcha ishdin qish.[1]

G‘azalning so‘nggi baytida Ogahiy qish kelganligi va bu mavsumda bechora, ojiz elga tirikchilik qiyin bo‘lishini ta’kidlab, “qari-yu ojiz” so‘zlari orqali tanosib san’atini vujudga keltirgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ogahiyning g‘azallarini o‘qigan, bilgan inson shak –shubhasiz uning badiiy mahoratini, chinakam san’atkor shoir ekanligini tasdiqlaydi. Shoir har san’atning, har bir detalning ungacha ilg‘amagan qirralarini, borilmagan ma’noviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Har biz so‘zdan yangilik, yangi ma’no-mazmun topib, g‘azallarida yuksak darajada mahorat bilan qo‘llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent. “Noshir”. 2019.B-399
2. “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika anjumani materiallari.Toshkent-2020.
3. Adabiyot.10-sinf. I qism. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent–2017.
4. Adabiyot. 9-sinf. Toshkent-2019.
5. She’r san’atlari . Namoz Rasulov.
6. https://zenodo.org/record/5925728#.Y_CIu3ZBzIU.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanosub.

[1] “Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni“ mavzuidagi Respublika anjumani materiallari. Toshkent-2020. B-224.

MIXAIL NUAYME VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA IJTIMOIY MAVZULAR TALQINI

Gulnoza HAMIDOVA
TDSHU arab filologiyasi kafedrasi 1-kurs arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.dots. D.Z. Muhiddinova

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi davr Arab adabiyotiga asos solgan adiblardan biri bo‘lgan Mixail Nuayme va Abdulla Qahhor hikoyalarining mavzu ko‘lami va badiiy xususiyatlari ijtimoiy jihatdan qiyoslangan holda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hikoya, sujet, obrazlar tizimi, kulminatsion nuqta, qahramon xarakteri, muallif tili, ijtimoiy tuzum.

Kirish. Mixail Nuayme – yozuvchi, faylasuf, hikoyanavis, essenavis, romannavis adib, adabiyot tarixchisi va tanqidchisi, ijtimoiy va siyosiy maqolalar muallifi. Hayotligida Livandagi eng keksa yozuvchi sifatida tanilgan. U arab adabiyotining beshta asoschilaridan biri sifatida tan olingan. Hayotligida arab adabiyoti olamining nufuzli namoyandasi hisoblangan. Yozuvchi o‘ttiz bitta kitob yozgan, ularning har biri arab tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda klassika sifatida tan olingan. Yuzga yaqin asarlar yozgan. Mixoil Nuayme – mumtoz rus adabiyotining ta’sirida bo‘lgan kam sonli muhojir arab yozuvchilaridan biri edi

Asosiy qism. Mixail Nuayme rus, arab va ingliz tillarida she’rlar yozdi. Keyin Nyu-Yorkda Jubron Xalil Jubron va boshqa sakkiz yozuvchi bilan birlashib, arab adabiyotini qayta tiklash harakati – “Qalam uyushmasi”ni tashkil qilishdi. Jubron Xalil Jubron uning rahbari, Nuayme esa kotibi etib saylandi. 1932-yilda 21 yil shtatlarda yashab, Nuayme Baskintaga qaytib keldi va u yerda umrining oxirigacha yashadi. U 1988-yil 28-fevralda Bayrutda 98 yoshida vafot etdi. Tasavvufchi Osho “Mirdod kitobi” haqida shunday degan edi:

“*Dunyoda millionlab kitoblar bor, lekin “Mirdod kitobi” mavjud bo‘lgan barcha kitoblardan ancha ustundir.*[1]

Nuayme arab dunyosining eng nufuzli mutafakkirlaridan biri bo‘lib, Sharqning G‘arb sivilizatsiyasiga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyalari katta ahamiyatga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Nuayme g‘arb sivilizatsiyasi inson qalbini buzmoqda, uning hayotga bo‘lgan materialistik munosabatini qoralash va Sharq bunday sivilizatsiyani qabul

[1] Ostle,R.C. Badawi, Muhammad (ed.). Modern Arab Literature. L.Cambridge University Issue-1992, P- 100.

qilishdan qochish kerak, degan g‘oyani targ‘ib qiladi. G‘arb va Sharq madaniyati bilan teng ravishda tanish bo‘lgan mutafakkirning bu qarashlari uning qarashlarining ahamiyatini oshiradi, chunki ular arab dunyosidagi ko‘plab yoshlarga ta’sir ko‘rsatadi. Dinga oid qarashlaridan tashqari, Nuayme adabiyotga yangi tushunchalarni kiritgan ilk kashshoflardan biridir. Uning adabiyotning mazmuni va maqsadlari haqidagi qarashlari arab dunyosi adabiy tafakkurida inqilob bo‘ldi, buni zamonaviy arab adabiyoti rivoji bilan qiziquvchi olimlar ham e’tirof etadilar. Nuaymening “Akobir”, “Abu Batta” kabi arabcha va “The book of Mirdad” deb nomlangan inglizcha asarlari ham boshqa betakror kitoblari bilan bir qatorda juda mashhur.[1]

Mixail Nuayme bir necha jihatdan noyob arab yozuvchisidir: Livan va Falastindagi rus maktablarida, keyinroq esa Chor Rossiyasidagi rus maktablarida tahsil olgani tufayli u rus tili va adabiyotini shu qadar yaxshi bilganki, u shu tilda bemalol she’r yoza olgan. Nuayme arab adabiyotiga birinchilardan bo‘lib realistik hikoyalarni olib kirdi. Rus adabiyoti namoyandalarining ta’sirida yozilgan bu hikoyalarda negadir rus adiblari asarlarining nafasi ufurib turadi. Hikoyalarda Tolstoyning hur fikrlari, Chexovning qisqa so‘zda ko‘p ma’no singdirish xususiyatlari jamlangan. Adib asarlari tili bilan tanishar ekanmiz beixtiyor atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning yozuv uslubi yodimizga keladi. Boisi Nuayme ham so‘zga xasis, u ham so‘zni “…tonnalab olib, grammlab sotadi”[2] Shu sabab bu hikoyalarni o‘qib, o‘zbek hikoyalari bilan orasida qanday o‘xshashlik va farqlar mavjudligini izlashga tushamiz. Ayniqsa, o‘zbeklar tomonidan, balki butun dunyo kitob ixlosmandlari tomonidan birdek sevib mutolaa qilinadigan “Oliylar” hikoyasi har jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi.

Mohir hikoyanavis, yozuvchi va o‘zbek adabiyotning atoqli namoyandasi Abdulda Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo‘qonning Ko‘mir bozori mahallasida temirchi oilasida tug‘ildi. Yozuvchi bu haqda o‘z tarjimai holida shunday yozgan: “Men 1907-yil kuzda, chorshanba kuni 17- sentyabrda Qo‘qonning Ko‘mir bozori mahallasida tug‘ilganman. Otam temirchi edi”.[3] Uning bolaligi Qo‘qon atrofidagi Yayfan, Qudash, Buvayda, Olqor, Oqqo‘rg‘on singari qishloqlarda o‘tadi. Abdulla, dastlab, Buvaydadagi eski maktabda o‘qiydi, keyin Oqqo‘rg‘ondagi jadid maktabida, Qo‘qondagi internatda, 1922-24-yillar mobaynida esa Qo‘qonda ochilgan o‘qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil oladi. U 1926-yilda

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Mixail_Nuayme

[2] Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor: – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012. – 200b.

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

SamDU ning tayyorlov fakultetini bitiradi va 1930-yilga qadar O‘rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida o‘qiydi. Umri davomida barakali ijod qildi, “Qizil O‘zbekiston”, “Mushtum”, xotin-qizlar gazetasi “Yangi yo‘l”da “Nish”, “Norin Shilpiq”, “Mavlono Kufur”, “Guluyor”, “Erkaboy”, “E-boy” imzolari bilan qatnashib turgan. Chexovni o‘ziga ustoz deb bilgan. Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda Moskvada vafot etgan.

Nuayme va Qahhorning ijodidagi hamohanglik har ikkala yozuvchining ham rus adabiyoti namoyandalari asarlaridan bahramand bo‘lganligidadir. Hikoyalar mavzu va badiiylik jihatdan bir-biriga mos tushadigan o‘rinlar juda ko‘p. Ayniqsa, Nuaymening o‘zbeklar tomonidan, balki butun dunyo kitob ixlosmandlari tomonidan birdek sevib mutolaa qilinadigan “Oliylar” hikoyasi har jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi. Asar Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasining mantiqiy davomi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Adabiyotshunoslarning-da e’tirofiga sazovor bo‘lgan hikoyaning ham tili, ham kompozitsion qurilishi juda soda va barchaga birdek yetib bora oladigan darajada yozilgan. Muallif tili asosiy o‘rin egallaydigan hikoyada kichik detallar va so‘zlar orqali nafaqat qahramonlar xarakteri, balki butun jamiyatdagi muammolar ochib berilgan. “O‘g‘ri” hikoyasida esa o‘zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi berilgan. Unga “Otning o‘limi itning bayrami” maqoli epigraf qilib olingan. “Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish uy bo‘la oladi, ammo ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi” – kabi misralar shu hikoyadan olingan. “O‘g‘ri” hikoyasida “Begim deguncha belim sinadi”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz”, “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan” kabi maqollar qo‘llangan. “Oliylar” hikoyasida ham xuddi shu maqollar mazmunidagi voqealarga duch kelamiz: Rashidning otasi va onasi kelayotgan yangi xo‘jayinning oldiga tushlikka tortadigan narsasi yo‘qligidan aziyat chekadi:

“*Yangi xo‘jayin, huquqshunos, “oliy” odamlar kabi poytaxtda yashaydi. Uning xotinining oilasi ham “oliy” odamlardan edi. Axir ular “oliylar”, shubhasiz, faqat qoshiq va sanchqilardan foydalanib chinni idishlarda tanavvul qilishadi.*[1]”

Rashidning otasi va Rashidning onasida hech nima yoq edi. Ularda hatto haqiqiy stol ham yo‘q. Bir qancha temir likopcha, sopol xum, bir juft yog‘och qoshiq va xontaxtadan boshqa hech vaqosiz edi ular. Shunday holatda ham ular bor-budini muhayyo qilishga harakat qiladi. Uchta bolasini yerga berib

[1] Nuayme.M. Oliylar. Hikoya. B-1

yuragi kuygan ona oxirgi farzandini xafa qilgisi, shu sabab ham uning sevimli echkisi va xo‘rozini qurbon qilgisi kelmaydi. Birdan bir tovug‘idan taom tayyorlash ham qimmatga tushgan oilaning hurmatini o‘rniga qo‘yish o‘rniga xo‘jayin uyga kirishni ham o‘ziga ep ko‘rmaydi. Qizining ra’yiga qarab, Rashidning yakka-yu yagona echkisi va xo‘rozini olib ketadi. Bir kambag‘al oila farzandi uchun bundan ortiq fojia bormi? Johil xo‘jayin ularning ahvolini hisobga olib ijara pulini kamaytirish o‘rniga ilgarigi besh oylik qarzlarini to‘lashni buyuradi. Mana jamiyatimizdagi boylarning bugungi ahvoli qay holga kelib qoldi! Razil kimsalar tufayli bugun oramizdan mehr, muruvvat tuyg‘ulari yo‘qolib bormoqda. “O‘g‘ri” hikoyasida ham Qobil bobo ana shunday jaholatning qurbonlaridan biriga aylanadi. Bor yo‘g‘i birgina ho‘kiz bo‘lgan bir bechora kishi hayot manbaidan ayrilib qolsa-yu zolim amaldorlar shundan ham o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga harakat qilsa-ya? Insoniylik qayerda qoldi-yu, himmatning harir libosi qayerlarga uloqtirildiykin?! Ikkala asar ham go‘zal badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanilgan, syujet ipiga bir tekisda terilgan holatda yozilgan. Qizig‘i shundaki, ikkala asarning ham kulminatsion nuqtasi bu hikoya qahramonlarining muammolar girdobiga yanada chuqurroq sho‘ng‘ib ketishi va zolimlarning qilmishlari boisidan tobora qashshoqlashib borishlaridir. Bu hikoyalarning dunyoga kelish sabablari ham shulardir aslida, ya’ni ijodkorlar hikoyalarining mazmun-mohiyatini ma’naviy fazilatlarimiz bayoniga bag‘ishlar ekanlar, bu nodir tuyg‘ularimiz yo‘qolishining ayanchli oqibatlariga hayotiy misollarni berib o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mixail Nuayme va Abdulla Qahhor o‘z millatining ijtimoiy hayotida yo‘qolib borayotgan muammolarni bir hikoyada madhiya misol kuylab chiqdi. Zero, har bir yosh avlod makon va zamon tanlamas xislatlarni unutmasin deya bitilgan bu mangu qo‘shiqlar qalblarimizda mangu yangragay!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хўжаева Р.У. «Янги давр араб адабиёти тарихи. – Т., 2004.
2. Имангулиева А.Н. “Ассоциация пера” и Михаил Нуайме-М.: Наука, 1975.
3. Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor.: – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012. – 200 b.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mixail_Nuayme

FORS SHE’RIYATINING “MALIKASI” FUROG‘ FARRUXZOD

Mushtariy MUSTAFOYEVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti
Fors-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi N.T Xodiyeva

Annotatsiya: Biz bilamizki, avvaldan, Eron bilan O‘zbekiston munosabatlari yaxshi bo‘lgan. Shuningdek, bu ikki davlat bilan aloqalarni rivojlantirish uchun ko‘plab hujjatlar imzolangan. Ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy, turizm va madaniy aloqalarni faollashtirish ko‘zda tutilmoqda. Ushbu maqolada ham Eron adabiyotiga, umuman olganda Eron she’riyatining yorqin vakilasiga to‘xtalib o‘tilgan. Bilamiz, Eron adabiyoti necha asrlarga borib taqaladi. Maqolada Fors she’riyatining malikasi Furog‘ Farruxzod ijodiga va hayotiga to‘xtalib o‘tilgan. Ko‘hna fors she’riyatining bugungi saltanati qancha buyuk bo‘lsa uning albatta bir malikasi bor. U ham bo‘lsa Furog‘ Farruxzoddir. Maqolada uning she’riyatga bo‘lgan muhabbati ijodkor sifatidagi she’rga bo‘lgan samimiyati ,hatto, oilasidan ijodni ustun qo‘yishi ajoyib tarzda ochib berilgan. Shu bois Fors she’riyatining yorqin vakilasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Eron she’riyati, borliq, vujud, Furog‘ Farruxzod, Parvez Shopur, fors adabiyoti, Alisher Navoiy, Farididdin Attor, Vorschau.

O‘zbek-Eron adabiy aloqalari ildizi fors va turkiy adabiyot o‘rtasidagi munosabatlarga borib taqaladi[1]. Umar Xayyom, Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy va Hofiz Sheroziylar she’riyatining turkiy o‘lkalarda mashhur bo‘lishi ikki qutb adabiyotining shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Alisher Navoiyning Farididdin Attorning ijodiga bo‘lgan hurmati ikki adabiyot do‘stligining yorqin namunasi ekanligini shundan bilishimiz mumkin. Bilamizki, Alisher Navoiy “Mantiq ut-tayr”ni yod olgan, uning taassurotlari bir umr onggida, yuragi tubida saqlab yurgan Navoiy umri poyonida u asarga javob, tazmin tarzida “Lison ut-tayr” asarini yozgan. O‘zbekistonda tarjima borasida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Eron adabiyotida qilingan so‘nggi tarjimalar qatorida Ali Muhammad Afgoniyning “Ohu xonimning eri” romanini, Ehson Tabariy, Nodir Nodirpur, Salmon Hirotiy, Furog‘ Farruxzod, Qaysar Aminpur, Samad Behrangiy she’rlarini, Sodiq Hidoyat, Faridun Amuzoda Xaliliy, Faridun Tonkaboniy, Xusrav Shohoniy,

[1] Правда востока Yangi O‘zbekiston

Hushang Murodiy, Kermoniy hikoyalarini koʻrsatish mumkin .Hattoki bu tarjimalar “Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan.

Eron adabiyotining sheʼriyatini Furogʻ Farruxzod sheʼrlarisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. XX asr jahon sheʼriyatining yetuk vakillaridan biri hisoblanadi. Bu barkamol inson sanʼat, goʻzallik, ishq-u, mehribonlik shaydosi edi. Qisqa umri davomida bir lahza ham adabiyot va sanʼat dunyosidan ayrilmadi. Uning isyonli ijodi va jozibali siymosi jahon tavajjuhini unga qaratdi. Uning sheʼrlari va filmlari dunyoga tanildi. Unga boʻlgan eʼtibor shunday yuksak ediki, birgina 1965-yili uning hayoti haqida ikki film yaratildi. Bularning biri YUNESKO tomonidan yaratilgan yarim soatli va ikkinchisi taniqli italyan kinorejissiyori Bernardo Bertoloji suratga olgan 15 minutlik shoira va sanʼatkor hayoti haqida filmlardir. Furogʻ Farruxzod 1935-yil 5- yanvarda Tehron shahrida dunyoga keldi. Otasining kattagina kutubxonasi bor edi. Shu sababdan Furogʻ kichikligidayoq kitob bilan tanishdi, kitoblar orasida yashab ulgʻaydi. U sheʼr kitoblarini koʻproq oʻqib yodlar edi, shuning uchun koʻp oʻtmay ilhom parisi uning huzuriga keldi. Furogʻ 13-14 yoshidanoq sheʼr yoza boshladi. Uning “Asir” nomli birinchi sheʼriy toʻplami 1952- yilda, yaʼni 17 yoshida nashr etildi. Shu yili uning “Gunoh qildim, toʻliq lazzat gunohi” nomli sheʼri bir jurnalda bosilib, ancha shov-shuvlarga oilaviy janjallarga sabab boʻldi. 1957-yili “Devor” nomli ikkinchi sheʼriy toʻplami bosilib chiqdi. Bu toʻplamdagi sheʼrlar uning boy tajribalarga erishganidan, sheʼrning yangi choʻqqilarini zabt etganidan xabar bersa-da, mazmun jihatdan “Asir” toʻplamining davomi edi. Bu barkamol inson sanʼat, goʻzallik, ishq-u mehribonlik shaydosi edi. Shuning uchun sheʼrdan tashqari kinoda prodyuserlik, montaj va ovoz berish sohalarida ham ishladi, film (kino) va teatrda muvaffaqiyatli rollar ijro etdi, bir zum ham ijoddan, mehnatdan tinmadi. U 1958-yilda “Bir olov” nomli qisqa metrajli hujjatli filmini montaj qildi. Bu film 1962- yilda Italiyada qisqa va hujjatli filmlarning 12- festivalida oltin medalga sazovor boʻldi.[1] Ammo uning ajoyib va mangu ishi moxovlar hayoti-yu orzulari haqida yaratgan “Uy qoradir” nomli qisqa metrajli hujjatli filmidir. Bu film 1963- yili Germaniyada “Eng yaxshi hujjatli film” mukofotini oldi. Filmning taʼsiri shuncha kuchli ediki, dunyoning nufuzli festivallaridan biri “Vorschau” 14- festivali oʻzining eng katta mukofotini shoir soʻzini “Uy qoradir” filmining soʻzlaridan tanlab qoʻydi. Shoira 1964-yili 30 yosh arafasida “Qayta tugʻilish” sheʼriy toʻplamini nashr ettirdi. Bu toʻplamdagi sheʼrlar haqiqatan ham shoirning sheʼr dunyosida qayta tugʻilganidan, insoniy barkamolligi-yu sanʼatdagi takomilidan dalolat berardi. Ammo u, har bir

[1] Https//n.kh-davron-uz

haqiqiy shoirdek, shunday ulkan yutuqlardan hali ham qoniqmagan edi. U yoshligidan she’r kitoblardan ko‘proq o‘qib yodlardi. U suhbatlaridan birida bunday degan edi.

“Har kuni 2-3 g‘azal yozardim. Oshxonadami, tikuv mashinasi ustidami, bari bir edi. Bu she’rlarni e’lon qilmaganman va haligacha ular she’r edimi yuqmi, bilmayman, ammo shuni bilamanki, ular juda sodda va samimiy edi. Men u paytda o‘z tilim, uslubim va dunyoqarashimni topmagan edim”. Furog‘ 16 yoshda institutni bitirib ishga kirmagan, o‘zidan 15 yosh katta bo‘lgan Parvez Shopurga turmushga chiqdi. Ular turmush qurganda bir nikoh ko‘ylagini sotib olishga qodir emasdilar. Furog‘ ayollar san’at kollejining tikuvchilik va rassomlik bo‘limini tugatdi. Hayot qiyinchiliklari sababli otasining uyida yashab yurardi. Vaziyat taqozosi bilan otasining uyidan chiqib, bir xona ijara olishga majbur bo‘ldi. O‘shanda bosh qo‘yish uchun bir yostig‘i ham yuq edi. Shuningdek, ishi ham, puli ham. Do‘stlar oraga tushib, otasini o‘z uyidan asbob – anjomsiz, bo‘sh bir xona berishga ko‘ndirdilar, qolgan eng kerakli ro‘zg‘or buyumlarini o‘zlari sovg‘a qildilar. Furog‘ shu zamonda xudbin, ikki yuzli odamlardan ranjib, hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan edi. Furog‘ 1953- yili eri Parvez Shopur bilan yangi hayot boshlash maqsadida Ahvoz shahriga ko‘chib ketdi, ammo ko‘p turolmay qaytib keldi, chunki ular orasidagi tushunmovchiliklar nizolar shunchalik jiddiylashib ketgan ediki, Komyor nomli o‘g‘lining tug‘ilishi ularni yarashtira olmadi. Bu janjallardan qattiq charchagan shoira bir muddat ruhiy kasalxonada ham yotib chiqdi. Kasalxonadan chiqqandan keyin ham ko‘p vaqtgacha sog‘lig‘i ko‘ngildagidek emas edi. Furog‘ va Shopur ikki qarama – qarshi dunyo edilar. Furog‘ hissiyotga berilgan, tinimsiz, telba bo‘lsa, Shopur mantiqiy, hisob- kitobli, oddiy erkak edi. Oxiri bu ikki dunyo kelisha olmay, 1955-yili ajrashdilar. Furog‘ erini sevar, ammo she’rini ko‘proq yaxshi ko‘rar edi. Furog‘ she’rni deb, eri-yu bolasidan ayrilgan edi. Endi she’r uning do‘sti, jufti, yarmini butun qiladigan qism edi. U bir suhbatida “Ikki odamning o‘zaro aloqasi hech qachon, ayniqsa, hozirgi zamonda, mukammal emas, ammo she’r menga shunday bir do‘stki, unga yetganimda u bilan dardlasha olaman, u shunday bir juftki, meni to‘ldira oladi… ba’zi odamlar o‘z kamchiliklarini boshqa odamga sig‘inish bilan to‘ldirmoqchi bo‘ladilar, ammo hech qachon to‘ldira olmaydilar. Agar to‘ldirsa edi, shu aloqaning o‘zi dunyo-yu borliqning eng ulug‘ she’ri bo‘la olmasmidi” She’r Furog‘ uchun bir derazaga aylandi. U deraza orqali “borliq” bilan bog‘landi. O‘zi bunday degan edi. “She’r men uchun bir derazadir. Qachonki, u tomonga borsam, o‘zidan o‘zi ochiladi. Men u yerda o‘ltiraman, qarayman, yig‘layman, kuylayman, shovqin ko‘taraman

daraxtlar tasviri bilan qo‘shilib ketaman va bilamanki, derazaning narigi tomonida bir fazo bor , biron odam bor – bu odam 200- yildan keyinmi yo 300 yil oldinmi tug‘ilgan, buning farqi yuq. She’r “borliq” va “vujud” bilan bog‘lanish vositasidir. Yaxshiligi shundaki, odam she’r yozganda, men ham borman, yo men bor edim, deyish mumkin. Men o‘z she’rimda bir narsani izlayman, aksincha , o‘z she’rimda o‘zimni topaman”. 1959- yilda Furog‘ga Italiyaga safar qilish imkoniga muyassar bo‘ldi. Shoira u yerdagi hayotni ko‘rib, bu yerdagi insonlarning qanchalik haqirligini va yutuq-kamchiliklarini bilib oldi. Safardan qaytgach, o‘zini butunlay o‘z she’ri-yu san’atiga bag‘ishladi. Furog‘ning kundan- kunga oshib borayotgan shuhrati, ongi, iste’dodi, hayotga-yu, odamlarga bo‘lgan munosabati ham hasadchilar va an’anaparast shoirlar-u tanqidchilar sonini orttirdi, ammo, u bu qarshiliklar-u, yaxshi- yomon gaplarga e’tibor bermay, o‘z yo‘lini davom ettirdi. Hayot qiyinchiliklari, turli azoblar qurshovida yashagan. Furog‘ 1967- yili 13- fevral kuni avtomobil halokatidan vafot etdi.[1] Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, umr bergan qiyinchiliklar, sarson –sargardonlik, farzand sog‘inchi uni irodasini buka olmadi. U faqat ijodni sevdi, she’rga bo‘lgan muhabbat uni bir zum bo‘lsa ham tark etmadi. Shoira ijodida samimiylik, ezgulik ishq –muhabbat uf urib turardi. Fors she’riyatining bugungi saltanati qancha ulkan bo‘lmasin, uning bir shavkatli malikasi bor. Uni hamma taniydi, hamma sevadi, hamma hurmat qiladi. Bu malika foniy dunyoni tark etgani yo‘q, balki oldingidan ham shavkatliroq, saltanatga erishdi. Fors she’riyatining bu go‘zal malikasi Furog‘ Farruxzoddir. O‘zining o‘lmas asarlari bilan kitobxonlar qalbida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Правда востока “Yangi O‘zbekiston” 2023
2. Https//n.kh-davron. uz
3. Furog‘ Farruxzod. “She’rlar”. Odil Ikromov

[1] Furog‘ Farruxzod. She’rlar. Odil Ikromov tarjimalari

O‘ZBEK TILIDAN XITOY TILIGA SHE’RLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI (IQBOL MIRZO SHE’RLARI MISOLIDA. QIYOSIY TAHLIL)

Salima RAYIMQULOVA
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Xitoy- Ingliz filologiyasi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: DSc., prof.v.b. S.A.Hashimova

Annotatsiya: mazkur maqolada poetik tarjima hamda o‘zbek tilidan xitoy tiliga she’rlarni tarjima qilish xususiyatlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, poetika, she’riy tarjima, tarjima nazariyasi, tarjimonlik mahorati.

O‘zbek tilidan xitoy tiliga she’r tarjima qilishda tarjimon avvalo o‘zining qiziqishi va mavzusini tekshirib ko‘rishi, so‘ngra o‘z manfaati, shijoati va uslubiga teng bo‘lgan shoirni topishi kerak. Ma’lum ma’noda she’rni tarjima qilish she’r yaratishdir demakdir. Dastlab, tarjimon muallif bilan yaqinroq tanishadi, unga yaqinlashadi, sevadi, fikr, nutq, uslub va ruh jihatidan muallifga mos keladi, shundagina uni yanada yaxshiroq his etishi va asralarini tarjima qilishi mumkin. Shu bilan birga, tarjimon o‘zini shoir roliga kirishga majbur qilishi, shoirning hissiyot olamiga kirishi, shoir his-tuyg‘ularini qadrlashi lozim. Tarjima jarayonida she’riyatdagi obrazlilikka alohida e’tibor bilan yondashish kerak. Odamlar she’r o‘qiyotganda, bir tomondan, tushunish uchun miyasini ishga solsa, ikkinchi tomondan, o‘tmish tajribasidan kelib chiqib his qilish uchun yurakdan foydalanishi kerak. She’r tasviri bunda aql va sezgirlik majmuasini taqdim etadi. Obrazning asosiy vazifalaridan biri his-tuyg‘ularni uyg‘otish va assotsiatsiyalar hosil qilish bo‘lganligi sababli, tarjimon she’rni tarjima qilishda avvalo asl she’rdagi obrazni qadrlashi va ushlashi, so‘ngra asl obrazning kishanlarini chetga surib, unga mos so‘zlarni izlashi kerak. Chunki o‘zbek tilida biror bir ramz yoki timsol she’rda ishlatilsa, uni xitoy tiliga tarjima qilishda ikki millat madaniyatiga ham bevosita nazar solishga to‘g‘ri keladi, chunki mazmun mohiyatning o‘zgarmasligini tarjimon ta’minlay olishi lozim. Masalan, ajdaho o‘zbek madaniyatida va asarlarida yovuzlik, dahshatni anglatadi, biroq tarjimon uni xitoy tiliga tarjima qilish jarayonida o‘z mahoratidan shunday foydalanishi kerakki, tarjimadan so‘ng kitobxon yanglish fikrga ega bo‘lib qolmasligi kerak. Shuningdek, tarjimon mazmundagi muvozanat uslubiga ham e’tibor qaratishi lozim. Bunda tarjimon, avvalo, asl asarni yaxshilab tushunib, uslubini aniqlab olishi kerak. Asl matn oddiymi yoki murakkabmi, ohangi baland yoki past ovozlimi,

to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki xushmuomala va yashirin bo‘ladimi, barchasini diqqat bilan tushunish kerak. Uslub noto‘g‘ri tushunilsa, she’r tarjimasi anchayin o‘zgarib ketadi. Shu bilan birga, ma’noni yetkazish va tarjima qilishda, so‘zlarni tanlashda alohida so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosining mos kelishiga emas, balki umumiy ma’noga e’tibor qaratish lozim. Ya’ni, asl muallifning ma’nosini yetkazish uchun tarjimon o‘z tilidagi so‘zlarni tanlashda asl so‘zlar bilan cheklanmasligi kerak, balki asl so‘zlar unda uyg‘otishi mumkin bo‘lgan assotsiatsiyalarga asoslanishi lozim. Bir xil ta’sir uyg‘otadigan so‘zlarni tanlashda sezgirlik ham talab etiladi. Lin Huangtian shunday degan: “Bir tilda go‘zal bo‘lgan narsa boshqa tilda qo‘pol, xunuk yoki hatto ma’nosiz bo‘lishi mumkin, shuning uchun tarjimon tarjima uchun so‘zlarni diqqat bilan tanlashi kerak. Noto‘g‘ri so‘z tanlash, asl chiroyli kiyimlarning yorqinligini yo‘qotadi va natijada u xunuk bo‘lib qoladi”.[1]

She’r tarjimasi murakkab, bu tarjima sohasida ko‘plab muzokaralarga sabab bo‘lgan. Bu muammolar asosan tarjimonning saviyasi hamda asl matn tili bilan ham bog‘liqdir. Shuning uchun oddiy tarjimonlar uchun xitoy tilidan chet el tiliga yoki chet eldan xitoy tiliga tarjima qilish juda qiyin. Xitoyning zamonaviy shoiri va tilshunosi Chjou Yirong bir marta shunday degan edi: “She’r tarjimasi qiyin, qiyinchilik esa asl she’rlarni tushunish, tarjima qilingan she’rlarni qo‘llash, shakl va mazmunning dialektik birligiga qanday erishishdadir. Bu tarjima muammosini hal qilish uchun nafaqat tegishli bilimlarni, balki ma’lum miqdordagi alohida tajribani ham talab qiladi”[2]. U she’rlarni tarjima qilishdagi qiyinchilikning asosiy sabablarini ko‘rsatib, bu muammoning asosiy yechimini berdi.

She’riyat adabiyotdagi eng yorqin marvariddir, she’r tarjimasi esa mintaqadan tashqarida turli xil madaniyatlarni yetkazish uchun ko‘prikdir. Shoir o‘z his-tuyg‘ularini adabiy janrlar ichida eng ixcham bo‘lgan tilning nafis qo‘llanishi orqali ifodalaydi. She’r tarjimasi uchun adabiy-tarjimonlar doirasida hamisha ikki ovoz bo‘lgan: tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan. Amerikalik shoir Robert Frostning mulohazasi esa hatto klassik ibora sifatida keltirilgan: “She’riyat – tarjimada yo‘qolgan narsadir.” Uning nuqtai nazari asl matnga asoslanib, shunday deb ishoniladi: she’r turli tillarga aylansa, u nimanidir yo‘qotishi muqarrar.[3]

Iqbol Mirzo ijodiga nazar tashlasak, shubhasiz, biz uni “Vatan madhi kuychisi” deb atay olamiz. Binobarin, uning she’rlaridagi ona yurt, jonajon o‘lka, jannatmakon go‘sha tasvirlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Iqbol

[1]张今.文学翻译原理[M].开封: 河南大学出版社, 1987.

[2]张今.文学翻译原理[M].开封: 河南大学出版社, 1987.

[3] Barry, E. Robert Frost on Writing. New Brunswick, N.J: Rutgers University 1973.

Mirzoning ijod namunalarini xitoy tiliga tarjima qilish bilan bir oʻrinda oʻzbek xalqining el-yurtga sadoqati, muhabbati va qalbidagi nolalarini ham boshqa tilda soʻzlashuvchi xalq kitobxonlari eʼtiboriga havola qilish mumkin. Shu oʻrinda shoirning “Vatan” “家园” (Jiāyuán) sheʼrining xitoy tiliga tarjimasi va tahliliga toʻxtalib oʻtsak.

Qayda jon topsang, abad joning anda,
Toʻrgʻay dashtda kuylar, bulbul – chamanda.
Men seningman, sen mening ruh-u tanda,
Vatan koʻngildadir, koʻngil vatanda.

在你找到灵魂的地方，它将永远屹立,

云雀在草原上歌唱，夜莺在草原上歌唱。

我属于你，我的灵魂和身体都由你支配，

家乡在心中，心在家乡。

(Zàinǐ zhǎodàolínghúndì dìfāng, tā jiāngyǒngyuǎnyìlì,
Yúnquè zàicǎoyuánshànggēchàng, yèyīngzàicǎoyuánshànggēchàng.
Wǒ shǔyú nǐ, wǒ delínghúnhé shēntǐ dōuyóunǐ zhīpèi,
Jiāxiāngzàixīnzhōng, xīnzàijiāxiāng.)

Ikkinchi misradagi toʻrgʻay nomli qush sozini xitoy tiliga oʻgirish vaqtida “云雀” (yúnquè), yaʼni, Alauda (Lark) qushi nomi ekvivalent sifatida keltirilgan, bulbul oʻrnida esa“夜莺” (yèyīng) soʻzi qoʻllanilgan.

Sheʼrning uchinchi misrasidagi “我属于你” (Wǒshǔyú nǐ), yaʼni, “men seningman” va “我的灵魂和身体都由你支配” (wǒ delínghúnhé shēntǐ dōuyóunǐ zhīpèi) – “sen mening ruhu tanda” jumlalarida shoir oʻzini Vataniga va Vatanini oʻz qalbi vataniga singib ketganligi haqida soʻz yuritadi. Ushbu jumlalar bilan qalbi qaynoq shoirning oʻz yurti bilan naqadar yaqin ekanligi, hatto u bilan jisman birlashganligini oʻquvchiga yetkazib berishga harakat qiladi.

Har bir bandning toʻrtinchi misrasida radif oʻrnida “Vatan koʻngildadir, koʻngli l vatanda jumlasi” – “家乡在心中，心在家乡” (Jiāxiāngzàixīnzhōng, xīnzàijiāxiāng) keltirilgan. Bu bilan shoir koʻngil va Vatan oʻrtasida masofa yoʻqligiga ular uzviy bogʻliqligiga ishora qiladi.

Asrlar mobaynida sheʼrlar tarjimasi oʻzining murakkabligi boʻlib kelgan. Natijada koʻplab yaxshi sheʼrlarni oʻrganish uchun tarjimasi yoʻq boʻlgan, shu tarzda tarjima va adabiyot sohasida boʻshliq paydo boʻlib qoladi.[1] Sheʼr

[1] Benjamin, W. The Task of the Translator. New York: Harcourt, Brace & World. 1923.

tarjimasi asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi, shuning uchun tarjimon tarjima faoliyatining asosiy omili bo‘lib, tarjima jarayonida muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun tarjimon tarjima qilingan matnning sifatini katta darajada aniqlab beradi. Shu tufayli tarjimon o‘z pozitsiyasini bilishi, tegishli tarjima strategiyasini tanlab olishi va kerakli vaqtda tarjimonning sub’ektivligini to‘liq o‘ynashi lozim. Tarjimon asl she’rning obrazliligini saqlab qolish bilan bir paytda, asarni tushunish asosida o‘zining subyektiv qayta ijodini ham qo‘shadi. Bu vaqtda she’r diaxronik talqindan o‘tadi, bu esa asar va o‘quvchilar o‘rtasidagi aloqani yanada yaxshilashga xizmat qiladi hamda bu orqali o‘quvchilarning estetika va she’riyatga bo‘lgan bahosini oshiradi.

Barchamizga ma’lumki, she’r tarjimasi shoirning asl she’rning semantikasini, grammatikasini va unga bog‘liq bo‘lgan boshqa mazmunini tushungan holdagina tarjima qilishi mumkin, bu esa tarjimon uchun juda murakkab bo‘lib, madaniyat va til farqlari she’riyat qiyinligini yanada oshiradi. Tarjimonning she’rlarni semantikasi va grammatikasini to‘g‘ri tarjima qila olmasligi tarjima samaradorligini pasaytiradi va bunga uzoq vaqt oladi. Uzoq muddatli she’r tarjimasi va noaniqlik muammolarini hisobga olib, oxirgi yillarda sun’iy intellektning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, ba’zi texnologiya kompaniyalari she’r tarjimasi muammolarini hal qilish uchun mashina tarjimasi texnologiyasini ishga solishga harakat qilishdi. Ammo mashina tarjimasi aslida semantik o‘xshashlikni, she’r tarjimasi esa semantik korrelyatsiyani hisobga oladi. Bundan kelib chiqib, bu sohada hali ko‘p ish qilish kerak, hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan ko‘plab masalalar, jumladan, tabiiy tilni qayta ishlash va she’r tarjimasini qiyinchiliklarini bartaraf etish muammolari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotel. Poetika. G‘. G‘ulom adabiyot va san’at nashriyoti. T. 1980
2. L.M. Kissel. Gyote va G‘arb va Sharq devon. M.,1973
3. Anvar Hojiahmedov. She’r san’atlarini bilasizmi. Tosh. Sharq nashriyoti. 2001.
4. Sharipov J. Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar. Tosh. 1972.
5. 毛荣贵.翻译美学[M].上海：上海交通大学出版社，2005.
6. 刘宓庆.翻译美学导论[M].北京：中国对外翻译出版公司，2005.
7. 张今.文学翻译原理[M].开封: 河南大学出版社, 1987.
8. Barry, E. Robert Frost on Writing. New Brunswick, N.J: Rutgers University 1973.

XITOY ERTAKLARIDA EPIK ZAMON VA REAL VAQTNING BERILISHI

Dilafruz SAYDAXMEDOVA
Xitoyshunoslik fakulteti, 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. v.b. J.T. Ziyamuxamedov

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy ertaklarida epik zamon va real vaqtning berilishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada ertaklardagi epik zamonning ayrim xarakterli xususiyatlari, uning real vaqt bilan farqli jihatlari, ertak boshlanmasida epik zamonning kelish xususiyatlari va o‘ziga xosligi misollar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Epik zamon, real vaqt, ifodalangan epik zamon, ifodalanmagan epik zamon, ertak boshlanmasi.

Makon va zamon o‘zaro uzviy bog‘liqlikka ega bo‘lgan hodisalardir. Ertaklardagi barcha syujet voqealari ana shu makon va zamon doirasida sodir bo‘ladi. Har bir harakat va holat epik makonda yuzaga kelib, ma’lum zamon ichida kechadi, rivojlanadi va yechim nuqtasini topadi. “Boshqacha qilib aytganda, makon konsepsiyasi vaqt konsepsiyasi bilan o‘zaro yaxlitlikni tashkil qiladi.”[1]

Bu mavzuni tahlil qilish ertaklarning g‘oyaviy-badiiy jihatini yoritish, xalq tarixi, ijodiy salohiyati, badiiy tafakkuri, bilim va dunyoqarash doirasini o‘rganishga ham yordam beradi.

Makon va zamon o‘lchovlarining har bir tafsiloti ertaklarda muhim o‘rin tutib, syujet davomida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular zamonning siqiq va yoziqligi, makon va masofaning uzoq yoki yaqinligini tasniflaydi. Zamon va makon xususiyatlarining ana shu xususiyatlari, syujet chizig’ida tutgan o‘rni, funksiyalari xilma-xildir. Shu sabab bu masalalarni poetik hodisa sifatida har tomonlama o‘rganish, yechimlarini topish, nazariy asoslarini belgilash kerak bo‘ladi.[2]

Ertaklarda zamon ikki turda beriladi: epik zamon va real vaqt. Xo‘sh, bu ikkisining o‘zaro qanday bog‘liqlik yoki o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?

Epik zamon bu – ertak voqealari jonlanayotgan payt bo‘lib, syujet aynan shu berilgan vaqt davomida kechadi. Ya’ni epik zamon davomida

[1] Пропп И.Я. Фольклор и действительность. Хрестоматия по истории русской фольклористики. – М.: Наука, 1976. – С. 93.
[2] K.Qodirov. O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini. F.f.n. olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya aftoreferati. T.: 2004. – 4-bet.

ertak voqealari boshlanadi, rivojlanadi, o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetadi va yakun topadi. Mana shu davrni biz epik zamon deb ataymiz. Ertak uchun ajratilgan epik zamon shartlilikka asoslangan bo‘lib syujet voqealarini bilan o‘zaro bog’liq.

Ertaklarda syujetga ajratilgan zamon doirasida ikki xil vaqtni ko‘rishimiz mumkin: real vaqt va epik zamon. Epik zamon real vaqt kabi chegarasiz emas. Uning chegarasi syujet voqealari doirasiga tengdir. “Syujet voqealari nihoyasiga yetishi bilan ertak vaqti ham nihoyasiga yetadi.”[1]

Real vaqt esa ertakchi uchun ajratilgan vaqtni bildiradi. Ertakchi ertak voqealarini to‘xtatib, boshqa epik zamonga o‘tish vaqtidir. Lekin bunday holatni biz xitoy ertaklarida kuzatmaymiz. Ammo real vaqt yana ertakni xulosalash paytida ham ishlatiladi. Bu ko‘rinishdagi xitoy ertaklari yetarlichadir.

Masalan: “O‘sha paytdan so‘ng mahalliy aholi har o‘n ikkinchi oyning sakkizinchi kunida, har bir oilada past olovda bir qozon bolalar yeyishi uchun aralashma bo‘tqa pishiriladi, ularga saboq bo‘lishi uchun aralashma bo‘tqa haqidagi ertak aytib beriladi. Bu ko‘rinish, birdan o‘nga, o‘ndan yuzga, borgan sari uzoqqa; otadan o‘g‘ilga, o‘g‘ildan nevaraga, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Davomiylik hozirgacha yetib kelgan. O‘n ikkinchi oyning sakkizinchi kuni “aralashma bo‘tqa”si yeyish an’anasi shakllandi. Natijada bu bo‘tqa o‘n ikkinchi oyning sakkizinchi kunida yeyiladi, shuning uchun “Laba bo‘tqasi” deb nom olgan.” (“Laba bo‘tqasi” ertagidan)[2]

“O‘sha paytdan buyon insonlar oppoq sochli chol maxluq “Nian”ni quvgan Budda ta’limotidagi uch narsani hozirgacha, har yili Yangi yil oyida jamiki xonadonlarda qizil fonuslar ilinadi, mushakbozlik uyushtiriladi, uylarda chiroqlari yoqilib, tun bo‘yi yoniq holda kelgusi yil qarshilanadi. Bu odat borgan sari yoyilib, Xitoy xalqining katta ahamiyatga molik milliy bayrami “Xitoy Yangi yili” ga aylandi.” (“Nian” ertagidan)[3]

Shu qatorda epik zamonning real vaqt bilan tenglashuvchi holatlari ham mavjud, masalan “uch kun”, “uch yil yil” ko‘rinishida. Bu kabi aniq vaqt berilishi hayotiylikni yanada kuchaytiradi. “ Bahor o‘tib kuz kelgandi, uch yil bir lahzadek o‘tib ketgandi.” (“Chju Yingtai va Liang Shanbo” ertagidan)[4]

Epik zamonning real vaqt bilan tenglashmaydigan shakllari ham mavjud. Misol uchun, “bir zumda”, “bir lahzada”, “darrov”, “ko‘z yumib ochguncha” kabilar. Epik zamonning bu ko‘rinishlari voqealarning fantastik

[1] Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. — Л.: Наука, 1987. — С. 233.
[2]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 234 页
[3] https://zhidao.baidu.com
[4]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 51 页

ko‘lamini aniqlab, badiiy ta’sir kuchini orttiradi. Masalan, “Bir zumda juda ko‘p olovli sharlardan quyuq tutun chiqib, yetti aka-uka ko‘z oldini ham qamrab olibdi”, “Bir lahzada qirg‘oqdagi baliqlar kichik bir tog‘dek yeg’ilib qolibdi” (“Yetti aka-uka” ertagidan)[1]

Yanada tushunarli bo‘lishi maqsadida ertak boshlanmasida epik zamonning berilishini o‘zbek ertaklari bilan solishtiramiz. O‘zbek ertaklarida ertakning boshlanmasida keladigan epik zamon boshqa xitoy ertaklaridan o‘zgachaligi bilan ajralib turadi: “Bor ekan-da, yo‘q ekan, qadim zamonlarda…” o‘zbek ertaklarida qadim zamonda hikoya qilmoqchi bo‘lganlarini “bor ekan-da, yo‘q ekan” – deb bor yoki yo‘q ekanligini ikkilantirib, tinglovchida gumon uyg’otadi. Bu esa qahramonlarning bo‘lganligini inkor etadi, noaniqlikni yuzaga keltiradi.[2]

Xitoy ertaklarida esa bunday bir-birini inkor etuvchi boshlanmalarni kuzatmaymiz. Biz xitoy ertaklaridagi boshlanmada berilgan epik zamonni yoritish maqsadida “Xitoy xalq ertaklari” (“中国民间故事”)[3]nomli ellik uchta xitoy xalq ertaklari jamlangan kitobni ko‘rib chiqdik. Unga ko‘ra, Xitoy ertaklarining ko‘pchilik qismi“Ancha yillar ilgari” (“很久以前”),“Qadimda … bor ekan” (“从前有…”), “Aytishlaricha, uzoq o‘tgan zamonda” (“相传， 远古候”), ”Bir kuni” (“有一天”), ”Qadim-qadim zamonlarda” (“很久很久以前”), ”O‘tgan zamonda” (“古时候”) ko‘rinishida boshlanishini kuzatdik.

Shu qatorda aksar ertaklar ma’lum bir sulola davri(Xan sulolasi, Tang sulolasi, Qin sulolasi, Qing sulolasi kabilar) bilan ham kela olishini ko‘rishimiz mumkin: “Qin sulolasi davrida(mil.avv. 221-207) ikki oila bor bo‘lib, devorning sharqiy tomonida Meng oilasi va devorning g‘arbiy tomonida Jiang oilasi birga turar ekan. Ko‘p yillar bo‘libdiki, ular bir oila a’zolaridek yashashar ekan.” (Meng Jiangnyu ertagidan)[4]

Xitoy tarixidagi mashhur davrlar masalan, “uch shohlik davrida”, “Urishayotgan shohliklar davrida” kabi ko‘rinishda ham epik zamon beriladi. Ammo bunday sulola nomlari yoki ma’lum bir siyosiy davr yohud tarixiy shaxs nomi keltirilgani, bu qahramonning haqiqatda mavjud ekanidan yoki voqea rostdan ham shu davrda sodir bo‘lganini

[1]人生必读书：中国民间故事.长春: 吉林大学出版社, 2020. 53 页.
[2] K.Imomov, T. Mirzayev, va b.O’zbek xalq poetik ijodi. T.: 1990. – B. 183.
[3]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 244 页
[4]人生必读书：中国民间故事.长春: 吉林大学出版社, 2020. 70 页.

anglatavermasligi mumkin. Ammo o‘sha davrdagi xitoy xalqining kechmishlaridan so‘z boradi.

Yana shunday ertaklar ham borki, hech qanday epik zamonsiz keltirilgan bo‘lib, ma’lum bir tarixiy shaxs yoki umuman syujetning bosh qahramoni ta’rifi yoki frazeologik birliklar bilan ham ertaklar boshlanib ketaveradi.

“Umr – daryo kabi tez o‘tadi. Ko‘z ochib-yumguncha, ularning o‘g‘illari allaqachon 17-18 ga to‘ldi.” (“Laba bo‘tqasi” ertagidan)[1]

Epik zamon ifodalanmagan ertaklarda shakllangan epik zamonlar yordamida voqealar ikkinchi holatga ko‘chadi.

Shakllangan o‘lchovlarni ham ikki turga bo‘lamiz: siqiq va yoziq ko‘rinishda. Siqiq vaqt birliklariga “bir zumda”, “bir lahzada”, “darrov”, “ko‘z yumib ochguncha” vaqt o‘lchovlari kirsa, yoziq vaqt o‘lchovlariga “kun”, “hafta”, “oylar” kiradi. Siqiq va yoziq vaqt o‘lchovlarining syujet chizig’ida ishlatilishining o‘z o‘rni mavjud. Siqiq vaqt birliklari ertak voqealarining kulminatsion nuqtalarida qo‘llansa, yoziq shakllari voqeaning sokin, bir maromda ketayotgan vaqtida qo‘llaniladi. Har ikkisining ishtiroki ham voqeani birinchi holatdan ikkinchi holatga o‘tishi uchun zamin yaratadi.

“Ertasi kuni ertalab, tong otishi bilanoq, Chju Yingtay va uning xizmatkori erkaklarcha kiyinib, ota-onalari bilan xayrlashishdi, kitoblarini olib, xursandchilik bilan yo‘lga chiqishibdi.”(“Chju Yingtai va Liang Shanbo” ertagidan)[2]

“Oradan bir necha kun o‘tgach, qiyalikdagi yerlarni nish urgan poyonsiz ekinlar qoplabdi. Chol va yetti o‘g‘li bundan cheksiz quvonibdi.” (“Yetti aka-uka” ertagidan)

Har ikki epik zamonning yoziq berilishi voqealarni birinchi holatdan ikkinchi holatga o‘tkazayotganini ko‘rishingiz mumkin.

Epik zamon doim ham chegarasi to‘liq ko‘rsatilmaydi. “Voqea sodir bo‘layotgan noaniq zamonni ko‘rsatishi mumkin.” [3] Bunday holatlarni deyarli xitoy ertaklarining har birida kuzatishingiz mumkin. Misol uchun, “Bir kuni cho‘pon maydonni haydab yurgan ekan, keksa sigir birdan so‘zga kiribdi: “Cho‘pon, bugun bir nechta parilar yashil nilufar gulli ko‘lda cho‘milishadi, sen qizil ko‘ylakni yashirib qo‘ysang, o‘sha ko‘ylakning egasi sening xotiningga aylanadi.”(Cho‘pon yigit va to‘quvchi qiz ertagidan).[4]

[1]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 234 页

[2]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 51 页

[3] Бахтина С.Н. Время в волшебной сказке. Проблемы фольклора. — М., 1975. – С. 159

[4]立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 46 页

“Bir kuni, keksa kishi oqargan soqoliga qo‘lini tekkizib, o‘zining keksayganini o‘g’liga aytibdi: ota-ona faqatgina seni kichikligingdan ulg’aytiroladi, qariganingga qadar g’amxo‘rlik qilolmaydi” (Laba bo‘tqasi” ertagidan)

Ertaklarda bu ko‘rinishda zamonning berilishi, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanib, o‘ziga xos motivlarni yuzaga chiqaradi va badiiylikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xitoy ertaklarida real vaqt faqatgina ertakning xulosa qismidagina foydalaniladi. Ertak boshlanmasida epik zamon ikkilantirilmaydi. Ertaklar boshlanmasida “qadim zamonda” kabi birliklar bilan bir qatorda, sulola nomlari yoki mashhur tarixiy voqeliklar nomi yoki umuman qahramon tavsifi bilan ham boshlanib ketadi. Siqiq vaqt birliklari ertakning kulminatsion nuqtalarida qo‘llansa, yoziq o‘lchov birliklari voqea bir maromda ketayotgan vaqtda qo‘lib syujetning boshqa voqealikka o‘tishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Qodirov. O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini. F.f.n. olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2004. – 27 bet.
2. K. Imomov, T. Mirzayev, va b. O‘zbek xalq poetik ijodi. T.: 1990. – B. 183.
3. Пропп И.Я. Фольклор и действительность. Хрестоматия по истории русской фольклористики. – М.: Наука, 1976. – С. 93.
4. Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – Л.: Наука, 1987. – С. 233.
5. Бахтина С.Н. Время в волшебной сказке. Проблемы фольклора. – М., 1975. – С. 159
6. 人生必读书：中国民间故事.长春: 吉林大学出版社, 2020. 183 页.
7. 立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 244 页.
8. https://zhidao.baidu.com

KOREYS VA O‘ZBEK SHE’RIY JANRLARINING QIYOSI (HYANGA VA BARMOQ VAZNI JANRLARINING TAHLILI ASOSIDA)

E’zoza SHOKIRXONOVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Koreys filologiyasi kafedrasi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, G.D. Yunusova

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va o‘zbek xalqlarining ilk she’riy janrlari “Hayanga (향가)” va “Barmoq vazni” janrlarining o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari yoritib berilgan. Bu nazm turlari qadimda folklyor namunalari bo‘lib, keyinchalik she’riy janr sifatida shakllangan. Mazkur nazm namunalarida kuylangan mavzular o‘xshashligi hamda qofiyalardagi qochirimlilik kabi xususiyatlari kuzatiladi**.**

Kalit so‘zlar: Vazn, qofiya, hyanga, she’riy janr, folklor elementlari.

“She’riyat qalbning huzur-halovati, ozuqasidir. Bunday yuksak huzur, kayfiyat ko‘ngillarda olijanoblik, pastkashlikdan insonni uzoqlashtiruvchi his-tuyg‘ular uyg‘otadi, ruhan yuksaltiradi”[1].

Nazm bog‘ida sayr qilib ko‘rgan kishi borki, adabiyotda nafaqat adabiyot balki olam va borliqdagi hayotiylikni shunchaki ko‘z orqali ko‘rib xulosa qilmaydi. Nazmiy so‘z orqali yuzaga kelgan dunyo – komillikning oliy darajasi. Ushbu tushunchadan kelib chiqib, adabiyotni bir chinor deb oladigan bo‘lsak, she’riyatni uning ajralmas hamda, barg va shoxlariga zavq beruvchi bir ildiz sifatida tasavvur qilsak bo‘ladi. Ya’ni qaysi o‘rinlarda chinor ildizi kabi insoniyatning ruhiy kechinmalariga ta’sir ko‘rsata oladi? Bu savolga Goratsiyning adolatli fikri orqali javob topishimiz mumkin. Uning ta’kidlashicha: “She’rda so‘zning salmog‘ini og‘irlashtirish uchun nafaqat turoqlar go‘zal bo‘lmog‘i, balki bu so‘zlar o‘quvchilar qalbini to‘lqinlantirishi, ko‘ngillarda beqiyos go‘zal his-tuyg‘ular paydo qilishi ham zarur”[2].

She’riyatga odam yaralishidan to bugungi kungacha yetarlicha e’tibor qaratilib, ziyoli insonlar orasida o‘z o‘rnini hali-hamon yo‘qotgani yo‘q. Ammo bu ulkan davr mobaynida ushbu janrning to‘plagan turlari yaratilib,

[1] Лотман Ю.И.Сотворение Карамзина. -М.: Книга, 1987. – С. 225.
[2] История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли” –М.: Исскуство, 1964. – С.269.

ulardan bizgacha yetib kelgan va yetib kelmasa-da o‘z davrida zo‘r mahorat egalari orqali yaratilib ishlatilgan turlari mavjud. Biz bilgan va bilmagan she’riy janrda yozilgan nazmlarni davr jihatidan bo‘lib o‘rganilsa, e’tibordan chetda qolgan qismlari ham bo‘lishi mumkin. Xususan, biz tahlilga tortgan koreys va o‘zbek adabiyotlarining ikki davlat xalqi uchun ham mashhur bo‘lgan she’riy janr turlari serob. Ammo ulkan daryoning suvi bir tomondan to‘lmaganidek, ikki davlatdagi serob ijod mahsullari ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, so‘zning o‘z va badiiy ma’nosi, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun, shakl jihatidan ko‘rinish, mavzularning tanlanishi shu va shunga o‘xshash qismlarida izohlamoqchi bo‘lgan fikrimizni dalili bo‘lishi mumkin. Maqolada koreys va o‘zbek mumtoz she’riyatida uzoq yillik kelib chiqish tarixiga ega, ijodkorlar namunasida salmoqli o‘rin egallagan, davlatlarning boshlang‘ich nazmining asosiy negizlaridan bo‘lgan Hyanga va Barmoq usuli janrlari haqida fikr yuritamiz va aql tarozisiga tortib tahlil qilamiz.

Koreys adabiyotining tamalini qadimgi urf-odatlar, ritual harakatlar, lirikani rivojlantirishning asosi bo‘lgan qo‘shiqchilik bilan bog‘liq an’anaviylik tashkil etadi. Shundan bo‘lsa kerak, she’riyat koreyschada “Hyanga” (“Ona vatan qo‘shiqlari” yoki “Ona tilida bitilgan qo‘shiqlar”) deb ataladi[1].

A.F. Trotsevich ta’kidlaganidek, bu she’riyatning bir turi sifatida umumiy nomi bo‘lib, Silla davlatida keng tarqalgan (IV-VII asrlar). U Sillaning birlashishi bilan taraqqiy etgan[2].

O‘zbek adabiyotida eng qadimiy she’riy janr deb ko‘p hollarda g‘azal janri tushuniladi. Ammo g‘azal janri yurtimiz sarhadida XIV asrda yuzaga kelganini hisobga olsak, bu davrdan oldin ham insonlar yashagan va adabiyot orqali ijod qilishgan. Bundan kelib chiqadiki, g‘azal o‘zbek adabiyotidagi eng qadimiy she’riy janr turi emas. G‘azal janridan oldin shoirlar barmoq vaznida ijod qilishgan. Ushbu janr turi o‘qilishga oson va ijodkorning ichki kechinmalarini o‘quvchiga yetkazishi qulay hisoblanadi.

Hyanga janrida yaratilgan ijod namunalari asosan xalqning ijtimoiy holatini, insonda kechayotgan jilovlab bo‘lmas his tuyg‘ularini, oshiqni yorga bo‘lgan muhabbatini zo‘r mahorat bilan tasvirlashga ko‘maklashgan. Ammo biz taqqoslayotgan janrlarimiz foydalanish davriga diqqatni qaratadigan bo‘lsak, juda ham uzoq tarixga nazar solishimizga undamoqda. Bundan kelib chiqadiki, u davr ijodkorlari she’rlarini izohlarsiz tushunib bo‘lmaydi.

[1] Klassik koreys she’riyati antologiyasi. -T.: “Istiqlol”, 2013. – B.6.

[2] Троцевич А.Ф. История крорейской традиционной литературы (до XX в). – М.: СПб., 2004. – Б. 20.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, Koreya tarixida urushlar juda ham ko‘p bo‘lib o‘tgan. Shu bois ham koreys adabiyotini davrlashtirishni podshohliklar va asrlar kesimi orqali o‘rganiladi. Uchpodshohlik birlashgandan so‘ng o‘ziga xos she’riy usul Hyangalar yuzaga keladi. Koreys adabiyotida ilk she’riy tur Hyanga hisoblanadi. Ular 10 misrali bo‘lgan. X asrgacha bo‘lgan koreys adabiyotida nafaqat Xitoy balki Hind adabiyotining ham ta’siri bo‘lgan. Madaniyatlar qo‘shiluvi, buddaviylik matnlari qiyinligi, ijtimoiy muhitga nisbatan xalqning javobi sifatida Hyangalar vujudga kelgan. O‘z navbatida Hyangalar iltijo, xitob, yupanch, pand-nasihat, murojaat, iltimos va shunga o‘xshash xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan. Shuning bilan birgalikda yuqorida aytib o‘tilganidek, ularning ma’nolarini shunchaki o‘ylab yuzaga chiqarib bo‘lmaydi. Fikrimizning dalili sifatida koreys adabiyotining qadimgi davr she’riyatida mavjud bo‘lgan ba’zi qadimiy qo‘shiqlar, ya’ni Hyangalarni ko‘rib chiqamiz.

Kuchjiga
(Kuchji qo‘shig‘i)
Toshbaqa, toshbaqa.
Qani chiqar boshingni,
Agar boshing chiqarmasang,
Qovuramiz taning olovda.

Bu xalq qo‘shig‘i eramizning 42-yilida Silla davlatining qiroli Yuri hukmronlik qilgan davrda tug‘ilgan. Qo‘shiq duo xarakteriga ega bo‘lib, unda xalqning ishonch-e’tiqodi va orzu-umidlari o‘z ifodasini topgan. Bular tufayli kishilar o‘sha ezgu orzu-umidlariga erishishga harakat qilishgan.

Qo‘shiqdagi “bosh” so‘zi “asosiy”, “boshchilik qiluvchi”, ya’ni “hukmdor qirol” ma’nosida qo‘llangan. Xalq har doim o‘z qirolining omma oldiga chiqishini, ya’ni “o‘z qobig‘i – saroyidan, qirollikdan “boshini chiqarishi”ni istagan”[1].

Ko‘rinib turibdiki, she’rdagi so‘zlar o‘z ma’nosidan ancha yiroqda. Toshbaqa obrazi orqali katta lavozim egasi bo‘lmish yurt podshosiga murojaat qilinmoqda. Oddiy xalq o‘z fikrni erkin bildirishga barcha davrlarda qiyinchilikka uchragan. Ammo yurt fuqarolarining dard-g‘ami biz tahlil qilayotgan she’r va adabiyotning boshqa janr turlari orqali o‘z aksini topgan.

Marhuma opamni eslab
Qarshingda turar ikki yo‘l:
Biri –hayot, boshqasi –o‘lim.
Sen ketding siltab qo‘l,

[1] Klassik koreys she’riyati antologiyasi. -T.: “Istiqlol”, 2013. – B.12.

Demay bir og‘iz shirin so‘z.
Kuz kelsa daraxtlardan,
To‘kilar duv-duv yaproq.
Olib ketar uni shamol,
Qayoqlarga noma’lum…
Qachonlardir olis bir o‘lkada,
Diydor ko‘risharmiz sen bilan[1].

Hyanganing boshlanishi asl hayotning qonuni ila bo‘lib, hayot va o‘limni eslatib kelgan. Bu Hyangaga dunyoviy bo‘yoqlar berilganligi bois, inson qaysi millatdan bo‘lishidan qat’iy nazar tushunib yetadi. Asarda singil opaning xotirasi bilan hamda uning tushlariga aylanib yo‘qolib borayotgan siyrati bilan suhbati tasvirlangan. Hyanga ichida kuz faslining keltirilishi va daraxt barglarini aynan shamol olib ketishi, bu davlatning iqlimi haqida ham ma’lumot borligiga ishora qilinmoqda. Qo‘shimcha sifatida yana bu holatni inson umrining tugalida, uning ruhini barglarni olib ketgan shamol kabi keyingi hayotga olib ketilishi yoritilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. She’rning oxirgi misralarida diydor ko‘rishish olis bir o‘lkaga qoldirilish kuzatiladi. Bu misralar orqali buddaviylik dinida ham o‘limdan so‘ng hayotga ishonch borligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek she’riyatining barmoq janri ilk namunalarini lirik folklor janrida namoyon bo‘ladi. U vaqtgacha ijod olamida Aruz vazni ommalashgan hisoblangan. “Lirik folklor namunalariga xalq dostonlari, termalar, xalq qo‘shiqlari va h.k. O‘zbek she’riyatidagi hammaga birdek manzur bo‘lgan, barchaning ko‘nglidan joy olgan va eng ko‘p yozilgan she’rlar aynan mana shu vaznga to‘g‘ri keladi. Barmoqning ikki sodda va qo‘shma turlarida bitilgan she’rlar o‘qilishi bilan ham, ijrosi, tinglovchiga yetib borishi hamda unga ta’sir qilish darajalari ham turlicha. Ikki turda ham bir xususiyat bor, ya’ni bo‘g‘inlarning soni she’rning ohangdorligi va musiqiyligiga ta’sir etadi. Qo‘shma vaznda yaratilgan she’rlarda ko‘proq jo‘shqinlik bilinib turadi. Chunonchi, xalq qo‘shiqlari va xalq dostonlarida ko‘proq qo‘shma vazndan foydalanilgan”[2].

Barmoq vaznida dastlab Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlari orqali ijod qilgan. U bilan birgalikda Sulaymon Baqirg‘oniy ham hikmatlar yozgan. Xususan:

Hikmatlar

[1] Klassik koreys she’riyati antologiyasi. -T.: “Istiqlol”, 2013. – B.19.

[2] Abdurahmonov Asad. O‘zbek she’riyatida barmoq she’r tizimining taraqqiyoti (https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-she-riyatida-barmoq-she-r-tizimining-taraqqiyoti/viewer)

Ayo mo‘min, kirgil yo‘lg‘a murod istab,
Jon bahridin o‘tgin Rahim Rahmon uchun.
Gunohingga pushaymon bo‘l sidqing birla,
Tavba qilg‘il rahm etguvchi G‘ufron uchun.
Tanda joning mehmon erur necha kunlar,
Qon yig‘lag‘il qayg‘u birla uzoq tunlar.
Nechuk bo‘lg‘oy holim debon yiroq yo‘llar,
Shoyad qabul qilg‘oy sandek hayron uchun[1].

Ko‘rinib turganidek, Yassaviy hikmatlarida insonning ichki kechinmalari Hyangalar kabi – iltijo, pand-nasihat, murojaat qilish orqali tasvirlangan. Yassaviy ijodidan oldinroq barmoq tizimidagi she’rlarning ilk namunalarini “Devonu lug‘ati turk” asarida ko‘rishimiz mumkin. “Devoni lug‘atit turk”dagi qo‘shiqlar barmoq tizimining ilmiy-nazariy asoslarini ochish uchun imkon beradi.

Olib borgan izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ikki xalqda ham mavjud janrlar dastlab oddiy xalq orqali yaratilib, og‘izdan og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan. Ya’ni ular folklor elementlari hisoblanib, keyinchalik she’riy janr sifatida shakllangan. Koreys adabiyotida yaratilgan Hyangalar she’riy usulda yozilsa-da, ularda qofiya, she’riy vazn va turoq kabi tushunchalar mavjud emas. Hyangalarga she’r sifatida qaralgan bo‘lsa-da, ular qo‘shib qilib kuylangan, o‘qilmagan. O‘zbek adabiyotidagi barmoq vaznida ham aynan mana shu jihatlar ko‘zga tashlanadi. Hyangalar bilan qiyoslangan barmoq vaznida esa, qofiya va vazn e’tiborli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov A. O‘zbek she’riyatida barmoq she’r tizimining taraqqiyoti (https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-she-riyatida-barmoq-she-r-tizimining-taraqqiyoti/viewer)
2. Klassik koreys she’riyati antologiyasi. –T.: “Istiqlol”, 2013.
3. Nodirxon Hasan. Xo‘ja Ahmad Yassaviy Devoni hikmati (Yangi topilgan namunalar). – T.: Movarounnahr, 2004.
4. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. – М.: Исскуство, 1964.
5. Лотман Ю.И. Сотворение Карамзина. – М.: Книга,1987.
6. Троцевич А.Ф. История крорейской традиционной литературы (до XX в). – М.: СПб., 2004.

[1] Nodirxon Hasan. Xo‘ja Ahmad Yassaviy Devoni hikmati (Yangi topilgan namunalar). – T.: Movarounnahr, 2004. – B.4.

ZAKARIYA TAMERNING “TUN KUYCHISI” VA “O‘LIM XANJARI” NOVELLALARIDA BADIIY VA PSIXOLOGIK TASVIR VOSITALARI

Dildora HAMDAMOVA
TDSHU, Sharq filologiya va tarjimashunoslik fakulteti
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. D. Abdullayeva

Annotatsiya: Maqolada Zakariya Tamerning novella yaratishdagi mahorati ochib berilgan. Novella janri badiiyati masalalari, shu bilan birgalikda adibning “Yetilmagan uzum” to‘plamidagi 2ta novellasining badiiy va psixologik tasvir vositalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Zakariya Tamer, hikoya, arab adabiyoti, “Tun kuychisi”, “O‘lim xanjari”.

Badiiy asar ijodkorning ijod mahsuli, aqliy va ma’naviy faoliyati, badiiy tafakkur mehnatining mevasidir. Badiiy adabiyotning asosiy va yagona quroli so‘z ekan, aynan shu so‘z orqali qalam ahli insoniyat hayotining barcha qirralari bilan qog‘ozga tushirishga harakat qiladilar. Badiiy adabiyotda esa, adib Oybek aytganidek, “so‘z chertib olinadi, ohangi, ifoda kuchi, bo‘yog‘i va boshqa xislatlari bilan hissiy qudratga ham ega bo‘ladi. Har bir so‘z uzukka qo‘yilgan qimmatbaho tosh kabi porlaydi, har bir misrada katta mazmun barq urib turadi”.[1]

Badiiylikni vujudga keltiruvchi vositalar bo‘lgan mavzu va g‘oya, obraz va xarakter, syujet va kompozitsiya, badiiy til va uslub, tur va janrlar har bir asarda betakror tarzda uyg‘unlashib, yangi olam-- yozuvchi ruhiyati hosilasini dunyoga keltiradi. Bu esa, yozuvchi uchun har bir asarining o‘z farzandidek aziz bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Badiiy asar – uni yaratgan muallifning betakror olamidir. Yozuvchini hayajonga solgan va qo‘liga qalam olishga majbur etgan hayotiy material – “mavzu” badiiy asar tahlilida eng yetakchi vazifani bajaradi.

Zamonaviy Suriya hikoyanavisligida o‘zining serma’no va o‘tkir qalami, sermahsul va serjilo ijodi bilan alohida o‘rinni egallagan yozuvchilardan biri bo‘lmish Zakariya Tamer jahon miqyosida tanilgan arab hikoyanavisi sanaladi. Uning qalamiga mansub asarlar o‘zining chuqur ma’nosi va ramziyligi bilan, falsafiy mushohada va majozga boyligi bilan, ham shaklan, ham mazmunan, ham uslubiyat jihatidan betakrorligi bilan ajralib turadi.

[1] Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Samarqand. 2012

Hozirgi kunga qadar Z.Tamerning 11 ta hikoyalar to‘plami, 2 ta satirik maqolalar to‘plami hamda bolalar uchun mo‘ljallangan o‘nlab kitoblari nashr qilingan. Quyida adibning hikoyalar to‘plamlari ro‘yxati keltirilgan:

- Oq otning kishnashi صهيل الجواد الابيض- (1960)
- Kukunlardagi bahor الرماد في ربيع (1963)
- Chaqmoq الرعد – (1970)
- Yong‘inlar Damashqi الحرائق دمشق – (1973)
- Yo‘lbarslar o‘ninchi kunda العاشر اليوم في النمور – (1978)
- Nuh nidosi نوح نداء – (1994)
- Kulajakmiz سنضحك – (1998)
- Eh! اف! – (1998)
- Yetilmagan uzum الحصرم – (2000)
- Singan tizzalar ركب تكسير – (2002)
- Tipratikan القنفذ – (2005)

XX asrning ikkinchi yarmida Suriya adabiyotida samarali mehnat qilgan Z.Tamer Suriya adabiyotida hikoyanavis yozuvchi sifatida shuhrat topgan. Biroq adib hikoyalari orasida novellistik xususiyatlarini o‘zida jamlagan asarlari ozchilikni tashkil etadi. Masalan, yozuvchi Z.Tamerning tahlil obyekti sifatida tanlab olingan “Tun kuychisi” va “O‘lim xanjari” novellalari haqida so‘z borar ekan, “Tun kuychisi” haqida alohida to‘xtalib o‘tishni joiz topdik. Yozuvchining “Tun kuychisi” novellasi hajman kichik bo‘lib, unda ikkita murakkab xarakter: qo‘shiqchi va xalifa tasvirlangan. Yozuvchining o‘zi ham shuni e’tiborga olib, ularning shaxsiyatini ochib berishda badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanadi:

To‘rtinchi bir kishi baqirdi: Biz bilgan qo‘shiqchining ismi, “aslida”, Shafiq al- Kavami, yoki Shafiq al- Ava?.. Qahqaha ko‘tarilib, shovqin yangradi. Shafiq o‘zining qadr-qimmatini toptalganini, yana sukut saqlasa, bundan-da yomonroq haqoratlanishini his qildi. U Mas’udga odamlarni ishora qilib ko‘rsatib dedi: “Agar birodarlar meni va mening ovozimni masxaralashni bas qilmasalar, men bu yerni tark etaman, ma’zur tutasiz”.

Parchadan ko‘rinib turibdiki, shunchaki bir kechalik o‘yin-kulgi bazmi va unda tuni bilan xizmatda bo‘lgan, va xizmat haqqini “to‘liq” olgan bu hofiz o‘y-kechinmalari kitobxonni sergaklantiradi. Darhaqiqat, arablar azaldan so‘zamol xalq bo‘lishgan, shu o‘rinda adibning istioradan naqadar mohir foydalanganligini ko‘rish mumkin. Parchadagi “Kava” termini qo‘shiqchi obrazining asl ismi bo‘lsa, “Ava” esa, arab tilida *shoqol*, *chiyabo‘ri*ga nisbatan ishlatiladigan termin hisoblanadi.

Asar hajmining kichikligiga qaramasdan muallif xarakterning shakllanish jarayonini ham koʻrsatishga muvaffaq boʻlgan. Yozuvchi chizgilaridan Shafiq al-Kavaning ham, Xalifaning ham qalbida kechayotgan hislarni bilib olamiz.

Xalifa unga jilmayib dedi: Koʻzlaring qayerda? Ayni damda men musulmonlar xalifasi emas, aksincha, birgina qalbiga zarracha boʻlsa-da, huzur istayotgan gadoylar shohi ekanligimni koʻrmayotgan boʻlsang??? Xalifa oʻrnidan turib, Shafiqqa u undan oʻzgasini sevmaydigan sevgilisining uni tark etib, oʻzining qoʻl ostidagi bir qul bilan qochib ketganidan keyingi har kecha oʻzi his qiladigan yengib boʻlmas azob va qaygʻu haqida soʻzlab berdi. Shafiq unga rahmi keldi va kuyladi, xalifa esa undan zavq-shavq bilan taʼsirlanib, unga joʻr boʻldi.

Bu novellada mehmonlarning vaqtini chogʻ oʻtishini taʼminlab berishga vaʼda bergan Shafiq cholgʻusining torlari uzilib ketishi bilan boshlangan oʻsha mashʼum kechani afsus va nadomat bilan podshohga soʻzlab beradi. Unda kitobxon Shafiqning xayolot olamida parvoz etib, turli xil voqea-hodisalar rivojidan saboq chiqarib olishi, achchiq real borliq bilan yuzma-yuz kelib toʻqnashishi, hayot charxpalagining unga tayyorlab qoʻygan murakkab sinovlari haqidadir. Novellada dramatizm, voqealar rivojidagi gʻayrioddiy oʻzgarishlar kutilmagan joydan cholgʻu asbobining uzilib ketishi, bazmdagi koʻngilsizlik, mehnat qilib, haq olmagan qahramon obrazi, xalifaning bir hofiz xirgoyisini eshitish uchun oʻzi kelgani va u bilan hasratlashishi, politsiya xodimining qoʻpol muomalasi kabilar kutilmagan yechim bilan, yaʼni uydan hech qanday “jabrdiyda” ning topilmaganligi bilan yakunlanadi. Adib asardagi qarama-qarshiliklar orqali novellaning ancha ishonarli chiqishiga muvaffaq boʻlgan.

Yozuvchining “Oʻlim xanjari” novellasida Xizr Allun xarakteri psixologik jihatidan ishonarli ochib berilgan. Novella strukturasiga xos dramatik taranglik, kutilmaganlik Xizr, uning onasi va oʻrtogʻi oʻrtasidagi konfliktning boshlanishida koʻrinadi. Yaʼni novella bir farzandning ona oldidagi bajarilishi mumkin boʻlgan farz amallari u yoqda tursin, onani hurmat qilish haqida oʻylab ham koʻrmaydigan noqobil bir oʻgʻil xarakteristikasi, kutilmagan yechim esa, oʻlim toʻshagida yotgan yigitning ishongan “doʻsti” unga aytgan soʻng soʻzlari edi.

Uni mashina urib yuborgach, tez yordam mashinasi uni tezda yaqin shifoxonaga olib borishdi, ammo u ertasi kuni tongda vafot etdi. U soʻnggi nafasini olar ekan, Antara ibn Shaddod unga dedi: – Hech narsa yoʻqotmading, afsuslanma va hech narsaga eʼtibor bermay jon beraver... Queq mahallasining barcha erkaklari Xizr Alvunning dafn marosimida Antara ibn Shaddod boshchiligida boshlarini ekkancha yurib borishardi. Ammo, u

mahalla ahlining unjng o‘lgan do‘sti ustiga shamshir bilan tuproq otayotganlarini ko‘rmayotganlaridan afsusda edi. ... Yozuvchi ko‘ngliga g‘ubor qo‘nmagan, pokiza bir zot – Ona timsolida kishi qalbida ona muhabbatini ko‘rsatib beradi. Ko‘ngildagi g‘alayon, to‘qnashuv, ruhiy evrilishlar chulg‘ab olgan Xizr esa, takabburligi ortidan mutlaqo, o‘zga odamga aylanadi. Uning ruhiyatida misli ko‘rilmagan alg‘ov-dalg‘ovli kurash kechadi, alaloqibat bu uning halokatiga sabab bo‘ladi.

Zakariya Tamer novellalarining har birida konfliktlilik, keskin burilish va kutilmagan yechimiga ega. Professor Y. Solijonovning: “Yangi asr boshlariga kelib hikoya janrining yana hajman ixchamlikka intilayotganligi sezilmoqda. Bu esa janr strukturasida novellaga xos xususiyatlarning qayta jonlanayotganligidan darak berayotir. Shunday xususiyatlardan biri hikoya syujetida kuchli dramatik voqealarning ketma-ketligi va bosqichma-bosqich kuchayib borishidir”[1] degan fikrlari aynan buning isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek hikoyasi//O‘zbek tili va adabiyoti. 2012 yil, 4-son.
2. 4. Zakariya T. Yetilmagan uzum. Bayrut: Riat al-Rayyes Books. 2000.
3. Quronov.D. Adabiyotshunoslik lug‘ati.Toshkent: Akademnashr. 2013.
4. Umurov.H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Samarqand. 2012

MAGIK REALISM MASALASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muslima ABDULVOHIDOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. D. Abdullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada magik realizmning yuzaga kelishi, rivojlanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Magik realism, Sehrli realism, adabiy oqim, adabiy jarayon, badiiy adabiyot.

Sehrli realizm – realizmga asoslangan, ammo fantaziya elementlariga ega bo‘lgan vaziyatni tasvirlaydigan janr. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak,

[1] Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek hikoyasi//O‘zbek tili va adabiyoti. 2012 yil, 4-son

voqea sodir bo‘lgan dunyo biznikiga deyarli o‘xshash, ammo aralashga bir yoki bir nechta boshqa dunyoviy mavjudotlar yoki xususiyatlar qo‘shiladi. Ko‘pincha bu janrda sehrli elementning mexanikasi va qoidalari tushuntirilmaydi, bu fantaziya janrining ko‘p qismidan ajralib turadi. Buning sababi shundaki, sehrli realistlar sehrning qanday ishlashiga emas, balki u nimani ifodalashi va qahramonlarga qanday ta’sir qilishiga qiziqmaydi. Magik (sehrli) realizm san’ati yuzaga kelishidagi muhim ijodkorlar:

- Gabriel Garsia Markes
- Izabel Allende
- Toni Morrison
- Salmon Rushdiy
- Frida Kahlo
- Gilermo del Toro

Sehrli realizm mualliflari bugungi kunda ko‘plab fantastika jurnallarini to‘ldirishdi va sehrli realizm bo‘yicha kitoblar yaqinda Pulitser, Nobel va Buker mukofotlarini qo‘lga kiritdi. Shunga qaramay, janr tobora ommalashib borayotganligi sababli, ko‘plab yozuvchilar sehrli realizm nimani anglatishini his qilishadi, lekin uni noto‘g‘ri qo‘llashadi. Masalan, mashhur *Garri Potter* asari sehrli realizm haqidagi kitoblar to‘plami hisoblanmaydi. Nima uchun?

“Magik realism” fantastika kundalik hayotga kirib boradigan badiiy asarni tasvirlaydi. Biroq, diqqat hikoyaning fantastik elementlariga emas, balki *bu elementlarning qahramonlar uchun nimani anglatishiga qaratilgan.* Fantaziya ko‘pincha kengaytirilgan metafora bo‘lib, qahramon hayotidagi qandaydir ichki qarama-qarshilik yoki axloqiy ikkilanishni tashqi ko‘rinishga keltiradi.

Ba’zi ajoyib sehrli realizm misollari Karmen Mariya Machadosning “*Uning tanasi va boshqa partiyalar*” to‘plamida namoyon bo‘ladi. Hikoyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: detektiv Nyu-York shahridagi bir qator hujumlarni ruhiy notinchlik to‘lqiniga bog‘laydi; ikki ayolning otasiz bolasi bor; va, bir kishi uning tanasiga xotinining boshini bog‘lovchi lenta haqida hayron. Ushbu misollarning barchasida syujet xayolot bilan boshlanadi, ammo hikoya sehr mantig‘i bilan bog‘liq emas, faqat uning oqibatlaridir.

Sehrli realizm mualliflari orasida Isabel Allende, Gabriel Garsia Markes, Toni Morrison va Aimee Bender bor. Ularning syujetlari va yozuv uslublari bir-biridan farq qilsa-da, janrning bu kashshoflari sehrli realizm hikoyalarida quyidagi elementlarni o‘z ichiga olgan:

- Sehrli yoki g‘ayritabiiy narsaning paydo bo‘lishiga asoslangan qisqacha ekspozitsiya.

•Ushbu qisqa sehrli hodisaning haqiqiy dunyo oqibatlariga e’tibor qaratish; boshqacha aytganda, hech qanday an’anaviy syujet tuzilmasi bo‘lmagan “adabiy fantastika” yozuv uslubi.

•Fantaziyani kengaytirilgan metafora sifatida ishlatish, ko‘pincha qahramonning ichki qismini ifodalaydi.

Har qanday **janr tarixi**ni tasvirlash juda qiyin. Bugungi kunda biz bilgan sehrli realizm Lotin Amerikasida paydo bo‘lgan. Albatta, bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan.

“Sehrli realizm” deb tarjima qilingan “magischer realism” atamasi birinchi marta 1925-yilda nemis san’atshunosi Frants Roh tomonidan “Nach Expressionismus: Magischer Realismus” (Ekspressionizmdan keyin: Sehrli realizm) kitobida ishlatilgan. U bu atamani ekspressionizm romantizmiga muqobil bo‘lgan o‘sha paytda Germaniyada mashhur bo‘lgan “Neue Sachlichkeit” yoki “Yangi obyektivlik” tasvirlash uchun ishlatgan. Roh “magischer realismus” atamasidan to‘xtab, ularga qaraganingizda haqiqiy dunyoda qanday sehrli, fantastik va g‘alati oddiy narsalar paydo bo‘lishi mumkinligini ta’kidlash uchun foydalangan. 1940-yilga kelib, Sehrli realizm Lotin Amerikasida keng tarqaldi va 1950-yillar davomida mashhur bo‘lib qoldi. Bu janr faqat adabiyot bilan cheklanib qolmagan; Frida Kahlo kabi rassomlar o‘z rasmlarida undan foydalanganlar. Sehrli realizm aniq Lotin Amerikasi ixtirosi bo‘lsa-da, janrdan ancha oldin bo‘lgan fantastika asarlari hali ham uning asosiy talablarini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, ko‘plab yunon va rim afsonalarini sehrli realizm misollari deb hisoblash mumkin. Ikarning hikoyasida sehrli qanotlar takabburlik uchun metafora sifatida ishlatiladi – xuddi shu metafora keyinchalik Micromegasni ilhomlantirgan.

Bularning barchasini aytish kerak: **zamonaviy yozuvchilar tarix davomida ilhom topishlari mumkin.** Hikoyalarni hikoya qilish uchun fantaziyadan foydalanish hikoyaning o‘zi kabi qadimgi – **ehtimol fantaziya hatto inson tajribasiga tug‘ma bo‘lgan.**

Lotin Amerikasi sehrli realizmi, xususan, Xorxe Luis Borxes va Gabriel Garsia Markesning “Yuz yillik yolg‘izlik” qissalaridagi fantastika arab manbalariga asoslanganligi ta’kidlanadi. Arab arxivi Borxesning hikoyalaridagi islomiy manbalar va “Arab kechalari” merosi orqali to‘plangan. Borxes arab islom arboblari, jumladan, Averroes bilan dialog va samarali adabiy almashishni hayratga soladi. Shu sabab olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi: Kolumbiya universitetidan Muhsin Jasim Al Musaviy so‘zboshisida yozganidek, “Arab qissalarida sehrli realizm haqida ko‘p narsa yozilgani yo‘q… zamonaviy arab romani

bo‘yicha muhim kashfiyot, uning ajoyib realistik burilishi bo‘lib, u faqat bir oz e’tiborni tortdi.

Qiziqarli tomoni shundaki, “Arab kechalari” va zamonaviy ilmiy fantastika o‘rtasida hayratlanarli bog‘liqlikni kashf etish mumkin.. “Arab kechalari” ertaklarining moslashuvini, uning rasmiy, mavzusi va sehrli xususiyatlarini “zamonaviy adabiyotning sara namunalarida” o‘rganish mumkin.

“Arab kechalari”ning Gabriel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili”, Gamal Al Ghitanining “Zafarani fayllari”, Tahar Ben Jellounning “Qum bolasi”, Fadil Al Azzaviyning “So‘nggi” romanlariga ta’siri aniqlangan. Bundan tashqari, qisqa, ammo ma’lumotli qo‘shimchalar Nagib Mahfuzning “Arab kechalari va kunlari” va Salmon Rushdiyning “Yarim tun bolalari” asarlariga ham xuddi shunday ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyot nazariyotchisi Tsvetan Todourovning ijodiga asoslanib, “Arab kechalari”dagi ajoyib narsalarni uch toifaga ajratiladi: matn tafsilotlarni bo‘rttirib ko‘rsatadigan ajoyibotlar, kattaroq g‘ayritabiiy hodisalarni qayd etadigan ekzotik ajoyibotlar va instrumental ajoyiblar. Bu matnlarning barchasida fantastik, hayratlanarli, g‘ayritabiiy narsalar go‘yo tabiiylik kabi hikoya qilinadi, bu esa o‘quvchilarning vaqt va makon haqidagi tuyg‘usini uyg‘unlashtiradi va an’anaviy tarixni qayta talqin qilish uchun ochiladi. Haqiqatning taqdimotini qayta konfiguratsiya qiladigan yana bir asosiy qurilma – bu parcha-parcha og‘zaki hikoya qilish usullaridan foydalanish. Yuqoridagi romanlarning barchasi “Arab kechalari”ning rasmiy atributlariga taqlid qilib, ramkali hikoyalarga ega bo‘lib, Shahrizodaning o‘z hayotini zolim Shahriyardan qutqarishga qaratilgan hikoyasiga parallel ravishda “bir nechta hikoyachilar orqali o‘rnatilgan hikoyalar va takrorlardan foydalanishga olib keladi”.

Tanlangan romanlarda ushbu usullardan qanday foydalanilganligi haqida son-sanoqsiz misollar keltiriladi va ularning “Arab kechalari” dagi muayyan hikoyalarga o‘xshashligi ko‘rsatiladi: Al Vardaniyning romanida boshi kesilgan uchta bosh tomonidan hikoya qilinadi, bu siyosiy muxolifatni yo‘q qilish uchun qo‘llaniladigan shafqatsiz usullarni anglatadi. Bu “Arab kechalari” ertaklariga eng muhim o‘xshashlik, ularda “olimlar avtomatlar” (na tirik, na o‘lik mavjudotlar) deb ataydigan robotga o‘xshash mavjudot-larning ko‘p nusxalari bor.

Sehrli realizm ko‘pincha fantaziya janri bilan aralashib ketadi. Ammo ikkalasi o‘rtasida ba’zi jiddiy farqlar mavjud. Fantastik hikoyalar butunlay xayoliy dunyolarda, sehrli realizm hikoyalari esa bizning dunyomizda o‘rnatiladi. Bu shuni anglatadiki, sehrli realizm hikoyalari ishonchli bo‘lishi uchun haqiqatga asoslangan bo‘lishi kerak. Yana bir asosiy farq shundaki,

xayoliy hikoyalar koʻpincha dunyoni qandaydir buyuk yovuzlikdan qutqarish uchun qahramonlarni oʻz ichiga oladi. Bundan farqli oʻlaroq, sehrli realizm hikoyalari koʻproq kundalik muammolar va tashvishlarga qaratilgan. Va nihoyat, xayoliy hikoyalar koʻpincha sehrli va gʻayritabiiy elementlarga tayanadi. Bundan farqli oʻlaroq, "Sehrli realizm" hikoyalari bu elementlardan tejamkorlik bilan va faqat hikoyani qandaydir tarzda davom ettirganda foydalanadi. Koʻpincha sehrli va tasavvuf shu qadar chuqur aralashib ketganki, ular gʻalatiligi haqida hech qanday izoh bermasdan sodir boʻladi.

Sehrli realizm hikoyalarida tez-tez uchraydigan bir nechta elementlar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

• Oddiy narsalarga e'tibor: Sehrli realizm hikoyalari koʻpincha kundalik hayot va muammolarga qaratilgan. Bu voqeani haqiqatga asoslashga yordam beradi va ular paydo boʻlganda sehrli elementlarni yanada yorqinroq qiladi.

• Gʻalati tuygʻu: Sehrli realizm koʻpincha gʻalati va bezovta qiluvchi elementlarni oʻz ichiga oladi. Buni tushuntirishga toʻgʻri kelmaydigan boshqa dunyo jonzotlarini yoki hodisalarni tasvirlash orqali amalga oshirish mumkin.

• Haqiqat va fantaziyaning xiralashishi: Yuqorida aytib oʻtilganidek, sehrli realizmning oʻziga xos xususiyatlaridan biri bu haqiqat va fantaziya oʻrtasidagi chegaralarni xiralashtirishdir. Buni koʻp usullar bilan amalga oshirish mumkin, masalan, inson va hayvon belgilariga ega boʻlish yoki koʻp ishlatiladigan narsalarga ega boʻlish.

• Simvolizmga e'tibor: Sehrli realizm koʻpincha simvolizmga tayanadi. Bu narsa va hodisalar koʻpincha birinchi qarashda boʻlganidan koʻra kattaroq ma'no kasb etishida koʻrish mumkin.

• Tushga oʻxshash sifat: Sehrli realizmning koʻplab hikoyalari tushga oʻxshash xususiyatga ega. Bunga ta'riflovchi til va ong ostiga e'tibor qaratish orqali erishish mumkin.

Sehrli realizm hikoyalarini yozishda nimaga e'tibor berish kerak? Birinchidan, sehrli realizm elementlariga mos kelishiga kerak. Bu uchta element, biz muhokama qilganimizdek, 1) Sehrli ekspozitsiya, 2) Adabiy fantastika konvensiyalari orqali hikoya qilish va 3) Fantaziyadan kengaytirilgan metafora sifatida foydalanishdir. Sehrli realizm hikoyani boshlash uchun ikkita narsani birlashtirishga harakat qilish lozim: oddiy hayotning bir tomoni va ma'lum bir qiziqish.

Jahon adabiyoti sahnasida mashhurlikka erishgan quyidagi asarlardagi elementlarning metafora yoki ramz sifatida qanday ishlashiga e'tibor bering.

• Gabriel Garsia Markesning "Patriarxning kuzi"

- Haruki Murakami tomonidan “Shinagava maymunining e’tiroflari”
- Italo Kalvinoning “Oyning qizlari”
- Xorxe Luis Borxesning “Bobil kutubxonasi”
- Aimee Benderning “Xotira”
- Kelli Link tomonidan “Feri qo‘l sumkasi”

Bu janrni ishlatishning cheksiz xilma-xilligi mavjud, ammo qisqacha aytganda, **bu ta’riflab bo‘lmaydigan narsalarni tasvirlash uchun ajoyib vositadir**. Sehrli realizmning marginallashgan yoki urushdan vayronaga aylangan jamoalar orasida shu qadar mashhur bo‘lishining bir sababi bor: janr allegoriya va tashbehlar orqali so‘zlab bo‘lmaydigan fojialar va travmalarni tasvirlashga yordam beradi. Shunday qilib, o‘quvchiga haqiqatan ham qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsani tushunishga yordam berish. Xuddi shu tarzda, sehrli realizm ham kuch tuzilmalari yoki madaniy me’yorlarni tanqid qilishni istaganlar uchun qulay janrdir. Shu bois janr adabiyot va rassomchilik chegaralaridan tashqarida rivojlanishda va kengayishda davom etdi: Sehrli realizm tropiklari kino, fotografiya va boshqalarga ham yetib bordi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 558 b.
2. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. 2 jildli. –T.: Fan, 1979.
3. https://writers.com/what-is-magical-realism-in-literature
4. https://www.studiobinder.com/blog/what-is-magical-realism-definition/

URDU TILIDAGI TOPISHMOQLARNING MUXTASAR TAHLILI

Xumora XAYRULLAYEVA
SHFT 4-kurs, urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: M.K.Mirzayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada topishmoq janri va uning kelib chiqishiga oid ma’lumotlar atroflicha o‘rganilgan. Xususan, urdu tilidagi topishmoqlar guruhlarga bo‘lingan holda tadqiq etilgan. Topishmoqlarning o‘zbek tilidagi ma’nolari ham misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, Vilyam Toms, topishmoq, Hindiston, “Rigveda”, prahelika, Amir Xusrav Dehlaviy, Pokiston, Rafiq Ahmadshoh.

Xalq og‘zaki ijodi – mehnatkash omma ijodi, xalq san’atining boshqa, ya’ni musiqa, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san’at kabi turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san’atidir.

Xalq og‘zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san’at. Har bir xalqning og‘zaki ijodi o‘sha xalqning fe’l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an’analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zgudir. Biz ana shu ko‘zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolat- sizlikka qarshi nafrat tuyg‘ularini ko‘ramiz.

Og‘zaki so‘z san’ati “folklore” yoki “xalq og‘zaki poetik ijodi” atamalari bilan ifodalanadi. “Folklor” atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llangan bo‘lib, “folk” – xalq va “lor” bilim, donolik, donishmandlik, ya’ni “xalq bilimi”, “xalq donishmandligi” demakdir. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og‘zaki usulda amalga oshadi. Ya’ni bunday asarlar og‘zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o‘zgarishi, unga yangi qismlar qo‘shilishi yoki biron- bir qismi tushib qolishi mumkin.Xalq og‘zaki ijodida turli janrlar quyidagicha aks etgan:

Epik tur – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.

Lirik tur – marosim folklorining deyarli barcha ko‘rinishlari, bolalar folklorining ko‘pgina turlari, qo‘shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

Dramatik tur og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.

Maxsus tur – maqol, matal, topishmoq kabilar.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir.

Barcha xalqlar og‘zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o‘ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba’zan “topmacha”, “jumboq”, “matal” deb atashgan. Mumtoz adabiyotda ular “chiston” ham deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari – turmush madaniyati, urf-odatlari va boshqa jihatlari, inson va uni o‘rab olgan olam o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida

ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma’no ko‘pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog‘i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o‘simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo‘lgan kishi unda keltirilgan ko‘chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga to‘g‘ri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi bo‘lsa, ayni paytda ko‘ngilochar o‘yin ham hisoblanadi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o‘stiradi, ayniqsa, bolalarni topag‘on bo‘lishga, hozirjavoblikka o‘rgatadi.

Topishmoqlar nasriy va she’riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to‘qiladi. Ular o‘zida yashiringan predmetlar miqdoriga qarab bir va bir necha misrali bo‘lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgilari, o‘xshashligi, mayda unsurlari batafsil ta’rif qilinadigan bo‘lsa, ular ikki, uch, to‘rt va undan ko‘p misralarda ifodalanadi. Bulardan tashqari qochiriqlar, ramziy obrazlar, mubolag‘ali so‘zlar ko‘paygan sari topishmoqlar hajmi oshib boradi. Topishmoqlarda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari va usullaridan keng foydalaniladi.

Topishmoqlar tuzilishiga ko‘ra bir yoki bir necha predmetli bo‘lishi mumkin. Masalan, “Qoziq ustida qor turmas” (tuxum). Ushbu topishmoqda bir predmet – tuxum o‘zining rangiga ko‘ra qorga, shakli jihatidan o‘tkir uchli narsa “qoziq” ustida turolmaydigan suyri (ellips)ga o‘xshatilyapti. “O‘zi bir qarich, soqoli qirq qarich” (igna) topishmog‘i ham bir predmetli bo‘lib, ignani anglatadi. Undan o‘tkazilgan uzun ip soqolga o‘xshatilyapti. Topishmoqlarning bir necha predmet yashiringan turlari ham bo‘ladi. Masalan, “Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxda o‘ttiz yaproq bir yog‘i qora, bir yog‘i oq” topishmog‘ining javobi yil (daraxt), o‘n ikki oy (shox), o‘ttiz kun (o‘ttiz yaproq), o‘ttiz kecha va kunduz (bir yog‘i qora, bir yog‘i oq).

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ular olam va odam bilan bog‘liq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odam, uning a’zolari va xislatlari, mehnat va o‘quv qurollari, cholg‘u asboblari, turar joy, uy-xo‘jalik asboblari, qurol-yarog‘lar haqida bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari topishmoqlar o‘zining yaratilish davriga ko‘ra an’anaviy topish- moqlar va yangi, zamonaviy topishmoqlar sifatida bir-biridan farqlanadi.

Tadqiqotlarga qaraganda, topishmoqlarning kelib chiqishi Hind diyoriga borib taqaladi. Sanskrit tilidagi “prahelika” atamasi aynan “jumboq”, “topishmoq” tarzida tarjima qilinadi. Dunyodagi eng qadimgi

topishmoqlar “Rigveda” da jam bo‘lgani o‘z isbotini topgan. “Rigveda”ning birinchi kitobining 164-madhiyasi hozirda tushunarsiz bo‘lgan, ammo pravargiya marosimining sirli ekspozitsiyasi bo‘lgan bir qator topishmoqlar yoki jumboqlardan iborat. Bu topishmoqlar “Atharvaveda”dagi qirq yetti to‘plam bilan bir-biriga mos keladi; topishmoqlar Vedik matnlarning boshqa joylarida ham uchraydi.

Ko‘pgina sanskrit jumboqlarining o‘ta murakkab sifatini bitta oddiy misol bilan adekvat tarzda tasvirlash mumkin. “Kim havoda harakat qiladi? Kim o‘g‘rini ko‘rib shovqin qiladi? Lotuslarning dushmani kim? G‘azabning eng yuqori nuqtasi kim?” Birinchi uchta savolga berilgan javoblar charade uslubida birlashtirilsa, to‘rtinchi savolga javob beradi. Birinchi javob qush, ikkinchi it , uchinchi quyosh va butun Ramaning birinchi o‘qituvchisi va maslahatchisi va g‘azabi bilan ajralib turadigan odam Vichvamitra.

Sanskrit jumboqlari O‘rta asrlar davomida ishlab chiqarilib, to‘plangan. Aksariyat to‘plamlar hali tahrir qilinmagan, biroq asosiylaridan biri Vidagdhamukhamaṇḍana hisoblanadi.

O‘rta asr Hind diyorida birinchi topishmoqlar to‘plami an’anaviy tarzda Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325) tomonidan yozilgan. tomonidan yozilgan. U o‘z topishmoqlarini odatdagi fors tilida emas, balki hindaviy tilida yozgan. To‘plamda oltita guruhga bo‘lingan 286 ta topishmoq mavjud.

1947-yil Pokiston Hindistondan ajralib o‘z mustaqilligini e’lon qilgach, Hindiston va Pokistonda topishmoqlarni qaytadan jamlash ishlar boshlandi. Jumladan, 1976-yil Pokistonning Lahor shahrida Rafiq Ahmad Xon muallifligida "نئی اردو پہیلیاں" nomli urducha topishmoqlar to‘plami nashr qilindi. To‘plamda jami 450 ta topishmoq keltirilgan bo‘lib, ulardan bir nechtasini quyida tahlil qilamiz.

Diniy terminlarga oid topishmoqlar:

سورج کے جانے میں تین
سورج کے آنے میں دو
صدیوں سے ہوتا آیا ہے
اور قیامت تک یہ ہو (پانچ نمازیں)

Kun botganda uchta, kun chiqqanda ikkita
Asrlardan o‘tib kelar, to qiyomat davom etar. (namoz)

پہنچ جائے انسان خدا کے جو گھر
وہاں سے بھی آجائے مگر (مسجد)

Allohning uyiga qo‘ysak biz qadam,
Undan qaytib kelurmiz har dam. (masjid)

اس کے ہوتے کچھ نہ کھایا

کھایا جب نہ اس کو پایا (روزہ)
U borida yo‘qdir yemak va ichmak,
Taom tatib ko‘rgan zahoti, u bo‘lar g‘oyib. (ro‘za)
چھوڑ مت تم اس کا ہاتھ
کے لو اس کو ہاتھوں ہاتھ
چپکے چپکے عرش پر جائے
تحفے لیکر فرش پر آئے (دعا)
Sen undan hech ayrilma, qo‘llaridan mahkam tut.
Asta-sekin arshga yetar, tuhfasini yerda kut. (duo)

Ilm haqida:

دنیا میں ہے ایک خزانہ
اس کا مالک بڑا سیانا
اس کو ہاتھوں میں ہاتھ لٹائے
پردولات بڑھتی ہی جائے (علم)
Dunyoda shunday xazina borligi tayin,
Ortib boraverar sarflagan sayin. (ilm)
ایک استاد ایسا کہلائے
آپ نہ بولے سبق پڑھائے (کتاب)
Bir ustoz borki, gapirmay dars berar. (kitob)
اس نے سب کے کام سنوارے
ورنہ ہوتے احمق سارے (عقل)
U bo‘lsa gar, oqildir inson,
Bo‘lmasa-chi, sanalgay nodon. (aql)

Tabiat haqida:

سونے کا بن کر آتا ہے
سونے کا بن کر جاتا ہے (سورج)
Oltin bo‘lib keladi, oltin bo‘lib ketadi. (quyosh)
اِک چھت کا ہے ایسا سایہ
ہر اِک اس کے نیچے آیا (آسمان)
Bir shiftning bordir soyasi, ostidadir odam bolasi. (osmon)
شب بھر وہ پانی میں نہائے
جل میں اپنا روپ دکھائے
ہر پکڑو تو ہاتھ نہ آئے (چند)
Tuni bo‘yi suvda cho‘milar,
Olaman desang qo‘lga ilinmas. (oy)

Ta’na a’zolari haqida:

<u>دو چڑیاں رکھتی ہیں پر</u>
کبھی نہ چھوڑیں اپنا گھر (آنکھیں)
Ikki qush bor bir-birin ko‘rmas

Qanot yozib, uyalarini tark etmas. (koʻzlar)

چار ہیں بہنیں اور ایک بھائی

خوب ہے ان میں صلح صفائی

بھائی اگر نہ ہاتھ بٹانے

ایک بھی کام نہ ہونے پائے (انگوٹھا اور انگلیاں)

Toʻrt singilga akadir oʻzi.

Barchasiga oʻtar soʻzi. (bosh barmoq va barmoqlar)

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar qaysi tilda boʻlmasin, oʻsha xalqning qarashlari, qadriyatlari, qiyofasi va ruhiyatini aks ettiradi. Urdu tilidagi topishmoqlar ham Pokistondagi geografik va tarixiy sharoit, turmush tarzining yorqin ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1.Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari”, “Noshir” nashriyoti, -Oʻzbekiston 2019.

2. "نئی اردو پہیلیاں" topishmoqlar toʻplami,- Pokiston 1976.

3. Toshmirza Xolmirzayev “Urducha-oʻzbekcha lugʻat”, “Muqtadira Qaomi Zaban” nashriyoti, Pokiston, 2003.

4. @rekhta.org sayti

5.@wikiwand. com sayti

O‘ZBEK VA URDU MAQOLLARINING MUSHTARAK TAHLILI

Muqaddas AKBARALIYEVA
Filologiya va tillarni oʻqitish 2-kurs
Ilmiy rahbar: M.K. Mirzayeva

Annotatsiya: maqolada maqol tushunchasiga oydinlik kiritish, maqollarni qiyosiy oʻrganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlarini tadqiq qilish va bu orqali tadqiq etilayotgan tillardagi maqollarning bir-biriga oʻxshash va farqli tomonlarini, shuningdek, ikki millatning oʻziga yarasha madaniyati va oʻziga xos mentalitetini koʻrsatishga va kishilararo munosabatni anglatuvchi maqollarni qay darajada mushtarak ekanligini isbotlashga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: maqol, xalq og‘zaki ijodi, metal, jumla, urdu xalqi, o‘zbek xalqi, Mahmud Koshg‘ariy, Devonu lug‘otit turk, naql, zarbulmasal, otalar so‘zi.

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi (“Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l” va boshqalar).

Dastlab maqol Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg‘ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi. Biz maqollarni hayotda juda ko‘p ishlatamiz to‘g‘rimi!

Maqollar ba’zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, hattoki, g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So‘z ko‘rki – maqol!

Maqol – sivilizatsiyaning uzviy bo‘lagi bo‘lib, uni o‘rganmay turib, biron-bir dunyo sivilizatsiyasini tushunish mumkin emas. “Maqollar – uncha katta bo‘lmagan, lekin xalq og‘zaki ijodi merosining o‘ziga xos bir bo‘lagidir. Xalqning tarixiy rivoji va xulq-atvori, mehnat va turmush tarzi xuddi toshga bitilgandek aniqlik bilan maqol yoki metafora ko‘rinishida shakllangan. Farqi shundaki, toki ularni yaratgan xalq va ularni o‘zining bir bo‘lagiga aylantirgan til mavjud ekan, maqollar asrlar davomida yashab kelaveradi”.

Dandis fikriga ko‘ra “XX asrga kelib, hozirgi ijtimoiy fanlar ta’sirida mashhur maqollarning adabiy va tarixiy shakllanishini o‘rganishdan chekinish boshlandi” Maqol atamasi arabcha “qavlun”dan olingan bo‘lib, “so‘z” degani.Maqolning qolipiga keladigan bo‘lsak, u – “leksik jihatdan xira tortgan va o‘chib ketgan his-hayajonni o‘zida mujassam qilgan

ibora”.Garchi maqol kichik hajmli til birligi bo‘lsa-da, turli ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishni talab etadi. Maqol struktur-semantik jihatga ko‘ra tugal gap kabi matn lingvistikasi uchun juda katta qiziqish kasb etadi. Bir tilga mansub, qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillardagi turli xil maqollar bir xil vaziyatlarni anglatishi mumkin. Buning natijasida u mantiqiy semantika va semiotika kabi sohalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Qaysi tilga xos bo‘lmasin, maqol to‘g‘risida turlicha o‘y-qarashlar mavjud. Rus maqolshunosligi (paremiologiya) asoschilaridan biri G.L. Permyakovning fikricha, etnografik va etnogenetik voqelikni o‘zida aks ettirgani sababli maqolning tashqi strukturasi va unga xos obrazlilik uni tavsiflaydigan asosiy jihat emas. Uning ta’kidlashicha, maqolning mantiqiy jihati uning asosiy mazmunini tashkil etadi, ular esa “maqol va matallar biror vaziyat yoki narsalar o‘rtasidagi ma’lum bir munosabatlarning belgisi sanaladi”.

O‘zbek xalqining qon – qoniga singib ketgan hikmatlar, maqollar va matallar ham asrlar mobaynida xalq bilan birga yashaydi. Ayniqsa, o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo‘rlik, to‘g‘ri va egrilik, yaxshilik va yomonlik, adolat, insof va insofsizlik, do‘stlik va dushmanlik, botirlik va qo‘rqoqlik, ilmlilik va ilmsizlik, hushyorlik va ehtiyotsizlik kabi g‘oyalar nafaqat o‘tmish ajdodlarimizni, balki kelajak avlod yoshlarimizni tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Urdu tili o‘z so‘zlovchilarining jamoaviy ongi va guruh kimligini aks ettiruvchi an’anaviy matal va maqollar bilan ajralib turadi. Bu urdu maqollari xalq donoligidan tortib, bilimdon elita so‘zlarigacha bo‘lgan turli manbalardan olingan bo‘lishi mumkin, ammo ularning barchasi jamiyat uchun umumiy madaniy tushuncha va qadriyatga ega.

Ta’kidlash joizki, urdu tilida maqol atamasi sifatida "المثال ضرب" zarbulmasal, "کہاوت"kahavat, "مثل"masal, "مقولہ" maqula kabi yana bir qator atamalar qo‘llaniladi.

Hindistonlik olim Yunus Agaskar maqollarni batafsil yoritib bera oladigan اردو "کہاوت" nomli asarida asosan maqolga nisbatan کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو" atamasini qo‘llagan. Olimning ta’kidlashicha, "کہاوت"so‘zi hindiy tiliga oid so‘z hisoblanib hindiy tilidagi "کہ"so‘zidan yasalgan. Unga ma’nodosh sifatida "کہناوت" [kehna:ut], "کہناوتی"[kehna:uti], " مثل" [masal] so‘zlari ham kiritilgan.

Urdu va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash, urdu va o‘zbek tillaridagi maqollarning mavzu jihatdan bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib

chiqish, shuningdek, ulardagi xalq mentaliteti va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilinadi.

Maqollarda xalq turmush tarzi qay darajada o‘z aksini topishi va ikki tilda mavjud bo‘lgan maqollarning solishtirma tahlil orqali o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari, shuningdek lingvistik tavsiflari hind olimi Ahmad Qurayshining “ اردو کہاوتیں” hamda Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovlarning “Hikmatnoma” asarlaridan yig‘ilgan quyidagi maqollarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

تالی دونوں ہاٹھ سے بجتی ہے-

Tarjimasi: Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

بےوقوف دوست سے عقلمند دشمن اچھا ہے -

Tarjimasi: Ahmoq do‘stdan aqlli dushman afzaldir.

دیواریں کے بھی کان ہوتے ہیں –

Tarjimasi: Devorning ham qulog‘i bo‘ladi.

نیکی کر دریا میں ڈال -

Tarjimasi: Yaxshilikni qilgin-u daryoga otgin.

Ushbu maqol ham o‘zbek xalq maqollariga mansub,ushbu ma’noni yana ham yaqinlashtirish uchun o‘zimizning **“O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin”**maqoli ham aynan mos keladi.

آج کا کام کال پر نہ چھوڑو!

Tarjimasi: Bugungi ishni ertaga qo‘yma!

انسان اپنی صحبت سے پہچانا جاتا ہے -

Tarjimasi: Insonning suhbatidan kimligi bilinadi.

سچ کڑوا ہوتا ہے -

Tarjimasi: Haqiqat-achchiq bo‘ladi.

سچا دوست وہ ہے، جو مصیبت میں کام آتا ہے -

Tarjimasi: Haqiqiy do‘st musibatda bilinadi.

چور چوری سے گیا،ہیرا پھیر نہیں گیا-

Tarjimasi:O‘g‘ri o‘g‘irlikdan voz kechdi,orqa-oldinga yurishni qo‘ymadi.

Ushbu maqolimizni ayni tarjimasi shunday ko‘rinishda bo‘lsa ham o‘zbek xalqining **“O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas”** maqolida o‘z aksini topadi.

حالی ہاتھ منھ کو نہیں جاتا -

Tarjimasi: Bo‘sh qo‘l qorin to‘ydirmaydi.

Bu maqol ham xalqimiz ichida qo‘llanilsa-da lekin ko‘proq **“Bo‘sh qoshiq og‘iz yirtar”**maqoli barchamizga tanish.

چار چاند لگ گئی -

Tarjimasi: To‘rt oy birlashdi.

Urdu xalqlarida bu jumla insonlarni birlashishga chorlaydi,o‘zbek xalqida esa **“Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”**maqoli bilan aynan bir xildir.

- پانچوں انگلیاں برابر نہیں ہوتی ہیں

Tarjimasi: Besh qo‘l barobar emas.

- ٹھوکر کھاوے بدھی پاوے

Tarjimasi: Mashaqqatsiz mukofot bo‘lmas.

- چادر دیکھ کر پیر پھیلاؤ

Tarjimasi: Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

- بات کا تنلر بنا دیا

Tarjimasi: Gap-kattalashdi.

Bu maqolimizni o‘zbek xalq maqollaridan “Pashshadan fil yasamoq” maqoliga juda mos tushadi.

- پورا پیڑ بلایا،سب نے چکھ کر کھایا

Tarjimasi: Butun daraxtni silkitadi, barcha tatib ko‘radi.

Bu maqolda aynan biror ishni bir kishi qiladi, ko‘pchilik rohatini ko‘rishi haqida gap bormoqda ushbu maqolni o‘zimizning “Bir kishi ariq qazidi,ming odam suv ichadi” maqoliga qiyoslasak o‘rinlidir.

- بری خبر جلدی پھیلتی ہے

Tarjimasi: Yomon xabar tez tarqaladi.

-ہر چمکتی چیز سونا نہیں ہوتی

Tarjimasi: Har yaltiragan narsa oltin bo‘lavermaydi.

Yuqoridagi maqollarni ko‘p qismi aynan o‘zbek xalqi orasida juda keng tarqalgan va barchamizni qulog‘imizga tanish maqollar hisoblanadi.

Xulosa o‘rinda aytib o‘tish kerakki,o‘zbek xalqi juda boy va buyuk tarixga ega xalq hisoblanadi,shuningdek Pokiston xalqi madaniyati uning tub ildizi bo‘lgan Hindiston yurti tarixiga ham borib taqalishi hech birimizga sir emas.Maqollar odatda xar bir xalqning madaniyati,yashash tarzi va ijtimoiy holatidan kelib chiqib yaratiladi.So‘zlar va iboralar turli bo‘lmasin aynan ko‘zlangan ma’no bir bo‘lib qolaveradi.Pokiston xalqi bilan bizni nafaqat yashash tarzi va ijtimoiy odoblari bog‘laydi,balki,xalqlarimizning aynan bir dinga e’tiqod qilishlari o‘xshash qarashlar va mushtarak maqollar yaratilishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imomov K., T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “O‘qituvchi”, 1990. — 240 b.

2. Madayev O., Sobitova T.O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq”, 2010.– 125 b.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T.: 1990. – 523 b.
4. Алефиренко Н. Ф. Фразеология и паремиология. Учеб. Пособие для бакалаврского уровня филол. Образования. М.: Изд-во Флинта, 2009. – 600 с.
5. Дандис А. О структуре пословицы// Паремиологический сборник. Пословица. Загадка. М., 1978.-23 с.
6. Пермяков Г.Л От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). М.: «Восточная литература», 1970. – 85 с.
7. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. М.: Просвещение. 1985.- 680 с.
8. یونس اگاسر "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو" کالگ ۸۸۱۱ ص –۵۱۱
9. شریف احمد قریشی اردو کہاوتیں بک کارنر ۶۱۸۲ ص — ۶۱۲
10. کہاوتیں -- سرور عالم راز، حصہ اول ۶۱۸
11.Ziyo.uz.com-sayt
12. اردو محمل -sayti

MUHAMMAD RIZO OGAHIY IJODIY MEROSI

Og‘abek ODILOV
TDSHU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. Z.G‘. Kasimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning ijodiy merosini chuqur o‘rganish va butun dunyoga qanday asarlari borligini ko‘rsatish, o‘sha davr adabiy muhiti haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Davr, shakarlang, g‘azal, masnaviy, mustazod, muhamas, qit’a, taxmis.

Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi mirob bo‘lib xalq orasida nuvufi baland shaxs bo‘lgan. Ogahiy bolaligidan o‘z tengdoshlaridan odobi, saxovatliligi bilan ajralib turar edi. Bolaligi adabiy muhit bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi. Muhammad Rahimxon birinchi (1806-1825-yillarda hukmronlik qilgan) davrida Xiva madrasalarida tahsil olgan. Amakisi Munis (1778-yil tavallud topgan) 1829-yilda vafot etgach mirob lavozimiga ko‘tariladi. 1845-yilda oyog‘idan jarohat olib shakarlang deb ataluvchi kasallikka uchragan.

1857- yilda lavozimidan iste’fo oladi. Umrining oxirigacha g‘am alamda, yolg‘izlikda, dili vayron holda yashaydi. 1874-yilda Xivada bu foniy dunyoni tark aylaydi. Xalqimiz orasida shunday gap bor “Yaxshi odam o‘lmaydi” deydilar. Bu haqiqatan ham rost. Buyuk sharqshunos vengriyalik Arminiy Vamberi e’tiboriga tushishi ham tahsinga sazovor deb o‘ylayman.

Bizga qoldirgan adabiy merosi bu misoli bir xazina. U tarixnavis bo‘lsin, u adabiyotshunos bo‘lsin yoki tarjimon bu asarlarni o‘qib lazzatlana oladi. Eng tez uchadigan burgutni ham uchishiga yordam beradigan boshqa burgut topiladi. Ogahiyning amakisi Munis Xorazmiy unga ustozlik qildi. Munis Xorazmiy yoshligida adabiyot va tarixga qiziqqan. 1804-yilda birinchi devoni “Oshiqlar do‘sti” edi. Bu asar 20 ming misradan iborat. Ogahiy Munisning ta’sirida ulg‘aydi.

Ogahiy bir xillikni yoqtirmagan. An’anaga aylangan 7-8 baytlikdan 10- 12 baytlikkacha bo‘lgan g‘azal yozishni 23 baytgacha chiqardi. Bundan tashqari mustazod janrida qo‘sh orttirma misrali yangi shaklini yaratdi. Bu esa ishq bilan sug‘orilgan Xorazm kuylariga bemalol tushishini anglatar edi. Muhamad Rizo Ogahiy 16 ta tarixiy, ma’rifiy asar yozdi. Oshkoralik bilan yozilgan asarlari, bular “Riyoz ud-davla”, “Zubd’at ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” va boshqalardir. O‘z xalqini juda yaxshi ko‘rgan Ogahiy o‘zining “Qish” nomli g‘azalida mahalliy hokimlarning qanchalar xalqqa jabr zulmini ancha aniq qilib ochib berganligi ko‘rishimiz mumkin.

Arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi sababli Xivada tarjimashunoslik maktabiga asos soldi. U yosh bo‘lishiga qaramasdan 1819- yilda tarixchi olim Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini o‘zbek tiliga tarjima qila boshladi. Ammo vaqt oliy hakam, bu asarni 1-jildini tarjima qilishga ulgurdi. Shu bilan birgalikda, “Tarixi jahonkushoh” (Muhammad Mahdiy Astrobodiy), “Yusuf va Zulayho” (Jomiy), “Shoh va gado” (Hiloliy) “Tazkirai Muqimxoniy”(Muhammad Yusuf Muqimxoniy), “Qobusnoma” (Kaykovus) kabi asarlarni badiiy mahorat bilan forsiychadan tarjima qildi.

Asar yozishdan ko‘ra uni sharhlash ham mushkul ish hisoblanadi. Muhammad Rizo Ogahiy Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarini tarjima qilish bilan birga, sharhlash kitobxonga taqdim etadi. Sakkiz bobli “Guliston” asarini tarjima qilayotgan Ogahiy forsiychada ifoda etgan ipakday nozik tuyg‘ularini o‘zbek tiliga o‘girgan, undagi umumbashariy tuyg‘ular, diniy ilmlarni ancha mahorat bilan tarjima qilganligini o‘zi ham bir qahramonlikdir. Yana mashhur tarjimalaridan biri Alisher Navoiy zamondoshi Bahriddin Hiloliyning “Shoh va gado” asaridir. Bu asarda Davlatni boshqarish qanday bo‘lishi, xalqni qanday yaxshi ko‘rish kerakligi haqida gap ketgan. Bu tarjimaning kerakligi nimada ekan deb o‘ylash

mumkin. Mening fikrimcha, bu nodir tarjima o‘sha davr hukmdorlari ya’ni qo‘ng‘irotlarning xalqqa jabr zulmlarini cheklash ozroq bo‘lsa ham soliqlarni kamaytirish, ommaviy hasharlarni (o‘sha davrda begar deb atalgan) kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri edi. Xuddi 1920- 1940-yillardagi “Gandizm” g‘oyalariga o‘xshatish mumkin. Sharq bebaho asarlardan biri Kaykovusning “Qobusnoma” asari sharq xalqlari orasida ma’lum va mashhur asar bo‘lib, bu asarni Ogahiy 1860-yilda tarjima qilgan. Asarda otani o‘g‘ilga o‘gitlari, xalq maqollari va hikoyatlari, asosan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi rivoyatlarga aniq yondashib, Haq Taoloning yagonaligi payg‘ambarlar xilqatiga to‘g‘ri yondashishga undaydigan bebaho asardir. Bu tarjima asarlarning aksariyati qo‘lyozma shaklida Toshkent, Dushanbe va Sankt-Peterburgda saqlanmoqda.

Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligi davri Xiva xonligining oltin davri deb belgilash mumkin. Bir paytlar O‘rta Osiyo renessansining beshigini tebratgan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro kabi Ogahiy va Muhammad Rahimxon soniy ham ulardek madaniyat va san’atni rivojlantirishga alohida ahamiyat berishgan. Bu yana tarix takrorlanishini anglatar edi. Ogahiyning “Qasidai nasihat” asari Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlangan. U o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, unda shoirning siyosiy-ma’rifiy qarashlari yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Podshoh himmatli, shijoatli, adolatli, g‘ayratli, saxovatli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, xalqparvar bo‘lishi shart. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo‘lsa, uning hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog‘i lozim. U bazmi-jamshiddan, fitna va g‘iybatdan, g‘aflatdan, noshudlikdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo‘lishi kerak. Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar yozdirib, davlat organlari peshtoqiga qo‘ydirgan, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shu bois ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda o‘sha davr Xorazm voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir.

“Qasidai nasihat”ning muqobili bu Tomas Morning “Utopiya” asari mening nazdimda ma’noviy jihatdan juda yaqin. Chunki ikkalasi ham xalq dardi bilan uxlab, o‘sha g‘am bilan uyg‘ongan.

Jadidchilik harakati hali vujudga kelmagan davrda Ogahiy o‘zi bilmagan holda Xorazm uyg‘onish davriga tamal toshini qo‘ygan edi. Muhammad Rizo Ogahiy ijodiy merosining o‘ziga xosligi juda ko‘p. Masalan, o‘z g‘azallarida taxmisdan ustalik bilan foydalanadi. Ogahiyning o‘z g‘azallariga bitgan 10 ta taxmisidan faqat bittasida g‘azal va muxammas hajmi orasida tafovut mavjud. Odatda, g‘azalga taxmis bog‘lanayotganda uning bandlari soni g‘azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba’zan shoirning xohishiga ko‘ra, g‘azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya’ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisda ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo‘lgan g‘azal aslida hajman 11 baytdan iborat. Ammo taxmis bog‘langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 9 band holiga keltirilgan.[1]

Ogahiyning ishqqa oid “Ta’viz ul-oshiqin” asari xalq orasida keng tarqalgan. Alisher Navoiy izdoshligi shundan ham ma’lum. Allohga (Rahmoniy ishq) bilan bu asarni yozadi. Yorga bo‘lgan ishq insonda shahvatni kuchaytiradi, rahmoniy ishq esa insonni poklaydi, iymonli, diyonatli, vijdonli bo‘lishga undaydi. Komil inson, ko‘zlarida beg‘uborlik, yuzlarida nur, so‘zlarida fayz bor mukammal shaxsni tarbiyalashdan iborat. 470 g‘azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje’band, 7 qit’a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma’shuq savol-javobi, 20 ta’rix, 19 qasidan iborat.Ogahiy mana shu asarda mustozodga yangilik kiritadi. Bu yangilik esa o‘z navbatida Xorazm qo‘shiqchilik maktabiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Bu asarning bosh qahramoni bu ishq. Iymonga chaqiruvchi, qalbni tinchlantiruvchi, o‘zgalarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lish kerakligi haqida. Ijodkor hech qachon o‘zini o‘ylamaydi, xalqni o‘ylaydi, ularning nigohi bilan dunyoga boqadi. Birinchi katta Vatan ya’ni mamlakat, kichik Vatan, ya’ni oilaning tashvishlari bilan ovora bo‘ladi. Ogahiyning har bir asarida ishq mavzusiga to‘xtalib o‘tadi. Sochlari uzun, yuzlarida dona xoli bo‘lgan, qoshlari qaldirg‘och qanotiday yorga emas Allohga bo‘lgan ishqdir. Chunki o‘n besh kunlik oyday bo‘lgan yorga muhabbat bu foniy o‘tkinchi ishq. Allohga nisbatan abadiydir. O‘zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga

[1]Dilnavoz Yusupova. “Ogahiy taxmislari”.

munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.

Xulosa qilib aytganda Muhammad Rizo Ogahiy ijodiy merosini o‘rganish har birimiz uchun muhim deb hisoblayman. Ayniqsa uning “Ustina” g‘azalini mutolaa qilish kerak deb o‘ylayman. Boshimizni tik tutib, shunday ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz!

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek milliy adabiyoti rivojida tutgan o‘rni. Toshkent, 2020-y.
2. M.R.Ogahiyning “Ta’viz ul –oshiqin”, 1960-y.
3. Ogahiy she’riyati. Toshkent, 1983-y.

HIND ERTAKLARIDA YORITILGAN OILA MAVZUSIGA OID AXLOQIY QADRIYATLAR: “VETALAANING YIGIRMA BESH HIKOYASI” ERTAGI MISOLIDA

Husnora BOTIROVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
hind-ingliz guruhi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. U.U. Muhibova

Annotatsiya: Ushbu maqolada hind ertaklari, ularda ko‘tarilgan mavzular va axloqiy qadriyatlar haqida ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot predmeti sifatida mashhur hind ertagi “Vetalaaning yigirma besh hikoyasi” to‘plami asos qilib olingan. Mazkur maqola orqali o‘quvchilar hind oilasi axloqiy qadriyatlari haqida ma’lumotlar olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Vetala, Vikramaditya, oilaviy qadriyatlar, “Sehrli o‘lik”, Vikram Samvat, oilaga aloqador hind mentaliteti, hind oilasida ota-ona va farzandlarning burchlari.

Ma’naviyat insondagi yaratuvchanlik qudratidir, insonda shu qudratni uyg‘otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo‘linsa, barcha ulug‘vor rejalarni amalga oshirish uchun zarur imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg‘or tamoyillari darajasida yondashilsa, milliy ta’limning eng muhim vazifasi ham ana shu imkonni shakllantirish, ya’ni yosh avlod ruhida yaratuvchanlik qudratini uyg‘otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan yo‘llar sari yo‘naltira bilish bilan belgilanadi.

Hind adabiyotida ertak janri alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklarning koʻpchiligi sanskrit tilidagi asarlar tarkibida kirib kelgan. Qadimgi hind adabiyotida ertak elementlari eposlar tarkibidayoq shakllanishni boshlagan. Jumladan, “Ramayana” va “Mohabharata” eposlaridagi juda koʻp ertak elementlari, xususan, hayvonlarning ishtirok etishi, ularning xuddi odamlardek gapirishi, haqiqat uchun kurashi yoki boʻlmasa turli gʻayritabiiy voqealar fantastik ertaklarning bosh elementlari hisoblanadi. Umuman olganda, hind adabiyotshunoslari eramizdan avvalgi va eramizning birinchi asrlarida nasriy adabiyotning shakllanishida folklorning, ayniqsa, nasriy ertaklarning ahamiyati nihoyatda katta, deb hisoblaydilar.

Hind ertaklarining aksariyati kompozitsion nuqtai nazardan toʻliq shakllanishi eramizning birinchi mingyilligiga toʻgʻri keladi. Koʻpchilik ertaklarning mazmuni va syujetini Vedalar yoki eposlar tarkibida uchratish mumkin. Hind ertaklari, anʼanalarga koʻra axloq-odob, pand-nasihat masalalariga bagʻishlangan. Qadimgi hind ertaklarining oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularning shakllanishida tashqi taʼsir boʻlmagan: ular milliy sof anʼana, milliy til asosida oʻz holicha shakllangan. Aksincha, hind ertaklarining boshqa xalqlar milliy adabiyotida taʼsirini kuzatish mumkin. Masalan, moʻgʻul adabiyoti ertagi boʻlgan “Sehrli oʻlik”ning hind ertagi “Vetaalaning 25 hikoyasi” moʻgʻulcha varianti ekanligi aniqlangan. Qadimgi hind ertaklariga quyidagilar kiradi:

- “Vetaalopanchovinshati” – Vetaalaning 25 hikoyasi
- “Hitopadesha” – Foydali maslahatlar
- “Jataka”
- “Shukasaptati” – Toʻtinoma
- “Sinxasanadvatrinshati” – Shoh taxti haqida oʻttiz ikki hikoya
- “Bharatakadvatrinshati” – Monarxlar haqida oʻttiz ikki hikoya va boshqalar. Hind ertaklarida ayrim sheʼriy kiritmalarni hisobga olmasa, asosan nasriy yoʻlda yozilgan. Deyarli barcha ertaklar sanskrit tilida yaratilgan. Hind ertaklarida jamiyatning turli vakillari: shoh, hunarmand, dehqon, oddiy xalq, savdogar, sudxoʻr, askar kabilar bosh va yordamchi obraz sifatida ishtirok etadilar. Barcha ertaklarga xos boʻlgan ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash hamda oxirida ezgulikning gʻalabasi hind ertaklariga ham xosdir.

Mashhur hind ertaklaridan biri boʻlmish “Vetalaaning yigirma besh hikoyasi”da ham turli tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyalar jamlangan. Ertak voqealari nafaqat oʻquvchini fikrlashga, jumboqlarga javob topishga majbur qiladi, balki ulardan tarbiyaviy jihatdan oʻrnak olishga ham chaqirdi. Ushbu ertaklar auditoriya hamda yosh tanlamaydi, u har qanday yoshdagi

kitobxon uchun yetarlicha ma’naviy ozuqa bera oladi. Ushbu ertakda jamlangan hikoyalar qahramonlari turli odamlar, ular ichida xalq donishmandlari ham, hukmdorlar ham, oddiy odamlar obrazi ham mavjud. Hikoyalar voqeasi hamda qahramonlar turlichaligidan qat’iy nazar ularning maqsadi bitta: o‘quvchiga tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan ma’naviy ozuqa yetkazish.

“Vikram-Vetaala” qahramonlari

Vikramaditya (Vikram) – qadimiy Hindistonning afsonaviy hukmdori. U barchaga o‘rnak bo‘la oluvchi ezgu fazilatlarga ega bo‘lganligi ta’kidlanib, jasorati, donoligi, saxovatpeshaligi va xalqparvarligi madh etilgan. Vikramaditya “Beital Pachisi” va “Singhasan Pachisi” kabi yuzlab hikoyalarning qahramoniga aylangan. Ba’zilar uni Ujjain shahri (ayrim hikoyalarda Pataliputra yoki Pratishthana) ning zakovatli hukmdori deb ta’riflaydi. Mashhur an’anaga ko‘ra Vikramaditya miloddan avvalgi 57- yilda “Vikrama Samvat” erasini boshlab bergan ekan. Shundan kelib chiqib uning tarixiy shaxs ekanligiga ishonganlar Vikramadityaning yashash davrini miloddan avvalgi 1-asrga bog‘laydilar. Lekin ba’zi manbalarda “Vikrama Samvat” milodiy 9-asrdan keyin boshlagan deyiladi. Shuningdek, Vikramadityaning xislatlari juda xayoliy bo‘lganligi uchun uni faqat afsonaviy hukmdor bo‘lganiga ishonadiganlar ham bor. “Vikramaditya” – “jasorat quyoshi” degan ma’noni anglatadi. Uning yana “Vikrama”, “Bikramjit” va “Vikramarka” nomlari ham mashhur.

Vikramaditya haqidagi ilk asar miloddan avvalgi 1-asr va milodiy 3- asrda Pishachi tilida yozilgan “Brihatkatha” bo‘lishi mumkin. Satavahana hukmdori Halaga bag‘ishlab yozilgan she’rlar to‘plami “Gaha-Sattasai”da barcha boyligini yaxshilik yo‘lida sarf qilgan Vikramaditya ismli hukmdor nomi aytib o‘tiladi.

O‘rta Osiyolik alloma Al-Beruniy Hindistonga borganida u yerda hindlar 5 ta eradan foydalanishini keltirib o‘tgan: Shri Harsha, Vikramaditya (miloddan avvalgi 57-yil), Shaka (milodiy 78-yil), Vallabha va Gupta eralari. Vikramaditya erasi janubiy va g‘arbiy Hindiston hududida foydalanilgan. Shuningdek, Beruniy xalq orasida mashhur bo‘lgan bir afsonani ham keltirib o‘tgan: hukmdor Shaka shimoli-g‘arbiy Hindistonni bosib oladi va hindlarga zulm o‘tkazadi (bir manbada uni shudra kastasiga mansub, deb aytilsa, boshqa birida g‘arbdan kelgan kelgindi deb ataydilar). Milodiy 78-yilda hukmdor Vikramaditya u bilan jang qilib, Shakani Mo‘lton va Loni qasri o‘rtasida joylashgan Karur hududida o‘ldiradi. Xalq vakillari va munajjimlar shu sanadan yangi erani boshlagan ekanlar.

Vikramaditya erasi va Shakar erasi o‘rtasidagi tafovut 130 yildan ko‘proqni tashkil etganligi uchun Beruniy Vikramaditya ismli ikki hukmdor yashab o‘tgan, degan xulosaga keladi: Vikramaditya erasi birinchi hukmdor nomidan olingan, Shaka bilan jang qilgan hukmdor esa Vikramaditya 2 bo‘lgan.

Vetaala - hind mifologiyasiga ko‘ra qayta tirilgan ruh bo‘lib, odatda unga o‘tmish, bugun va kelajakni ko‘ra oladigan bilimdon ta’rifi berilgan. G‘arb mifologiyasida u “Vampirlar” bilan taqqoslanadi, lekin Vetaalaning farqi shundaki, u ruh bo‘lib, murdani xohlagan vaqtda tark eta olishi mumkin. Hind xalq og‘zaki ijodida Vetaalaning yovuz odamlar tanasiga kirib olib, yomonliklar qilishi haqida aytib o‘tilgan. Ularning bu dunyo va narigi dunyo orasida qolib ketganligi haqida afsonalar ham mavjud. Ularni faqat mantralarni o‘qib quvib chiqarish mumkin. Vetaalaga vaqt va makon qonunlari ta’sir qilmagani bois, u insonning ichki dunyosini, o‘tmishi va kelajagini bila oladi.

“Vetalaaning yigirma besh hikoyasi” ertagida yoritilgan oila mavzusiga oid axloqiy qadriyatlar

Oila har bir jamiyatning asosidir. Birinchi axloqiy, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar uyda ota-onalarning farzandlariga etkazadigan va o‘z navbatida ota-bobolari, aka-ukalari, amakilari, amakilari va boshqa qarindoshlari yoki yaqinlari tomonidan o‘rgatilgan ta’limotlar orqali o‘rganiladi. Bir-birimizga g‘amxo‘rlik qilish, keksalarni hurmat qilish, uy ishlari bilan hamkorlik qilish, xushmuomalalik va halollik odamlarni o‘zlari ishtirok etgan har bir ijtimoiy guruhda yaxshi fuqaro sifatida tutishga majbur qiladi. Oilalar o‘zlariga asoslangan aniq belgilangan qadriyatlarga ega bo‘lishi muhimdir, chunki ular o‘z navbatida ularning avlodlariga yetkaziladi. Doimiy qadriyatlarga ega bo‘lish oila qurilishi, uning birligi va barcha a’zolari o‘rtasida ishonchning bir qismidir.

Hindiuzm ta’limotiga ko‘ra oila qurish Moksha (yetuklik)ka yetishishning muhim bosqichlaridan biridir. Oila hindlar uchun muhim pog‘ona bo‘lib, aynan shu yerda ular yomondan yaxshini ajratishni va qanday qilib yaxshi inson bo‘lishni o‘rganadilar. Hindiuzm ta’limotida ota-onalarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Farzandlarni moliyaviy, ma’naviy ta’minlash
- Kundalik ibodatlarni ado etish, farzandlarga din, ibodat, ezgulik haqida o‘rgatish
- Farzandlarining ibodat va sadaqalarni o‘z vaqtida ado etishini, ibodatxonaga borishini ta’minlash

Farzandlar esa quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:

- Ota-onaga itoat etish

- Ota-onani hurmat qilish, e’zozlash
- Ota-onasi keksayib qolishsa, ularga g‘amxo‘rlik qilish

Hinduizm ta’limotida oila hindlar uchun ikkinchi ashram ya’ni muqaddas joydir va bu ular uchun burch hisoblanadi. Shuningdek, oilada erkakning vazifasi ayoli va farzandlarini himoya qilish, ota-onasini e’zozlash va boshqalardir. E’tiborli tarafi, ayollar doim nozik xilqat sifatida qaralgan, avaylab-asralgan. Masalan, Manu qonunlariga ko‘ra ayol hech qachon bee’tibor qoldirilmasligi kerak: bolaligida otasi, yoshligida turmush o‘rtog‘i va keksayganda farzandi uni asrashi kerak.

“Vetaalaning yigirma besh hikoyasi” to‘plamida ham oilaviy qadriyatlar bo‘yicha bir qancha jihatlarni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, bular orasida nikoh masalasi bo‘yicha qizlar ota-onalariga quloq solishlari, ularning xohish-istaklarini inobatga olishlari ahamiyatga molik. Masalan, ikkinchi va uchinchi hikoyalarda qizlar bo‘lajak turmush o‘rtoqlari borasidagi otalarining tanloviga ishonadilar, so‘zsiz rozi bo‘ladilar. To‘qqizinchi hikoyada esa ota o‘z qizidan nikoh bo‘yicha xohishlarini so‘rash manzarasini kuzatish mumkin:

Qirol o‘z qiziga munosib nomzod izlashdan oldin qizini chaqirib, uning ko‘nglini so‘raydi. Agar ma’qul bo‘lsa kuyov tanlash marosimini o‘tkazish taklifini beradi. Malika esa unga quyidagicha javob beradi:

“Otajon, bu marosim men uchun juda xijolatli, shuning uchun buni o‘tkazishingizni xohlamayman. O‘z kasbining ustasi bo‘lgan bir yigitni o‘zingiz tanlashingizni istardim. Men uchun kasta yoki boylik muhim emas”.

Malikaning nutqidan hind qizlarining otalariga itoati, lekin shu o‘rinda ularning istaklari inobatga olinishi ham ko‘rinadi.

Shuningdek, ertaklarda nikoh masalasida qizlar yigitlarning boyligiga emas, jasurligi, donoligi va qobiliyatli ekaniga urg‘u berishlari va buni ota-onalari qo‘llab-quvvatlashlarini ham kuzatish mumkin. (5-hikoya)

Farzandlarning otalariga bo‘lgan itoatining yana bir namunasini to‘rtinchi hikoyada ko‘rish mumkin:

Bir mamlakatning odil va saxovatpesha hukmdori ma’budlar tomonidan o‘limga mahkum etiladi. Uning yaqin xizmatkori esa davlatning adolatli hukmdorini qutqarib olish uchun choralar izlaganida, bu uchun yosh Bolani qurbon qilish kerakligi ma’lum bo‘ladi. Xizmatkor uyiga borib, kichik o‘g‘liga vaziyatni tushuntirganiga farzandi hech ikkilanmay bunga rozi bo‘ladi:

“Otajon, agar mening hayotim evaziga hukmdorimiz tirik qolsalar, men buni mamnuniyat ila qabul qilaman. Shohimizning odilligidan farovon yashadim. Nimani kutyapsiz? Meni tezroq olib boring va uni qutqaring”.

Oilada er-xotin o‘rtasidagi axloqiy qadriyatlar ham ertakda turli obrazlar vositasida ta’sirchan tarzda ochib berilgan. Masalan, uchinchi hikoyada ayolning eriga sadoqati tasvirlangan bo‘lsa, o‘n ikkinchi hikoyada oilada erkak ayoli bilan bamaslahat ish yuritish, ayolini himoya qilish kabi xislatlarni uchratish mumkin:

“Vazir uyiga qaytgach, o‘zining dono ayoli Medhaavinidan maslahat so‘radi:

- Azizam, shohimiz faqat aysh-ishratga berilib qoldi. Davlat ishlarini esa menga tashlab qo‘ydi. Xalq esa meni shohni sehrlab, hokimiyatga ega chiqqanlikda ayblamoqda. Yomon g‘iybatlar hatto eng ezgu fazilatli insonlarga ham ta’sir qilmasdan qolmaydi. Hatto Ram ham Sita haqidagi g‘iybatlarga ishongan edi. Endi men nima qilishimni maslahat berasan?

- Xojam! Hukmdor huzuriga borib, undan sizga biroz muddatga ta’til berishini so‘rang. Yoshingizni hisobga olib, shohimiz ham sizni vazifalardan ozod qilarlar. Xalq ham sizni tushunadi. Bu orada shoh o‘zi davlatni boshqarishga majbur bo‘ladi va qarabsizki, bunga o‘rganib qoladi. Qaytganingizda esa hech kim sizdan norozi bo‘lmaydi.

Vazir xotinining maslahatiga kiradi va hammasi iziga tushadi”.

O‘n to‘rtinchi hikoyada esa ayolining ezgu fazilatli ekani sababli eri yaxshi tomonga o‘zgarganining guvohi bo‘lamiz. Ayolning fazilatli bo‘lishi oilani farovonlikka yetaklashi haqida mazkur namunalar bashariyat uchun umumiy ekanining yaqqol dalilidir.

“Vetaalaning yigirma besh hikoyasi” asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib, yangicha ma’nolar bilan boyib kelgan. Bu ertak orqali barchaga o‘rnak bo‘la oluvchi xalqparvar, va’daga vafoli, adolatli va oqil hukmdor g‘oyasi xalq orasida keng yoyilgan. Hukmdor Vikramadityaning qilgan jasorati, irodasi va yuksak e’tirofga munosib aql-u zakovati turli davrlardagi hukmdorlar uchun mash’ala bo‘lib xizmat qilgan.

Namunaviy hukmdor obrazi bilan birga bu ertak orqali hind xalqining milliy urf-odatlari, an’analari ham ko‘zga tashlanadi. Vetaala aytgan hikoyalarda nafaqat hind xalq ertaklari, balki butun dunyo xalqlari adabiyotida uchraydigan fazilatlar: do‘stga sadoqat, ota-onaga, yurtga, yoriga bo‘lgan mehr-muhabbat, milliy an’analarga hurmat, yaxshilik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, doimo o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zish, oliyjanoblik kabilar ulug‘lanadi. Hamma ertaklarda bo‘lgani kabi, mazkur “Vetaalaning yigirma besh hikoyasi” da ham ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, g‘araz niyatli kishilar qilmishlariga yarasha jazolanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Vetaalaning yigirma besh hikoyasi” hind adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, unda hind

xalqiga xos xususiyatlar mujassam etilgan. Bu ertak har bir kitobxonni o‘ylashga, tafakkur etishga, jumboqlarga tezkor javob topishga o‘rgatadi hamda o‘zgacha estetik zavq beradi. Hind adabiyotini, xalqning urf-odatlari, an’analari, tarixi va o‘ziga xos udumlarini o‘rganishda katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Emanuel Koskan. “Contes Populaires de Lorraine”, volume 1
2. Stith Thompson. “Folktale”, The Dryden Press, New York 1946
3. Joseph Jacobs. “Indian Fairy tales”, 1912
4. Edvin Arnold. “Hitopadesha” translation from the Sanskrit, London 1861
5. “Beetal Pachisi” – “Twenty five fairytales of Vikram Vetal”

TARJIMASHUNOSLIK VA QIYOSIY TILSHUNOSLIK

ARAB TILINING DUNYO MIQYOSIDA TUTGAN O‘RNI: ARAB TILIDA ASRLARDAN BUYON YOZILGAN ASARLAR, ARAB ADABIYOTINING JAHON TILLARIGA TARJIMALARI

Maxliyo MAMATQULOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, katta o‘qituvchi D. Mubarakova

Annotatsiya: Quyida keltirilgan maqolada arab tilining dunyo miqyosida qay darajada qabul qilinishi bilan birgalikda mazkur tilda yozilgan va asrlardan buyon omma e’tiboridan tushmay kelayotgan asarlar haqida gap ketadi. Asarlar ro‘yxati asosan hududga qarab taqsimlab chiqilgan va bundan siz keltirib o‘tilgan hududlarda arab tilining qanday darajada tarqalganligini bilib olishingiz mumkin. Maqolada yana hozirgi kunda va o‘tgan asrlarda tarjima qilingan asarlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yana maqola so‘ngida hozirgi kunda eng ko‘p tarjima qilinayotgan 10 dan ortiq arab tilidagi asarlar ro‘yxati va ularda yozilgan voqealar haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Quyida keltirilgan maqolada arab tilining dunyo miqyosida qay darajada qabul qilinishi bilan birgalikda mazkur tilda yozilgan va asrlardan buyon omma e’tiboridan tushmay kelayotgan asarlar haqida gap ketadi. Asarlar ro‘yxati asosan hududga qarab taqsimlab chiqilgan va bundan siz keltirib o‘tilgan hududlarda arab tilining qanday darajada tarqalganligini bilib olishingiz mumkin. Maqolada yana hozirgi kunda va o‘tgan asrlarda tarjima qilingan asarlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yana maqola so‘ngida hozirgi kunda eng ko‘p tarjima qilinayotgan 10 dan ortiq arab tilidagi asarlar ro‘yxati va ularda yozilgan voqealar haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: arab-bo‘lmagan, arab mamlakatlari, globallashuv, geosiyosiy vaziyat, tarjima qilingan asarlar, turkiy xalqlar, arab adabiyoti, yozma manbalar, xristian olimlar

Bizga ma’lumki, arab tili dunyo bo‘yicha eng ko‘p so‘zlaniladigan tillardan biri hisoblanadi. Mazkur til xalqaro til sifatida 1973-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan oltinchi xalqaro til sifatida qabul qilingan. Bunga asosiy sabablardan biri-ushbu tilning Islom dini bilan bog‘liqligi. Internet ma’lumotlariga ko‘ra hozirda 450 million inson orasida

bu til asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shulardan deyarli teng yarmi ya’ni 220 millionining asl kelib chiqishi arab bo‘lib, mazkur til ular uchun ona tili vazifasini o‘taydi. Qolgan yarmi arab-bo‘lmagan aholi bo‘lib turli sabablarga ko‘ra arab tilini o‘zlashtirganlar. Bu insonlarda nima sababdan arab tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan xohishning paydo bo‘lganligi diniy dunyo qarash bilan birgalikda, arab adabiyotidagi va yozma arab manbalaridagi turli sohalarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarning ko‘pligi bilan izohlanadi. Ayniqsa tarix, arab va boshqa qo‘shni millatlarning qadimiy madaniyati diniy, sohasiga oid ma’lumotlar anchaginani tashkil etadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida esa arab tilining so‘zlashish miqyosi anchagina ortib bormoqda. Bunga sabab faqatgina uning Islom tili bo‘lgani emas, balki, Arab mamlakatlarining jahon iqtisodiy, siyosiy sohalarida ham bir qancha yuqori darajalarni zabt etganligi bilan izohlanadi. Bu fikrning isboti sifatida oxirgi yillarda arab mamlakatlariga xorijiy migrantlar tashrifining ortganligini keltirib o‘tsak bo‘ladi. Xalqaro Ishchilar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilning o‘zidagina Qatarda migrantlar soni o‘tgan yillarga nisbatan 10.5% ga oshib, bu ko‘rsatkich 330 ming kishini tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu migrant-ishchilarning ko‘pchilik qismi arab tilini o‘zlashtirishga majbur bo‘lyapti. Bu ham arab tilining dunyo miqyosida keng foydalanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq keltirib o‘tilgan kattagina ko‘rsatkichlarga qaramasdan, Malayziyadagi Islom Universiteti tomonidan o‘quvchilar orasida olib borilgan so‘rov natijalariga ko‘ra arab tili eng o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan tillar orasida yuqori o‘rinlarni egallaydi. Bunga esa asosiy sabablardan mazkur tilni o‘zlashtirish uchun foydalaniladigan manbalarning yetishmasligi, talaffuz me’yorlarining bir muncha o‘ziga xosligi, jinslarda bo‘linishi va eng asosiysi arab tilidagi bitta so‘z turli matnlarda turli ma’no ko‘chishlari orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Ammo shunga qaramasdan, qadimdan mazkur tildan olimlar anchagina samarali foydalanganlar, hatto bu tilda boshqa hududlarning tarixiga oid ma’lumotlarning mavjudligi bu tilda ijod qilganlarning tilni yuksak darajada o‘zlashtirganligidan dalolat beradi. Masalan Abu al Fajar al Isfahoniyning “Kitob al-Aghani” asari arab madaniyati ta’sirida yoziladigan she’rlar, qo‘shiqlar va musiqalar uchun qo‘llanma sifatida yozilgan. Ushbu kitob 20 ta bobdan iborat bo‘lib X asrda yozilgan. Asarda qadimgi arab xalqlarining she’rlari va qo‘shiqlari ijodkor tomonida 50 yil mobaynida yig‘ilgan. Mazkur kitob 10 ming varaqdan ortiq bo‘lib, unga 16 mingdan ortiq she’r namunalari kiritilgan. Kitob uchta qisimga bo‘linadi: uning

birinchi qismi “100 ta eng yaxshi qo‘shiqlar” deb nomlanib ularning deyarli barchasi Xalifa Xorun ar Rashid tomonidan tanlangan. Ikkinchi qismi esa qirol oilasi uchun yozilgan she’r va qo‘shiqlardan tashkil topgan, asarning uchinchi qismi haqida gap ketadigan bo‘lsa, ushbu bobga Islom dini kelishidan oldin mavjud bo‘lgan arab xalqlarining og‘zaki ijod namunalari to‘plangan. Asar tarixiy va lirik ahamiyatga ega bo‘lib, Arab adabiyoti va tarixiga qiziqqanlar uchun foydalidir.

X asr yakunida Bag‘dodda yaratilgan Al Nadimning “Mundarija” asari o‘z davrining kitobxonlari tomonidan yuksak baholangan. Ushbu asarda turli xil sohalarga oid ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, X asrdagi Xristian, Yahudiy, Islom dinlari haqida qimmatli ma’lumotlar bilan birgalikda arab grammatikasi, filologiyasi, tarixi she’riyati, arab qonun-qoidalari, bibliografiyasi, hadislar, alkimyo va shunga o‘xshash sohalarga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari asarda Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy hududlari haqida tarixiy faktlarni o‘zida jamlagan. Bu asar arab klassikasining nodir namunasi hisoblanadi.

Ingliz tilida ham arab adabiyotlarining tarqalishi 2010-yilda beri ancha yuqorilaganligi LAF(British based literature Across Forontiers) tashkiloti tomonida olib borilgan tatqiqotlardan ma’lum bo‘ladi. 2010-2020-yillar oralig‘ida arab-ingliz tarjimalarining soni 596 tani tashkil etgan va bu kitoblar Angliya va Irlandiya hududlarida birdek tarqalib, bu ishlar o‘z ichiga iqtisodiy, ilmiy, badiiy va turli yo‘nalishlardagi kitoblarni jamlaydi. Ahamiyatlisi shundaki, bu ko‘rsatkich 1990-2010-yillarda 310 tani tashkil etgan bo‘lib, bu o‘tgan vaqt oralig‘ida tarjima qilingan kitoblar soni ikki barobar oshgan. LAF tadqiqotchilari esa hali bu sohada qilinadigan ishlarning ko‘pligi va arab adabiyotining mag‘ziga yetish uchun uzun bir yo‘lning mavjudligini ta’kidlashgan. Yuqorida tarjima qilingan kitoblar sonini barcha arab mamlakatlariga taqsimlaydigan bo‘lsak, Misr davlati eng yuqori o‘rinni egallaydi va bu ko‘rsatkich 127 tani tashkil etadi, Misrdan tashqari keyingi yuqori o‘rinlarni Iroq va Falastin davlatlari egallaydi va mos ravishda 114 ta va 71 tani tashkil etadi. Bu kitoblar orasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan misrlik ijodkor Najib Mahfuzning asarlari dunyo bo‘yicha mashhur bo‘lib Britaniya va Irlandiyada keng ko‘p tarjima qilingan kitoblar hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha eng ko‘p arab tilidan tarjima qilingan kitob bu Qur’on bo‘lib, bu kitob dunyo bo‘ylab 173 ta tilga tarjima qilingan. Qur’ondan keyingi o‘rinlarda Inam Kachachining “Quvg‘in” (Dar al Jadud) kitobi turadi. Ushbu kitob Arab tarjima- adabiyotining Saif Ghobash Banipal

mukofotiga sazovor bo‘lgan. “Quvg‘in” romani yo‘qotilgan uy, sevgi va arab madaniyati haqida so‘zlaydi.

Undan keyingi o‘rinlarda Najot Abed Alsmadning “Urushning yoqimliligida” (Madarek Publishing Hause 2015). Ushbu kitobni tarjima qilgan ijodkor Anam Zafer kitob haqida “Mazkur asarda Suriyadagi real hayotni to‘g‘ri va aniq yoritilgan” deya ta’kidlagan. Asarda ijodkor hayotning ko‘p qirrali ekanligini yoritish maqsadida turli xil jamiyatdagi odamlarga murojaat qiladi. Va shu sababli asar qahramonlari sifatida shaharda, qishloqda va shahar chetlarida yashovchi boy va kambag‘al insonlar, beva onalar, talabalar va pionerlarni oladi.

Taghreed Najjorning “Oqimga qarshi” (Al Sahva Books 2013) asari ham keng ko‘p tarjima qilinadigan kitoblar sirasiga kiradi. Mazkur asar real hayotiy voqealarga asoslangan bo‘lib, 15 yoshli baliqchi qiz haqida yozilgan.

Shadiy Levisning “Grinvich yo‘nalishida” (Dar Flain, 2019) asari ijodkorning Londonda yashagan davrlari haqida so‘zlaydi. Bu asar ham tarjima qilinadigan asarlar orasida yuksak baholanadi.

2009-yilda “Shayx Hamad”, 2020- yilda esa “Prix de la Literature Arabe” mukofotiga sazovor bo‘lgan Abdulaziz Baraka Sakin o‘zining “Samahani” asari bilan mashhur. Ushbu asar portugallar tomonidan sodir etilgan Oman yerlaridagi bosqinlar haqida bo‘lib, XX asrning eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan kitobi hisoblanadi.

Yana bir arab adabiyotidan eng ko‘p tarjima qilinadigan asrlardan biri Jan Do‘stning “Xavfsiz o‘tish” (Dar Masciliana 2019) asari bo‘lib, bu asar haqida Marilyn Booth (2019-yilning eng yaxshi kitobxoni) ning fikricha ushbu asar Suriyadagi fuqarolik urushlari haqida ochiqdan ochiq yozilgan. U yana asarning bosh qahramoni o‘quvchi xotirasida o‘zining hozirgi Suriya haqidagi nuqtai nazari bilan qolishini aytib o‘tgan.

“Anna Frankning uyida” asari bilan Makka Hasan arab tarjimashunosligida yuksak qadrlanadi. Mazkur asar germaniyalik kuzatuvchi Anna Frankning Tunis, Misrga bo‘lgan sayohatlarini yoritgan.

Badr Ahmadning “Besh kunlik sukut”(New Dalmoun for Publishing and Disturbution 2021) asari ham dunyo bo‘yicha arab tilidan eng ko‘p tarjima qilinadigan kitoblar sirasiga kiradi. Bu asar o‘zida urushning dahshatlari, sovuqligi va har bir zarraga ta’sirini aks ettiradi.

Liviyalik yozuvchi Najva bin Shafvan o‘zining “Ot yoli” asari bilan “Xalqaro Arab qisqa asarlari” mukofotini oladi va bunda ko‘rinib turibdiki, bu asar ham dunyo xalqlari tomonidan yuksak qadrlanadi. Asar mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ikki inson o‘rtasidagi munosabatlar haqida yozilgan.

Iman Marselning “Inoyat Zayotning izidan” (Kotobkhan Books 2019) asari ham mashhur asar hisoblanib, dunyo bo‘yicha eng ko‘p o‘qiladigan kitob sanaladi. Mazkur asar asosan ijodkorning o‘z hayoti haqida yozilgan bo‘lib, detektiv va she’riyat hayoli bilan boyitilgan. Bu kitob 2021- yilda “Shayx Zayid” mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha ma’lumotlardan shunday xulosaga kelsak bo‘ladiki, arab tili asrlardan buyon ayrim davlatlarning asosiy tili sifatida ayrim hududlarda esa Islom tili sifatida keng tarqalgan. Hozirda ham arab tiliga bo‘lgan e’tiborning yuksakligi bu tilda qadimdan beri to‘planib kelingan ma’lumotlarning anchagina ekanligi bilan xarakterlanishini aytib o‘tishimiz kerak. Keltirib o‘tilgan kitoblarning barchasi dunyo xalqlari tomonidan qadrlanib, o‘qilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. An Opinion Analysis Tool for Colloquial and Standard Arabic (https://www.researchgate.net/publication/236833228) Mohammed N. Al-Kabi(Zarqa University), Izzat Alsmad(Texas A&M University San Antonio),Amal Gigieh(Al-Balqa’ Applied University), Heider Ahmad Wahsheh(King Faisal University).
2. Arabic Language: Historic and Sociolinguistic Characteristics https://www.researchgate.net/publication/307167761 Ibrahim Al-Huri (Sheba Region University — Yemen)
3. A History of the Arabic Language.Brian Bishop Linguistics 450 April 24, 1998
4. Effective Methods in Learning Arabic Language as a Foreign Language https://www.researchgate.net/publication/303028663 .Rosni Samah(USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Fariza Puteh-Behak(USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Noor SAAZAI Mat Saad (USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Ramiaida Darmi (USIM | Universiti Sains Islam Malaysia)
5. https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/
6. THE ROUTLEDGE HANDBOOK OF ARABIC TRANSLATION (’Routledge_Handbook_of_Arabic_Translation.) (Edited by Sameh Hanna, Hanem El- Farahaty and Abdel- Wahab Khalifa)
7. https://readingwithkt.home.blog/2020/07/21/books-by-women-in-translation-from-arabic/
8. The paradox of translating the untranslatable: Equivalen vs. non-equivalence in translating from Arabic into English Amira D. Kashgary

Department of English, College of Arts and Humanities, King Abdul-Aziz University, Jeddah, Saudi Arabia

9. Facets from the Translation Movement in Classic Arab Culture Hala Khalidi a, BasmaAhmad Sedki DofJordan, Amman.

10. https://brill.com/display/book/edcoll/9789004472648/BP000005.xml?language=en

11. https://arablit.org/2014/05/22/report-arabic-fourth-most-translated-literary-language-in-the-us-in-2014

12. https://publishingperspectives.com/2017/11/uae-rewayat-imprint-translations-arabic-adult-readers/

13. https://www.altalang.com/beyond-words/a-note-on-arabic-literacy-and-translation/The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

KOSMETIKA MAHSULOTLARI REKLAMASINING TARJIMA XUSUSIYATLARI

Muxlisa RAXMONOVA
TDSHU "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasi, 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dots. v.b. N.R. Ismatullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoycha kosmetika reklama matnlarining o‘zbek tiliga tarjimasidan misollar ko‘rib chiqilgan. Kosmetik reklama tili og‘zaki muloqotning o‘ziga xos turidir. Leksik uyg‘unlik nuqtai nazaridan, xitoycha kosmetika reklama matnlarida ko‘p sonli so‘zlardan foydalaniladi. Bu ham kosmetika reklamalarining boshqa reklama matnlaridan eng katta farqi hisoblanadi. O‘z o‘rnida reklama matni tarjimasi esa mushkul tarjima turlaridan hisoblanib, reklama kuzatuvchisiga reklama maqsadini tushunish, qabul qilish ta’sirini tarjimada saqlagan holda yetkazib berish kabi vazifalardan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Kosmetik reklama, Devid Auger Vey, Qi Yunfang, Uinston Cherchill, vizual.

Reklama kompaniyalarining maqsadi tovarlar va xizmatlarni sotishni rag‘batlantirish va reklama beruvchilarga ulardan foyda olish imkoniyatini berishdir. [Devid Auger Vey, 2010:110]. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki,

tijorat reklamasining targ‘ibot effekti, iqtisodiy samarasi va madaniy ta’siri juda tez va faoldir.

Tijorat reklamasi bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilar: tijorat reklamasi bu rejalashtirilgan, maqsadli faoliyatdir. Tijorat reklamasining asosiy qismi kompaniya, korxona, savdogar va boshqa reklama beruvchilar hisoblanadi. Tijorat reklamasining aksi esa kompaniya, korxona, savdogar va boshqa reklama beruvchilardir. Ko‘p sonli mavjud yoki potensial iste’molchilar singari; tijorat reklamasi ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Reklama vizual va eshitish kabi qismlardan iborat. Vizual qismga quyidagilar kiradi: 1. Til va matn: sarlavha, matn, identifikatsiya belgilari, shiorlar va savdo belgilaridir. 2. Noverbal belgilar: belgilardan tashqari barcha vizual tasvir elementlariga murojaat qilish va eshitish kiradi. [Qi Yunfang, 2003:6]. Shu jumladan tijorat reklamasi, ayniqsa, iqtisodiy globallashuv sharoitida ishlab chiqarish korxonalari va kompaniyalari uchun iqtisodiy faoliyatdir. U mexanik ravishda bog‘langan bo‘lib, bu bozorda tovar aylanishiga katta yordam beradi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Uinston Cherchillning fikricha: Reklama odamlarning iste’mol kuchini rivojlantiradi. U odamlarning baxtli hayot kechirishiga undaydi. [David Ogilvy, 2010: 186].

Tijorat reklamasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy faoliyatdir. Shu bilan birga, u tovar ishlab chiqarish korxonalari madaniyatini yuksaltiradi va tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning turmush tarzi va qadriyatlarini tarqatadi. Bu odamlarning moddiy turmush darajasini oshirish bilan birga, ma’naviy hayotini ham ancha boyitadi. [Devid Ogilvi, 2010: 11]. Demak shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda reklama tarjimalariga ehtiyoj juda katta.

Mazkur maqolaning maqsadi shundan iboratki, xitoycha kosmetika reklama matnlarida ko‘p qo‘llaniladigan so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjimasini tahlil qilish va kosmetika reklama matnlarining tarjimasidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilar:

- Xitoycha kosmetika reklamalari matnini izlab topish
- Xitoycha kosmetika reklamalari matnining tarjimasida o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Xitoycha kosmetika reklamalarida ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlarni tanlab olib tahlil qilish;

Xitoycha kosmetika reklamalarining o‘zbek tiliga tarjimasida ko‘p qo‘llaniladigan so‘z birikmalarini aniqlashda chog‘ishtirish va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Ushbu maqolaning tadqiqot manbasi etib, ommaviy axborot vositalaridagi xitoycha kosmetika reklama matnlari olindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida xitoycha kosmetika reklama matnlaridagi koʻp foydalaniladigan soʻzlar va soʻz birikmalarining oʻzbek tiliga tarjimada berilishi tadqiqot obyekti sifatida ishlatiladi.

Kosmetik reklama tili ogʻzaki muloqotning oʻziga xos turidir. Leksik uygʻunlik nuqtai nazaridan, xitoycha kosmetika reklama matnlarida koʻp sonli soʻzlardan foydalaniladi. Bu ham kosmetika reklamalarining boshqa reklama matnlaridan eng katta farqi hisoblanadi. Quyida kosmetik reklamalari matnlarining oʻzbek tiliga tarjimasi va ularda koʻp qoʻllaniladigan soʻzlarni koʻrib chiqamiz.

1. 牙牙长得壮，要营养

(Yáyá zhǎng dé zhuàng, yào yíngyǎng)

营养在哪里呢？

(*yíngyǎng zài nǎlǐ ne?)*

伢牙乐，有营养，鲜果的 VC 加 VE。

(Yáyá lè, yǒu yíngyǎng, xiānguǒ de VC jiā VE)

伢牙乐，有营养，牙牙健康白又壮。

(Yá yá lè, yǒu yíngyǎng, yá yá jiànkāng bái yòu zhuàng)

(纳爱斯伢牙乐儿童牙膏)

(Nà ài sī yá yá lè er tóng yágāo)

Tishlar sogʻlom boʻlishi uchun, oziqlanishi kerak.

Ular qanday oziqlanadi?

Biz bolalarning sut tishlari oziqlanishi va sogʻlom oʻsishi uchun, yangilik qilib, VC va VE vitaminlarini qoʻshdik.

Bu orqali tishlar oziqlanadi, sogʻlom boʻladi va oqaradi.

(**Naaisi bolalar tish pastasi)**

1. Ushbu kosmetik reklamaning birinchi jumlasini 牙牙长得壮，要营养 *(Yáyá zhǎng dé zhuàng, yào yíngyǎng)* soʻzma-soʻz tarjima qiladigan boʻlsak, “Kuchli boʻlish uchun ovqatlanish kerak” degan tarjima kelib chiqadi. Lekin biz ushbu jumlani “Tishlar sogʻlom boʻlishi uchun, oziqlanishi kerak” deb tarjima qildik. Ushbu reklamaning qolgan jumlalarida ham soʻzma-soʻz tarjimadan qochgan holda, iloji boricha oʻzbek tiliga moslashtirib, tushunarli qilib tarjima qilishga harakat qilindi. Chunki ushbu kosmetik reklamaning maqsadli auditoriyasi bolalardir. Shu sababli, mazkur kosmetika reklamasi tarjimasida bolalarcha va ular uchun tushunarli boʻlgan soʻzlardan foydalanishga harakat qildik.. Bu orqali bolalarni nafaqat oʻziga jalb qilishi, balki tishlarni saqlash zarurligini targʻib qilish,

shuningdek iste’molchilarni kuzatish uchun mahsulot tarkibi va funksiyasini tanishtirish mumkin.

2. 小心仿妆会穿越. 记得带上贝德玛 B5 眼唇卸. 贝德玛「B5 眼唇卸」净澈不糊眼润养更修护. 现在就来.等你来哦. *(xiǎoxīn fǎngzhuāng huì chuānyuè. jìdé dàishàng bèidé mǎ B5 yǎnchún xiè. bèidé mǎ [B5 yǎnchúnxiè] jìngchè bù húyǎn rùnyǎng gēng xiūhù. xiànzài jiù lái.děng nǐ lái é).*

Taqlid qilib bo‘yanishdan ehtiyot bo‘ling. Bioderma B5 ko‘z va lablarni tozalash vositasini olib yurishni unutmang. Bioderma “B5 ko‘z va lablarni tozalash vositasi” teringizni yaxshilab tozalaydi va siz noqulaylikni his qilmaysiz. Ko‘zlaringiz terisini oziqlantiradi, tiklaydi va himoyalaydi. Hoziroq xarid qiling. Sizni kutamiz.

Yuqoridagi kosmetika reklama matni tarjimasida ham so‘z tanlashga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan ushbu reklamadagi 修护(*xiūhù)* so‘zi o‘zbek tiliga “ta’mirlash” deb tarjima qilinadi. Biz ushbu so‘zni “tiklaydi” deb tarjima qildik. Chunki reklama tarjimasi iste’molchilarga tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi lozim.

3. 餐厅里，妈妈和女儿手里拿着面包:

(cāntīng lǐ，māmā hé nǚér shǒu lǐ ná zhe miànbāo:)

女儿：“你洗手了嘛？”

(“nǐ xǐshǒu liǎo ma？”)

妈妈笑道：“洗啦！”

(māmā xiàodào：“xǐ lā!”)

滴露洗手液

(dīlù xǐshǒu yè)

Restoranda, ona va qiz qo‘llarida non ushlab turishardi:

Qiz: “qo‘lingizni yuvdingizmi?”

Ona: jilmayib: “yuvdim!” – dedi.

Dettol qo‘llarni tozalash vositasi

4. 两位妈妈在学校门口等待孩子放学:

(*Liǎng wèi māmā zài xuéxiào ménkǒu děngdài háizi fàngxué*:)

妈妈 1：“莹莹可喜欢和小朋友玩了，但最近老是感冒……”

(Māmā 1:“Yíng yíng kě xǐhuān hé xiǎopéngyǒu wánle, dàn zuìjìn lǎo shì gǎnmào……”)

妈妈 2：“哦！小朋友嘛，整天你摸我呀我拍你，很容易传染感冒的，所以呀，我让他经常洗手。舒肤佳能去除百分之九十九种污渍，给小朋友长效保护。”

(māmā 2:“Ó! Xiǎopéngyǒu ma, zhěng tiān nǐ mō wǒ ya wǒ pāi nǐ, hěn róngyì chuánrǎn gǎnmào de, suǒyǐ ya, wǒ ràng tā jīngcháng xǐshǒu. Shūfūjiānéng qùchú bǎi fēn zhī jiǔshíjiǔ zhǒng wūzì, gěi xiǎopéngyǒu cháng xiào bǎohù.”)

舒肤佳香皂

Shū fū jiā xiāngzào

Ikki ona o‘z farzandlarini maktab darvozasida kutmoqda:

1-ona: “Yingying bolalar bilan o‘ynashni yaxshi ko‘radi, lekin u juda ko‘p shamollaydi ...”

2-ona: Eh! Bolalar, kun bo‘yi ular menga teginishadi, men ularga teginaman. Shamollash yuqishi juda oson, shuning uchun men bolalarimga tez-tez qo‘llarini yuvishini eslataman. Safe Skin mikroblarni 99% tozalashi mumkin, Bu bolalarni uzoq muddat shamollashdan himoya qiladi.

Himoya sovuni

Mazkur ikki reklama tarjimasidan ko‘rinib turibdiki, ikki ona va ona va qiz o‘rtasidagi suhbat orqali reklama mavzusi va uning roli ifodalanadi va reklama mazmuni joylashtiriladi. Ushbu ikki reklama hayotiy bo‘lganligi sababli, iste’molchilarni mahsulot haqidagi taassurotlarini juda oson uyg‘otishi mumkin.

Xulosa: Internet va televideniye media texnologiyasining yetukligi bilan kosmetika reklamalari asta-sekin o‘sib bormoqda. Ular orasida kosmetika reklamalari Xitoy tilining yangi mazmuni va yangi xususiyatlari tilshunoslik va reklama sohasidagi tadqiqotlar markaziga aylandi. Ushbu maqolada kosmetik reklama matnlarining o‘zbek tiliga tarjimasi va ularda ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.戚云方. 广告与广告英语 [M]. 杭州：浙江大学出版社, 2003.

2.中国社会科学院语言研究所词典编辑室《现代汉语词典》，商务印书馆 2005 年版，第 1157 页。

3.王多明《中国广告词典》，四川大学出版社 1996 年版，第 234 页。

4. “David Ogilvy; Legendary Figure of the Ad Industry”. Los Angeles Times. 2010.

5. https://wenku.baidu.com/

KO‘PTARMOQLI AXBOROT MUHITIDA SINXRON TARJIMANING NAMOYON BO‘LISHI

Gulshan RAVSHANOVA
TDSHU, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi magistranti
Ilmiy rahbar: PhD. A.B. Muhammadtoirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida matnlarni optimal ekvivalent tarjimasini namoyon qilish uchun audio va vizual kanallar majmualari, ularning xususiyatlari va qiymatlari ko‘rib chiqilgan. Nutq bir vaqtning o‘zida bir nechta audio va vizual kanallardan keladigan ma’lumotlarni filtrlash, qayta ko‘rib chiqish, qayta ko‘rib chiqish va sintez qilish mahsuli ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, sinxron tarjima jarayonida tarjimon tomonidan qabul qilingan axborot kanallarining amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarjima qilish; sinxron tarjima; konferensiya tarjimoni; axborot kanali; audio kanal vizual kanal; tildan tashqari omillar; karnay; maqsadli til; aloqa akti; kinetika; tarjimonning tanlab olish qobiliyati.

Sinxron tarjima – bu notiqning so‘zlayotgan nutqini bo‘lmasdan, xalaqit bermasdan, to‘xtamasdan nutqni tinglab turgan tinglovchilarga tarjima qilib berishiga aytiladi. Og‘zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi hisoblanib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Sinxron tarjima jarayonida tarjimon nafaqat, eshitish va so‘zlash salohiyatiga ega bo‘lish, balki o‘z ona tilini ham, tarjima qilinayotgan tilni ham yaxshi bilishi, har ikkala tilda ham bilim va ko‘nikma yetarli darajada bo‘lishi lozim.

Sinxron tarjima odatda ikki parallel jarayonni o‘z ichiga olib, “asl tilda nutqni idrok etish va maqsad tilda hosil qilish”ni o‘z ichiga olgan professional tarjimaning bir turi sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, bir vaqtning o‘zida “shaxs tomonidan ma’lumotlarni qayta ishlashning murakkab jarayon shakli. Shu jumladan og‘zaki ma’lumotlarni idrok etish, to‘plash, izolyatsiya qilish, o‘zgartirish va uzatish ekanligini hisobga olgan holda batafsil bayon qilishni talab qiladigan jarayon.

Sinxron tarjima jarayonida tarjimon qabul qiladigan axborot, ya’ni ma’ruzachi nutqining kanali boshqa axborot oqimlari bilan birga keladi va chegaralanmaydi. Ularning mohiyati va ma’nosi tarjimon uchun bir qator obyektiv va subyektiv omillarga qarab farq qilishi mumkin. Quyida sinxron tarjima jarayonida kiruvchi axborot kanallarining ro‘yxati keltiramiz:

1. Birinchi tovush kanali – so‘zlovchi nutqi. Bu asosiy kanal bo‘lib, tashish vazifasini o‘taydi. Uning vazifasi asosiy semantik ma’lumotlarni yetkazishdir. Tarjimonning diqqat-e’tibori doimo unga qaratiladi va boshqa barcha axborot kanallari uchun yordamchi kanal hisoblanadi.

2. Ikkinchi tovush kanali – tarjimonning o‘z nutqi. Ya’ni, u quloqchinlarda ma’ruzachi nutqi bilan bir vaqtda eshitadigan nutqidir. Sinxron tarjimon ishlayotgan vaqtda o‘z ovozini boshqarishi, nazorat qilishi uchun uchun ushbu kanalga muhtoj bo‘ladi. Tarjimon o‘z nutqida nafaqat o‘zining intonatsiyasi, tembri va ovozining balandligini, balki ma’noni (grammatik, sintaktik, leksik va hokazo) yetkazishda qo‘llagan vositalar majmuasini va o‘z tarjimasi sifatini ham tekshirib turadi.

3. Uchinchi vizual kanal – bu tarjimonning katta monitor orqali ko‘rib turadigan ma’ruzachi yoki tasvirni translyatsiya qilish kanalidir. Bu orqali tarjimon nutq jarayonida so‘zlovchining mimika va imo-ishoralarini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ma’ruzachi bilan ko‘z bilan aloqa qilish juda muhim bo‘lib, yaxshi tarjimon ma’ruzachining og‘zakida ifodalanmagan qo‘shimcha ma’lumotni tashish uchun bu kanaldan foydalanadi. Xususan, so‘zlovchining imo-ishoralari va mimikalaridan nutqdagi semantik urg‘ularni, so‘zlovchining nutq mavzusiga va tinglovchilarga munosabatini, uning umumiy emotsional-psixologik holatini bilib olish mumkin. Ya’ni, “ ... kommunikativ vaziyatning noaniqligi odatda imo-ishoralar va boshqa paratekst signallari kabi kontekstli ma’lumotlar, shuningdek, berilgan kommunikativ vaziyatda o‘zaro tushunishni o‘rnatish tufayli kamayadi” [1;60].

Oliy darajadagi xalqaro konferensiyalarning birida ma’ruzachi tomonidan quyidagi gap aytilgan: *“Lumière, s’il vous plait!”*[2;154]. Bunda, ma’ruzachi tinglovchilardan savollarning tarjimasini eshitmayotganidan shikoyat qilgan. Aslida esa ma’ruzachining o‘zi quloqchinlarni taqmaganligi va mikrofonni ko‘rsatgich sifatida ishlatganligini bilmay qolgan. Natijada konferensiya zalida kulgi ko‘tarilgan. Demak, sinxron tarjima jarayonida ham mana shunday holatlar ham sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham ma’ruzachining yaxshi ko‘rinishi uchun sharoitlarni ta’minlash, tarjimonlar uchun maqbul ish muhitini yaratish zaruriy shartlardan biridir.

Yana shuni ham ta’kidlashimiz lozimki, ma’ruzachining imo-ishoralari sof fiziologik va refleks xarakterga ega bo‘lishi va u tarjimonlar uchun foydali bo‘lmasligi ham mumkin. Tarjimon, birinchi navbatda, ma’ruzachining “tana tili” tinglovchilarga qanday kommunikativ ta’sir ko‘rsatishi bilan qiziqadi. Aks holda, ma’ruzachining haddan tashqari ko‘p

yoki monoton imo-ishoralari chalg‘ituvchi omilga aylanishi mumkin. Bu holda tarjimon ushbu vizual kanalga kamroq e’tibor qaratishi, undan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi kerak. Agar ma’ruzachi doimiy ravishda matnga qarasa va uni o‘qib chiqsa, ma’ruzachi bilan vizual aloqa qilish ham ma’lumot bermaydi (bu holda, qoida tariqasida, imo-ishoralar minimal, chunki ma’ruzachi qo‘lida nutq matni bo‘lgan qog‘oz varaqlarini ushlab turadi). Bizning fikrimizcha, sinxron tarjimonga tarjima paytida ma’ruzachiga qarashni davom ettirish kerak. Ma’ruzachining tana tili yordam bermasdan, balki tarjimonga xalaqit bersa, zudlik bilan uni boshqa axborot kanallariga almashtirish tavsiya etiladi.

4. To‘rtinchi vizual kanal – tarjimon zaldagi tadbir ishtirokchilarini zalga qaratilgan kamerali monitor ekranidagi tasvir translyatsiyasi orqali ko‘rib turishidir. Bu orqali tarjimon to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’ruzachini yoki nutqning tarjimasini tinglayotgan tadbir ishtirokchilarining reaksiyasini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, har qanday tarjima akti o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita kommunikativ aktga bo‘linadi – jo‘natuvchi va tarjimon o‘rtasidagi aloqa va tarjimon va qabul qiluvchi o‘rtasidagi aloqa [3;63]. Sinxron tarjima sharoitida ushbu vizual kanal tarjimon va qabul qiluvchi o‘rtasidagi aloqa uchun juda muhimdir. Tomoshabinlarning o‘z vaqtida va adekvat reaksiyasi tarjimonga kommunikativ effektga erishishni va qo‘shimcha ravishda ijobiy hissiy quvvat olishga imkon beradi.

5. Beshinchi vizual kanal – ma’ruzachi nutqi matnining mavjudligi. Tarjimon so‘zlovchi nutqini tinglash bilan bir vaqtda matnni o‘qiydi. Nutq matnining mavjudligi yoki yo‘qligi tarjimon ishining algoritmiga sezilarli ta’sir qiladi.

Sinxron tarjimaning ikki xil turi haqida gapirish mumkin. Ba’zan vizual-og‘zaki tarjima deb ataladigan va aslida kommunikativ faoliyatning alohida turi bo‘lgan ko‘rish tarjimasi sinxron tarjimani amalga oshirishda tarjimon faoliyatining ajralmas elementidir. Agar tarjimon yetarli darajada malakaga ega bo‘lsa, oldindan olingan nutq matni tarjima sifatini sezilarli darajada oshirish omili sifatida xizmat qiladi. Nutq matnini oldindan masalan, tadbirdan bir necha kun oldin olgandan so‘ng, sinxron tarjimonlar material bilan yaxshi ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tayyorgarlik jarayonida tarjimon matnni diqqat bilan o‘qib chiqadi. Taqdimot mazmunini yaxshi tushunishga harakat qiladi va maxsus atama va tushunchalarning ekvivalenti mavjudligini aniqlab oladi. Shu bilan birga, nutq matnining avvaldan mavjudligi sinxron tarjimani murakkablashtirishi mumkin. Chunki ko‘rish orqali tarjima qo‘shimcha faoliyat turidir. U sinxron

tarjimonning psixofizik qobiliyatiga sezilarli darajada bosimni oshiradi. Shuning uchun ba’zi tarjimonlar matnni chetga surib, audio kanalga e’tibor berishni afzal ko‘rishadi. Tarjimonlar ham buni yaxshi bilishadi Agar siz matnga juda chuqur kirsangiz, ma’ruzachi matnni o‘qishdan orqaga chekinib, spontan nutqqa o‘tishi bilanoq uning fikrini yo‘qotishingiz mumkin. Bu vaqtda diqqatni vizual kanaldan audio kanalga o‘tkazish vaqt talab qilinadi va tarjimon nutq matnini chetga surib qo‘yish kerak bo‘ladi.

6. Oltinchi vizual kanal – tadbirga tayyorgarlik jarayonida tarjimon tomonidan taqdim etilgan ma’lumotnoma materiallari (masalan, ikki tilli lug‘at yoki atamalar ro‘yxati shuningdek, internetga ulangan shaxsiy kompyuter, planshet yoki smartfon). Ushbu kanalga kelsak, tadbir mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni o‘z ichiga olgan to‘g‘ri va qulay tuzilgan lug‘at har doim foydali bo‘ladi. Shuningdek, sinxron tarjimani amalga oshirishda vaqt tig‘izligini hisobga olgan holda kichik tanaffuslarda kuchli ma’lumot kanali bo‘lgan internetdan ham foydalanish mumkin.

7. Yettinchi vizual kanal – taqdimot (odatda *power point* formatida) ma’ruzachi nutq paytida ko‘rsatadigan yoki ma’ruzachi ishlatadigan boshqa namoyish materiallaridir. Ko‘p tilli xalqaro tadbirlardagi chiqishlarning aksariyati ekranda *power point* formatida taqdimot qilinadi. Shuning uchun, tajribali tashkilotchilar sinxron tarjima xonasiga taqdimotni namoyish qilish uchun alohida monitor o‘rnatadilar. Namoyishni sinxron tarjima uchun mo‘ljallangan uskunaning standart elementi, tarjimonlar xonasidagi monitorga tasvirni uzatuvchi ikkita masofadan boshqariladigan PTZ kameralari orqali ko‘rish mumkin. Bu ham o‘z navbatida tarjimon uchun bir tarmoq hisoblanadi.

Ko‘p tarmoqli axborot muhitining qisqacha tahlili quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi.

Bugungi kunda ko‘p tarmoqli dunyoda yashaymiz. Shu munosabat bilan sinxron tarjimon ham tarjima jarayonida ko‘p kanalli va ko‘p vazifali axborot maydonida ishlaydi. Uning barcha turdagi ma’lumotlardan foydalanish qobiliyati natijasida muvaffaqiyatli tarjima vujudga keladi. Sinxron tarjimonning e’tibor berishi kerak bo‘lgan tarmoqlar sinxron tarjimonga yuklangan vazifalarni murakkablashtirishi yoki osonlashtirishi mumkin bo‘lgan omillardir.

Inson miyasiga xos bo‘lgan tanlab olish qobiliyati sinxron tarjimon faoliyatini avtomatik tarjima qilish uchun kompyuter dasturi ishidan tubdan ajratib turadi. Odamlarda dastlab filtrlash tizimlari ishtirok etadi mexanizmlar nafaqat barcha sezgi organlari, balki sof insoniy fazilatlar tomonidan ham ta’minlanadi.

Tarjima jarayonida nutq turli darajada takrorlanishi, tugallanmagan iboralar, noto‘g‘ri grammatik va sintaktik tuzilmalar bilan “tiqilib qolishi” mumkin. Professional tarjimon keraksiz ma’lumotlarni e’tiborsiz qoldirib, asl so‘zning ma’nosiga e’tibor qaratish orqali bunday qiyinchilikni yengadi.

Tarjimon kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishi, lingvistik bilimlardan tashqari, bayonotning mazmunini izohlash va undan kontekstual va yashirin ma’noni olish qobiliyatini o‘zida shakllantirgan bo‘lishi kerak. Ya’ni, so‘zlovchining fikrini oldindan bilish va og‘zaki ifodalanmagan subtekstni tushunishi va to‘g‘ri ifodalab berishi lozim.

Sinxron tarjimada tinglash va gapirish jarayonlarining bir vaqtdaligini ta’minlovchi mexanizmlar ehtimollik mexanizmidir. Ovoz kanalini idrok etish jarayonida tarjimon muallif niyatlarining u yoki bu semantik yoki og‘zaki tugallanishi haqida taxmin qiladi. Ularning nominatsiyasi og‘zaki vaziyatning keyingi rivojlanishi ehtimolliklarini ongsiz subyektiv baholash asosida amalga oshiriladi. Oddiy qilib aytganda, tarjimon ma’ruzachining fikrlarini taqdim etishi orqali u nima haqida gapirishini oldindan taxmin qiladi.

Tarjimon qabul qilish uchun ishlaydigan muhitning ko‘p kanalli va ko‘p vazifali ekanligi bilan bir qatorda, mana shu tarjimani tinglash uchun yagona audio kanal kifoyadir. Barcha axborot kanallariga jiddiy e’tibor qaratish va ularni tahlil qilish sinxron tarjimaning dolzarb modelini yaratish va sinxron tarjimani o‘qitishning uslubiy tamoyillarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Van Deyk. Til, idrok, aloqa. – Toshkent: Taraqqiyot, 1989. – B. 60.
2. Lederer M.Synecdoque et Traduction // D. Séleskovich. Traduire: les Idées et les Mots, Études de Linguistique Appliquée. – Parij: Didier,1976.- B.154
3. Shvaytser A.D. Tarjima va tilshunoslik. Gazeta-axborot va harbiy jurnalist tarjimasi haqida. – M.: Mudofaa vazirligining harbiy nashriyoti, 1973. – B. 63.
4. Andreva N.V .Sinxron tarjimaning psixolingvistik modelini ishlab chiqish muammosi to‘g‘risida. // Rossiya davlat universitetining xabarnomasi. – M., 2006. – B. 11–17.
5. Van Deyk. Til, idrok, aloqa. – M., 1989. – 312 b.
6. Ilyuxin V.M. Sinxron tarjimada strategiyalar. – M., 2001. – 206 b.
7. Komissarov V.N. Matnning semantik tabaqalanishi tarjima muammosi sifatida // Matn va tarjima. – M., 1988. – B. 6-17.

8. Lederer M. Tarjimaning izohli nazariyasi nuqtai nazaridan tarjima faoliyatining dolzarb jihatlari. – Sankt-Peterburg, 2007. – 223 b.
9. Beloruchev R.K. Tarjima nazariyasi va usullari. – M., 1996. – 208 b.
10. Chernov G.V. Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti. – M., 1978. – 208 b.
11. Shvaytser A.D. Tarjima va tilshunoslik. – M., 1973. – 280 b.
12. Shvaytser A.D. Tarjima nazariyasi. – M., 1988. – 215 b.
13. Gerver D. Sinxron tarjimaga psixologik yondashuv. – M., 1975. – 315 b.

STATIK OMILLARGA BOG‘LIQ SINXRON TARJIMA DEKOMPRESSIYA STRATEGIYASI BORASIDAGI JAHON OLIMLARINING NAZARIY QARASHLARI

E’zoza ALIMOVA
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi, magistranti,
Ilmiy rahbar: PhD, dots. v.b. N.R. Ismatullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqola sinxron tarjimada statik omillarga bog‘liq strategiyalardan biri dekompressiya borasidagi turli xil jahon olimlarning nazariy qarashlari yoritib berildi. Ushbu maqolada sinxron tarjimada strategiyalarning o‘rni, dekompressiya strategiyasining qo‘llanilishi borasidagi olimlarning fikrlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Sinxron tarjima strategiyasi, statik omil, tarjimada dekompressiya, kompensatsiya, vaqt omili, ekspansiya.

Sinxron tarjima – bu og‘zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi bo‘lib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq so‘zlayotgan chog‘ida tarjimonning uni bo‘lmasdan uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og‘zaki tarjima usulidir. Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o‘tiradi va naushnik (quloq eshitgich) orqali so‘zlovchini tinglaydi. So‘ng tinglash chog‘ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni naushnik orqali tinglashadi[Ismatullayeva 2013:2].

Chet el adabiyotida B. Mozer-Merser ishi ajralib turadi – u sinxron tarjimada kognitiv yukni birinchi o‘rgangan. Psixofiziologik yuk aspektini o‘rganish uchun K. Sieber materiali alohida qiziqish uyg‘otadi, bu yerda

muallif kognitiv yuk tushunchasini ochib beradi, uni baholashning mavjud usullarini batafsil tavsiflaydi. Har bir usul uchun afzalliklar va kamchiliklar ro‘yxati, shuningdek, ST davomida psixofiziologik yukni o‘rganish uchun ma’lum usullardan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida muallifning o‘ziga subyektiv baho beriladi.

Xitoylik tadqiqotchi Zhong Veyhe ning fikricha, “Sinxron tarjima” deb atalmish bu tarjima turi boshqa tilda (asliyat tilida) ifodalangan g‘oyaviy mazmunni og‘zaki shaklda asliyat tili so‘zlovchisi bilan deyarli bir xil tezlikda to‘g‘ri ifodalash uchun bir tildan (tarjima qilingan tildan) foydalanishni bildiradigan tarjima usulidir[仲伟合 2022:1].

Sinxron tarjimada strategiya bu asliyat tilidan tarjima tiliga tarjima qurilishda xabarga ishlov berishdagi konferensiya tarjimoniga zaruriy ko‘nikma yoki ma’lum bir mahoratlar tizimidir [As-Safi 2011:52].

Sinxron tarjima tadqiqotchilarining aksariyati strategiya deganda asliyat tilidan tarjima tiliga tarjima qilishda xabarga ishlov berishdagi konferensiya tarjimoniga zaruriy ko‘nikma yoki ma’lum bir mahoratlarni tushunadilar.

Mazkur maqolaning maqsadi shundan iboratki, jahon olimlarining sinxron tarjimada statik omillarga bog‘liq bo‘lgan dekompressiya strategiyasi haqidagi nazariy qarashlarini ko‘rib chiqish va tahlil qilish.

Maqolaning vazifalari quyidagilar:

- Jahon olimlarining dekompressiya strategiyasi haqidagi qarashlarini izlab topish;
- Ularning dekompressiya strategiyasi haqidagi fikrlarini aniqlash;
- Barcha jahon olimlarining fikrini tahlil qilish.

Sinxron tarjima strategiyasining ta’rifi mavzusiga o‘tishdan oldin, bu atama, ya’ni *strategiya* so‘zining o‘zini aniqlash muhim, chunki u turli tarjima tadqiqotchilar nazdida turli xil ishlatiladi. Vebster lug‘atida strategiya so‘zi turlicha ta’riflanadi:

1. Urush olib borish san’ati; urush va harbiy operatsiyalar o‘tkazishning umumiy rejasi.
2. Ushbu fan yoki san’atdan foydalanish yoki misol keltirish.
3. Ayyorlikdan foydalanish.
4. Aniq maqsadga erishish rejasi yoki usuli.

Ta’rifning oxirgi varianti tarjimada strategiya so‘ziga mos keladi. Strategiya – bu aniq maqsadga erishish uchun reja yoki usul. Shu ma’noda, tarjima strategiyasini biz tarjimon tomonidan qo‘llaniladigan umumiy reja yoki reja sifatida belgilangan aniq tarjima maqsadi deya olamiz.

Sinxron tarjimada strategiya – tarjima vazifalarini amalga oshirish uslubi bo‘lib, bu ma’ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlarini, baza

darajasini, til ust kategoriyalari va ost kategoriyalarini hisobga olgan holda xabar yuboruvchining kommunikativ maqsadini asliyat tilidan tarjima tiliga adekvat tarzda yetkazib berishdan iborat[Ismatullayeva 2013:23].

Lorscher, Ferch va Kasper tomonidan taklif qilingan “ishlab chiqarish strategiyasi” konsepsiyasi asosida tarjimashunoslikda “strategiya” atamasini alohida muhokama qiladi va tarjima strategiyasi ta’riflanadi, ya’ni tarjima strategiyasi muammoni ongli ravishda hal qilishning asosidir. Til matnini boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon tomonidan amalga oshiriladigan qadam hisoblanadi[Lorscher 1991:3].

“Kengayish” atamasini G.V. Chernov. Ruscha “экспансия” atamasi ushbu talqin qilish texnikasini juda yaxshi aks ettiradi. Ekspansiya lug‘atlarda “hajmi, diapazoni, miqdori ortib boruvchi narsa” yoki “bir oddiy yoki umumiy asosga asoslangan g‘oya, hikoya” sifatida tasvirlangan. “Kengaytirish” ga muqobil atama “qo‘shish” dir, ammo u tarjima qilishdan ko‘ra yozma tarjima bilan bog‘liq. Yana bir muqobil atama “dekompressiya” dir, ko‘proq kompyuterlar (fayllarni dekompressiyalash) yoki odamlar dengiz tubiga tushgandan keyin o‘tkazadigan maxsus muolajalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tanasi asta-sekin normal havo bosimiga qaytishi mumkin.

Shunisi e’tiborga loyiqki, dekompressiya (kengaytirish) ko‘plab tadqiqotlarda talqin qilish strategiyasi maqomiga ega. Valentina Donato uni qayta ishlab chiqish strategiyalari qatoriga qo‘ygan [Donato 2003:107], Alessandra Rikkardi esa ishlab chiqarish strategiyalari qatoriga kiradi.

Terminologiyalar boshqacha bo‘lsa-da, uning orqasidagi g‘oya bir xil bo‘lib qoladi: (biz) tarjima tili tushunarliroq bo‘lishi maqsadida dekompressiyadan foydalanamiz.

Tarjimonlarning strategik xatti-harakati ST bo‘yicha takroriy tadqiqot obyektidir. Ba’zi tadqiqotlar kutish kabi yagona, o‘ziga xos strategiyalardan foydalanishni o‘rganadi deb ta’kidlaydi Lederer va Moser.

Dekompressiya strategiyasi maqsadli tildagi matnning manba tiliga nisbatan kengaytirilishini anglatadi. Ko‘pincha tarjimon ushbu strategiyadan to‘g‘ri tarjimani topish juda qiyin bo‘lganda foydalanadi: yoki tarjima qilinayotgan tushuncha tushunilmagan yoki tarjimon maqsadli tilda ekvivalentini topishda qiynalgan [Snelling 1992:7].

D. Snelling, shuningdek, strategiya maxsus atamalarga ham, umuman tarjimonga notanish so‘zlarga ham tegishli deb hisoblaydi. Ya’ni, tarjimon muammolar mavjud bo‘lgan tushunchani uning tarkibiy qismlariga ajratadi. Masalan, yugurish – tez harakat qilish. Shu bilan birga, so‘zni tashkil etuvchi semantik komponentlarni ajratib ko‘rsatish, shuningdek, ularning

o‘zaro ta’siri va tashkil etilishi tamoyilini hisobga olish kerak deb hisoblaydi[Setton 1997:22].

Shveytser tomonidan o‘tkazilgan tajribalar natijalari ko‘rsatadi, qoida tariqasida, tarjima matnining hajmi asl matn hajmidan oshib ketadi. “Izohlovchi iboralarni talab qiladigan lug‘at birliklari, tuzilmalari va g‘oyalari mavjud va tarjimonlar soddaligi uchun biror narsani tashlab qo‘yishdan ko‘ra, aniqlik uchun qo‘shimchalar kiritishni afzal ko‘radilar” [Shveytser 1988:202].

Tarjimonning dekompressiya strategiyasidan foydalanish ba’zan manba tilida nutqda qo‘llaniladigan tushunchani keng ko‘lamda kengaytirish zarurati bilan bog‘liq. Tushunchani kengaytirib, tarjima qilingan semantik guruhning ma’nosini tushuntiruvchi uslub hisoblanadi. Bunga tarjimonning AT bilimlari, u millatning madaniyatini bilishi natijasida erishiladi. Obyektiv vaziyatni baholab, tarjimon tarjima matnini tinglovchilar to‘liq tushunishini ta’minlash uchun tarjima qilinayotgan tushunchani kengaytiradi. Bunday tarjima kommunikativ ekvivalentlikka erishishga yordam beradi – manba tildagi xabar matnlari va ko‘rsatuvchi til o‘rtasidagi munosabat, bu xabarning ikkala matnining kommunikativ qiymati bo‘yicha mos kelishiga olib keladi.

Xulosa: Sinxron tarjima jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, u barcha mumkin bo‘lgan tarjima variantlarini uzluksiz sintez qilish va tahlil qilish, shuningdek, tarjimani manba tilidagi matn bilan taqqoslashdan iborat. Ushbu turdagi faoliyat tarjimonning ruhiyatiga katta yuk olib keladi.

Sinxron tarjimada strategiyaning ikki turi mavjud: vaqt omiliga asoslangan strategiyalar va statik omillar bilan bog‘liq strategiyalar.

Dekompressiya strategiyasi maxsus atamalarga ham, tarjimonga notanish so‘zlarga ham tegishli. Kompensatsiya ushbu strategiyani qo‘llashning asosiy komponentidir. Dekompressiya asl matnda qo‘llanilgan tushunchani kengaytirish zarurati tug‘ilganda qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismatullayeva N.R. Sinxron tarjima fanidan ma’ruza matnlari. – Tashkent, 2013. – 23 b.

2. As-Safi A.B. Translation Theories, Strategies and Basic Theoretical Issues. Amman: Dar Amwaj, 2011. – P. 52.

3. Швейцар А.Д. Перевод и лингвистика. Уч. для институтов и факультетов ин.яз -М., Воезниздат, 1973. -С.272.

4. Setton, R. A., Pragmatic Theory of Sinuitaneous Interpretation / doctoral dissertation, Ann Arbor, Michigan, 1997. -P.231.

5. Faerch C., Kasper G. Processes and Strategies in Foreign Language Learning and Communication. – Interlanguage Studies Bulletin, 1980. – pp. 47-1180.

6. Lörscher, W. Translation Performance, Translation Process, and Translation Strategies: A Psycholinguistic Investigation. Gunter Narr, Tŭbingen.

7. 仲伟合 “英汉同声传译技巧与训练” – 广东 广州, 2001.

8. Moser B. A Hypothetical Model and its Practical Application. – New York, 1991.

YAPON TILIDA ERKAK VA AYOLLAR NUTQIDA OLMOSHLARNING QO‘LLANILISHI VA TARJIMA MUAMMOLARI

Dildoraxon SHUKUROVA
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi”,
1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD. dots. N.B. Xodjayeva

Annotatsiya: Yapon tilida erkaklar va ayollar nutqida olmoshlarning qo‘llanilishi va tarjima muammolari maqolasida gender tushunchasi va uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik sohalaridagi tadqiqotlari ko‘rib chiqildi. Yapon tilida gender konsepti tushunchasi, o‘rganilganlik darajasi, ayollar va erkaklar nutqi farqlari haqida ma’lumot berildi. Birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari misollari yordamida tahlil qilindi. Yapon tilida ayollar tili va erkaklar tilining o‘ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlarining yuzaga kelish sabablari ham ochiqlandi.

Kalit so‘zlar: gender konsepti, yapon tili, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, jins kategoriyasi, kishilik olmoshlari, men, sen, qo‘shimcha.

Hozirgi kunda gender masalasi butun dunyo uchun dolzarb mavzuga aylangan. Erkaklar va ayollarni jamiyatdagi o‘rnini taqqoslash va bir me’yorga keltirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Gender mavzusida turli xalqlarda, turlicha o‘rnashib qolgan fikrlar mavjud. Ular stereotiplardir. Gender stereotiplari har bir madaniyatda o‘zgacha shakllangan. Shu jihatdan erkaklik va ayollik masalasiga ham turlicha yondashiladi. Gender stereotiplari ham aynan jamiyatda erkaklar va ayollarning o‘rni, ijtimoiy vazifasi va rollariga bo‘lgan fikr-mulohazalardir.

Inson huquqlari bo‘yicha qonunchilik bazasida ham gender stereotiplari inson erkini cheklashi va uning huquqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tadi [1].

Tilshunoslikda gender tushunchasi bo‘yicha izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bunday olimlardan F.Gumbold, A.Potebnya, Dj.Lakoff, T. van Deyk, L.Push, E.Kubryikova, V.Maslova, Yu.Stepanov, A.Vejbitskaya, A.Kirilina, I.Zikova, D.Semenova va boshqalar amalga oshirishgan. O‘zbek tilshunos olimlaridan esa Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, P.Bakirov, M.Xoliqova, A.Ismailov, G.Xakimova, K.To‘xtayeva, B.Jo‘rayev, N.Nasrullayeva, N.Sagindikova, I.To‘xtasinov, G.Ergasheva, U.Yigitaliyeva, Sh.Gulyamova, K.Aliyeva, Z.Safarova va boshqalar gender masalalarini turli aspektlar jihatidan tadqiq etishgan [2].

Adabiyotshunoslik sohasida gender tushunchasi V.Gordik, E.Tarlanov, Yu.Lermontov, Yu.Vorobyova, M.Ryutkonen, S.Afanaseyev, N.Bereyeva, M.Mixaylov, N.Pushkarev, I.Trofimov, V.Malgina, A.Gusakovskaya, D.Ivliyeva, V.Balakina, L.Pushkareva, I.Pavlova, Yu.Semikina, A.Fateyeva, K.Ekonen, L.Goodman, J.Stephens, A.Lindqvist kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Qiyosiy tilshunoslikda E.Ochilov, G.Ergasheva, M.To‘xtasinov, L.Flotov, Van Erdon va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Tilshunoslikda gender konsepti asosan erkaklar va ayollar lug‘ati, fonetika, morfologiya va sintaksisdan foydalanishdagi farqlari ko‘plab sohalardan avval tadqiq qilingan. Negaki, til insonning lisoniy tafakkurini aks ettiradi va shu jumladan, ayol va erkak fikrlari, dunyoni anglashi ham tilida namoyon bo‘lganligi sababli, tilda gender farqlari ancha ilgaridan ma’lum bo‘lgan. Adabiyotshunoslikda gender konsepti badiiy asarda erkak va ayol nutqi, harakatlari, adiblik sohasida esa yozish uslubi, portret tasviri, fikrlashi va asarda ayol va erkak ichki dunyosi yoritib berish kabi aspektlari o‘rganilgan hamda tadqiq etish jarayonida bunga ba’zan madaniy-psixologik tomondan ham yondashilgan. Shuningdek, jahon adabiyot-shunoslik yo‘nalishida gender romanlari [3], gender poetikasi, ayollar she’riyati va feministik tanqid [4] kabi tushunchalar ham paydo bo‘lgan. Tarjimashunoslik sohasida 2 tilni solishtirgan holda jins kategoriyasi, ayollar nutqi, erkaklar nutqi va hurmat shakllari kabi aspektlari tadqiq qilinib, tarjima jarayonida gender konsepti keltirib chiqarayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tarjimashunos olim Ergash Ochilov tarjimada jins kategoriyasi muammolari tahlilini keltirgan [5]. “Jins kategoriyasi ham ba’zan tarjimon oldiga o‘tib bo‘lmas g‘ovlarni qo‘yadi. Masalan, **солнце**- rus tilida- sredniy rodda, nemis tilida- jenskiy rodda, fransuz tilida- mujskoy

rodda” [5, 36]. Bundan ko‘rinadiki, tarjimashunoslikda ham gender masalasiga doir ko‘plab muammolar mavjud.

Gender konsepti bo‘yicha dunyoda ilmiy izlanishlar ko‘plab amalga oshirilgan bo‘lib, yapon tilida gender konsepti tilshunoslik sohasida ham o‘rganilgan. Yapon olimlaridan S. Okamoto, Janet Shibamoto Smith, M.Hiramoto, S.Ide, Y.Kawaguchi, E.Nakamura, M.Takasaki, A.Hikedo, K.Chinami, M.Inoue, E.Nakajima, H.Itakura, T.Mizumoto va boshqa ko‘plab olimlar tadqiq qilganlar.

“Ayollar tili” atamasi 1970-yilda Robin Lakoff tomonidan qo‘llana boshlangan bo‘lib, ushbu atamaning o‘ziga xos xususiyatlarini izlashni boshlab bergan. Uning “Language and women’s place” nomli kitobi shu mavzudagi tadqiqotlar boshlanishiga turtki bo‘lgan. Robin Lakoff “Til va ayollar o‘rni” kitobida ayollar tilining lingvistik jihatdan xususiyatlarini tasniflagan. 1. Maxsus lug‘atlar: faqat ayollar foydalanadigan so‘zlar. 2. Sifatlar. 3. Ohang. 4. Hurmat shaklidan ko‘proq foydalanish. 5. Hazil-mutoyiba va boshqalar [6]. Lankoff jins va til bo‘yicha tadqiqotlarni boshlab bergan bo‘lib, uning tadqiqotlari natijasida jins kategoriyalarining tilda qay darajada aks etishiga e’tibor kuchaydi [7]. Erkak va ayol nutqidagi farq ularning ijtimoiy mavqeyi, etnik kelib chiqishi, yoshi va holatga qarab farqlanishini ham yoritib bergan.

Yapon lingvomadaniyatida ayollar va erkaklar tili ko‘plab sohalarda uchraydigan tushuncha bo‘lib, unga kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, mehnat jarayonida duch kelish mumkin. Hozirgi kunda chet elliklarning yapon madaniyati va tiliga qiziqishi ortib bormoqda. Bu esa yapon madaniyati va tilini o‘rganish hamda tadqiqot olib borish soni ortishiga sabab bo‘lmoqda. Yapon tilida azaldan xulq-atvor me’yorlarida ayollar va erkaklar leksikasi mavjud bo‘lgan. Bular 女性語 *jyoseigo* yoki 女の言葉 *onnano kotoba* hamda 男性語 *danseigo* yoki 男の言葉 *otokono kotoba* kabi turlarga ajratiladi. Ularning farqli jihati shuki, ayollar va erkaklar maxsus ishlatadigan grammatik birliklar, qo‘shimchalar, so‘z va nutqdagi ohanglar hisoblanadi. Ayollar tili jyoseigo juda muloyim, xushmuomalalikka boy va yumshoqlik bilan gapiriladi va bunday xususiyatlarga egaligi, ayollarining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi bilan ham bog‘lanadi. Negaki, ayollar asosan uy bekalik ishlari bilan shug‘ullanishgani va boshqaruv tizimida ishtiroklari bo‘lmagani ham bunga ta’sir qilgani aytiladi [8]. Erkaklar tili biroz qo‘pol, qat’iy va boshqaruv ohangida bo‘lib, bu xususiyat ham ularning jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni bilan bog‘liq hisoblanadi. Buning asosiy sababi yoshlar orasida *“onnano kotoba”* ya’ni ayollar tilining yo‘qolib borayotganidir. Maktabda tahsil olayotgan

qizlar va universitet talaba qizlari ham biroz yumshoq bo‘lgan erkaklar tilidan foydalanish holatlari keng uchramoqda. Yapon ayollari suhbat jarayonida erkaklarga qaraganda *“teineigo”* ya’ni hurmat shaklidan ko‘proq foydalanilar ekan. Yapon lingvomadaniyatida gender xususiyatlarini misollar yordamida ko‘rish mumkin.

Kishilik olmoshlaridan misollar keltirib o‘tamiz, birinchi shaxs birlik olmoshi: わたし *vatashi*, わたくし *vatakushi* – men kishilik olmoshidan ayollar ham erkaklar ham foydalanishadi. わが *vaga*, おれ *are*, ぼく *boku*, わし *ashi*, じぶん *jibun*– (men) kishilik olmoshidan asosan erkaklar qo‘llashadi. あたし *atashi*, あたくし *atakushi*, うち *uchi*, あら *ara*, わて *vate* – kishilik olmoshlari esa ayollar nutqida keng ishlatiladi. Ikkinchi shaxs birlik olmoshi: きみ *kimi*, あなた *anata*, そちら *sochira*, あんた *anta* – sen olmoshining ikki jins vakillari tomonidan ham qo‘llaniladigan shakli. てまえ *temae*, こいつ *koitsu*, おまえ *omae*, きさま *kisama* – sen olmoshining erkaklar nutqida ishlatiladigan shakli. あなた *anata* – ayollar tomonidan qo‘llaniladigan ko‘rinishi. Shu va boshqa grammatik birliklar, leksemalar, fonetik jihatlari bo‘yicha yapon tilida ayollar va erkaklar nutqi bir-biridan farqlanadi. Bu kabi farqni ayollarning tilida ham kuzatishimiz mumkin, ya’ni uy bekalarining nutqi jamiyatda faoliyat olib borayotgan ayollarnikidan yumshoqroq hisoblanadi.

Yapon tilida ayollar va erkaklar nutqining farqli jihatlarini Akutagava Ryunoskening “Rasyomon darvozasi” hikoyasidan parchada tahlil qilindi.

Asliyat: 「おのれ、どこへ行く。」 [9]

So‘zma-so‘z tarjima: Hoy sen, qayoqqa ketyapsan.

Rus tilida Natalya Isayevna tarjimasi: – Стой! Куда? – рявкнул слуга, заступая ей дорогу, когда старуха, спотыкаясь о трупы, растерянно кинулась было бежать [10].

O‘zbek tiliga To‘xtamurod Rustamov: – To‘xta! Qayoqqa? – deya qichqirdi qarol murdalarga qoqilgancha qochishga tutingan kampirning yo‘lini to‘sarkan [11].

Bu parchada ikkinchi shaxs birlik kishilik olmoshi tahlil qilinadi. あなた (*anata*) – sen(siz) olmoshini ayollar ham erkaklar ham birdek ishlatishadi, lekin おのれ (onore) ma’nolari: 1. o‘zi; 2. **olmosh bo‘lib kelganda –** men, meni, menga (kenjougo – nutqning kamtarona shakli); 3. sen – kamsitish, yerga urish; 4. **ravish bo‘lib kelganda –** o‘zi tomonidan; 5. g‘azab yoki xafagarchilikni ifodalovchi undov so‘z [12]. Hikoyadan keltirilgan bu parchada bir erkak o‘g‘rilik qilayotgan ayolga murojaati tasvirlangan. Yuqoridagi ma’nolaridan kelib chiqib, matn ichidagi ma’nosiga qaralsa, おの

れ – sen ikkinchi shaxs birlik olmoshi ma’nosida kelayotgani ma’lum bo‘ladi hamda tarjima ma’nolariga ko‘ra bu ikkinchi shaxsni kamsitish, yerga urish holatini bildirmoqda. Erkaklar nutqining ayollar nutqidan farqi biroz qo‘polligi, qisqa va aniq ma’noga egaligi bilan ajralib turadi. Bu parchada ham bir erkakning ikkinchi shaxsga qo‘pol munosabatini kuzatishimiz mumkin. O‘zbek tilida jins kategoriyasi, erkak va ayol nutqida farqlar katta bo‘lmagani sababli, yuqorida keltirilgan parcha tarjimasida yapon tilidagi erkaklarga xos nutqni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishning iloji yo‘q. Lekin gapga biroz qat’iylik va qo‘pollikni singdirib bera olgan hamda bu orqali qahramonning ruhiy holati va jinsini ham tasvirlab bergan. Badiiy asar tarjimasida jins kategoriyasi va gender leksikasiga oid tarjimalarni berish til oilalariga qarab biroz qiyinchilik tug‘dirar ekan.

Asliyat: 「何をしていた。さあ何をしていた。云え。云わぬと　これだぞよ。」 [9].

So‘zma-so‘z tarjimasi: Nima qilding. Ayt. Aytmasang ko‘rsataman.

Rus tiliga Nataliya Isayevna tarjimasi: – Что ты делала? Говори. Если не скажешь, пожалеешь! [10]

O‘zbek tiliga To‘xtamurod Rustamov tarjimasi: — Nima qilayotgan eding? Gapir. Agar aldasang, o‘zingdan o‘pkala! [11]

Ushbu parchada erkaklar nutqiga xos leksik birliklar tahlil qilinadi. 〜していた(shite ita) – しています(shite imashita) kesimining qisqartirilgan shakli hisoblanib, yapon tilida nutqda so‘zlarning qisqartma shakllari asosan erkaklar tomonidan ishlatiladi. これだぞ**よ** – ushbu so‘zdagi **よ– ham** yuklamasi ayollar tomonidan ham qo‘llaniladi asosan erkaklar foydalanishadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, yapon tilida gender leksikasini olmosh, qo‘shimcha, undov, murojaat so‘zlar va boshqa aspektlarda ham kuzatilishi mumkin ekan. Tarjima jarayonida esa qo‘shimchani erkak nutqiga xosligini bildirish biroz muammoli holat hisoblanib, o‘zbek tiliga “o‘zidan o‘pkalamoq” frazeologiyasi bilan tarjima qilingan. Ushbu leksik birlik salbiy ma’noli bo‘lib, o‘zbek tilida erkaklar va ayollar ham qo‘llashi kuzatiladi, biroq salbiy ma’nodagi frazeologiya bo‘lganligi tufayli aksar holatda erkaklar foydalanadilar. Yapon tilida erkak nutqiga oid qo‘shimchalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda, leksik birlikka ohangni, ma’noni singdirish orqali yetkazib berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yapon tilida jins kategoriyalari yaqqol ko‘zga tashlanmasa-da, gender leksikasi jihatidan ko‘plab farqlarni topish mumkin ekan. Yapon madaniyatida erkak va ayollarning jamiyatdagi o‘rni til orqali

namoyon qilingan. Biroq hozirgi kunda yapon ayollari orasida neytral yapon tilidan foydalanish yoki erkaklar tilining ayrim jihatlarini biroz nutqlariga qo‘shish holatlari uchrab turmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations and Human rights office of the high commissioner, Women rights and gender section. Gender stereotypes and Stereotyping and women’s rights. 2014, September. ohchr.org https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Issues/Women/WRGS/OnePagers/Gender_stereotyping.pdf
2. Hamdamova Sevaraxon Oybek qizi. Gender tushunchasi va uning asosiy mohiyati. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. – Farg‘ona., 2022. https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-714-717
3. en.wikipedia.org/wiki/Gender_novels
4. a-z.ru/women_cd1/html/gender_issledovanija_v_literature.htm
5. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T., TDShU, 2012. 36-bet.
6. Robin Lakoff. “Language and women’s place”. – United States of Amerika: University of California, Berkeley., 1975.
7. https://core.ac.uk/download/pdf/30827523.pdf
8. Okamoto, S. (1995). “Tasteless” Japanese: Less “Feminine” Speech among Young Japanese Women. In K. Hall & M. Bucholtz (eds.), Gender Articulated: Language and the Socially Constructed Self. – New York: Routledge., 1995. (pp. 297-325).
9. 芥川龍之介.「芥川龍之介全集 1」– 日本.: 青空文庫, 2010 年 11 月 4 日. https://www.aozora.gr.jp/cards/000879/files/127_15260.html
10. Акутагава Р. Ворота Расёмон. — “Издательство АСТ”, – (Эксклюзивная классика (АСТ), 2021.
11. Akutagava Ryunoske. Rasyomon darvozasi. – T.: “Yoshlik” jurnali, 1991-yil, 5-son. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/akutagava-ryunoske/akutagava-ryunoske-rasyomon-darvozasi/
12. https://jisho.org/search/%E3%81%8A%E3%81%AE%E3%82%8C

TURK VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA INSONLARGA XOS BELGI VA XUSUSIYATLARNING TABIAT VA ZAMONGA OID LEKSEMALAR ORQALI IFODALANISHINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Dilrabo TURSUNOVA
TDShU, Turkshunoslik fakulteti,
Turk filologiyasi kafedrasi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:katta o‘qituvchi, S.J. Shabanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk va o‘zbek tilida insonlarga xos belgi-xususiyatlar (fazilatlar, ko‘rinish, holat-harakatlar, xarakter va boshqalar) ning tabiat va zamonga oid leksemalar orqali alohida va gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan birikkan holda kelganida kontekstga ko‘ra semantik ma’no ifodalashining xususiyatlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: semantika, majoziy ma’no, sinonimiya, antonimiya, kinoya, o‘xshatish, ibora, leksema.

Til insonlar orasidagi voz kechib bo‘lmaydigan o‘zaro muloqot, aloqa va munosabat vositasidir. Tildagi har bir leksema ma’no bildirishga xizmat qilish bilan birga turli belgilarni ham ifoda etadi. Lingvistika sohasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosan tilning fonetik, grammatik, morfologik, sintaktik, leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra yaqin, shuningdek, ko‘p hollarda ularning oilasi, guruhlarini umumiy tasniflagan holda, turk va o‘zbek tilining o‘zaro qiyosiy tahlili asosan Turkiy tillar oilasiga kiruvchi til guruhlari sifatida o‘xshashlik, umumiylik, farq va ma’no xususiyatlari obyektiv jihatidan qiyosiy-tahliliy ishlar dunyo miqyosida bir qator turkshunos tilshunoslar, jumladan, Radlov, X.Li, H.Sonny, shved tilshunosi L.Johanson, tilshunos olim A.M.Memetov tomonidan Turk tillari leksikografiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, S.Y.Malov tomonidan zamonaviy turkiy tillar bo‘yicha turkiy tillarni umumiy qiyosiy tahliliy ishlari amalga oshirishgan bo‘lsa, Turk va o‘zbek filologlari ushbu tillarni subyektiv holda tadqiq etishni yo‘lga qo‘ydilar. Jumladan, F. Achık O‘zbek tili va Turk tilidagi zamon bildiruvchi so‘zlarning, oila va qarindoshlik aloqalari haqidagi so‘zlarning qiyosiy xususiyatlari mavzusida, Ahmet Buran, Erjan Alkaya zamondosh turkiy tillar nomida o‘quv qo‘llanma nashr ettirishdi, Aziz Mehran o‘zbek tili va turk tilidagi omonim so‘zlar qiyosi mavzusida, shuningdek, O‘zbek tilshunoslari obyektiv lingvistik tahlildan, misol, H.Dadaboyevning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” ilmiy qo‘llanmasi, subyektiv, ya’ni

aynan turk va o‘zbek tilining o‘zaro tahlili ustida Z.Xudoyberganova har ikki tilda to‘liqsiz fe’llar, H.Imamovaning har ikki tilda etikaga oid tushunchalarni bildiruvchi paralingvistik hodisalarning qiyosiy tahlili, L.Aminovaning turk va o‘zbek tilidagi ibora va maqollarni tarjima qilinishidagi muammolar tahlili, Z.Salimovaning har ikki tilda inson sezgi a’zolari orqali xarakter tahlili kabilar o‘rganilganini ko‘rishimiz mumkin. Lingvistik nuqtai nazardan ushbu tillardagi leksemalarning o‘zaro omonimiyasi, sinonimiyasi, grammatik, morfologik, fonetik, semantik xususiyatlari qiyosi va tahlili amalga oshirilib kelinmoqda.

Ma’lumki, Turkiy tillar oilasi 70 ga yaqin tillarni o‘z ichiga olgan holda, bu tillarda 200 mln.ga yaqin kishi so‘zlashadi.[1] Olimlarning tasnifiga binoan, Oltoy tillari oilasining bir qismi sifatida ***turk*** tili Turkiy tillarning g‘arbiy guruhiga oid ***o‘g‘uz*** guruhiga, ***o‘zbek*** tili esa ***qarluq*** guruhiga kiradi. Ushbu maqolada ana shu ikki tilda kishilarga oid belgi-xususiyatlarning tabiat va zamonga oid leksemalar bilan ifodalagan tarzda o‘xshatish va jonlantirish usullari orqali leksik va semantik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bilamizki, insoniy xususiyatlar keng miqyosda jonli mavjudotlar, jumladan, o‘simlik va hayvonlarga xos belgi-xususiyatlar bilan ta’riflanadi. Tilshunoslikda tabiatga oid terminlar yordamida amalga oshiriladigan metaforik tushunchalarning qo‘llanilishi va ilmiy-tahliliy tadqiqot ishlari flora va faunaga oid atamalarga nisbatan ma’lum bir darajada kam uchratamiz. Tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarning ramziy ma’noda insonlarga xos tushunchalarni ifodalashga oid metaforik fikrlar keng ko‘lamda badiiy asarlarda qo‘llansa-da, kunlik so‘zlashuv jarayonida ham qo‘llanilishi odatiy tus olganligi so‘zlashuv jarayonida o‘xshatish va qiyoslash maqsadida ishlatilishi tilimizni boyituvchi vositalardandir. Va bu usul mavhum belgi-xususiyatni hammaga ma’lum aniq bir tushuncha bilan tasvirlash yoki ta’riflash orqali aniq va tushunarli shaklda ifodalash uchun yordam beradi. Bilamizki, tilshunoslikda so‘zlarning, belgilarning va gap tuzilishining ma’nosi va talqinini, og‘zaki va yozma nutqdagi ifodalanish xususiyatlarining, til va ma’no jihatdan mohiyati, boshqa so‘zlar bilan birikib kelgan holda qanday ma’no aks ettirishini o‘rganish va farqlash masalalarini tilshunoslikning *semantika* bo‘limi o‘rganadi. Semantikaning asosiy masalalaridan biri tom ma’no va ko‘chma ma’noni farqlashdir. So‘zning semantik xususiyatlari ularning tilda kontekstga ko‘ra qanday ma’no ishlashini tadqiq etadi. Maqolada mavzuga olingan tabiat va zamonga oid terminlarning insonlarning fazilatlari, xislat va belgi-xususiyatlarini ifodalashda majoziy ma’no berishi, ba’zan o‘z

[1] G‘. Abdurahmonov. “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”. “O‘FMJ” nashriyoti. Toshkent. 2008. B-24.

ma’nosiga ma’lum bir darajada bog‘liqlikni saqlab qolgan holda, ba’zan esa o‘z ma’nosidan to‘liq uzoqlashgan holda sifatlovchi ma’no ifoda etishi usullari talqin etiladi.

Tilshunoslikda alohida olinganda belgi-xususiyatlarni ifodalovchi leksemalar sifatlovchi so‘zlar sifatida sifat so‘z turkumi jihatidan tahlil qilinadi. Lekin sifat turkumiga kirmagan so‘zlar o‘zbek tilida *-dek, -day* qo‘shimchalarini qo‘shish yoki *kabi, misoli, misli, singari* kabi ko‘makchi so‘zlar yordamida, turk tilida esa *gibi, misali, kadar* ko‘makchilari yordamida yoki o‘xshatilgan so‘zdan keyin keladigan so‘zga *-li/-lu/-lı/-lü* qo‘shimchalari qo‘shilishi, shuningdek, o‘xshatilgan leksemalarning fe’llar bilan birikkan holda semantik ma’no qo‘shilishi ta’minlanadi. Bunday leksemalar shaxsni farqli tomonlardan ta’riflashga xizmat qiladi. Ularni shaxsni qanday xususiyati va belgisini ifodalashiga ko‘ra quyidagicha semantik guruhlarga ajratishimiz mumkin:

- Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalashiga ko‘ra;
- Xarakter, fazilat, xususiyatini ifodalashiga ko‘ra;
- Harakat bajarish-bajarmasligiga nisbatan munosabatini ifodalashiga ko‘ra;
- Aqliy va ijodiy, ruhiy-jismoniy, hissiy holatini va salohiyatini ifodalashiga ko‘ra;
- Kishining hayot bosqichlarini ifodalashiga ko‘ra guruhlarga ajratamiz.

Belgi-xususiyatlarni ifodalovchi leksemalar ma’no ko‘chishi, frazeologizm, o‘xshatishlar orqali kontekstda nazarda tutilgan semantik xususiyatlarni tashqi va ichki ta’sirlarga ko‘ra so‘zlovchining vaziyat va holatga munosabatidan kelib chiqib ijobiy yoki salbiy ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Avvalo, turk va o‘zbek tilida tabiat va zamon bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi terminologik so‘zlar va ularning o‘rnaklar keltirib o‘tamiz: quyosh-güneş, oy-ay, bulut-bulut, tog‘-dag‘, tutun-duman (tutun ma’nosida), suv-su, tuproq-toprak, loy-çamur, yomg‘ir-yağmur, tomchi-damla, dengiz-deniz, tosh-taş, daraxt-ağaç, yaproq-yaprak, yulduz-yıldız, osmon-gökyüzü, havo-hava, muz-buz, bugun-bugün, erta-yarın, kechagi kun-dün, kunduz-gündüz, tun-gece, bahor-ilkbahar, yoz-yaz, kuz-sonbahar/güz, qish-kış va hokazo. Keltirilgan leksemalar gapda borliqdagi mavjud narsa-hodisalarning belgi-xususiyatlariga ko‘ra kishi ongida shaxslarning holat-xususiyatlari bilan o‘xshashlik va umumiylik belgilarini birlashtirib ifodalovchi leksemalar bo‘lib, nutqda bu so‘zlar o‘zi tasvirlab kelgan subyektga oid xususiyatlar(belgilar)ini, fazilatlarini izohlashga

xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan leksemalarning semantik ma’no ifodalash xususiyatlarini turk tilida Türkçe Sözlük. (1.TDK. Ankara,1988) va o‘zbek tilida N.Mahmudovning “O‘zbek tilining o‘xshatishlar izohli lug‘ati” (2. Toshkent, 2013) manbalari asosida ko‘rib chiqamiz:

Kishilarning tashqi ko‘rinishini, jismoniy holatini ifodalovchi leksemalar – bir qarashda insonning tashqi belgilarini insonning yuz ko‘rinishi, qomati, bo‘y-basti, tanasidagi biror alohida belgini anglatuvchi leksik birliklardir. Har ikki tilda ham ko‘zlarni ta’riflashda, nafaqat ularning rangini balki, ulardagi tuyg‘ular ifodasini tasvirida ham *tun-gece, osmon-gökyüzü, dengiz-deniz* terminlarining adabiy ijod namunalarida ham keng ko‘lamda qo‘llanilishini kuzatamiz va quyida o‘rnak keltirib o‘tdik:

“….., ***gece*** gibi *gözleriyle* sorgulayıcı bakana da Sokrat adını vermişti.” -(E.Z.Tunçinan).

“Ey, ***tundek*** *sochi* qaro qiz.” – Cho‘lpon. [2:226]

Ushbu namunalarda ko‘rishimiz mumkinki, shaxs ko‘rinishiga oid belgilardan ko‘z va sochning qora rangini tasvirlash uchun kun qismlaridan bo‘lgan, turk tilidagi *gece* va o‘zbek tilidagi ma’nodoshi *tun* leksemalarining qo‘llanilgan.

Quyidagi misollarda esa, tabiatning ajralmas qismlaridan bo‘lgan *dengiz-deniz* va *osmon-gökyüzü* leksemalari faqatgina ko‘zlarning rangini ifodalab kelganiga guvoh bo‘lamiz:

“Senin ***deniz*** mavisi işlemiş *gözlerin*in yanında. – H.Başer.

“Bu *ko‘zla*r mavjlanayotgan *moviy* ***dengizdek*** edi.”- L.Bo‘rixon.

“*Gözlerinde* mavi ***gökyüzü***.”– A.Durmuş.

“*Ko‘zlari* ***osmonday*** ko‘m-ko‘k, … “- O.Yoqubov.[1]

Har ikki tilda ham adabiy ijod namunalarida qiz va ayollarning, yorning sochini tarifini ifodalashda *sharshara-şelale* leksemalari orqali uning uzunligiga ishora qilinganini quyidagi o‘rnaklar misolida ko‘rishimiz mumkin:

“Bir ***şelale*** gibi akardı *saçları* omuzlarında…” - K.Yılmaz.

“…uning **sharsharadek** yoyilib tushgan tim qora sochlariga o‘g‘rincha qarab ulgurgandi.”- O.Hayit.

Shuningdek, quyidagi jumlalar misolida kundalik hayotda so‘zlashuv jarayonida hamda adabiyotlarda tabiatga oid keng qo‘llaniladigan leksemalar, qiz-u ayollarning tashqi ko‘rinishini tasvirida, ularning yuz go‘zalligini ta’riflashda semantik jihatdan turk tilida ham, o‘zbek tilida ham *oy/ay, gul/çiçek* leksemalari va ularning sinonimlari o‘zaro ma’nodoshlik xususiyatini ifodalaganini ko‘rishimiz mumkin:

“***Ay*** *yüzlü*m, apaçık sözlüm.” – F.Gülen.

[1] O.Yoqubov. “Ko‘hna dunyo”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent, 2015. B-202.

“Oy kabi *yuzing*, yaproqday so‘lmish.” – Mirtemir. (Tutqun qiz). [2:151]

“Sen yirmi beşine bile gelmemiş ***çiçek*** gibi bir taze duldun.”- R.N.Güntekin. [1:307]

“***Gulday*** yuzingizni silar endi kim?” – M.Yusuf (Maktub).[2:60]

Ayollarda qoshlarning tasviriy ma’no ifodalanishiga ko‘ra ko‘rinishi va nozikligi ta’rifida *hilol-hilal* leksemasining qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz:

“***Hilal*** *kaş*ları kara gözün üstünde.” – Şair Meftun.

“Qaddi chu shamshod, *qoshi* ***hilolim***.” – Muqimiy.

Har ikki o‘rnakda ham *hilol-hilal* leksemasi orqali qoshlarning ingichka va hiyol oy shakliga ega shaklni ifodalab kelganini anglamoq mushkul emas.

Yulduz — yıldız leksemasi qo‘llanilish doirasiga ko‘ra jinsga ajratilmaydi. Ya’ni, erkak va ayollarga nisbatan teng ravishda, ma’no jihatidan san’atkor ma’nosini ifodalab kelgan holda qo‘llanilish holati kuzatiladi ushbu keltirilgan o‘rnaklardagidek:

“Bir keresinde de yerli opera ***yıldızımız*** gelmişti.”-H. Taner. [1:1631]

“Amalimning ***yulduzi***, kim ko‘z tikdi…”- Cho‘lpon.

O‘zbek badiiy ijod namunalarida esa, asosan, yor ta’rifi tavsifida qo‘llaniladigan ushbu leksema ma’no jihatidan “chaqnab turuvchi ko‘zlar” ma’nosini ifodalashda keng qo‘llaniluvchi tasvir ifodasidan biridir:

“***Yulduzday*** nur sochsin chashming-qarog‘ing” (A.Oripov.To‘rtlik).

Nuroniy, yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarga nisbatan turkchada ham, o‘zbekchada ham *nur yuzli – nur yüzlü* iborasi ishlatilishini quyidagi o‘rnaklar misolida keltirib o‘tamiz:

“Rüyasında, ak sakallı, ***nur yüzlü*** bir dede görür.”-A.Armes.

“...otaxonning so‘zini eslagandim. ... Yuzidan bolalarday ***nur*** yog‘ilar,..”-S.Sayhon.

Erkaklarga nisbatan ularning ko‘rinishdan sog‘lom va baquvvat ekanligini tasviri sifatida *tosh-taş, tog‘-dağ* leksemalarining qo‘llanilishi ushbu leksemalarga xos xususiyatlarning kishidagi belgi-xususiyat bilan umumiy o‘xshashlikni ifoda etish uchun qo‘llanilishini quyidagi jumlalarda ko‘rishimiz mumkin:

“…,bilaklari ***toshday*** qattiq edi.”- O.Yoqubov.[2:218]

“Otam ham ***tog‘day*** kelbatli bir kishi edi-ya!”-I.Sulton.

Bunda har ikki leksema o‘zbek tilida kishining sog‘lom, baquvvat kishi ekanligi ma’nosini ifodalab kelsa;

“***Dağ*** gibi delikanlı.”-F.N.Çamlıbel.[1:328]

Turk tilidagi *dağ/tog‘* so‘zi o‘zbek tilidagi kabi sog‘lom baquvvat kishi ma’nosini ifodalasa-da, *tosh-taş* so‘zi o‘zbek tilidan farqli ravishda

xususiyat bildirishiga ko‘ra qahri qattiq, hissiz insonni tavsiflashda qo‘llanilishi haqida ushbu maqolaning davomida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Shaxsning harakat holati va holatga munosabatini ifodalovchi leksemalar guruhiga harakatning bajarilish xususiyatini, ya’ni, shaxs harakatni qay tarzda bajarayotganligi yoki harakatsizligini, kishidagi vaziyat va holatga nisbatan munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Va bu borada harakatning tezlik darajasining yuqori va pastligiga ko‘ra semantik xususiyat ifodalashda har ikki tilda ham tabiat hodisalariga oid terminlardan *shamol-rüzgar* (o‘ta yuqori bo‘lmagan, ma’lum bir ma’noda o‘rtacha tezlikni ifodalasa);

“Hızlı, telaşlı, ***rüzgar*** gibi yürüyordu, ama ayakları yere basmıyor gibiydi.”-N.Araz.[1:1233]

“ Va lekin dunyoda ***shamolday*** yelib,

Dengizday keng qalbni axtargan zotman.”- A.Oripov (Dengizga).

Dovul-fırtına leksemalari esa, quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkinki, o‘ta yuqori tezlikda amalga oshirilgan harakatni tasvirlashga xizmat qiladi;

“Fırtına gibi geldi gitti.” [1:501]

“…, dovulday uyiga kirib borib, …” (Sh.Bo‘tayev).

Insonlarning holatini tasvirlashda hayratdan karaxt holatga tushgan holatlarini ifodalashda *tosh-taş* leksemasi yordamida tasvir etilgan ko‘rinishi quyida keltirilgan namunada berilganini ko‘ramiz:

“Ben olduğum yerde ***taş*** gibi donup kaldım.”-R.N.Güntekin.[1:1424]

“…O‘tar bobo ***toshdek*** qotib o‘tirar, ...”-A.Ibodinov. “Ko‘l bo‘yida”

Qo‘rquvdan titrash holatini tasvirlashda esa ***yaproq-yaprak*** leksemalarining semantik ma’no ifodalashining quyidagi o‘rnaklarda kuzatamiz:

“…yurak ***yaproqday*** dir-dir titrashini qo‘ymasdi.”- I.Sulton. (Boqiy darbadar)[2:274].

“Cılız bedeni rüzgâra tutulmuş bir ***yaprak*** gibi titriyordu.”-D.Yılmaz

Insonning ruhiy holatini va hissiyotini ifodalovchi leksemalar – kishining mavjud holatga nisbatan his qilayotgan tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini ta’riflashda foydalaniladigan leksemalar bo‘lib, ularga quyidagi so‘zlarni misol qilib olishimiz mumkin: tosh-taş, olov(o‘t)-ateş, osmon-gök, cho‘g‘-kor, tog‘-dağ, loy-çamur, oftob-güneş, barg-yaprak va boshqalar. Ushbu leksemalarning ba’zilari qiyoslanayotgan tildagi ma’nodosh so‘zlar bilan ifodalanib, ba’zilari esa umuman boshqa so‘zlar orqali ifodalangan holda bir xil ma’no ifodalashini, ba’zilari esa bir so‘z bo‘lsa-da, farqli ma’nolarni bildirishini ko‘rishimiz mumkin:

Har ikki tilda yuqorida koʻrib chiqqanimizdek, tashvish, xavotir, qoʻrquv, hayajon, hayrat, taajjub kabi hislarni aks ettirishda tosh-taş leksemalari semantik maʼno ifodalanishi oʻrgandik. Shuningdek, taʼkidlab oʻtishimiz lozimki, oʻzbek tilida ushbu holatni ifodalashda tosh leksemasi bilan maʼnodoshlik hosil qiluvchi soʻzlar ham mavjud. Bulardan, *yogʻoch* va uning sinonimi *tahta* leksemalaridir:

“Abrorning qismatini eshitgach, ***taxtadek*** qotib qoldim.”- O.Muxtor.[2:208]

“Nizom-ul Mulk Xorazmshoh roʻparasida, bir soʻz deyolmay ***yogʻochdek*** qotib qoldi.”- Mirmuhsin (Temur Malik)[2:82]

Kishida javobgarlik va masʼuliyat hissini ifodalovchi maʼnoni *togʻ- dağ* leksemalari orqali ifodalanganligini quyidagi misolda koʻrib chiqamiz:

“Dağ gibi yük üstümüzden iner mi sence”-C.Demircioğlu.

“Mansurning yelkasidan **togʻ** agʻdarilganday boʻldi.”-O.Hayit.

Olov(oʻt)-ateş leksemasi qoʻllanilishiga koʻra bir qancha maʼnolarni ifodalaydi deya olamiz. Quyidagi oʻrnakda jahlni ifodalash xususiyatini:

“…bir duvara yaslanarak **ateş fışkıran gözlerle** onu…”

“Koʻzlari ***Olovdek*** yonib:”-P.Qodirov.[2:157]

Keyingi oʻrnakda esa *olov- ateş* leksemalari azob va qiynoq maʼnolarini:

“Hiç yangını sönmedi, kalbim ***ateşten*** bir kor…”-H.Akin

“Olovdek lovullab dil yonar” (U.Nosir).[2:157]

Bundan tashqari, aqlli va salohiyatli, sergʻayrat, joʻshqin, serharakat bolalarga nisbatan ham ushbu leksemalar har ikki tilda ham ishlatiladi:

Ateş gibi bir öğrenciydi.[1:101]

“U ham yaqindagina kichkina, ***olovdey*** bola edi.” – Oybek. [2:157]

Iboralar bilan ifodalanganida:

Boshi *koʻk(osmon)ka yetmoq /Başı göge ermek* – xursand boʻlish, quvonch maʼnosini ifodalab keladi:

Sınavı geçtiğine göre başın ***göğe*** ermiştir. [1:149]

“Zaynab oʻqib, boshi ***koʻkk***a yetdi.” [1]

Loy-çamur leksemasi har ikki tilda insonlarga nisbatan belgi-xususiyatni ifodalashda turli maʼnolarni aks ettirishini quyidagi misollarga koʻrishimiz mumkin:

“Kumush *loydek* boʻshashib, Oftob oyim ham ogʻir tortdi – A. Qodiriy.”Oʻtkan kunlar”. [2:123]

[1] Sh.Rahmatullayev. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. “Oʻqituvchi”. Toshkent-1978. B-49.

“Çamur oyuncu ile dürüst oyuncuyu herkes karıştırıyor.” – H. Taner. [1:275]

Yuqorida keltirilgan o‘rnaklardan o‘zbek tilida keltirilgan jumlada *loy* leksemasi bo‘shashganlik, lanjlik ma’nosini bildirayotgan bo‘lsa, turk tilida keltirilgan o‘rnakda esa, *çamur* leksemasi insonning g‘arazli niyatli kishiga oid xislatni ifodalab kelayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Kishining xarakter xususiyatlari va salohiyatini ifodalovchi leksemalar – insonlarning xarakter xususiyatlarini leksemalar misolida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin: *Osmon – gök, havo – hava, tosh – taş* leksemalarini olishimiz mumkin. Ushbu leksemalar ham turg‘un ibora shaklida ham o‘ziga xos ma’no ifodalaydi. Quyidagi jumlada *tosh – taş* leksemasining ma’no ifodalashiga ko‘ra turk va o‘zbek tilida ko‘ngli qattiq, mehr-shafqat tuyg‘usiga ega bo‘lmagan, qahri qattiq, bemehr insonlar tavsifini ifodalashini ko‘rishimiz mumkin:

“Aslında hiçbirimiz ***taş kalpli*** insanlar değiliz” F.Kafka.

“ … har qanday ***tosh yurak*** ham yig‘laydi.”-S.Ahmad.[1]

<u>Soya-gölge</u> leksemasi har ikki tilda ma’no ifodalashiga ko‘ra biror ishga yoki kishining faoliyatiga to‘sqinlik qilmoq, halal bermoq ma’nolarini ifodalashda qo‘llaniladi:.

“***Gölge*** etme, başka ihsan istemem.”-Diyojen. [1:559]

“…, shuhratiga ***soya*** soldi”.

Zamon (payt) va mavsumga oid leksemalar – vaqt bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar: *bahor/bahar, qish/kış, kuz/güz, bugun/bugün, o‘tmish/geçmiş, kelajak/gelecek* o‘z ma’nosiga ma’lum bir darajada bog‘liqlikni saqlab qolgan holda o‘zbek tilida ham turk tilida ham inson hayotining ma’lum bir qismiga oid davrni : *bahor/bahar* – yoshlik davrini, *qish/kış*- qarilik davrini ta’riflashda qo‘llanilishi;

“*Yoshlik* ***bahor***ga, *keksalik* esa ***qish***ga o‘xshaydi.”-A.Firdavsiy.

“Bazen güneş olup *hayatının* ***ilkbaharını*** yaşarsın…”-E.Safir.

“Bu adam hayatının ***sonbaharında***.”[2]

Yuqorida keltirilgan jumlalarda ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek tilida <u>qarilik</u> ma’nosini *qish* leksemasi bilan ifodalansa, turk tilida *sonbahar(kuz)* leksemasida ifodalaganligini ko‘rdik.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek va turk tillarida maqolada o‘rganib chiqqanimizdek, zamon, tabiat va tabiat hodisalarini bildiruvchi leksemalar nutq jarayonida ham alohida so‘z holida, hamda iboralar tarkibida,

[1] Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. “O‘qituvchi”. Toshkent-1978. B-236

[2] X.Imamova. Turk tili leksikologiyasi. “TDShI”. Toshkent-2019. B-36.

shuningdek, boshqa so‘zlar bilan birikib kelgan holda turli semantik xususiyatlarni ifodalash orqali qo‘llana olishini ko‘rib chiqdik. Bunda *osmon/gök* leksemalari insonning tashqi ko‘rinishida ko‘z rangini va ibora holida insonning ruhiy jihatdan xursand holini ifodalovchi ma’nolarni bildirib kelishini; *olov/ateş* so‘zlari turk tilida ham,, o‘zbek tilida ham qo‘llanilish holatiga ko‘ra: insondagi g‘azabni, shijoatni, hijron azobini ham ifodalab kela oluvchi semantik xususiyatlarni ifodalab keladi; *tog‘/dağ* qo‘llanilish vaziyatiga ko‘ra insonning sog‘liq salohiyati, shuningdek, mas’uliyatlik jihatidan semantik xususiyatlarni ifodalab kelishini*; tosh-taş* leksemalari esa, ko‘rib chiqilganidek, boshqa leksemalarga nisbatan ko‘p va turli ma’no, ya’ni, turk va o‘zbek tilida insonning xarakterini, mavjud holatga ko‘ra hayratdan joyida qotib qolish holatini ifodalovchi ma’no ifodalasa, o‘zbek tilida ushbu holat tasnifi uchun taxta, yog‘och leksemalarining ham sinonimlik xususiyatiga ega ekanligini o‘rganib chiqdik. *Bahor/bahar* va *qish/kış* atamalarining o‘rganilganidek o‘zaro antonimlik xususiyatini kasb etishi, *oy/ay, gul/çiçek* so‘zlarining esa, go‘zallikni ifodalashda o‘zaro sinonimiya hosil qilish xususiyatiga ega ekanligi o‘rganib chiqdik. Insonlarning tashqi ko‘rinishini tasvirlashda o‘zbek va turk tillarida *oy/ay* va *gul/çiçek, dengiz/deniz va osmon/ gökyüzü* o‘zaro ma’nodoshlik ifodalashini*;* xarakterga xos xususiyatlarni ifodalashda *tosh/taş, osmon/gök, olov/ateş*; insonlarning bajarayotgan xatti-harakatining tezlik holatini ifodalashda har ikki tilda ham *shamol/rüzgar, dovul/fırtına* kabi tabiatga oid terminlar orqali ifodalash; kishilar hayotining davriy bosqichlarini ta’riflashda *bahor/bahar, qish/kış* so‘zlari orqali insoniy xususiyatlarni ifodalovchi leksemalarning semantik xususiyatlari va ularning qo‘llanilish doirasi haqida o‘rganib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘.Abdurahmonov. “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”. “O‘FMJ” nashriyoti. Toshkent-2008.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston nashriyoti”. Toshkent-2021.
3. N. Mahmudov. O‘zbek tilining o‘xshatishlar izohli lug‘ati. “Ma’naviyat”. Toshkent-2013.
4. Türkçe sözlük. TDK. Ankara-1988.
5. X.Imamova. Turk tili leksikologiyasi. “TDShI”. Toshkent-2019.
6. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. “O‘qituvchi”. Toshkent-1978.

YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK VA YOMONLIK” TUSHUNCHALARIGA OID MAQOLLARNING MA’NODOSHLIK XUSUSIYATLARI

Mukarramxon ESHONXO‘JAYEVA
Lingvistika (yapon tili) 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD. dots. N.T. Xalmurzayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon va o‘zbek tillaridagi yaxshilik va yomonlik tushunchalariga oid maqollarning semantik xususiyatlarini va o‘ziga xosliklarini ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, maqolada maqollarda ibratlilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o‘zining umuminsoniy jihatlari tahlil qilindi. O‘zbek va yapon tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma’no-mazmunga egaligi maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo‘lsa, yomonlik insoniyatning yovuzlik tomoni ekanligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: maqollar, semantik ma’no, tarjima, ekvivalentlik tushunchasi, qiyosiy tahlil, o‘xshash va farqlar.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek maqollariga ilmiy munosabat shakllarini qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘atut turk” asarida uchratamiz.Mahmud Koshg‘ariy an’anasi davom ettirilib, maqollarning umumiy mazmuni uning leksik strukturasiga asosiy e’tibor qaratilmagani holda folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va etnografiya sohasida o‘rganilib kelindi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin maqollarning lisoniy tarkibi, unda ishtirok etgan leksik birliklar, leksik birliklararo hamda maqollarning o‘z mazmuniga ko‘ra semantik munosabatlari masalasi lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganila boshlandi. Bu borada X. Abdurahmonov, Ya. Pinsaxov, SH.Rahmatullayev, G‘.Salomov, Q.Samadov, M.Sadriddinova, Sh.Shorahmedov kabi ustoz tilshunoslar hamda tadqiqotchilarni alohida ta’kidlamoq joiz[1]

“Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir shaklidir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-

[1] Abdurahmonov X. O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari: avtoreferat. Diss.-Tashkent: Uzbekistan, 1964; Pinxasov YA. O‘zbek tili frazeologiyasi haqida – Toshkent: Fan, 1957; Rahmatullayev Sh. O‘zbek maqollarining lug‘ati- Toshkent: Fan, 1970; Salomov G‘ Maqollarning til va tarjimada tutgan o‘rni-Toshkent: Fan, 1966; Samadov Q. Maqollarda til mahorati – Toshkent: Fan, 1981; Sadriddinova Maqollarning matnda va og‘zaki uslubda qo‘llanilishi: Avtoreferat. Diss.-Tashkent, 1985-20b; Shorahmedov SH. Maqollarning paydo bo‘lishiga doir o‘zbek tili va adabiyoti- 1971 – B31-34.

farosat va tafakkurimiz mantig‘ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy- siyosiy, ma’naviy – ma’rifiy, axloqiy – estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir.” [1] O‘zbek maqollarida eng ko’p uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ayrim maqollarning yapon va o’zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi o’xshash va farqli jihatlarini ko’rib chiqamiz. Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya’ni bir-biriga qarama- qarshi jihatlari orqali bilamiz. Bular ichida eng ko’p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda bularni ijobiy bo’yoqdor so’zlar va salbiy bo’yoqdor so’zlarga ajratamiz.Yaxshilik va yomonlik tushunchalarining maqollarda keng ko’lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko’rsatuvchi hodisadir.Shu o’rinda yapon va o’zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo’lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi.

Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o’zbek va yapon maqollarining semantik tahlillarini keltirib o’tamiz.Quyida tahlil qilmoqchi bo’lgan yaxshilik va yomonlik mavzusidagi o’zbek Yapon xalqi va o’zbek xalqining milliy mentaliteti va urf odatlarining bir-biriga o’xshash va o’ziga xos jihatlariga ega. O‘zbek milliy mentaliteti, o’zbekona fikrlash yapon xalqi uchun ham nihoyatda qiziq va ochilmagan orol desa ham bo’ladi. Maqollar- xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Ularda har bir xalqning o‘ziga xos jihatlari, turmush tarzi, maishiy , ijtimoiy, iqtisodiy hayoti, xalqning o‘y-fikrlari aks etadi. Qaysi bir xalqda yoki tilda bo‘lmasin maqollarning nutqqa go‘zallik, mazmuniy serjilolik berishda, gapning butun bir mazmunini qisqa tarzda ifodalab berishdagi o‘rni beqiyosdir. Maqollarning ba’zan oddiy ma’noda ba’zan maqsadli ma’noda qo‘llanishi kabi o‘ziga xos xususiyatlari bor . Shu sababli dunyoning turli tillarida mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshash maqollar uchraydi. Shunday ekan, jamiyat hayotida muhim o’rin tutuvchi milliy mentalitetimizga oid tushunchalarni yaponiyalik kitobxonning ongiga yetkazib berish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa tilshunos dastlab milliy mentalitetning jamiyat hayotidagi rolini tadqiq

[1] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq”, 2005-B

etishi lozim ko’rinadi. Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon- atrofimizdagilarni bunga bo’lgan munosabatiga bog‘liq bo’ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bunga qo’shimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib o’tsak bo’ladi.

O‘zbek tilida: Oyning o’n beshi qorong‘i bo’lsa, O‘n beshi yorug‘ bo‘ladi.

Yapon tilida: “らくあればくあり”. [1]

O‘zbekcha tarjimasi: Oqshom kunduzning toji. O‘zbekcha ekvivalenti: Har kechaning – kunduzi, Har kunduzning kechasi bor.

Ushbu maqollar orqali xalq o’z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo’lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo’lavermasligini ifodalaydi. “Oyning o’n beshi qorong‘i bo’lsa, O‘n beshi yorug‘ bo’ladi” va “ Har kechaning – kunduzi, Har kunduzning kechasi bor” maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchilik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi. Ta’kidlab o‘tganimizdek, maqollar bu xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo’lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo’lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir.

Shu o‘rinda yana bir maqolni misol sifatida keltirib o‘tamiz.

O‘zbek tilida: Yaxshiga yaxshi, yomonga yomon[2]

Yapon tilida: **善には善の報い、悪には悪の報い**[3]

Ma’noviy ekvivalenti: Yaxshiga yaxshi mukofot, yomonga yomon mukofot. O‘zbekcha ekvivalenti: Har yaxshi insonga yaxshi inson, yomonga yomon inson uchrashi mumkinligi haqidagi ma’noni bildiradi.

O‘zbek tilida: yaxshi do‘st achitib gapirar, yomoni kuldirib

Yapon tilida: **善悪は友による**

O‘zbek tilidagi tarjimasi: yaxshi va yomon do‘stingga bog‘liq

Ma’noviy ekvivalenti: Do‘sting yaxshi bo‘lsa haqiqatni gapiradi, yomon bo‘lsa aybini ko‘rsatadi.

Yapon tilida: **善は急げ悪は延べよ**

[1] https://kotowaza.jitenon.jp/kanji/4.php

[2] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005 102-b

[3] http://annaka-net.com/kojikotowaza.html

O‘zbek tilidagi tarjimasi: Yaxshilikka shoshiling, yomonlikni cho‘zing. O‘zbek tilida: yomon ishni qo‘y, yaxshisiga yugur[1]

Ma’noviy ekvivalenti: yomon ishni qo‘yib, yaxshi ishni tezroq amalga oshirgan ma’qul degan ma’noda ishlatiladi.

Ta’kidlab o’tganimizdek, maqollar bu xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo’lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo’lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir. Badiiy matn ijodkori asar mazmunini anglatishda qo’llagan tasviriy ifodalar va ko’pgina stilistik vositalar tilshunoslikda ham o’z aksini topishi lozim. Asliyat muallifi va tarjimani o’qiydigan kitobxon o’rtasidagi kommunikativ muloqotning saqlab qolinganligi, shu millat mentalitetiga oid nazariy ma’lumotlarning qay darajada talqin qilinganligiga bog‘liq[2].

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo’lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo’qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g‘alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o’z ifodasini topgan. Shuningdek badiiy matndagi har bir so’z leksik yoki frazeologik birikmalar har bir kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Bu har bir xalqning etnik kelib chiqishi, psixologiyasi, mentaliteti, yashash sharoiti kabi ko’plab omillarga bog‘liq.

Keltirib o‘tgan maqollarimizning tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- maqollarining ko‘pchilik qismida yaxshilik va yomonlik obrazlari, hodisalari, holatlari ifodalangan bo‘lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir;

-yaxshilik va yomonlik tushunchalari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;

-yaxshilik va yomonlik obrazlari keltirilgan maqollarning yaponcha muqobil variantlarida aynan bir xil yaxshilik yoki yomonlik nomi ishlatilmasligi yoki umuman ushbu tushunchalar nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmaydi Maqollarning semantik xususiyatlarini tahlil qilganimizda mavzu maydoni, ishtirokchilari va ifoda tarzini e’tiborga olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tishimiz mumkin, tadqiqotimizda o‘zbek va yapon tillaridagi maqollarni o‘rganganimizda ular orasida bir –

[1] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005, 105-b

[2] Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir ilmiy qarashlar.T.: O‘zbekiston Madaniyati. – 1965. - 213 b.

biriga ikkala tilda ham mos maqollar tashkil qildi. Bir – biriga o‘xshash maqollarda esa ayrim leksik farqlarni kuzatdik. Ikkala tilda ham faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatli maqollarda turli obrazlar, turli ma’nolarni ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalardan kelib chiqadiki, turli tillarda maqollar ma’nodoshlik xususiyatiga ega bo‘lsa-da, ularda ma’lum millatgagina xos bo‘lgan milliy ruh sezilib turadi. O‘zbek va yapon tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma’no jihatidan bir-biriga o’xshash va farqli jihatlarini o’rganib chiqdik. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir yapon va o’zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo’lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko’rsatiladi. Xullas, yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid o’zbek va yapon xalq maqollari semantik jihatdan deyarli bir-xil ma’no anglatadi. Har ikkala tilda ham yaxshilik va yomonlik tushunchalariga oid maqollarda asosan millat xarakteridagi individual belgilar, milliy xarakter, ruhiyatidagi va atrof-muhitga bo’lgan munosabati, harakatlari, qilmishlari, his-tuyg‘ulari albatta stilistik vositalar orqali har ikki tillarda ham o’z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild. Toshkent .2013-530-b
2. T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005-1-b
3. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir ilmiy qarashlar. T.: O‘zbekiston Madaniyati. –1965. -213 b
4. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. -T.1990-458-b
5. https://kotowaza.jitenon.jp/kanji/4.php
6. http://annaka-net.com/kojikotowaza.html
7. Abdurahmonov X. O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari: avtoreferat. Diss.- Tashkent: Uzbekistan, 1964;
8. Samadov Q. Maqollarda til mahorati – Toshkent: Fan, 1981
9. Shorahmedov SH. Maqollarning paydo bo‘lishiga doir o‘zbek tili va adabiyoti- 1971 – B31-34
10. Sadriddinova Maqollarning matnda va og‘zaki uslubda qo‘llanilishi: Avtoreferat. Diss.-Tashkent, 1985-20b;

FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA SIFATLARNING MA’NO GURUHLARI

Hulkar MUROTOVA
Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti:
fors-ingliz yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar f.f.d., dots. D. Ahmedova

Annotatsiya. Mazkur maqolada fors hamda o‘zbek tilida sifatlarning lug‘aviy ma’no guruhlariga ajratilishi bo‘yicha nazariy xulosalar o‘zaro qiyoslanib, ular orasidagi farqli jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z turkumlari, lug‘aviy ma’no, sifat, o‘tgan zamon sifatdoshi, nisbiy sifatlar, hayrat sifati, mavhum, noaniqlik sifati, so‘roq sifati, sanoq sifatlari, tartib sifatlari, kasr sifatlari, reduplikativ miqdor sonlar yoki (taqsim sonlar), ko‘rsatish sifatlari.

So‘zlarning lug‘aviy va grammatik ma’no jihatdan o‘xshashligiga ko‘ra ayrim leksik grammatik munosabatga kirishadi. So‘zlarni turkumlarga ajratish ularni grammatik ma’nolari bilan bir qatorda, lug‘aviy ma’nosi ham asosiy belgilardan hisoblanadi. Ham grammatik ham leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘z turkumlari kiradi. Gapda mustaqil sintaktik bo‘lak sifatida ishtirok etadigan so‘zlar mustaqil so‘zlar deyiladi. Mustaqil so‘zlarga: ot, sifat, son, olmosh kiradi [3].

O‘zbek tili morfologiyasida boshqa so‘z turkumlari qatori sifat ham katta o‘rin egallaydi. Sifat o‘zbek tilida o‘zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajratilgan [2].

Predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so‘z sifat deyiladi: qora qalam, oq ko‘ylak, yaxshi gapirmoq. Boshqa so‘z turkumi ham belgini ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg’un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul – qizil deganda turg‘un (statik) belgi, Gul qizardi deganda esa o‘zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo‘lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, qizg‘ish – qizil – qip-qizil. Boshqa so‘z turkumida esa esa bunday xususiyat yo‘q. Shu asosda sifat “asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba’zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish” ko‘rinishida tiklash mumkin. Belgi tushunchasi o‘z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi. Belgining xususiyatiga

ko‘ra sifat ikkiga bo‘linadi: asliy sifat va nisbiy sifatlar. Darslik va qo‘llanmalarda sifat 9 ta lug’aviy ma’no guruhga ajratiladi**:**

1. Xususiyat bildiruvchi sifat.
2. Holat bildiruvchi sifat.
3. Shakl bildiruvchi sifat.
4. Rang-tus bildiruvchi sifat.
5. Maza-ta’m bildiruvchi sifat.
6. Hid bildiruvchi sifat.
7. O‘lchov bildiruvchi sifat.
8. O‘rin bildiruvchi sifat.
9. Payt bildiruvchi sifat [3].

Shubhasiz, uzoq vaqtdan beri fors tili grammatikasini tavsiflovchi va tuzib kelayotgan barcha grammatika olimlari, tilshunos olimlar bu tilda asosiy so‘z komponentlaridan biri sifatida sifat so‘z turkumining mavjudligini isbotlaganlar, lekin, turli ta’riflarga qaramay hozirgacha sifat faqatgina turkum uchun berilgan. Ular hali bu toifani to‘liq tasvirlab va tasniflay olmaganlar. Bu tadqiqotlarning barchasi har doim sifatlar va boshqa so‘zlarning toifalarini belgilaydi, tavsiflaydi hamda tasniflaydi. An’anaviy yondashuvlardagi sifatlar, garchi turli tillardagi nutq qismlariga global nuqtai nazardan qaralsa-da, fors tilidagi sifatlar o‘zbek tilidagi sifatlar sinfining ot va fe’l sinfiga nisbatan o‘xshash shu bilan birga bog’liqdir. Ko‘pincha sifatlar ustida olib borilgan tadqiqotlar ot yoki olmoshning tavsifi deb ataladi va u ma’no jihatidan uning tavsifi va tasnifiga ishora qiladi [4]. Sifatni biror narsaning yoki kimningdir holatini, shaklini bildiruvchi so‘z deb hisoblaydi va quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi:

1. صفت مفعولی (o‘tgan zamon sifatdoshi) shaxs yoki predmetda sodir bo‘lgan harakatga ishora qiladi va مصدر مرخم متعدی (o‘timli fe’lning qisqartirilgan infinitiv shakli)ga "ه"qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: نوشته, خورده, برده, زده.
2. صفت نسبی (nisbiy sifatlar) biror shaxs yoki narsani joyga, predmetga yoinki kimgadir nisbatlash uchun ishlatiladi: تهرانی , سنگی, پشمی, هفتگی, دیدنی, بردگی, یاوگی, پردگی.
3. صفت تعجبی (hayrat sifati) چه, عجب, چگونه, چقدر, و چطور kabi so‘zlar ot bilan birga kelib uning qandayligi yoki miqdori bo‘yicha so‘zlovchining taajjubini bildirib keladi: چه مردم شجاعی! چه ایمان استواری! چقدر زن با تقوایی! چه اندازه کتاب, چه ها دیدم! چه کشیدم.
4. صفت مبهم (mavhum, noaniqlik sifati) otning turini, qandayligi, sanog‘i va yoki miqdorini noaniq tarzda ifodalab keladi: هر، فلان، چندین. هر گلی را نباید چید. احسان فلان کتاب را دوست دارد. مهران امروز چندین کتاب خرید. برانید این شوخ مبذّر را

.(گلستان) که چندان نعمت به چندین مدت تباه کرد .Ko‘p qo‘llanadigan mavhum sifatlar quyidagilardir: هر، همه، دیگر، هیچ، فلان، بهمان، خیلی، کمی، بسیاری، اندکی، قدری، برخی، بعضی، بعض، پاره ای، چند، چندین، چندان و...

5. صفت پرسشی (so‘roq sifati) shunday sifatdirki u bilan otning miqdori, qandayligi, turi haqida so‘raladi (o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari kabi): «چه»، «چه گونه»، و «چند»... . Ko‘p qo‘llanadigan so‘roq sifatlari quyidagilardir: چه، کدام، کدامین، چگونه، چطور، چه جور، چه سان، چندم، چندمین، چند، چه قدر، چه مقدار، چه اندازه ای، هیچ.

6. صفت شمارشی (sanoq sifatlari) موصوف [mavsuf] yoki معدود (sanalmish)ning sanog‘i va darajasini ifodalab keladi: دو کتاب، کتاب دوم، یک دوم کتاب.

7. صفت ترتیبی (tartib sifatlari) – mavsufning darajasi yoki tartibini bayon qiladi: طبقه هفتم، کلاس چهارم. اوّل و نخست kalimalari qoidasiz tartib sifatlari hisoblanadi.

8. صفت کسری (kasr sifatlari) o‘z mavsufining bir qismini ifodalash uchun ishlatiladi: پنج یک خانه، یک پنجم خانه، صدی پنج خانه، پنج درصد خانه.

9. صفت توزیعی (reduplikativ miqdor sonlar yoki (taqsim sonlar)) narsa yoki shaxslarni teng miqdorda taqsimlash uchun ishlatiladi: دانش آموزان چهار چهار وارد میدان شدند.

10. صفت اشاره ای (ko‘rsatish sifatlari) «همان»، «همین»، «آن»، «این» kalimalari ism oldidan kelganda ko‘rsatish sifatlarini ifodalaydi.

O‘zbek va fors tillarida sifatning ma’no turlarining farqli jihatlari:

صفت مفعولی(o‘tgan zamon sifatdoshi) – Fe’l so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت نسبی (nisbiy sifatlar) – Ot so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت تعجبی (hayrat sifati) – Alohida so‘zlar yuzasidan o‘rganiladi.

صفت مبهم (mavhum, noaniqlik sifati) – Olmosh so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت پرسشی (so‘roq sifati) – Olmosh so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت شمارشی (sanoq sifatlari) – Son so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت ترتیبی (tartib sifatlari) – Son so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت کسری (kasr sifatlari) – Son so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت توزیعی (taqsim sonlar) – Son so‘z turkumida o‘rganiladi.

صفت اشاره ای (ko‘rsatish sifatlari) – Son so‘z turkumida o‘rganiladi.

Xulosa: O‘zbek tilshunosligida bugungi kunda sifatlar 9 lug’aviy ma’no guruhi mavjud: Xususiyat bildiruvchi sifat; Holat bildiruvchi sifat; Shakl bildiruvchi sifat; Rang-tus bildiruvchi sifat; Maza-ta’m bildiruvchi sifat; Hid bildiruvchi sifat; O‘lchov bildiruvchi sifat; O‘rin bildiruvchi sifat; Payt bildiruvchi sifat.

Fors tilida esa lug’aviy ma’no jihatidan 10 guruhga ajratilib, صفت مفعولی (o‘tgan zamon sifatdoshi), صفت نسبی (nisbiy sifatlar), صفت تعجبی (hayrat sifati),صفت مبهم (mavhum, noaniqlik sifati), صفت پرسشی (so‘roq sifati), صفت شمارشی (sanoq sifatlari), صفت ترتیبی (tartib sifatlari), صفت کسری (kasr sifatlari), صفت توزیعی (reduplikativ miqdor sonlar yoki (taqsim sonlar), صفت اشاره ای (ko‘rsatish sifatlari).

Kuzatuvlar natijasi fors tilidagi sifatning lug’aviy ma’nolari 10 guruhga ajratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi sifatlar lug’aviy ma’no jihatidan 9 guruhga ajratilishini ko‘rsatdi. Fors tilidagi sifatlarning lug’aviy ma’no guruhlarga ajratilishida o‘zbek tilidagi sifatning lug’aviy ma’no guruhiga o‘xshash emasligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayzullayeva M. O‘zbek tilida so‘z turkumlari tasnifi masalalari”. — 2013-2014.
2. Muqimova G. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatlarning semantik funktsional xususiyatlari.
3. Nurullayeva N. So‘z turkumlari va ularning xususiyatlari. // Yosh tadqiqotchi jurnali, No.4 – 2022. – B. 649-651.
4. دانشگاه اصفهان نگاهي ردهشناختي به مقولة صفت در زبان فارسي. 94 — 4 — 20

FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI

Munisa OCHILOVA
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik, 3-kurs,
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi S.U. Sultanxodjayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol nima ekanligi, fors va o‘zbek tillaridagi mushtarak maqollar, ularning leksik-semantik tahlili va maqollarning ahamiyati batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maqol, leksika, semantika, tahlil, so‘zma-so‘z tarjima, komponent.

“So‘z san’atining mahsuli sifatida maqollar badiiyat hodisalaridir” degan edi professor T.Mirzayev.

Darhaqiqat, maqol turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalagan, qisqa, ko‘pincha she’riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma’noli iboralardir.

Maqol xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, unda xilma xil badiiy ifoda vositalar bir-biriga ohangdosh hisoblanadi. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Bobur, Sadriddin Ayniy, Abulg‘ozi Bahodirxon, Ogahiy va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgarmagan holda mavjudligiga qanoat hosil qilamiz.

Tariximizda maqollarga, folkloristik, ya’ni xalq og‘zaki ijodi nuqtayi nazaridan ham munosabatda bo‘lingan hollarga duch kelamiz.

XI asrning ulkan tilshunos olimi va etnograf Mahmud Qoshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning “Devoni lug‘otit turk” asari bunga yorqin misol bo‘ladi. “Devon”da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati, bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz joizki, adabiyotimiz tarixida, aynan, maqollar asosida vujudga kelgan noyob asarlar ham mavjud. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o‘zining “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir.

Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan buyuk allomalarimizning o‘lmas satr va hikmatli so‘zlari ham, ko‘pincha, xalq maqollariga o‘xshab ketadi va ular qon qonimizga singib ketgan. Masalan, so‘z mulkining sultoni mir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz, elga e’tiborsiz”.

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Misol uchun, venger olimi H.Vamberining 1867- yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori, 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan.

Shundan keyin, birin ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh.Joʻrayev (1926), M.Zarifov (1939,1947), B.Karimov (1939), Sh.Rizayev, Oʻ.Azimov, Oʻ.Xolmatov (1941), M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R.Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E.Siddiqov (1976, 1986), B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov (1978), B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Madrahimova (1981, 1984), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shozahmedov (1987, 1990, 2001), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar toʻplamlari nashr etildi.

Shuningdek, E.Chernayavskiy, V.Roʻzimatov (1959), N.Gasunayev (1983,1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan oʻzbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim toʻplamlar sifatida bosilib chiqdi.

Turli davrlar, turli yillarda bunday toʻplamlarning nashr etilishi xalq maqollarini toʻplash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy gʻoyalarni targʻib qilishda katta ahamiyatga ega boʻldi.

Shunday qilib, yuqorida biz, maqol soʻziga taʼrif berdik va olimlarning nazariy qarashlarini, maqollarning leksik-semantik doirasini koʻrib chiqdik. Bizning maqol yozishimizdan asosiy maqsadimiz, bu fors va oʻzbek tillarida mushtarak maqollarni semantik jihatdan tahlildir. Buning uchun biz, fors va oʻzbek tilidagi maqollarga murojaat qildik. Yaʼni, aynan fors va oʻzbek tillarida soʻzma-soʻz bir-biriga teng keladigan maqollarni, leksik-semantik jihatdan qisman bir-biriga toʻgʻri keladigan maqollar va maʼnosi bir, lekin tarkibiy qismlarga boʻlinmaydigan maqollarni tahlil qilishga harakat qildik. Buning uchun biz, koʻpgina misollarni tadqiq qildik va shu jihatdan, toʻplangan misollar asosida biz, ularni 3 guruhga ajratib, oʻrganib chiqdik.

1) Fors va oʻzbek tillaridagi leksik-semantik jihatdan aynan bir-biriga mos keladigan maqollar:

مهمان تا سه روز عزیز است.

Maqolning leksikasiga ahamiyat beramiz:

مهمان[mehmon], تا سه روز[uch kungacha], عزیزاست[azizdir yoki hurmatdadir].

Maqolni soʻzma-soʻz tarjima qiladigan boʻlsak, “Mehmon uch kungacha azizdir, izzat-ikromdadir” kabi maʼnoni koʻrishimiz mumkin. Xuddi shunday, bizning oʻzbek xalqimizda ham “Mehmonning izzat uch kun” kabi maqol uchraydi. Eʼtibor beradigan boʻlsak, fors tilidagi maqol bilan oʻzbek tilida keltirgan maqolimiz, leksik-semantik jihatdan bir-biriga mos kelyapti. Bundan koʻrinib turibdiki, Eron madaniyati oʻzbek

madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Biz buni xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ham anglab olishimiz mumkin.

2) Fors va o‘zbek tillarida leksik-semantik jihatdan qisman mos keladigan maqollar:

بانگ سگ زیان نکند.

Bu maqolning o‘zbek tilidagi tarjimasi “It hurar, karvon o‘tar” kabi maqolga qisman to‘g‘ri keladi. Bu yerda o‘zbek va fors tilidagi maqollarning birinchi qismi aynan mos kelyapti, lekin o‘zbekcha maqolning ikkinchi qismida زیان نکند[ziyon yetkazmaydi] birikmasi o‘rniga “karvon o‘tar yoki karvon o‘tadi” jumlasi ishlatilyapti. Shuning uchun biz , bu maqolni fors va o‘zbek tillarida leksik-semantik jihatdan qisman to‘g‘ri keladigan maqollar sirasiga qo‘shsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uning semantikasini “Hayotimizda shunday insonlar uchrab turadiki, ular birovlarning orqasidan faqat g‘iybat qiladilar, bo‘lar bo‘lmas gaplarni gapirib, hammani tinchligini buzadilar. Vaholanki, bu narsa ularga zarracha bo‘lsa ham foyda bermaydi" deya tahlil qilishimiz mumkin.

Maqolning leksemalari esa quyidagilardan iborat:

بانگ [qichqirmoq, akillamoq] – ko‘proq hayvonlarga nisbatan, سگ [kuchuk], زیان نکند[ziyon yetkizmas].

Yoki bo‘lmasa mana bu misolga e’tibor qaratsak:

جوینده، یابنده است.

جوینده[izlagan, izlovchi], یابنده است[topuvchidir].

Bu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, “Izlagan topadi” kabi izohlanadi. Lekin o‘zbek maqollari orasida “Izlagan imkon topar” degan shunga o‘xshash maqol bo‘lib, bu yerda ikkala maqolning ham birinchi qismi o‘xshash, ammo, qolgan qismida esa birozgina farqni ko‘rishimiz mumkin. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi maqolda “imkon” topilishi ham ta’kidlab o‘tilyapti, lekin forscha maqol esa bundan mustasno.

3) Semantik jihatdan mos, lekin leksik jihatdan, ya’ni tarkibiy jihatidan mos kelmaydigan maqollar:

چشم هزار کار می کند که ابرویش نمی داند.

Bu maqol ko‘pincha ayyor, barcha ishlarini hech kimga bildirmasdan bajaradigan, o‘z ishini ustalariga nisbatan qo‘llanilar ekan. Bu yerda shu narsalar, aynan, inson a’zolari ko‘rinishida yetkazib berilmoqda.

Bilamizki, tulki obrazi, o‘zbek xalq maqollarida aynan ayyorlik, epchillik ramzi sifatida ishlatiladi. Shundan kelib chiqqan holda, “Tulki tushida ham tovuq sanaydi” maqolida, tulki obrazini ko‘chma ma’noda gavdalanganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, shunday insonlar borki, ular qilayotgandan ishdan hech kimni xabari bo‘lmaydi, yon-atrofdagilar uning

rejalari haqida umuman bilishmaydi va bunday toifadagi insonlar hattoki tushlarida ham biron-bir yomonlikni o‘ylaydilar.

Yoki quyidagi misolga e’tibor qaratsak:

در گور هم چشمش باز است.

Bu maqol hayotda juda ziqna, ochko‘z, o‘zi yemay birovga ham yedirmaydigan badnafs insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunday insonlarga qancha bersang ham kam va ular faqatgina o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini o‘ylab ish qilishadi.

Bu maqolga o‘xshash o‘zbek tilida ham, bir necha maqollarni uchratdik. Masalan: “Baxil to‘ymas, baxilligini qo‘ymas”. Ya’ni, boylikka ruju qo‘ygan insonlar qachon va qayerda bo‘lishmasin, doimo boylik, shon-shuhrat haqida o‘ylaydilar. Ular uchun mulk tushunchasi har doim, hamma narsadan ustun hisoblangan. Shunday ekan, fors maqolida ham, aynan mana shu ma’noni guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Bu maqolning leksik tahliliga ham alohida urg‘u berdik:

در گور[go‘rda], هم[ham], چشمش[ko‘zi], باز است[ochiqdir].

Semantik jihatdan mos lekin, leksik jihatdan mos kelmaydigan maqollar sirasiga shu maqolni ham kiritishimiz mumkin:

شنیدن کی بود مانند دیدن.

Maqolning leksik, ya’ni tarkibiy qismiga e’tibor qaratamiz:

شنیدن[eshitish, eshitmoq], کی بود[qachon], مانند[kabi, aynan], دیدن [ko‘rish, ko‘rmoq].

Bu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, eshitish qachon ko‘rishga o‘xshagan, yoki, eshitish qachon ko‘rish kabi bo‘lgan deya izohlanadi. O‘zbek tili lug‘at boyligida ham mana shu maqolga qisman o‘xshab ketadigan maqollar uchraydi. Masalan: “Yuz marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan yaxshi”. Bu maqoldan hech qachon eshitganing ko‘rganing kabi bo‘lmaydi, eshitganingga emas, ko‘rganingga qarab xulosa qil kabi ma’nolarni anglashimiz mumkin. Bunday maqollar o‘z navbatida biz uchun ibratli so‘zlar ham hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyati, urf-odatlari mavjud. Maqollar ham aynan o‘sha madaniyatning bir ko‘rinishi, bir bo‘lagi hisoblanadi. Maqollar qaysi bir millatga tegishi bo‘lmasin, doimo barchamiz uchun kerakli, foydali va hayotimiz davomida bevosita asqatadigan hikmatli so‘zlar bo‘lib qolaveradi. Ushbu tadqiqotimiz davomida jamlangan misollarimizni tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Fors va o‘zbek tillarida maqollar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlarning nazariy qarashlari o‘rganilib chiqildi;

2. Semantik jihatdan maqollarni 3 guruhga bo‘lib, ya’ni tarkibiy va semantik jihatdan aynan bir-biriga mos keladigan, tarkibiy va semantik jihatdan qisman mos keladigan va semantik jihatdan o‘xshash, lekin leksik tarkibi jihatdan mos kelmaydigan maqollarni o‘rgandik;

3. Maqollar tahlili bizga semantik jihatdan o‘xshash, lekin leksik tarkibi jihatdan mos kelmaydigan maqollar ko‘p qo‘llanilishi tadqiqotimiz davomida guvohi bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рубинчик Ю.А Персидско–русский словарь. -М., 1970г.
2. فرهنگ فارسی عامیانه، ابوالحسن نجفی. تهران: نیلوفر، ۱۳۷۸

HINDIY VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK OT KOMPONENTLI MAQOLLARNING LEKSIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Zarina BURXONOVA
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. S.S. Nurmatov

Annotatsiya: Dunyodagi har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘plagan va shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so‘zlar ana shunday bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ushbu maqolada hindiy va o‘zbek tillaridagi somatik ot komponentli maqollarning leksik- semantik xususiyatlari va o‘ziga xosliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: etnik xususiyat, maqollar, ekvivalent, semantik xilma xillik, kulturema.

Har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og‘zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir- biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko‘p uchraydi. Negaki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko‘p o‘xshashliklar, umumiyliklar mavjud. Turli tillarda maqollar millatning madaniyati, yashash tarzi, urf-odati va qarashlarini turlicha bayon ettiradi. Shu tufayli ham bir tildagi maqolning aynan ekvivalentini boshqa tilda topish juda mushkul. Shu jumladan, hindiy va o‘zbek tillarida ham maqollarning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Bunga albatta madaniyat va etnik kelib chiqish o‘z

ta’sirini ko‘rsatgan. Bizga ma’lumki til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, bir-biriga o‘zaro ta’sir etmay qolmaydi.

Maqollarning juda keng tarqalish sababi ham shundadir. Asrlar davomida maqollar o‘zaro nutqiy munosabat va jonli so‘zlashuvda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, publitsistik adabiyotlarda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan. Davrlar aro tilda mavjud maqollarning ma’no doirasi kengayib yoki torayib, hatto yangilari yaratilib turgan. Ba’zilari unutilib ketgan.

Tilshunos olimlardan Yu. Nayda biror xalqni tilini o‘rganishda uning madaniyatini ham o‘rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta’kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog‘liq ravishda rivojlangan o‘xshash sistemadir[1]. U maqollarni o‘rganishda bevosita tilni va o‘sha xalqning madaniyatini o‘rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo‘lgan leksema o‘sha xalqning turmush tarzidan ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi [2].

Boshqa til birliklarida aynan maqoldagi kabi semantik xilma xillik, xalq madaniyatini yaqqol o‘zida namoyon qiluvchi kulturemalarning mavjudligi, stilistik bo‘yoqdorlik va lingvodidaktik xususiyatlarni uchratish qiyin desak xato bo‘lmaydi.

Dunyoning turli tillarida mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshash maqollar uchraydi. Faqat ularda xalqning milliyligi, urf-odatlari, etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli obrazlardan foydalanib kelingan. Bunday maqollarni mazmun jihatdan 1) bir-biriga mos, 2) bir-biriga o‘xshash, 3) ma’lum bir millatgagina xos bo‘lgan maqollarga ajratish mumkin.

Hindiy va o‘zbek tillari maqollarining ma’nodoshligini o‘rganganimizda ular orasida ikkala tilda ham mos tushadigan maqollar kamchilikni tashkil qildi. Ushbu maqollar ikkala tilda ham ma’no va mazmun jihatdan **bir-biriga mos** tushadi:

गऊ के मुँह में दुध है. (Guu ke munh me dudh he)
So‘zma-so‘z tarjimasi: Sigirning og‘zida suti bor
O‘zbek tilidagi muqobili : Sigirning suti og‘zida

[1]Z. Rajabova “O‘zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash” // Multidisciplinary Scientific Journal-Fevral, 2022.-B 864.

[2] Найда Ю.А. К науке переводить: точка зрения соответствий / Ю.А. Найда: пер. с англ. Л.
Черняховской // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – С. 185-201.

Maqol hindiy va o‘zbek tillarida leksik jihatdan juda mos tushgan, ammo ularning ma’nosini tushunish birmuncha qiyin. Ya’ni “Sigirni yaxshi boqsang, ko‘p sut beradi” deyilmoqchi.

आग कह देने से मुँह नहीं जल जाता.

So‘zma-so‘z tarjimasi: Olov degan bilan og‘iz kuyib qolmaydi.

O‘zbek tilidagi muqobili :

- Olov degan bilan og‘iz kuymas.
- Holva degan bilan og‘iz chuchimaydi.

गई बात फिर हाथ न आवे

- *So‘zma-so‘z tarjimasi:* Ketgan gap keyin qo‘lga qaytib kelmaydi
- *O‘zbek tilidagi muqobili :* Aytilgan gap-otilgan o‘q

Jamoa orasida yoxud ayrim shaxslarga biror gapni aytishdan avval uni obdon o‘ylab atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtirilyapti. Kishining aytgan har bir so‘zi xoh yaxshi, xoh yomon, xoh o‘rinli, xoh o‘rinsiz bo‘lsin, uni aslo qaytarib bo‘lmaydi. Ayniqsa haqorat, piching, kesatiq, mazax, kamsitish kabi so‘zlardan ehtiyot bo‘lish kerak. Qo‘llanilishi: “Og‘izdan chiqqan so‘z qaytmas”; “Gap egasi bilan yurmaydi”; “Puf desang og‘zingdan chiqadi ketadi, oqibatini o‘yla”; “Aytmasdan burun so‘zga sen ega, aytgandan so‘ng, senga so‘z ega”.

आँखों देखी कानों सुनी सही [1]

So‘zma-so‘z tarjimasi: Ko‘z bilan ko‘rgan, quloq bilan eshitgan haqiqat

O‘zbek tilidagi muqobili: Quloq bilan eshitgan – aniq, Ko‘z bilan ko‘rgan — tiniq

उतने पाँव पसारिये जितनी चादर होवे

So‘zma-so‘z tarjimasi: Oyoqlaringizni choyshabingizdek keng yoying

O‘zbek tilidagi muqobili: Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

Majozan: “O‘z holingga, mablag‘ingga, imkoniyatingga qarab ish ko‘r”, degan ma’noda qo‘llaniladi. Qo‘llanilishi: “Bo‘yingga qarab to‘n bich”, “Qulochingga qarab ketmon chop”. Mazkur maqol bilan: “Hojatingdan ortiqcha ishga bekorga urinib nima qilasan?” deyilmoqchi.

“Qo‘ling uzat andozaga qarabroq
Ko‘rpangga qarab uzatgin oyoq” (Abushukur Balxiy)
Har kishikim ko‘rpasiga poy uzatmaydur qarab,
Sal vaqt o‘tmaski, ko‘zlar jonibdi Shomu Halib. (Muqumiy)

Turli tillardagi maqollarni ma’no xususiyatiga ko‘ra solishtirganda **bir-biriga o‘xshash maqollar**da ma’lum bir leksik farqlar bo‘ladi. Ammo bu farq umumiy ma’noga ta’sir qilmaydi. Shuning uchun ham ular o‘xshash

[1] श्री शरण. मुहावरे तथा लोकोकतियाँ // हिंदी व्याकरण तथा रचना. नई दिल्ली, 2001. –पृष्ठ.185.

deyiladi. Tadqiqotimizda bir – biriga o‘xshash maqollar bir-biriga mos maqollarga nisbatan amaliy jihatdan ko‘p uchradi. Jumladan ayrimlarini misol qilib keltirsak:

एक आँख से रोवे, एक आँख से हँसे.

So‘zma-so‘z tarjimasi: Bir ko‘zi bilan yig‘lab, ikkinchisi bilan kuladi

O‘zbek tilidagi muqobili: Tili boshqa , dili boshqa

Yolg‘on gapiruvchi, mug‘ombir odamlarga nisbatan ishlatiluvchi ushbu maqolda garchi ikkala tilda ham turli leksikadan foydalanilgan bo‘lsa ham, ma’no umumiyligi saqlanib qolgan. Hindiy tilida ko‘z, yig‘lamoq va kulmoq so‘zlaridan, o‘zbek tilida til va dil so‘zlaridan foydalanilgan.

झूठ के पाँव कहाँ) झूठ के पाँव नहीं होते.(

So‘zma-so‘z tarjimasi: Yolg‘onning oyog‘i qayerda (yolg‘onning oyog‘i yo‘q).

*O‘zbek tilidagi muqobili:*Yolg‘onning umri – qisqa

Yuqoridagi maqol orqali “Yolg‘onning oyog‘i yo‘qki, u qochib keta olsa. Yolg‘on uzoqqa bormaydi. Tezda oshkor bo‘ladi” deyilmoqchi.

Ma’lum bir millatgagina xos bo‘lgan maqollarda o‘sha millatning o‘ziga xos ruhi sezilib turadi. Ilmiy izlanishlarimizda bunday maqollarni ham o‘rganishga harakat qildik. Masalan:

बहती गंगा में हाथ धोना) अवसर का लाभ उठाना(

So‘zma-so‘z tarjimasi: Oqayotgan Gangada qo‘l yuvish

O‘zbek tilidagi muqobili:

Hindiy tilidagi ushbu maqolda Hindistondagi Ganga daryosining nomi keltirilgani bilan, u qulay fursatdan foydalanib qolish ma’nosida ishlatiladi. Bu yerda

गोद में बैठकर आँख में उँगली) गोद में बैठ के दाढ़ी नोचे.(

So‘zma-so‘z tarjimasi: Tizzada o‘tirganda ko‘zga barmoq

O‘zbek tilidagi muqobili : Tuzini ichib, tuzlug‘iga tupurma

Hindiy tilidagi ushbu maqol yaxshilik qilgan insonga nisbatan qilingan xiyonatni nazarda tutib qo‘llanadi. Ya’ni bir insonning g‘amxo‘rligidan foydalanib, uning panohida bo‘la turib, u insonga xiyonat qilish, yomonlikni ravo ko‘rish haqida gap boryapti. Xuddi shunday hollarda o‘zbek tilida “tuzlug‘iga tupurmoq” jumlasidan foydalaniladi. “1kun non yegan uyingga 40 kun salom ber”, “To‘ygan yerga- to‘qqiz kun ta’zim”; “Bir kungi tanishga ming kun salom ber”. Bular bilan: “Yaxshilik ko‘rgan yeringni, odamingni aslo unutma, unga sira ham yomonlikni ravo ko‘rma, uni hamisha hurmat qil” deb o‘git beriladi.

Yuqoridagi maqollardan koʻrinib turibdiki, ikkala tilda ham umuman boshqa -boshqa, har bir millatning oʻziga xos obrazlaridan foydalanilgan.

नमक गिराओगे तो आँखों से उठाना पड़ेगा

Soʻzma-soʻz tarjimasi: Siz tuzni tushirib yuborsangiz, uni koʻzingiz bilan olishingizga toʻgʻri keladi.

Oʻzbek tilidagi muqobili: Non ham non, ushogʻi ham non (isrof qilmaslik haqida)

Isrof qilmaslik haqidagi bu maqolda hindiy tilida tuz, oʻzbek tilida non obrazlaridan foydalanilgan. Bu har ikkala xalqning milliy mentaliteti bilan bogʻliq. Garchi shunday boʻlsa-da, oʻzbek tilida agarda tuz toʻkilib ketsa, kulfat keltiradi degan qarashlar ham mavjud.

पाँव में जूती न सिर पर टोपी

Soʻzma-soʻz tarjimasi: Oyogʻida tuflisi yoʻq, boshida doʻppisi yoʻq.

Oʻzbek tilidagi muqobili : Qoqqanda qozigʻi, osganda xurmasi yoʻq.

Ushbu maqollar qashshoq insonlarga nisbatan aytiladi. Hindiy tilida bu ma’no kiyim-kechak nomlari orqali boʻlsa, oʻzbek tilida xoʻjalik asbobi qoziq, hamda xurmo mevasi bilan ifodalangan.

Xulosa oʻrnida shuni ta’kidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”. Sport va jismoniy mashqlar bilan insonning tani, ilm oʻrganish bilan aql- zakovati, adabiyotga oshno boʻlish bilan esa insonning ruhi kamolga yetadi. Badiiy adabiyotni yanada jonli va xalqchil qiluvchi unsurlardan biri bu-maqollardir. Ular jamiyatning umum tafakkuri bilan yaratilgani uchun, ichida yashayotgan jamiyatni dunyoga va hayotga qarashlarini, qadriyatlarini, hukmlarini oʻzida aks ettiradi. Shuning uchun ham maqollar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar davom etayotgan joylarda koʻp ishlatiladi. Asriy ma’naviy boyligimizni, oʻzbekona madaniyatimizni avlodlarga bezavol yetkazish, tilimizni yanada jozibali va ta’sirchan qiluvchi unsurlarni koʻproq oʻrganib, unumli foydalanish orqali oʻzbek tilining asl goʻzalligi, maftunkorligini saqlab qolishga hissa qoʻshish biz tadqiqotchilarning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirzayev.T, Musaqulov.A, Sarimsoqov.B. Oʻzbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005. –B.1.

2. Rajabova Z. “Oʻzbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning oʻzaro bogʻliqligini tasvirlash” // Multidisciplinary Scientific Journal- Fevral, 2022.-B 864.

3. Найда Ю.А. К науке переводить: точка зрения соответствий / Ю.А. Найда: пер. с англ. Л. Черняховской // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – С. 185-201.

4. श्री शरण. मुहावरे तथा लोकोकतियाँ // हिंदी व्याकरण तथा रचना. नई दिल्ली, 2001. –पृष्ठ.185.

URDU VA O‘ZBEK TILLARIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING CHOG‘ISHTIRMA-TIPOLOGIK TAHLILI

Xusnora ABDUQAXXOROVA
TDSHU Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD K. Raxmatjonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada genetik va tipologik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi urdu va o‘zbek tillarida sifat so‘z turkumi chog‘ishtirma-tipologik tahlil qilingan va semantik, funksiyaviy jihatlari solishtirilib, ularning tanlangan har ikki tilda yasalish holatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: genetik, morfologik, tipologiya, lingvistika, semantik, struktur, analitik, agglyutinativ, affiksatsiya, prefiks

Har qanday odam turli tillarni eshitganda yoki o‘rganganda ularda, asosan, ikki jihatdan, ya’ni tashqi o‘xshashlik va ichki o‘xshashlik borligini sezadi. Bu masalalar bilan ilmiy shug‘ullanish Yevropada XIX asrdan boshlangan. Tillarni turlarga ajratish jarayonida genetik va morfologik tasniflashga ahamiyat beriladi. Bu holat tilshunoslikda tipologiya deb yuritilib, bu tilshunoslikdagi eng dolzarb va katta muammolardan biri hisoblanadi.[1]

Qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida o‘xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish va tushunishga bo‘lgan intilish tilshunoslikda alohida yo‘nalish sifatida tan olingan lingvistik tipologiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Lingvistik tipologiya tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat’iy nazar, ularning tuzilishi jihatidan yaqinlik, bog‘liqlik darajasini tekshiradi.

[1] Baskakov N.A, Sodiqov A.S, Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik – T., 1979. –B.37

Demak, tillarning chog‘ishtirma-tipologik o‘rganish – tanlangan tillarning kelib chiqish va rivojlanishi, struktur, semantik va funksiyaviy holatiga ko‘ra bir turga mansub yoki mansub emasligidan qat’iy nazar ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni aniqlashdir. Chog‘ishtirma-tipologik lingvistikada tillardagi o‘xshashlik va farqli jihatlar ularning bir tipga mansub yoki mansub emasliklariga bog‘liq bo‘lmaydi.

Olimlarning fikricha, sifat mustaqil leksik ma’no anglatuvchi, atash ma’nosiga ega bo‘lgan, narsa va hodisalarning belgisini bildirgan so‘z turkumidir.[1]

Umuman olganda, sifat – mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, borliqdagi biror narsa va hodisalar belgilarini ifodalaydi, gapda albatta, mustaqil gap bo‘lagi bo‘lib keladi. Masalan, urdu tilida sifatlar belgini aniqlab keladi: ***achchha: laRka:*** “yaxshi bola”, ***xu:bsu:rat larki:*** “chiroyli qiz”. O‘zbek tilida ham, aynan shunday: *adolatli qaror, oqilona ish, samimiy suhbat* kabi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tanlangan mavzu chog‘ishtirma-tipologik jihatdan struktur, semantik, funksiyaviy holatiga ko‘ra chog‘ishtirildi. Unga binoan, funksiyaviy jihatdan tanlangan ikki tilda ham aynan bir xil vazifani bajarishi aniqlandi.

Shuningdek, ikki tilda ham bu so‘z turkumi gapda aniqlovchi yoki ot kesim vazifasini bajarib keladi. Masalan, urdu tilida sifat ot kesim vazifasida kelganda: meri sahili samajhda:r he. O‘zbek tilida esa ot kesim vazifasida kelganda: Shahrimiz juda go‘zaldir. Aniqlovchi vazifasida kelganda esa: Bu serhashamat uy qo‘shnimizniki.

Struktur jihatdan chog‘ishtirilgan tahlilga ko‘ra, urdu va o‘zbek tili o‘rtasida farqli jihatlar topildi. Urdu tilida jins kategoriyasining mavjudligi sababli sifatlar gapda qo‘llanganda o‘zgarishga uchrashi aniqlandi. Masalan,

Urdu tilida sifatlar	***O‘zbek tilida sifatlar***
Achchha:+laRki:=Achchhi: laRki:	Yaxshi+qiz =yaxshi qiz
baRa: ima:rat= baRi: ima:rat	Katta+bino=katta bino
Lamba:+chiz= lambi chiz	Uzun+narsa= uzun narsa
baRa+behn =baRi behn	Katta+opa=katta opa
Naya:+kita:b=nayi kita:b	Yangi+kitob=yangi kitob
Patla:+rasi=patli rasi	Ingichka+arqon=ingichka arqon

[1] Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish – T.,1992 –B.85

Yuqorida ko‘rilganidek, urdu tilidagi sifatlar o‘zi birikib kelgan otga qarab o‘zgarishga uchraydi. Jumladan, achchha: so‘ziga laRki so‘zini qo‘shganimizda, achchha: so‘zidagi alif “i” unlisiga almashadi. Bunga sabab laRki so‘zi muannas jinsda. O‘zbek tilida esa ular o‘zgarmaydi. Chunki o‘zbek tili grammatikasiga jins kategoriyasi xos emas.

Semantik jihatdan chog‘ishtirilganda esa tanlangan tillar o‘rtasida o‘xshashlik talaygina. Unga ko‘ra, har ikki tilda ham sifat bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi va bir xil ma’noni anglatadi.

Qolaversa, urdu va o‘zbek tillarida sifat darajalari ham tahlil ostiga olindi. Ma’lumki, sifat darajasi bu narsaning belgi, xususiyatini boshqa narsalarga munosabatida qat’iy nazar yoki boshqa narsalar bilan chog‘ishtirganda ifodalaydigan sifat shaklidir.

Tahlillarga ko‘ra, har ikki tilda ham sifatning 3 ta darajasi borligi aniqlandi: oddiy, qiyosiy, orttirma

Oddiy	Qiyosiy	Orttirma	oddiy	qiyosiy	orttirma
Samajda:r	Ziyada samajda:r	Sab se samajda:r	aqlli	aqlliroq	Eng aqlli
Achchha:	Ziyada achchha:	Sab se achchha	yaxshi	yaxshiroq	Eng yaxshi

Ko‘rinadiki, sifat darajalari har ikki tilda ham bir xil bo‘lib, semantik xususiyatiga ko‘ra aynandir. Biroq tahlillar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, urdu tilida analitiklik xususiyati ko‘proq bo‘lsa, o‘zbek tilida esa agglyutinativlik xususiyati ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, tanlangan tillarda ot so‘z turkumidan sifat yasalganda bir xillik ko‘zga tashlanadi. Masalan, urdu tilida ham, o‘zbek tilida ham “-i” suffiksini qo‘shish orqali affiksatsiya yo‘li bilan sifatlarni hosil qilish mumkin:

Urdu tilida	***O‘zbek tilida***
markaz+i=markazi:	jannat+i=jannati
Shehr+i=shehri	iroq+i=iroqi
ila:qa+i=ila:qai	xitoy+i=xitoyi[1]
	qishloq+i=qishloqi

[1] N.Rasulova Ona tilidan ma’ruzalar, T., Nurafshon ziyo yog‘dusi, 2018.B.117

Yuqoridagi jadvaldan shuni koʻrishimiz mumkinki, ot soʻz turkumidagi soʻzlarga “i” suffiksini qoʻshish orqali tanlangan har ikki tilda ham bu mushtarak ekan.

Bundan tashqari, urdu tilida sifatlar xuddi oʻzbek tilidagi singari inkor maʼno beruvchi “no” qoʻshimchasi orqali ham yasaladi. “no” prefiksi fors-tojik tilidan tayyor holda oʻzlashgan boʻlib, uni boshqa qoʻshimchalar bilan oʻzgartirib boʻlmaydi. Masalan:

Urdu tilida	**Oʻzbek tilida**
Na+shukr	noshukur
Na+la:iq	noloyiq
Na+mahram	nomahram

Koʻrinadiki, urdu tilida ham oʻzbek tilida ham “no” prefiksi bilan yasalgan soʻzlar aynan bir xildir.

Demak, urdu va oʻzbek tillari tipologik va morfologik jihatdan bir guruhga mansub boʻlmasa ham, sifat soʻz turkumi tahlili ularda bir qator oʻxshashliklar borligini koʻrsatdi. Biroq ayrim tafovutlar ham topildi. Ayniqsa, urdu tilida jins kategoriyasining mavjudligi asosiy farq qiluvchi belgi sifatida koʻzga tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Baskakov.N.A, Sodiqov A.S, Abduazizov A.A – “umumiy tilshunoslik” T.,1979
2. Irisqulov M. “Tilshunoslikka kirish” – T., 1992
3. Dymshits Z.M “Urdu Grammar” – M., 1986
4. Xojiyev A “Oʻzbek tili morfologiyasi, morfemikasi va soʻz yasalishinig nazariy masalalari” T., 2010
5. Raxmatjanova K. “Hindiy va oʻzbek tillarida son va kelishik grammatik kategoriyalarining chogʻishtirma tipologiyasi”, T.2022
6. N.Rasulova Ona tilidan maʼruzalar, T., Nurafshon ziyo yogʻdusi, 2018

YAPON TILI VA O‘ZBEK TILI OMONIMLIK HODISASINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Vazida JO‘RAXO‘JAYEVA
TDSHU, Yaponshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots I.A. Azimova

Annotatsiya: Ma’lumki bugungi kunda tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab oshib bormoqda shu jumladan har bir tillarni o‘rganishda turli xil qiyinchiliklarni ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan: har bir tilning o‘zining so‘z turkumlari, qo‘shimchalari, so‘z va gap yasalishi hodisalari, ko‘makchilar, omonim, sinonim, antonim, frazeologizmlar kabilar mavjud bo‘lib til o‘rganuvchilarni eng ko‘p qiynaydigan qism bu omonimlik hodisasidir chunki agar unda bir urg‘u yoki bir shakl yoki talaffuz qilishda biror jihatida xatolik qilib qo‘ysak so‘zning ma’nosi tubdan o‘zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun bu maqola ham ikki tilning omonimlik hodisasidagi o‘xshash va farqli tomoni haqida boradi. Nega deganda aynan bugungi kunda yapon tiliga oid ma’lumotlar o‘zbek tilida juda kam bo‘lib, til o‘rganuvchilar uchun o‘zbek tilidagi ma’lumotlarni topish va uni o‘rganish biroz qiyinchilik tug‘diradi. Bu maqola esa o‘zbek tilida o‘zbek va yapon tilidagi omonimlik hodisasini farqli va o‘xshash jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani kabi o‘zbek va yapon tillarining ham o‘ziga xos o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Bu o‘xshash tomonlari yapon tilining va o‘zbek tilining bir til oilasiga mansubligi bo‘lsa, farqli tomoni ularning alifbosidadir ya’ni yapon tilida 3ta aniqrog‘i 4ta alifbo bo‘lsa, o‘zbek tilida faqatgina lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidir. Bundan tashqari, bu ikki tilning farqli tomoni gap tuzilishidagi farqlilikdir.

Bugungi kunda bu ikki tilning har bir xususiyati: jumladan omonim, sinonim, antonim, iboralardan tortib, so‘z turkumlari-yu gap tuzilishining o‘rganilishi va tadqiq qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ammo, yapon tiliga oid ma’lumotlarning barchasi o‘zbek tilida emas, balki yapon, ingliz, koreys, xitoy va rus tillarida ko‘p uchraydi. Yapon tiliga oid ma’lumotlarni o‘zbek tilida topish va ularni o‘rganish hozirgi kunda talabalar va til o‘rganuvchilar orasida juda katta muammoga aylanib kelmoqda. Qolaversa, o‘zbek tiliga oid ma’lumotlarni boshqa tillarda o‘rganmoqchi bo‘lsa, o‘zbek tiliga oid sanoqli misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Bu ikki til ham o‘z tarixiga ega va so‘z boyligi jihatdan katta tillar sirasiga kiradi. Shu sababli ham, til o‘rganuvchilar bu ikki tilni o‘rganishda qaysi bir

xususiyatidan boshlashni bilmay qiynalishadi. Bundan tashqari, bugungi kunda deyarli til o‘rganuvchilarning hammasi har bir tilning ko‘p ma’noli, omonim, sinonim va antonim so‘zlarni o‘rganishda, ularni bir-biridan farqlashda hamda gapda qanday qilib qo‘llashda qiynalishadi. Bu esa ularning eng katta muammosidir. Ikkinchi muammo esa, o‘rganayotgan tilning so‘z boyligi va uning xususiyatlarini anglash va o‘z ona tillari bilan o‘rganayotgan tillarining o‘xshash va farqli tomonini aniqlashda qiynalishadi.

Yapon tilining ham o‘zbek tilining ham omonimik birliklari mavjud va bu turli xil ko‘rinishda uchrashi mumkin. Masalan:

1. gaplardagi omonimlik
2. so‘zlardagi omonimlik
3. qo‘shimchalar yoki grammatik omonimlik
4. frazeologizm (iboralar o‘rtasidagi) omonimlikni misol qilib olamiz .

Albatta bu xususiyatlarning barchasining asosi so‘zga borib taqaladi. Ma’lumki, so‘z har qanday tilning leksik boyligini tashkil etadi, bir-biri bilan o‘zaro muloqotda bo‘ladi, turli qadriyat hamda vazifalarni bajaradi. So‘zlashuv nutqida so‘zlar ma’no jihatdan bir-biriga yaqin yoki aksincha, zid ma’noga ega bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar ma’no jihatdan yaqin bo‘lmasa ham, ko‘rinishi, shakli, imlo, talaffuzi bilan bir-biriga o‘xshaydi. Bunday so‘zlar guruhi tilning umumiy sistemasida omonimlar deyiladi. Omonimlar qadimdan to hozirgi kunga qadar olimlarning diqqat markazida turuvchi murakkab hodisadir. Tilshunoslikning ilk va o‘rta bosqichlarida omonimiya hodisasining paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va yondosh hodisalarga munosabatlari o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistikada uning korpusda berilishi masalasi kun tartibiga qo‘yilgan. Korpus lingvistikasida omonimlik muammosini yechish, omonim birliklarni tenglash va matnni avtomatik o‘qish jarayonida omonimiyani bartaraf etish masalasiga oid qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan:

Yapon tilidagi omonim so‘zlar:

Yapon tilidagi so‘zlar asosan yozilishida farqlanadi ya’ni so‘zlarning aytilishi talaffuzidan farqlanmay uning yozilishi, aniqrog‘i, kanjilar bilan farqlanadi. Ammo, har bir tilda istisno bo‘lgani kabi yapon tilida ham istisno holatlar uchrab turadi ya’ni yozilishi ham aytilishi-yu talaffuzi ham bir xil bo‘lgan so‘zlar gapdagi ma’nosidan kelib chiqib farqlanadi. Misol uchun: 日(ひ- kun) ma’nosini ifodalasa, 日(ひ- quyosh) ma’nosini ifodalab keladi yoki はし-yaponlar ovqatlanadigan tayoqchalarning nomlanishi bo‘lsa, はし-ko‘prik ma’nosini ifodalab beradi. Demak, “endi biz buni qanday qilib gap tarkibida aniqlaymiz?”, degan savolga javob beramiz ya’ni “Men kecha otim yordamida eski ko‘prik ustidan o‘tib oldim”. (昨日、崩れかけた橋を馬

の助けを借りて渡りました。) Tabiiyki, bu gapda odam ot yordamida ovqatlanadigan tayoqchalar ustidan emas balki, ko‘prik ustidan o‘tgani barchamizga aniq.

Yapon tilidagi omonimlarning tuzilishi:[1]

1.Biz bilamizki, yapon tili xitoy tili asosida shakllangan. Shu sababli ham xitoy tili va yapon tili o‘rtasida omonimlik hodisalari kuzatiladi ya’ni sof yapon tili va xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar omonimligi bunga misol bo‘ladi. Bunday so‘zlarga misol qilsak oddiy bir こう asosli omonimik so‘zlar 128tani tashkil qilsa, しょう asosli omonimik so‘zlar 101tani, とう asosli omonimik so‘zlar 96tani tashkil etadi.

2. Yapon tilida ishlatiladigan iyerogliflar (kanjilar) ning o‘zaro omonimligining kuzatilishi ya’ni bunda bir xil iyeroglif bo‘lib uning hiraganada yozilishi va ma’nosi, gapda qo‘llanilishi turlicha bo‘ladi. Masalan:

額- がく- peshona degan birinchi ma’nosi bo‘lsa, ikkinchi ひたい ma’nosi pul(sum) yoki pul birligi (amount of money) ma’nosini anglatadi.

3. Yapon tilida yuz beradigan fonetik jarayonlar omonimlikni hosil qiladi. Masalan: 菓子-かし- qand, qandolatchilik mahsulotlariga misol bo‘lsa, 貸し-かし- qarz, qarz olishga yoki so‘rashga misol bo‘ladi.

4. Polisemantik leksemalarning o‘zaro omonimligi ya’ni bunda yoziladigan kanjida yoziladigani har xil,ammo hiragana alifbosida yoziladigan so‘zlar bir xil yoziladi va bir xil o‘qiladi. Lekin, bu so‘zlarning ma’nosi har xil bo‘ladi.

金-かね- pul

鐘-かね- qo‘ng‘iroq misol bo‘ladi

5. Chet tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar omonimligi. Bunda so‘zlar ikki alifboda yoziladi ya’ni hiragana va katana ammo bir xil talaffuz qilingani uchun ohang jihatdan omonimlikni hosil qiladi.

暮らす-くらす- yashash hayot

クラス-sinf

6. So‘z tarkibi va o‘zak tuzilishidan kelib chiqqan omonimlik.

全家庭-ぜんかたい- butun bir jarayon

全過程- ぜんかたい-butun oila

Bir so‘zga omonim bo‘lgan morfemalar kiritiladi.

専門家-せんもんか-mutaxassis

専門科-せんもんか-mutaxassislik

[1] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

7. So‘zlarning qisqarishi natijasida omonimlik vujudga keladi.

高校-こうこう(こうとうこうぎょがっこう) – oliy texnikum qisqartmasi.

高校-こうとうがっう- umumta’lim maktabining qisqartmasi.

Omonimlarning mos kelishi yoki mos kelmasligi jihatidan tasnifi

[1]1. Omofonlar – tovushi bir xil, ammo yozilishi har xil bo‘lgan so‘z shakllari. Agar so‘zni iyerogliflarda yozish o‘rniga kana alifbosidan foydalansangiz, yapon tilidagi har qanday omofon juftligi to‘g‘ri omonimlarga aylanishi mumkin. Misol:

工場-こうじょ- zavod,fabrika

向上-こうじょう-balandlik

家庭-かてい-gipoteza

仮定-かてい-oila

名刺 めいし-tashrif qog‘ozi

名士 めいし- taniqli shaxs

2. Yozilishi va o‘qilishi bir xil ammo ma’nosi har xil bo‘lgan omonim so‘zlarga quyidagilar misol bo‘ladi:

払うはら- to‘lash

払うはらう-toza

機き- mashina, avtomobil

機き- imkoniyat

3. omograflar- yozilishida bir biriga o‘xshab ketadigan, ammo tovushi har xil bo‘lgan so‘zlar omonimligi quyidagilar:

分-ふん- minut

分 -ぶん-qism

本-ほん-kitob

本-もと-tayanch

[2]**Yapon lug‘atining kango(xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar), wago (sof yapon so‘zlari) va gairaigo (chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlar) ning bo‘linishiga ko‘ra omonimlik hosil qiladi.**

1) Kango- kango ko‘rinishida

異議-いぎ-boshqa ma’no

意義 -いぎ- ma’no

威儀 -いぎ-texnik fanlar

2) Wago-wago ko‘rinishida

[1] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

[2] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

着る-きる- kiyib olmoq
着る-き-mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish
切る-きる-qirqmoq, kesmoq
皮-かわ-teri
川-かわ-daryo
側-かわ-tomon
固い-かたい-qattiq
堅い-かたい-qiyin

3) Kango va wago so‘zlar o‘rtasidagi omonimlik

Wago so‘zlar	Kango so‘zlar
神 -かみ-xudo	加味- かみ – qo‘shimcha
髪 -かみ –soch	
上 かみ- balandlik	
書く-かく-yozmoq	角 -かく- burchak
画 -かく-xarakterli xususiyat	
欠 く - か く - biror narsaning yetishmasligi	
訳 -やく-tarjima	役 -やく- lavozim
焼く- やく-kuydirmoq	約 -やく- taxminan

4) Gairaigo va gairaigo o‘rtasidagi omonimlik
ビル-chek
ビル-bino
ライター-yoritkich yoki zajigalka
ライター -yozuvchi
オ-ル- hamma
オ-ル-eshkak eshish

5) Gairaigo va kango so‘zlari o‘rtasidagi omonimlik

Gairaigo	Kango
タイ- galstuk	体 たい-tana
タイ-durang	対 たい-qarama-qarshi
	態 たい- hol-ahvol

6) Gairaigo va wago so‘zlari o‘rtasidagi omonimlik

Gairaigo	Wago

ホテル-mehmonxona	火照る ほてる -yuzning qizarishi,qizarmoq
クラス- sinf	暮ら - くらす - kechirmoq,yashamoq

7) Kango, wago va gairaigo so‘zlari o‘rtasidagi omonimlik

Gairaigo	Kango	Wago
タイ- galstuk	体 たい-tana	鯛 たい-guruhlovchi
ヤク -yak (tojikcha-bir)	役 -やく-lavozim	焼く - やく - kuydirmoq

[1]**Omonimlarning kelib chiqishiga ko‘ra tasnifi**

Kelib chiqish usuli- ikki leksik birlik o‘rtasida omonimiya yuzaga keltiruvchi xususiyat quyidagilardir:

- Etimologik omonimlar: 化学 –かがく-kimyo

科学-かがく-fan,ta’lim yoki ilm

森林-しんりん- o‘rmon

親臨-しんりん-mavjud bo‘lmoq

- Semantik omonimlar: 合う-あう- birgalikda kelish,mos kelish

会う-あう- uchrashmoq

[2] **Ikki leksemaning barcha so‘z shakllarining mos kelishi yoki ularning so‘z shakllarining faqat bir qismi bo‘yicha omonimlarning tasnifi.**

1. To‘liq omonimlar omonim leksemalardir. Bular jumlasiga o‘zgarmas bo‘lgan omonimlar (substantivlar, qo‘shimchalar) va paradigma bo‘ylab mos keladigan leksemalar kiradi. Masalan:

地方-ちほう(tuman),

痴呆-ちほう(слабоумие);

演壇-えんだん (minbar),

縁談-えんだん (jumla,taklif)

[3]**Omonimlarning leksik va Grammatik ma’no farqiga qarab tasnifi.**

1. Leksik omonimlik-faqat leksik ma’nosi bilan farqlanadi. Masalan:

国家-こっか-mamlakat

[1] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

[2] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

[3] Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

国歌-こつか-mamlakat madhiyasi

国花-こっか- milliy gul

Qisman. 行った va 言った ni farqi quyidagicha ikkalasi ham いった shaklida o‘qiladi ammo ma’nosi har xil.

いった yoki 行く yurmoq degan ma’noni ifodalasa,

言った yoki いう gapirmoq ma’nosini ifodalab keladi.

2. **Grammatik omonimlik-**bir leksemaning omonim so‘z shakllari, ya’ni tovush jihatidan farq qiluvchi so‘z shakllari. Shuningdek, grammatik omonimlar lug‘aviy ma’noda mahrum bo‘lib,gapda turli vazifalarni bajaradigan xizmat so‘zlaridir. Masalan,

れる

られる xushmuomalalik bilan qilingan ish harakatlar ifodalandi. 出される

から

から-sabab bog‘langan so‘zlar ifodalanadi.

3. Ham Grammatik ham leksik omonimlikni yuzaga keltiruvchi omonimlar quyidagilar:

- Ot va fe’l o‘rtasida

行き- ゆき- fe’l ma’nosida yurmoq 雪- ゆき-ot bo‘lsa qor ma’nosini ifodalab keladi.

打-うち yoki うつ- urmoq (fe’l)

家-うち-uy (ot)

- Fe’l va sifatdosh o‘rtasidagi omonimlik

来い -こい-fe’lning ijobiy shakli kelmoq

濃い-こい- (sifat) qalin

- Sifat va ot bilan omonimlik

薄い-うすい-nozik (sifat)

雨水-うすい-yomg‘ir suvi (ot)

- Konvertatsiya usuli orqali ya’ni matn ichidagi so‘zning qo‘llanilishi orqali tushuniladi.

渡し-わたし – o‘tmoq fe’lining o‘zagida o‘zgarish bo‘lib omonimlik hosil qiladi.

渡し-わたし- kesib o‘tish

[1]**O‘zbek tilidagi omonim hodisasi.**

[1] Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili.- Toshkent-2009.

[1] **Omonimlar** – talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo turli atash ma’nolarini bildiradigan so‘zlardir. Masalan, ***olma (meva) – olma (harakat) – tut (daraxt) – tut (harakat).***

Omonimlar bir xil so‘z turkumiga ham, har xil so‘z turkumiga ham oid bo‘lishi mumkin. Masalan, ***chang (musiqa asbobi) – chang (to‘zon), zang (temirning zangi) – zang (uzumning zangi) – zang (ovoz); chopmoq (yugurmoq) – chopmoq (kesmoq); yozmoq (qalamda) – yozmoq (dasturxon).*** Bunday omonimlar har bir turkum doirasida grammatik formalar bilan shakllanganda ham o‘zaro omonim bo‘lib qolaveradi. Masalan: ***ot (ism) va ot (ish hayvoni)*** omonimlarini olib ko‘raylik:

+im +ning
+ing +ni
+i +ga
Ot1 +lar +imiz +da
Ot2 +ingiz +dan
+i

Bu omonim so‘zlar har xil leksik ma’no ifodalasa ham ot turkumiga oidligi uchun otlarga xos har qanday grammatik formada o‘zaro omonimlik munosabatida bo‘ladi. ***Ot*** (ism) ot turkumi – ***ot*** (harakat) fe’l so‘z turkumiga oid. Bu so‘zlarda omonimlik turli so‘z turkumlari doirasida yuzaga kelyapti. Shuning uchun bu so‘zlarga grammatik formalar qo‘shilganda omonimlik munosabat saqlanmaydi. Shakldosh so‘zlar bir qarashda ko‘p ma’noli so‘zlarga o‘xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko‘p ma’noli so‘zlar bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llashdan hosil bo‘ladi. Shakldosh so‘zlar esa shakli o‘xshash ikki va undan ortiq so‘zlardir. Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanish yo‘qolish natijasida omonimlar paydo bo‘lishi mumkin: ***dam – nafas (o‘z ma’nosi) dam – bosqon (ko‘chma ma’nosi), dam – hordiq (ko‘chma ma’no).*** Omonimlar leksik omonimlar va qo‘shimcha omonimlarga bo‘linadi. Yuqorida leksik omonimlar haqida gapirildi. Qo‘shimcha omonimlar: ***tepki (ot) – kechki (sifat), tortma (ot) – burama (sifat).***

[2]**Omonimlarning yuzaga kelish sabablari**

1.Tilda shakli bir xil bo‘lgan leksemalar azaldan mavjud bo‘ladi: **baqa** (qurbaqa) va **baqa** (suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism).

---

[1] Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili.- Toshkent-2009.

[2]Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o’zbek adabiy tili- O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti- Toshkent-2013.

2.Bir ma’noli leksemalarning leksik ma’nosi ko‘chishi ko‘p ma’noli leksemalarni yuzaga keltiradi, keyinroq bosh ma’no va hosila ma’no o‘rtasidagi bog‘lanish unutilib, bir leksema negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo‘ladi: **kun** (quyosh) – **kun** (sutka) kabi.

3. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim leksemalar o‘zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo‘lib qoladi: **toy** (o‘zb. – *otning ikki yashardan kichik bolasi*) **– toy** (fors-tojikcha: – *katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzdagi mol o‘lchovi).*

4. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo‘lganlari ham mavjud bo‘lishi mumkin, ular o‘zbek tili leksikasi tarkibida omonimik munosabatga kirishadi: **rasm** (arabcha: – *surat*) – **rasm** (arabcha – *urf-odat).*

5. Leksemalaring yasalishi ham ba’zan omonimlarni keltirib chiqaradi**:** **qo‘noq** (tariq) – **qo‘noq** (*qo‘n + oq:* – mehmon) kabi misollar kiradi.

Ma’lumki, ko‘pgina omonim leksemalar aslida ko‘p ma’noli leksema ma’nosidan birining boshqalaridan uzilishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, *yoz* («fasl»), *yoz* («tasvirlamoq») va *yoz* («yoymoq») leksemalari aslida bir polisemantik leksemaning turli ma’nolari asosida hosil bo‘lgan omonimik birliklar. Ularning etimologik ildizi bitta. Bunga Koshg‘ariy lug‘atidan olingan ***Yoy*** *qish bila qarishti* misrasini keltirish asosida amin bo‘lish mumkin. *Xat yozmoq* birikuvidagi (*yozmoq*) fe’lining asl etimologik ma’nosi «fikrni qog‘ozga yoymoq»dir.

Shunday ekan, terminlarga ham asl substansiyasidan uzilgan mustaqil leksema sifatida qarash lozim. Bunga terminga qo‘yiladigan bir ma’nolilik talabi ham asos bo‘ladi. Demak, termin va umum iste’mol leksema bir narsaning ikki qirrasi, bir leksemaning ikki ma’noda qo‘llanilishi emas.

[1]**Frazeologik omonimiya.** Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Misollar: *so‘z bermoq I* («va’da bermoq»)*, so‘z bermoq II* («gapirishga ruxsat bermoq»)*, boshga ko‘tarmoq I* («ardoqlamoq»)*, boshga ko‘tarmoq II* («to‘polon qilmoq»)*, qo‘l ko‘tarmoq I* («ovoz bermoq»)*, qo‘l ko‘tarmoq II* («urmoq»).

Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi semantik munosabatlar o‘z tadqiqotini kutmoqda.

[2]**Morfemik omonimiya**. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfema orasida ham bo‘lishi mumkin.

---

[1] Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o’zbek adabiy tili- O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti- Toshkent-2013.

[2] Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o’zbek adabiy tili- O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti- Toshkent-2013.

1) derivatsion omonimiya: *-ki* I: *turt**ki**, tep**ki**, ko‘ch**ki*** (ot yasovchi); *-ki* II: *ich**ki**, kech**ki**, ust**ki*** (sifat yasovchi);

2) grammatik omonimiya: *-(i)sh* I: (*bor**ish***), (*kel**ish***), (*ket**ish***) (harakat nomi shakli); *-(i)sh* II: (birga) (*yuv**ish***), (*tara**sh***), (*ishla**sh***)(birgalik nisbat shakli);

3) derivatsion-grammatik omonimiya: *-(i)m* I: *yig‘**im**, ter**im**, sig‘**im*** (ot yasovchi morfema); *-(i)m* II: *uy**im**, kitob**im**, soat**im*** (egalik morfemasi).

Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma’noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba’zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so‘zlarni ma’noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlanadi. So‘z turkumlarining bir-biriga o‘tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

[1]**O‘zlik va majhul nisbat omonimik munosabatda.**

Masalan, *osildi, tashlandi, to‘kildi* fe’llarining o‘zlik yoki majhul nisbatda ekanligi qurshovda ma’lum bo‘ladi.

Shakl va mazmun munosabati nisbiy mutanosiblikda (ya’ni asimmetrik) bo‘lganligi sababli qo‘shma gapda polisemiya va omonimiya hodisalari kuzatiladi.

Jumladan, payt munosabatini ifodalashda quyidagicha sinonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin:

1. *O‘qituvchi keldi, dars boshlandi*.
2. *O‘qituvchi kelsa, dars boshlanadi*.
3. *O‘qituvchi keldi-yu, dars boshlandi*.
4. *O‘qituvchi keldi, shu zahoti dars boshlandi*

Qisqasi, so‘z-gapning leksik-semantik turi bo‘lmish sof so‘z-gap o‘zi tarixan kelib chiqadigan so‘z turkumidan batamom uzilgan bo‘lib, uning ko‘pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo‘llanilmaydi. So‘z-gaplashgan unsur esa o‘zi tarixan kelib chiqqan so‘z bilan omonimik munosabat hosil qiladi va o‘z aloqasini boshqa turkumdan to‘la uzmagan bo‘ladi. So‘z-gaplashayotgan unsurga o‘zi boshqa so‘z turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe’l) ga tegishli, lekin so‘z-gapga xos ma’no va vazifada qo‘llanila oladigan birliklar kiradi va bularning so‘z-gapsimondan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid so‘z tarixiy taraqqiyot natijasida batamom so‘z-gapga o‘tib ketishi mumkin. So‘z-gapsimon esa o‘z turkumi doirasida qoladi.

Xulosa. Yuqoridagi misollarga tayanadigan bo‘lsak, yapon tilining ham o‘zbek tilining ham o‘zining omonim tizimi mavjud bo‘lib ularning o‘xshash jihatlari quyidagilarni misol qilamiz:

[1] Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o’zbek adabiy tili- O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti- Toshkent-2013.

- *Bir so‘z turkim doirasidagi o‘zaro omonimlik: ot so‘z turkumi o‘zaro omonimlik*

Yapon tilida-額- かく- peshona degan birinchi ma’nosi bo‘lsa, ikkinchi ひたい ma’nosi pul (so‘m) yoki pul birligi (amount of money) ma’nosini anglatadi yoki

金-かね- pul

鐘-かね- qo‘ng‘iroq misol bo‘ladi

O‘zbek tilida- baqa (qurbaqa) va baqa (suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism) yoki o‘t- olov va o‘t-maysa ma’nosini tushunamiz.

- *Leksemalar o‘rtasidagi omonimlik ikki tilda ham uchraydi va bu ikki tilning o‘xshash jihatlariga misol bo‘ladi.*

Yapon tilida — Leksik omonimlik-faqat leksik ma’nosi bilan farqlanadi. Masalan:

国家-こっか-mamlakat

国歌-こつか-mamlakat madhiyasi

国花-こっか- milliy gul

O‘zbek tilida- yoz («fasl»), yoz («tasvirlamoq») va yoz («yoymoq») misollarida ko‘rishimiz mumkin.

- *Chetdan o‘zlashgan so‘zlar bilan sof yapon yoki o‘zbek tilining omonimlik hodisasi.*

Yapon tilida-

ホテル-mehmonxona	火照る ほてる -yuzning qizarishi,qizarmoq
クラス- sinf	暮ら-くらす-kechirmoq,yashamoq

O‘zbek tilida — rasm (arabcha: —*surat*) – **rasm** (arabcha —*urf-odat)* **toy** (o‘zb. —*otning ikki yashardan kichik bolasi*) **– toy** (fors-tojikcha: —*katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzdagi mol o‘lchovi).*

Yapon tili bilan o‘zbek tilining farqli tomoni juda ko‘p bo‘lib bunga misol qilib yapon tilidagi omonimlik kanji ya’ni iyeroglif ko‘rinishida bo‘lsa o‘zbek tilidagi omonimlik romanji ya’ni lotin alifbosiga asoslangan til ko‘rinishida bo‘lishidir. Yana bir farqli jihati shundan iboratki yapon tilida omonimlik hodisasida urg‘u ahamiyatga ega emas urg‘uning o‘rniga biz iyerogliflarning turlashini misol qilib olishimiz mumkin ammo o‘zbek tilida omonimlik hodisasida urg‘u katta ahamiyatga ega bo‘lib bir so‘zda urg‘uning joylashish joyiga qarab ma’ni va mazmun o‘zgarib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent-2009.
2. Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili- O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti- Toshkent-2013.
3. Чингис Сычков Проблемы омонимии японского языка ипути её решения-Санкт Петербург-2012.

DARIY VA O‘ZBEK TILIDAGI OTLARNING EGALIK KATEGORIYASI QIYOSIY TADQIQI

Tohirbek KENJABOYEV
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Eron – Afg‘on kafedrasi, kunduzgi, 2-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: f. f. n., dots I.A. Azimova

Annotatsiya: Dariy va o‘zbek tilidagi otlar egalik kategoriyasining gapda, so‘zda, so‘z birikmasida qay holda ishlatilishi, ular ishlatilgan jarayonda yuz beradigan fonetik hodisalar, ushbu birliklarning so‘zning ma’no va mazmuniga bevosita ta’sir qilishi, bir-biriga juda o‘xshash va bir-birini inkor etuvchi sabablarini quyida batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: egalik kategoriyasi, enklitik olmoshlar, tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi, izofa zanjiri, sifatlovchi, sifatlanmish, qaratqich, qaralmish.

Biz biror buyum, narsa, harakatning bizniki ekanligini ifodalash uchun og‘zaki va yozma nutqda ifodalovchi birliklarga egamiz. Bu birliklar fanda egalik qo‘shimchalari deb nomlanadi. Biz kundalik hayotimiz davomida ularda keraklicha foydalanamiz. Afg‘onlarning ikkinchi tili bo‘lgan dariy tilida ham aynan shunday vazifani bajaruvchi til birligi mavjud bo‘lib, ular enklitik olmoshlar deb yuritiladi. Quyida biz ushbu birliklarning vazifalari, ishlatilish o‘rni va qanday ma’no bildirib kelishini batafsil tushuntirib o‘tamiz.

Ot va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, o‘zi qo‘shilgan asosdan anglashiladigan predmetning (yoki predmet deb tasavvur qilinadigan belgining, xususiyatning, harakatning va holatning) birlik yoki ko‘plikdagi uch shaxsdan biriga qarashliligini yoki nisbat berilayotganini ifodalovchi fonemaga nisbatlovchi[1] fonemalar yoki egalik qo‘shimchalari[2] deyiladi.

[1] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. 2006.B.142-146
[2] Mahmudov N. Ona tili (7-sinf uchun darslik). Toshkent. 2017.4-nashr.B.48-50

Dariy tilida ham o‘zbek tilidagi egalik kategoriyasiga mos keluvchi lisoniy birlik mavjud. Dariy tilida ular birikuvchi olmoshlar deb nomlanadi. Lekin ular erkin bo‘lmagan til birligi qatoriga kiradi, ya’ni so‘zdan alohida (ajratilgan) holda ishlatilmaydi. Shu bilan bir vaqtda, ular affikslar ham emas: chunki so‘zga qo‘shilib talaffuz qilinsa-da, uning tarkibiga kirmaydi, balki so‘zga yordamchi element sifatida bog‘lanadi va urg‘u qabul qilmaydi. Shu sababli, ular “Enklitik olmoshlar” deb ham yuritiladi[1]. O‘zbek tilidagi egalik kategoriyasining asosiy affikslari dariy tilidagi birikuvchi olmoshlar bilan juda o‘xshashdir.

Biz ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi egalik kategoriyasining dariy tilidagi enklitik olmoshlari bilan qanday farqli jihatlari mavjudligini, bu 2 birlik har 2 tilda tilshunoslikning alohida bo‘limlarida o‘rganilsa-da, bular o‘rtasida qanday o‘xshashlik borligini, egalik olmoshlari bajara oladigan vazifalarni dariy tilidagi enklitik olmoshlar qay o‘rinda bajara olishi, qay o‘rinda bajara olmasligini, yoki aksi, enklitik olmoshlar bajara oladigan vazifalarni o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari qay o‘rinda bajara olishi, qay o‘rinda bajara olmasligi va nega bundayligini bir qadar aniqlagan bo‘ldik.

Tadqiqot materiali sifatida ommaga Afg‘onistondagi yangiliklarni dariy tilida bayon qiluvchi Tolonews[2], O‘zbekistondagi yangiliklarni o‘zbek tilida yetkazuvchi Kun.uz [3] internet nashrining 2023-yil mart oyidagi xabarlaridan foydalandik.

Tadqiqot usuli: egalik qo‘shimchasi qo‘llangan so‘zlar va so‘z birikmalarini ular qo‘llangan gap tarkibidan ajratib olgan holda yig‘ib chiqildi. Tahlil uchun har bir tilda 10 tadan namuna yig‘ildi.

Yig‘ilgan misollar struktur-semantik jihatdan qiyoslandi.

Tadqiq qilinayotgan so‘zlarda o‘zbek tilidagi egalik kategoriyasini ifodalovchi dariy tilidagi enklitik olmoshlarning 3-shaxs birlik shakli boshqa shakllarga nisbatan ko‘proq qo‘llangan. Ushbu shaklning narsa va o‘rin joy otlariga ko‘proq qo‘shilish holati kuzatildi. So‘z birikmasi holatida olingan birlikning tobe qismi sifat bilan ifodalaganda otga qo‘shilishi kerak bo‘lgan enklitik olmoshlarning 3-shaxs birlik shakli otga emas sifatga qo‘shilishi qayd etildi.

Tadqiq qilinayotgan so‘zlarda o‘zbek tilidagi egalik kategoriyasini ifodalovchi dariy tilidagi enklitik olmoshlarning 3-shaxs ko‘plik shakli 2 marta ishtirok etgan. Eng kam ishtirok etgan shakl (atigi 1 marta) birinchi

[1] Alimova X. Dariy tili (Morfologiya). Toshkent. 2009.B.50
[2] https://t.me/Tolo_news
[3] https://kun.uz/uz

shaxs birlik shakli (intervyu olingan yangilik matnidan yig‘ilgan tadqiqot materiali edi) ekanligi qayd etildi.

Ushbu shakllar 2 holda shaxs otiga qo‘shilgan (mantiqan, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda). Lekin ular yuqorida ta’kidlaganimizdek so‘z birikmasi sifatida olingan bo‘lib, otga ema sifatga qo‘shilgan edi. Ushbu qo‘shimchalar eng ko‘p narsa otlariga qo‘shilishi (7 marta), o‘rin joy bildiruvchi otlarga qo‘shilishi esa atigi bir marta kuzatildi. Boshqa so‘zlarga qo‘shilish holati kuzatilmadi (masalan: Sifatdosh, harakat nomi, olmosh, taqlid so‘z, son). Enklitik olmoshlarning 1-shaxs ko‘plik, 2-shaxs birlik va ko‘plik shakllari umuman ishlatilmadi.

Tadqiq qilinayotgan so‘zlarda dariy tilidagi enklitik olmoshlarni ifodalovchi o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalarining 3-shaxs birlik shakli boshqa qo‘shimchalarga nisbatan ko‘p ishlatilgan. Ushbu shakning yarmidan ko‘pi narsa otlariga qo‘shilgan. o‘rin-joy otiga atigi bir marta qo‘shilgan. Harakat nomi (fe’lning otga xoslangan shakli)ga ikki marta qo‘shilgan. Shaxs otiga bir marta qo‘shilishi kuzatildi. 3-shaxs ko‘plik shakli bir marta qo‘llangan bo‘lib, unda ham o‘rin joy otiga qo‘shilgan. Egalik qo‘shimchalarining 1-shaxs birlik va ko‘plik, 2-shaxs birlik va ko‘plik shakllari tadqiqot materialida umuman qo‘llanilishi kuzatilmadi.

Dariy tilida izofa degan tushuncha mavjud bo‘lib, bunda aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o‘zaro urg‘usiz **e** tovushi orqali bog‘lanadi.Demak, izofa so‘z birikmasini tuzish uchun ishlatiladigan vosita hisoblanadi. Dariy tilida izofali birikmadagi so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshidir.o‘zbek tili grammatikasida avval qaratqich, so‘ng qaralmish yoki avval aniqlovchi, keyin aniqlanmish kelsa, dariy tilida, aksincha, avval aniqlanmish, so‘ng aniqlovchi yoki avval qaralmish, keyin qaratqich keladi[1].

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→Sifatlovchi →Sifatlanmish	Sifatlovchi ←Sifatlanmish←
Dariy tili	زبان دری (zabon-e dari)
baland imorat	عمارت بلند (emorat-e böland)

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→Qaratqich →Qaralmish	Qaratqich ← Qaralmish ←
talabaning ruchkasi	قلم محصل (Qalam-e möhassel)
uning qog‘ozi	کاغذ او (Kog‘az-e u)

[1] Alimova X. Xo‘jaqulov Y. Dariy tili. Toshkent. 2019. B. 87.

Dariy tilidagi enklitik olmoshning sifatga qo‘shilish holati

o‘zbek tilida	Dariy tilida
kichkina ukam	برادر کوچکم (berodar-e ko‘chakam)
qiziqarli kitobim	کتاب دلچسپم (ketob-e delchaspam)

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilidagi 3-shaxs birlik shakli qatnashgan, qaratqichli aniqlovchi tobelanib kelgan so‘z (bolaning kitobi ─ bolaning tobelanib kelgan qaratqichli aniqlovchi, kitobi→ hokim qism) dariy tiliga tarjima qilinganda 3-shaxs birlikni bildiruvchi shaklni talab qilmaydi.

o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari kategoriyasi.

Birlik	Ko‘plik
I. -m, -im	I. -miz, -imiz
II. -ng, -ing	II. -ngiz, -ingiz
III. -i, -si	III. –lari

Dariy tilidagi enklitik olmoshlar kategoriyasi[1].

Birlik	Ko‘plik
I. م — (-am)	I. مان— (-emon)
II. ت — (-at)	II. تان — (-eton)
III. س — (-ash)	III. شان — (-eshon)

Shuningdek, dariy tilida enklitik olmoshlar kishilik olmoshlari bilan ifodalangan vositali va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kela oladi.Bu ko‘proq og‘zaki nutqqa xos xususiyat bo‘lib,bunday holatda enklitik olmoshlar:

1) bevosita fe’lning shaxs-son qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilib keladi:

گفتمت göftamat (تو را کفتم— turo göftam, با تو کفتم — bo tu göftam) “senga aytdim”.

دیدمشان didameshon (آنها را دیدم — onhoro didam) ularni ko‘rdim.

2) qo‘shma fe’llarda, odatda, fe’lning ot qismidan keyin qo‘yiladi:

دوستت دارم - do‘stat doram(دوست دارمت — do‘st doramat) “seni sevaman”.

گرمم آمد - garmam omad “qizib ketdim, qizishdim, jahlim chiqdi” kabi.

3) Ushbu qo‘shimchalar izofa zanjirining eng oxiriga – aniqlovchidan so‘ng qo‘yiladi:

[1] Alimova X. Dariy tili (Morfologiya). Toshkent. 2009.B.50

کتاب برادر کلانم— ketob-e berodar-e kalonam “akamning kitobi”.

خانه بلتد تو مانxona-ye böland-e navemon “yangi baland uyimiz”.[1]

Agar ularni o‘zbek tilidagidek so‘z birikmasi shaklida olsak, yuqorida keltirib o‘tilgan xollardagina ola olamiz. Sababi, hozir aytib o‘tganimizdek dariy tilida izofa zanjiri mavjud bo‘lib, agar izofaviy birikmani olsak, unda bu qo‘shimchalar qo‘llanmasligi ehtimoli mavjud.

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→ Qaratqich → Qaralmish	Qaratqich ← Qaralmish ←
Afg‘onistonning poytaxti	پایتخت افغانستان (poytaxt-e Afg‘oneston)

Afg‘onistonning poytaxti birikmasida qaratqich kelishigi (-ning) va 3- shaxs (o‘zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib) birlik qo‘shimchasi birgina izofa (qisqa e tovushi) orqali ifodalanadi. Unda ushbu qo‘shimchalarni qachon qo‘llasak bo‘ladi? Ularni o‘zidan avval kelgan qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlarini qo‘llamasakkina ishlata olamiz.

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→ Qaratqich → Qaralmish	Qaratqich ← Qaralmish ←
Mening kitobim	کتابم (ketobam)

Yoki xuddi o‘sha ma’noni ifodalash uchun o‘zbek tilidagidek kishilik olmoshidan ham foydalansak bo‘ladi.

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→ Qaratqich → Qaralmish	Qaratqich ← Qaralmish ←
Mening kitobim	کتاب من (ketob-e man)

Ko‘rinib turibdiki, izofa ishtirok etgan bunday birikmada dariy tilidagi ushbu qo‘shimchalarni qo‘llay olmaymiz. Dariy tilida bunday holat ta’kid ma’nosi yuklangan so‘z birikmasi sifatda talqin qilinadi[2]. Buni o‘zbek tilida ham ekvivalenti mavjud. o‘zlik olmoshidan avval kishilik olmoshining qaratqich shaklida turgan variantini qo‘llash orqali o‘zbek tilida ham ta’kid ma’nosi yuzaga chiqadi(o‘zim – mening o‘zim).

Lekin dariy tilidagi ushbu birliklar izofa zanjirida qaratqich yoki sifatlanmish tarkibida kelgan hollarini ham ko‘rishimiz mumkin. Yig‘ilgan

[1] o‘sha manba.B.52.

[2] Alimova X. Xo‘jaqulov Y. Dariy tili. Toshkent. 2019. B. 124.

tadqiqot materialimizdagi ayrim so‘z va so‘z birikmalarida ushbu birliklarning aynay shunday hollarda kelishiga voqif bo‘ldik.

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→ Qaratqich → Qaralmish	Qaratqich ← Qaralmish ←
o‘g‘limning kitobi	کتاب پسرم (ketob-e pesaram)

o‘zbek tilida	Dariy tilida
→Sifatlovchi→Sifatlanmish	Sifatlovchi ← Sifatlanmish ←
Yashil qalamim	پنسل سبزم (pensel-e sabzam)

Biz qilgan tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, biz dariy tilidagi ushbu birliklarni ko‘proq o‘zining qaratqichli birikmasi tushirib qoldirilsa , izofa zanjiridagi qaratqich va sifatlanmish tarkibida va yana bir nechta hollardagina qo‘llay olar ekanmiz. Boshqa hollarda kontekstdagi ma’noni izofa zanjiri orqali ifodalar ekanmiz.

O‘zining qaratqichli birikmasi tushib qoldirilgan tadqiqot materiali sifatida yig‘ilgan misollar:

کشورش – keshvarash – (uning) vatani.

حویلیش – haviliyash – (uning) hovlisi.

فعالیت ها یش – faoliyathoyash – (uning) faoliyatlari.

خت ها یش – xathoyash – (uning) xatlari.

افزایش – afzoyash – (uning) kayfiyati.

دستش – dastash – (uning) qo‘li.

Izofa zanjiridagi qaratqichli so‘z tarkibida :

بیراغ کشور مان – bayrog‘-e keshvaremon – mamlakatimizning bayrog‘i

Izofa zanjiridagi sifatlanmish tarkibida:

پسر کلانم – pesar-e kalonam – katta o‘g‘lim.

لیلیه نوشان – layliya-ye naveshon – yangi yotoqxonalari (talabalar turar joyi).

کارماندان محلی اش – kormondon-e mahalliyash – mahalliy ishchisi.

o‘zbek tilida egalik qo‘shimchalari qatnashgan quyidagi so‘z birikmalari tadqiqot materiali sifatida yig‘ib chiqilgan edi:

Harakatlanishning tezligi – 3-shaxs birlik;

Davlatlarning rivojlanishi – 3-shaxs birlik;

Sanjar Sa’dullayevning ovozi – 3-shaxs birlik;

Qon hidi – 3-shaxs birlik;

Davlat mulki – 3-shaxs birlik;

Prezident farmoni – 3-shaxs birlik;
Daraxtlarning kesilishi – 3-shaxs birlik;
Departament boshlig‘i – 3-shaxs birlik;
Xo‘jalikning maydoni – 3-shaxs birlik.

O‘zbek tilidagi egalik (nisbatlovchi) morfemalari “shaxs” va “son” ma’nolarini ifodalab kelishi bilan bir qatorda, boshqa xususiyatlari ham mavjud. Bulardan biri modal ma’noga ega ekanligi[1]. Ya’ni bir paytning o‘zida ham egalik, ham modal ma’nolarini bera oladi. Bu jarayon 1-2-3- birlikdagi shaxs o‘rniga 1-2-3- ko‘plikdagi shaxs va 1-2-3- shaxs birlik qo‘shimchalari o‘rniga 1-2-3- shaxs ko‘plik qo‘shimchalarini qo‘llagan vaziyatdagina yuzaga chiqadi. Quyidagi misollar orqali bunga oydinlik kiritamiz.

Ustoz: Bu kimning kitobi?

Shogird: Bizning kitobimiz.

Kontekstda Ustoz bir odamga murojaat qilyapti, javobni ham bitta odam odam beryapti. Lekin javobda kamtarlik ma’nosi yuzaga kelgan. Aslida javob:

– Mening kitobim.

shaklida bo‘lishi kerak edi. Demak, -(i)miz morfemasi birlikda qo‘llansa kamtarlik ma’nosini ifodalashga xizmat qilar ekan.

Anvar: Qo‘lingiz yaxshimi do‘stim?

Botir: Qo‘limmi? Ha, ancha yaxshi.

Bu yerda ham birlikdagi 2-shaxsga murojaat qilingan. Lekin “qo‘ling” so‘zidagi -ing, 2-shaxs birlik, qo‘shimchasi o‘rniga -ingiz, 2-shaxs ko‘plik, qo‘shimchasi qo‘llanishi orqali hurmat ma’nosi ifodalangan.

Keyinchalik modal ma’no 2-3-shaxs birlik qo‘shimchalarini -lar affiksi bilan ishlatish orqali ham ifodalanadigan bo‘lgan[2].

1) ona + ng → 2-shaxs birlik.

2) ona + nglar → 2-shaxs birlik / sizlash.

3) ona + laring → 2-shaxs birlik / senlash.

4) ona + lari → 3-shaxs birlik /sizlash.

Yuqoridagi misollarimizni gaplar tarkibida qo‘llab, bir qadar sharhlashga harakat qildik:

1) – Qizim, onanglar yaxshimi? → Ushbu gapdagi -nglar qo‘shimchasi bir paytda 2 ta ma’noni ifodalashga xizmat qilyapti. Bulardan biri, bir tanish odam bir ayoldan qaynonasi va onasi haqida so‘raganligi haqidagi ma’no anglanishida xizmat qilgan deb talqin qilinsa-da, ushbu gapning to‘liqroq

[1] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.Toshkent.2006.B.142-146

[2] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. 2006. B. 144.

variantini keltirish orqali -nglar qo‘shimchasi kontekstda hurmat ma’nosini ifodalashga xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Qaynona xomush o‘tirgan kelinini ko‘rgan zahoti unga savol berdi:

– Qizim, onanglar yaxshimi ?

Ko‘rib turganingizdek, kontekstda qay holda kelishiga qarab turlicha talqin qilinadi. Qolgan misollarimizni ham aynan yuqorida keltirganimiz-dagidek, ya’ni kontekstda qay holda kelishiga qarab talqin qilsa bo‘ladi.

Bundan tashqari, tadqiqot materiali sifatida olingan har 2 tildagi so‘zlar orasida fonetik hodisa asosida yozilganlari ham mavjud edi.

Dariy tilidagi enklitik olmoshlarning birlik shakli qisqa -a unlisi bilan, ko‘plikdagi shakli qisqa -e unlisi bilan boshlanadi. Agar birlik qo‘shimchalari qo‘shilayotgan so‘zning oxirgi tovushi qisqa a (ه), cho‘ziq o(ا), o‘, u (و) unlilari bilan yakunlansa yozuvda bir tovush orttirib yoziladi va shunday talaffuz qilinadi(qisqa a bilan tugovchi so‘zlar bundan mustasno)[1].

Qisqa a unlisi bilan tugagan so‘zlarda enklitik olmoshlar birlik shaklining qo‘shilishi:

.خانه ام=خانه+م → xona + am = xonaam.

.خانه ات= خانه+ت → xona + at = xonaat.

.خانه اش= خانه+ش → xona + ash = xonaash.

Cho‘ziq o unlisi bilan tugagan so‘zlarda enklitik olmoshlar birlik shaklining qo‘shilishi:

.آشنایم= م + آشنا → oshno+ am= oshnoyam.

.آشنایت=آشنا+ت → oshno+ at= oshnoyat.

.آشنایش=آشنا+ش → oshno+ ash= oshnoyash.

Cho‘ziq u unlisi bilan tugagan so‘zlarda enklitik olmoshlar birlik shaklining qo‘shilishi:

.آرزویم=آرزو+م → orzu+am=orzuyam.

.آرزویت= آرزو+ت → orzu+at=orzuyat.

.آرزویش= آرزو+ش → orzu+ash=orzuyash.

Cho‘ziq o unlisi bilan tugagan so‘zlarda enklitik olmoshlar ko‘plik shaklining qo‘shilishi:

.آشنای مان= آشنا+مان → oshno+ emon = oshnoyemon.

.آشنای تان= آشنا+تان → oshno+ eton = oshnoyeton.

آشنای شان= آشنا+شان → oshno+ eshon = oshnoyeshon.

Cho‘ziq u unlisi bilan tugagan so‘zlarda enklitik olmoshlar ko‘plik shaklining qo‘shilishi:

.آرزوی مان= آرزو+مان → orzu+emon =orzuyemon.

.آرزوی تان= آرزو+تان → orzu+eton=orzuyeton.

[1] Alimova X. Xo‘jaqulov Y. Dariy tili. Toshkent. 2019. B. 124.

آرزو+شان= آرزوی شان. → orzu+eshon=orzuyeshon.

Agar enklitik olmoshlarning birlik shakli qo‘shilayotgan so‘zning oxirgi tovushi cho‘ziq i (ی) bilan tugagan bo‘lsa yoki ko‘plik shakli qo‘shilayotgan so‘zning oxirgi tovushi qisqa a (ه) va cho‘ziq i (ی) bo‘lsa, yozuvda deyarli hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi. deyarli deyishimizga sabab ko‘plik shakli qo‘shilganda so‘zning oxirgi tovushi qisqa a (ه) bo‘lsa, mana shu a(ه) tovushining ustiga kichkina hamza (ٔ) belgisi qo‘yiladi.

خانه+ مان= خانهٔ مان. → xona + emon = xonayemon.

خانه+ تان= خانهٔ تان. → xona + eton = xonayeton.

خانه+ شان = خانهٔ شان → xona + eshon = xonayeshon.

Qolganlarida faqatgina talaffuzda bir y tovushi orttirib aytiladi[1].

Bilamiz, o‘zbek tilida so‘z urg‘usi ko‘chib yuradi. Biz aynan tadqiqot qilayotgan birlik qo‘shimcha bo‘lganligi uchun, uning so‘zga qo‘shilganda nafaqat so‘z tarkibini, balki uning urg‘usini ham o‘zgartirib yuborishi mumkinligi haqidagi umumiy ma’lumotlarni berib o‘tishni joiz deb topdik.

O‘zbek tilida ba’zi qo‘shimchalar so‘zga qo‘shilishi bilan so‘zning asosida turli o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu jarayon umumlashtirilib “tovush o‘zgarishlari” deb ataladi. Biz bulardan faqat egalik qo‘shimchalari orqali yuzaga keladigan hodisalarni tadqiq qilganmiz. Bularning barchasi uchun “tovush o‘zgarishlari terminini qo‘llasak, tovushlarining o‘zi emas, balki ularning o‘rni o‘zgarganda ham, uni tovush o‘zgarishi” deb atashga to‘g‘ri keladi. Shunga qaraganda “tovush o‘zgarishiga nisbatan” fonetik o‘zgarish(biz tadqiqot jarayonida fonetik hodisalar deb yuritdik)lar “termini kengroq: fonetika so‘zi leksik jihatdan tovushlar ilmi”ni bildirsa ham, lingvistik termin sifatida ma’nosi kengaygan. Fonetika segment tovush birliklari (fonemalar, bo‘g‘inlar) bilan birga, suppur segment tovush birliklari(leksik urg‘u, intonatsiya)ni ham o‘z ichiga oladi[2].

O‘zbek tilidagi fonetik hodisalarni ikkita katta turga ajratish mumkin. Bular biri faqat og‘zaki nutqqa tegishli fonetik hodisalar bo‘lsa, ikkinchisi ham og‘zaki, ham yozma nutqqa tegishli fonetik hodisalardir. Biz ularning ikkinchi turida yuzaga keladigan hollarni tadqiq etdik. Avvalo, “Fonetik hodisa nega yuzaga keldi?” – degan savolga javob berib o‘tamiz. Fonetik hodisalar so‘z yoki fonemalarni talaffuzga qulay qilish, gapirishni yengillashtirish, nutq organlarining, muskullarining harakati va vaqtini tejash orqali yuzaga keladi. o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari

[1] Alimova X. Xo‘jaqulov Y. Dariy tili. Toshkent. 2019. B. 124.

[2] g‘ulomov A. Tixanov A.N. Qo‘ng‘urov R. o‘zbek tili morfem lug‘ati. Toshkent. 1997. Ilovalar: 1-ilova. B. 365-397.

qo‘shilayotgan so‘z tarkibida fonetik hodisalarning 3 turi mavjud. Bular: tovush almashishi, tovush ortishi va tovush tushishi.

Tovush almashishi.

k va q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, bek, yo‘q kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g‘ undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak – tilaging, yurak – yuragim, tayoq – tayog‘i, yaxshiroq – yaxshirog‘imiz, bek – begi, yo‘q – yo‘g‘i[1].

Tovush tushishi.

O‘rin, burun, qorin, o‘g‘il, bo‘yin, ko‘ngil kabi ba’zi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida 2-bo‘g‘indagi unli tushib qoladi: o‘rin – o‘rnim , burun – burning, qorin – qorni, o‘g‘il – o‘g‘limiz, bo‘yin – bo‘yni , ko‘ngil – ko‘ngli[2].

Tovush ortishi.

Parvo, obro‘, mavqe, mavzu, avzo so‘zlariga 1-va 2-shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda bir y tovushi orttirib aytiladi va yoziladi: parvo – parvoyim, obro‘ – obro‘ying, mavqe – mavqeyimiz, mavzu – mavzuyingiz, avzo – avzoyimiz.

Lekin 3-shaxs egalik qo‘shimchasi parvo, avzo, obro‘, mavqe so‘zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu, dohiy so‘zlariga -si shaklida qo‘shiladi[3].

Dariy tili uchun Tolo news internet nashridan yig‘ilgan tadqiqot materialimizda faqatgina tovush ortishi hodisasiga duch keldik:

فعالیت هایش، افزایش، خط های شان،محلی اش.

O‘zbek tili uchun Kun.uz internet nashridan yig‘ilgan tadqiqot materialimizda yuqorida sanab o‘tilgan fonetik hodisalarimizdan faqat bittasi, almashish hodisasini uchratdik: tezligi, boshlig‘i.

Demak, o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari urg‘uli, dariy tilidagi enklitik olmoshlar urg‘usiz. o‘zbek tilida egalik qo‘shimchalari so‘zlarga qo‘shilganda 3 xil fonetik hodisa(ortishi, tushishi, almashishi), dariy tilida esa 1ta fonetik hodisa (ortishi) yuz berdi. o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari modal ma’noni ifodalashda ham ishlatiladi. Dariy tilida unday emas. o‘zbek tilida so‘z birikmasi tarkibida qaratqich kelishigi belgili va belgisiz kelishi mumkin va bu ikki holda ham egalik qo‘shimchasi belgili qo‘llaniladi. Dariy tilida izofa mavjudligi uchun qaratqichli shakl qo‘llansa enklitik olmoshlar yo‘qolib ketadi. Agar ularni qo‘llamoqchi bo‘lsak, gap

[1] Begmatov E. A. Madvaliyev A. P. O‘zbek tilining imlo lug‘ati (85 000 dan ortiq so‘z). Toshkent. 2013. Asos va qo‘shimchalar imlosi. 34-35-qoidalar. B. 12-13.

[2] o‘sha manba.

[3] o‘sha manba.

tarkibidan qaratqichli shaklni olib tashlashimiz va kontekst ma’nosidan kelib chiqib, mos keluvchi birliklarni qo‘llashimiz kerak. Dariy tilidagi bu birliklar (enklitik olmoshlar) gap hajmini qisqartirishga yordam beradi. Dariy tilida bular olmosh sifatida o‘rganiladi, o‘zbek tilida qo‘shimcha sifatida. Dariy tilida sifatlovchi va sifatlanmish izofa holida kelsa, otga qo‘shilgan enklitik olmosh izofa zanjiri tufayli sifatga qo‘shiladi. Qaratqich va qaralmish izofa holida kelsa, qaratqich qatnashgan so‘z tarkibidagi enklitik olmosh izofa zanjiri bo‘lishiga qaramasdan o‘zi qo‘shilgan so‘z tarkibida qoladi.

Xulosa qilib aytganda, dariy tilidagi enklitik olmoshlar ma’no jihatdan, so‘zlarga qo‘shilish strukturasi jihatidan o‘zbek tiliga juda ham o‘xshash. Lekin egalik qo‘shimchalari bajara olgan hamma vazifani bajara olmaydi. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari ma’no jihatdan enklitik olmoshlarga to‘g‘ri kelgani bilan, ular bajarib kelayotgan vazifani bajargani bilan, ular qo‘llanilayotgan har bir o‘rinda qo‘llanila olmaydi. Sababi, har ikki tilda yuqorida bir-birini inkor etgan sabablarimizni bajaruvchi vosita va birliklar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova X. Dariy tili (Morfologiya).Toshkent.2009. B.103.
2. Alimova X. Xo‘jaqulov Y. Dariy tili. Toshkent. 2019. B. 450.
3. 2. Begmatov E. A. Madvaliyev A. P. o‘zbek tilining imlo lug‘ati (85 000 dan ortiq so‘z). Toshkent. 2013. B. 526.
4. https://kun.uz/uz
5. https://t.me/Tolo_news
6. Mahmudov N. Ona tili (7-sinf uchun darslik). Toshkent. 2017.4-nashr. B.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.Toshkent.2006. B. 464.
8. G‘ulomov A. Tixanov A.N. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. Toshkent. 1997. B. 460.

TARIX VA FALSAFA

GLOBALLASHUV SHAROITIDA OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR IJTIMOIY-AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI

Bekdavlat ALIYEV
TDIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori.

Annotatsiya: Global dunyoda axborot xuruji xavfidan yosh avlodni himoya qilish bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyatga egadir.Qolaversa, yurt-boshimizning Uchinchi Renessansni barpo qilish siyosati nuqtai nazaridan olib qarasak, yosh avlodni tashqi ta'sirlardan himoya qilish ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Renessans,globallashuv,axborot xuruji, axborot xavfsizligi, kiberjinoyat, ma'naviyat, madaniyat, etika, ijtimoiy falsafa, g'oya.

So'nggi yillarda yoshlarimiz hayotiga kirib kelayotgan va ularning ijtimoiy-axloqiy ma'naviyatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan "Ommaviy madaniyat"ning har qanday ko'rinishi jamiyat uchun o'ta xavfliligini atrofimizdagi voqea-hodisalardan ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida G'arbona kiyinish, o'ziga ortiqcha oro berish, G'arbona "tavoze" bahonasi ostida milliy ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarimizga mutlaqo zid, har turli evrilishlarni targ'ib etuvchi g'oyalarning yoshlarimiz ongini zaharlashiga qo'l qovushtirib qarab turib bo'lmaydi. Darhaqiqat, ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq bo'lib, buning asosida talab, iste'mol va tovar sifatida xaridorgir bo'lish maqsadi yotadi. Ommaviy madaniyat yosh, millat, jins, makon tanlanmaslik xususiyati bilan insonni milliylik, o'ziga xoslikdan uzoqlashtiradi. Inson ehtiyoj va istaklarini, his-tuyg'u va hattoki fikrlarini ma'lum bir "standartlar"ga bog'lab, yagona qolipni shakllantiradi. Ommaviy madaniyat inson didiga aks ta'sir ko'rsatib, uni sayozlashtiradi. Ko'pincha axloqsizlik, behayolikni tarannum etadi. Bugungi kunda ba'zi g'arazli kuchlar odamlarning sog'lom turmush tarzini buzishga qaratilgan emotsional-hissiy va tasavvur-tushunchalariga kuchli ta'sir etuvchi turli omillardan, masalan, "ommaviy madaniyat"dan foydalanadilar.

"Ommaviy madaniyat" - zamonaviylik emas, uni muqobili ham bo'la olmaydi. Eng yomoni bunday yot, buzg'unchi g'oyalarni zamonaviylik deya qabul qilish oqibatida unga mafkuraviy evrilishni (ya'ni, bir taraflama, soxta tasavvurlarning shakllanib qolishi) shakllanib qolishidir. Bunday xavf-

xatarlardan kuchli jamiyat institutlarini rivojlantirmasdan turib, himoyalanish (ya'ni, ular jamiyatning asosiy qismi qarashlari va qadriyatlarini birlashtirishi nazarda tutilmoqda) mumkin emas. Shunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ijtimoiy-axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishini unutmaslik kerak. Bu madaniyat tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush-tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar bugun ko'z o'ngimizda ro'y bermoqda" [1].

Bugun ko'pgina G'arb mamlakatlari va hatto, ba'zi hamdo'stlik mamlakatlarida ham axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash oddiy holga aylanib qoldi. Inson uning hayoti, oila muqaddasligi va yoshlarning unga bo'lgan munosabati bugungi hayotimizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Yer sharida necha ming yillardan buyon hayotning davom etayotganligining sabablaridan biri tirik mavjudotning o'z kelajagi haqida qayg'urishidadir. Lekin "ommaviy madaniyat"ni o'z hayot tarziga aylantirayotgan yoshlar shu darajada xudbin bo'lib bormoqdaki, ular faqat o'z nafslarini o'ylamoqdalar. "Ommaviy madaniyat"ning salbiy jihatlari kuyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

- ko'cha ko'ylarda bolalarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishga mo'ljallangan kompyuter o'yinlari qo'yiladigan joylar;
- tungi internet klublari voyaga yetmagan bolalarni xam qabul qilmoqda, bu yosh bolalar esa asosan pornografik saytlarga kiradilar;
- yurtimizda litsenziyasiz sotiladigan behayo filmlar to'plamlari;
- zamonaviy telefonlardan noto'g'ri foydalanish.

Bugun ko'pgina maktablarda ta'lim tarbiyaga e'tibor kuchaygani rost, lekin bu bolaning bir kunlik faoliyatini to'liq kuzatishga, ko'mak berishga imkon bermaydi. Ko'pgina o'quvchilar asosiy vaqtini kompyuter, internet va kompyuter o'yinlariga sarflaydi. Bunday holni har birimiz yashayotgan shahrimizda ham kuzatishimiz mumkin Kompyuter o'yinlari insonlarga qandaydir estetik ozuqa berish uchun emas, balki insonlarni qiziqtirib, ularni

o‘zlariga jalb qilishni shuning hisobiga ko‘proq foyda olishga mo‘ljallangan. Demak, bunday o‘yinlar yosh bolalarning ongiga salbiy ta’sir qiladi. Kompyuter o‘yinlarida namoyish etiladigan jangari holatlar bolaning pyhiy olamiga ta’sir ko‘rsatib, uning harakatlariga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Kundalik hayotdagi hodisalarga nisbatan bola qo‘pol munosabatda bo‘la boshlaydi. Maktab yoshidagi bolalar ongi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi, shuning uchun ota-onalar bolalarning qiziqishlariga salbiy ta’sir etmagan holda bunday holatlardan chiqa bilishlari kerak.

Bugungi kunda tez-tez uchrab turgan muammolardan yana biri mobil telefonlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida kelib chiqayotgan holatlardir. Turli rusumdagi zamonaviy qo‘l telefonlarining yoshlar hayotida paydo bo‘lishi natijasida yangi-yangi muammolar kelib chiqmoqda. Chunonchi, yoshlar o‘tmishda uyalib qaralmaydigan holatlarni yoki fojiali voqealarni tasvirga olish va ularni xuddi mish-mish kabi tarqatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ko‘pincha begonalar bilishi kerak bo‘lmagan voqea va hodisalarning butun respublika bo‘ylab tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

Oxirgi vaqtlarda telefonlarda yoshlar behayo filmlarni va rasmlarni olib yurishdan uyalmay qo‘ymoqdalar. XV asrda yashab, ijod qilgan notiq va olim Husayn Voiz Koshifiy “Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo‘qolsa hech kimda vijdon qolmaydi, (u holda) dunyoda tartib buziladi, kishilar bir-birlariga befarq qaraydigan bo‘ladilar” [2] deb aytib o‘tgan edilar. Lekin bugun yuksak axloqiy tushunchalar haqidagi gaplar quruq gan bo‘lib qolmoqda. Yoshlarga e’tiborsizlik, kelajakni barbod qilish bilan barobardir. Ommaviy madaniyatning zararli ta’siriga qarshi kurashish uchun avvalo uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish zarur. Ularning asosiylarini quyidagilarga ajratish mumkin:

Birinchidan, bu madaniyat tarkibiga kiruvchi san’at ko‘rinishlarini mahsuli asosan bir shaxs emas, balki ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashgan odamlar jamoasi tomonidan yaratiladi. Bu bilan u industriyaning bir ko‘rinishiga aylanadi. Masalan, televizion ko‘rsatuv yoki jahonshumul ahamiyatga ega estrada tomoshasi bo‘ladimi, bularning barchasini tashkil-lashtirishda yuzlab odamlar band va manfaatdor bo‘ladi. Shuningdek, ommaviy madaniyat asarlari doimo “bir marta ko‘rgan yaxshi” tamoyiliga muvofiq vizual-optik jihatdan ko‘rgazmali, namoyishkorona va tashqi ta’sirchanligiga asosiy e’tiborni qaratgan holda “xaridorgir bo‘lish” maqsadida yaratiladi. Oqibatda “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” mahsulotlar sonini oshiradi.

Ikkinchidan, ommaviy madaniyat asarlarida turlicha tushuntirish va izohlarga hojat ham, talab ham bo‘lmasligi bilan ajralib turadi. Qandaydir isbotlar va tahlillar ma’lum jihatdan mazkur ijoddagi zaif bo‘g‘in bo‘lib

qolishi mumkinligi bilan ajralib turadi. Chunki bu madaniyatdagi san’at asarlarida izohtalab tus va tovlanishlar qabul qilinmaydi, aniqlik va “hammaboplik” asosiy talab bo‘lib, fikr yuritish, aql ishlatishning hojati qolmaydi. Shuningdek, tashqi belgilardagi, ya’ni shakl o‘zgarishlarning shartligi. Iste’molchini doimo betakror xususiyatlar, shov-shuvli yangiliklar bilan qiziqtirish his-tuyg‘ularini junbishga keltirib emotsional ta’sir ko‘rsatish orqali ruhiy tashkillashtirish va bir qolipga solish xususiyatiga ega bo‘ladi. Qanday bo‘lmasin individuallikni yo‘qotishga harakat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlardan ko‘rinib turibdiki ommaviy madaniyatning asl maqsadi har ko‘yga solish mumkin bo‘lgan olomonni shakllantirishdir. Bunday qiyofasiz, o‘zligini yo‘qotgan olomonni esa boshqarish ham, har qanday g‘oyalarini o‘tkazish ham qiyin bo‘lmaydi. G‘oyaviy ta’sir, mafkuraviy zabt etish g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog‘liq holda bo‘lishi esa barchaga ma’lumdir.

Xalqimizda bir naql bor, kasallikni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan ma’qul. Biz xam “ommaviy madaniyat”ning sabiy jihatlarini kasallik deb olsak, uning oldini olish uchun boy tariximiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga muhabbat ruhidagi tarbiya bilan mafkuraviy immunitetni hosil qilamiz. Bu boradagi ishlarda yosh bolaning tarbiyasi muhim qadam hisoblanadi. Ota-ona o‘qituvchi, maktab pedagog-psixologlari bolaning qiziqishlari, unda bo‘ladigan o‘zgarishlarni darhol anglay olishlari va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rmog‘i lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, “ommaviy madaniyat” bizning hayotimizga kirib keldi va o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Uning salbiy oqibatlariga qarshi birgalikda kurashmog‘imiz lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek, fikrga qarshi fikr g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ham ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun ijtimoiy-axloqiy sohada kuzatilayotgan xavf-xatarlardan ko‘z yumib bo‘lmaydi, ishonamizki xalqimizning boy tarixiy ma’naviy merosi kelajak avlodlarga ham asl holicha yetib boradi. Ishonamizki, xalqimiz hech qachon o‘zligini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1 T.: “O‘zbekiston”, 2018, 591-bet.

2. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T.: Akademiya, 2008.B.6-7.

SADRIDDIN AYNIY IJODIDA MANG‘ITLAR DAVRI TARIXI MASALALARINING YORITILISHI

Farrux TEMIROV
PhD dotsent, BuxDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning “Ta’rixi amironi mang‘itiyai Buxoro” asarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro tarixining o‘rganilishi tarixiy – ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inqilob, otaliq, shayx, islohotchilik, maorifparvarlik, sunniylik.

Sadriddin Ayniy (1878-1954) o‘zbek hamda tojik adabiyoti va tarixi rivojiga katta hissa qo‘shgan zukko olim va adibdir. Uning ilmiy merosi ilm va ma’rifat ixlosmandlari uchun o‘ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bo‘lajak olim ilk boshlang‘ich ma’lumotini ona qishlog‘ida, eski usul maktabida oldi, lekin uning ilmga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi va mehri, uni azaldan madaniyat – ma’naviyat o‘chog‘i bo‘lib kelgan Buxoroyi sharifga yetakladi. Ayniy o‘ttiz yilga yaqin umrini (1889-1917) Buxoro shahrida o‘tkazdi. Ma’rifatparvar olim o‘sha davrdagi Buxoroning mashhur va ma’lum bo‘lgan Miri Arab (1890-1891), Olimjon (1892-1893), Badalbek (1894-1896), Hoji Zohid (1896-1899) va Ko‘kaldosh (1899-1900) madrasalarida o‘qidi. Ko‘plab tarixiy voqealarning jonli guvohi bo‘ldi. Bu davrning mashhur olimlari, shoirlari va taniqli ilm ixlosmandlari bilan tanishdi, ilmiy-ijodiy va adabiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi

Ayniy Buxoroda o‘qib yurgan kezlarida Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli bilan yaqindan tanishdi, ko‘ngina tarixiy voqea va hodisalarning jonli guvohi bo‘ldi. U Buxoro tarixining tadqiqotchisi sifatida bir qancha tarixiy asarlarni yaratdi. Uni/ng “Buxoro jallodlari”[1], “Qullar”[2], kabi tarixiy qissa va romanlari muayyan tarixiy voqealar asosida yozilganligi ma’lum. Bundan tashqari u shunday asarlar ham yozganki, (Ayniyning o‘zi ularni tarixiy ocherklar deb atagan – T.F) ularni so‘zsiz tarixiy-ilmiy tadqiqot ishlari sirasiga qo‘shish mumkin. Jumladan, “Tarixi amironi mang‘itiyai

[1] Айний С. Бухоро жаллодлари. / Инқилоб. 1922 йил, № 3-4, 5-6, 7-8.
[2] Айний С. Қуллар. Асарлар. 8 жилдлик. 3-жилд. Т: 1964.

Buxoro”[1] (“Buxoro mang‘it amirlarining tarixi”), “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”[2] va “Muqanna isyoni” kabi asarlaridir.

Ayniy yashagan davr Buxoroda hukmronlik qilgan so‘ngi mang‘itlar sulolasi (1756-1920) davri bilan chambarchas bog‘liq. Umrining katta qismi ana shu sulola hukmronligi zamonida kechdi. Mutafakkir dastlab yozgan asarini ushbu sulola tarixiga bag‘ishladi. Mazkur asar “Tarixi amironi mang‘itiyai Buxoro” deb nomlanadi. Uning yozishicha, asarning dastlabki varianti Samarqandda “Shu’lai inqilob” haftalik jurnalining 1920- yil 50- 90 (sentyabr-noyabr) sonlarida bosiladi. Bu haqda Ayniy “Qisqacha tarjimai holim” asarida shunday yozadi: “Shu’lai inqilob” jurnalida “Buxoro mang‘it amirlari tarixi” sarlavhali bir tarixiy ocherk boshladim. Bu maqolalar silsilasi Buxoro inqilobigacha davom etdi. Ocherkda so‘nggi amir (Amir Olimxon 1910-1920) va uning saroyini ahvoligina emas, balki Buxoroda qariyb 150 yil hukmronlik qilgan barcha mang‘it amirlarining davri tarixini, xatti-harakatlarini hikoya qildim. Bu maqolalar 1923-yili alohida kitob shaklida Toshkentda chop bo‘ldi”[3]. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Buxoroda umr guzaronlik qilgan mang‘itlar sulolasi tarixi haqida ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan va bir qanchasi bizgacha yetib ham kelgan.

Tarixiy dalil va raqamlar yordamida voqealar mohiyatini ochish u yoki bu ijtimoiy hodisalarning tub mohiyatini va sabablarini aniqlash, ularni mehnatkash xalqqa ta’siri munosabatini tadqiq etish – Ayniy asarining muhim xususiyatidir. Biror ijtimoiy voqea tafsilotini berar ekan, o‘zi ko‘rgan arab va fors tilidagi tarixiy qo‘lyozmalardan parchalar keltirib bayon etadi. Masalan, Ayniy ushbu asarini yozishda Ahmad Donish (1827- 1897)ning “Risola yo muxtasare az ta’rixi saltanati xonadoni mang‘itiya” [4] (“Risola yoki mang‘it xonadoni saltanatining qisqacha tarixi”), Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy (1839-1908)ning “Ta’rixi salotini mang‘itiya” (“Mang‘it saltanati tarixi”), Mullo Olim Mahmud Hojining “Ta’rixi Turkiston” [5] va taniqli tarixchi olim Po‘lat Soliyev (1882- 1938) ning “Mang‘itlar saltanati davrida Buxoro o‘lkasi” [6]

---

[1] Айний С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.

[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти, 1926

[3] Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. Асарлар. 1-жилд. Т:.1963. – Б. 95.

[4] Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: “Сарват” 1992

[5] Мирзо Олим Махдум ҳожи. Таърихи Туркистон. Т: “Янги аср авлоди” 2008.

[6] Пўлат Солиев. Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси. Т: “Ўзбекистон давлат нашриёти” 1925.

asarlaridan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Mazkur mualliflar o‘zlarining tarixiy tadqiqotlarida mang‘itlar sulolasi hukmdorlarining tarixini asosan salbiy baholashgan. Ayniyning asari ham bundan mustasno emas, albatta. Tarixnavis adib mang‘itlar xonadoni tarixiga murojaat etar ekan, ularning ijobiy tomonlariga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Ayniqsa sulolaning uchinchi vakili bo‘lgan amir Shohmurod (1785- 1800)ning ichki va tashqi siyosati, faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini sharhlar ekan, uning mamlakatda olib borgan qurilish va davlatni mustahkamlash borasidagi tadbirlarini alohida sanab o‘tadi. Ayniy o‘z asarida amir Shohmurod hukmronlik davri tarixiga alohida bob ajratgan: “Amir Shohmurod (Ma’sumbiy)ning hukmronligi zikri”, “Amir Shohmurod-ning ba’zi bir ahvoli va ishining xotimasi”, “O‘ratepaning olinishi va Samarqand ta’miri” deb nomlanib, asarning 14-24 sahifalaridan joy olgan.

Ayniy amir Shohmurodning tarixini quyidagi fikrlar bilan boshlaydi: “Amir Shohmurod ibn Doniyol otaliq ibn Xudoyor otaliq mang‘itlarning uchinchi amiridir. Amir Doniyoldan: Ma’sumbiy (Shohmurod), Mahmud, Umar, Fazl, Sultonmurod, Rustam, Kenjaali, Ya’qub, To‘xtamish, Darvish va Rajabali nomli o‘n bir o‘g‘il qolgan bo‘lsa ham, amir Doniyol vasiyati va xoxishi bilan mashhur Ma’sumbiy Shohmurod amir bo‘ldi”[1].

“Amir Shohmurod Samarqandda 24 ta guzar (mahalla) va masjid qurib, kambag‘al-nochor odamlarni o‘sha yerga joylashtirdi. Samarqand chorsusi, Poyqaboq, Shohizinda darvozalari va Qalandarxonani bino qildi. Suzangaron darvozasi eski va xarob bo‘lib qolgan edi, uni qaytib tikladi” – deb, yozadi. Shuningdek amir Shohmurod davrida yuqori lavozimlarda ishlagan mansabdorlar ham o‘z mablag‘lari hisobidan talaygina imoratlar, madrasa va masjidlar qurganlari to‘g‘risida ma’lumotlari keltirib o‘tadi. Jumladan, Shohmurod davrida Qo‘shbegi – Bosh vazir lavozimida bo‘lgan O‘tkir qo‘shbegi tomonidan Buxoroda qurilgan madrasa, Kallobodiy guzarida Qozi Mirzo Fuzayl nomidagi madrasa, Muhammad Amin to‘pchiboshi tomonidan Bozorxoja guzarida bino qilingan madrasalar haqida yozadi. Amir Shohmurodning o‘zi tarafidan ham Buxoroda Kallobodiy guzarida “Jannatmakoniy” nomli madrasa qurdirgani haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

Ayniy amir Shohmurodning vafot etgan sanasini Mirzo Somiy Bo‘stoniy, Mullo Olim Mahmud Hoji va Mullo Homuliy kabi tarixchilarning asarlariga tayanib quyidagicha bayon etadi: “Amir Shohmurod 1216 yil hijriyda (milodiy 1801) (Mirzo Azim rivoyati) vafot

[1] Айний С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923. – Саҳ. 24.

etdi. Ammo Mullo Mahmud Hoji “Ta’rixi Turkiston” asarida rivoyat qilishicha, uning vafot yili 1215 yil hijriyda (milodiy 1800) oltmish uch yoshida, juma kunida, rajab oyining o‘n uchinchisidadir. Mullo Homuliyning dalolat berishicha, Shohmurod 1216 yil hijriyda (milodiy 1801) vafot etgan”. Mashhur tarixchi olim va xattot Ahmad Donish o‘zining “Risola yoki mang‘it xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarida shunday ma’lumotlarni keltiradi: “Amiri Ma’sum (Shohmurod) o‘n yetti yil hukumatni boshqarib, juma kunida, rajab oyining o‘n ikkinchisida, 1215 yil hijriyda (milodiy 1800) bu foniy dunyodan ko‘z yumdi. Uning umri sharifi (yashagan yili) ellik ikki yil bo‘lib, tavallud sanasi 1163 yil hijriyda (milodiy 1748 –T.F) voqe’ bo‘lgan”[1].

Ayniy amir Shohmurod haqidagi fikrlarining yakunida yozadi: “Amir Shohmurod Buxoro mang‘itlarining odilroq va yaxshiroq podshohlaridan edi. Parishon bo‘lgan mamlakatni intizomga keltirib, barqaror etdi, “o‘z davrining dohiysi” edi, desak to‘g‘ri bo‘ladi”.

Sadriddin Ayniyning asarlarida mang‘itlar sulolasining kelib chiqishi va bu sulolaning amirzodalari davri tarixi, shuningdek bu sulolasining taniqli namoyandasi bo‘lgan amir Shohmurodning hukmronlik qilgan davri tarixi va uning keyingi faoliyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Biroq bitta maqolada Ayniy asarlarida tadqiq etilgan bu masalalarning butun ko‘lamini yoritishning iloji yo‘q. Uning tarixiy, badiiy va ilmiy maqolalarida tasvirlangan ushbu ma’lumotlar kelgusi tadqiqotlarimizda yoritiladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Айний С. Бухоро жаллодлари. / Инқилоб. 1922 йил, № 3-4, 5-6, 7-8.
2. Айний С. Қуллар. Асарлар. 8 жилдлик. 3-жилд. Т: 1964.
3. Айний С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.
4. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти, 1926
5. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. Асарлар. 1-жилд. Т:.1963. – Б. 95.
6. Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: “Сарват” 1992.
7. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Таърихи Туркистон. Т: “Янги аср авлоди” 2008.

[1] Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: “Сарват” 1992. – Б. 13.

8. Пўлат Солиев. Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси. Т: “Ўзбекистон давлат нашриёти” 1925.

MISRSHUNOSLIK VA UNING YO‘NALISHLARI

Yulduz G‘ANIYEVA
TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati ta’lim yo‘nalishi
2 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, J. B. Sulaymonov

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharqshunoslikda o‘ziga xos ahamiyatga ega misrshunoslik va uning yo‘nalishlari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Misr, Misrshunoslik, sharqshunoslik, F.Shampolyon, Misr yozuvi, Xefren, Mikerinos

Dunyo tarixida shunday mamlakatlar borki, ular o‘zining qadimiyligi va yuksak sivilizatsiyasi bilan har qachon e’tiborni tortadi. Mana shunday mamlakatlardan biri bu – Misr hisoblanadi. Misr diyori azaldan xoh qadimda bo‘lsin xoh yangi asrda butun olamni o‘zining tarixiyligi bilan mahobatli ehromlari-yu, maqbaralari bilan butun olamni o‘ziga rom etib kelmoqda. Ya’ni Misr Sharqda joylashgan dunyo miqyosida eng birinchi sivilizatsiya paydo bo‘lgan davlat hisoblangan hamda, yirik madaniy markaz sifatida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zining serhosilligi va Nil daryosining mazkur hududdan bevosita oqib o‘tishi unda davlat shakllanishi va turmush, hayot kechirish jarayonini belgilab berdi. Qadimgi Misr o‘zidan yuksak va arzirli madaniyat qoldirdi.

Misrning tashkil topishi va unda davlat shakllanishini juda uzoq davrlarga taqadik. Tarixdan ma’lumki, Misr bugungi kungacha rivojlandi, vayron etildi, yangidan barpo qilindi, ko‘plab urushlarni boshidan o‘tkazdi. Natijada Misr tarixi, madaniyati sohasidagi ko‘p jihatlar mavhum bo‘lib qolgan edi. Sharqshunos, arxeolog, tarixchi olimlar tomonidan bu muammolarga yechim topish maqsad qilindi va bugungi kunda uning tarixidagi sirli sahifalar ochildi va tilga kirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bularning barchasi Sharqshunoslikda misrshunoslik deya nomlangan sohaning paydo bo‘lishiga zamin yasadi.

Misrshunoslik-sharqshunoslikning qadimgi Misr tili va yozuvi tarixi, madaniyati va arxeologik yodgorliklarini o‘rganuvchi sohasi. Parijda

Qadimgi yozuvlar akademiyasida fransuz olimi F.Shampolyon Misr iyeroglifik yozuvlarini o‘qish ustidan olib borgan tadqiqotlari to‘g‘risida axborot bergan vaqti Misrshunoslikka asos solingan kun sifatida qabul qilingan. Bu sana 1822-yil 22-sentyabr hisoblanadi.[1]

Ta’kidlab o‘tilganidek, Shampolyon misrshunoslikda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Buning natijasida nafaqat Misr tarixiga oid bo‘lgan balki qo‘shni mintaqalar bilan Misr o‘rtasidagi aloqalar, bugungi kunda manbalarda aksariyat uchramaydigan elatlar-u davlatlarning nomi ham aynan Misr iyerogliflarini o‘qish orqali bizga ma’lum bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Shampolyon Rozett shahri yaqinidan topilgan toshdagi uch tilda yozilgan matnlar va yozuvlarni o‘rganish jarayonida bu yozuvlarni o‘rganish yo‘lini topgan va shu asosda Misr yozuvi lug‘ati va grammatikasini tuzgan.1820-30-yillarda Shampolyon Misrga ekspeditsiya uyushtirdi, u yerda bir qancha yodgorliklarni to‘plab ular to‘g‘risida ilmiy xulosalar berdi.[2]

Rozetta bitigi 1799-yilda Misrning Iskandariya shahri yaqinidagi Rozetta shaharchasidan topilgan granodioritdan iborat plita. Bitikda qadimgi Misr tilida qadimgi iyerogliflar asosida va Misr demotik alifbosi qadimgi yunon tilida bitilgan matnlar bor. 1802-yildan buyon u Britaniya muzeyida YeA 24-raqami ostida saqlanmoqda. Bitik matnida miloddan avvalgi 196-yilda Misr kohinlarining Ptolomeylar sulolasidan bo‘lgan hukmdor Ptolomey V Yelifanga yo‘llagan minnatdorchilik maktubi ifodalangan.[3]

Ma’lumki, yangi davrga kelib qadimgi Misr yozuvini o‘qish juda mushkul ish bo‘lib uni o‘qish uchun hech qanaqa yordamchi manbalar ham bo‘lmagan deb hisoblashgan. Shampolyon esa matnlarni taqqoslash orqali ularni o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Bu jarayonda Shampolyonga yordam bergan jihat yunon tilida ham ushbu matnning mavjudligi edi.

Shampolyonga qadar Misr yozuvini o‘rganishga ko‘plab olimlar harakat qilishdi. Masalan XVII Kircher bir qancha ilmiy asarlar yozgan va bu asarlarida u iyerogliflar sirini ochishga urinib ko‘radi. Uning misrshunoslikka qo‘shgan hissalaridan biri yana shunda ediki, kopt tilini qadimgi Misr tilining avlodi ekanligi haqida fikrlar berib o‘tadi. XVIII asrda de Guin, Tsoega va boshqa olimlar Misr iyerogliflari qisman tovushlarni

[1]O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.
[2] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.
[3] Pulatova D.A., Qodirov M., Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. T.,2018 yil. B. 93.

bildirishini va oval ramkalar o‘z ichiga qirollikning ba’zi nomlarini olganligi haqidagi fikrlarini o‘z tasdig‘ini topadi.[1]

Napoleon Bonapartning Misrga yurishi va “Misr tasviri deb nomlangan asarning nashr etilishi bilan qadimgi Misr va uning xalqi to‘g‘risidagi ko‘pgina ma’lumotlarni yevropaliklar qo‘liga tushishiga olib keldi. Arablar istilosidan keyin faqat nasroniy misrliklar, koptlar grek belgilarida yozilgan qadimiy tilni saqlab qolishgan. Bundan tashqari hukmdorlarning, ularning vorislari hamda fuqarolarning hujjatlari, shuningdek, Misrning qurg‘oqchil iqlimi tufayli yaxshi saqlangan arxeologik materiallari Misrshunoslik tadqiqotlari uchun manba materiallaridir.[2]

Misrshunoslik sohasining rivojlanishida g‘arb vakillarining bu hududga bo‘lgan qiziqishlari ham katta ahamiyatga ega. Siyosiy va mafkuraviy jihatdan egallashga uringan davlatlari bo‘lmish Misrni keng miqyosda qiziqish va ishtiyoq bilan o‘rganishdi.

1951-yilda Misrda sistematik qazish ishlari olib borildi. Fransuz olimi Mariet Memfis yaqinidagi Sakkarada olib borgan qazish ishlaridan keyin Misr muzeyi va “Merosini o‘rganish” jamiyatini ochdi. Misrni o‘rganishda Erman asos slogan Berlin maktabi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu maktab filologiya sohasida tadqiqotlar olib bordi va ko‘p jildlik Misr lug‘atini tuzdi. XIX asr oxiri va XX asr boshida fransuz arxeologi Pitri Flinders qadimgi Misr fir’avnlari sulolasi hukmronligigacha bo‘lgan davr va ilk sulola davrini o‘rgandi.[3]

Misrni yevropaliklar tomonidan o‘rganish faqat uning yozuvi bilan cheklanib qolmadi. Balki uni o‘rganish uning barcha madaniy sohalarini qamrab olganini bir qancha misollar orqali ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bu sohada ko‘plab yevropalik olimlarning amalga oshirgan tadqiqotlar misrshunoslik rivojlanishida muhim o‘rin egalladi.

Rossiyada Misrni o‘rganish XIX asrning birinchi yarmidan boshlandi. Dekabrist Batenkov 1824-yilda Shampolyonning “Iyeroglifik tartib ocherklari” deb nomlangan asarini qisqacha tahlil qildi. 1826-yilda imperator Fa Milanda qadimgi Misr osori-atiqalarini sotib olib, ularni Ermitajga berdi. XIX asr oxirida Golenishchev Misrga bir necha marta ekspeditsiyalar uyushtirdi. U Qohira Universitetida Misrshunoslik kafedrasini ochdi.

Yangi podsholik davri yodgorliklarini o‘rganishda nemis, ingliz, Amerika olimlarining Armanada olib borgan qazishmalari ham muhim o‘rin

[1] Авдиев В.И. История древнего Востока. М. 1970 г. С. 126.
[2] www.britannica.com/science/Egyptology
[3] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.

egalladi. Ilk sulola hukmronligi va qadimgi podsholik davri tarixini o‘rganishda ingliz arxeologi K. Emeri va Misr olimi Salim Xasan va Abu Bakrlarni Sakkara va G‘azzodagi qabristonlarda olib borgan izlanishlarining natijalari ham misrshunoslikda muhim o‘ringa ega.[1]

Ko‘rinib turibdiki, Qadimgi Misr o‘zidan yuksak madaniyat qoldirdi. Shampolyon uning yozuvlarini o‘qishga erishgandan so‘ng, boshqa soha olimlari ham uning asrlariga murojaat qilishdi va tizimli ravishda ish olib borishdi. Bu mamlakatning tarixi va uning sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lishi juda uzoq davrlarga borib taqaladi va Misrning har bir podsholik davri juda katta davrlarni qamrab oladiki bu jarayonda misrshunoslardan o‘ta sinchkovlik va aniqlilik talab etiladi. Chunki, tarixning har bir qismi bugungi kun uchun ahamiyatlidir.

Misr hududidan topilgan qadimgi Misr madaniyatiga ta’luqli bo‘lgan barcha predmetlar bizda bu mamlakatning o‘tmish tarixi borasida xulosalar hosil qilishimizda katta yordam beradi. Qadimgi Misr me’morchiligining eng e’tiborga arzirli jihati bu-uning me’morchiligi hisoblanib, oradan qancha vaqt o‘tsa-da hali-hamon o‘z mahobati-yu go‘zalligini saqlagan holda maftunkorligi bilan kishilarni o‘ziga chorlamoqda.

Misrda 4-sulola davriga kelib, piramidalar qurish katta davri boshlandi. Ta’kidlanishicha, Misrda 70 dan ortiq piramida bor. Ular Sakkarax va Dashurdan to G‘arbdagi Xauvaragacha cho‘zilgan. Har bir piramida faqat bitta fir’avnning qabridan iborat bo‘lgan. Joser podsholik qilgan davrdan so‘ng malikalar ham o‘zlari uchun shaxsiy piramidalar qurdira boshlaydilar. Bu piramidalar kichikroq va erlari qurdirgan piramidalar yonida joylashgan edi. Barcha maqbaralar Nil daryosining g‘arbiy qirg‘og‘ida ularning tasavvurida botayotgan quyosh mamlakatida joylashgan. Xufu tomonidan qurilgan mashhur Qohira yaqinida joylashgan piramida va undan u qadar uzoq bo‘lmagan uning vorislari Xefren va Mikerinoslarning piramidalari bir butunlikda ta’sirchan arxitektura ansambli sifatida mashhur.[2]

Hech kimga sir emaski, piramida qurish oson emas va ushbu piramidalar juda katta mablag‘ va mehnat talab etgan. Uni qurishning hukmdorlar uchun asosiy zaruriyatga chiqish sabablaridan biri diniy tasavvur hisoblanadi. Mana shunday sabablar orqali ularning ijtimoiy tafakkurlari va falsafiy qarashlarini bilib olishimiz mumkin. O‘z navbatida shuni aytib o‘tish joizki, bunday katta xarajatlar o‘rni kelganda dushmanlar

[1] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.

[2] Pulatova D.A., Qodirov M., Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. T.,2018 yil. B. 81-82.

tomonidan Misrni hech qiyinchiliksiz qo‘lga kiritishlariga asosiy sabablaridan biri bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa ajab emas.

Misrni va unda hukm surgan ijtimoiy hayotni bilish va o‘rganishda topilgan turli qadimiy ashyolar, uy ro‘zg‘or buyumlari, haykaltaroshlik va tasviriy san’at namunalari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab haykallar va haykalchalar, haykaltaroshlik va rassomlarning eskizlari, qabrlar devorlaridagi bo‘rtma naqshlar va rasmlar, papirus varaqlarini bezatgan chizmalar va vinyetlar qadimgi misrliklarning o‘ziga xos san’atining yuksak rivoji haqida tasavvur hosil qiladi. Turli xil xudolar, tumorlar va san’at asarlarining haykaltaroshlik tasvirlari tarixchiga nafaqat turli xil materiallarni (tosh, loy, yog‘och, metall) qayta ishlash usullarini tasavvur qilish, balki tarixning bir qator masalalarini o‘rganish imkonini beradi.

Mis va bronzadan yasalgan asbob-uskunalar, qurollar va boshqa buyumlar Misr metallurgiyasini o‘rganish imkonini beradi. U asosan chet eldan keltirilgan rudaga asoslangan va juda sekin rivojlangan. Qimmatbaho metalldan yasalgan badiiy buyumlar, tilla va kumush taqinchoqlar, uzuklar va bilakuzuklar, bezakli mebellar, turli ajoyib matolar hunarmandchilikning yuqori asosda taraqqiy etganidan dalolat beradi.[1]

Misr va Misr madaniyatini o‘rganishda hech bir elementni ko‘zdan qochirib bo‘lmaydi, chunki ularning hammasi olis o‘tmish haqida bizda qanaqadir fikr uyg‘otadi yoki biror dalil yoki faktni isbotlashda kerakli manba vazifasini bajaradi.

Misrning tarixiy davrlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, O‘z vatani tarixini yozgan kohin Manefon qadimgi Misr tarixini to‘rtga bo‘lib: Qadimgi(mil.avv.III minginchi yil), O‘rta (mil.avv.III minginchi yil oxir-II minginchi yil boshlari), Yangi (mil.avv.1580-1070-yillar), So‘ngi (mil.avv. 1070-332) podsholik davrlariga bo‘ladi. Bu davrlar jami 30 ta fir’avnlar sulolalarini o‘z ichiga olgan. Qadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma’nodagi namunasi bo‘ldi.[2]

Misrning qadimgi tarixida amalga oshirilgan shu kabi ishlar bugungi kunda uni o‘rganishimizda yordam beradi. Va o‘sha davr odamlarining o‘z tarixlariga qiziqish bilan qaraganliklarining va bugungi kunda shunga o‘xshash ishlar Misr tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanayotganiga guvohmiz.

Misrni o‘rganish uchun u yerda hanuzgacha arxeologik qazilma ishlari davom etib kelmoqda. Bu haqida bir qator maqolalar chop etilmoqda va bu

[1] Авдиев В.И. История древнего Востока. М. 1970 г. С. 126.

[2] Pulatova D.A., Qodirov M., Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. T.,2018 yil. B. 37.

haqda rasmiy saytlar ham o‘z bayonotini berib o‘tmoqda. 2022-yil 23- martda Artnet News xabar qilganidek arxeologlarning 4 minginchi yilga oid bo‘lgan beshta qabrni topishgani va mutaxassislar 50 dan ortiq dafn shaxtalarini shu jumladan, oltinchi sulolaning birinchi fir’avni Tetining rafiqasi Nearitga tegishli bo‘lgan dafn shaxtasi topildi. Misr hukumati qazish ishlarini yana davom ettirmoqchi ekanligi aytiladi. [1]

Misr madaniyati bevosita dunyo madaniyatning bir qismi sifatida va jahon sivilizatsiyasi rivojiga yuksak hissa qo‘shgani har doim ta’kidlanadi. Undagi madaniy obidalar dunyo madaniyati durdonalari safidan joy olgan. Jumladan, Asvon to‘g‘oni qurilishi davrida suv osti zonasida qolishi mumkin bo‘lgan tarixiy obidalarni saqlab qolish maqsadida 1960-yilda YUNESKO qoshida xalqaro qo‘mita tuzildi.[2]

Xulosa sifatida, Misr nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda ilk davlatchilik elementlari paydo bo‘lgan va o‘zidan yuksak madaniyat qoldirganligini yana bir bor ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. XIX asrda asos solingan misrshunoslik ham Misr tarixi dunyo tarixining bir qismi ekanligiga ishora. Shu o‘rinda misrshunoslik Misr tarixi, yozuvi, arxitekturasi bir so‘z bilan aytganda uning madaniyatini anglashda metod vazifasini bajaradi. Uni o‘rganishda aniq konsepsiya mavjud bo‘lib bugungi kungacha bir qancha tizimli ishlar amalga oshirildi. Shuni aytib o‘tish joizki, Misrning o‘tgan davrlarda yaratgan madaniyati hozirgi davrda yashayotgan misrliklarning ijtimoiy hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, Juda katta turistlar oqimi tashrif buyuradigan Misr iqtisodiga yaxshi ta’sir o‘tkazmoqda.

Misrning tarixi va uni o‘rganishda ushbu ko‘hna mamlakatga nisbatan dunyo ahli orasida yanada qiziqish uyg‘otish uchun ko‘pgina davlatlarda turli kitoblar, ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, maqolalar chop etib kelinmoqda. Bundan maqsad Misrni chuqur o‘rganish va hali kashf etilmagan qirralarini ochishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.
2. Pulatova D.A., Qodirov M., Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. T.,2018 yil. B. 93.
3. Авдиев В.И. История древнего Востока. М. 1970 г. С. 126.
4. www.britannica.com/science/Egyptology
5. www.Artnet News

[1] www.Artnet News

[2] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 y. B. 26.

QORAQALPOG‘ISTONNING ALOHIDA HUDUD SIFATIDA O‘RGANILISHI (XX ASR 20-30 YILLAR)

Sohiba BOYSARIYEVA
Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti,
Ilmiy rahbar: PhD, dots v.b., M.M. Askarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston hududining XX asr 20-30 yillarida ilmiy tadqiq etishi bilan bog‘liq jarayonlar, ularning sabablari, asosiy ishtirokchilari, ekspeditsiyalar natijalari ochib berilgan. Bundan tashqari, har bir olimning tadqiqot olib borgan yo‘nalishlari, yozgan asarlari va ularning ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Bu davrning qoraqalpoq etnografiyasi uchun tarixiy ahamiyatiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, etnografiya, ilmiy ekspeditsiya, moddiy va ma’naviy madaniyat, qoraqalpoq xalqi.

Qoraqalpog‘iston tarixi bo‘yicha sovet tadqiqotchilarining ilk qadamlari tarixiy hujjatlar, etnografik materiallar to‘plash, o‘lkashunoslik tadqiqotlari bilan boshlandi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati deb o‘zgartirilgan sobiq Amudaryo bo‘limi aholisi qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bilan qisman qamrab olindi. Hududi va aholisi haqidagi ma’lumotlar A.N.Maksimovning ishida e’lon qilingan.

Volostlar tomonidan viloyat aholisining milliy tarkibi haqidagi materiallar 1920-yildagi Butunrossiya aholini ro‘yxatga olishning davomi bo‘lgan Amudaryo viloyatida namoyon bo‘lib, 1921-yil yozida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalari 1923-yilda Toshkentda nashr etilgan.

O‘rta Osiyoda 1924-yilda o‘tkazilgan milliy chegaralanish munosabati bilan O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tomonidan Buxoro va Xorazm, shuningdek, Qoraqalpog‘istonning chap qirg‘oq qismi va bu ishlarning natijalari, jumladan, aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimli ravishda o‘rganib chiqildi. Chap qirg‘oq mintaqalari qoraqalpoqlari tarixining alohida masalalari va ularning soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar P.P.Ivanovning “Markaziy Osiyoni mintaqaviylashtirish bo‘yicha materiallar”da nashr etilgan.

20-yillarning dastlabki asarlari O‘rta Osiyoda sotsialistik qurilishning dastlabki bosqichi talablaridan kelib chiqib yozildi. Qoraqalpog‘istonda tarix fanining shakllanishi va rivojlanishidagi muhim bosqich milliy-davlat chegaralanishi bo‘ldi.

Qoraqalpoq avtonom viloyatining tashkil topishi qoraqalpoq xalqi hayotida yorqin tarixiy voqea edi. Bunday sharoitda o‘z tarixini keng bilishga qiziqish tabiiy ravishda o‘sishda davom etdi. Qoraqalpog‘iston tarixiga oid materiallar to‘plash yanada kengroq olib borila boshlandi. Turkiston xalqlarining o‘tmishi va buguni haqidagi ilmiy bilimlar keng tarqala boshladi. Moskva va Toshkentda nafaqat hudud va aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, balki O‘rta Osiyoda milliy davlat qurilishiga oid dastlabki qisqacha umumlashtirishlar, faktik materiallar ham o‘z ichiga olgan turkum ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar nashr etildi.

1920-yillarda avtonom viloyat hududida SSSR Fanlar akademiyasining turli ekspeditsiyalari ish olib bordi, bu esa o‘lka tabiiy boyliklarini tizimli o‘zlashtirish, qoraqalpoq xalqi madaniyati va tarixini o‘rganishga zamin yaratdi. 1920-yillarning ikkinchi yarmida Qoraqalpog‘istonda SSSR FA Etnografiya instituti xodimi G.Shuls tomonidan materiallar to‘plangan. Uning ma’ruzalarida qoraqalpoqlarning soni, ularning turmush tarzi, Qoraqalpoq avtonom viloyatidagi irrigatsiya va dehqonchilikka oid ma’lumotlar e’lon qilindi.

1926-1930-yillarda qoraqalpoqlarni ekspeditsion etnografik va dialektik tadqiq qilish ishlari olib borildi. Akademik M.Q.Nurmuhamedov yozishicha: “1926-yilda N.A.Baskakov yo‘ldan qayoqqadir piyoda, qayergadir eshagida qishloqma-qishloq yurib, til va xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plagan”. N.A.Baskakov ushbu ekspeditsiya ishi haqida shunday yozgan edi: “1926-1930-yillardagi birinchi sayohatlar dialektik maqsadlardan ko‘ra ko‘proq etnografik maqsadlarni ko‘zlagan edi”.

Ekspeditsiya ishiga mashhur sharqshunos olim S.E.Malov boshchilik qildi. Unga keyinchalik viloyat xalq ta’limi boshqarmasida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan N.A.Baskakov, A.S.Morozova, o‘lkashunoslik muzeyi boshlig‘i N.V.Torchinskaya, etnograf A.Davlet, shuningdek, yosh qoraqalpoq tadqiqotchilari Q.Ergaliyev, Q.Ubaydullayev, T.Bekimbetov va boshqalar kirgan.

Ekspeditsiyada boy etnografik kolleksiyalar, zargarlik buyumlari, qoraqalpoq ayollar libosi namunalari, cholg‘u asboblari va boshqalarni to‘plangan. Ekspeditsiya materiallari 1930-yilda yaratilgan Qoraqalpog‘iston o‘lkashunoslik muzeyi fondlari asosini tashkil etgan.

Ekspeditsiya faoliyati tarixiy va etnografik materiallarni to‘plash va o‘rganishning yanada uyushqoqlik bilan boshlanishini ko‘rsatdi. Qoraqalpog‘istonda doimiy ilmiy-tadqiqot muassasalari tashkil etish, ularni ilmiy kadrlar bilan ta’minlashni zamon qat’iyat bilan talab qildi. Tabiiyki, o‘z faoliyat doirasi sezilarli darajada kengaygan taqdirda ham, akademik

ekspeditsiyalar bu vazifalarni bajara olmadi. Tizimli ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ularning subyektlarini dolzarb muammolarni hal qilishga maksimal darajada yaqinlashtirish talab qilindi.

Qoraqalpog‘iston muxtor viloyatining partiya va davlat organlari 1931- yilda Qoraqalpog‘istonda ilmiy muassasalar tashkil etish iltimosi bilan SSSR Fanlar akademiyasiga murojaat qildilar. Bu masalani amaliy hal etish uchun SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi To‘rtko‘lga o‘z vakillarini yubordi. 1931-yil 23-mayda u sohada ilmiy muassasalar tashkil etish masalasini ko‘rib chiqdi va SSSR Fanlar akademiyasining bazalari va stansiyalari tarmog‘ini tashkil etishni boshlash zarurligini tan oldi. Ularni yaratish rejasiga akademiklar V.L.Komarov, I.M.Gubkin, A.S.Fersman va boshqalar kiritilgan.

1931-yil 27-iyunda SSSR Fanlar akademiyasining Moskvaga tashrif buyurgan sessiyasi O‘rta Osiyoda ilmiy muassasalar tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu muassasalar har tomonlama xarakterga ega bo‘lib, mahalliy respublika va viloyat tashkilotlariga ilmiy muammolarni hal qilishda yordam berishi kerak edi.

Institut faoliyatining dastlabki bosqichida jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi, bu esa malakali olimlarning yetishmasligi, ilmiy kadrlarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi bilan bog‘liq edi.

RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining 1931-yil 1-avgustdagi qarorida “Qoraqalpoq avtonom viloyatining kadrlar bilan nihoyatda zaif ta’minlanganligini hisobga olib, RSFSR xalq komissarliklarini RSFSR xalq komissarliklari zimmasiga yuklatish uchun zarur choralar ko‘rish majburiyatini yuklasin”, deyilgan edi. Qoraqalpog‘istonga kerakli ixtisoslikdagi ishchilarni tezroq ko‘chirish zarurati paydo bo‘ldi.

Tez orada institutda 50 nafar oliy ma’lumotli mutaxassis ishlashni boshladi. Ular orasida besh nafar professor va olti nafar dotsent bor edi. Ular qatorida professor A.A.Sokolov, SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi S.E.Malov, N.A.Baskakov, A.S.Morozova va boshqa taniqli olimlar ham bor edi.

Institut asosiy e’tiborini Qoraqalpog‘iston tarixi muammolarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishga qaratdi. Shunday qilib, ilm-fanning, jumladan, Janubiy Orolbo‘yi xalqlari tarixi fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan birinchi Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot muassasasi tashkil etildi.

Muxtor respublika ilmiy muassasalariga Qoraqalpog‘iston tarixiga oid materiallarni to‘plash, tizimlashtirish, qayta ishlash va o‘rganishda aniq yordam ko‘rsatish uchun SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi 1932-yilda Sharqshunoslik institutida rahbarligida maxsus guruh tashkil etdi. Guruh

rahbari akademik A.N.Samoylovich, a’zolari sifatida N.N.Palmov, P.P.Ivanov, A.I.Ponomarev, S.N.Chernov va boshqalar tanlandi. Guruhning asosiy vazifalariga qoraqalpoq xalqi tarixini rivojlantirishga doir materiallarni to‘plash va tizimlashtirish belgilandi.

Masalan, A.I.Ponomarev XVIII-XIX asrlarda rus tilida nashr etilgan rasmiy nashrlarda qoraqalpoqlar haqidagi turli xil tarixiy aktlarni aniqlay boshlagan edi. Uning tadqiqot obyekti rus hokimiyati vakillari va qoraqalpoq qabila elitasi o‘rtasidagi aloqalar jarayonida yuzaga kelgan turli xatlar, yozishmalar va xabarlar bo‘lgan.

A.N.Samoylovich esa XIX asr Xiva xonlarining saroy tarixchilari Munis va Ogahiy tomonidan tuzilgan Xiva tarixiy yilnomalarini o‘rganishga kirishdi. U qo‘lyozma asarlardan qoraqalpoqlarning 1842-yilgacha bo‘lgan tarixiga oid ma’lumotlarni ajratib olishga, XVIII asrdan — XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda qoraqalpoq xalqining siyosiy hayotini tavsiflovchi keng qamrovli materiallar ajratishga muvaffaq bo‘ldi.

N.N.Palmov ham muhim natijalarga erishib, Astraxan arxividan XVIII asrning birinchi yarmida Volga qalmoqlari va qoraqalpoqlar o‘rtasidagi munosabatlarga oydinlik kirituvchi materiallarni aniqladi. Bundan tashqari, olim XIX asrdagi qoraqalpoqlarning hayoti va turmush tarziga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan sayohatchilar va turli amaldorlarning xabarlarini o‘rgangan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida jamoa qoraqalpoqlar tarixiga oid salmoqli materiallarni (20 ta bosma varaq) aniqlab, chop etishga tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi.

Bu borada SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutining ulkan ishlarini ta’kidlash lozim, uning xodimlari juda muhim vazifani hal qildilar. Akademik A.N.Samoylovich rahbarligida ular tarixga oid deyarli barcha yozma manbalarni tizimlashtirib, ilmiy qayta ishladilar. Bu ish hozirgi kunda ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

SSSR Fanlar akademiyasi kompleks ekspeditsiyasi va Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari tomonidan Qoraqalpog‘iston ASSR iqtisodiyoti, madaniyati va tarixini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ayrim natijalariga bag‘ishlangan konferensiya yakunlandi. 1933-yil 18-25-martda Leningradda bo‘lib o‘tgan bu yig‘inda ko‘zga ko‘ringan olimlar: SSSR Fanlar akademiyasi prezidenti, akademiklar A.P.Karpinskiy, V.L.Komarov, V.P.Volgin, M.I.Gubkin, S.A.Zernov, A.F.A.Keller, N.S.Kurnakov, S.F. Fersman va boshqalar ishtirok etgan.

Konferensiya ishida yetakchi respublika tashkilotlari vakillari, Qoraqalpog‘iston ASSR yosh olimlari ham ishtirok etdilar. Ular orasida

Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Q.Nurmuhamedov, KKASSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o‘rinbosari D.M.Loginov, Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy-tadqiqot instituti direktori A.A.Gnedenko, tadqiqotchilar S.E.A.Baska, K. Ubaydullayev va I.A.Baska kabilar bor edi.

Anjumanda Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari tomonidan iqtisodiy va ilmiy muammolarga bag‘ishlangan 30 dan ortiq ma’ruza o‘qib eshittirildi. Ulardan 13 tasi Qoraqalpog‘iston ASSRda doimiy istiqomat qiluvchi olimlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, bu avtonom respublikada mahalliy kadrlar tayyorlash va ilm-fan rivojida erishilgan yutuqlardan dalolat beradi.

Qoraqalpog‘iston ishlab chiqaruvchi kuchlarini o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi anjuman milliy tarix fanining shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim voqea bo‘ldi. Konferensiya uning ishida qatnashgan yosh qoraqalpoq olimlari uchun yaxshi maktabga aylandi.

Qoraqalpog‘iston ASSR ishlab chiqaruvchi kuchlarini o‘rganish bo‘yicha birinchi konferensiya tavsiyalaridan kelib chiqib, 1933-yil 19- aprelda SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzurida “Qoraqalpoq komissiyasi”ni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qoraqalpog‘iston ASSRga aniq yordam ko‘rsatish maqsadida komissiya tarkibiga mamlakatning taniqli olimlari – akademiklar S.F.Oldenburg, A.N.Samoylovich va SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi S.G.Tomsinskiy va boshqalar kirdilar.

Qoraqalpog‘iston ASSRda tarix sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishda bevosita yordam ko‘rsatish uchun professorlar A.A.Sokolov, P.P.Ivanov va boshqalar yuborildi. Ushbu komissiya ko‘magida Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy kutubxonasi tashkil etildi. “Qoraqalpoq komissiyasi”ning vazifalari qatoriga Amudaryoning quyi oqimining moddiy madaniyati tarixini o‘rganishni tashkil etish ham kiritilgan.

Kompleks ilmiy-tadqiqot institutining tarixiy bo‘limi SSSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston komissiyasi bilan birgalikda 1933- 1937- yillarga mo‘ljallangan qoraqalpoqlar tarixini o‘rganish bo‘yicha besh-yillik ish rejasini tuzdi. Qoraqalpog‘istondagi milliy ozodlik harakati tarixi, Oktyabr inqilobi, fuqarolar urushi va madaniy qurilishga oid savollarga alohida e’tibor qaratildi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, XX asrning 20-30 yillari qoraqalpoq xalqi etnografiyasini chuqur o‘rganish jarayonini boshlanish davri bo‘ldi. Bu davrda ko‘plab ekspeditsiyalar tashkil etilib,

aholini moddiy va madaniy madaniyatini dala materiallari asosida o‘rganish yanada chuqurlashib, yangi tadqiqotlar uchun zamin hozirlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванов П. П. Население Средней Азии. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 г.—Ташкент, 1926. — С. 87-106.
2. Комков Г.Д., Левшин Б.В., Семенов Л.К. Академия наук СССР. Краткий исторический очерк. – М.: Наука, 1974. — С. 298
3. Максимов А. Н. Какие народы живут в России. Справочник. – М., 1919
4. Материалы по районированию Средней Азии, кн. 2. Территория и население Бухары и Хорезма.—Ташкент, 1926, ч. 2
5. Материалы Всероссийской переписи 1920 г. Перепись населения в Туркестанской республике.- Ташкент, 1923, ч. 1, вып. 2
6. Ўзбекистон ССР тарихи. Т.I. Иккинчи китоб. – Тошкент, 1957.
7. Шульц Г. Каракалпаки дельты Амударьи. Этнограф-исследователь, 1928. №2-3. – 120 с.

HIND-ORIY VA ERONIY XALQLARNING KELIB CHIQISHIDAGI MUSHTARAKLIKNING ORIYLAR MIGRATSIYASI BILAN BOG‘LIQLIGI

Shohjahon SA’DULLAYEV
TDSHU 1 kurs magistri
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. M.H. Abdurahmonova

Tarixning turli davrlarida Markaziy Osiyo, Eron platosi, ya’ni yassitog‘ligi hamda Hindiston subkontinentining shimoliy va shimoli-g‘arbiy hududlarida yashagan xalqlar madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda lisoniy jihatdan yaqin bo‘lganligi olimlar tomonidan tasdiqlangan. Ammo ushbu mushtarak jihatlar qachon va qay tarzda paydo bo‘lgani xususida fanda yakdil to‘xtam mavjud emas. Janubiy Osiyoning ba’zi mahalliy olimlari bu jarayonning avtoxton tarzda, ya’ni hech qanday ko‘chishlarsiz, mahalliy aholining taraqqiyoti va o‘zaro yaqin munosabatlari natijasida sodir bo‘lganini ilgari sursa, Yevropa va Markaziy Osiyo olimlari bu masala asli bir necha ming yillar oldin “oriylar” deb atalgan tarixiy elatlarning keng ko‘lamli migratsiyalari fonida sodir

bo‘lganini ta’kidlaydi. E’tiborli jihati shuki, migratsiya, oriylarning keng ko‘lamli ko‘chishi tarafdorlarida ham yagona yo‘nalish mavjud emas. Bu esa migratsiya bilan bog‘liq aniq tasavvurni shakllantirish uchun manba va dalillarni qayta tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Maqolada ushbu masalaning yechimi sifatida bir qancha olimlarning nazariyalari tahlilidan kelib chiqqan xulosalar keltiriladi.

Hind-Yevropa xalqlari alohida ajralib shakllangunga qadar ular umumiy bir elatni tashkil etgan. Tarixchilar bu elatni shartli ravishda protohindyevropaliklar, ya’ni hozirgi hind-yevropa tillarida so‘zlashuvchi xalqlarning dastlabki ajdodlari deb ataydi. Protohindyevropaliklar haqidagi bilimlar, asosan, arxeologiya va arxeogenetikadan, ya’ni qadimgi odamlarning suyaklarida saqlanib qolgan DNK namunalarini tadqiq etish orqali olingan ashyoviy dalillar bilan bir qatorda lingvistik rekonstruksiyalardan, qadimgi tillarni qayta tiklashdan kelib chiqadi. Ularning asl vatani va yashagan davri xususida ikki mashhur model, ya’ni yondashuv mavjud: Anadolu modeli va “Qo‘rg‘on” modeli.

Anadolu modeliga ko‘ra, hind-yevropa tillari m.a. VII mingyillik atrofida neolit davrida yuzaga kelgan dehqonchilik taraqqiyoti natijasida Kichik Osiyodan Yevropa va Osiyoning boshqa hududlariga xalqlarning tinch yo‘l bilan aralashishi oqibatida vujudga kelgan bo‘lib, bu gipoteza, ya’ni faraz dastlab britaniyalik arxeolog K.Renfreu tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq bu model ko‘plab olimlar tanqidiga uchradi. “Qo‘rg‘on” gipotezasi (Qo‘rg‘on modeli yoki Dasht modeli deb ham yuritiladi) esa birinchi marta O. Shreyder (1891) va V. Gordon Childe (1926) kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan[1]. 1950-yillarda esa M.Gimbutas tomonidan izchil tizimga solingan. Ushbu madaniyat aholisi ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘lib, ular m.a. III mingyillik boshlarida Pont-Kaspiy dashtlari va Sharqiy Yevropa bo‘ylab keng tarqalgan.

Ilk hind-eroniylarning Yaqin Sharq, O‘rta va Janubiy Osiyoga qachon va qaysi hududdan kirib kelganligi xususida olimlar uzoq yillardan beri aniq to‘xtamga kelmagan. Hind-eroniylarning migratsiyasiga oid qarashlarni umumlashtirib, Yaqin Sharq, Dasht va avtoxton nazariyalariga ajratish mumkin.

Yaqin Sharq gipotezasi T.V. Gamkrelidze va V.V. Ivanovlar tomonidan 1972-yilda shakllantirilgan[2]. Ushbu gipoteza hind-yevropa tillari doirasida

[1] Renfrew C. Archaeology and language: the puzzle of Indo-European origins. – CUP Archive, 1990.

[2] Гамкрелидзе Т. В., Иванов В. В. Проблема определения первоначальной территории обитания и путей миграции носителей диалектов общеиндоевропейского языка

Kavkaz va qadimgi Sharq tillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazarda tutgan holda oriylarning asl vatani m.a. IV mingyillik atrofida Sharqiy Anadolu bo‘lgani haqidagi konsepsiyani, ya’ni tushunchani ilgari suradi. Nazariya asosida shuni anglash mumkinki, qadimgi hind-oriylar Mitanni va Hindistonga, eroniylar, xususan, skiflar (saklar) esa O‘rta Osiyo va undan ham shimoliy o‘lkalarga ko‘chib o‘tgan[1].

Sovet arxeologi V.I.Sarianidi Qadimgi Dunyodagi so‘nggi noma’lum sivilizatsiya – Baqtriya-Marg‘iyona sivilizatsiyasini (Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasi (BMAM) yoki Amudaryo madaniyati deb ham yuritiladi) kashf etishga urindi, BMAMning yaratuvchilari qadimgi eronliklar bo‘lganini isbotlashga harakat qildi. Tanqidchilar Amudaryo madaniyati Elam madaniyati ta’siri ostida vujudga kelganini ta’kidlaydi. Fransuz arxeologi H.D.Frankfort shunday deydi: “Oks sivilizatsiyasining ikonalar ramziy tizimida Hind-Yevropa alomatlari ko‘zga tashlanmaydi va bu II gipotezaga (Qo‘rg‘on gipotezasi) ham mos kelmaydi[2].

Boshqa tilshunoslar ham BMAM dehqonlari hind-eroniylar bu hududga kirib kelguniga qadar elamiy yoki dravid tillarida so‘zlashganini ta’kidlaydi[3]. Rus olimasi Y.Y.Kuzmina esa arxeologik va diniy-madaniy dalillarga tayanib, yakuniy fikrini aytadi: “Amudaryo madaniyatining oriylar bilan umumiylik jihatlari juda kam”[4].

Hind-eroniylarning asl vatani va ularning keyingi davrlardagi migratsiyalari xususidagi nisbatan ishonchli gipoteza – bu dasht gipotezasidir. Ushbu gipoteza Qo‘rg‘on gipotezasining mantiqiy davomi bo‘lib, D. Entoni, I.P. Mallori, K. Renfreu va Y. Kuzmina kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan. Gipotezaga ko‘ra qadimgi hind-eroniylarning asl vatani Yevroosiyo dashtlari bo‘lgan.

M.a. III mingyillik oxirlari-II mingyillikning I choragida Yevrosiyo dashtlarida katta etnik harakatlar, ya’ni xalqlarning ko‘chishlari sodir bo‘lgan. M.a. II mingyillikda dasht qabilalari Zarafshon vodiysigacha kirib kelgan. Ko‘chmanchi chorvador oriylar (hind-eroniylar) kirib kelguniga

---

//Конференция по сравнительной грамматике индоевропейских языков. – 1972. – С. 19- 22.

[1] Kuzmina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3. 297.

[2] Francfort H. P. The archaeology of protohistoric Central Asia and the problems of identifying Indo-European and Uralic-speaking populations // Eearly Contacts between Uralic and İndo-European: Linguistic and Archaeological Considerations. Helsinki. – 2001, 134-155.

[3] Witzel M. Substrate Languages in Old Indo-Aryan. (Ṛgvedic, Middle and Late Vedic) //Electronic Journal of Vedic Studies. – 1999. – T. 5. – №. 1. – С. 1-67.

[4] Kuz′mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3.302.

qadar bu hududda ziroatchilik va o‘troq turmush tarziga asoslangan Baqtriya-Marg‘iyona madaniyati taraqqiy etgan edi.

Dasht (Andronovo) qabilalari Baqtriya-Marg‘iyona aholisi orasida ustun mavqega erishgan va o‘z tillarini (ya’ni hind-eroniy tilini) qaror toptirgan. Endilikda ular BMAM madaniyati bilan qorishib ushbu yangi madaniyat janubga – Eron va Shimoli-g‘arbiy Hindistonga yaqinlashib borgan [1] . A.Parpola fikriga ko‘ra hind-eroniylar taxminan m.a. 2100- 1900- yillarda shimoldan kelib, Baqtriyada elita hukmronligini o‘rnatgan[2]. Shuningdek, olim hind-oriy tilini janubga oriylashgan BMAM xalqi olib kelgan, deb taxmin qiladi[3].

M.a. II-I mingyillikning boshlarida O‘rta Osiyo va Shimoliy Afg‘onistonda migratsiya to‘lqinlarining ketma-ketligini kuzatish mumkin. Veda matnlari shuni aniq ko‘rsatadiki, bu jarayonda xuddi xunlar va mo‘g‘ul istilolariga o‘xshab, butun aholi ko‘chib kelgan va boshqa etnik guruhlarning qabilalarini ham o‘z ichiga olib, ommaviy korporativ migratsiya xarakteriga ega bo‘lgan. Britaniyalik hindshunos T.Berrou Hindiston subkontinentidagi hind-oriy migratsiyasining bir necha to‘lqini mavjud bo‘lganini taxmin qiladi[4].

Hind-oriylarning Shimoliy Hindistondagi dastlabki manzilgohlaridan biri – bu Svat vodiysidir. Svat va Vaxsh vodiylari aholisi madaniyatiga xos umumiy jihatlar mavjud. Sovet arxeologi B.A.Litvinskiy arxeologik, lingvistik va antropologik, ya’ni inson qoldiqlaridan uning tashqi qiyofasini tiklash orqali olingan ma’lumotlarni hisobga olib, ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi dardlar va nuristoniylarning ajdodlari O‘rta Osiyodan kelgan oriylar guruhidir, degan xulosaga kelgan[5]. Svatga kelgan oriylar vedik oriylar bo‘lmagan. Ularning iqtisodiyoti va yashash tarzi butunlay boshqacha bo‘lgan. Vedik oriylar yarim ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, Svatga kelganlar mustahkam va barqaror turar-joylar qurgan hamda qishloq xo‘jaligi va chorvachilikni o‘zida mujassam etgan aralash iqtisodiyotni taraqqiy ettirgan[6]. Antropologik ma’lumotlarga ko‘ra,

[1] Mallory J. Indo-Europeans and the steppelands: the model of language shift //Proceedings of the Thirteenth Annual UCLA Indo-European Conference. – 2002. 13-14.
[2] Parpola A. From the dialects of Old Indo-Aryan to Proto-Indo-Aryan and Proto-Iranian. – 2002, 84-85.
[3] Kuz′mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3. 305.
[4] Burrow T. The Proto-Indoaryans //Journal of the Royal Asiatic Society. – 1973. – T. 105. – №. 2. – C. 123-140.
[5] Литвинский Б. А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов) //Индия в древности. М. – 1964. – С. 143-165.
[6] Kuz′mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3, 319.

dardlar va nuristoniylar vedik oriylarning Hindistonga kirib kelishidan oldingi migratsiya to‘lqiniga oid bo‘lgan[1].

Bundan tashqari hind-oriylarning Hindistonga kamida yana ikki migratsiya to‘lqini yuz bergan. Pokistonlik arxeolog A.H.Doni ham migratsiyaning keyingi ikki to‘lqini sodir bo‘lganini taxmin qiladi va buni u qabristonlar hamda dafn marosimlariga oid amallar orqali isbotlashga urinadi. Uning fikricha, birinchi to‘lqin – dastavval shimoldan kirib kelgan vedik oriylar bo‘lsa, ikkinchisi – oriylarga genetik qardosh bo‘lgan, m.a. X-IX asrlarda Hindistonga kirib kelgan *kuru*lar bo‘lishgan va ular Mahabharatda ham tasvirlangan[2]. Qo‘rg‘on-qabrga dafn etish, kuydirish, ot hamda Baqtriya tuyasining mavjudligi va ularga sig‘inishning boshlanishi ushbu manzilgohlarning Harappa bilan diniy-madaniy bog‘liqligining uzilishi, yangi istilochilarning kirib kelganidan dalolat beradi[3]. A.H.Doniy bu qabristonlar moddiy madaniyatini tahlil qilar ekan, uy-ro‘zg‘or buyumlari, xususan, sopol buyumlarning yasalishi (qo‘lda yoki kulolchilik charxida) va bezaklaridagi xilma-xillik yangi kelganlarning bir xil emasligini, moddiy madaniyat jihatidan farqlanishini ko‘rsatadi.

Rus olimlari T.Y.Yelizarenkova V.N.Toporovlar ham ilgari surib, doimiy yashash uchun mo‘ljallangan barqaror aholi punktlari vedik oriylarga ma’lum bo‘lmaganini ta’kidlaydilar[4].

A.Parpola J.Harmatta, R.Frye, T.Gamkrelidze va V.Ivanovlar tomonidan ilgari surilgan hind-eron birligi parchalanishining ancha oldinroq sodir bo‘lganligi nazariyasini rad etadi. U bu jarayonning m.a. III mingyillikda sodir bo‘lganini taxmin qiladi[5].

Y.Y.Kuzmina m.a. III-II mingyilliklarada shimoli-g‘arbiy Eron aholisining eronliklar bo‘lganligiga shubha bildiradi. U Erondagi ot bilan bog‘liq dafinalarning kimmireylar yoki skiflar tomonidan yaratilganinini rad etadi va ularni eroniylar migratsiyasining, ehtimol, Kavkaz orqali o‘tgan birinchi to‘lqini bo‘lganini ta’kidlaydi[6]. Rus olimi I.M.Dyakonovga ko‘ra,

---

[1]Same source, p. 320..

[2]Dani A. H. Gandhara grave culture and the Aryan problem //Journal of Central Asia. – 1978. – Т. 1. – №. 1. – С. 42-55.

[3] Kuz′mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – Т. 3, 309.

[4] Елизаренкова Т. Я., Топоров В. Н. Мир вещей по данным Ригведы //Ригведа. Мандалы. – 1999. – Т. 8. – С. 487-525. (489)

[5] Kuzmina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – Т. 3, 305.

[6] Кузьмина Е. Е. О соотношении типов андроновских памятников Урала (по материалам Кинзерского могильника) //Памятники древнейшей истории Евразии. М.: Наука. – 1975. – Т. 141. p.p. 118

Eronning shimoli-g‘arbiy hududlarida eroniy qabilalar m.a. II mingyillik oxirlarida paydo bo‘la boshlagan[1].

M.a. IX asrga oid Ossuriya va Urartu yilnomalarida birinchi marta Eron hududidagi eroniy nomlar, etnonimlar va toponimlar qayd etilgan[2]. Shunga binoan eroniylarning Eron platosiga ko‘chishi m.a. IX asrda boshlangan, deb taxmin qilinadi. Eronliklar kirib kelguniga qadar Eron hududida elamiylar, hurriylar, kassiylar, manna, kuti va lullabi kabi hind-yevropalik bo‘lmagan xalqlar yashagan. Toponimika va onomastika hamda Midiya va O‘rta Osiyo tillari o‘rtasidagi munosabatlar tahliliga tayangan I.Dyakonov oriylar etnosining kelib chiqishini O‘rta Osiyoga taqagan va ko‘chmanchi yilqichi eroniylar Eronga sharq dashtlaridan kirib kelganini aytgan[3]. Boshqa rus olimi M.M.Dyakonov Avesto dalillariga asoslanib, ularning iqtisodiy va madaniy turini qayta tiklashga harakat qilgan. U kulolchilik charxi ilk eroniylarga ma’lum bo‘lmaganini va bu jamiyatda hunarmandlarning alohida qatlami yo‘qligini aniqlagan[4].

M.a. I mingyillik boshlarida G‘arbiy Eron toponimlari asosan noeroniy bo‘lib qolgan. Bu mahalliy aholining ko‘chib kelganlardan ko‘pligini va yangi kelganlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi munosabatlar bir maromda kechganini anglatadi[5].

So‘nggi o‘ttiz yildan beri Hindistonda oriylar migratsiyasi nazariyasi rad etilib, avtoxton nazariya ilgari surilmoqda va ko‘pgina G‘arb arxeologlari ham nazariyani qo‘llab-quvvatlagan. Aniq arxeologik va lingvistik dalillarga tayangan holda shakllangan umumiy hind-eron migratsiyasi nazariyasi va sinovdan o‘tgan usullarni avtoxtonistlar shubha ostiga qo‘yganlar. S.G.Talageri[6] va S.S.Misra[7] singari olimlarning fikricha, oriy tilida so‘zlashgan hind-oriylarning bosqini nazariyasi (yoki “oriy istilosi”) Britaniya mustamlakachilik siyosatining o‘zini oqlash vositasidir. Hindistonga bostirib kirish va ularning keyingi mustamlakachilik hukmronligi ikkala holatda ham “oq irq” vakillarining mahalliy “to‘q

[1] Diakonoff, I. M. (1985), "Media", in Ilya Gershevitch (ed.), The Cambridge History of Iran, vol. 2, Cambridge, UK: Cambridge University Press, pp. 36–148,

[2] Kuz′mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3, 322.

[3] Дьяконов И. М. История Мидии: От древнейших времен до конца IV в до н. э. – М-Л. АН СССР, 1956. p.p. 74

[4] Дьяконов М. М., Дьяконов М. М. Сложение классового общества в Северной Бактрии //Советская археология. – 1954. – Т. 19. – С. 120.

[5] Дьяконов И. М. История Мидии: От древнейших времен до конца IV в до н. э. – М-Л. АНСССР, 1956. p.p. 159

[6] Talageri S. G. The Rigveda: a historical analysis. – Aditya Prakashan, 2000.

[7]Misra S. S. The Aryan problem: A linguistic approach. – 1992.

rangli” aholini bo‘ysundirish vositasi sifatida ilgari surilgan[1]. Ushbu olimlar qadimgi oriylarning Hindistonning mahalliy aholisi bo‘lganligini isbotlashga urinishgan va ularning Eron va boshqa hududlarga Hindiston orqali ko‘chib o‘tganini ilgari surgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi eroniy va hind-oriy xalqlari bir-biriga qardosh elatlar bo‘lgan va ularning kelib chiqishi ham mushtarakdir. Shuning uchun ushbu xalqlarning antropologiyasi, tillari, diniy e’tiqodi hamda madaniyatida o‘xshashlik va umumiylikning bo‘lishiga tabiiy hodisa sifatida qarash mumkin. O‘z isbotini topgan arxeologik, antropologik va lingvistik dalillar qadimgi hind-eroniylarning muqarrar migratsiyasini hamda qadimgi hind-oriylar va eroniylarning genetik va lingvistik tipologiyasiga ko‘ra qardosh elatlar bo‘lganini ko‘rsatadi. Qadimgi hind-oriylarning vedalari hamda eroniylarning “Avesto”si, ularning tili, xudolari, mifologiyasi, an’analarining shu qadar yaqinligi va o‘xshashligi ham ushbu fikrning misolidir.

Shunday qilib, qadimgi hind-eron (oriy) elati uch guruhga bo‘linadi:

1. Hind-oriylar – Janubiy Osiyodagi hind-oriy tillarida so‘zlashuvchilar.
2. Eroniylar – ular ikki guruh:

a) G‘arbiy eroniylar – qadimgi midiyaliklar, forslar, shuningdek, hozirgi kurdlar, balujlar, tojiklar.

b) Sharqiy eroniylar – saklar, skiflar; qadimgi avesto, baqrtiya, so‘g‘d va xorazm tillarida so‘zlashgan aholi va hozirgi Pomir o‘lkasi aholisi, shuningdek, osetinlar, pushtunlar.

3. Dardlar va nuristoniylar (kofirlar) – Pokistonning Svat va Chitral vodiylari, Shimoli-sharqiy Afg‘onistondagi aholi bo‘lib, ular birinchi bo‘lib Hindiston subkontinenti shimoliga jo‘nab ketgan va arxaik madaniyati va mifologiyani saqlab qolgan qadimgi oriylarning avlodidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Burrow T. The Proto-Indoaryans //Journal of the Royal Asiatic Society. – 1973. – T. 105. – №. 2. – C. 123-140.
2. Dani A. H. Gandhara grave culture and the Aryan problem //Journal of Central Asia. – 1978. – T. 1. – №. 1. – C. 42-55.
3. Diakonoff, I. M. (1985), "Media", in Ilya Gershevitch (ed.), The Cambridge History of Iran, vol. 2, Cambridge, UK: Cambridge University Press, pp. 36 –148,

[1]Witzel M. Autochthonous Aryans?The evidence from old Indian and Iranian texts. – 2001. p.p. 24

4. Francfort H. P. The archaeology of protohistoric Central Asia and the problems of identifying Indo-European and Uralic-speaking populations //Eearly Contacts between Uralic and İndo-European: Linguistic and Archaeological Considerations. Helsinki. – 2001, 134-155.

5. Kuz'mina E. E. The origin of the Indo-Iranians. – Brill, 2007. – T. 3. 522.

6. Mallory J. Indo-Europeans and the steppelands: the model of language shift //Proceedings of the Thirteenth Annual UCLA Indo-European Conference. – 2002. 13-14.

7. Misra S. S. The Aryan problem: A linguistic approach. – 1992.

8. Parpola A. From the dialects of Old Indo-Aryan to Proto-Indo-Aryan and Proto-Iranian. – 2002, 84-85.

9. Renfrew C. Archaeology and language: the puzzle of Indo-European origins. – CUP Archive, 1990.

10. Talageri S. G. The Rigveda: a historical analysis. – Aditya Prakashan, 2000.

11. Witzel M. Autochthonous Aryans? The evidence from old Indian and Iranian texts. – 2001. p.p. 24

12. Witzel M. Substrate Languages in Old Indo-Aryan.(Ṛgvedic, Middle and Late Vedic) //Electronic Journal of Vedic Studies. – 1999. – T. 5. – №. 1. – С. 1-67.

13. Гамкрелидзе Т. В., Иванов В. В. Проблема определения первоначальной территории обитания и путей миграции носителей диалектов общеиндоевропейского языка //Конференция по сравнительной грамматике индоевропейских языков. – 1972. – С. 19-22.

14. Дьяконов И. М. История Мидии: От древнейших времен до конца IV в до н. э. – М-Л. АНСССР, 1956. p.p. 159

15. Дьяконов М. М., Дьяконов М. М. Сложение классового общества в Северной Бактрии //Советская археология. – 1954. – Т. 19. – С. 120.

16. Елизаренкова Т. Я., Топоров В. Н. Мир вещей по данным Ригведы //Ригведа. Мандалы. – 1999. – Т. 8. – С. 487-525. (489)

17. Кузьмина Е. Е. О соотношении типов андроновских памятников Урала (по материалам Кинзерского могильника) //Памятники древнейшей истории Евразии. М.: Наука. – 1975. – Т. 141. p.p. 118

18. Литвинский Б. А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов) //Индия в древности. М. – 1964. – С. 143-165.

SAMUYEL F. XANTINGTON “SVILIZATSIYALAR TO‘QNASHUVI” ASARINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Islombek RAXMONBERDIYEV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasi
I bosqich tayanch doktoranti (PhD)
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof B.A. Aliyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samuyel F. Xantington hayoti va ijodi,uning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asari hamda unda ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlar umumbashariy ahamiyati, sivilizatsiyalar taraqqiyoti va tanazzulining asosiy sabablari haqida so‘z boradi.

Muallifning fikricha, XXI asrda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi raqobat o‘tgan asrlardan farqli o‘laroq “madaniyatlararo” kechadi, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar: Samuyel F. Xantington, Svilizatsiyalar to‘qnashuvi, ijtimoiy falsafa, siyosat, sotsiologiya, sovuq urush, uchinchi dunyo davlatlari, sivilizatsiya, madaniyat, din, sekulyarizm, ortodoksal tafakkur, globalizm, modernizm, globallashuv, g‘oya, Sharq, G‘arb, pozitivizm, taraqqiyot, yumshoq kuch, qattiq kuch.

Yangi O‘zbekiston me’mori va tashabbuskori hisoblanuvchi Prezidentimiz qayd etganidek, «Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir».[1;3]

O‘z navbatida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekiston- da Yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz».[2;3]

Samuyel F. Xantington – amerikalik ijtimoiy faylasuf, siyosatchi, jamiyatshunos olim, akademik – AQSH Prezidenti J.Karter davrida Oq uyda Tashqi siyosiy aloqalar va Milliy xavfsizlik xizmati rahbari lavozimida faoliyat olib borgan.Bakalavr bosqi- chini Yel universiteti,magistratura bosqichini Chikago universiteti va PhD ilmiy darajasini Garvard

universitetida oladi. Faoliyatining qariyb ellik yilini Garvart universitetida faxriy professor sifatida o‘tkazgan.

Xantington o‘zining 1993-yilgi “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi bilan mashhur.U kelajakdagi urushlar mamlakatlar o‘rtasida emas, balki madaniyatlar o‘rtasida olib borilishini va islom ekstremizmi G‘arbning dunyodagi hukmronligi uchun eng katta tahdidga aylanishini ta’kidladi.Xantington fuqarolik-harbiy munosabatlar, siyosiy rivojlanish va qiyosiy hukumat haqidagi Amerika qarashlarini shakllantirishga yordam bergan.[2;6]

1993-yilda Xantington “Foreign Affairs” jurnalida o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi?” nomli xalqaro munosabatlar nazariyotchilari orasida ko‘p bahsga sabab bo‘lgan,dolzarbligini hozirgi kunda ham saqlab qolgan 29 betlik ilmiy maqolasini chop etadi[3;9].Ushbu maqolada,Sovet ittifoqi tugatilib,sovuq urush tugagach Islom G‘arb- ning dunyodagi hukmronligi yo‘lidagi asosiy to‘siq bo‘lib qolishini ta’kidlagan.Shuning uchun G‘arbning keyingi urushi Islom bilan bo‘lishini aytib o‘tgan.[4;5]Uning sovuq urushdan keyingi geosiyosat va “beqarorlikning muqarrarligi” haqidagi qarashlari yana bir amerikalik siyosiy arbob Frensis Fukuyamaning “Tarixning oxiri” (End of history) asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy va geosiyosiy qarashlarga mutlaq teskari hisoblanadi. Negaki, Frensis Fukuyama ushbu asarda XXI asrda geosiyosiy,harbiy ziddiyatlar barham topib, texnika va axborot texnologiyalari taraqqiyotiga katta yo‘l ochiladi.

Geosiyosiy o‘yinlar barham topib,geosiyosat zerikarli tus oladi.

Ushbu maqolaning muhokamasi qizg‘in tus olganligidan ilhomlangan S.F. Xanting-ton 1996-yilda “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va jahon tartibini qayta tiklash” (The Clash of Civilizations and Remarking of World Order) to‘liq nom bilan kitob holida chop etila boshlaydi. Ushbu kitob sovuq urushdan keyingi geosiyosat XX asrdagi kabi mafkuraviy jihatdan, ya’ni AQSh boshchiligidagi kapitalistik davlatlar (kapitalizm) va SSSR boshchiligidagi kommunistik davlatlar (Marksizm-leninizm) o‘rtasida emas,balki madaniyatlar o‘rtasida tez-tez va zo‘ravonlik yo‘li bilan sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Sovuq urush davrida Kapitalistik G‘arb va Kommunistik blok o‘rtasida ziddiyat,qurollanish poygasi yuzaga kelgan bo‘lsa,endilikda XXI asrdagi mojarolar yirik yettita – sakkizta bo‘lishi mumkin – sivilizatsiyalar : 1) G‘arbiy; 2) Lotin Amerikasi; 3) Islom; 4) Sin (Xitoy); 5) Hind; 6) Ortodoks; 7) Yapon; hamda 8)Afrika(ehtimol) o‘rtasida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi.Ushbu kitobda sivilizatsiyalarning shakllanishi haqida turli tarixiy-falsafiy qarashlar atroflicha yoritilgan bo‘lib,Afrika

sivilizatsiyasining sivilizatsiya maqomiga munosibligi yoki aksi bo‘lishi haqida qizg‘in munozaralar bayon etilgan. Unda sivilizatsiyalar shakllanishida asosiy faktorlar etib, til,din,madaniyat,urf-odat va qadriyatlar,axloqiy me’yor kabi faktorlar nihoyatda ahamiyatli ekanligi tarixiy-falsafiy va geosiyosiy jihatdan tahlil qilingan.Xantington tomonidan ilgari surilgan ushbu sivilizatsiyalar haqida qarashlar zamonaviy dunyodagi klassik suveren davlatlar haqidagi qarashlarga mutlaqo teskari hisoblanadi.Xantingtonning fikricha,bundan keyingi mojarolarga davlatlararo emas — madaniy mojarolar sifatida qarash kerak.AQSh ham bundan keyingi keyingi harbiy qurollanishga sarflayotgan mablag‘larni madaniy sohalarni isloh qilishga sarflashi darkor.Umumiy xulosa qilib aytganda, sivilizatsiyalararo kurashda yuqorida keltirilgan sakkizta sivilizatsiyalarning “madaniy immuniteti”ning kuchligiga qarab g‘alaba qozonish imkoniyati oshib boradi.Mazkur kitobda Xantington shunday deydi,”Etnik mojarolar va sivilizatsiyalar to‘qnashuvi sodir bo‘layotgan dunyoda,G‘arb sivilizatsiyasi uchta muammoga duch keladi:yolg‘on;axloqsizlik va xavfdir”[5;2]

Xantington ushbu asarda “Hard power” va “Soft power” haqida ham fikr yuritib, geosiyosatda bu ikki qattiq va yumshoq kuch atamalari bir biri bilan chambarchas bog‘liqligini,XXI asr asrdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar “soft power” sifatiga mos kelishini aytib o‘tgan.”Yumshoq kuch” (Soft power) atamasi asosan sivilizatsiyalarning ilmiy-madaniy,qadriyatlarga tayangan kuchi bo‘lib,ushbu kuch qachonki mazkur jihat rivojiga e’tibor berilgandagina taraqqiy topishi boshqa sivilizatsiyalarga shu orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlagan.Xantington ushbu jihatdan Sin (Xitoy) sivilizatsiyasi hamda u ta’sir o‘tkazgan yapon va koreys madaniyatlarining shakllanishidagi tarixiy-falsafiy,geosiyosiy ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, yumshoq kuch (Soft power) ning qanchalik qudratliligini qattiq kuch (Hard power) ning qudratiga bog‘liqligini unutmaslikni alohida urg‘ulab o‘tilgan.[6;92]

Xantington — Ortodoks sivilizatsiya deb ta’kidlagan Rossiya va slavyan davlatlari, shuningdek, oq Rossiya bo‘lmish Belorussiya, kichik Rossiya bo‘lmish Ukraina o‘rtasidagi vaziyatni sivilizatsiyalararo atamasiga teskari “sivilizatsiya ichidagi o‘zaro ziddiyat” deya ta’rif bergan.Shuningdek, Rossiya-Ukraina munosabatlari keskinlashuvi bo‘yicha ikkita taxminiy kelajakni keltirib o‘tadi.Birinchisi,Ukraina Rossiya ta’sirida hududiy jihatdan bo‘linib ketadi;ikkinchisi esa Rossiya-Ukraina urushi kelib chiqadi va Rossiya Ukraina hududini anneksiya qiladi degan farazlarni ilgari

surgan.Bugungi kunda ikki faraz ham gibrid tarzda sodir bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin.[6;44]

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Xantingtongning ushbu asarini o‘rganish orqali ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar,shu jumladan O‘zbekiston ham o‘z taraqqiyoti yo‘lida unumli foydalansa bo‘ladi.Qolaversa,Prezident Sh.M Mirziyoyevning 5 yillik “Harakatlar strategiyasi” va uning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilab olingan ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlarning naqadar dolzarbligini anglab yetish va yurtboshimizning oqilona siyosatini e’tirof etishimiz kerak.Shuningdek,yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi va Uchinchi Renessansni bunyod etish tashabbusi Xanting-ton o‘z asarida ilgari surgan tamaddunlararo to‘qnashuv nuqtai nazaridan qarasak o‘zbek davlatchiligi to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganligini yana bir bor anglab yetishimiz mumkin. Bugungi kunda biz uchinchi Uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Agar O‘zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo‘nalishi, ya’ni ma’rifat, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko‘rsak ham, navbatdagi Ma’rifat Renessansining markazi Yangi O‘zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Sh.M. Mirziyoyev (2022). 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hususida.
2. Lewin, Tamar (December 28, 2008). “Samuel P. Huntington, 81, Political Scientist, Is Dead”. *The New York Times*. Retrieved June 9, 2015.
3. The Clash of Civilizations? Recommended Articles foreignaffairs.com › United States› The Clash of Civilizations?
4. Haruna, Mohammed (September 26, 2001). "Nigeria: September 11 And Huntington’s Prophecy". *Daily Trust*.
5. “A Guide to the Work of Samuel Huntington”. contemporarythinkers.org.
6. Samuel P. Huntington (1996) “The Clash of Civilizations and Remarking World Order”

7. “Catechism of the Catholic Church: III. The Social Doctrine of the Church”. Vatican Publishing House.
8. Rakhmonberdiev, Islombek. (2022). Tasavvuf falsafasi va adabiyotining global ahamiyati” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2),
9. Rahmonberdiev, Islombek. (2021). Tasavvuf ta’limotida nafs tarbiyasi bosqichlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, maxsus son, 121-130.

SHARQ XALQLARI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIK

Feruza USERBAYEVA
Tarix 22/1 guruh talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ilmiy rahbar: F. Kamoliddinov

Annotatsiya: Qadimgi Sharq bu kishilik madaniyatining ilk markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Sharq tarixi deganda Yevropadan Sharqda joylashgan qadimgi Misrdan Xitoygacha bo‘lgan hududlarda yashagan xalqlar va davlatlar tarixi tushuniladi. Ushbu maqola aynan sharq xalqlarining o‘rganilish tarixi va ularning dunyo miqyosida tutgan o‘rni xususida boradi.

Kalit so‘zlar: Sharq, Davlat, sivilizatsiyalar, jamiyat, chorvachilik, daryo, madaniy taraqqiyot.

Qadimgi Sharq tarixi Qadimgi dunyo tarixining tarkibiy qismini tashkil etib, u Shimoliy, Shimoli-sharqiy Afrika, Old, Janubi-g‘arbiy, Janubiy, Markaziy, Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoning ulkan hududini ishg‘ol qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, Qadimgi Sharq tarixining davriy sanasi m.av. IV ming yillikning ikkinchi yarmidan to milodiy IV asr oralig‘idagi davrni o‘z ichiga oladi. Bu ulkan hudud o‘zining xilma-xil tabiiy sharoiti, yer usti tuzilishi, iqlimi, suv manbalari, osmono‘par Himolay, Pomir, Hindikush. Kunlun, Tyanshan tog‘lari, o‘simliklarga va hayvonot dunyosiga boy bo‘lishligi bilan o‘ta qadimdan boshlab hamma davr odamlaring diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib kelgan.

Sharqiy, Markaziy, Janubi-sharqiy, Janubiy va O‘rta Osiyo ilk odamzod yashagan o‘lkalar qatoriga kirib, olimlar bu hududni antropogenez jarayoni sodir bo‘lgan mintaqaga kiradi, deb hisoblaydilar. Bu katta hududda ibtidoiy

jamoa tuzumining hamma bosqichlarida odamlar yashab kelgan. Bu ulkan hududda yashagan ibtidoiy kishilar o‘zlari uchun qulay, hayvonot va o‘simliklar olamiga boy bo‘lgan joylarda istiqomat qilib, dastlab yovvoyi hayvonlarni ovlab, ildizmevali va mevali daraxtlaring mevalarini, shuningdek, qushlarning tuxumini va katta-kichik hasharotlarni terib yeb tirikchilik o‘tkazganlar. Keyinchalik esa Sharq dunyosining odamlari daryo bo‘ylarda, jilg‘a, buloq, kichik-kichik soylarning etaklarida termachilikdan asta-sekin loyqa liman va qayr dehqonchiligiga, so‘ng esa katta kichik daryo bo‘ylarida ilk sug‘orma dehqonchilikka o‘ta boshlaganlar. Qadimgi odamlar ovchilikdan yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatib, chorvachilikka asos solganlar. Ibtidoiy jamoa tuzumining neolit-yangi tosh davriga kelib esa hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivojlana borgan [1]. Bilamizki qadimgi Sharq qadimdan sivilizatsiyalar qaror topgan. Buning sababi iqlim sharoitining qulayligi, tabiat zonalar yetarliligi eng muhimi bilamizki, Davlat paydo bo‘lishida ko‘zga tashlanadigan irigatsiya nazariyasini mavjudligidir. Ya’niki qadimdan insonlar yashash uchun qulay joy qidirishgan. Daryo bo‘ylari, jilg‘alar atroflari, iqlim yaxshi bo‘lgan joylar shular jumlasidandir.

Qadimgi Sharq jamiyatlari uzoq davom etgan notekis tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdilar. Ba’zi Qadimgi Sharq mamlakatlari yuksak ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga erishdilar. (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Finikiya, Kichik Osiyo, Qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron hamda O‘rta Osiyo) Bu hududlarda yuksak rivojlangan madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlar shakllandi hamda qo‘shni mamlakatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. M.avv. IV-III ming yilliklarda Qadimgi Sharqning turli sivilizatsiya markazlari (Misr, Mesopotamiya, Hindiston) nisbatan yopiq rivojlandi. M.avv II ming yillikning o‘rtalaridan Yaqin Sharqning turli hududlari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. M.avv I ming yillikda esa bu aloqalar yanada kuchaydi va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida sharq madaniyatlari boyidi. Shu tarzda Qadimgi Sharq dunyosining yaxlitligi amalga oshdi [2]. Sharqning qadimdan ravnaq topib borishi haqida har xil qarashlar mavjud. Qadimgi Sharq tarixini turli davrlarda olimlar o‘rganishgan. Qadimgi Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganishda:G. Maspero, E. Meyer, B.A. Turayev, V.V. Struve, F. Shampalon, N. M. Nikolskiy, A. B. Ranovich, N. D. Flittner, I. G. Frank, G. Vinklyer, L. Vulli, B. B. Piotrovskiy, G. V. Sereteli, G. Kapaniyan, Y. P. Fransev, V. I. Avdiyev, M. E. Mate va boshqa tarixchi olimlarning xizmatlari benihoya kattadir. Shuningdek, Qadimgi Sharq tarixi o‘rganish ishida A. A Viga Sin, M. A. Dandamayev, D. V. Deopark,

G. F. Ilin, M. V. Kryukov, V. I. Kuzishin, V. M. Masson va boshqa tarixchi va sharqshunoslarning xizmatlari ham kattadir [3].

Qadimgi Sharqning ko‘p sonli etnik guruhlarning muntazam ravishda harbiy siyosiy, savdo va madaniy aloqalar tufayli turli guruhlarning aralashib ketishuviga va yana etnik guruhlar paydo bo‘lishiga olib keldi [4]. Aholini etnik guruhi o‘rtasida sivilizatsiyalar shakllanishida shu guruhlar ham ishtirok etdilar desak hech ham xato bo‘lmaydi.

Qadimgi Sharq tarixining sanasini aniqlashda, asosan absolyut – mutlaq xronologiyadan foydalaniladi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki Qadimgi Sharqdagi har bir davlat tarixi muayyan davrlarga bo‘linadi. Jumladan, Qadimgi Misr beshta, Qadimgi Ossuriya uchta, Xett davlati ikkita, Xitoy to‘rtta tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Shuningdek, har bir tarixiy davrda sodir bo‘lgan voqea hodisalarning absolyut sanasi belgilanadi. Bulardan tashqari Qadimgi Sharqda sulolaviy davrlashtirish ham mavjud bo‘lib, bunda muayyan oila vakillarining davlatni meros tariqasida boshqaruv tushuniladi. Demak, insoniyat jamiyati tarixida xronologiya va davrlashtirish hamda ularning bosqichlari orasidagi voqea, hodisalarni o‘rganish tarixchilar uchun juda katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib sharqdan g‘arbga cho‘zilgan, ulkan hududda joylashgan katta-kichik davlatlar va ularda yashagan xalqlar dunyoning boshqa joylarida yashagan xalqlaring ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy madaniyatiga o‘zlarining ijobiy ta’sirini o‘tkazib keladilar [6].

Qadimgi manbalarni o‘rganishda yozma manbalarning ayrim tarixiy sharhlashning murakkabligi katta qiyinchilik tug‘diradi. G‘arbni ba’zi sharqshunos olimlari, qadimgi sharq jamiyatini feodal tuzumga ega ekanligini ilgari suradi.Qadimgi sharq jamiyatini o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida munozaralarda ko‘pincha u yoki bu mamlakatda qullar sonining ozligi ko‘rsatib o‘tiladi. Qadimgi sharq davlatlarida savdo ham birmuncha rivojlangan. Ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorga olib chiqish buyumlarga almashtirish boshlangan.Shuningdek,turli metalldan tangalar zarb qilingan. Aholi orasida ayirboshlash ishini amalga oshiradigan savdogarlar paydo bo‘lgan.Savdogarlikni paydo bo‘linishi munosabati bilan mehnatning uchinchi yirik ijtimoiy bo‘linishi sodir bo‘lgan. Qadimgi Sharq dunyosidagi davlatlarda ham bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshirilgan [7].

Sharqshunos olim V.I. Avdiyev yozganidek Qadimgi Sharq xalqlari tuzumining boshqalardan farq qiladigan eng muhim xususiyati – unda urug‘chilik tuzumi qoldiqlarining uzoq vaqt saqlanib qolganligi, shuningdek, qadimgi jamoa, avvalo oila jamoasi, keyin esa qishloq jamoasi qoldiqlarining mustahkam saqlanib qolganligidir. Ammo hududda ishlab chiqarish

ko‘lamining rivojlanishi ijtimoiy tuzumni o‘zgartirib yuboradi. Qadimgi Sharq dunyosida metallurgiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi texnikani bir qadar taraqqiy qildirib, qishloq xo‘jaligining va asosan hunarmand-chilikning rivojlanishiga turtki berdi [8]. Aynan Sharq ulkan hududida joylashgan katta-kichik davlatlar va ularda yashagan xalqlar dunyosining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy,madaniy va ma’naviy madaniyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazib keldi desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “Sharq” bu ilk sivilizatsiyalar beshigi hisoblanadi. Ilk sivilizatsiyalar aynan mana shu yerda qaror topgan. Bu esa avvalo mana shu yerdagi iqlim sharoiti, tabiatiga bog‘liqdir. Sharoit bo‘lgan joyda hamisha rivojlanish uchun poydevor paydo bo‘ladi. Mana shu qadimgi xalqlarning tuzumini, geografik o‘rnini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini, tarixini o‘rganish borasida hozirgi kunda ko‘pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Sharq xalqlari tarixini o‘rganish borasida hozirgi kunda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bizning yurtimizdagi faoliyat olib borayotgan Sharqshunos olimlar: B. Ahmedov, A. Muhammadjonov A. O‘rinboyev, R. Aminova, T. G‘iyosov, M. Boboxojaev, M. Nishonov, M. Kutina, A. Xojaev, T. Sattarov, A. Hasanov, S. Inogomov, Z. Munavvarov, R. Qodirov, R. Qosimov shu jumladandir [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Kabirov “Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016 “Tafakkur nashriyoti” 6-bet
2. R. Rajabov “Qadimgi dunyo tarixi” Toshkent-2009 “Fan va texnologiya nashriyoti” 6-7bet
3. R. Rajabov “Qadimgi dunyo tarixida” Toshkent-2009 “Fan va texnologiya nashriyoti” 10-bet.
4. https://furqattarixchi. uz/qadimgi-sharq-tarixi/
5. https://tsuos.uz/sharq-mamlakatlari-tarixi-va-antropologiyasi-kafedrasi/
6. A. Kabirov “Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016 “Tafakkur nashriyoti” 13-14-bet.
7. Ravshan Rajabov “Qadimgi dunyo tarixi” T–2009 “Fan texnologiyalar nashriyoti”.
8. A. Kabirov “Qadimgi Sharq tarixi” T–2016 7-bet

CHINGIZ AYTMATOVNING “OQ KEMA” ASARIDAGI AXLOQIY FAZILATLAR TAHLILI

Xushnoza RASHIDOVA
TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati ta’lim yo‘nalishi
3 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi J.B. Sulaymonov

Annotatsiya: Mashhur qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov qalamiga mansub mazkur asarda endigina 8 yoshga qadam qo‘ygan bolaning orzu-havaslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik, hurmat, ishonch, axloqiy fazilatlar, qalbi tozalik, rostgo‘ylik, diyonatlilik.

Chingiz Aytmatov o‘zining fazoviy tafakkur tarzi, inson kamoloti hamda taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan illatlarni jasorat bilan fosh qila olgan, ayni paytda dunyo adabiyotining ilg‘or an’analarini ham milliy, ham umum turkiy adabiyotga dadillik bilan olib kirgan, bu an’analarning nafaqat qirg‘iz, balki butun turkiy adabiyotda sintezlanishiga ulkan hissa qo‘shgan, asarlarida o‘rtaga tashlangan masalalar qanchalik milliy bo‘lsa, shunchalik umuminsoniy ekanligi, umuman, adib Yer sayyorasiga, banibasharga taalluqli eng og‘riqli, eng iztirobli, eng dolzarb muammolarni badiiy va falsafiy mushohadaga aylantira olgan, mazkur muammolarga o‘sha paytning o‘zidayoq oltita qit’aning ham e’tiborini qaratgan, adabiyotning zamon bilan uyg‘un keladigan nuqtalarini topa olgan ulkan va betakror iste’dod ekanligi – noyob adabiy hodisaligi bilan alohida ajralib turadi. (Nazar Eshonqul)

“Oq kema” asarida yosh bolaning otasiga bo‘lgan sog‘inchi alohida ruhda tasvirlangan. Bolaning fikricha otasiga olib boruvchi birdan-bir narsa “oq kema”dir. Oq kema mehr-muhabbat,to‘kinlik,soflik ramzi.Bolaning otasiga bo‘lgan sog‘inchi juda ham kuchli,otasini ko‘rmagan bo‘lsa ham unga nisbatan o‘y-xayollari,qarashlari ijobiy.Bolaning bunchalik otasiga talpinayotganining sababi, uning mehr-muhabbatga muhtojligi,atrofidagi yaqinlaridan mehr ko‘rmasligidir. Faqatgina bobosi Mo‘min bobo bolaga chin dildan g‘amxo‘rlik qiladi. Quyida asardagi axloqiy kategoriyalar bilan tanishamiz.

Asardagi ko‘zga tashlanadigan axloqsizliklardan biri buvisining bolaga bo‘lgan munosabatida yaqqol namoyon bo‘lgan.Endigina 8 yoshni qarshi olgan bolaga “o‘gay” degan so‘zning ishlatilishi bolaning ruhiyatiga ta’sir qiladi. Bundan shuni bilishimiz mumkinki, buvi bolaga nisbatan yomon munosabatda bo‘ladi,turli xil axloqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlar

bilan yosh bolaning ko‘nglini og‘ritadi.Oilada faqatgina bobosi bolaga mehribonlik qiladi,nabirasini xursand qilish uchun bolakayning iltimoslarini hech ikkilanmasdan bajo keltirardi.Oila a’zolaridan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitganligi sababli bolakay tabiatdagi narsalarda mehr qo‘yadi,ular bilan suhbatlashadi. Bola 8 yoshda bo‘lsa ham, ammo uning fikrlashi yoshiga nisbatan ancha yuqori. Sababi, bolaning oddiy toshlarni yaxshi, yomon, ayyor va ovsar kabi sifatlar bilan ajratishidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, bola insonlardagi yaxshi, yomon, ayyor, ovsar kabi xislatlarni toshlar misolida ko‘rgan. Ya’ni bola yaxshi inson qanday bo‘lishini,yomon inson qanday bo‘lishini biladi degan xulosaga kelamiz.

Bola oila a’zolarining, qo‘shnilarining xulq-atvoridan, xarakteridan kelib chiqib insonlarni yaxshi insonlar va yomon insonlar toifasiga kiritadi. Bola uchun dunyodagi eng yaxshi, mehribon, jonkuyar, axloqiy jihatdan yetuk inson-bobosi. Yomon insonlar deb buvisi, O‘rozqul, Seydahmadni ko‘radi. O‘rozqulni yomon, salbiy xislatli inson deyilishining asosiy sababi uning ichkilikka ruju qo‘yganligidir.Bola har doim O‘rozqulni “mast” holda ko‘rganligi uchun undan qo‘rqadi va bobosiga O‘rozqul qattiq gapirgan vaqtlarda undan nafratlanadi. Xalqimizda ajoyib maqol bor “Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l” degan. Ammo O‘rozqul esa hech qachon Mo‘min cholni hurmat qilmaydi,unga qo‘pol munosabatda bo‘ladi,unga “sen” deb murojaat qilgan vaziyatlarda axloqiy qoidalarning buzilganligining guvohi bo‘lamiz. Bola hattoki o‘tlarga ham nom qo‘yadi: “botir”, “sevimli”, “hurkak”, “yovuz”. Seydahmadni esa bobosini kalaka qilganligi uchun yomon ko‘radi. Birovning ustidan kulish, kalaka qilish eng yomon illatdir. Ana shu holatlar uchun ham bola toshlarga, o‘tlarga talpinadi, ular bilan ovunadi,balki ularning zaboni yo‘qligi uchun shundaydir deb xayol suramiz.

Bola mehrga muhtoj, sababi ota-onasi yonida emasligi uchun uning qalbi “o‘ksik”. Chaqirtikanak, pechakgullarning ko‘rinishiga,xatti-harakatiga qarab nom qo‘yadi. Bu o‘xshatishlar to‘g‘ri, chunki biz ham atrofimizdagi, jamiyatimizdagi insonlarning xatti-harakatlariga qarab axloqli, axloqsiz, tarbiyali, tarbiyasizga ajratamiz.

Bolaning eng yaqin, sadoqatli do‘sti shiroljindir. Bola nimadandir xafa bo‘lganda shiroljinning tagida o‘tirib yig‘lab,osmondagi bulutlarga qarab ko‘ngli taskin topadi.Bola bulutlarni yaxshi ko‘rardi,ular bilan qo‘shilib uzoqlarga ketgisi keladi. Bolaning do‘stlari ham,suhbatlashadigan insonlari ham mana shu o‘tlar edi. Buvisi ba’zida maqtagudek bo‘lsa bola juda-juda xursand bo‘lardi.Bejizga “Bola shirin so‘zning gadosi deyishmagan”.

Mo‘min chol barcha ijobiy, axloqiy fazilatlarga ega qahramondir. U ochiq ko‘ngilligi, mehnatsevarligi, fidoiyligi, oliyjanobligi bilan ajralib turadi. Mo‘min chol hammaga yaxshilik qilishga intiladi. “Ammo tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek, uning jonbozligining qadriga ham hech kim yetmaydi” deyiladi asarda. Mo‘min chol barchaga yordam berib, yaxshilik qilganda ham bari bir atrofidagilar uning ustidan kulib masxaralaydi. Mo‘min cholda biz o‘z ajdodlariga nisbatan, mehr-muhabbat, sadoqat, hurmat-ehtirom kabi axloqiy kategoriyalarni ko‘ra olamiz. Bolaning g‘alati bir orzusi bor “Baliqqa aylanib qolishni juda ham xohlaydi. Sababi, yosh bola bo‘lishiga qaramasdan ko‘pgina ko‘ngilsiz hodisalarni guvohi bo‘lgan. Baliqqa aylansa barcha tashvishlari tugaydigandek go‘yo. Baliqqa taqlid qilib, ko‘zi ochiq holatda cho‘milishi ham ehtimol shu sababdandir. Buvining jahldor, mehrsiz bo‘lishining ham bir qator sabablari bordir. Ya’ni buvini “farzand dog‘i” shu ahvolga solgan deya olamiz.

Mo‘min boboning nabirasiga odob-axloq haqidagi nasihatlari alohida diqqatga sazovordir. “Kichiklar o‘zlaridan kattalarga doim birinchi bo‘lib qo‘l uzatishlari kerakligini, agarda qo‘l uzatmasa u odamlarni hurmat qilmagan bo‘ladi” kabi o‘gitlari nabirasini “kattalarga ehtirom ko‘rsatishga” chorlaydi. Bobo nabirasiga axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xil hikoyalarni so‘zlab beradi. Hikoyalardan bolaga eng ta’sir qilgani quyidagi hikoyadir: “Eski zamonda bir xon boshqa bir xonning qo‘liga asir tushibdi. Xon asir tushgan xonga debdi: “Agar istasang mening qulim bo‘lib, tirik qolasan bo‘lmasa,eng so‘nggi tilagingni bajo keltiraman-da, keyin o‘ldiraman” debdi. Xon o‘ylab turib javob beribdi: “Qul bo‘lib yashashni istamayman. Yaxshisi meni o‘ldirgin, lekin avval mening vatanimdan birinchi duch kelgan cho‘ponni chaqirtirib ber” - Uni senga nima keragi bor?- “O‘lim oldidan uning qanday kuylashini tinglamoqchiman” kabi javob beribdi. Hikoyadan shunday xulosa qilishimiz mumkinki: asir xonning or-nomusli, vijdonli ekanligi, ona yurtiga muhabbati, sadoqati uni qul bo‘lishga imkon bermaydi. Xon shunchalik ona tuprog‘ini asrab-avaylaydi,ona yurtiga hurmati cheksizligidan “ona-yurt qo‘shig‘ini” eshitib o‘lishni afzal ko‘rdi. Bunday hikoyalar ta’sirida ulg‘ayayotgan bolada o‘zi yashayotgan joyga nisbatan yuragida mehr-oqibat paydo bo‘ladi. Issiqko‘lda bir an’ana bo‘lgan ya’ni Shoxdor ona bug‘u haqidagi erkakni barcha bilishi kerak edi. Mo‘min chol, Bekey xola xo‘rlangan sahifalarni o‘qiganda hammaning rahmi keladi. Nahotki, insonga shunchalik jabr-zulm, xo‘rliklar ko‘rsatishga insonlarning qo‘li borsa,axir bu hayotda inson qadri,

hurmati degan tushunchalar ham bor. O‘rozqul bolaning nazarida eng nafratlanarli, qabih kimsa.

Enasoy atrofida yashovchi qabilalar bir-biriga dushmanligidan hatto “insoniylik”ni unutgan edilar. Bir-birlarini xuddi hayvon o‘ldirishgandek o‘ldirishar edi.Bu qabila a’zolariga “insoniylik”, “mehr-muhabbat” kabi kategoriyalar butunlay yot edi. Mana shu qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallarga nisbatan muallif quyidagi fikrlarni aytgan. “Odamlarda aql o‘tmaslashib borardi”. Darhaqiqat, shunday qabilalar fikr-mulohaza yuritib, aqllarini ishlatib barchasini tinch yo‘l bilan hal qilganlarida edi, qanchada-qancha begunoh odamlar, ayollar, bolalar halok bo‘lmas edi. Asarda “inson qadri” haqida ibratli bir jumla keltirilgan: “Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin,o‘ldirish esa hammasidan oson”.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, asardagi har bir jumlaning o‘ziga xos axloqiy jihati bor. Birgina Mo‘min chol obrazida ezgulik, fidoyilik, oliyjanoblik, burch, vijdon kabi axloqiy tushunchalar mujassamlashgan. Shoxdor ona bug‘u avlodlariga hurmat-ehtirom ko‘rsatishni Mo‘min chol o‘ziga “burch” deb bilardi. Qanchalik qadr-qimmati toptalsa ham doimo barchaga ezgulik ulashardi. Mo‘min chol obrazini haqiqiy ma’noda “jo‘mardlik” timsoli deya olaman. Hech kimdan yordamini ayamasligi, o‘z sog‘ligidan kechib bo‘lsa ham nabirasi uchun sharoit yaratib berishga bo‘lgan harakatlari jo‘mardlikdir. Afsuski, hozirgi kunda bunday insonparvar, diyonatli, vijdonli insonlar jamiyatimizda qo‘l bilan sanoqlidir. Bola uchun hayotning ma’nosi “oq kema” ga yetishish edi. Sababi, “oq kema”ga yetishsa barcha muammolar barham topadi, deb o‘ylaydi. Asardagi eng salbiy, boshqalarga ozor beradigan, ko‘nglini og‘ritadigan, o‘z ayolini ayovsiz kaltaklaydigan, o‘zligini unutgan, barchaning nafratiga duchor bo‘lgan obraz O‘rozquldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytmatov Chingiz. Oq kema. Qissa. T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2019 yil.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. T. 2020 yil.
3. Ochilova N. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Namangan, 2010 yil.

MUHAMMAD RIZO OGAHIY ASARLARINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Zarina NORBOYEVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: A. Mamadjonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodi, uning komil inson borasidagi fikrlari, shuningdek Ogahiy asarlari bugungi kunga qadar insoniyat ma’naviy merosida ahamiyati va uning asarlarini o‘rganishda va o‘rgatishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati haqida yoritildi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy hayoti asarlari, hukmdorlar, komil inson, tarbiya, vaqt ahamiyati, gumanizm.

Vatanimiz kelajagining poydevori hisoblangan bugungi davr yoshlarini sog‘lom ma’naviyatli qilib tarbiyalashda bugungi kunda har tomonlama ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berishga e’tibor qaratilmoqda. Insonlar bahor kelganida nihol ekishadi, u niholni unib meva berishi uchun parvarish qilishadi. Mamlakat kelajagi ham yoshlar hisoblanadi, ulardan hosil olish uchun ular ham parvarish va e’tibor berishimiz kerak. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov “mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir”[1] ya’ni bugungi axborot zamonida yoshlarimiz ongida ma’naviy bo‘shliq bo‘lmasligi uchun harakat qilishimiz kerak. Tarix takrorlanadi shunday ekan biz o‘z o‘lkamiz tarixini boshqalardan yaxshi bilishimiz kerak, tarixni o‘rgangan har bir kishida voqealarni tahlil qilish qobiliyati mavjud bo‘ladi. Sivilizatsiya dastlab sharqda vujudga kelgan va eng yetuk namoyondalari ham bizning o‘lkamizdan chiqishgan. Har qanday davrda ham o‘z donoligi mulohazali ekanligi bilan ajralib turgan yetuk namoyondalardan biri o‘z davrining yetuk tarjimoni, mirobi, tarixnavisi Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiy 1809- yili 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyotqishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang‘ich ma’lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi bo‘lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo‘ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. Xiva xonligining keyingi hukmdori Olloqulixon taxtga o‘tirgach, 1839-1840-yillar oralig‘ida Munisning

[1] I.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”

shogirdi Ogahiyga 1813-yili voqealari bayoni bilan to‘xtagan “Firdavsu- l- iqbol” asarini davom ettirishni buyurgan. Bu davrda 30 yoshga kirgan Muhammad Rizo Ogahiy ustozi Munis boshlab qo‘ygan, ammo tugallay olmagan “Firdavs ul-iqbol” nomli asarni davom ettiradi. Munis va Ogahiy hamkorligida yozilgan “Firdavs ul-iqbol” asari mintaqada yashagan o‘zbek, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg‘on xalqlarining kelib chiqish tarixi, madaniyati, san’ati, urf-odatlari, turmush tarzini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.[1] U davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to‘xtatmadi. Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she’rlar joy olgan.

Ogahiy o‘z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug‘murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo‘lgan: Olloqulixonga bag‘ishlangan “Riyoz ud-davla” (1844-y.), Rahimqulixon davriga bag‘ishlangan “Zubdat ut-tavorix” (1846-y.), Muhammad Aminxon davriga bag‘ishlangan “Jome’-ul voqeoti Sultoniy” (1856-yil), Sayid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan “Gulshani davlat” (1865 yil), Muhammad Rahimxon Feruz davriga bag‘ishlangan “Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asarlarida Xiva xonligining 1813-yildan to 1874-yilgacha bo‘lgan tarixi davriy izchillikda, boy tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan edi[2]. U Xiva taxtiga ketma-ket kelib ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashab, harbiy yurishlar, tarixiy voqealar guvohi bo‘ldi va ularni o‘z asarlarida aks ettirdi. Uning tarixiy asarlari Xorazmda qariyb 60 yil ichida sodir bo‘lgan voqealarning tarixiy badiiy solnomasidan iboratdir. Har bir kuchli davlat boshqaruvining ortida kuchli ra’iyat boshqaruv organlari bo‘ladi. Ogahiy o‘sha davrda yashagan hukmdorlarga davlatni boshqarishda ham o‘z o‘gitlarini berib kelgan. Bugungi kundagi davlat rahbarlarining oldida ham Ogahiyga o‘xshagan har tomonlama maslahat bera oladigan insonlar soni ko‘p bo‘lishi kerak deb hisoblayman. Haqqoniy tarixni yoritishga uringan Ogahiy o‘sha davrda yuz bergan xalq qo‘zg‘olonlari haqida xalq ahvoli haqida o‘z asarlarida ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Ogahiy insonlar hayvonlardan farqli ravishda fikr qilishga undagan:

[1] Munirov Q. Munis Xorazmiy//Markaziy Osiyo mutafakkir, donishmandlar va adiblar. – T: Meros, 1997.

[2] Munirov Q. Munis, Ogahiy VA Bayoniylarning tarixiy asarlari. – T: 1960

So‘zdur inson ko‘nglida bir gavhari qimmatbaho,
Oni xor etma debon har hushi yo‘q hayvonga so‘z.
Yoki:
Zarra uchubon nayyiri a’zam bo‘lmas,
Yer bolish etib, avji falak ham bo‘lmas,
Inson aro nodonni biling hayvondur,
Hayvon necha zo‘r aylasa odam bo‘lmas. [1]

O‘z qadrini bilgan inson aytadigan har bir so‘zini ham qadrini biladi. Shu sababli ma’rifatsiz nodonga so‘z aytmoq hayfdir. Ya’ni:

Bilmagan o‘z qadrini ne bilgusi so‘z qadrini,
Hayfdur, dono demak nodoni beirfonga so‘z.

Ogahiy behudaga safsata otmoqlikni qattiq qoralaydi. Bu inson obro‘sini to‘kadi va bir kun boshiga balo keltiradi, deydi. Abu Sa’id al-Xudriyning rivoyat qilishicha, Rasulullоh: “Ko‘chalarda bekorchilikdan, ezmalanib gaplashib o’tirmoqdan qochingiz”, – der edilar.

Kishikim yomonlig‘erur shevasi,
Kelur har nafas boshiga yuz balo.

Insonni ulug‘lab uni hamma narsadan sarbaland yuqori o‘ringa qo‘ygan.

Sarbaland o‘lsam ajab ermas bani odam aro,
Kim muayyan ul sarafroz nasli odamdir mango.[2]

Ogahiy asarlarida insonni birinchi o‘ringa qo‘yish ya’ni gumanizm g‘oyasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bugungi davr yoshlariga vaqtini behuda sarflamaslikka bu hatto dinda ham qoralanganini o‘z asarida ko‘rsatib beradi.Ogahiy asarlarini hayotini o‘qib shuni tushundimki biz dunyoning eng rivojlanish darajasiga faqatgina yoshlarimizga dinni to‘g‘ri tushuntirish orqaligina erisha olamiz. Alisher Navoiy ham Ogahiy ham islom dinini mukammal bilgan zehni ham teran bo‘lgan ular umrining har bir daqiqasini behuda o‘tkazmaslikka harakat qilishgan. Endi bugungi kunimizga nazar soladigan bo‘lsak biz yoshlar vaqtimizning ko‘p qismini ijtimoiy tarmoqlarda behudaga o‘tkazyapmiz. Yozuvchi ijodkorlarimiz ham bizning jamiyatga mos ular ham oldingi davr ijodkorlariga o‘xshab asarlari salmog‘i jihatidan ham mazmuni jihatidan yuqori darajada emas. Yaqinda maktablarning birida so‘rovnoma o‘tkazdim yuqori sinf o‘quvchilariga nega bugungi kunda Ogahiyga o‘xshagan yozuvchilar soni kamaygan degan savolimga ularning katta qismi axborot texnologiyalarini misol qilib

[1] Ogahiy. Jamoling jilvasi. / Tuzuvchi: Ochilov E. – T.: O‘zbekiston, 2013. –175b
[2] Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, 1jild Devon. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.-54.b

keltirishdi. Afsuski bu haqiqat. Insonlar o‘zlari yaratgan texnologiyaga o‘zlari qaram bo‘lib qolishdi. To‘g‘ri yaxshi asarlar yaratilyapti ammo dunyo miqyosiga chiqish darajasida emas.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan Yosh kitobxon ko‘rik tanlovlari turli yozuvchilarga atalgan stipendiyalar davlat mukofotlari ham ta’sis etildi. Prezidentimiz 2020-yil 20-may kuni Adiblar xiyoboni”ga tashrifi chog‘ida adabiyot tarixida munosib o‘rin tutgan ijodkorlar asarlarini o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarning ongiga singdirish vazifalari bo‘yicha Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga “Ogahiy hayoti va ijodi-yoshlar tarbiyasi uchun namuna” [1] yo‘nalishi berildi. Sharqshunoslik universiteti talabalar tomonidan har yili Ogahiy ijodiga bag‘ishlab turli mavzularda maqolalar yozib, tadqiqot va targ‘ibot olib bormoqda. Bu islohotlar albatta o‘z samarasini beradi dunyo ham bizni o‘rganishadi chunki ilmga kiritilgan investitsiya har doim samarasini beradi. Ilm olishdan maqsad ikki dunyo saodatiga erishdir. Jaholatdan qutilishdir. Demak biz adiblarimizning har birini puxta egallash orqaligina bunga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.

2. Munirov Q. Munis Xorazmiy / Markaziy Osiyo mutafakkir, donishmandlar va adiblar. – T: Meros, 1997

3. Munirov Q, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari – T: Fan, 1960.

4. Ogahiy. Jamoling jilvasi. / Tuzuvchi: Ochilov E. – T.: O‘zbekiston, 2013.

5. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, 1-jild Devon. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.

6. https://ogahiy.tsuos.uz/adib-hayoti-va-ijodi/

[1] https://ogahiy.tsuos.uz/adib-hayoti-va-ijodi/

YAPONIYA ARXITEKTURASI HEIAN DAVRIDA: HEIAN SHAHRI

Mexroj SAYFULLAYEV
TDSHU Yaponshunoslik fakulteti,
Yaponiya tarixi yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi A.A. Egamberdiyev

Annotatsiya: Yaponiya hududida qadimgi davrdan rivojlanib kelgan qurilish an’analari O‘rta asrlarga kelib, qo‘shni hududlardan kirib kelgan arxitekturaviy uslublar bilan uyg‘unlashib, yanada taraqqiy topdi. Keyingi davrlarda, xususan Fujivara sulolasi hokimiyatda bo‘lgan va imperatorlik hokimiyati gullab yashnagan VIII-XII asrlar davomida Yapon imperatorlari, hukmron sulola aristokratlari va yirik diniy ibodatxonalar homiyligida Yaponiya tarixining ajralmas bo‘lagiga aylangan betakror arxitektura obyektlari qurildi.

Kalit so‘zlar: Heian davri, imperator saroyi, Shinshiden, Shinden zukuri, shahar tuzilishi, moya, hisasi, sunoki, shimido, shudara, byobu, shityo.

Yaponiya tarixida “Heian davri” (794-1185) deb atalgan davr mamlakatda hokimiyatni egallashga intilgan yirik feodal hukmdorlarning uzluksiz kurashi bilan tavsiflanadi. Kuchli Fujivara sulolasi imperator saroyini o‘z ta’siriga bo‘ysundirib, IX-XI asrlarda hokimiyatni egallab, mamlakatda hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘ldi. Qadimgi urf-odatlarga ko‘ra, Yaponiyada sulola almashinuvidan so‘ng, qarorgohni har safar katta sarmoya talab qiladigan yangi joyga ko‘chirish kerak edi. 782 yilda taxtga o‘tirgan imperator Kammu Nara shahrini tark etib, Nagaoka shahrida yangi qarorgoh qurishni boshladi. Ammo Nagaokada 10 yil davom etgan hukumat binolari qurilishi to‘satdan to‘xtatildi, chunki siyosiy kurashlar imperatorni yashash uchun yangi, qulayroq joy izlashga majbur qildi. Fujivara sulolasining ta’siri ostida Nagaokadan 5 mil uzoqlikda, ularning mulkida joy tanlandi. 794 yilda yangi poytaxt qurilishi boshlandi, u Heian (Tinchlik va osoyishtalik poytaxti) deb ataldi va keyinchalik u Kioto nomini oldi.

“Heian davri” arxitekturasi ikki xususiyatga ega bo‘lib, Yangi poytaxtning qurilishi dunyoviy [1] arxitekturaning rivojlanishiga yordam

[1] Arxitektura ikkita katta bo‘limga bo‘linadi: diniy yoki cherkov (ibodatxonalar, monastirlar) va dunyoviy (uylar va saroylar, jamoat va sanoat binolari, landshaft arxitekturasi va shaharsozlik – shaharlarni rejalashtirish va qurish san’ati).

berdi. O‘sha paytda Shinden Zukuri[1] uslubi paydo bo‘ldi, bu bir necha asrlar davomida yapon arxitekturasi uchun dunyoviy me’morchilik rivojini belgilab berdi.

Ushbu uslubning klassik namunasi Heiankyo shahridagi Dairi imperator saroyi edi. Majmuaning markaziy binosi to‘rtburchaklar shaklidagi xona bo‘lib, to‘rtburchaklar ustunlarga baland ko‘tarilgan. Ichki qism ustunlar bilan asosiy xonaga (moya) va uni perimetri (hisasi) va verandalar[2] (sunoki) bo‘ylab o‘rab turgan galereyalarga bo‘lingan. Bino ichida statsionar bo‘limlar yo‘q edi. U tashqi tarafdan panjarali qo‘sh olinadigan panellar (shimido) bilan ajratilgan, ichki devorlarning vazifalarini esa pardalar (shudara), 6 bargli naqsh shaklidagi pardalar (byobu) va ko‘chma to‘siqlar (shityo) bajargan.

Qadimgi Xitoy shaharlari singari, Heian tekislikda qurilgan va reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda bo‘lgan (bunda shimoldan-janubga qadar taxminan 5, 5 km hamda g‘arbdan-sharqqa taxminan 5 kmni o‘z ichiga oladi) va atrofi chuqur xandaq bilan o‘rab olingan. Shaharning asosiy ko‘chasi bo‘lgan “Suzaka” yo‘li shaharni g‘arbiy va sharqiy qismlarga ajratib turadi. U janubda “Rasyomon” darvozasidan boshlanib, shaharning shimoliy chegarasida joylashgan imperator saroyining janubiy darvozasigacha yetib borgan edi. Suzaka yo‘liga parallel ravishda eni 24- 36 metr bo‘lgan o‘nta ko‘cha o‘tkazilgan. Eni 24-36 metrli bu ko‘chalar ham shaharni g‘arbdan sharqqa kesib o‘tib, to‘rtburchaklar shaklida dahalar hosil qilgan. Imperator qarorgohi oldidan g‘arbdan sharqqa o‘tgan eng keng magistral yo‘l (eni 51 m) “Nijio” deb atalgan[3].

Shahar tomonlari 120 metrni tashkil etuvchi "to" deb nomlangan 32 ta xususiy mulkka (dahaga) bo‘lingan. Dahalar orasidagi ko‘chalarning kengligi 12 metrni tashkil etadi. Bu mavzelar Tan davridagi xitoy dahalari “fan”dan farqli o‘laroq, devor bilan o‘ralmagan. Faqatgina alohida binolar ko‘cha tomondan devorlar bilan ajratilgan[4].

---

[1] so‘zma-so‘z “uxlab yotgan pavilon”, “Shinden-zukuri”「寝殿造」. Shinden-zukuri – Heian davrida qurilgan me’moriy uslub bo‘lib, asosan yuqori tabaqa aristokratlari tomonidan qo‘llanilgan.Ushbu Shinden-zukuri arxitektura uslubi qadimgi Xitoy saroy me’morchiligiga asoslangan bo‘lib, yapon madaniyatini o‘zida mujassam etgani va taxminan X-asrda keng tarqalganligi aytiladi.Shinden-zukuri me’moriy uslubida hukmdor yashaydigan “shinden” katta maydonning o‘rtasiga, oila yashaydigan “tainoya” esa shimol, sharq va g‘arbiy uchtomoniga qurilgan.

[2] veranda – bu uyga yaqin joyda qurilgan juda o‘ziga xos tuzilma. Ushbu bino xususiy uy yoki yozgi uyning yopiq kengaytmasi hisoblanadi.

[3] М.А.Прибытковой. Архитектура Восточной и Юго-восточной Азии до середины XIX века». Том 9. Москва. 1971. -552

[4] https://east.totalarch.com/universal_history_of_architecture/japan_9_12_century



Heian shahri xaritasi. 1-imperator saroyi, 2-imperator bog‘i, 3-sharqiy bozor, 4-g‘arbiy ibodatxona, 5-sharqiy ibodatxona.

Yaponiya poytaxtida binolarni erkin rejalashtirishdan foydalanilgan, ko‘chalar tol va sakura daraxtlari bilan qoplangan [1] . Bozorlar va ibodatxonalar, shuningdek, maktablar an’anaviy ravishda shaharning eng muhim mavzelarida joylashgan edi. Janubda, shaharga kiraverishda, “Suzaka” ko‘chasining ikki tomonida g‘arbiy va sharqiy ibodatxonalar qad ko‘targan. Shaharni o‘rab turgan kichik kanallar va ariqlar uning alohida hududlari o‘rtasida qayiq, kema transporti uchun yo‘l bo‘lib xizmat qilgan[2].

Uzoq Sharqdagi boshqa o‘rta asr shaharlari singari, Heianda ham asosan bir qavatli binolardan qurilgan. Faqat baland ibodatxonalar, saroylar va zodagonlarning turar-joylari oddiy fuqarolar (hunarmandlar, savdogarlar, olimlar, rassomlar, aktyorlar va boshqalar) yashaydigan faqatgina old tomlarigina taxta va somonli tomlari bo‘lgan kamtarona kichik uylaridan ajralib turgan. Har bir uyning o‘lchamlari mulk egasining lavozimi va darajasiga qarab qat’iy belgilab qo‘yilgan va nazorat qilingan[3].

[1] М.А.Прибытковой. Архитектура Восточной и Юго-восточной Азии до середины XIX века». Том 9. Москва. 1971. -553

[2] https://east.totalarch.com/universal_history_of_architecture/japan_9_12_century.

[3] М.А.Прибытковой. Архитектура Восточной и Юго-восточной Азии до середины XIX века». Том 9. Москва. 1971. – 554

X asr davomida ham Heianda feodal zodagonlar vakillari o‘zlari uchun ko‘rinishi Nara davrida mavjud bo‘lgan (VII-VIII-asrlar) binolarga nisbatan sezilarli darajada o‘zgargan turar-joylar inshootlarini qurdilar. Oliy martabali shaxsning turar joyi o‘zaro ayvonlar bilan bog‘langan binolarning butun majmuasidan iborat edi. Bosh pavilyon “shinden” odatda markazda joylashgan bo‘lib, uning atrofida boshqa binolar to‘plangan.

Vaqt o‘tishi bilan binolarni joylashtirish tartibi o‘zgardi. Asosiy bino hisoblangan to‘rtburchak shakldagi “shinden”ning fasad qismi har doim janub tomonga qaragan. Ulkan tom quyosh va yomg‘irdan himoya qilgan, zinapoyalar orqali kirilgan veranda shindenning old qismida joylashgan bog‘ga olib chiqqan, hovli sathida kichik hovuzlar qazilib, yarim oy shaklidagi ko‘priklar o‘rnatilgan. Bog‘ning g‘arbiy va sharqiy tomonlarda bir biriga tutash turli ayvonlar joylashtirilgan bo‘lib, noqulay ob-havo vaqtida sayr qilish uchun xizmat qilgan. Ba’zan ayollar va bolalar uchun asosiy ayvonning shimolida ular asosiy bino bilan bog‘langan qo‘shimcha uylar qurilgan. Bunday binolar saqlanib qolmagan, ammo tarixiy manbalardagi tasvirlardan ular haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Turar-joy maydoniga sharqiy yoki g‘arbiy tomondan kirish bo‘lgan. Ular hovlining janubiy qismida joylashgan binolar majmuasining o‘ng va chap tomonidagi bog‘ga o‘tadigan ayvonlarga olib borardi[1].

Binolarning asosini yengil yog‘och ramka tashkil etadi. Verandaning yon tomonidagi ustunlar orasidagi bo‘shliqlar yuqoriga ko‘tarilishi va xonaning shiftiga osilgan metall ilgaklar bilan osilgan holatda o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan panjarali yog‘och panellar “shitomido” bilan to‘ldirilgan.

Barcha binolar shingil yoki taxta tomlari bilan bir qavatli edi. Qavatlar ustunlarda yerdan yuqoriga ko‘tarilgan. Qavatlar, verandalar, tashqi zinapoyalar, binolarning ramkasi – hamma narsa yog‘ochdan qilingan, monumental binolardan farqli o‘laroq, bu binolarda bo‘yalmagan. XII asrgacha ichki bezatishning nafis va oddiyligi bilan ajralib turadigan Heian aristokratiyasining turar joyining bu turi saqlangan edi. Ushbu binolarga xos bo‘lgan jabhalar va interyerlarning soddalik va estetik tamoyilga ega edi. Bu davrdagi turar-joy binolari me’morchiligida shakllangan an’analar keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etdi.

Daidari imperator saroyi, Xitoy shaharsozlik qoidalariga ko‘ra, shaharning shimoliy qismida g‘arbdan sharqqa 1, 2 km va shimoldan janubga 1, 4 km bo‘lgan to‘rtburchaklar maydonda joylashgan bo‘lib, bir qator binolar va bog‘dan iborat edi. Shaharning markaziy qismida imperator saroyi joylashgan bo‘lib, uning janubiy tomonida toj kiyish marosimlari, yangi yil ziyofatlari,

[1] История Японии: учебное пособие. 1. (1998). Rossiya: (n. p.). 215-216

elchilarni qabul qilish va boshqa shu kabi tadbirlar uchun mo‘ljallangan – Tyodoin hamda hukumat amaldorlari xizmat binosi joylashgan.

Asosiy rasmiy bino, yozma manbalarga ko‘ra, dastlab Buyuk davlat zali – “Daigokuden” edi. O‘lchami 51x15 m bo‘lgan bu monumental bino Chodoin hovlisining orqa tomonidagi tosh platformada joylashgan. Hovlining yog‘och binolari qizil rangga bo‘yalgan, pollari tosh plitalar bilan qoplangan, tomi yashil koshinlar bilan qoplangan. 1277-yilda yong‘in bu binoni vayron qildi. Omon qolgan qismlar va Daigokudenning pastki qismining chizmasi xuddi shu binoni Kiotodagi yangi joyda (Heian Jingu deb ataladi) qurishga imkon berdi.

Xulosa. Heian davriga kelib Yaponiya hududida yangi uslubdagi turli binolar qurilishi rivojlandi. Nara davri arxitekturaviy an’analaridan farqli ravishda Heian davrida binolarning nafisligi va ortiqcha hashamdan holi ravishdagi jozibadorligiga e’tibor qaratila boshlandi. Bu albatta mazkur davrga kelib, Yapon millatining madaniy jihatdan ancha taraqqiy etganligiga yana bir dalildir. Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerak bo‘lgan yana bir jihat shuki ayni davrda yapon memorchilik san’ati o‘z an’analariga ega bo‘la boshladi va Xitoy uslublari bilan birgalikda yapon arxitekturasiga xos bo‘lgan jihatlarni ham o‘zida mujassam etgan. Ayrim Xitoy manbaalarida ta’kidlanishicha ilk O‘rta asrlarda Yaponiya va Korea arxitekturasi Xitoy memorchiligining madaniy ta’siri ostida bo‘lgan. Ayni Heian davriga kelib boshqa madaniy sohalar kabi memorchilik ham taraqqiy eta boshladi, endilikda turar-joy binolari faqatgina zarurat uchungina qurilmasdan, balki amaliy san’at darajasida rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. М. А. Прибытковой. Архитектура Восточной и Юго-восточной Азии до середины XIX века». Том 9. Москва. / 1971. -552-558
2. William E. Deal . ’’Handbook to life in medieval and early modern Japan”. /2005. -399. 412, 413
3. История Японии: учебное пособие. 1. (1998). Rossiya: (n. p.). -211-212
4. https://east.totalarch.com/universal_history_of_architecture/japan_9_12_century
5. https://no-architecture-no-life. com/heian-period/
6. https://www. oreyume. com/magazine/learn/23265/

ВТОРЖЕНИЕ НАДИР ШАХА В СРЕДНЮЮ АЗИЮ

Аббасхан УБАЙДУЛЛАЕВ
студент 3-го курса ТГУВ
Научный руководитель: PhD Д.С. Ходжимуратова

Аннотация: Информация, приведенная в данной статье, касается похода Надир-Кули в области Маворуннахра, восстановившего власть Ирана после шаха Аббаса I, которого называли «Персидским мечом», и основавшего государство Афшар, хотя и на короткий период времени, и завоевали Бухарское и Хивинское ханства и в этих областях gриводятся сведения об установлении Афшарского контроля и исчезновении влияния Надира в этих областях после его смерти.

Ключевые слова: персидский меч, Резакули, Абул Файхан, Мухаммад Хакимби, Мухаммад Рахамиби, Эльбарс, битва при Питнаке, битва при Карши, Маверaннахр.

«Персидский меч» – это имя, данное европейцами Надиршаху, который был родом из туркменского племени «афшор», правившего Ираном с 1736 по 1747 год. Надиршах, также выходец из туркменского племени афшар, мобилизовал свои войска на север против среднеазиатских ханств, в прошлом угрожавших государству Сефевидов. Ни Бухара, ни Хива не могли противостоять войскам Надир-шаха, по причине того, что неповиновение эмиров центральной власти достигло в этих странах своего апогея. По имеющимся данным, он стал первым человеком в государстве Сефевидов в последние годы правления Сефевидов. Он модернизировал и усилил армию и привел свою армию к великим победам против превосходящих численностью противников, будь то афганцы, османы или бабурисы. После разграбления богатств Дели бабурисы не могли оправиться, и Надир-шах обратил свое внимание на Центральную Азия. Персидский меч не был чужим для этого региона. Он был родом из Хорасан, недалеко от современной ирано-туркменской границы, и в начале своей карьеры в качестве армейского офицера участвовал в нескольких сражениях с туркменскими захватчиками. На самом деле, говорят, что когда-то он был захвачен туркменскими пиратами, когда был молодым, но, правда это или нет, он был освобожден, уговорив работорговцев обещаниями будущего сотрудничества. Кроме того, Надиршах принадлежал к тюркской национальности, и этот факт отчетливо просматривался в его отношениях с сефевидскими и бабуридскими правителями,

которые предпочитали говорить с ними по-турецки, а не по-персидски. Позже выяснилось, что его образцом для подражания был не кто иной, как Амир Темур (Тамерлан на Западе). В 1740 году, когда его власть была на пике своей недавней победы над бабурисами и завоевания Дели, он начал военный поход против Туркестана.во время оккупации юга Средней Азии некоторое время находилась в состоянии политической раздробленности и упадка.В период Шайбани власть Бухарского ханства, угрожавшего Сефевидскому Ирану и расцвета в начале XVII в. , постепенно снижалась.Положение ханства было настолько плохим, что в 1681 году соседнему Хивинскому ханству удалось на короткое время занять Бухару. Ханы Бухары были практически независимы и не могли сопротивляться своим эмирам, которые, не колеблясь, поднимали мятежи и убивали ханов. Абульфайз-хан (годы правления 1711-47) взошел на престол после убийства своего младшего брата Убайдуллы II и, будучи марионеточным ханом в Самарканде, его приказы не выходили за пределы дворца.Когда Надиршах вторгся, власть Абулфайз-хана была слаба за пределами столицы, на западе не так хорошо обстояло дело в Хивинском ханстве.Хотя определенная степень политической стабильности была достигнута после восхождения на престол пяти ханов между 1703 и 1704 годами,военной изобретательности и превосходству персидского царя нельзя было противостоять.Хотя вторжение Надир-шаха в 1740 году еще не началось, однако через несколько лет ранее один из его сыновей совершил поход по реке Окс (ныне Амударья). В 1736 году Надир приказал своему старшему сыну Резакули подавить восстание в Андхое и Балхе (ныне Афганистан). Чтобы обеспечить успех Ризакули, его отец отправил с ним одного из своих самых доверенных командиров, Тахмасп-хана Джалаира. Позже Ризакули был ранен в глаз по приказу отца. После этого он решил переправиться через реку с армией в 8500 человек и занять новые территории. Вместо того, чтобы остановить непокорного Резакула, Тахмасп-хан Джалаир поддержал эту идею, хотя она и противоречила приказу шаха. Персы вторглись на территорию, принадлежавшую бухарскому хану Абульфайз-хану, после чего Ризакули начал осаду города Карши, важного населенного пункта Бухарского ханства. Обеспокоенный Абульфайз-хан обратился за помощью со всей области, от Хорезма на западе до Ташкента на востоке, от Самарканда до Ходжента.Снаружи шла битва. Первоначальная атака узбеков вынудила Резакули отступить, но затем в бой была брошена

артиллерия, одна из крупнейших вооруженных сил Надир-шаха. Бухарские войска, не видевшие применения пушек в таких масштабах, растерялись, и многие из них были убиты. Остальные были вынуждены отступить в Карши.На тот момент важной победы добился лишь 19-летний Ризахули, но радость его длилась недолго. Прибыл гонец от Надир-шаха и приказал Тахмасп-хану отступить к югу от Оксуса, угрожая казнить Джалаира [1:576]. У них не было выбора, кроме как подчиниться. Они прекратили осаду и покинули Моворуннахр. Надиршах также подтвердил, что отправил письмо хану Бухары и приказал остановить этот поход. Причина этого заключалась в том, что, когда пришло время, Темур сделал так, чтобы Надиршах, а не его сын, мог сам завоевать землю. Такую честь и славу он сохранил для себя [1:579]. После победы над империей Бабура и подчинения всех территорий к западу от реки Инд пришло время Надир-шаху завоевывать Среднюю Азию.В июле 1740 г., после того как группа ремесленников, присланных из Индии, построила мост через Окс (Амударью), персидские воинские части переправились через реку и остановились в Калифе (ныне Туркмения). Тем временем Надиршах и большая часть армии двинулись вдоль реки, достигнув сначала Каркия, а затем Чарджоя (ныне Туркманабад). Именно в Чарджое был построен новый мост и 6 сентября основная часть армии двинулась к северному побережью. ханства (крупнейший советник в дворцовом совете) отправляет Мухаммеда Хакима к Надиршаху. Однако Надиршах попросил самого Абульфайз-хана проявить к нему уважение. Абульфайз-хан согласился выполнить просьбу Надира, но столкнулся с противодействием в своем дворе. Ханские войска собрались в Бухаре и просили хана сразиться и отомстить за свое поражение в 1737 году. Единственным выходом была война: хан Бухарский ждал со своими войсками в Караколе, расположенном между Чарджоем и Бухарой. Непонятно, что произошло дальше. Некоторые источники утверждают, что произошла битва, другие говорят об отсутствии битвы. По словам Ахвари, нападала часть узбеков, но есть предположение, что атака была организована персидской артиллерией и имел место реальный конфликт. Этих артиллерийских обстрелов было достаточно, чтобы бухарцы поняли бесперспективность любого сопротивления. Абульфаиз-хан сдался. Хану было позволено сохранить свои позиции вместе с Надир-шахом, присоединившим бухарские территории к югу от Амударьи. Шах чеканил в Бухаре монеты от своего имени, и его имя упоминалось в проповедях в

мечетях. Однако Надиршах запретил своим войскам грабить и грабить Бухару [3:341].Надиршах приказал снять нефритовый камень, покрывающий гробницу Амира Темура в Самарканде. Он хотел использовать его в своей гробнице в Мешхеде. Из-за символического жеста он позже пожалел об этом. Нефрит был разделен на две части и, приехав в Мешхед, он вернул камень в Самарканд, по причине того, что, принося нефрит, его дочь заболела и приказала вернуть камень.

После того, как Надиршах захватил Бухару, он обратил свое внимание на Хорезм, где располагалось Хивинское ханство. В его столице существовали давние традиции рабства, причем персы составляли большинство порабощенных туркменами и проданных в Хиве. Надиршах Хивинский хан отправил к Эльбарсу II гонцов, встретился с Надиршахом и попросил его подчиниться ему. Если бы Эльбарс хорошо знал историю страны, Надиршах не убивал бы своих послов. Пять веков назад тогдашний могущественный правитель Хорезма султана Алауддина казнил посланников Чингисхана. Хорезмшах потерял свое царство и умер с позором. В то же время до персов дошли слухи, что группа узбеков и туркмен идет к Чорджою по приказу Эльбарса, чтобы разрушить мост через Оки. Надир-шах со своим войском, ночью с небольшим отрядом кавалерии немедленно двинулся к этому месту. Король прибыл рано утром, опередив своих врагов. Увидев их приближение, он приказал своим людям атаковать. Хивинцы не выдержали нападения и обратились в бегство. Отдохнув несколько дней на границе, войско Надирших двинулось по реке Окс в сторону Хорезма [1:627]. Когда он достиг территории Хивы, произошло несколько стычек с явмутскими туркменами, но Эльбарс избегал открытого боя. Напротив, он ждал Надир-шаха в стенах Хазораспа. Зная, что семья и сокровища Эльбарса находятся примерно в 30 километрах, в городе Ханка, Надир обошел Хазорсап и направился туда. Это был военный план, использовавшийся ранее персами в других походах для изгнания врага из их крепостей, и он сработал и в Хорезме. Эльбарс покинул безопасное место Хазорасп и направил свои войска на Хангу. Персидскому войску противостояла передовая группа туркмен из племен йовмут и текке. Надиршах возглавил часть, разгромившую туркмен. После этого случая Эльбарс проиграл битву с Надиршахом у ворот Ханки, как и ожидал царь. Эльбарс был быстро разбит и укрылся внутри крепости. Затем Надиршах осадил Хангу и через несколько дней, до начала общего наступления, городские войска сдались. После битвы при Питнаке была решена судьба

Хивинского ханства. Теперь пришло время вести переговоры с Эльбарсом. Хивинский хан просил шаха пощадить его жизнь, но из-за недовольства семей послов, казненных Эльбарсом (среди них были Джойбор-ходжасы), Надиршах приговорил его к смертной казни. По его словам, Хан протестовал против того, что посланники были убиты его собственными людьми без ведома Надир-шаха. «Если у вас нет возможности управлять несколькими гражданами, проживающими на ваших территориях, вы не заслуживаете жизни», — ответил Надиршах. Он приказал захватить голову Эльбарса вместе с двадцатью или тридцатью его людьми, известными своими набегами и работорговлей. После смерти Эльбарса Хива будет последним городом, который сдастся. В столице ханства и ее окрестностях Надиршах нашел большое количество рабов, многие из которых были выходцами из его родного Хорасана. Он освободил их, дал им деньги, еду и лошадей и приказал основать новый город под названием Хивабад (ныне Туркменистан). Он также освободил русских рабов, захваченных в 1716 году, когда русские не смогли завоевать Хорезм, и снабдил их необходимым снаряжением для возвращения в Россию. Казнь Эльбарса означала, что хивинский престол оказался вакантным. В ответ Надир назначил правителем Хорезма Тахир-хана, родственника бухарского хана Абулфайз-хана. После этого Надишах взял 4000 узбеков в свою армию и покинул Среднюю Азию [2:632]. Его сопровождал Мухаммад Рахим, сын могущественного патриарха Мухаммада Хакима, который присоединился к королю в его последующих походах и командовал армией из 10 000 выходцев из Центральной Азии. Как мы видели, Мухаммад Рахим был человеком, сыгравшим важную роль в истории Бухары. Завоевание Бухары и Хивы не положило конец проблемам на северных границах Надиршаха. Вскоре главным источником проблем в Туркестане для персидского царя стала не Бухара, а Хорезм.В 1741 г., во время похода Надиршаха на Кавказ, царю сообщили, что Хорезм вооружается против шаха. Тахир-хан (который находился на троне всего шесть месяцев) был казнен, когда жители региона восстали против его подчинения Надир-шаху. Казахский хан Нурали-хан объявил себя правителем Хорезма. Узнав об этом, Надиршах отправил войско для восстановления порядка. Нурали-хан бежал, и персы решили назначить правителем Хорезма Абу Мухаммеда, сына Эльбарса. Позднее из-за конфликтов между узбекскими и туркменскими племенами в регионе возникли проблемы. Племянника Надира

Алигули пришлось отправить в регион для подавления восстаний 1745 года. Бухара также была в смятении после смерти могущественного патриарха Мухаммеда Хакима, которому Надир-шах в 1743 году предоставил широкие полномочия и который захватил ханство. Повстанцы даже захватили столицу в 1745 году. Шах послал сына Мохаммада Хакима Мохаммада Рахима с армией для подавления восстания. Он подавил восстание и зарекомендовал себя как самый могущественный человек в Бухаре, как и его отец в прошлом, а хан остался простой марионеткой Хорасан исчез с убийством Надир-шаха. Фигура великого полководца превратилась в тирана и утратила способности, сделавшие его великим полководцем. После смерти Надиршаха в Хиве установилась новая власть. Казахский хан Кайыпхан взошел на престол и правил ханством, пока не был свергнут через десять лет. Позже был период ханов, которые едва жили несколько месяцев или лет и сидели на троне как марионеточные ханы, казнив своего сына. Он посадил на престол в качестве марионетки девятилетнего Абдулмомина (годы правления 1747-51), младшего сына умершего хана. Позднее Мухаммад Рахим основал династию Мангитов, правившую Бухарой до советского вторжения в 1920 году. Таким образом, влияние афшаров закончилось.

В целом, хотя правление Надиршаха на юге Средней Азии не достигло и десяти лет, влияние его завоевания региона будет ощущаться в последующие десятилетия и века. Он стремился укрепить свое господство с помощью войн и армии. Ибо По этой причине все ресурсы в стране были потрачены на войну и армию. По этой причине он двинулся к ханствам Индии и Средней Азии и завоевал эти области. Но правление Надир-шаха положило конец борьбе в стране. я понимаю. Его агрессивные действия в конечном итоге привели к обмену династиями в Бухаре и Хиве, и эти династии держали власть в своих руках до начала 20 века.

Список использованной литературы:

1. Мухаммед Казим Мерви, Алем Ара-йи Надири, т. II.

2. Арминиус Вамбери, История Бухары: с древнейших времен до наших дней; Написано впервые после восточных известных и неизвестных исторических рукописей. Лондон 1873.

3. Джемиль Козанлу, Тарих-и Низами-и Иран, С. I.

4. Майкл (2006). Персидский меч: Надир-шах, от воина племени до тирана-завоевателя (Нью-Йорк).

5. И.Б. Телец Леви, Скотт С. (2020). Бухарский кризис: связанная история Центральной Азии XVIII века. Питтсбург: Университет Питтсбург Press.

6. Мухтадор, Гулам-Хусейн (2008 г.). Великие сражения Надир-шаха.

7. Гафури, Али (2008). История иранских войн: от СМИ до наших дней, Издательство Эталоат.

8. Лоуренс Локхарт «Надир Шах» (Лондон, 1938)

9. Майкл Эксворти, Иран: Империя разума: «История от Зороастра до наших дней», издательство Penguin, 6 ноября 2008 г.

10. Перри, Джон Р. (1984). «Афшори». Энциклопедия Ирана

RUS TADQIQOTCHILARI ASARLARIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI MASALALARI

Axror JUMABOYEV
Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha) 2 kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. R.R. Alimova

Annotatsiya: Rus elchi va muarrixlari asarlarida Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi-Vatanimiz boy o‘tmishi tarixini o‘rganishda yurtimizga tashrif buyurgan Arab, Xitoy va Rossiya elchilari va sayyohlarining esdaliklari ham muhim manba hisoblanadi. Ularning xotiranoma va asarlarida tariximizning u yoki bu davriga oid ma’lumotlar chuqur va atroflicha bayon etiladi. Shu bois esdaliklar ham muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Semenov Aleksandr Aleksandrovich, V.P. Nalivkin, Maev Nikolay Aleksandrovich, V. Perovskiy, S.N. Zikov, P.P.Ivanov, M. Ivanin, N.G.Zalesov, I.Zaxarin, M.A. Terentev, A.P. Subbotin, F. Marten, Filipp Nazarov, G.R.Golovin, A.D.Grebenik, N. Burdikov, N.I.Gabbin, P.I. Pashino, N. Veselovskiy, V.V. Velyaminov-Zerkov, N.N. Muravyov va Vasiliy Vladimirovich Bartold.

Yurtimiz tarixining ko‘pchilik qismi rus va ingliz, shuningdek arab tillarida hisoblanadi. Rus olimlari qo‘shgan hissasiga keladigan bo‘lsak, ularning ko‘pi razvedka davrida kelib o‘rganishadi va o‘lkamiz tarixiga qiziqib, ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazishadi. Bu olimlar jumlasiga Semenov

Aleksandr Aleksandrovich, V.P. Nalivkin, Maev Nikolay Aleksandrovich, V. Perovskiy, S.N. Zikov, P.P.Ivanov, M. Ivanin, N.G.Zalesov, I.Zaxarin, M.A. Terentev, A.P. Subbotin, F. Marten, Filipp Nazarov, G.R.Golovin, A.D.Grebenik, N. Burdikov, N.I.Gabbin, P.I. Pashino, N. Veselovskiy, V.V. Velyaminov-Zerkov, N.N. Muravyov va Vasiliy Vladimirovich Bartoldlar hisoblanadi.

Jumladan, XVI asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan Antoniy Jenkinson, XVII asrda yurtimizga kelgan I.D.Xoxlov, S.I.Pazuxin, V.A.Davidov, M.Qosimovlarning esdaliklari, 1721-1725-yillar Buxoroda bo‘lgan F.Beneveninning, 1740-1741-yillarda Omsk shahridan 1741-yil Shubay Arslonovning Toshkent shahriga kelib yiqqan axborotlari, 1800-yil Toshkent hokimi Yunusxo‘ja chaqiruviga ko‘ra kelgan Burnashev va Pospelovlarning xotiralari, F.Nazarovning 1813-1814-yillarda Qo‘qonga qilgan safari haqidagi hisobotlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Buxoroda bo‘lib “To‘qqiz yillik sayohati” nomli kitob yozgan Filip Yefremov, XIX asrning boshlarida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan E.N.Yeversian, ruhoniy Budrin esdaliklari, N.V.Xakimov, N.Potanin esdaliklari, X.Vamberining “O‘rta Osiyo ocherklari” kitobi ko‘rilayotgan davrni tadqiq etishda muhim manbalar sirasiga kiradi. E’tiborga loyiq tomoni shundaki rus va yevropa sayyohlarining yozib qoldirgan asarlari yoki original xarakterga ega bo‘lib ularda mahalliy xalq hayoti va turmushining maishiy tomonlari yaxshi yoritilgan.

Yillar o‘tadi. Dovullar tinadi. Jang-jadallar tarix qa’rida unutilib ketadi. Soxta haykallar ag‘dariladi. Qudratli saltanatlar yemiriladi. Yolg‘on g‘oyalar barham topadi. Ajdodlar ruhini yangidan-yangi avlodlar diliga joylab voyaga yetadi va jamiyatni poklash uchun, toptalgan adolatni, erkni, ezgulikni yana o‘z o‘rniga tiklash uchun kurash maydoniga chiqadi. Bu hol uzluksiz davom etaveradi. Hayot – abadiy. Oqib turgan daryoni hech kim to‘xtatib turolmaydi.

Pushkinning “Tiklanish” nomli she’ri bor. Daho tomonidan chizilgan nodir rasm ustiga iste’dodsiz rassom har xil bo‘yoqlar chaplab, o‘zicha mo‘jiza yaratadi.

Vahshiy rassom mudroq, beizn/ Daho suratini buzadi
Va u surat ustiga o‘zin / Beburd suratini chizadi.
Lekin u yot bo‘yoqlar bir-bir / Ko‘chib tushar yil sayin ayon
Va ulug‘vor ijod bequsur / Avvalgidek bo‘lur namoyon.
Ana shunday ketar ezilgan / Yuragimdan soxta tugunlar
Va shubhasiz tiklanar o‘tgan / Ilk va toza musaffo kunlar.
(Turob To‘la tarjimasi)

Ana shunday. Vaqti kelib har qanday soxta bo‘yoqlar yo‘qolib ketadi. O‘tda kuymaydigan, suvda cho‘kmaydigan haqiqat esa o‘z qudrati va jozibasi bilan ko‘z o‘ngimizda qaytadan namoyon bo‘ladi. Tarix haqiqatini ham shunga o‘xshatish mumkin. Uni soxtalashtirish hech kimning qo‘lidan kelgan emas. Xalqimiz topib aytganidek. “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi”. Hech qachon!

Rus zobiti, chorizmning mustamlakachilik siyosatini Sharqda qon va qilich bilan joriy qilgan dahshatli generallardan biri Mixail Dmitrievich Skobelev haqida maqola yozarman deb sira o‘ylamagan edim. Sababi, davr allaqachon uning faoliyatiga baho bergan, o‘z shafqatsiz hukmini chiqarib qo‘ygandi. Inqilobdan keyingi dastlabki yillardayoq faqat chor generali Skobelevgina emas, uning hamtovoqlari – “yarim poshsho” Kaufmanlar, general-gubernator Kuropatkinlar, jallod Golovachevlar va boshqa zobitlar mehnatkash xalq g‘azabiga uchragani hammaga ma’lum. 20-30-yillarda bosilib chiqqan vaqtli matbuotdagi turli maqolalarda hamda tarixiy asarlarda chor zobitlarining bosqinchilik yurishlari, Turkiston xalqlarini qanchalik shafqatsizlik bilan qirib, qon qaqshatgani, talagani haqida ko‘plab yozilgan edi. Ayniqsa, Ulug‘ Vatan urushidan keyin bosilib chiqqan ikki jildli “O‘zbekiston xalqlari tarixi” asarining ikkinchi kitobidagi (Toshkent, O‘zFAN, 1947 y.) akademik Baxrushin tomonidan yozilgan boblarda chorizmning mustamlakachilik siyosati ko‘pdan-ko‘p hujjatlar, dalillar asosida fosh etilgandi. Bu ulkan tadqiqotni o‘qigan kishi yuqoridagi muammoga butunlay nuqta qo‘yilgan, degan xulosaga kelishi tabiiy. Ammo, yo‘q, yanglishgan ekanmiz. Tarix axlatxonasini titkilab, yangi “kashfiyotlar” topishga o‘ch “shinavanda”lar hali yo‘qolmagan ekan.

Bir vaqtlar – 60-yillarning oxirlarida Samarqand shahrida qurbon bo‘lgan chor askarlari xotirasiga qo‘yilgan yodgorlik qarovsiz qolib, yemirilib ketyapti, shoshilinch yordam kerak, degan mazmundagi xitob viloyatda chiqadigan ruscha gazetada bosilgani esimda. Shunda hamma g‘azablangan edi. Ko‘hna shahar – qadimiy poytaxtimiz Samarqanddagi buyuk obidalarni to‘pga tutib vayron qilgan, tinch aholini shafqatsizlik bilan qirgan (bu haqda boshqa bir o‘rinda batafsil gapirish niyatidamiz) mustamlaka qo‘shinlari xotirasini e’zozlash haqidagi gapning sovet matbuotida bosilishida katta mantiqsizlik bor edi. Axir biz chorizmni ag‘darib tashlagan va eski dunyo himoyachilarining hammasini bitta qo‘ymay qirib tashlashga ahd qilgan avlod farzandlarimiz-ku! Men bu gapni juda faxrlanib aytayotganim yo‘q, ammo, aslida tarix haqiqati shunday bo‘ldi-ku! Xo‘sh, podsho yomon, mehnatkash xalqning dushmani ekan, uning siyosatini qadam-baqadam amalga oshirib, zulm saltanatini himoya

qilgan, boshqa xalqlarni kuch bilan, zo‘rlik bilan o‘ziga bo‘ysundirgan chor armiyasi-yu, uning mustamlakachi amaldorlari, qonxo‘r zobitlari yaxshi bo‘lib qoldimi?!

Keyinroq Bulg‘oriyaning usmonli turklar istibdodidan ozod bo‘lgan kunga 100 yil to‘lishi munosabati bilan turli tadbirlar o‘tkazilayotgan kunlarda general M. D. Skobelev nomi yana markaziy matbuot sahifalarida ko‘rina boshladi. Uning mardligi, jasoratlari-yu, xizmatlari nohaq unutilib, kamsitilayotgani haqida nolib yozishdi. Ammo bu gal ham hushyor fikrli kishilar adolat tarozisini ushlab qoldilar. Sog‘lom mantiq ustun chiqdi: Skobelev singari zobitlarning faoliyatiga baho berganda bir tomonga og‘ib ketmaslik lozimligi, uning bulg‘or xalqini ozod qilishdagi jasoratlari qanchalik ulug‘lansa, Turkistondagi, ayniqsa, Qo‘qon xonligida, Turkmanistonda qilgan qonli qirg‘inlari shunchalik qoralanishga sazovor ekanligi alohida ta’kidlandi. Zero, adolat talabi shuni taqozo etadi.

Ammo, afsuski, allaqachon yechimini topgan bu masala, hech qanday zarurat bo‘lmagan holda, “Zvezda Vostoka” oynomasida (1990-yil, 3-son) bosilgan moskvalik tarixchi M. Popovning “Ak pashsha – belыy general” maqolasida qayta ko‘tarildi. Qizig‘i shundaki, bu maqolada general Skobelev rus xalqining fidoyi farzandi, uning iftixori, faxri-g‘ururiga aylangan shavkatli qahramon deb zo‘r berib ta’rif-tavsif etiladi, unga boshdan-oyoq madh-u sano o‘qiladi-yu, loaqal biron-bir joyda u to‘kkan behisob qonlar, yovuzliklar tilga olinmaydi ham. Axir bu ochiqdan-ochiq biryoqlamalik, tarafkashlik, qolaversa, o‘sha mudhish yillarda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan mahalliy xalqlar – o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, qozoqlarning hozirgi avlodlarini kamsitish, haqorat qilish emasmi? Xalqimizda: “Onangni o‘ynashi qozi bo‘lsa, dardingni kimga aytasan?”-degan o‘tkir naql bor. Nahotki hamon shunday bo‘lsa – adolat toptalib, yolg‘on gaplar-u razolat tantana qilib qolaversa?! Yo‘q, unday emas! Hozir boshqacha zamon. Tarixga xolis baho beradigan mutaxassislar, xayriyatki, oramizda bor. Keyingi paytlarda mazmundor she’rlari va tarixiy mavzudagi maqolalari bilan matbuotda tez-tez chiqayotgan taniqli shoir Xurshid Davron “Bosqinchilik qahramonlik bo‘ldimi?” degan maqolasida general Skobelevning haqiqiy basharasini ochib tashladi. Ehtiros va chuqur mantiq bilan sug‘orilgan bu maqolada chor bosqinchilarining kirdikorlari hamda boyagi “qahramon” generalning uyushtirgan qirg‘inlari turli dalillar, hujjatlar asosida ancha keng bayon etildi. Muallif ma’lum darajada Skobelevning istilochilik faoliyatiga yoki boshqacha aytsak, tarixiy “xizmat”lariga to‘g‘ri baho berishga muvaffaq bo‘ladi.

Elliginchi yillarning o‘rtasidan boshlab bu mavzuga faqat bir tomonlama yondashib, uning “progressiv ahamiyati”ni ko‘rsatishga butun ijtimoiy fanlar safarbar qilingani ma’lum. Oqibatda chor bosqinchilarining yovuzliklari deyarli gapirilmadi, chet eldagi xolis tadqiqotlar esa yo qoralandi, yo butunlay chetlab o‘tildi. Ana shu sharoitda Xurshid Davronning matbuotdagi dadil chiqishi hamda professor Hamid Ziyaevning “Sharq yulduzi” oynomasida bosilgan “Chorizm bosqini” (1990-y., 7-son) nomli yirik maqolasi chinakam jasorat namunasi bo‘ldi. Qayta qurish ruhi bilan sug‘orilgan bu mazmundor maqolalar mazkur mavzuni yoritish yo‘lidagi ilk qadamlar hisoblanadi. Ammo ular qalin pardaning bir tomonini xiyol ko‘tardilar, xolos. Rus bosqinining dahshatli manzaralarini to‘la ko‘rsatish uchun esa hali o‘nlab yirik tadqiqotlar, kitoblar yozilishi zarur. Ayniqsa, men Moskva kutubxonalarida bir oz muddat ishlab, turli materiallar va hujjatlar bilan tanishgach, buni chuqur his etdim. Birgina general Skobelev haqida madh-u sanodan iborat o‘nlab kitoblar yozilgan ekan. Ularning anchaginasi badiiy asarlardan iborat bo‘lib, qayta-qayta nashr etilgan. Maqsad xalq ongiga mazkur generalning “buyuk”ligi, “qahramon”ligini to‘xtovsiz singdirib borishga qaratilgan. Chorizm targ‘iboti har qalay bu vazifani “halol” bajargan ekan. Tarix allaqachon rad etgan bu «kitob»larning nomi va mualliflari bilan tanishing: Abaza K. K. “Oq” general (oq poshsho) Mixail Dmitrievich Skobelev. Sankt-Peterburg, 1905; Artomonov L. K.

1880-1881-yillarda general Skobelev qo‘mondonligi ostida rus qo‘shinlari tomonidan taka-turkmanlarning tor-mor etilishi, 3-nashri, Spb., 1898; Adam Juletta, General Skobelev, Spb., 1886; Artsishevskiy A. F. General Skobelevning 1880-1881-yillarda Axaltakada bo‘lishi. (Qahramon-daho vafotining bir yilligi munosabati bilan). Tiflis, 1883; “Oq general”. Povest, M., 1899; “Oq” general. Askarlarning M. D. Skobelevga hamda rus-turk urushiga bag‘ishlangan jangovar qo‘shiq va she’rlar to‘plami. M., 1912; “Rus xalqining qahramoni – oq general M. D. Skobelev”. 4-nashri, Spb., 1898, Grinev S. A. M. D. Skobelev, Kiev, 1894; Krasnitskiy A. I. Oq general. General M. D. Skobelev hayotiga doir. Povest-xronika, Spb., 1904; V. I. Nemirovich-Danchenko. Oq bahodir. M., 1912; Strusevich A. P. XIX asr qahramonlaridan biri. Ommabop ocherk. Spb., 1899 va hokazo.

Chor maddohlari biri olib, biri qo‘yib Skobelevni osmon-u falakka ko‘taradilar. Biri uni afsonaviy qahramon sifatida ulug‘lasa, ikkinchisi Napoleonga tenglashtiradi. Sababi, u chor hukumati manfaatlari yo‘lida sadoqat bilan xizmat qilgan edi-da! Istilochi rus generali fon Kaufmanning

bevosita rahbarligida birgina Turkistonning o‘zida 5.380 kvadrat mil territoriya bosib olinib, Rossiya ixtiyoriga o‘tkazilgan. Bu yerlar Qo‘qon, Buxoro, Xiva xonliklari hududidan tortib olingan. Ana shu zo‘ravonlik siyosatini amalga oshirishda qilichidan qon tomgan Skobelev goh Qo‘qon, Farg‘ona qishloqlarini yondirib, goh turkman ovullarini yer bilan yakson qilib, qurolsiz aholini qirish hisobiga nom chiqargani ma’lum. Uning bu xizmatlariga olqish yog‘dirgan rus shovinistlari o‘sha davrda ham chor hukumati mislsiz adolatsizlik qilayotgani, o‘zga mamlakatlar hududiga bostirib kirib, begunoh odamlarni qirib o‘ldirib, zo‘ravonlik qilayotgani haqida lom-mim demaganlar. Bosib olingan yerlardan oqib kelayotgan behisob boylik, tekin daromad cho‘ntakka tushib turgandan keyin qalam ham shunga yarasha yo‘rg‘alaydi-da! Shuning uchun bu maddoh yozuvchilardan boshqa narsa kutib bo‘lmaydi.

Xo‘sh, o‘tmishda-ku bu qahramon daho shunchalik madh etilgan ekan, keyingi yillarda u qanday baholandi? Bu borada M. Popov yolg‘iz emasdir? Mana shu xususda bosh qotirib, o‘ylab yurganimda yangi bir kitobga duch kelib qoldim. Ungacha Xurshid Davron yozgan maqola yetarli bo‘ldi, endi bu mavzuga qaytishga hojat yo‘q degan to‘xtamga kelgan edim. Chor-nochor qalam olishga majbur bo‘ldim. “Daho”ning faoliyati juda keng va rang-barang. Shuning uchun “oq” generalning faqat Turkistondagi harbiy harakatlariga to‘xtalib, ayrim mulohazalarim bilan o‘rtoqlashishga urinib ko‘raman.

Ma’lumki, Skobelev Turkistonda dastlab fon Kaufman qo‘l ostida xizmat qilib, Qo‘qon xonligini qonga botirgan edi. Keyinchalik u ana shu xizmatlari evaziga podshoh marhamatiga sazovor bo‘lib, vodiy gubernatorligini qo‘lga kiritadi. Uning mustaqil rahbarlik faoliyati 1880- 1881 yillarda Axaltaka ekspeditsiyasi bilan bog‘liq. Zolim general Ko‘ktepa qal’asi himoyachilarini ayovsiz qirib tashlagani tarixiy hujjatlarda qayd etilgan. Bu shafqatsizliklar hatto xorijdagi olimlar tomonidan batafsil yozilgan, fosh etilgan. Eng muhimi, inqilobga qadar o‘z asarlari va xotiralarini e’lon qilgan rus harbiy zobitlari bu yovuzliklar haqida batafsil ma’lumot berganlar. Yovuzlikdan bezor bo‘lgan turkman xalqi bu generalga “ko‘zi qonli” deb laqab bergan. Ana shu asarlarni birgalashib kuzatsak, Turkistonning zabt etilishi manzaralari ham, rus zobitlarining chinakam qiyofasi ham ma’lum darajada ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Rus chorizmi manfaatlarini tish-tirnog‘i bilan himoya qilgan M.D. Skobelevning Turkistondagi har bir qadamidan qon hidi kelib turadi. Ammo bu zot ko‘hna Osiyo bag‘riga kelguncha ham farishta emas edi. Uning harbiy faoliyati zulmga qarshi bosh ko‘targan polyak vatanparvarlari isyonini qonga botirishdan (1864) boshlangan. Bu “xizmati” uchun u 4-darajali

muqaddas Anna nishoni bilan taqdirlandi. O‘zini tezroq ko‘rsatish, shon-shuhrat orttirish talvasasi ayniqsa Xiva yurishi (1873) davrida avj oladi.

U Xiva yurishi boshlanishidan oldin o‘rtoqlariga “Bu gal albatta Georgiy kresti olaman!” deb maqtangan edi. Rus qo‘shini Amudaryodan o‘tib, xonlikning yirik shahar va qishloqlarini birma-bir zabt eta boradi. Qarshilik ko‘rsatgan Xo‘jayli shahri va Mang‘it qishlog‘i kultepaga aylantiriladi. Janglarda ruslardan bir kapitan, sakkiz askar o‘lgani, o‘n kishi turli darajada jarohatlangani qayd etilgan. “Dushman nihoyatda katta talafot ko‘rdi” – deb yozilgan rus qarorgohi hujjatlarida.

Qiyot shahrida 10.000 ga yaqin Xiva qo‘shini parokandalikka uchraydi. Ruslar hech qanday talafot ko‘rmagan. Xivaliklardan qanchasi o‘lgani noma’lum. Ammo I. V. Kaznachevning “General-ad’yutant M.D. Skobelev” (Petrograd, 1916) kitobida yozilishicha, “tevarak-atrof murdaga to‘lib ketgan edi” (19-bet). Xiva yaqinidagi yana bir to‘qnashuvda musulmonlardan 400-500 ga yaqin odam qurbon bo‘lgani aytiladi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon general Kaufmanga chopar yo‘llab, taslim bo‘lganini bildirgach, harbiy harakatlar to‘xtatiladi. Shunga qaramay, polkovnik Skobelev va graf Shuvalov boshchiligida mingga yaqin rus qo‘shini Shoxobod darvozasini portlatib yo‘lda duch kelgan odamni qirib, xon o‘rdasiga bostirib boradilar. Zobitlarning maqsadi ko‘proq o‘lja va yuqori martaba, nishon olish edi. Ammo general Kaufman bu “zafarli hujum”ni qattiq qoralagani va o‘zboshimcha harbiylarga, ayniqsa, o‘zini qo‘yishga joy topolmay qolgan Skobelevga jiddiy tanbeh berishga majbur bo‘lgani ma’lum. Sharmanda bo‘lgan yosh zobit ahvolini o‘nglash uchun boshqa qaltis ishga qo‘l uradi. Hali rus qo‘shini qadami yetmagan noma’lum sahro yo‘llarini aniqlab, xaritaga tushirib keladi. Bu harakat Kaufmanga ham ma’qul bo‘ladi, albatta. Ammo bu qari tullak yosh zobit taltayib ketishini xohlamasdi. Shuning uchun u quruqqina qilib: “Siz ko‘z o‘ngimda avvalgi xatongizni to‘g‘riladingiz, lekin hali hurmatimni qozonganingiz yo‘q!”-degan edi. Bularning hammasi xotiralar va ilmiy kitoblarda batafsil yozilgan. Birgina misol: “...Poytaxtning taslim bo‘lganiga doir muzokaralar olib borilayotgan paytda Orenburg otryadi tomonida to‘p ovozlari gumburlab qoldi. Xivadan chopar kelib, ruslar yana jang boshlaganini bildirdi. Ma’lum bo‘lishicha, Skobelev Shoxobod darvozasidan yorib kirgan ekan. Bu o‘zboshimchalik tufayli Skobelevni uzoq vaqtlargacha kechirmay yurishdi. Hatto Vereshchagin ham Skobelevning bu qilmishini qoralab yozgan edi”. (N. N. Knorring. «General M. D. Skobelev. Tarixiy etyudlar. Parij, 1939, 30-bet).

Qo‘qon xonligiga qarshi yurish general Skobelev hayotidagi eng qora sahifalarni tashkil etadi. Chorizm manfaati nuqtai nazaridan esa bu kunlar “oq poshsho”ning eng zafarli damlari sanalsa ajab emas. Shuning uchun ham 1896-yilda Sankt-Peterburgda bosilgan katta qomusda (17-jild, 480- bet) “Qo‘qon xonligini zabt etish chog‘ida (1876) uning (Skobelevning – O. A.) yuksak harbiy salohiyati yuqori darajada namoyon bo‘ldi”,-deb yozilgan edi. I. A. Kaznachevning aytib o‘tilgan kitobida esa general M.D. Skobelev “Xiva, Mahram, Andijon, Qo‘qon, Lovchi, Yashil tog‘, Sheynov (keyingi uchtasi Bulg‘oriyada – O. A.) hamda Ko‘ktepa janglarining qahramoni” sifatida ta’riflanadi. (7-bet). Ammo bu janglar tarixi bilan tanishsangiz, tish-tirnog‘igacha zamonaviy yarog‘-aslaha bilan qurollangan chor qo‘shini har doim pilta miltiq, qilich va nayza tutgan tartibsiz olomon bilan olishganini ko‘rasiz. Jang natijasi ham shunga yarasha. Jangovar miltiq va zambaraklar oldida qilich bilan nima qilish mumkin? Ular loaqal biron marta jiddiy harbiy qarshilikka duch kelishmagan. Shu tufayli Skobelevga o‘xshagan zobitlarning “yuksak harbiy zakovati-yu”, mislsiz “jasorati” haqidagi uydirmalar hatto o‘z davrida ham chinakam Ovrupocha ta’lim olgan va jang ko‘rgan rus generallarining ensasini qotirib kelgan. Ayniqsa, Bulg‘oriyadagi rus-turk savashlari chog‘ida unga xushlamay qaragan, mensimagan zobitlar ko‘p bo‘lgan. Buni, ba’zan, 34 yoshli navqiron generalning muvaffaqiyatlarini ko‘rolmaslik, hasad deb talqin etganlar. Bo‘lsa bordir.

Ammo ilg‘or fikrli zobitlar Turkistondagi harbiy harakatlar qay yo‘sinda kechganini yaxshi bilishar va Skobelev yengil shon-shuhrat qozonganidan batafsil xabardor edilar. U Bulg‘oriyaga qo‘mondon bo‘lib kelguncha Qo‘qon xonligini qonga botirib ulgurgan edi. Maqtanchoq generalning o‘zi chinakam urush dahshatini Bulg‘oriyada his qilganini do‘stlaridan biriga yozgan maktubida ochiq tan oladi: “Bir pud yoki undan og‘ir snaryadlar mendan 30 qadam narida portlar edi. Taassurotlar nihoyatda og‘ir, asablar zo‘rg‘a dosh beradi” (N. N. Knorring. Yuqoridagi asar, 77-bet). Bu izhori dil ham bizga ko‘p narsalarni oydinlashtirib beradi.

Aslini olganda, Qo‘qon xonligi bilan Rossiya orasida jiddiy harbiy to‘qnashuv bo‘lgan ham emas. Ayyor Kaufman u yerdagi ishlarni o‘ta ziyraklik bilan kuzatib, xalq qo‘zg‘olonlari hamda Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalangan. Oqibatda rus qo‘shini birin-ketin ko‘hna shaharlarni zabt eta borgan. 1866-yilda Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax qo‘lga olinadi. Taqdir hazilini qarangki, Xo‘jand ishg‘ol qilingandan keyin Xudoyorxon general Romanovskiyga elchi yuborib, uni g‘alaba bilan tabriklaydi. Rus zobitlari bu haqda istehzo bilan yozishgan. Sababi, Xo‘jand

Buxoro xonligiga emas, Qo‘qonga tobe shahar edi! Uyga tushgan o‘g‘rini haydab chiqarish o‘rniga boshini silash hatto Afandining ham tushiga kirmagan bo‘lsa kerak. Bu haqda I. A. Terentevning “O‘rta Osiyoning zabt etilishi” asaridan (1-jild, 327-bet batafsil ma’lum olishingiz mumkin).

1868-yilda ruslar Samarqand va Qattaqo‘rg‘onni ishg‘ol etishadi. Qo‘qon xonligidagi fidoyi kishilar “Yer yuzining sayqali” bo‘lgan ko‘hna shaharni qaytarib olish uchun ruslarga qarshi jangga otlanishni talab qiladilar. G‘azablangan xalq oyoqqa turadi, ammo xon bu tashabbusni ma’qullamaydi. Aksincha, tabrik yorlig‘i bilan Hakimxon to‘rani rus qarorgohiga elchi qilib yuboradi. Mazkur elchi, ya’ni Hakimxon keyinchalik haqiqiy statskiy sovetnik unvoni bilan taqdirlanadi va Umidov familiyasini qabul etib, rus fuqaroligiga o‘tadi. Chor hukumati uni javohirlar qadalgan 2-darajali Anna nishoni bilan mukofotlaydi, xon esa javohir yulduz bilan ziynatlangan 1-darajali Stanislav nishoniga sazovor bo‘ladi. Bunday iltifotlardan erib ketgan xon Kaufmanga yozgan ilk maktublaridan birida (1868-yil, 29-yanvar) “ulug‘ rus podshohi bizga qo‘shni davlatlarda xon va xalq o‘rtasida nizo chiqishiga yo‘l qo‘ymasligiga ishonchimiz komil” deb yaltoqlangan edi. U chor hukumatiga sadoqat ramzi sifatida Qo‘qonga qochib kelgan shahrisabzlik jangovar beklar – Jo‘rabek va Bobobekni (oddiy mehmondo‘stlik an’analariga zid ravishda) tutib berishdan ham or qilmaydi. Holbuki, o‘z kuchlarini takomillashtirish va qo‘shni davlatlardan madad olib, chegarani mustahkamlash lozim edi. Mazkur beklarning boy tajribasi, jangovar tabiati unga asqatishi mumkin edi. Buning o‘rniga xon Rossiyaga boshqa sohalarda ham yordam ko‘rsatib borgan. Bu haqda hatto rus zobitlari katta hayrat bilan qalam surishadi: “1871-yilda hosil bitmagani tufayli donning bahosi misli ko‘rilmagan darajada ko‘tarilib ketdi, xon bizga bug‘doy yetkazib berib turdi va 1871- yilning yozida va 1872-yil davomida Qo‘qon chegarasiga tutash yerlarga joylashgan qo‘shinlarimizni g‘alla bilan ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oldi” (Terentev, yuqoridagi kitob, 329-6.)

Xo‘sh, chor qo‘shini bunday g‘amxo‘rlik, yaxshilik evaziga nima berdi? Qulay imkoniyat (to‘g‘irog‘i, bunday bahona ko‘pdan kutilmoqda edi) tug‘ilishi bilanoq xonlikni larzaga solgan xalq qo‘zg‘olonlarini bostirish niqobi ostida Qo‘qon hududiga bostirib kirib bordi. Kaltabin hukmdorlar bu siyosiy nayrang ekanini, saltanatning sanoqli kunlari qolganini xayoliga ham keltirishmagan. Rossiya esa xonlikni bosib olish uchun ko‘pdan qulay payt poylab kelar edi. Harbiy vazir D. A. Milyutinning “Kundaliklari”da (1-jild, M., 1947) bu haqda bir qator ma’lumotlar mavjud.

Rus imperiyasi uchun katta xizmatlar qilgan bu vazir Turkistonni to‘la zabt etish tarafdori (Tashqi ishlar vaziri M. A. Gorchakov bu harakatlarga qarshi bo‘lgan) va tashabbuskori edi. U ko‘pgina davlat sirlari, podshoh hamda boshqa yuqori lavozimdagi amaldorlar bilan qilingan suhbatlar, mamlakatning tashqi ahvoli haqidagi mulohazalari, kuzatuvlarini batafsil yozib borgan. Uning qayd etishicha, rus imperatori Aleksandr II ham Sharqdagi harbiy yurishlarni hamisha ma’qullab, rag‘batlantirib kelgan ekan. “Kundalik”ning 1874-yilgi sahifalarida o‘qiymiz: 8-avgust. Juma. Qo‘qonliklar o‘z xonlari (Xudoyor)ga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targani haqida telegramma olindi, general Kaufman otryadni shaylamoqda (harbiy harakatlarning bo‘lishi muqarrarga o‘xshaydi). 18-avgust. Dushanba. Moskva. Ertalab Moskvaga kirish arafasida (suhbat poyezdda ro‘y bermoqda – O. A.) men vagonda ancha uzun doklad bilan murojaat qildim va gap orasida hukmdorga Klinda olingan general Kaufmanning telegrammasini ham o‘qib berdim. U bizning tasarrufimizdagi yerlarga bostirib kirgan qo‘qonlik beboshlar hamma joyda mag‘lubiyatga uchragani va otryadlarimiz ularni Qo‘qon hududiga ta’qib etib borayotgani haqida xabar bergandi. Kaufman yana bu ta’qib Qo‘qon xonligini zabt etish bilan nihoyasiga yetadi deb qo‘shib qo‘ygan va shuning uchun qo‘shimcha madad kuchlari yuborishni so‘ragan edi. Ish nihoyatda jiddiy – Osiyodagi siyosatimizda yangi chigalliklar yuzaga kelib, Angliyadagi baqiroqlarga yana xudo beradigan ko‘rinadi!

Hukmdor bu xabarlarni avvaldan kutilgan, ro‘y berishi zarur holat sifatida xotirjam tingladi va (zarracha) ikkilanmay, Turkiston o‘lkasiga qo‘shin jo‘natish uchun tayyorgarlik ko‘rishga ijozat berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi T., “Sharq“ 2000
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar T., „O‘qituvchi“ 1994
3. V.V.Veliyaminov-Zerkov.Istoricheskie izvestiya o Kokandkom xanstve ot Muxammad -Ali do Xudoer-xana, Spb, 1856
4. Svedeniya o Kokandskom xanstve. Vestnik *Russkogo geogaficheskix obщestva, ch. XVIII, 1856

TOSHKENT VOHASI SHAHARLARI AHOLISINING ETNOMADANIYATI VA TURMUSH TARZIDAGI O‘ZGARISHLAR

Iskandar SULAYMANOV
Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dots v.b. M.M. Askarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent vohasida yashab kelayotgan turli millat vakillari, xususan, mintaqadagi tojik, qozoq, koreys millatiga mansub aholining o‘rtasidagi etnomadaniy jarayonlar, kundalik turmush tarzidagi o‘zgarishlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: etnomadaniy jarayonlar, urf-odatlar, o‘zbek tili, rus tili, koreyslar, taomlar.

Hozirgi kundagi o‘zgarishlar kishilar hayotining moddiy yetukligi bilan birga ma’naviy yangilanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi, u yerda yashayotgan jamoaning axloq-odob, urf-odat va an’ana mezonlari bilan tartibga solinadigan ma’naviy hayotida kapitalistik munosabatlarga xos bo‘lgan hisob-kitob, foydali-foydasiz, mos-mos emas kabi me’yorlar ham keng o‘rin olgan.

Kapitalistik munosabatlarining tezlashuvi turli etnoslar uchun “standartlashgan” turmush tarzi va an’analarni taqdim etmoqda. Shaharlar, kishilarning tabiiy sharoitga mos an’anaviy turmush tarzidan o‘zlari barpo etgan makondagi hayot ritmiga, sanoat shaharlarida esa mehnat faoliyatiga o‘tayotganini namoyish etmoqda. Shahar go‘yo – odamning tabiat bilan kurashi va uning ustidan g‘alabasi ramzi o‘laroq, insonni himoya qiluvchi va ishlashi uchun barpo etilgan texnogen tuzilmaga aylanib qolgan[1].

Natijada shahar jamiyatida yashayotgan turli ijtimoiy guruhlar va etnoslarning hayotida vujudga kelgan “bir xillik” etnomadaniy jarayonlarni tadqiq etishda qator savollarni paydo qilyapti. Ya’ni, juda o‘xshash turmush tarzida yashayotgan turli etnik guruhlardagi o‘ziga xosliklarni tadqiq etishda qaysi omillarga e’tibor berish kerak? Ayniqsa, sanoat shahri muhitida yashayotgan kishilarning madaniyati va turmush tarzini o‘rganish o‘ziga xos yondashuvlarni talab etadi.

[1] Ле Корбюзье Ш. Градостроительство // Ле Корбюзье Ш. Архитектура XX века. – М.: Прогресс, 1977. – С.304.

Chunki, mazkur muhitda yashayotgan barcha etnoslarning kundalik hayoti va turmush tarzi uzoq yillar davomida ma’lum sanoat korxonasi bilan bevosita bog‘liq holda tashkil etilganligi shunday “bir xillik”ni keltirib chiqargan. Bu haqda dissertatsiyaning avvalgi paragraflarida batafsilroq to‘xtalgan edi. Shuning uchun ham ushbu paragrafda aynan, “sanoat shahri kishisi”ning o‘ziga xos bo‘lgan etnomadaniyati va turmush tarzini yoritish maqsad qilingan. Ayrim hollardagina aholining turmush tarzi va etnomadaniyatidagi transformatsiya jarayonlarini alohida ko‘rsatish maqsadida kundalik hayotdagi ba’zi etnoslarga xos bo‘lgan jihatlar ajratib ko‘rsatiladi. Chunki, milliy o‘ziga xoslikning asosini kundalik hayot darajasi tashkil etadi[1].

Bugungi kunda Toshkent viloyati sanoat shaharlari aholisi tarkibini quyidagicha tasniflash mumkin. Chirchiq shahrida asosan o‘zbek, qozoq, tojik, rus, tatar, koreyslar; Angrenda o‘zbek, tojik, ruslar; Olmaliqda o‘zbek, rus, koreys, uyg‘urlar; Bekobodda o‘zbek, tojik, rus, lo‘lilar tashkil etadi. Bulardan tashqari yana ko‘plab mahalliy va yevropa millati vakillari ham istiqomat qiladi[2].

Yuqoridagi fikrni davom ettirgan holda aytish mumkinki, oiladagi bola tarbiyasining o‘z tilida berilishi, uning kim ekanligini anglashidagi dastlabki bosqich hisoblanadi. Odatda o‘zbeklar o‘zbek tilida, qozoqlar qozoq, tojiklar tojik, tatarlar tatar tilida bolaning tilini “chiqarishadi”.

Keyinchalik irrident bo‘lgan oila farzandida bilinglivizmlik qozoq+o‘zbek, tojik+o‘zbek kabi ko‘rinishlarda shakllansa, aksariyat yevropa millati vakillarida esa ona tili+rus tili ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu tahlillar asosan bir millatli oilalar misolida qilingan. O‘z o‘rnida savol tug‘iladi. Aralash nikohli oilalarda bu jarayon qanday kechmoqda? Bu haqda to‘xtalishdan oldin, Toshkent vohasi sanoat shaharlarida bu borada ham o‘ziga xosliklar mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, Chirchiq-Bo‘stonliq hududida o‘zbek-qozoq, shuningdek, tog‘li mintaqalarda esa o‘zbek-tojik, qozoq-tojik, Angrenda o‘zbek-tojik aralash nikohlari ko‘proq uchraydi. Bunday oilalar umumiy olganda kichik foizni tashkil etsa-da, boshqa millat vakillari o‘rtasidagi nikohdan ancha ko‘pdir.

Mahalliy bo‘lmagan millat vakillari o‘rtasidagi oilalarda bu borada rus tilining ustunlik qilishini ko‘rish mumkin. Olmaliq shahrida istiqomat qiluvchi Ahmedovlar oilasida ota Muzaffarxon Ahmedov o‘zbek, ona Tyo

[1] Канукова З.В. Полиэтничный город как объект историко-этнического исследования. Авт. реф. дисс. док. ист. наук. – М., 2001. – С.4.

[2] Хўжахонов И. Ўзбекларнинг миллий ўзлиги. –Т.: Nurafshon business, 2020. – Б. 24.

Tatyana Yurevna koreys millatiga mansub kishilar. Farzandlar Sabina va Saidalamxonlar ota bilan oʻzbek tilida, ona bilan rus tilida soʻzlashar ekan.

Ota hazillashib turmush oʻrtogʻidan farzandlari bilan oʻzbek tilida yoki koreys tilida soʻzlashishni talab qilar ekan. Oilada kim rus deb kulishar ekan. “Oʻzim koreys tilida soʻzlashishni bilmasam, farzandlarimga qanday qilib bu tilda soʻzlashim mumkin (kulib)” . Shunday boʻlsa-da keyingi avlodning oʻz ona tillarini bilishi muhimligi ular tomonidan koʻp bora ta’kidlanadi. Bugungi kunda Olmaliq shahrida yashovchi koreys millatiga mansub kishilarning birinchi avlodi (ular juda ham ozchilik) hamda toʻrtinchi avlodi vakillari orasida koreys tilini biluvchilarni uchratish mumkin.

Ikkinchi va uchinchi avlod orasida esa bu qiyin. Buning sababi sifatida koʻchirib kelingan avlod vakillari farzandlarining jamiyatda oʻz oʻrnini topishida rus tilini muhim deb hisoblab, “ota-onalar oʻz farzandlarining hatto oilada ham rus tilida soʻzlashishini talab qilgan” ligini koʻrsatish mumkin. Bunda ota-onalar oʻz farzandlarini tezroq rus tilini oʻrganishi, oʻzi yashayotgan jamiyatning teng huquqli a’zosiga aylanishini maqsad qilgan albatta.

Hozir esa ular oʻz farzandlarining koreys tilini oʻrganishini istashadi. Shahardagi til markazlari, internet tarmogʻidagi onlayn darslar orqali yosh avlod koreys tilini oʻrganmoqdalar. Bundan koʻrinib turibdiki, til etnoslarning oʻzligini anglashi, etnomadaniy mansubligini his etishida oʻz oʻrniga ega.

Har bir xalqning xoh ma’naviy yoki moddiy madaniyatidagi atamalar, hodisalar oʻz ona tillarida yangrar ekan, ushbu etnoslar har qanday aralash muhitda hayot kechirmasin oʻzlarining “meni”ni saqlashda, alohida madaniyat vakili sifatida yashashda davom etadilar.

Kishilarning moddiy madaniyati haqida fikr yuritilar ekan, an’anaviy taomlarning etnosga xos boʻlgan oʻziga xos xususiyatlarni koʻproq saqlab qolayotgan tarmoq sifatida ta’kidlash oʻrinli.

Toʻgʻri, bugungi kunda kishilarning kundalik taomlanishida turli millatlarga xos boʻlgan taomlarni uchratish mumkin. Bifshteksdan tortib, fransuzcha salatlargacha xonadon sharoitida tayyorlanmoqda. Buni axborot olish imkoniyati va turli mahsulotlarni xarid qilish qobiliyatining oshganligi bilan izohlash oʻrinli. Lekin bizni qiziqtirgan jihat, oʻsha taomlarning tegishli etnoslarning etnomadaniy oʻziga xosligi haqida nimalarni soʻzlayotganidir.

Ma’lumki, koreyslar eng yaxshi salatlarni tayyorlaydilar. Qaysidir ma’noda buni etnoiqtisodiyotining muhim tarmogʻiga aylantirgan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Buning sababi haqida surishtirilganda, uning mazkur xalq taqdirining ajralmas qismi ekanligi ma’lum boʻladi.

Koreyslar ocharchilik yillarida oziq-ovqat taqchil sharoitida tabiat ne’matlaridan (asosan o‘t-o‘lanlardan) yegulik sifatida foydalanishga majbur bo‘lishgan. Yon-atrofida o‘sayotgan barcha o‘simliklarni iste’mol qilib, qaysidan qanday yegulik tayyorlash mumkinligi xususida katta tajriba orttirganlar. Shuning natijasi o‘laroq koreyslarga xos taomlarga deyilganda asosan o‘simliklardan tayyorlangan ozuqalar ko‘z oldimizga keladi. “Qizimga doim takrorlayman” – deydi axborotchilardan biri – “agar sen bozordan salat sotib olsang koreys emassan. Har qanday salatni uyda tayyorlay olishing kerak. Chunki bu biz koreyslarning o‘tmishidir”.

Zero, oziq-ovqat – moddiy madaniyat elementi bo‘libgina qolmay, an’anaviy xususiyatlarni boshqa sohalarga qaraganda ko‘proq saqlaydigan, xalqning milliy o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi g‘oyasini ifoda etadigan voqelikdir[1].

Etnosga xos mahalliy (lokal), milliy va diniy xususiyatlar odatda, marosimlarda birmuncha yorqin namoyon bo‘lib, ma’lum bir xalq etnomadaniyati va dunyoqarashi asoslarini tadqiq etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аббосов Б., Раҳимов М. Бекобод. – Т.: Ўзбекистон, 1975

2. Аҳмедов А. Ўзбекистон шаҳарлари мутсақиллик йилларида. – Тошкент, 2002.

3. Гулямов А. Ангрен. – Т.: Узбекистан, 1971

4. Зияев А. Алмалык (Туккет – Кульота) древность, средневековые, современность. – Т.: San’at, 2019

5. Зотов А., Раимов Т. Ўзбекистон шаҳарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1965

6. Мирзақулов Т., Хасанов А. Олмалиқ асрлар силсиласида: тарих, истиқлол ва бунёдкорлик. – Олмалиқ, 2021

7. Ле Корбюзье Ш. Градостроительство // Ле Корбюзье Ш. Архитектура XX века. – М.: Прогресс, 1977. .

8. Хўжахонов И. Ўзбекларнинг миллий ўзлиги. –Т.: Nurafshon business, 2020..

9. Анаркулов С.М. Замонавий саноат шаҳарларида ижтимоий-маданий мослашув жараёнлари (Тошкент вилояти шаҳарлари мисолида). (PhD) Дисс. – Т. , 2021.

10. Канукова З.В. Полиэтничный город как объект историко-этнического исследования. Авт. реф. дисс. док. ист. наук. – М., 2001.

[1] Анаркулов С.М. Замонавий саноат шаҳарларида ижтимоий-маданий мослашув жараёнлари (Тошкент вилояти шаҳарлари мисолида). (PhD) Дисс. – Т. , 2021. – Б. 130.

POKISTON MADANIYATINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Nozima JO‘RAYEVA
SHFT 2-kurs, urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. M.A.Shorahmedova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Pokiston madaniyatining rivojlanish bosqichlari, etnik guruhlari, tillari, Boburiylar davrida qurdirilgan me’morchilik obidalari, hunarmandchiligi, bayramlari, shuningdek, Pokiston madaniyatining o‘ziga xosligi, to‘rt provinsiyaning urf-odatlari, musiqa va raqs sana’ti, milliy kiyimlari va taomlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, me’morchilik, kulolchilik, tillar, muzey, sindhiylar, pashtunlar, ko‘histoniylar, muzey, “Attak” raqsi, “sitar”, “kurta”.

Ma’lumki, Hindiston va Pokiston madaniyati qadimiy tarixga ega. Bu ikki davlatning tarixi, madaniyati, kelib chiqishi uzviy bog‘liq. Hindiston madaniyati butun dunyoda eng jo‘shqin va sirli madaniyatlardan biri sifatida tanilgan. Miloddan avvalgi XV asrdan boshlab islomiy bosqinlar va g‘arb mamlakatlari Hindiston ustidan hukmronlik qilgandan so‘ng unga turli madaniyatlar ta’sir ko‘rsatdi, ammo mohiyati va an’analarini saqlab qoldi. Islom madaniyati Hindiston madaniy hayotini ko‘p jihatdan boyitdi. O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan qog‘ozni qo‘lda ishlab chiqarish usuli bilan Hindiston birinchi marta 13-asrda tanishdi. Bu narsa rassomchilik san’ati va adabiyotining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Hindistonni ko‘pincha ochiq ajoyibxonaga qiyoslanadi. Bu o‘xshatishda mubolag‘a yuq. Shimolda viqorli Himolay tog‘ tizmalaridan janubda Hind ummonigacha, g‘arbda Arabiston dengizidan Sharqda Bangal ko‘rfazigacha bo‘lgan bu ulkan yurt zaminida behisob tarixiy obidalar o‘rin olgan. Dehlidagi Qutb minor, Eski qal’a, Amritsarda sekhlarning Oltin ibodatxonasi, Jaypurdagi Havo mahal, Amber qo‘rg‘oni, Mahabalipuram-dagi qoyalarga bo‘rttirma qilib ishlangan manzaralar, Kanchipuramdagi hindu ibodat xonalari, Kajuraho‘dagi sevgi ibodatxonalari, Puriydagi Quyosh ibodatxonasi, budda dini bilan bog‘lik stupalar va yana qanchadan-qancha mashhur tarixiy obidalar Hindistonning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda[1].

Pokiston nisbatan yosh davlat bo‘lsa-da, ammo uning tarixi va madaniyatining rivojlanish bosqichlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Pokiston me’morchiligi turli vaqtlarda qurilgan turli xil inshootlardir. Moxenjo-Daro va Xarappa qadimiy shaharlarida olib borilgan qazishmalar

[1] А.Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Тошкент, “Меҳнат”, 1993. – Б.53

mintaqada arxitekturaning dastlabki rivojlanishi haqida so‘zlaydi. Pokistonning Ravalpindi, Lahor va boshqa shaharlarida nafis, qadimiy hind tosh ibodatxonalarini ko‘rish mumkin.

Pokiston me’morchilik madaniyati Xarappa sivilizatsiyasining shaharlar qurilishidan kelib chiqadi. Shu kabi me’morchilik madaniyati tarixidan xabar beruvchi “*Gandhara*” maktabi qurilishi Kushon imperiyasining hukmronlik davriga to‘g‘ri keladi.[1] Bora bora VII-VIII asrlarda me’morchilik islom qonunlari asosida rivojlana boshladi. Dehli sultonligi davrida Lahor, Multon, Peshovar, Tatta madaniy markazlardan biriga aylandi. Pokiston madaniyati rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lgan *Boburiylar* davrida bu madaniyat yuqori cho‘qqiga chiqdi.

Bularga misol qilib esa, 1670-yil Avrangzeb Olamgir tomonidan Lahorda qurilgan “*Badshahi masjid”* (Shoh masjidi), 1634-yilda qurilgan “*Vazirxon masjidi*”, shuningdek, XVI-XVIII asrda Boburiylar tomonidan qurilgan Lahor forti, 1637-yili Boburiy hukmdor Shoh Jahon tomonidan barpo etilgan Lahordagi “*Shalimar bog‘i”* kabi hashamatli va juda nafislik bilan qurilgan bino va bog‘lar bunga misol bo‘la oladi deb bemalol ayta olamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan sulolaning zabardast vakillari hind madaniyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Keyinchalik XVIIII asrga kelib, Pokiston me’morchiligida yangi uslublar qo‘llana boshladi, yangi arxitektura institutlari ochila boshladi.

Pokistonda turli din vakillarining urf-odatlari uyg‘unlashgan. Lekin Pokiston aholisining aksariyati musulmonlar. Bu e’tiqod Pokistonning turmush tarzi va odatlari uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Pokiston qonunlari shariat asosida qurilgan va barcha ijtimoiy munosabatlar Qur’on qonunlariga bo‘ysunadi. Bugungi kunda Pokiston o‘ziga xos milliyligi, madaniyatiga ega davlatdir. Pokiston madaniyatiga islomiy mafkura VII- VIII asrlarda kirib kela boshladi. Buning ta’sirini mamlakatning turli xil sohalarida ko‘rishimiz mumkin.

Quyida Pokistonga oid etnik guruhlar, tillari, madaniyatiga oid me’morchilik obidalari, bayramlari, muzeylari, musiqa san’ati, hunarmandchiligi, milliy liboslari va taomlari haqida batafsil fikr yuritsak.

Pokiston hududida ko‘plab millatlar istiqomat qiladi. Ulardan 15dan ortig‘i aholining etnik tarkibiga salmoqli hissa qo‘shgan. Jumladan, *panjoblar* 44,7%, *pashtunlar* 15,4%, *sindhiylar* 14,1%, *saryaklar* 8,4%, *muhojirlar* 7,6%, *balujlar* 3,6% va boshqa millatlar 6,3% ni tashkil etadi. Pokistonning shimoliy qismida tog‘li xalqlar – *ko‘xistoniylar* ham istiqomat qiladi.

[1] “Энциклопедия Пакистана” (Отв.ред.Ю.В.Ганговский) – М.,1998. - С.530.

Shu bilan bir qatorda mamlakat aholisi turli tillardan foydalanadi. Ulardan urdu va ingliz tillari umumiy davlat tili sifatida qabul qilingan. Mamlakat aholisining 7%i urdu tilida, 38%i panjob tilida, 16%i pashtu tilida, 12%i sindhiyda muloqot qiladi.

Pokiston Islom Respublikasi islomiy davlat bo‘lishiga qaramay unda boshqa din vakillari ham istiqomat qiladi. Pokiston aholisining 95%ini musulmonlar, 1,85%ini hindular, 1,6%ini xristianlar va 0,001%ini sikxlar tashkil qiladi. Shuningdek parsislar, ahmadiylar, buddistlar, yahudiylar ham bor.

Pokiston me’morchiligi, ya’ni “*arxitektura*” rivoji qadimiy tarixga ega. Bunga misol qilib esa, Taksila shahrida miloddan avvalgi 2-3 asrlarda qurilgan yodgorliklar qoldiqlari saqlanib qolganini aytish mumkin. Ushbu yodgorliklar o‘zining qurilish me’morchiligida Moxenjo-Daro andozasidan foydalangan.

Pokiston bayramlari xususida shuni aytish mumkinki, Pokiston islom davlati bo‘lganligi sababli Hindiston bayramlaridan farqli ravishda rasmiy bayramlar bilan bir qatorda islomiy bayramlar ham nishonlanadi. Jumladan, “*Qurbon hayiti”,* “*Ramazon hayiti”*, “*Iydul Milad”* (Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamning tavallud kunlari)ni musulmonlar butun mamlakat bo‘ylab keng miqyosda nishonlaydilar. Undan tashqari rasmiy bayramlardan 23-mart “*Pokiston kuni*”, 9-noyabr “*Alloma Muhammad Iqbol tavallud kuni”*, 14-avgust Pokiston Islom davlatining “*Ozodlik kuni*”, 25-dekabr Pokiston asoschisi, davlat arbobi Muhammad Ali Jinnaning tavallud kuni kabi bayramlar ham nishonlanadi.

Pokiston madaniyati haqida fikr yuritar ekanmiz, Pokiston tarixini ko‘rsatib beruvchi bir qator muzeylar haqida ham aytib o‘tish joiz. Ulardan biri 1884-yilda bunyod etilgan Mo‘g‘ul va Sikx davrlariga oid eksponatlari bilan ma’lum va mashhur “*Lahor muzeyi*”. Bundan tashqari 1907-yilda ochilgan haykaltaroshlikka ixtisoslashgan “*Peshovar muzeyi*”, Karachidagi paleolit davridan VI asrgacha bo‘lgan eksponatlarning noyob to‘plamiga ega muzey hisoblanadi. Shuningdek, 1950-yilda ochilgan *“Pokiston Milliy muzey”* ini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

VII-VIII asrlarga kelib chetdan badiiy san’at va islom dinining mahalliy madaniyatga kirib kelishi boshlandi. Arablar mamlakatga xattotlik san’atini olib keldilar. So‘ngra mahalliy xalq orasida bu san’at turiga, rassomchilikka, qiziqish tobora ortib bordi. Shu tariqa binolar, masjid-maqbaralar yozuvlar bilan bezatila boshlandi. Bunga misol qilib “*Shayx Turboy masjidi”*, “*Shoh Jahon maqbarasi”*ni keltirishimiz mumkin. Buning natijasida Sind viloyati xattotlik san’atining markaziga aylandi .

Pokistonda musiqa san’atiga to‘xtaladigan bo‘lsak, musiqa madaniyati asrlar davomida Eron, O‘rta Osiyo, Arab va Hindiston musiqa madaniyati elementlari bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan. Pokiston tarixida Sindh san’atidagi shoir *Shoh Abdul Latif* (1690-1752) ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan *Kafi*(کافی) an’anasi bilan mashhur. Jumladan, Pokiston musiqa madaniyatining rivojlanishida olim, shoir va sozanda *Amir Xusrov Dehlaviy*, *Sulton Hussayin Sharqiy* va *Vojid Alishoh* kabi bir qator musiqachilar o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda Pokiston musiqa san’atidagi musiqa cholg‘u asboblarni ham keltirib o‘tamiz. Ulardan *sitar, vichitra, vina, sarangi, sarod, rubob, algoza, tabla, duff, damaru, hind garmonikasi, banjo* va hind *arfa changlari* ko‘p ishlatiladi.

Pokistonning raqs san’ati esa antik davrga borib taqaladi. Erkaklar “*Attan”* raqslari (*asosan pashtunlar orasida*), “*Ludi”* va shu kabi milliy raqslari faol harakatlari bilan ajralib turadi.

Pokistonda xalq hunarmandchiligi jumladan, qo‘l mehnati mahsulotlari yetakchi o‘rinlarda turadi va juda qadrlanadi. Ulardan *Rilli*[1](ریلی) rang-barang ko‘rpalar, choyshablar, sharflar, gilamlar va kashtado‘zlik elementlari asrlar davomida Sindh va Baluchiston ayollari tomonidan qo‘l mehnati orqali tikiladi. Phulkari[2] (پھولکاڑی) ham asosan *Savat*, *Hazar* va *Chakval* atrofida tayyorlanadi. Kashmir, Azad Jammu vodiysi o‘zining *“Pashmina”*) *(*پشمینہdeb ataladigan ro‘mollari va ipak kashtalari bilan mashhur.

Pokiston madaniyatiga xos XIII-asrdan beri ma’lum bo‘lgan Multon ko‘k kulollari gul naqshlari va ko‘k ranglari bilan ajralib turadi.

Gilamdo‘zlik an’anasi bundan 4000-5000 yil avval Moxenjo-Daroda ilg‘or san’at turi bo‘lgan. Gilamlar asosan Karachi, Lahor, Faysalobod va Muzaffarobodda to‘qilgan.

Pokiston Gravuri[3] bilan ham mashhur. Bu hunarmandchilikning nodir turlari hozirgi paytda ham Pokiston bozorlarida o‘z o‘rniga ega.

Mamlakatning har bir hududi o‘ziga xos qadimiy an’ana urf odatlari va madaniyatiga ega. Xususan, Panjob (پنجاب) viloyati Pokistonning aholi soni bo‘yicha eng katta viloyati hisoblanadi. Markaziy shahri Pokiston madaniyat beshigi bo‘lgan Lahor shahri. Lahor – obidalaridan tashqari o‘zining qiziqarli bayramlari bilan mashhur. Jumladan, bahor mavsumida “*Basant Panchami”* festivali o‘tkaziladi. Panjobda “*Ludi”, “Dhamal”* kabi raqs turlari mashhur.

[1] Rilli — qo‘l menhati orqali to‘qiladigan ana’naviy tarzdagi rang-barang choyshab. Asosan Pokistonning Sindh provinsiyasiga tegishli hunarmandchilik turi.

[2] Phulkari- geometrik shaklda kashta tikilgan buyum.

[3] Gravuri- sayqallangan misdan yasalgan buyum.

Panjob o‘zining *Sailkot* – xalqaro miqyosdagi sport va jarrohlik tovarlari va *Chiniot* mebel va yog‘och san’ati bilan dunyoga mashhur.

Yana bir o‘ziga xos madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan Sindhning(سندھ) boy madaniyati, san’ati, me’moriy manzarasi yillar davomida tarixchilarni hayratga solib kelmoqda. Markazi – Karachi shahri. Sindh 8-asrda qit’adagi musulmonlar qo‘liga o‘tgan birinchi viloyat bo‘lgani uchun "*Islom darvozasi*" deb ham ataladi. [1] Qadimda Sindh hunarmandlarining asarlari Damashq, Bog‘dod, Basra, Istanbul, Qohira va Samarqandning bozorlarida sotilgan.

Sindh oshxonasiga O‘rta Osiyo, Eron taomlari an’analari ta’sir qilgan. *Dal, Pakvan, Koki Sayun, Sindhi Kadi, Taryal Patata* kabi milliy taomlar sevib iste’mol qilinadi. Asosan dengiz mahsulotlari iste’mol qilinadi. *Busri, Mao, Ghuyar, Xorak, Paixu, Tahiri, Rabri, Atay* kabi shirinliklari mashhur.

Baluchiston (بلوچستان) Pokistonning maydon jihatidan eng katta viloyati. Markazi – Kvetta shahri. Bu viloyat “*Pokistonning mevali bog‘i*” deb nomlanadi. Baluchiston *“Jashn e Qalat”* (جشن قلات) festivali nishonlanadigan yagona viloyat hisoblanadi. *Leva, Bob, Jumar* va *Attan* kabi raqs turlari mashhur. Bu mintaqada asosan quruq mevalar va dukkaklilar ko‘proq iste’mol qilinadi. *Sajji* (qo‘zichoq yoki tovuq go‘shtidan iborat bo‘lgan guruch bilan to‘ldirilgan, pechda pishiriladigan baluch taomi) *Lanahi, Pirki, Khaddi Kabob* Baluchistonning mashhur taomlaridan hisoblanadi.

Asosan pashtunlar istiqomat qiladigan Pokistonning uchinchi yana bir viloyati ***Xayber Paxtunxuva*** (خیبرپختونخوا) geografik jihatdan eng kichigi bo‘lsa-da aholi va iqtisodiyoti bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. Uning *Buzkashi* (ko‘pkari) pashtun xalqi orasida nishonlanadigan mashhur bayrami juda mashhurdir. Xayber Paxtunxuva viloyatida *Shayx kabob, chapli kabob, dam pukh, aushak, mantu, bolani* kabi milliy taomlari mavjud.

Pokistonning asosiy oziq-ovqati bug‘doy, sholi, makkajo‘xori, shakar hisoblanadi. Shu sababli bu mahsulotlarni yetishtirish mamlakat bo‘ylab yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirgi kunda mintaqaning *“Basmati”* navli guruchi ko‘p mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Pokiston oshxonasida turli xil ziravorlardan foydalanish an’anaga aylangan va bu aholi taomlanishida katta ahamiyatga ega. Bayramlar va dam olish kunlari asosan *holva* va *no‘xat* iste’mol qilinadi. Yakshanba kungi an’anaviy nonushta *Siri-paya* (qo‘zichoq va sigirning boshi va oyoqlar) yoki *Nixari* (go‘shtni juda yumshoq qilish uchun bir kechada pishiriladigan taom) iste’mol qilinadi.

[1] «Пакистан: Очерки истории, экономики, культуры» (Отв.ред.Ю.В.Ганковский). – Т., 1977. – С.34.

Shuningdek, *Dal", "Chaval", "Tovuqli karahi", "Biryani", "Nihari", "Pulao", "Kofte", "Kabob"* kabi mashhur taomlari bor.

Shirinliklardan (*Mithai*) Peshovar muzqaymoqlari, *shaffof xurmo, kulfi, falo'da, khur, zarda, shohi tukray* kabilar sevib iste'mol qilinadi. Har bir davlatda bo'lganidek, Pokistonda ham ko'cha taomlari bor. Ular: tandir "*roti"*si, "*pakaros", "pani" "puri"* va shu kabi tansiq taomlar. Mahalliy taomlaridan *gulab jamun, barfi, ras, qalakand, jelebi, panjiri, multani, hubshee, sohan, holva* va *gajraila* mamlakatning barcha mintaqalarida turli xil usulda tayyorlanadi.

Pokistonning milliy liboslariga to'xtaladigan bo'lsak Pokistonning har bir hududida o'ziga xos madaniyatidan so'zlovchi liboslari mavjud. Asosan *shalvar-qamiz, kurta* kiyiladi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, 1982- yildan boshlab davlat ishlarida ishlaydigan barcha xodimlar milliy liboslarda yurishlari majburiy etib belgilangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Pokistonning rang-barang, qiziqarli madaniyati dunyoda o'ziga xos o'ringa ega. Islom dini asoslarini uning har bir qadriyat an'analarida ko'rishimiz mumkin. Din, adabiyot, liboslar, musiqa, san'at va turli urf-odatlarini o'z ichiga olgan madaniyat hind sivilizatsiyasi davrida paydo bo'lishiga qaramay uning ildizlari islom madaniyatidan kelib chiqadi. Demak, Pokiston madaniyati islom madaniyatining haqiqiy manzarasini ifodalaydi deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Энциклопедия Пакистана" (Отв.ред.Ю.В.Ганговский) – М.,1998.
2. А.Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Тошкент, "Меҳнат", 1993.
3. "Современный Пакистан: экономика, история, культура". Ю.В. Ганковский. 1976.
4. "Пакистан: Очерки истории, экономики, культуры". – Ташкент, 1977. (Отв.ред.Ю.В.Ганковский).
5. Iftixar Malik "Culture and customs of Pakistan" 2005.
6. Hafiz Malik "The Encyclopedia of Pakistan" 2006.
7. Stefan Filip Cohen "The idea of Pakistan" Lahor, 2005.
8. https://turmag.com.ua/219-srochnie-vizi/5018-kultura-pakistana.html
9. https://guide.travel.ru/pakistan/people/traditions/

TURK XOQONLIGINING MARKAZIY OSIYODA O‘RGANILISHIGA DOIR

Ma’suma IBROHIMOVA
TDSHU 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: DSc, dotsent. I.Haydarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlardagi davlatchilik tarixining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan Turk xoqonligining tashkil topishi, davlatchilik tarixi Markaziy Osiyoda o‘rganilishi haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: Xoqonlik, Chu daryosi, Buyuk Turk xoqonligi, ko‘chmanchilar, arxeologik tadqiqot, turk-so‘g‘d munosabatlari, yodgorliklar.

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida Turk xoqonligi davlati muhim o‘rin egallaydi. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, ashin, arg‘u, o‘g‘iz, to‘qqiz o‘g‘iz, o‘ttiz tatar, qarluq, qiton, tolis, turk, uyg‘ur, quruqan, duba va boshqalar yashardilar. VI asr boshlarida Oltoy o‘lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O‘sha paytda hozirgi Mo‘g‘uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida ashin urug‘ining mavqeyi ko‘tariladi. Ashin urug‘iga mansub Asan va Tuu 460-545-yillarda boshqa urug‘larni o‘zlariga bo‘ysundiradilar va Oltoydagi turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li Bumin Tele qabilasini ham bo‘ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551-yilda Jujan xonining qo‘shinlarini yengib, ularni o‘zlariga bo‘ysundiradi. Bumin 552-yilda Xoqon deb e’lon qilinadi va yangi davlat – Turk xoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O‘tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug‘i ortib borgan. U ko‘p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o‘lpon tariqasida yuz bo‘lakdan iborat ipak mato berib turishga majbur bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Turk xoqonligi Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikka erishgach Markaziy Osiyo davlatlarida xoqonlik tarixiga doir tadqiqotlar juda ko‘plab amalga oshirilmoqda. Bunda qozog‘istonlik tarixchilar ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Masalan, Yu. A. Zuyevning ishlariga alohida ahamiyatga molikdir. Xususan, u xoqonlikning markaziy hududlari – Talas, Chu, Ili daryolari havzalaridagi etno – siyosiy jarayonlar, poytaxt

Suyobning geografik o‘rni, xitoy sayyohi Syuan Szan (629-645)ning To‘ng yabg‘u-xoqon huzuriga tashrifi, qadimgi turklar mifologiyasining davlat boshqaruvida aks etishi kabi masalalarga maxsus to‘xtalgan [1,39]. Tadqiqotchining bu masalalarda ko‘plab asosli fikrlarni o‘rtaga qo‘yganligini e’tirof etgan holda, ayrim masalalarda bo‘rttirishlar va yanglish talqinlarga yo‘l qo‘yganligini aytib o‘tish zarur. Ayniqsa, uning xoqonlik boshqaruviga aloqador o‘nlab atamalarni moniylik yoki budda dini bilan bog‘lashga yoki ularning eroniy asoslarini topishga urinishida biryoqlamalikka yo‘l qo‘yilgani seziladi [2,51]. Aytib o‘tish joizki, Qozog‘istonda xoqonlik tarixi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ular orasida tadqiqotchi K. M Baypakovning ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Olim xoqonlik tarixini arxeologik manbalar asosida o‘rganib, ancha muncha batafsil va izchil yoritib bergan. U ko‘p yillik arxeologik tadqiqotlar asosida xoqonlik hayotida so‘g‘diylarning o‘rni va rolini ochib bergan[3,38]. Yana bir qozog‘istonlik tarixchilardan bo‘lgan A. Dosimboyevaning “Батыс Түрік қағанаты қазақ даласының мәдени мурасы” nomli monografiyasi G‘arbiy Turk xoqonligi turkiy ko‘chman-chilarining davlat markazida joylashgan Merke va Jaysan ibodatxonalari Kepsan diniy yodgorliklari orqali bugungi kungacha saqlanib qolgan noyob madaniy merosiga bag‘ishlangan. Davlat yerlarining markazida Chu daryosi vodiysi hududida joylashgan ikki noyob, ko‘p bosqichli “Zaysan” va “Merx” diniy yodgorliklarini G‘arbiy Turk xoqonligi aholisining madaniyati qozoq cho‘li bo‘shliqlarida yashagan turkiy xalqlar tarixi va qozoqlarning ilk tarixiga oid hujjatli manbalar sifatida keltirish mumkin. Manbalarni har tomonlama tahlil qilish orqali turkiy ko‘chmanchilar madaniyati genezisi xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. An’analar uzluksizligi turli davrlarga oid yodgorliklarning yagona makonda joylashishi va ular mazmunining inson hayoti va tabiat birligi mavzusiga mos kelishida kuzatiladi. Bu yodgorliklar orqali xoqonlikdagi diniy marosimlar va an’analar haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Turk monumental san’ati materiallari, tosh haykallar, qoyatosh rasmlari, qabila ramzlari, o‘rta asr turklarining yorqin merosi hali ham qozoq cho‘lida o‘z o‘rnini egallaydi. Yangi topilgan va o‘rganilayotgan barcha obidalar turk xalqining qayta tiklangan va jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan merosi namunasidir[4,160]. Yana bir qozog‘istonlik tarixchi va sharqshunos olima K. Torlanboyeva tadqiqotlarida esa xoqonlikda moniylik dinining tarqalishi, xoqonlik boshqaruvida ittifoqchi urug‘lar masalasiga e’tibor qaratilgan. Biroq tadqiqotchining ishlarida asosiy e’tibor Sharqiy Turk xoqonligi bilan cheklanib qolgan. Shuningdek, qozoq tarixchilaridan

A. Kamolov turk-so‘g‘d munosabatlariga bag‘ishlangan ishlarida xoqonlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadi. Turkiylarning Yevrosiyo-dagi hukmronligi O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari, jumladan, eron tilida so‘zlashuvchi so‘g‘dlarning ham Xitoyga kirib kelishiga xizmat qildi. Turklar mustamlakalari dastlab O‘rta Osiyoning cho‘l zonasida paydo bo‘lgan, so‘g‘dlar u yerdan Tan imperiyasining g‘arbiy va shimoliy chegara hududlariga ko‘chib o‘tgan. Albatta, Xitoyda turli eroniyzabon xalqlarning vakillari, masalan, Sharqiy Turkistondan kelgan xo‘tanlar o‘rnashib olishgan, ammo so‘g‘diylar eng ko‘p sonli guruh bo‘lib, ularning Usmon imperiyasining ichki hayotidagi o‘rni va rolini boshqa tegishli guruhlar bilan solishtirib bo‘lmaydi [5,28].

Qo‘shni Qirg‘iziston respublikasida ham mustaqillikdan so‘ng tarixga doir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu jumladan, Turk xoqonligi tarixiga doir tadqiqotlar ham amalga oshirilib, ular orasida K. Tabaldiyevning ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Tadqiqotchi o‘zining arxeologik izlanishlari orqali o‘nlab xoqonlik davri balbal toshlari va turkiy bitiklarni topishga muvaffaq bo‘ldi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, tangaga yozilgan barcha yozuvlarda tasvirlar yozilgan matnga nisbatan ancha katta diametrda bo‘rttirma qilingan. Ko‘rinib turibdiki, qadimgi turklar o‘z timsollarini ongli ravishda ijtimoiy hayotda muhim deb bilganliklari uchun bu usulni tanlaganlar. Shunday qilib, yozuvdan ko‘zlangan maqsad “gerb”ni qabilalar tomonidan oson farqlanishini ta’minlash edi. Shunday qilib, qabila nomlari asrlar davomida o‘zgarib, takomillashib borganiga qaramay, qadimgi turkiy davr timsollarining aksariyati bugungi kungacha saqlanib qolganligi ramzlarning avloddan-avlodga o‘tib kelganligini yaqqol isbotlaydi[6,277-294]. Arxeolog V. D. Goryacheva esa Turk xoqonliklari bo‘lgan G‘arbiy Turk, Turgash, Qoraxoniylar davrida Tyanshan tog‘lari atrofi – Yettisuvdagi shahar madaniyatiga doir maxsus tadqiqotlar e’lon qildi. Uning “Городская культура тюркских каганатов на Тянь-шане (середина VI – начало XI в.)” kitobida Markaziy Osiyo Turk xoqonligi va islom sivilizatsiyalari shakllangan davrda shahar madaniyati haqida ma’lumotlar keltirilgan Unda arxeologlarning aholi manzilgohlari va me’moriy yodgorliklar bo‘yicha ko‘p yillik faoliyati, shuningdek, o‘rta asrlardan bizgacha yetib kelgan madaniy merosni tarixiy rekonstruksiya qilish va falsafiy-madaniy tushunish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijalari sarhisob qilingan [7].

Xoqonlikning boshqaruv shakli T. Jumanaliyev tomonidan markaziy osiyolik ko‘chmanchilarda siyosiy hokimiyat masalalari doirasida tadqiq etilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan o‘zbek olimlari

qatoriga A. Xo‘jayev, M. Is’hoqov, Sh.Kamoliddin, A. Otaxo‘jayev, G‘. Boboyorov, A. Kubatin, L. Baratova, F. Jumaniyozova, M. Xatamova, E. Asanov va boshqalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari turkolog olimlar N. Rahmonov, H. Dadaboyev, K. Sodiqovlarning, tarixchi A. Ziyoning tadqiqotlarini alohida keltirib o‘tish lozim.

Shuni xulosa qilish mumkinki, VI asr o‘rtalariga kelib Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi davlati tashkil topdi. Ushbu davrga oid ma’lumotlar yetarli, biroq ular bir – biriga qarama – qarshi va aniq ma’lumotlar bermaydi. Turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda yozma manbalar muhim manba vazifasini o‘taydi. Ushbu davrga oid ko‘plab ma’lumotlar qadimiy bitiktoshlar, qo‘lyozmalar, yilnomalarda saqlanib qolgan.

Ikkinchidan, xoqonlikning nomlanishi masalasida tadqiqotchilar haligacha bir to‘xtamga kelishmagan. Bundan tashqari tadqiqotchilar ishlarida o‘z davlatlari milliy konsepsiyalari asosida yondashganligini ko‘rish mumkin. Masalan, qozoq tarixchilari tadqiqotlarida avtoxtonizm, Buyuk dasht konsepsiyasi ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Зуев Ю. А Ранные тюрки очерки истории индеологии. – Алматы, 2002.
2. Бобоёров Ғ. Б. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми: Тарих фан. док. дисс. – Т., 2012.
3. Байпаков К. М. Западно -Тюркский и Тюргешский каганаты: тюрки и согдийцы, степь и города//Известия НАН РК. Серия общест. наук – Алматы, 2009.
4. Досымбаева А. Батыс Түрік қағанаты қазақ даласының мәдени мурасы. – Алматы, 2007.
5. Камалов А. Тюрки и иранцы в Танской империи. – Алматы, 2017.
6. Табалдиев К., Алимов Р. Байыркы түрктөрдун Татас жергесинде табылган жаны эстеликтери // Турк цивитизациясы жана мамлекеттик салты. – Бишкек, 2004.
7. Горячева В. Д. Городская культура тюркских каганатов на Тянь – Шане (середина VI – начало XI в.). – Бишкек, 2010

BIR TARIXIY DAVRDAGI O‘XSHASHLIKLAR…?

Isfandiyor NE’MATOV
TDSHU, Yaponshunoslik fakulteti,4-kurs
Ilmiy rahbar: PhD. Z.G‘. Kasimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asrda yashab o‘tgan jahonning turli davlatlaridagi uch buyuk hukmdor haqida so‘z yuritiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad Oda Nabunaga, Abdullaxon II, Ivan Grozniy kabi yapon, o‘zbek rus hukmdorlarining amalga oshirgan islohotlari va bu yangilanishlardagi o‘zaro o‘xshashliklarining mazmunini o‘quvchilarga yetkazishdan iborat.

Bilamizki, tarixda ko‘plab buyuk podshohlar, davlat arboblari, sarkardalar va shu kabi mashhur shaxslar yashab o‘tishgan. Bugungi kunimizga bevosita daxldor bo‘lgan muhim tarixiy voqeliklar, tarixiy o‘zgarishlar ko‘pchilikni qiziqtirmasdan qolmaydi, albatta. XVI asrda yashab, faoliyat yuritgan va amalga oshirgan islohotlari orqali o‘z davlatlari tarixida chuqur iz qoldirgan yapon qahramoni Oda Nabunaga, Markaziy Osiyo xonliklari ichida Buxoro xonligining gullab-yashnashiga sababchi bo‘lgan Abdullaxon II, Rossiyani imperiyaga aylantirgan va rus hukmdorlari ichida birinchi bo‘lib o‘zini qirol deb e’lon qilgan Ivan Grozniylarning hayot yo‘llaridagi o‘xshashliklari gapimizga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Oda Nabunaga yohud qattiqqo‘l islohotchi

XVI asr boshlarida Yaponiyada “Kurashuvchi” viloyatlar deb nom olgan ichki tarqoqlik davri davom etgan. Bu holat mamlakatda boshboshdoqlikning avj olishiga va markaziy hokimiyatning zaiflashishiga olib keladi. Bu muammo faqatgina XVI asrning ikkinchi yarmiga kelibgina o‘z yechimini topdi. Tarix sahnasiga o‘zining qat’iyati, noodatiy tabiati orqali nom qozongan Oda Nabunaganing kelishi yarim asrdan ko‘p davom etgan parokandalikning yakunlanishiga sabab bo‘ldi. Nabunaga o‘z davrining yetakchilaridan bo‘lgan Oda oilasida, Ovari profekturasi (hozirgi Nagoya shahri)da 1534-yil yozida dunyoga kelgan. Uning otasi Oda Nabuhide va onasi Suchi Gozen bo‘lishgan. Nabunaga oilada akasi Nabuhirodan keyingi ikkinchi farzand bo‘lib, yoshligidan juda ham harakatchan, tirishqoq bo‘lib voyaga yetgan. Ba’zi manbalarda keltirilishicha yoshligida hatto unga “ovari telbasi” deb nom berishgan. 1551-yilda Nabunaganing otasi Nabuhidening tasodifiy o‘limidan keyin, Nabunaga oila boshqaruvini o‘z qo‘liga oladi va Ovarida katta ta’sirga ega

bo‘lgan Oda oilasining boshqa vakillariga ham o‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qiladi. Nabunaga 17 yoshida otasining hududlarini meros qilib oldi va tezda Ovari viloyati ustidan nazoratni qo‘lga kiritdi. Xidayoshi o‘z faoliyatini Nabunaga armiyasida askar sifatida boshlagan , ammo tezda samuray[1] sifatida yuqori darajaga ko‘tarilgan.

1560-yilga kelib, u o‘zining ajoyib strategik qarashlari amalda ham isbotladi va Ovari prefekturasi to‘liqligicha uning qo‘l ostiga o‘tdi. O‘sha yili u Ovari bilan chegaradosh provinsiyalardagi asosiy daimyolardan[2] biri bo‘lgan Imagava Yoshimotoning ulkan kuchlarini mag‘lub etib, butun Yaponiyani hayratda qoldirdi. Bu uning mamlakatni birlashtirish yo‘lidagi birinchi qadami edi.

Qattiqqo‘l va jasur Nabunaga har qanday istiqbolli yangiliklarga o‘zining ijobiy qarashlari bilan katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U birinchi bo‘lib mushketlar (o‘zi otadigan poroxli qurol) bilan jihozlangan bo‘linmalarni tashkil qildi. Savdogar sinflarni o‘z nazoratiga oldi. Iqtisodiy asosga ega bo‘lgan holda, u g‘arbdagi gullab-yashnagan Kinki tumanini, Yaponiyaning poytaxti va uzoq vaqt davomida mamlakatning kuch markazi bo‘lgan Kyotoni va poytaxtning janubi-g‘arbiy qismidagi Osaka port shahrini ham qo‘lga kiritishni rejalashtirgan edi. Viloyatlarda harbiy qudratini mustahkamlagandan so‘ng, u Ovaridan Minogacha bo‘lgan hududlarni qo‘lga kiritdi. Nabunaga iqtisodiy rivojlanish rejasini amalga oshirish uchun qat’iyat bilan harakat qildi. Bunga erkin bozorlarni tashkil etish, savdo monopoliyalarini bekor qilish va ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar o‘rtasida sog‘lom raqobatni ta’minlash misol bo‘la oladi. Oda Nabunaga erkin bozor tizimidan foydalanish orqali savdo-sotiq va umumiy iqtisodiyotni rag‘batlantirishni maqsad qilgan edi. Nabunaga fuqarolik boshqaruvi siyosatini boshladi, jumladan valyuta qoidalari joriy etilishi, yo‘llar va ko‘priklar qurilishi rejalashtirildi. Bundan tashqari yo‘l kengligi bo‘yicha standartlarni belgilash va yo‘l chetlariga daraxt ekish majburiy qilib qo‘yildi. Bu esa o‘z navbatida savdodan tashqari askarlar va urush materiallarini tashishda ham anchagina yengilliklar yaratdi.

Millatni birlashtirgan hukmdor

Abdullaxon II o‘zbek tarixidagi mashhur xonlardan bo‘lib, to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon. O‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdor (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi hisoblanadi. Bobosi

[1] Samuray- qadimgi yapon jangjilarining nomi

[2] Daimiyo-qadimgi yapon viloyatlari hokimlarining nomlanishi

Jonibek sulton Karmana va Miyonkol hokimi bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyichalik, aka ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan.

XVI asr tarixchisi, o‘zbeklarning Qatag‘on qabilasidan bo‘lgan Muhammad ibn Arab Qatagon “Musaxir al-bilad” (Mamlakatlarni zabt etish) asarida Shayboniylar, jumladan, Abdullohxon II davri haqida hikoya qilinadi.

Abdullaxon II davrida harbiy san’at ham taraqqiy etgan. Qo‘shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, naftandoz va shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil qilgan. XVI asr ikkinchi yarmidan qo‘shni Turkiya va Rossiyadan keltirilgan pilta miltiq va zambaraklar ham janglar davomida qo‘llanila boshlangan.

Abdullaxon II 1598-yil 8-fevralda Samarqandda vafot etgan. Uning vafoti to‘g‘risida manbalarda ma’lumotlar turlicha. Ba’zi manbalarda Abdullaxon II o‘z ajali bilan vafot etgan deyilsa, ba’zi mualliflar xonning vafotiga o‘g‘li Abdulmo‘minxon sababchi bo‘lgan deb hisoblaydi. Jo‘ybor shayxlari xonadoniga mansub Muhammad Tolib o‘zining „Matlab ut-tolibin“ asarida Abdullaxon II o‘z o‘g‘li Abdulmo‘minxon buyrug‘i bilan Boqimuhammadbiy tomonidan zaharlanib o‘ldirilgan, deya qayd etadi. Lekin bu ma’lumot taxminiy ekanligini ham eslatib o‘tiladi.

Qirollik asoschisi

Ivan Moskva Buyuk Gertsogligining Rurikovlardan bo‘lgan hukmdori Vasiliy III ning o‘g‘li edi. U otasining vafotidan so‘ng, uch yoshida ulug‘ shahzoda etib tayinlangan. “Tanlangan kengash” nomi bilan mashhur kengash birlashib, u 1547-yilda 16 yoshida Butun Rus podshosi (imperatori) deb e’lon qilindi. Ivan IV nomi bilan taxtga o‘tirgan podshosh bir necha islohotlar o‘tkaza boshladi. U ishni mamlakatda boshboshdoqlikka asosiy sababchi sifatida qaralayotgan boyarlar hukmronligiga qarshi kurashdan boshladi. Shuning uchun 1549-yilda Rossiyada birinchi marta Sobor chaqirildi. Unda boyarlar hukumati qoralanib, mahalliy dvoryanlar qo‘llab quvvatlandi. Chunki Ivan IV boyarlarga qarshi kurashda dvoryanlarga tayanib harakat qilishni rejalashtirgan edi. Bundan tashqari Moskva atrofidan 1000 nafar dvoryanga yer-mulk ajratilishi hukmdorning mavqeyini yanada oshirdi. Ushbu Soborda Rossiyada sudebnik ya’ni qonunlar to‘plamini ishlab chiqish ham belgilandi. Unga ko‘ra jinoyat sodir etgan dvoryanlarni boyarlar sudiga tortish bekor qilindi. 1565-yilda Ivan IV tashabbusi bilan yangi tashkilot va harakatga asos solindi. Bu tashkilotning

nomi “oprichnina” bo‘lib, a’zolari oprichniklar deb atalgan. Lekin oprichnina tizimi o‘zini oqlamadi va boyarlarga qarshi boshlangan harakat nafaqat ularga, balki oddiy aholiga ham katta zarar yetkazdi. Oprichniklarning qo‘llagan ayovsiz jazo uslublari sabab, Ivan IV “Grozniy” (dahshatli) nomini oldi. Oxir-oqibat podshoh 1572-yilda oprichninani [1] bekor qilishga majbur bo‘ldi.

1554 va 1556-yillardagi yurishlarda rus qo‘shinlari Volga daryosi bo‘yida joylashgan Astraxan xonligini bosib oldilar va eski tatar poytaxti o‘rniga 1558-yilda Ivan Vorodkov tomonidan yangi Astraxan qal’asi qurildi. Tatar xonliklarining mustamlakaga aylantirilishi keng hududlarni bosib olish, yirik bozorlarga chiqish va Volga daryosining butun sohillarini nazorat qilishni anglatardi. Musulmon xonliklarini o‘ziga bo‘ysundirish rus podsholigini imperiyaga aylantirdi.

1558-yilda Ivan Boltiq dengizi va uning asosiy savdo yo‘llariga kirish uchun Livon urushini boshladi. Lekin 24 yil davom etgan urush muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Bu urushda Ivan IV qo‘shinlariga qarshi Shvetsiya qirolligi, Litva Buyuk Gertsogligi, Polsha-Litva Hamdo‘stligi va Livoniya Tevtonik ritsarlari ishtirok etdi. Uzoq davom etgan urush iqtisodiyotni deyarli vayron qildi va oprichnina siyosati mamlakatni butunlay tanazzul yoqasiga olib keldi. Shu bilan birga, Lublin Ittifoqi, Litva Buyuk Gertsogligi va Polsha Qirolligini birlashtirdi va Polsha-Litva Hamdo‘stligi Rossiyaning janubiy dushmani Usmonli imperiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va Ivann Grozniyning saltanati o‘sha davrning ikki buyuk kuchlari bosimi ostida qoldi.

Tashqi siyosatdagi qator muvaffaqiyatsizliklar bundan tashqari og‘ir xastalikka chalinishi Ivan Grozniyni ham ruhan ham jismonan holdan toydirgan edi. Bu omillar oxir oqibat o‘z so‘zini aytdi va 1584-yilda Ivan Grozniy vafot etdi.

Tarixiy o‘xshashliklar

Yuqorida keltirilgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning barchasi bir asrda ya’ni XVI asrda yashab o‘tishgan. Bundan tashqari ularning amalga oshirgan islohotlari va xarakterlarida ham o‘xshashliklarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Oda Nabunaga Yaponiyani qayta birlashtirib, markaziy hokimiyatni kuchaytirdi. Abdullaxon II ham bu ishni Buxoro xonligidagi boshboshdoqliklarga barham berish va mamlakat jipsligini ta’minlashdan boshladi. Ivan Grozniy esa o‘zidan oldingi ajdodlari qilmagan ishni amalga oshirdi va o‘zini shoh

[1] Oprichnina-XVI asrda Rus posholigida Ivan Grozniy tomonidan boyarlar hukumatiga qarshi kurashish va ichki tartibni saqlash uchun tashkil qilingan tashkilot

deb e’lon qildi. Chunki ungacha bo‘lgan hukmdorlarning barchasi buyuk knyaz unvonini qabul qilib kelishgan edi.

Bu uch buyuk shaxslarning o‘z mamlakatlari madaniyati va ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan islohotlari ham diqqatga sazovor. Bunga misol qilib Oda Nabunaganing “sadou”[1] ya’ni choy marosimini yangi bosqichga olib chiqishi uning davridan boshlab bu marosim o‘ziga xos tarzda nishonlana boshlandi va bundan tashqari u 1576-1579-yillar oralig‘ida o‘sha davrdagi poytaxt shahar Kioto yaqinidagi Biva ko‘li bo‘yida bugungi kungacha saqlanib qolgan va o‘zining me’moriy yechimlari bilan mashhur bo‘lgan Azuchi qal’asini qurdi. Bu qal’ani qurishdan maqsad poytaxtga yaqin bo‘lgan joyda qarorgoh qurib uni bevosita nazoratda tutib turish edi.

Abdullaxon II ham o‘z davrida bunyodkor xon sifatida tanildi va ko‘plab madrasa, masjid, xonaqoh, suv omborlari, karvonsaroylar qurilishiga boshchilik qildi. Uning onasiga va o‘ziga atab qurgan “Modarixon” va “Abdullaxon” qo‘sh masjidlari o‘ziga xos me’moriy ko‘rinishga ega bo‘lib, unda sharq an’analari namunalarini ham bevosita ko‘rishimiz mumkin. Chunki bir-biriga yuzma-yuz qilib qurilgan bu ikki madrasa tuzilishida o‘ziga xos ma’no bo‘lib “Abdullaxon” madrasasi “Modarixon” masjidiga nisbatan qiyaroq qilib qurilgan bu esa modar ya’ni onaga nisbatan ta’zim, hurmat ma’nosini anglatadi.

Ivan Grozniy ham Nabunaga va Abdullaxon II kabi me’moriy inshootlar qurishga alohida e’tibor qaratgan. Ayniqsa uning tatarlar ustidan qozonilgan g‘alaba va Qozon shahrining qo‘lga kiritilishi munosabati bilan qurdirgan Avliyo Vasiliy sobori ham bugungi kungacha o‘z hashamini yo‘qotmay kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanazar A. K. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2017 – 592 bet.
2. Zamonov A.. Buxoro xonligi tarixi: metodik qo‘llanma. Toshkent: Bayoz, 2021 – 264 bet.
3. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on. „Musahhir al-Bilad“. T., 2009
4. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma, 1-j., T., 1999
5. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob, T., 1993
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ivan_IV_Grozniy
7. https://www.britannica.com/biography/Ivan-the-Terrible

[1] Sadou- Buddaviylik dini ananalariga asoslangan choy marosimi

BOBOOXUN SALIMOV: SIYOSIY ARBOB VA JADID MA'RIFATPARVARI

Q. SAMANDAROV
TDSHU II bosqich magistranti
Ilmiy rahbar – t.f.d., prof. M.M. Is'hoqov

Kalit so'zlar: Bobooxun Salimov, jadidchilik, islohot, ma'rifatparvarlik, Xiva xonligi, "Yosh xivaliklar", Majlis.

Annotatsiya: XX asr boshlarida Xiva xonligida shayxulislom va boshqa yuqori davlat lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan Bobooxun Salimov haqiqatda o'zi kim edi? Davlat mansabdori, jadid ma'rifatparvari, yo taraqqiyparvar ziyoli insonmi?, yoki shunchaki siyosiy arbobmi? Uning jadidchilik harakati qanday kechgan, jadidchilik faoliyati Xiva xonligi uchun ahamiyati qanday bo'lgan kabi savollarga javob tarzida ayrim fikrlar tahlil qilingan.

Inson – ijtimoiy mavjudot. U o'zining uzundan-uzoq shajarasi taraqqiyoti davomida insoniyat hayoti o'zanlarini o'zgartirib turuvchi, goh salbiy, goh ijobiy natijalar bilan buyuk siljishlarga va tengsiz tanazzullarga sababchi bo'lgan tarixiy-ijtimoiy hodisadir[1]. O'tgan asrning dastlabki yigirma yilligida jadidchilik harakati ham o'ziga xos katta tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida yorqin iz qoldirdi.

Bugungi kunda tariximizda ko'p o'rganilayotgan va o'ziga xos "trend"ga aylangan mavzulardan biri jadidlar faoliyatidir. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rt davrga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi. Jadidchilik harakati garchi hududiy bo'lingan bo'lsa-da, uning maqsad va g'oyalarida mushtaraklik kasb etgan. "Jadidchilik ma'rifatchilikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan

[1] Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Т., "Маънавият" 2008, 10 б.

murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Imperiya siyosati va mahalliy istibdod tufayli dunyoning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlaridan ortda qolish xavfi, keng xalq ommasining og‘ir iqtisodiy ahvoli, madaniy qoloqlik, tafakkur turg‘unligi jadidlarni inqirozdan chiqishning haqiqiy vositalarini qidirishga chorladi”.[1] O‘lkadagi har bir jadidchilik harakatida, har bir jadid faoliyatida maorif, ta’limni isloh qilish, teatr, matbuot ishlarini keng yo‘lga qo‘yish orqali aholining bilimini va siyosiy ongini yuksaltirish asosiy g‘oyalar sifatida muhim o‘rin egallagan. Ana shunday shaxslardan, Xiva jadidlari yetakchilaridan biri Boboxun Salimovdir.

Davlat va jamoat arbobi, ma’rifatparvar Bobooxun Salimov 1910- 1918-yillarda Xiva xoni Asfandiyor saroyida shayxulislom vazifasini bajargan. Xivadagi 1917-yilgi voqealarda ishtirok etib, Majlis a’zosi etib saylangan. 1918-1920 yillarda “Yosh xivaliklar” partiyasining tashkilotchilaridan biri bo‘lgan. 1920-yili Butunxorazm sezdi-da Xorazm Sovet Respublikasining adliya noziri (vaziri) etib saylandi. 1924-yilda Xorazm ruhoniylarining I sezdi tashkilotchisi va rahbari bo‘lgan.

Bobooxun Salimov islom aqidalariga asoslangan tenglik g‘oyalarini targ‘ib etgan va xonlik amaldorlarining huquqlarini savdogarlar, sanoatchilar, hunarmandlar va ziyolilar huquqlari bilan tenglashtirishga harakat qilgan. Dastlab xonlikda arzimagan huquqiy va iqtisodiy islohotlar o‘tkazish yo‘li bilan taraqqiyotga erishish mumkin deb hisoblagan.[2]

Bobooxun Salimov tarixini o‘rganar ekanmiz, uning jadidchilik bilan bog‘liq faoliyatini ikki davrga ajratish o‘rinli bo‘ladi. Birinchi davri maktablar ochish, darsliklar yaratishga oid maorif islohoti va ma’rifatparvarlik bilan belgilasak, ikkinchi davrini esa Xivadagi islohotchilik harakati, “Yosh xivaliklar” tashkilotidagi ishtiroki, Xorazm Sovet Respublikasining tashkil etilganidan keyingi jarayonlardagi siyosiy faoliyat bilan belgilash mumkin. Birinchi davrga oid faoliyati butun ongli umrini adolat, istiqlol, taraqqiyot uchun baxshida etgan u inson maktablar ochish va darsliklar yaratish borasida katta ishlarni amalga oshirgan.[3] U yangi maktablar uchun bir qancha darsliklar ham yaratadi. Bobooxun Salimov maslakdosh do‘sti, tajribali muallim, Istanbulda ta’lim olib kelgan

[1] Алимова Д. Жадидчилик феномени. Т., “Akademnashr” 2022, 6 b.
[2] O‘sha asar. 251 b.
[3] Салимов Б. Унутилмас сиймолар: жадидчилик харакатининг намояндалари. Т., 1999. 11 б.

Bekjon Rahmonov bilan hamkorlikda “Alifbe”, O‘qish kitobi” darsligini yaratdi.[1]

Bobooxun Salimov jadid maktabi haqida “Maktab” nomli she’r ham yozgan bo‘lib u she’rda Xorazm elini obod va munavvar etguvchi yangi usuldagi jadid maktabining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yuksak darajada ta’riflaydi.[2]

Jadidchilikning birinchi davridan ko‘ra, ikkinchi bosqichida Bobooxun Salimovning faoliyati qizg‘in va tahlikali kechadi. Nima uchun tahlikali deymiz? Chunki bu bosqichda uning Xiva xoni va uning tarafdorlari bo‘lgan ayrim kuchlarga qarshi muxolifatda bo‘lganligi ko‘proq siyosiy jabhada ko‘zga tashlanadi. Buni bir qancha manbalardagi ma’lumotlardan bilib olsak bo‘ladi. Masalan “Rossiyaning Birinchi jahon urushiga kirishi bilan unga qaram bo‘lgan Xiva xonligidagi aholi ahvoli yanada og‘irlashdi, soliqlar miqdori ko‘paytirildi, xalqning norozilik harakati kuchaya bordi. Chunki oq podsho armiyasiga yordam bahonasida majburiy yig‘imlar suiiste’molchilik bilan amalga oshirilar edi. Zulm va zo‘ravonlikning ortishi Asfandiyorxon olib borgan siyosati oqibati bo‘lib, uning barcha bekliklarda yosh va go‘zal qizlarni xon haramiga keltirish to‘g‘risidagi farmoni natijasida bu jarayon o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetdi. Bu davrda endigina uyushib kelayotgan ilg‘or fikrli kishilar urush va xon olib borayotgan siyosatni qoralab, unga qarshi mehnatkashlar orasida tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib bordilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Bobooxun Salimov rahnamolik qildi. U xalq orasida va saroyda Asfandiyorxon olib borayotgan siyosatning xatoligini oshkora aytib, xonning kamchiliklarini ko‘rsatib bera oldi. Bu xalq orasida Bobooxun Salimovning mavqeyi oshishiga, uni qo‘llovchi kishilarning ko‘payishiga olib keldi. Uning tarafdorlari ko‘p bo‘lgani uchun xon uni maxfiy o‘ldirtirib yuborish yoki jazolashdan qo‘rqardi”.[3] Bu yerda aytilgan oxirgi fikrga qo‘shilib bo‘ladimi? Asfandiyor oldingi bosh vazir, kuchli siyosatchi, Bobooxun Salimovdan bir qadar mavqeyi baland bo‘lgan Islomxo‘jani o‘ldirtirganligini bir nechta manbalardan bilishimiz mumkin. Qolaversa Islomxo‘ja xonning qaynotasi ham edi. Nima uchun kuchli davlat arbobi Islomxo‘jani o‘ldirtirishdan qo‘rqmagan xon Bobooxun Salimovni o‘ldirtirishdan qo‘rqishi mumkin? Ta’kidlash kerakki, Asfandiyor muxolifatchilar aniq kimlar ekanligini bilib olish, siyosatchi sifatida

[1] Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Т., 2007. 280 б.

[2] Хасанов С. Хоразм маънавияти даргалари. Т.: “Adolat”, 2001. 191 б.

[3] Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Т., 2007. 285 б.

Bobooxun Salimovning “zaif” tomonlarini aniqlab olish maqsadida uni o‘ldirtirishga shoshilmagandir balki. Xon o‘zidan norozi kayfiyatdagi xalqni tinchlantirish maqsadida vaziyatni o‘z foydasiga o‘zgarishini kutib, Bobooxun Salimovni o‘ldirtirish noo‘rin deb hisoblagan bo‘lsa ham ajab emas. Shu davrdagi siyosiy jarayonlar o‘zgartirilgan holda talqin qilingan bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, u davrda yashamagan, voqealarni guvohi bo‘lmagan kishi sifatida yuqoridagi tarixiy jarayonlarga aniq baho berish qiyin.

Bu bilan Bobooxun Salimov to‘xtab qolgani yo‘q. U davlat arbobi, ma’rifatparvar, taraqqiyparvar siyosatchi sifatida “siyosiy yurish”larini davom ettiradi. 1917-yil 5-aprelda “Yosh xivaliklar” tashkiloti tomonidan islohotlar manifesti ishlab chiqilgan va xon manifestni imzolagan edi. Mazkur manifestda Majlis va Nozirlar kengashini tuzish belgilangan bo‘lib, uning faoliyatini tashkil qilish, hujjatlarning islom shariati asosida bo‘lishini ta’minlashda ulamo sifatida Bobooxun Salimov boshchilik qildi.[1] Bu haqda Polvonniyoz hoji Yusupov o‘z “Xotiralar”ida shunday yozadi: “Ondin so‘ng Bobooxun eshon birlan maslahat qilib, tamomi Xorazm qal’alariga ham Turkmaniston, qozoq, qoraqalpoq istansalariga vakil saylab kelmak uchun xatlar yuborildi”[2]. Joylarga yuborilgan kishilar xalq vakillarini saylab olib kelgach, Bobooxun Salimov Majlis raisligiga saylandi.[3]

Majlis tomonidan amalga oshirilgan: xonlikdagi kirim-chiqim daftarini nazorat qilish, xon va amaldorlarga maosh belgilash, maorif, sog‘likni saqlash, qishloq xo‘jaligidagi ahvolni yaxshilash uchun Rossiyadan mutaxassislar taklif qilish, miltiq so‘rab Toshkentga hay’at jo‘natish, turkmanlar bilan milliy munosabatlarni yaxshilash kabilarni majlisda ko‘rib chiqish, tegishli qarorlar qabul qilishda Bobooxun Salimov va Yosh xivaliklarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu ishlar Asfandiyorxon bilan Bobooxun qozikalon o‘rtasidagi nizoni yanada kuchaytirdi. Natijada Toshkentdan yuborilgan vakillar polkovnik Tarezna boshliq guruh bilan Xivaga kelayotgani haqidagi xabarni eshitsa ham, Bobooxun Salimov Majlis raisligidan iste’foga chiqishga majbur bo‘lgan.[4]

Xiva xonligidagi keyingi jarayonlar “Yosh xivaliklar” rasmiy partiya sifatida faoliyat yurita boshlashi bilan yanada jadallashib ketadi. “Yosh

[1] Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми — XX аср биринчи чораги). Т., 2007. 289 б.
[2] Юсупов П.Ҳ. Ёш хиваликлар тарихи. 83 б.
[3] Ўзбекистон МДА. 125-И-фонд, l -рўйхат, 609-иш, 23-варак.
[4] Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми — XX аср биринчи чораги). Т., 2007. 290 б.

xivaliklar” Xiva xonligida hokimiyatni egallash uchun bolsheviklar bilan hamkorlikka o‘tib, Xiva xoniga qarshi turli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishadi[1]. Oqibatda 1920-yil 1-fevralida Xivaning so‘nggi xoni Said Abdullaxon qizil askarlar va Yosh xivaliklar talabi bilan taxt voz kechganligi to‘g‘risidagi manifestni imzoladi. 2-fevralda manifest xalqqa o‘qib eshittirildi va majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat Muvaqqat inqilobiy hukumat qo‘liga o‘tganligi e’lon qilindi.[2] Ana shu hukumat tarkibida Bobooxun Salimovga adliya noziri (vazir) mansabi beriladi. Bu lavozimda yana Bobooxun Salimov o‘zining faolligi, xizmatlari bilan alohida ajralib turadi. Holbuki, 1920-yil 13-sentyabrda RSFSR bilan mustaqil XXSR o‘rtasida o‘rtasida o‘zaro tenglik, do‘stlik va hamkorlik haqidagi Ittifoq shartnomasi imzolanishida o‘z davrining bilimdon davlat arbobi, xalq jonkuyari, vatan istiqloli fidoyisi Bobooxun Salimovning xizmatlari katta bo‘ldi.[3]

O‘z xalqining jonkuyar davlat arbobining keyingi taqdiri Sovet tizimi tomonidan ayanchli tugatiladi. “XX asrning 2-yillari oxirida Bobooxun Salimov milliy ziyolilarni ta’qib qilish kampaniyasi boshlanishi oqibatida barcha davlat ishlaridan ozod etilgan. Uning qarashlari, maqsad va g‘oyalari bolshevik hukumatning mafkurasidan tamomila farq qilardi. Shu sababli 1929-yil 10-mayda B.Salimov sudsiz-so‘roqsiz sovet hokimiyati vakillari tomonidan o‘ldirilgan”[4].

Xulosa. O‘tgan asrning murakkab davrida, qiyin sharoitlarda vatani, xalqini taraqqiyot sari yetaklashga diqqat e’tiborini qaratgan Bobooxun Salimov ham jadid ma’rifatparvari ham siyosiy arbob sifatida faoliyati Xiva xonligidagi eski tartiblarni o‘zgartirishda, mustaqillik sari intilishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa o‘zining kuchli bilimi va salohiyati bilan, dastlab jadid maktablarini tashkil etish, yangi darsliklar yaratishda jonbozlik ko‘rsatgan bo‘lsa, keyin davlat ahamiyatiga molik huquqiy masalalarni hal etishda, diplomatik aloqalarda kuchli siyosati orqali uning xizmatlari katta va keng ko‘lamlidir. Bugungi kelajak avlod uchun vatan taraqqiyotiga xizmat qilishda Bobooxun Salimovdek ma’rifatparvar insonlarning xalqparvarligi, ularning faoliyati namuna va saboq bo‘lmog‘i lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, jadid ma’rifatparvari Bobooxun Salimovning dastlabki davrdagi

[1] Ражабов Қ. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 yillar). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. T.: “O‘zbekiston” – 2019. 111 b.

[2] Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Т., 2007. 315 б.

[3] O‘sha asar. 325 б.

[4] Алимова Д. Жадидчилик феномени. Т., “Akademnashr” 2022, 251 б.

ma’rifatparvarlik faoliyatidan ko‘ra, uning siyosiy faoliyati ko‘proq yoritilganligi ko‘zga tashlanadi. Jadidlarning asosiy g‘oya va maqsadlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ular, asosan, maorif sohasi, ta’limni isloh qilish, teatr tashkil etish, gazeta-jurnallar nashr etish kabi sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berishgan. Shu tomondan Bobooxun Salimovning ana shu faoliyatini chuqurroq o‘rganish tavsiya etiladi. Bu o‘rinda, XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmidagi Xiva xonligiga oid arxiv hujjatlari muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Салимов Б. Унутилмас сиймолар: жадидчилик харакатининг намояндалари. Т., 1999.
2. Хасанов С. Хоразм маънавияти даргалари. Т.: “Adolat”, 2001.
3. Қўшжонов О, Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). Т., 2007.
4. Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Т., “Маънавият” 2008.
5. Ражабов Қ. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 yillar). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. Т.: “O‘zbekiston” – 2019.
6. Алимова Д. Жадидчилик феномени. Т., “Akademnashr” 2022.

KALIDASA IJODIDAGI CHIZGILAR

Ruxsora XUDAYBERGANOVA
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. L. To‘rayev

Annotatsiya: Mazkur maqolada hind shoiri Kalidasaning asarlari tahlili, umumjahon miqyosidagi ahamiyati, hind dramaturgiyasidagi ijodiy merosi va uning falsafiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kalidasa, shakuntala, dharma, artha, kama, moksha, deizm, Gyote, Georg Foster

Har bir xalqning xalq ijodiy eposi o‘sha millatning turmush-tarzi, o‘y-fikrlari haqida so‘zlaydi.Hind epos va dostonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, asarlaridan hind ko‘hna madaniyati ufurib turadigan Kalidasasiz

tasavvur etib bo‘lmaydi.Hind shoiri, dramaturgi Kalidasa tarjimai holi haqida ma’lumotlar kam, ba’zi manbalar orqali uning tug‘ilgan yilini eramizdan oldingi 56-yilda deb hisoblashadi. Shoirning shaxsiy faoliyatini o‘rganishda yordam beruvchi eng ishonchli manba bu- uning orzu-umidlari, nodir fikrlari ifodalangan va zamonasini aks ettirgan o‘lmas asarlaridir.

Kalidasa asarlari diniy an’analar ustidan insonparvarlik g‘oyalari g‘alabasining ajoyib namunasidir. Shu sababli u qandaydir diniy an’ana va ruhoniylar qo‘lida qo‘g‘irchoq emas, balki, inson ongli jonzotlar ichida eng mukkamali u to‘laqonli va yaxshi sharoitda hayot kechirishga loyiqdir deb biladi. Kalidasa odamning tug‘ilishini olamning baxti deb biladi:

Baxtdan darak keldi, chunki ushbu dam
Olamning baxtiga tug‘ildi odam.

Hind xalqi uzoq o‘tmishda o‘zing bebaho asarlari bilan qadimgi yunon adabiyotidan qolishmaydigan katta adabiyot yaratgan ekanlar. Bunga uning asarlari yorqin misol bo‘la oladi. Uning “Yil fasllari”, “Darakchi bulut” poemasi, “O‘g‘ilning tug‘ilishi”, “Raghu avlodi” lirik-epik dostonlari va, “Shakuntala”, “Qahramonlik bilan topilgan Urvashiy”, “Malyavika va Agnamitra” kabi drammalari shular jumlasidandir. Xususan, Kalidasaning insonparvarlik qarashlari va dramaturgiyaga munosabati “Shakuntala” da yorqin namoyon bo‘ladi. Hind olimlari bu asarni hind dramaturgiyasining eng a’lo namunasi deb baholaydilar.

Hind shorlaridan birinchi bo‘lib, Kalidasaning asarlari jahon yuzini ko‘rdi. Dastlab, uning “Shakuntala” asari 1789-yilda ingliz tiliga tarjima qilindi. Kayinroq, 1791-yil nemis olimi va sayyohi Georg Forster tomonidan nemis tiliga o‘girildi. Tarjimaning bir nusxasi Gyotega yuboriladi. U o‘z hayajonini quyidagi she’rda aks ettirgan:

Gullarga bahor nima baxsh etar?
Pokiza va ma’sum qirmizi rangni.
Yoz va kuz mevaga nima baxsh etar?
Shohona tarannum qirmizi rangni.
She’riyatning go‘zal olami senda ,
Faqat senda mujassamdir ey, Shakuntala.

Bundan tashqari, rus yozuvchisi N.M.Karamzin “Moskva” jurnalida “Shakuntala” ning 4 parchasi bosib chiqaradi. U ham bu asardan hayratlanib bu haqida bu dramaning deyarli har bir betida she’riyatning tamoman husnini, eng latif tuyg‘ularini, osoyishta may oqshomlari kabi muloyim, ma’sum, mislsiz latofat va nazokatni, pokiza tengi yo‘q tabiatni va juda yuksak san’atni ko‘rdim. Bu ham mayli, bundan tashqari uni ko‘hna HIndistonning ajoyib manzarasi deyish mumkin, axir. Gomer poemalari

ham qadimgi yunon aholisining xususiyatlari, urf- odatlarini aks ettiruvchi manzaralarini ayni o‘zi-ku. Men uchun Gomer nechog‘lik ulug‘ bo‘lsa, Kalidasa ham shunchalik ulug‘vordir deb yozadi. Kalidasa asarlarini bunchalik tez mashhur bo‘lib ketishi sababi nima edi? U o‘z poema va asarlarida hind adabiyotini yevropa adabiyoti bilan bir qatorga qo‘yadi.

Xo‘sh, nega aynan “Shakuntala” jahon muxlislari qalbidan joy oldi, yuksak baholandi. Shakuntala asarida mehr-muhabbat, sadoqat, odamiylik, singari fazilatlar ulug‘lanadi. Mana shunday xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan inson esa, yovuzlik, jaholat, tubanlik ustidan g‘alaba qozonadi Shakuntala go‘zal, jasur, sabrli ayoldir. U har qanday qiyinchilikda yoriga nisbatan sadoqatini yo‘qotmadi, uni matonat va sabr bilan izlab topdi. Umuman olganda, Shakuntalada chinakam sharq ayoli qiyofasini ko‘ramiz. U asarlarida o‘z davrining eng dolzarb muammolarini olib chiqadi. Saroy ahli aristokratiyasidagi kibor va zulmni qoralab, adolat va odamiylikni yoqlaydi.

Mana shunday o‘lmas dramalari bilan hind dramaturgiyasini boyitdi, rivojlantirdi. Kalidasa yaratib ketgan an’ana hozirgi kungacha hind teatrlarida ko‘rsatiladi. Kalidasa asarlaridan ilhomlanib bir qancha hind shoirlari dramalar yaratgan. Bularga: Bhasa, Saumilu, Kaviputrularni kiritishimiz mumkin. Ma’lumki, hind dramaturgiyasi juda qadimgi davrlarni o‘z ichiga oladi. Milodiy 3-asrda hind dramaturgiyasi bir qancha sohalari rivojlangan va san’at asari darajasida ko‘tarilgan. Bundan tashqari, qadimgi hind teatrlarida qo‘g‘irchoq va soya teatrlari ham keng tarqalgan. Dramaturgiyadan tashqari Kalidasani hind adabiyoti asoschisi sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki o‘z davri uchun bunday rang – barang mavzuda ijod qilish, adabiyotning turli yo‘nalishlarida mohirlik bilan yoza bilishi hayratlanarlidir.

Kalidasa asarlarida asosan shoh va u yerdagi muhit, hukmdorning ijobiy va salbiy fazilatlarini ko‘rsatib, ularni tanqidiy muhokama qiladi. Lekin, bar bir asar so‘ngida xudolar va mahalliy donishmandlar yordamida to‘g‘ri yo‘lni topadilar, tinch va baxtli hayot kechiradilar. Xulosa qilib aytganda, Kalidasa hind dramaturgiyasining nafaqat yorqin vakili balki, uni yana bir yuqori cho‘qqiga olib chiqqan ijodkor hamdir. Uning dramalari hanuzgacha hind teatr va kino ssenariylarni asosi. Kalidasa pyesalari qadimgi hind og‘zaki ijodini o‘zida mujassamlashtirgan san’at asarlaridir. Uning dramalari o‘zidan oldingi taraqqiyotning yakuni bo‘lib qolmay, kelajakka ham klassik namuna bo‘lib xizmat qiladi va hind dramasining nazariyachilari tomonidan ko‘p foydalaniladi.

Kalidasa asarlarining falsafiy jihatlarini oʻrganar ekanmiz bunda quyidagilarni koʻrishimiz mumkin. Kalidasaning bir necha asarlarida hind ideologiyasini namunalarini uchratamiz. Hind ideologiyasida boʻlgani kabi u Kalidasa ham insonga biror bir kulfat yoki baxtsizlik kelsa, u sabrda mustahkam boʻlishi va oʻz istak va orzularidan voz kechishi kerakligini aytadi. U oʻz asarlarini falsafiy tahlil qilar ekan insoning oʻz hayotidagi maqsadlarini 4 ga boʻlina di. Bular quyidagilar: “dharma” axloqiy hayot va burch, “artha” boylik va siyosiy kuch, 3 chisi “kama” shahvoniy shavq va soʻngisi “moksha” oʻz dharmasini fidokorona bajarish tushunchasidir. Bunda koʻrishimiz mumkinki, Kalidasaning asarlarida axloqning alohida oʻrni bor va u axloqni barcha boyliklardan Afzal koʻradi. Va jamiyatdagi oʻzaro aloqa ham axloq ustiga qurilishi kerakligini ta’kidlaydi. U insonning barcha fazilat-u illatlarini tasvirlar ekan bu manzara asarda emas balki, koʻz oʻngingizda boʻlayotgandek his qilasiz. Ijodkor qahramonlar xarakterini shu darajada tabiiy tasvirlaydiki, qahramonlarni atrofingizdagi odamlardek qabul qilasiz. Negaki Kalidas hind jamiyatini juda yaxshi biladigan va u zoʻr mahorat bilan yoza oladigan ijodkordir.

Inson dunyoda yaxshi yoki yomon ishlarni amalga oshirar ekan bularni oʻz nodonligi ya’ni hali ma’naviy jihatdan mukammal boʻlmagani uchun qiladi deb hisoblaydi. Inson vafot etganidan soʻng esa u asl ruh huzuriga boradi va haqiqiy asliyatini oʻsha yerda biladi hamda oʻz mukammallik darajasiga erishadi deydi. Turmush jarayonida turli voqea va hodisalar sodir boʻlar ekan bularning barchasiga insoning oʻz sababchidir deydi, ya’ni Kalidasa bu yerda deizmni yoqlaydi. Dunyo va hayotda turli istak va chegaralarsiz yashash oson bularni oʻz qonun – qoida va cheklovlari bilan chegaralayotgan insonlarning oʻzlari qiyinlashtiradi.

Kalidasa yaratgan barchaga manzur, oʻlmas asarlar uni jahon adabiyoti shoiri darajasida koʻtardi. 1956-yilda Jahon Tinchlik Kengashining qaroriga binoan, Kalidasaning 2000-yilligi keng nishonlandi. Uning asarlari dunyoning juda koʻp tillariga yangidan nashr qilinmoqda.

Xulosa: xulosa qilib aytganda, Kalidasani hind adabiyoti asoschisi deb aniq ayta olamiz. Chunki hind adabiyotida Kalidasadek turli yoʻnalishlarda yoza oladigan hind xalqining ijtimoiy va falsafiy hayotini teran koʻra olib, mohirona qalamga tushiradigan ijodkor juda ozdir. U eramizdan oldingi qadimgi davrda hayot kechirib hozirda ham dolzarb boʻlgan muammolarga yechib qidira bildi. Faqat adabiyotshunoslik bilan shugʻullanmasdan oʻz dunyoqarashini turli fanlarni oʻrganib ham boyitdi. Bundan tashqari hind dramaturgiyasiga oʻzining tamal toshini qoʻyib, oʻzining oʻchmas izini qoldirdi. Bundan tashqari uning gumanistik qarashlari ham diqqatga

sazovordir. Negaki kastachilik hukm surayotgan davlatda, shoh saroyida har bir individning o‘rni va qarashi borligini aytish o‘sha davr uchun jasorat hisoblanadi. Bunga quyidagi fikrlarni misol qilishimiz mumkin: “Ijodiy ruh faqat yevropaning emas balki, butun yer yuzining bashariyatidir. Inson hamma yerda ham inson, u har yerda ham ta’sirchan yurakka ega va o‘zining tasavvuri oynasida yer-u osmonni aks ettira oladi. Voqelik hamma yerda ham huzur- halovatning asosiy manbaidir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. И.Д. Серебрянков. «Классика индиской литературы». Москва 1988.
2. I.M Hoshimov. “Hind adabiyoti klassikalari”. Toshkent. 1989.
3. U.U.Muhibova, T.A.Xodjayeva. “Hindiston adabiyoti”.

IMOMIDDIN NASIMIY VA UNING ONTOLOGIK KATEGORIYALARDAGI TAHLILI

Ahrorjon OQILOV
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD To‘rayev Laziz

Annotatsiya: Imomiddin Nasimiy o‘z faoliyatida asarlarining asosiy mavzusida gumanizmni hurufiylik talqinida keng yoyishga harakat qildi. Bu yo‘lda u ko‘plab to‘siqlarga uchrashiga qaramay, tanlagan yo‘lini mahkam tutdi.

Ushbu maqolada Nasimiyning ontologik va gumanistik g‘oyalarining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, Nasimiy faoliyatining birlamchi qirralarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Imomiddin Nasimiy, ontologiya, lomakonlik, Mansur Halloj, antropomorfizm

Hurufiylikning mashhur namoyondasi Nasimiy hisoblanar edi. U 1370-yilda (ba’zi manbalarda 1369-yil) Ozarboyjonning Shirvon viloyatida Shamahi shahrida dunyoga kelgan[1]. Imomiddin Nasimiy turkiy tildan tashqari arab va fors tillarida ijod qilgan. Shuning uchun ham o‘sha zamonning asosiy lisoni bo‘lgan fors va arab tilini yaxshi bilgan zullisonayn shoir hisoblangan. Bu shaxs taniqli shoir bo‘lib, bir qator ruboiylar meros

[1] https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/sayyid-imodiddin-nasimiy-ruboiylar.html

qoldirgan. U ozarbayjoncha yangi murabba, mustazod, tarji'band, ruboi, tuyuq janrlarini o'z ijodida ona tilida namoyon qildi. Nasimiyga qadar Iziddin Hasano'g'li, Qozi Burhoniddinlar falsafiy asarlar yaratgan bo'lsalarda bu darajada anglashiladigan saviyaga yetkaza olishmagan edilar. Muhammad (s.a.v) avlodlaridan bo'lganligi uchun sayyid so'zi nomiga qo'shilib aytilgan[1]. Uning asl ismi-Ali edi va unga Imomiddin ya'ni dinning imomi laqabi berilgan. U tabiat, ilmi hay'at, mantiq fanlaridan xabardor bo'lgan. Nasimiy yoshligida Mansur Hallojga kuchli ishonch bildirib dastlabki taxallusini uning ismidan ilhomlanib Husayn deb oldi. Chunki, Hallojning asl ismi Husayn edi.

Nasimiy Hallojning so'zlarini tasdiqlab shunday yozadi:

Ey ko'ngul, Mansur analhaq so'yladi,
Haq edi, haqni dedi, haq so'yladi.

Imomiddin Nasimiy o'z asarlarini asosan yangi murabba, mustazod, tarji'band, ruboiyi, tuyuq janrlarida yozdi.

Nasimiyning borliq haqidagi qarashlari monizm xarakteriga ega. Falsafiy va tasavvufiy ruxdagi asarlarining mohiyati u borliqni yagona manbaga egaligini ta'kidlaydi. Ontologik qarashlaridagi monizm o'zida idealistik monizm xususiyatini ko'rsatadi. Biroq Nasimiy borliqdagi materiyani abadiy emas, balki muvaqqat, deb hisoblaydi.

Nasimiy borliq obyektida o'z e'tibori markaziga mikro va mega dunyoni qo'yadi. Unga ko'ra muhim obyekt bu-inson degan qarorga keladi.

Nasimiy o'z ta'limoti-hurufiylikning asosiy tamoyillaridan chetlashmagan holda borliqning ma'naviy borliq qismiga alohida urg'u berdi. U insonlarning mohiyati ilohiylik bilan uzviy aloqador ekanligini ta'kidladi. Inson-borliqning markazida turuvchi mavjudot. Uning ichki dunyosi ya'ni fikrlari, hissiyotlari hamda intuitsiyasi o'z aktualligiga ega.

Borliq va uning makon va vaqt bilan bog'liqligi Nasimiy qarashlarini yanada dolzarb ekanligidan dalolat beradi. U borliqni o'tmish, hozir va kelajakka taqsimlasada, biroq urg'uni hozirgi zamonga qaratadi. Uning talqinicha borliq Yaratuvchi tomonidan yaratilgan. Uning go'zalligini yaratiqlaridan anglash mumkin. Biroq, Yaratuvchi-Allohning o'zi hech narsaga qiyos etib bo'lmasdir. Uning mulohazasi insonlar ongidan tashqarida hisoblanadi. Nasimiyning bu haqidagi qarashlari uning quyidagi ikki satrida ifodalangan.

Manda sig'ar ikki jahon, man bu jahona sig'mazam,
Gavhari lomakon o'zim, kavnu makona sig'mazam.

[1] http://www.anl.az/down/meqale/adalet/2018/yanvar/573406.htm

Baytning birinchi satridan Nasimiyning qarashlaridan borliq yakunga egaligini anglash mumkin. Chunki, islom aqidasiga koʻra dunyo ikki qismli-foniy va boqiy-dunyolardir. Nasimiy xuddi shunga urgʻu beradi. Birinchi satrning ikkinchi qismida esa Alloh foniy dunyoda Zoti bilan mavjud boʻlmasligini tushunarli bayon qiladi. Ikkinchi satrning boshlanishida esa Alloh nafaqat bu dunyo balki, ikki dunyoga ham sigʻmasligi, Uning makon va zamondan munazzahligi bilan yuqoridagi qism izohlanadi. Arab tilida "Kavn" soʻzi borliq maʼnosini ifodalaydi. Makon soʻzi esa ayni manzil deb tushuniladi. Nasimiy Yaratuvchini biz anglagan borliqdan va inson ongi qabul qiladigan har qanday manzildan holi va behojat ekanligini bildiradi. Bu bayt ahli sunna val-jamoaning borliq va Alloh haqidagi eʼtiqodiga toʻla mos keladi.

Xulosa. Birinchidan, Imomiddin Nasimiyning qarashlari oʻz davri uchun muhim hisoblangan gumanistik xarakterga ega boʻlib, buni asoslashda u, ruhiy tarbiyadan foydalanganini koʻramiz.

Ikkinchidan, Imomiddin Nasimiyning borliq va jamiyat haqidagi qarashlari dixatomik xususiyatni oʻzida aks ettirgan.

Uchinchidan, Imomiddin Nasimiy oʻzining ideologik qarashlarini Kitob, sunnatga muvofiq ilmiy asosga koʻra dalillab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Ziyouz.com
2. Fatih Usluer. Hurufilik. Istanbul. 2009
3. Nizomiy diniy falsafiy taʼlimotida Haqni va shaxsni anglash. "Ilm va tahsil" nashriyoti. Baku-2022
4. Oʻzbekiston islom sivilizatsiyasi markazi. Maʼnaviy, maʼrifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 2019-yil 1-son
5. Nəsiminin yaradıcılığında hürufi görüşlər. www. millikitabxana.az
6. Alisher Navoiy. Holati Pahlavoni Muhammad. Ziyouz.com
7. Отражение суфийско-хуруфитского мировоззрения в творчестве насими. Н. Мамедов-тагисой. Филология и человек. 2019. № 4

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT

TURKIYA TASHQI SIYOSATIDA “YUMSHOQ KUCH” KONSEPSIYASINING QO‘LLANILISH MEXANIZMLARI VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Adhamjon MAMADJONOV
TDSHU stajyor-tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy Turkiya tashqi siyosatida “yumshoq kuch” konsepsiyasidan foydalanish dinamikasini aniqlash va shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, madaniy, diniy omillar rolini tahlil etish, institutsional asoslarini o‘rganish tadqiqiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari Turkiyaning tashqi siyosat konsepsiyasini shakllantirishda foydalanadigan “yumshoq kuch”ning zamonaviy konseptual va mafkuraviy asoslarini tavsiflash va tahlil qilish ko‘zda tutiladi. Turkiya “yumshoq kuch”ining ham Anqara, ham xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari tomonidan qo‘llaniladigan vositalarini tavsiflash hamda, dunyoning turli mintaqalarida turkiy “yumshoq kuch”ning qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, Mustafo Kamol Otaturk, Kamolchilik, Ahmet Dovuto‘g‘li, qo‘shnilar bilan nol muammolar, AKP, Rajap Tayyip Erdo‘g‘an, “yumshoq kuch”, turkiy dunyo, tashqi siyosat, madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, din omili, tashqi siyosat.

Dunyo tartiboti o‘zgarib borishi va sovuq urushning yakunlanishi bilan xalqaro munosabatlarda nizolarni hal etishning “qattiq kuch” usuli samarasiz bo‘lib bordi, natijada davlatlar ta’sir etishning yangi yondashuvlarni izlash hamda uni qo‘llash mexanizmlarini tadqiq eta boshladi. O‘tgan asrning 90-yillariga kelib davlatlar tomonidan ta’sirning noharbiy, qurol va bosimlarsiz bo‘lgan “yumshoq kuch” usuliga e’tibor qaratildi. Amerikaning Garvard universiteti professori Jozef Nay o‘z kitobida ta’sirning “Yumshoq kuch”ini dastlab ilmiy atama sifatida ishlatadi. Tadqiqot obyekti hisoblangan Turkiya Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati yaqin o‘tmishi va bugungi holatiga nazar tashlasak uning ushbu konsepsiyadan keng foydalana boshlaganini ko‘rishmiz mumkin. Sovuq urush yakunidan so‘ng o‘zaro munosabatlarda tashqi va ichki imkoniyatlarga erishgan Turkiya bugungi kunga kelib dunyo kuch markaziga aylanish borasida amaliy haraklarni boshlab yuborgani ko‘plab sohalarda o‘z tasdig‘ini topib bormoqda.

Tadqiqotni amalga oshirish davomida tahlilning qiyosiy tarixiy, tarkibiy va tizimli usullariga murojaat qilindi. XXI asrda Turkiyaning tashqi siyosiy faoliyatida “yumshoq kuch”ning rolini o‘rganishda ko‘plab turli tadqiqotchilar, tarixchilar, jurnalistlar, siyosat va davlat arboblarining asarlaridan foydalanildi jumladan, Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi [1], Turkiya Respublikasi davlat va siyosiy arboblarining nutq va ma’ruzalarini, masalan: R.T.Erdo‘g‘an, A.Dovuto‘g‘li, M.Chavusho‘g‘li, K.Kilichdaro‘g‘li. [2] Bundan tashqari, tadqiqotchilar – Xaluk Karadag, Tayyar Ary, Qodir Sanchaklarni ham alohida qayd etish lozim. Rus olimlaridan N.G.Kireeva, S.Kudryashova, V.A.Avatkov va A.I.Zubkova. Qolaversa ushbu ta’limotning asoschisi bo‘lgan Amerikalik tadqiqotchilar, neoliberalist Jozef Nay hamda Robert Keohane kabi tadqiqotchilarning ishlariga murojaat qilindi. [3]

Maqolani yozish davomida tarixiy tahlil, qiyosiy-siyosiy, kontent va event tahlil usullaridan foydalanildi.

Geosiyosiy muhim joylashuv, kamolchilik mafkurasi va buyuk imperiya merosi kabi uchta asosiy xususiyat bilan shakllangan Turkiya Respublikasi, o‘tgan yuz yil ichida o‘z tashqi siyosat vektorini bir necha marotaba o‘zgartirdi. Dastlab Mustafo Kamolning kelishi va imperializm-dan voz kechish bilan izohlansa, keyin Sotsializm da’volardan chetga chiqish va kapitalizmga intilish, undan so‘ng esa Sovuq urush tugashi ta’siri hamda XXI asr boshida Adolat va taraqqiyot partiyasi hokimiyatga kelishi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari “Arab bahori”dan so‘ng ham Turkiya tashqi siyosati bir qancha o‘zgarishlarga uchradi. 2000-yillar boshlariga kelib Turkiya siyosiy elitasida islomiy qarash egalarining hukmron kuch sifatida paydo bo‘lishi Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Ta’kidlash lozimki Turkiya an’anaviy tashqi siyosatining yo‘nalishlari o‘zgargan bo‘lsa-da, davlatning tarixiy, geografik va mafkuraviy tajribasidan kelib chiqib, uning umumiy tashqi siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy xususiyatlaridan xalos bo‘lishning iloji yo‘qligini aytib o‘tishimiz joizdir. Adolat va taraqqiyot partiyasi a’zosi, sobiq bosh vazir Ahmet Dovuto‘g‘li bu borada katta sa’y-harakatlarni amalga oshirib, Turkiya Respublikasi Sovuq urushdan keyin globallashayotgan dunyoning yangi shartlariga o‘ziga xos “yaqin va uzoq maqsadli strategiya”ni o‘ylab topishi kerakligi borasidagi fikrlarini ilgari suradi.

Dovuto‘g‘li bu boradagi fikrlarini 2001-yilda chop etilgan “Stratejik Derinlik: Türkiye’nin Uluslararası Konumu” [4] (Strategik teranlik: Turkiyaning xalqaro mavqeyi) nomli kitobida bayon qildi. Qayd etish lozimki

u yozgan kitob Adolat va Taraqqiyot partiyasi hamda Turkiya Respublikasi tashqi siyosiy yondashuvlariga asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Adolat va Taraqqiyot partiyasi hokimiyatga kelishi va Turkiya tashqi siyosatida “strategik teranlik” doktrinasining ommalashib borishi bilan bir vaqtda turkiy “yumshoq kuch” haqidagi ilmiy tadqiqotlar soni ortib bordi. Biroq, bu izlanishlarning aksariyati “yumshoq kuch” tushunchasi uchun mustahkam nazariy asos taqdim etmasdan, muammoni faqat yuzaki tavsiflaydi. Umuman olib qaralganda yumshoq kuch bo‘yicha nazariyalar, jumladan Jozef Nayning konsepsiyasi Amerika tajribasiga asoslangan holda, ma’lum bir qoida tariqasida yaratilgan va o‘z foydasini keltirgan. Dovuto‘g‘li qarashlarida esa mamlakat “yumshoq kuch”ining ta’siri va ko‘lami uning iqtisodiy, madaniy va diplomatik yondashuvlariga, xususan qo‘shni mamlakatlarga madaniy va tarixiy yaqinligi, gumanitar yordamlar, media mashhurligi, chet ellik sayyohlar ko‘pligi kabi komponentlarga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin va bu albatta Turkiya uchun foyda keltirmoqda. Shubhasiz, bu kabi misollarni ko‘rsatkich sifatida ko‘rish mumkin, lekin bundan ham muhimi, Turkiya siyosiy elitasida islom qarashi egalarining hukmron kuch sifatida paydo bo‘lishi Respublika tashqi siyosiy imijida ham jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. [5]

Bugungi Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlar tutgan o‘rni haqida turk tadqiqotchisi, Istanbul AREL universiteti professori Hasret Çomak o‘zining “Dünya jeopolitiğinde Türkiye” [6] (Jahon geosiyosatida Turkiya) asarida Turkiyaning “sovuq urush” tugaganidan keyin xalqaro hamjamiyatda o‘z o‘rnini izlash masalalari haqida yozadi va buning uchun mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini muhokama qiladi.

Turkiyaning geografik joylashuvining o‘ziga xosligi uning o‘zaro chegaradoshligidadir, ma’lumki Turkiya ko‘plab mintaqalar tutashgan joyda joylashgan. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot doirasida Anqaraning qo‘shni mintaqalardagi tashqi siyosiy faoliyati o‘rganilishi, Turkiyaning yangi muhitda o‘z o‘rnini egallashga bo‘lgan urinishlarini taqiq etish muhim sanaladi. Tarixiy mushtaraklik va madaniy yaqinlik nuqtai nazardan kelib chiqib, Turkiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalari masalasini alohida ko‘rib chiqish zarur.

Turkiya tashqi siyosiy doktrinasidagi “yumshoq kuch” xalq diplomatiyasining tipik xususiyatlariga ega, biroq amalda undan tashqariga chiqadi, bu Turkiya “yumshoq kuch”ining hozirgi holatini o‘rganish bilan tasdiqlanadi.

Turkiy “yumshoq kuch”ning samaradorlik chegaralari Turkiya ichki siyosiy tuzilishining fundamental asoslariga va Turkiyada demokratik asoslarning yanada rivojlanishiga bog‘liq, noyob madaniy, tarixiy va milliy tarkibiy qism va iqtisodiy rivojlanishning jozibador konsepsiyasi asosida “yumshoq kuch”ni shakllantirishga standart anglo-sakson yondashuvidan farqli.

Yuqoridagi tahliliy maqola Turkiya “yumshoq kuch”ini amalga oshirish sohasida xalqaro koordinatalar tizimida sodir bo‘ladigan evolyutsion jarayonlarni tushunishga imkon beradi. Bugungi kunda Turkiyadagi “yumshoq kuch” siyosati nafaqat turk davlatining tashqi siyosat yo‘nalishini shakllantirishning muhim omili, balki uning mustaqil rivojlanayotgan jarayon ekanligini tushunishga ham yondashuvlar beradi. Ushbu ish rivojlanish yo‘nalishlariga ko‘ra kelajakdagi mumkin bo‘lgan tendensiyalarning to‘liq tasavvurini shakllantirishga imkon beradi.

Turkiya “Yumshoq kuch” siyosatida o‘z ambitsiyalarini madaniyat orqali ro‘yobga chiqarishga turkiy yondashuv standarti ekanligi ko‘rib chiqildi. Bu masalada Anqara butunlay xalqaro tajribaga tayanadi va isbotlangan vositalardan foydalanadi. O‘tgan o‘n besh yil ichida Turkiya Yaqin Sharq, Afrika, Yevropa (ayniqsa, Bolqon), Markaziy Osiyo, Kavkaz va hatto Lotin Amerikasida milliy manfaatlariga ega yirik mintaqaviy aktorga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa rasmiy Anqara xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish orqali o‘zining xalqaro munosabatlardagi ishtirokini faol rivojlantirmoqda. Qayd etish lozimki Turkiya G20ga a’zo davlatlaridan biri, BMTda faol pozitsiyani egallaydi, IHT va TDT kabi mintaqaviy tashkilotlarda yetakchi davlat sanaladi.

Turkiyaning “yumshoq kuch”ni amalga oshirishdagi vositalari keng. Anqara o‘z ta’sirini oshirish uchun bugungi kunda mavjud bo‘lgan barcha usullardan foydalanishni maqsad qilgan. Turkiya yetakchi sanalgan global o‘yinchilarning ilg‘or tajribasini o‘zlashtirib, ommaviy madaniyat, nodavlat tashkilotlar, maxsus maktablar tashkil etish, madaniy va shu kabi tadbirlarni o‘tkazish ko‘rinishidagi turli usullardan faol foydalanmoqda.

Turkiya “yumshoq kuch” siyosatining shakllanishida tarixiylik va milliylik asos bo‘lsa, eksport qilishda liberal-iqtisodiy yondashuv asosiy rol o‘ynadi. “Rivojlanishning Turk modeli” va “Qo‘shnilar bilan nol muammolar” kabi konsepsiyalar davlat imijini ijobiy shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Turkiya tashqi siyosatining mafkuraviy tarkibiy qismidagi evolyutsion jarayonlarning asosiy tendensiyasi Usmonli imperiyasining tarixiy merosiga asoslangan kamolchilik g‘oyalaridan neousmonizm g‘oyalariga bosqichma-

bosqich o‘tishni anglatadi. Bunday o‘tish Turkiyaning xalqaro munosabatlardagi mavqeyining bosqichma-bosqich oshishini ham nazarda tutadi, birinchi navbatda mintaqaviy kuch roliga, keyin esa global ta’sirga tomon harakat qilish. Bu tendensiya, shuningdek, g‘ariblashgan Turkiya qiyofasini targ‘ib qilishdan voz kechishga, mustaqil madaniy, tarixiy va siyosiy tajribaga asoslangan o‘ziga xos yagona timsolni yaratishiga undadi. Adolat va taraqqiyot partiyasining Turkiyada hukmronlik qilgan davri turk tashqi siyosati g‘oyasi asoslarini butunlay qayta ko‘rib chiqishga va “yumshoq kuch”ni amalga oshirishning o‘ziga xos va mustaqil modelini shakllantirishga olib keldi. Umumiy qilib aytganda “Yumshoq kuch” konsepsiyasining Turkiya tajribasini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Türkiye Cumhuriyeti Anayasasi https://www5.tbmm. gov.tr/yayinlar/2021/ TC_Anayasasi_ve_TBMM_Ic_ Tuzugu.pdf
2. Karadağ H. Kamu Diplomasisi: Uluslararası İlişkilerde Yeni Bir Boyut. – İstanbul: Nobel, 2012 – S. 94
3. Tayyar A. Yükselen Güç. Türkiye-ABD ilişkileri ve Ortadoğu / A. Tayyar. – Bursa: MKM, 2010. – S. 42
4. Sancak K. Uluslararası ilişkilerde güç kavramı ve yumuşak güç / K. Sancak. – Ankara: Nobel Akademik Yayıncılık, 2016 – C. 96
5. Киреев Н.Г. Турция между Европой и Азией / Н.Г. Киреев. – М., 2001. –С. 35
6. Кудряшова Ю.С. Турция и Европейский союз: история, проблемы и перспективы взаимодействия / Ю.С. Кудряшова. – М., 2010. – С. 63
7. Аватков В.А. Внешнеполитическая идеология Турецкой Республики при правлении Партии справедливости и развития: дис… канд. полит. наук. / В. А. Аватков. – М., 2013. – С. 68
8. Зубкова А.И. Стратегия мягкой силы в контексте трансформации политической системы Турецкой Республики в период 2002-2014 гг.: дис… канд. полит. наук. / А.И. Зубкова – М.: РУДН, 2015. – С. 161
9. Урманов Даян Ренатович. Динамика развития политики «мягкой силы» в Турецкой Республике в XXI веке. Казань 2017. – С. 21
10. Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power / J. Nye. – New York: Public Affairs, 1990. – P. 36
11. Nye J. Public diplomacy and soft power/ J. Nye // The annals of the American academy of political and social science. 2008. — № 1 – P. 109.

12. Nye J. Soft Power: The Origins and Political Progress of a Concept. https://ssrn.com/abstract=2942713.
13. Keohane R.O. Ideas and Foreign Policy: Beliefs, Institutions, and Political Change / R.O. Keohane. – New York: Cornell University Press, 1993. – P. 94
14. Keohane R.O. Power and Interdependence: World Politics in Transition
15. Ahmet Davutoğlu. Stratejik Derinlik: Türkiye'nin Uluslararası Konumu. Küre Yayınları, İstanbul 2001. – S. 84
16. Hasret Ç. Dünya Jeopolitiğinde Türkiye Hiperlink / Ç. Hasret. – İstanbul: Hiperlink Yayinlari, 2011 – S. 68

MADANIY MEROSNI ASRASH SOHASIDA O‘ZBEKISTON-YUNESKO DIPLOMATIYASINING RIVOJLANISHI

Ma'muraxon ALISHERXO‘JAYEVA
"Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar" kafedrasi doktoranti
Ilmiy rahbar: DSc prof v.b, D.B. Sayfullayev

Annotatsiya: Madaniy meros – davlatning tarixi va kelajagini bog‘lovchi o‘ziga xos vosita hisoblanadi. Adabiyotlarda uni ikki turga ajratib o‘rganilganini kuzatish mumkin. Zamonaviy ilm-fan madaniy merosning hozirgi paytda nafaqat tarix, madaniyat, din, ilm va boshqa ko‘plab sohalarning so‘zlovchisi, balki diplomatiyaning eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qilishini uning ilmiy tadqiqotlarda chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada madaniy merosni asrash va madaniy meros diplomatiyasining O‘zbekiston va YUNESKO munosabatlaridagi eng muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, "madaniy meros diplomatiyasi" tushunchasi borasida tahliliy xulosalar keltiriladi. Maqola kirish, asosiy qism va xulosa qismlaridan iborat.

Kalit so‘zlar: YUNESKO, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, madaniy diplomatiya, ko‘p tomonlama diplomatiya, meros diplomatiyasi, Jahon merosi Ro‘yxati, Xavf ostidagi merosi Ro‘yxati.

O‘zbekistonning milliy diplomatiyasi shakllanishi va hozirga qadar rivojlanishi jarayoni mustaqillikni qo‘lga kiritilishidan boshlanib, keyingi

davrlarni qamrab olgan. Xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli a’zosi sifatida mustaqillikning ilk yillarida boshqa davlatlar bilan birin ketin diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, O‘zbekistonning diplomatik munosabatlarda faol davlat sifatida ham tanilishiga sabab bo‘lgan. Faol diplomatik faoliyatni boshlagan O‘zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlari, nomoddiy ma’naviy meros namunalariga jahon hamjamiyati tarafidan qiziqish – O‘zbekistonning Sobiq Ittifoq tarkibidagi vaqtlardan boshlangani bir qancha adabiyotlarda keltiriladi [1]. Madaniy merosni asrash, tanitish va bu orqali davlatlar o‘rtasida doimiy tinchlikni ta’minlashni maqsad qilgan YUNESKO va O‘zbekiston munosabatlari 1993 yil 26 oktyabr kunida o‘rnatilgan. Tashkilot va O‘zbekiston o‘rtasida 1995 yil imzolangan memorandumga ko‘ra madaniy merosni asrash bo‘yicha quyidagi vazifalar tomonlarga yuklangan[2].

YUNESKO madaniyat sohasida avvalo, byudjetdan tashqari bo‘lgan manbalarni jalb etish yo‘li bilan O‘zbekistonga :

- Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa joylarda joylashgan arxitektura yodgorliklarni rekonstruksiya va saqlashda;
- madaniyat sohasiga tegishli qonunchilikni takomillashtirishga;
- o‘zbek hukumati so‘roviga muvofiq muzey va kutubxona ishchilarini, madaniyat sohasidagi yurist, menejerlarni, mualliflik va tarmoqlararo huquqiy mutaxassislarni stajirovkalarga yuborish, seminarlar tashkillashtirish, axborot yetkazib berish orqali tayyorlash;
- keng ommaga O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlar madaniy va tarixiy merosini tanitishda, xususan, Shtab kvartira binolarida ko‘rgazmalar o‘tkazish orqali yordam beradi;
- YUNESKO Jahon turizm tashkiloti(JTT) bilan birgalikda O‘zbekistonda turizm va madaniy turizm rivojlanishida yordamlashadi .

O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida hamkorlik munosabatlarning boshlanishi va rivojlanishi davrida faolligi va yaqinligi bilan xarakterlandi. Ma’lumki, O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlari o‘zlarining mashhur me’moriy yodgorliklari, arxitektura, fan, san’at va madaniyat markazlari dunyo bo‘ylab doimiy qiziqish uyg‘otadi. YUNESKO bilan yuqorida ta’kidlangan yaqin munosabatlar hanuzgacha yaqin va intensivligi bilan ham ajralib turadi.

---

[1] Jo‘raev Q. YUNESKO-O‘zbekiston: hamkorlik bosqichlari. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari №4(12). O‘zbekiston gumanitar jurnali, T.-2000. B.45.

[2] Memorandum o sotrudnichestve mejdu organizasiey Ob’edenyonnix nasiy po voprosam obrazovanie, nauki i kulturi (YUNESKO) i Respublikoy Uzbekistan. O‘zR MDA. – Fond M -7. Ro‘yxat 1, ish 343.-V. 130-137.

E’tiborga molik jihati – ushbu memorandum imzolanishidan 2 yil o‘tiboq, YUNESKO rahnamoligidagi tadbirlarning birinchilaridan bo‘lib, tarixiy me’morliklar joylashgan mashhur shaharlar – Buxoro shahrining 2500 yilligi, shuningdek, Xiva shahrining 2500 yilligi 1997 yil [1] shu shaharlarda va Parij shahridagi YUNESKO shtab kvartirasida o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi hisobotlarida qayd etilishicha, Parijda o‘tkazilgan Xiva, Buxoroning ushbu yubiley tadbirlarida O‘zbekistondan 50 nafar san’atkor ishtirok etgan . Bu tadbirlar, O‘zbekiston milliy va madaniy diplomatiyasi ijrosi amalda shakllanayotganini ko‘rsatayotgan edi. Shuningdek, Buxoro va Xiva shaharlari yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi – bu hududlarda joylashgan qator me’moriy majmualar, yodgorliklarning kapital ta’mirdan chiqishiga, ular atrofining obodonlashtirish ishlarini amalga oshishiga ham sabab bo‘ldi.

Keyingi yillarda esa YUNESKO shafeligida O‘zbekiston qadimiy shaharlari yubileylarining nishonlanishi va ta’mirlash ishlari natijasida ular qiyofasi butunlay o‘zgarishi, qayta jonlanishiga sabab bo‘ldi. 2002-yilda, Termizning 2500-yilligi va Shahrisabz shahri 2700-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. 2005-yilda Qarshi shahrining 2700-yilligi va Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 va Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi, 2009-yilda Toshkent shahri 2200-yilligi shular jumlasidandir. Bu yillarning o‘ziga xos ahamiyati shundan iboratki, ular O‘zbekiston madaniy merosini himoya qilish va tanitishdek muhim vazifani o‘z ichiga olgan YUNESKO bilan hamkorlikning shakllanishi bosqichlarini, tomonlar qo‘ygan maqsadlarini birin ketin amalga oshirish jarayonini ko‘rsatib beradi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan, tomonlarning oldiga qo‘ygan maqsadlari orasida, madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik tizimi yaratilganini shu bilan birga, xalqaro huquqiy normalarga ham qo‘shilish ishlarini amalga oshirilganini ham sanab o‘tish lozim [2] . O‘zbekiston Respublikasi umumiy hisobda YUNESKOning 7 ta xalqaro hujjatini ratifikatsiya qilgan.

Keltirilgan ma’lumotlarning tahlil etilishi natijasida, O‘zbekiston diplomatik sohasi birinchi davrining aynan dastlabki ikki dekadasi – YUNESKO vektori juda ham faol rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu davr mobaynida madaniy merosni saqlash, fan va ta’lim sohasida faol hamkorlik

[1] Sayfullaev D. O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi(1991-2019). Monografiya. T.-2020. B.122.

[2] Rahimov M., Abdimo‘minov O. O‘zbekiston va BMT : munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari.Monografiya.T.-2021. B. 224.

olib borildi. Masalan, 1998-yilda O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov YUNESKO tomonidan “Avitsenna” oltin medali bilan taqdirlanganini keltirib o‘tish mumkin [1] . Bu mukofotning ayni munosabatlarning shakllanishi jarayonida topshirilgani YUNESKO va O‘zbekiston munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishida ikki tarafning ham faol harakatlari natijasi ekanini ko‘rsatadi. YUNESKOning yana bir qator e’tiroflari va medallari avvalo, yurtimizning dunyo madaniyatiga qo‘shgan bebaho hissasi, tarixiy ahamiyati va olib borilayotgan islohotlarning e’tirofini bildirgan. Mukofotlar qatorida, YUNESKOning O‘zbekistonning madaniyati, tarixi va fan olamiga qo‘shgan hissasi e’tirofi hisoblanmish “Samarqandning 2750-yilligi” oltin va kumush medallari, YUNESKOning “Borobodur” oltin medali, YUNESKOning “Ipak Yo‘li” kumush medali, YUNESKOning “Aristotel” medali, YUNESKOning Fes (Marokash), Istanbul (Turkiya) shaharlarining yubileylari va xotira sanalariga bag‘ishlangan medallari shular jumlasidandir.

Madaniy merosni saqlashda YUNESKOga xos jihat bu – merosning mezonlariga ko‘ra bir necha turga bo‘linib moddiy va nomoddiy merosga ajratib ro‘yxatga olish hisoblanadi. Bu amaliyot – asosan dunyoning XX asr davomida ikki jahon urushini o‘tkazgani va madaniy merosni kompleks himoya ostiga olish nihoyatda katta ahamiyat kasb etishini guvohi bo‘linganidan so‘ng boshlangan. Aslida, YUNESKOning yaratilishi tarixi ham aynan talofotli jahon urushlari yakunida unga biriktirilgan vazifalar, jumladan, dunyo madaniy merosini asrashdek vazifalardan boshlangani ma’lum.

YUNESKO tarafidan madaniy merosni quyidagicha ajratilishini kuzatish mumkin:



№1 – diagramma[2]

[1] Tarjimai hol. Islom Karimov ilmiy-ma’rifiy majmuasi. URL: http://www.islomkarimov.uz/uzc/page/tarjimai-hol

[2] YUNESKO tarafidan himoya qilinuvchi Tarixiy meros mazkur turlarga ajratiladi. Muallif tomonidan tuzilgan.

YUNESKO manbalarida, madaniy merosni asrash va bu ishda bundan avvallari va hozirda safarbar qilinayotgan ulkan harakatlar – eng avvalo har bir millatning o‘ziga xosligini va boshqa millat va madaniyatlar bilan uyg‘unligini o‘rganish uchun olib borilishi ko‘rsatiladi. YUNESKOning bir vaqtning o‘zida ushbu ikki jihat ya’ni, madaniy xilma xillik va o‘ziga xoslikni saqlashga qaratilgan sa’y harakatlarini yuqorida keltirilgan diagramma orqali tavsiflash mumkin. Deyarli 80 yillik tajribasi nuqtai nazaridan, YUNESKO jahon urushlari ta’sirida insoniyat faoliyati natijasi hisoblanmish tarixiy yodgorliklarni, tabiiy merosni va nomoddiy ma’naviy merosni saqlashning keyingi avlod uchun naqadar muhimligi borasida dunyoning barcha hududlari bo‘ylab faoliyatini davom ettirmoqda. Bu ahamiyat esa, tarixni chuqur o‘rganishda, bu orqali bugungi kundagi va keyingi faoliyat algoritmlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam berishida ko‘rinadi.

Umuman olganda, YUNESKO faoliyatining ushbu, madaniy merosni muhofaza qilish, sohasi – asosini 1972-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh Konferensiyasi tomonidan qabul qilingan “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya” tashkil qiladi. Bu Konvensiya dunyo davlatlarini birlashtirgan o‘ziga xos hujjat bo‘lib, hozirga qadar asosiy maqsad – tabiiy va madaniy merosni himoya qilish sari statistika bo‘yicha ham eng ko‘p ratifikatsiya amalga oshirilgan Konvensiya ekanligi bilan butun dunyoni o‘zaro birlashtirgan. O‘zbekiston Respublikasi bu Konvensiyaning ishtirokchisiga YUNESKOga a’zo bo‘lgan yilda aylangan.

YUNESKO huzurida Jahon merosi Konvensiyasini amalga oshishi yo‘lida mas’ul bo‘lgan Jahon Merosi Qo‘mitasi(WHC – World Heritage Committee), butun dunyo bo‘ylab 21 YUNESKO a’zo davlatlari vakillaridan tashkil topgan. Ta’kidlash joizki, bu davlatlar orasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlaridan Qirg‘iziston ham o‘rin olgan. Qo‘mitaning asosiy vazifasi, davlatlar tomonidan nomzodligi taqdim etilgan madaniy/tabiiy meros obyektlarini ro‘yxatga kiritilishi uchun asoslar yetarli ekanligini tekshirish, o‘rganish, Jahon merosi Ro‘yxatiga kiritishni amalga oshirishdan iborat[1].

E’tibor qilinishi lozim bo‘lgan jihati – YUNESKOning “Xavf ostidagi Jahon merosi Ro‘yxati” ham mavjud bo‘lib, undan turli xil faktorlar, masalan, o‘zida jam bo‘lishi lozim bo‘lgan xususiyat va tavsiflarni yo‘qotgani sababli Jahon merosi ro‘yxatidan va shuningdek, “Xavf ostidagi Jahon merosi Ro‘yxati”dan ham chiqib ketish xavfidagi obyektlar joy oladi. Jahon merosi ro‘yxati, 2022-yil holatiga ko‘ra, 1154 obyektni tashkil qilib,

[1] Cultural heritage: 7 successes of UNESCO‘s preservation work. URL: https://www.unesco.org/en/cultural-heritage-7-successes-unescos-preservation-work

ulardan, 43 tasi transchegaraviy obyektlarni, 897 ta obyekt madaniy va 218 tabiiy meros, 39 tasi aralash obyektlar bo‘lib, bu ro‘yxatdagi 52 ta obyekt xavf ostida, 3 donasi esa ro‘yxatdan chiqarilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi YUNESKO jahon merosi obyektlari quyidagilar hisoblanadi,

1. 1990-yilda ro‘yxatga olingan Xiva shahri “Ichan qal’asi”;
2. 1993-yilda ro‘yxatga kiritilgan Buxoro tarixiy markazi;
3. 2000-yilda ro‘yxatga kiritilgan Shahrisabz tarixiy markazi;
4. 2001-yilda ro‘yxatga kiritilgan Samarqand – madaniyatlar chorrahasi;
5. 2016-yilda ro‘yxatga kiritilgan G‘arbiy Tyan-Shan tabiiy hududi;
6. 2016 yilda esa Shahrisabzning tarixiy markazi Xavf ostida qolgan jahon merosi ro‘yxatiga kiritildi.

YUNESKOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan har bir obyekt shu kundan e’tiboran, butun jahon merosi ekanligi tufayli xalqaro darajadagi himoya bilan ta’minlanishini bildiradi. Merosga egalik qiluvchi davlat endi ularni muhofazasini turli xil omillarga qarshi kurashni xalqaro yordam bilan uyg‘unlikda amalga oshirishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotiga a’zo bo‘lgandan to 2016-yilga qadar Madaniy merosni saqlash borasida Butunjahon merosi Qo‘mitasi tomonidan ma’qullangan jami 160,760 AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirgan.

– Buxoro tarixiy markazi va “Samarqand madaniyatlar chorrahasi” Jahon merosi obyekti uchun boshqaruv rejasini ishlab chiqish;

– Buxorodagi Rashid madrasasini restavratsiya qilish;

– Shahar merosi obyektlari bo‘yicha Jahon merosi nomzodligiga nominatsiya hujjatlarini tayyorlash kabilar uchun ushbu mablag‘ sarflangan, qolaversa, yuqorida aynan qanday ishlar amalga oshirilgani va obyektlardagi yangilanishlar bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Xulosa qilib, O‘zbekistonning insoniyat moddiy va nomoddiy merosiga eng boy davlat ekani, qolaversa uni tanitish va o‘rganish – tarixning eng muhim ixtirolari va madaniyatini o‘rganish va tanitishni anglatishini keltirish mumkin. Aslida, madaniy merosning eng muhim xususiyati ham aynan tarixiy ahamiyatni chuqur o‘rgangan holda, hozirgi kun manfaatlariga erishishda foydalanishdan iborat ekanini ushbu maqola va tahliliy ishlar yaqqol ko‘rsatdi. Avvalo, madaniy meros hozirgi paytda nafaqat tarix, madaniyat, din, ilm va boshqa ko‘plab sohalarning so‘zlovchisi balki diplomatiyaning eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlash mumkin. Xuddi shu muhim bo‘lgan vazifani global miqyosda YUNESKO

[1] World Heritage List. Elektron manba. URL: https://whc.unesco.org/en/list/

o‘z zimmasiga olib deyarli 80 yil mobaynida dunyo davlatlari madaniy, tarixiy, tabiiy merosini muhofaza qilib kelmoqda. Fandagi “meros diplomatiyasi”ning ham hayotga tatbiq qiluvchi, bu tushunchaning effektivligini isbotlagan ham aynan shu tashkilot va unga a’zo davlatlardir. Ikkinchidan, madaniy meros bu – shunday muhim kategoriyaki, u xalqga tegishli va ayni damda xalq madaniy va tarixiy merosga tegishlidir, sababi – asrlar davomida saqlangan bu yodgorliklar ajdodlarning izlanishlarini va qoldirgan ulkan ilmlarini o‘zida mujassam etadi. Uni muhofaza etish insoniyatning vazifasi bo‘lsa, uni tanish, bilish va bahramand bo‘lish ham butun insoniyatning huquqi hisoblanadi. O‘zbekiston YUNESKO tashkiloti bilan bu sohada turli hamkorliklarni yo‘lga qo‘yganini va so‘nggi besh yil davomida tashkilot bilan ko‘p tomonlama, xususan, madaniy va meros diplomatiyasini jadal ravishda rivojlantirayotgani tendensiyalari o‘rganildi va natijada, YUNESKOning O‘zbekiston madaniyatiga bo‘lgan katta qiziqishi va madaniy merosini himoya qilishga bo‘lgan tashabbuslari yanada faollashib borishi tendensiyasi kuzatildi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Yangi davri boshlanishi bilan tomonlar hamkorligi rivojlanishi, YUNESKOning O‘zbekiston madaniyatini ko‘rsatish va tanitishdagi tashabbuslarini qo‘llab quvvatlashi ushbu tashkilot bilan keyingi munosabatlarning faqat kengayishi, yanada yaqinlashishi ehtimoli yuqori ekanligini keltirib o‘tish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayev Q. YUNESKO-O‘zbekiston: hamkorlik bosqichlari. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari №4(12). O‘zbekiston gumanitar jurnali, T.-2000. B.45.
2. Memorandum o sotrudnichestve mejdu organizasiey Ob’edenyonnix nasiy po voprosam obrazovanie, nauki i kulturi (YUNESKO) i Respublikoy Uzbekistan. O‘zR MDA. – Fond M -7. Ro‘yxat 1, ish 343.-V. 130-137.
3. Sayfullayev D. O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi(1991-2019). Monografiya. T.-2020. B.122.
4. Rahimov M., Abdimo‘minov O. O‘zbekiston va BMT : munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari.Monografiya.T.-2021. B. 224.
5. Tarjimai hol. Islom Karimov ilmiy-ma’rifiy majmuasi. URL: http://www.islomkarimov.uz/uzc/page/tarjimai-hol

6. Cultural heritage: 7 successes of UNESCO‘s preservation work. URL: https://www.unesco.org/en/cultural-heritage-7-successes-unescos-preservation-work
7. World Heritage List. Elektron manba. URL: https://whc.unesco.org/en/list/

THE ROLE OF ECONOMY OF THE EASTERN COUNTRIES IN FOREIGN COUNTRIES

Nazakat MIRKOMILOVA
Student of Tashkent State University of Economics
Faculty: Corporate Governance,1st year of bachelor,
Senior teacher of TSUE: PhD Yu. Eshmatova

Annotation: This is a scientific article to lead to the risks and benefits of foreign counties of economy, types, causes and consequences reflected in prevention measures. In the article considered scientific – theoretical basis of gross domestic product indicator.

Key words: Digital economy, entrepreneurial culture, business, finance, innovation, income, Eastern economy, budget.

In modern conditions, it is very important to know the economies of other countries with which each national economy interacts. The economy of any country is getting deeper into the international division of labor, becoming an active agent of international economic relations, expanding economic ties with an increasing number of states. A deep study of the characteristics of the economies of different countries, groups of countries and regions with which economic ties are established will allow all agent of foreign economic activity to get maximum benefits from cooperation with foreign partners and to avoid losses.

Currently, a number of Eastern countries in the world (USA, China, Japan, Turkey, EU countries, Russia, etc.), taking into account the changes that have begun to take place in the world economy, are starting to digitize many sectors of the economy. However, with this information, we have to note that none, including the leading countries, have a complete philosophical understanding of what the digital economy is and what consequences it may have in the future.

It is important to know the economic potential of foreign partner countries, the sectoral structure of their economy, the type of their development, the peculiarities of economic traditions, the conditions for doing business, the economic policy of the government, and entrepreneurial culture, in order to choose the right economic behavior strategy towards them. Every business entity in a particular country, every government agency that carries out foreign economic activities must include in its staff the economists who possess such knowledge, deeply understand the characteristics of the foreign economic partner.

1. Creating the necessary conditions for the development of the digital economy (that is, establishing the appropriate regulatory and legal framework);

2. The emergence and global launch of digital economy platforms in economic entities that are readiest for digital transformation;

3. Realization of mutual competition of digital economy platforms and their gradual integration;

4. Introduction of the most promising solutions in the field of digital economy to the entire economy.

It would be appropriate for us to choose the same strategy of digital economy development in our republic that has been tested in the Eastern countries which are USA and China. In Particular, In China reception on March 16, 2007 on the promotion of innovative activities of particular importance is the law on the “tax for the benefit of enterprises” made. According to him, if the tax in favor of traditional enterprises is 25 percent, then high-tech for those who carry out activities, this rate is 15 percent. This total costs for research of the enterprise for the payment of taxes at the rate with a certain share, more than 50% of those in the state perform innovation activities increases, as well as a higher share of income not less than 50% it is established that it should be obtained from the sale of technological products. Economic security in Uzbekistan based on the research carried out from Chinese experience to innovation-investision practice aimed at providing consequently, it is necessary to introduce the following:

- budget for research in relation to gross domestic product increase the share of expenses;

- innovation-investision development of activities “science” aimed at the United States the creation of a named Fund and research based on its funds bringing to life the methodology of financing. As a result, the state the costs of the budget in the direction of “science” will be brought to a new level;

-for economic entities carrying out high-tech activities the profit tax rate is lower compared to those who carry out traditional activities setting the level. In my opinion, innovation-investision is the regulation of activities and taking into account the advanced aspects of the Chinese experience in incentives it will be important to ensure economic security.[1]

One of the main solutions to the identified problem, the development of the economy and pre-overcoming the current situation should, of course, improve the investment climate and forced attraction of foreign investment, as well as the development of in-investment loan. Program of the President of Russia V.V. Putin, presented on Petersburg Economic Forum, provides for a policy of accelerated and effective investment. V.V. Putin set the task of stimulating the economic growth, accelerated investment and technological revolution. In in-investment policy put forward the task of transition to project financing with additional a mortar to cheap investment resources, where the investment loan rate for the end user will be no higher than the inflation rate plus 1%. It is proposed to master to tax investment in the creation of new enterprises, to create a mechanism stimulating the transition to new technologies and, on the contrary, introducing additional tax on heavily obsolete fixed assets. The country has serious savings and reserves for a significant increase in investment. These are the assets of banks, which have reached 55 trillion. rub. (86% of GDP), of which investment. The credit is only 2% – 1 trillion. rub., and can be increased by 3-5 times, it is the use (mutually) of part of the gold and foreign exchange reserves, which have reached 470 billion dollars, the possibility of using funds from the privatization of the state property and others. At present, decisions have also been made to create a favorable pleasant investment climate [0]. However, as noted earlier, one of the main reasons for the decrease the amount of foreign investment are economic sanctions against Russia.

As a result, the global economy faces a contradiction: how support sustainable development, while at the same time weakening negative impact of economic activity on the environment, cut down the level of environmental load can be basically in three ways: 1) population decline; 2) reduction in the level of consumption material wealth; 3) making fundamental changes in technology. International trade is a field in economics that applies microeconomic models to help understand the international economy. Its content includes basic supply-and-demand analysis of international markets; firm and consumer behavior; perfectly competitive, oligopolistic, and monopolistic market structures; and the effects of market distortions. The

[1]. http://www.nsfc.gov.cn/english/site_1/about/6.html

typical course describes economic relationships among consumers, firms, factory owners, and the government.[1]

Economy of China, calculated from the Eastern states is a highly developed mixed economy. By nominal GDP, it has the 4 largest economy in Asia and the 13 largest in the world. South Korea is notable for its rapid economic development from an underdeveloped nation to a developed, high-income. This economic growth has been described as the Miracle on the Han River which has allowed it to join OECD and the G-20. South Korea remains one of the fastest-growing developed countries in the world following the Great Recession and the COVID-19 recession[2]. Furthermore, given South Korea's relatively limited geographical size, natural resources and population size, an aging population aggravates the threat that South Korea's economy might fall behind its fellow developed countries. Among the list of criteria, South Korea dominates in the ease to start a business and enforcing contracts. All of them play a significant role in encouraging investment, production, communication and, eventually, economic growth. Second, South Korea has devoted extra attention to technology development and innovation to promote growth. Innovation and technology are the key factors that have underpinned South Korean export competitiveness and fueled the country's remarkable economic rise over the past decades.

The rank of the Turkish economy globally continuous to improve, thanks to the firm steps that Turkey has taken regarding the development and growth, in addition to this, the private sector has an important position on the economic specter, also the public economic sector in Turkey is concerned with the work organization and applying the free foreign trade policy, and the freedom to exchange money and services between Individuals and institutions without any obstacles, in what can be described as a free market economy. Turkey is currently in the eighteenth place as the largest economy in the world thanks to its strong economy, with a GDP of about 736.716 billion dollars, also Turkey aims to get its economy to the tenth place as the largest economy by 2023.[3]

Considering the major components of GDP, US expect real consumer spending to rise approximately 2% in 2023, which assumes wage growth of 4-5%, inflation moderating to 3-4%, and further drawdown of excess

[1] https://saylordotorg.github.io/text_international-economics-theory-and-policy/s04-01-the-international-economy-and-.html

[2] https://www.stlouisfed.org/on-the-economy/2018/march/how-south-korea-economy-develop-quickly

[3] https://www.imtilak.net/en/turkey/articles/turkish-economy

accumulated pandemic savings. Government spending, which makes up 17- 18% of GDP, should be a neutral contributor in 2023, with increased spending related to infrastructure and the CHIPS and Science Act offset by reduced pandemic-related outlays. We see business investment up 3% in 2023, with solid spending on equipment and technology partly offset by lower spending on buildings, plants and structures. Weaker activity in residential investment-housing-is expected to persist in 2023 amid the higher interest rate environment. This represents about 5% of GDP and could be down 10-12% in 2023 after contracting roughly 10% in 2022. Net foreign trade is expected to be a 1% drag to 2023 GDP, as the stronger dollar likely hurts export demand[1].

Norway unbelievably is the most developed country in the world according to this data with a Human development index of 0.944. The economy of this country is however mixed since the commencement of the industrial era and they have however, not deviated from it. The abundance of natural resources in the country is one of its basic contributors to their economy. The basic or the main natural resources which contributes to their economy is the oil and gas and the amount of exports which is been made by the country. [2]The Gross domestic product of Norway is $277.1 billion and $55,009 per capita. The country has a very strong integrated welfare system, has the life expectancy of 80.57, and has extremely high standards of living compared to other countries in European.

Innovation-investision in India is the beginning of activity in the country it began on the day of independence. Scientific under the government in 1966 an advisory board committee was formed (Scientific Advisory Committee to the Cabinet). And by 1971 to the National Committee on science and technology converted (National Science & Technology Committee). Post-2010 and in the reforms, this committee is called the National Innovation Council (National Innovation Council). In general, innovasion- investision in India operates continuity of policy on scientific activity in increasing, scientific research social orientation and diversification of financial resources made. Also Scientific with industrial production and financial institutions the cooperation of research institutions is of particular note. Therefore, as of 2011, India is the third largest economy in the world had time to turn. In ensuring macroeconomic stability the effective

[1] https://www.jpmorgan.com/commercial-banking/insights/economic-trends
[2] https://bscholarly.com/most-developed-countries-in-the-world/

implementation of innovative activities leads the country to the world served to become an economy.[1]

Potential risks and threats affecting sustainable economic development: First, the development of the world economy will be accompanied by increased competition in global markets, which impose strict requirements for improving the efficiency of factors of production, including the accumulation and development of human capital. Secondly, the problem of employment, in the context of the rapidly growing labor force in Uzbekistan, requires the creation of favorable conditions for the organization of new productive capacities. At the same time, the existing structural deformation of the country's economy, characterized by the underdevelopment of the technological base of the main industries, the commodity direction of exports and the high share of agriculture in gross value added, the high size of the shadow economy, low productivity, high energy and resource intensity, determines the long-term nature of the solution to the existing problems. Thirdly, the accelerated introduction of effective instruments to ensure the functioning of the market economy is carried out, including the introduction of effective mechanisms for the protection of private property and the regulation of land relations, the improvement of the efficiency of State bodies, the eradication of corruption and the development of the financial market. Fourthly, the country's economy is characterized by low levels of inclusiveness, accompanied by poor human capital quality, inequality in income distribution, weak social protection and scientific and technological potential, unsustainable use and depletion of natural resources.

All over the world, nations are putting in every effort to make sure they are not left behind by the developing trends in the world, but a lot of nations are finding it difficult due to a wide array of factors and so some nations are only playing catch up. Most of them are handicapped by weak local currency reserve and having to depend on foreign reserves to help them in developing their countries. Ranking countries in terms of development is always going to be difficult as there are no obvious parameters in measuring this development however when we check a country's human development index and the general standard of living for its citizens, it does go a long way in determining the economic strengths of the nations and as such its level of development.

Based on the research carried out, it can be said that in the Eastern economy of innovasion-investision public and private sector in the

[1]http://www.thehindu.com/business/Economy/india-became-third-largest-economy-in-2011-world-bank/article5963702.ece

development of activities it is important to expand activities aimed at developing cooperation is particular importance in this regard is the use of the state both financially and legally. Macroeconomic analysis is the final stage of any statistical study. The analysis of economic development is usually carried out in order to identify the main relationships and proportions of social production; The extent to which individual factors influence economic performance; receiving theoretical conclusions; The feasibility and further improvement of the statistical methodology used; Formulation of practical conclusions on the main trends in socio-economic processes and their effectiveness.

Reference:

1. http://www.nsfc.gov.cn/english/site_1/about/6.html
2.https://saylordotorg.github.io/text_international-economics-theory-and-policy/s04-01-the-international-economy-and-.html
3.https://www.stlouisfed.org/on-the-economy/2018/march/how-south-korea-economy-develop-quickly
4. https://www.imtilak.net/en/turkey/articles/turkish-economy
5. https://www.jpmorgan.com/commercial-banking/insights/economic-trends
6. https://bscholarly.com/most-developed-countries-in-the-world/
7. http://www.thehindu.com/business/Economy/india-became-third-largest-economy-in-2011-world-bank/article5963702.ece

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING SHHTGA KIRISHI

Akmaljon QO‘CHQORBOYEV
TDSHU Jahon siyosati ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: A.B. Achilov

Annotatsiya:. Bu maqolada Samarqand sammiti doirasidagi uchrashuvning muhim nuqtalaridan biri tashkilotni kengaytirish masalasi bo‘ldi. Eron mamlakatiga tashkilotga a’zo bo‘lish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l ochadigan majburiyat memorandumini imzolashi, bugungi kunda rivojlanib borayotgan ShHT ning qanday imkoniyatlar ochadi.Eron Yaqin va O‘rta Sharqdagi yirik davlatlardan biri, global geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega mintaqadir. Mamlakat har doim arablar,

afg‘onlar, turklar, pokistonliklar, ozarbayjonlar, armanlar va turkmanlar o‘rtasida tabiiy ko‘prik bo‘lib kelganligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Eronni ShHT ga a’zo bo‘lishi, Markaziy Osiyo, “Bir kamar bir yo‘l” loyihasi, Dengizga chiqish, Logistika, Bandar Abbas va Chaxbahor portlar va h.k.

O‘zbekistoning a’zo bo‘lib kirishi bilan “Shanhay hamkorlik tashkiloti” nomini olgan mazkur tashkilot asosiy maqsadi a’zo davlatlar o‘rtasida do‘stlik, ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida samarali hamkorlikni amalga oshirish iborat.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashish tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Ta’kidlash joizki, tashkilot “Shanxay ruhi” negizida tashkil qilingan bo‘lib, ushbu tamoyil o‘zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, umumiy taraqqiyotga intilish kabi asosiy qoidalarni o‘zida mujassamlashtiradi. “Shanxay ruhi” tashkilotga a’zo davlatlarning siyosiy, harbiy va iqtisodiy qudrati har xil bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi teng va hamjihatligini bildiradi. ShHT doirasida barcha qarorlarning consensus asosida qabul qilinishi tamoyili ham “Shanxay ruhi”ning mazmun-mohiyatini va uning mukammal tashkilot sifatida namoyon etadi.

Bugungi kunga qadar Eron dunyoning ko‘plab davlatlari bilan aloqalar o‘rnatgan. Shu bilan birga, uning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo‘nalishi asosiy yo‘nalishlardan biridir. Eronning Markaziy Osiyodagi hozirgi siyosati mintaqadagi madaniy hamjamiyat g‘oyasiga asoslanadi.

Eronliklar fikricha: “Bunga nafaqat o‘zaro bog‘langan qadimiy tarixiy o‘tmish, balki umumiy chegaralar, shuningdek, ShHT mamlakatlari bilan yangi savdo-iqtisodiy aloqalar ham yordam bermoqda”[1].

Eron 2005-yilda Hindiston va Pokiston bilan bir vaqtda ShHTda kuzatuvchi maqomini olgan. 2021-yil sentyabr oyida Dushanbe sammitida davlat rahbarlari tomonidan tasdiqlangan Eronni Tashkilotga 9-to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilish tartibini boshlash to‘g‘risidagi qaror uning salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlashga xizmat qildi va davlatlar manfaatlarini ilgari surish uchun yangi istiqbollarni ochdi. Eron yo‘nalishida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Eronning ShHTga a’zo bo‘lishi mintaqaviy

[1] Согласован алгоритм вступления Ирана в ШОС https://www.uzdaily.uz/ru/post/71720

xavfsizlik sohasida yaqinroq hamkorlik qilish uchun imkoniyatlar ochadi. Afg‘onistondagi barqarorlik uning yaqin qo‘shnilari, jumladan Eronning ham umumiy maqsadidir. Aynan Eron Pokiston bilan birga eng ko‘p afg‘on qochqinlarini qabul qilgan.Tehron va Pekin o‘rtasidagi o‘tgan yilgi kelishuvlar Eronning Xitoyni Qora dengiz portlari va Yaqin Sharq bilan bog‘lash uchun mo‘ljallangan Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusida ishtirok etishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, 21-asr Ipak yo‘lining samarali faoliyat yuritishi uchun Eronning ahamiyati juda katta.

O‘zbekiston uchun Eronning ShHTga kirishi o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollarini ochadi. Hamkorlikning institutsional mexanizmlari amaliy faollashtirilgan taqdirda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoatda yangi kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, ikki davlatning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini ilgari surish realdir.

Eron bilan konstruktiv munosabatlarni yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekiston ham Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi xalqaro dengiz kommunikatsiyalariga olib boruvchi Eron yo‘lagiga: Bandar Abbos va Chaxbahor portlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish va optimallashtirish uchun yangi istiqbollarni ochadi. Tahlilchilarning qayd etishicha, Eronning ShHT faoliyatiga to‘liq jalb etilishi uning nizom maqsadlariga to‘liq mos keladi, ushbu makro-mintaqaviy birlashmaning barcha ishtirokchilari manfaatlariga javob beradi va o‘zaro manfaatli hamkorlikka sezilarli turtki beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ShHTga raislikning mas’uliyatli missiyasini o‘z zimmasiga olgan holda, hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochib, tashkilotning har bir a’zosida mavjud bo‘lgan foydalanilmagan zaxiralardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali tashkilotni rivojlantirish strategiyasiga tayandi deb ayta olamiz.

Davlat rahbarlari, shuningdek, Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni keng muhokama etishlari kutilmoqda. Chunki ushbu davlatda tinchlikni o‘rnatish SHHTning barcha a’zolari uchun strategik masaladir. Sammit – ushbu muammoni muhokama qilish uchun juda qulay diplomatik “maydon” hisoblanadi. Xususan, Afg‘oniston bilan o‘zaro munosabatlar, beayb afg‘on xalqiga har tomonlama yordam va ko‘mak berishni kuchaytirish bilan bog‘liq barcha masalalar atroflicha muhokama qilinishi kutilmoqda. O‘z navbatida, O‘zbekiston tomoni ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratib, kelgusida Afg‘onistonga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko‘rsatishning aniq dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surmoqda. Hozirda mamlakatimiz gumanitar inqirozga yo‘l qo‘ymaslik uchun bu davlatga zaruriy oziq-ovqat,

neft va elektr energiyasini yetkazib berishda davom etmoqda. O‘zbekiston mazkur obro‘li tuzilma doirasida doimo yangi xavf va xatarlarga qarshi kurash, savdo va iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik bo‘yicha qo‘shma salohiyatlarni oshirishga, aholi farovonligini ko‘tarishga, sanoat kooperatsiya jarayonlariga, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga, transport-kommunikatsiya aloqalarini mustahkamlashga jiddiy ahamiyat qaratib keladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, o‘tgan davrda SHHT o‘zini samarali mexanizm sifatida namoyon etib, siyosat va xavfsizlikdan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikkacha bo‘lgan keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga olgan mintaqaviy muammolarning butun bir majmuini hal etishga qodir xalqaro forum sifatida jahon siyosat sahnasidan mustahkam o‘rin egalladi. Dunyo bo‘ylab keng tarqalgan pandemiya esa SHHTga bo‘lgan obyektiv hayotiy zaruratni yanada oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Актуальные проблемы расширения Шанхайской организации сотрудничества: Материалы Международной конференции (форума): «На втором треке. Роль гражданского общества и общественной дипломатии в дальнейшем развитии и расширении Шанхайской организации сотрудничества» (Институт стран СНГ). — М., 2016. — 000 стр., илл
2. Расширение ШОС: новые горизонты сотрудничества https://ia-centr.ru/events-past/29946/
3. Исламская Республика Иран через призму вступления в ШОС https://podrobno.uz/cat/politic/islamskaya-respublika-iran-cherez-prizmu-vstupleniya-v-shos/

SHHT MAKONIDA MADANIY HAMKORLIK

Kamola ESANOVA
O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
Xalqaro Munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: M.I. Xo‘jayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada ShHT makonida madaniy-gumanitar hamkorlikning dolzarbligi, bugungi kunda amalga oshirilayotgan madaniy

hamkorlikka oid tadbirlar ahamiyati va ularning qamrovi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ShHT, madaniy-gumanitar aloqalar, virtual muzeylar, ijodiy ko‘rgazmalar, ko‘p qirrali hamkorlik, madaniyat vazirlari uchrashuvi, o‘zaro ishonch, millatlararo va dinlararo totuvlik, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish.

Ma’lumki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamonning eng dolzarb muammolarini samarali hal qilishda, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashda katta hissa qo‘shib kelayotgan nufuzli xalqaro tashkilotdir. 1996-1997-yillarda “Shanxay beshligi” nomi bilan tashkil etilgan hamda 2001-yili O‘zbekistonning a’zo bo‘lib kirishi bilan “Shanxay hamkorligi tashkiloti” nomini olgan mazkur tuzilmaning asosiy maqsadi a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, xavfsizlik, energetika, transport, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa ustuvor sohalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

ShHTning paydo bo‘lishi, birinchi navbatda, XX asr oxirida bipolyar tizim barham topganidan so‘ng Markaziy Osiyoda yangi vaziyatning vujudga kelishi, dunyo murakkab muammolari va oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlari bilan yangi yuz yillikka kirib kelishi bilan bog‘liq edi. O‘shanday murakkab davrda Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlarning ko‘p qirrali yangi tahdid va muammolarga qarshi turishida institutsion milliylashgan mintaqaviy hamkorlikka ehtiyoji obyektiv haqiqat edi.

Shu ma’noda ShHTning paydo bo‘lishi Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarning bevosita natijasi bo‘ldi. Shuning uchun ShHTning tashkil etilishi va faoliyatidagi eng muhim “qo‘shilgan qiymat” birinchi navbatda uning Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasidir.

Shunga qaramasdan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining mintaqada barqarorlikni ta’minlashga qo‘shgan hissasi bu bilan cheklanib qolmaydi.

Ushbu maqolada tizimli, mantiqiy va tarixiy tahlil usullardan foydalanilgan.

ShHT rivojlanib borar ekan, har yili o‘tkaziladigan sammitlarning kun tartibi muntazam kengayib bordi – xavfsizlikni mustahkamlashdan tortib to siyosat, xavfsizlik, diplomatiya, tashqi savdo, iqtisodiyot, turizm, transport, ilm-fan, ta’lim va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishni o‘zida qamrab oladigan ustuvor masalalarga

qadar. Bugungi kunda ShHT tizimida davlat va hukumat, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari darajasida 30 ga yaqin nizomiy organlari, ko‘p tomonlama hamkorlikning 40 ga yaqin ekspert mexanizmlari mavjud. ShHT doirasida 1350 dan ortiq hujjatlardan iborat mustahkam xalqaro normativ-huquqiy baza yaratilgan.

Shu o‘rinda yurtboshimiz tomonidan, ShHT tashkilotining madaniy-gumanitar sohasini rivojlantirishga qaratilgan nutqida quyidagicha ta’kidlab o‘tiladi:

“Madaniy-gumanitar aloqalar an’anaviy ravishda hamkorligimizning mustahkam asosini shakllantiradi. Xalqlarimiz o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik va bir-birini o‘zaro to‘g‘ri tushunish ShHT mintaqasidagi tinchlik va keng qamrovli sheriklikning garovidir. Bugun qabul qilinayotgan uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirish bo‘yicha kompleks reja aynan shu maqsad-larga qaratilgan. Madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish tamoyiliga tayangan holda, tashkilot millionlab odamlarga madaniyatlararo muloqot va o‘zaro almashuvning yangi imkoniyatlari eshiklarini ochib beradi. ShHT doirasida universitet rektorlari forumi, madaniyat va turizm kunlari, qo‘shma sport tadbirlari va universiadalar singari qo‘shimcha formatlarni ta’sis etish zarur, deb hisoblayman.

Shuni qayd etishni istardimki, zamonaviy texnologiyalar bizga madaniyatlararo muloqotning raqamli platformalarini ishga tushirish imkonini beradi. Bu – virtual muzeylar va ijodiy ko‘rgazmalar, ilmiy videokonferensiyalar bo‘lib, ular, aholi, jumladan, yoshlarni bunday loyihalarga faol jalb qilish orqali xalqlarimizning yanada yaqinlashishiga ko‘maklashadi.

O‘zaro turistik oqimlarni ko‘paytirish, sayyohlik sohasida qo‘shma dasturlar va loyihalarni amalga oshirish ham shu maqsadga yo‘naltiriladi. Ushbu ustuvor yo‘nalishdagi hamkorligimizni faollashtirish uchun kelgusi yilni SHHT makonida turizmni rivojlantirish yili, deb e’lon qilishni taklif etaman.

Ishonchim komilki, bugun qabul qilinayotgan turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim birgalikdagi ishlarimiz uchun zarur huquqiy zamin yaratadi”.[1]

ShHTning madaniy aloqalari o‘zaro hamkorlik mexanizmi kafolati vazifasini o‘taydigan madaniyat va san’at festivallarini o‘tkazish orqali doimiy ravishda kengayib bormoqda. Ular arxivlar, kutubxonalar,

[1] https://iiv.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashining-majlisidagi-nutqi 15.03.23

muzeylar, madaniy yodgorliklarni himoya qilish, etnik hunarmandchilik, nomoddiy madaniy meros va boshqa sohalarga tegishli.

Hamkorlik mazmuni tobora kengayib, keng ommani qamrab olmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi aloqalar sharoitida gumanistik hamkorlik o‘zaro tushunishni mustahkamlash va odamlar o‘rtasidagi masofalarni qisqartirishda muhim rol o‘ynadi. Bizning amaliy harakatlarimiz qat’iyat bilan oldinga intilishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda. Bu ShHT makonining yanada taraqqiy etishi uchun muhim kuch manbai hisoblanadi. ShHT o‘zining uchinchi o‘n yilligiga qadam qo‘yayotgan davrda o‘zaro ishonch, o‘zaro manfaat, tenglik, o‘zaro maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va hamkorlikda rivojlanish istagi bo‘lgan “Shanxay ruhi” tamoyillaridan kelib chiqqan holda ShHT mintaqasida madaniyatlar nuri yanada yorqinroq bo‘lib, barcha mamlakatlar madaniyatlar integratsiyasida rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tariladi.[1]

2021-yil 19-may kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning madaniyat vazirlari uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda o‘tgan yillar mobaynida madaniy-gumanitar yo‘nalishda qilingan ishlar atroflicha tahlil va muhokama etildi. ShHTga a’zo mamlakatlar madaniyat sohasi vakillarining kelgusidagi rejalari belgilab olindi. Shu bilan birga, turli xalqlar, millat va elatlar o‘rtasidagi hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ularni yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari va o‘zaro hurmat asosida uyg‘unlikda rivojlantirish, ShHTga a’zo mamlakatlarning ko‘p asrlik an’analari va urf-odatlari haqidagi bilimlarni kengroq ommalashtirish zarurligiga e’tibor qaratildi.

20-may kuni esa SHHTga a’zo davlatlar o‘rtasidagi madaniy – gumanitar hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi[2].

2021-yilning sentyabr oyida Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan ShHTning navbatdagi sammitida ShHT ning 20-yilligi munosabati bilan Dushanbeda o‘tkazilgan sammitda ham O‘zbekiston tomonidan qator takliflar berildi. Xususan, “ShHT ezgu niyat elchisi” institutini yaratish g‘oyasi ilgari surildi. “Ezgu niyat elchisi” ham mazmun-mohiyatan diplomatiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanib, ezgu niyat elchisi aslida xalq diplomatiyasini amalga oshiruvchi muhim manba, ya’ni xalq diplomatiyasining yaqqol vositasidir. Ular vaqt o‘tishi, shuningdek, xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlarga

[1] https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=toshkentda_shanxay_hamkorlik_tashkilotiga_a%CA%BCzo_davlatlar_madaniyat_vazirlarining_19-yig%E2%80%98ilishi_bo%E2%80%98lib_o%E2%80%98tdi-A13 15.03.23

[2] Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikning yangi sahifasi (uza.uz) 15.03.23

bog‘liq holda rivojlanib, diplomatiyaning boshqa ko‘rinishlari bilan birgalikda yakdil maqsadlar sari eltishga xizmat qiladi.

Ezgu niyat elchisi san’at va adabiyotning mashhur namoyandalari, estrada va sport yulduzlari, qolaversa, jamiyat hayotining turli jabhalaridagi taniqli insonlar bo‘lishi mumkin. Ezgu niyat elchisi negizida insonning iste’dodli ekani, ayniqsa, uning mashhurligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur insonlar orqali dolzarb va global muammolar – qurolsizlanish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, qashshoqlik, ekologiya, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qochoqlar muammolarini hal etishga qaratilgan sa’y-harakatlarni amalga oshirishga salmoqli hissa qo‘shiladi.

2022-yil, 29-sentyabrda Toshkentda “**ShHT doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik vektorlari”** xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Uni Shanxay hamkorlik tashkilotining Jamoat diplomatiyasi markazi tashkil qildi. Tadbirda ShHT Kotibiyati, Yevrosiyo xalqlari assambleyasi, Xitoy Xalq Respublikasining Yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik qo‘mitasi, Hindiston xalqaro ishlar kengashi, Pokiston Tinchlik va Diplomatik instituti rahbarlari va vakillari ishtirok etdi. Tadqiqotlar, Qozog‘iston va Qirg‘iziston xalqlari assambleyasi, Tojikistondagi ShHTning Do‘stlik va hamkorlik markazi, Qirg‘izistondagi ShHTga a’zo davlatlar madaniy integratsiya markazi, xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, etnik-madaniy markazlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Anjuman ishtirokchilari O‘zbekistonning ShHTga raisligi davrida madaniy-gumanitar sohada erishilgan natijalarni muhokama qildilar. Tashkilotning Samarqand sammiti yakunlari bo‘yicha, birinchi navbatda, fan, madaniyat, turizm, ta’lim va sport sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. ShHT doirasidagi hamkorlikning yangi yo‘nalishlari yuzasidan fikr almashildi.

Anjuman ishtirokchilari tashkilot faoliyatiga bag‘ishlangan fotoko‘rgazma bilan ham tanishish imkoniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Erkin Hamroyev forumdagi nutqida ShHT sammiti Samarqandda O‘zbekistonning tashkilotga muvaffaqiyatli raisligi yakunlanganini alohida ta’kidladi. Buni turli darajadagi 100 dan ortiq tadbirlar, jumladan, qator madaniy-gumanitar tadbirlar o‘tkazilgani ham tasdiqladi. ShHTga a’zo davlatlar o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish uchun salmoqli salohiyat mavjudligi ta’kidlandi. Samarqandda bo‘lib o‘tgan ShHT sammitida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida muhim kelishuvlarga erishildi. ShHTga

a’zo davlatlar rahbarlari O‘zbekistonning kelasi 2023-yilni ShHT makonida “**Turizm yili”** deb e’lon qilish tashabbusini bir ovozdan qo‘llab-quvvatladilar.

Shuningdek, O‘zbekistonda ShHT **Xalq diplomatiyasi markazi**, Qirg‘izistondagi ShHT **Madaniy integratsiya markazi** va Tojikiston Respublikasi **Sug‘d viloyati o‘zbek ma’naviyat va ma’rifat markazi** bilan hamkorlik memorandumini imzoladi.

Konferensiyadan so‘ng, ShHTga a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, millatlararo va dinlararo totuvlik, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari o‘rtasida do‘stona hamkorlik muhitini yaratish, ShHTning asosiy maqsad tamoyillarini targ‘ib etishdagi yuksak namunaviy faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida Markaz tomonidan ta’sis etilgan “Xalq diplomati” ko‘krak nishoni bilan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari, ilm-fan namoyondalari, yurtimizdagi diplomatik vakolatxonalar vakillari, xorijiy hamkorlar taqdirlandi. ShHT mamlakatlarining yetakchi olimlari, ekspertlari va amaliyotchilarini birlashtirgan xalqaro konferensiyada tashkilot doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Fan, ta’lim, turizm, madaniyat va sport sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishda qo‘llanilayotgan mahalliy va xorijiy innovatsion tajriba tahlil qilindi.

Shuningdek, madaniy-gumanitar sohadagi davlatlararo va mintaqalararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik yuzasidan tajriba va fikr almashildi. Tomonlar konferensiyaning ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, bu kabi tadbirlarni doimiy ravishda o‘tkazib borishga kelishib oldilar.

Ta’kidlash joizki, konferensiya hamkorlik istiqbollarini belgilash, ekspertlik muhokamalarini o‘tkazish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qildi.

2022-yil, 30-sentyabr kuni konferensiyaga tashrif buyurgan xorijiy ishtirokchilarning Samarqand shahriga tashrifi amalga oshirildi. Tashrif doirasida xorijiy delegatsiya va yurtimizdagi do‘stlik uylari, milliy madaniyat markazlari vakillari ishtirokida **“Rossiya va O‘zbekistondagi do‘stlik uylari, milliy madaniy markazlar – tinchlik, millatlararo totuvlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun: etno-madaniy amaliyot va tajriba almashish”** mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Uchrashuv doirasida O‘zbekistonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazi va A.E.Kulakovskiy nomidagi do‘stlik uyi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Shuningdek, kun tartibidan YuNESKO Ezgu niyat elchisi Aleksandra Ochirova bilan suhbat ham o‘rin oldi. Mehmonlar ko‘hna va boqiy shaharning muqaddas qadamjolari, xususan, yaqin yillarda bunyod etilgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazi, “Boqiy shahar” majmuasi va “Ipak yo‘li” xalqaro turizm universitetida bo‘lishdi.

Bu katta “ShHT oilasi” xalqlarining moddiy va ma’naviy tarixi bilan yanada chuqurroq tanishish imkonini beradi. O‘zbekiston tomoni tomonidan tashkil etilgan ShHTning O‘zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi va Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti kelgusi yilda ShHTning turizm va madaniy hamkorlik kun tartibini amaliy to‘ldirishga to‘liq hissa qo‘shishiga umid bildirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, madaniyat bu xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni bog‘lovchi ko‘rinmas ko‘prik. Xalq diplomatiyasini amalga oshirishda uning ahamiyati beqiyos. Zero, qalblar va xalqlar madaniyatni his qilar ekan, ular o‘zaro tinch-totuvlikka, hamkorlikka, hamjihatlikka doimo talpinadi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o‘z doirasida uzoq yillik tarixni mujassam etgan yirik sivilizatsiyalar, dinlar, madaniyat va etnik guruhlarni birlashtirgan tashkilotdir. Ular orasida o‘zaro muvozanatni saqlash, hamkorlikni amalga oshirishida madaniy aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan, tashkilotga a’zo mamlakatlar aholisi o‘rtasida madaniyatlar almashinuvini ta’minlash, dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish yuzasidan quyidagilarni taklif qilaman:

1. Tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasida milliy an’analarni aks ettiruvchi, xalqlarni yaqinlashtiruvchi yilda bir marta tashkil etiladigan festivallar tashkil etish;
2. Tashkilot a’zolari doirasida televideniye tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish;
3. Tashkilotga a’zo barcha davlatlar madaniyatlarini uyg‘unlashtiradigan modalar ko‘rgazmasini tashkil qilish;
4. Xalqlarning turmush tarzini yoritib bergan badiiy adabiyot namunalarini ShHT davlatlari tillariga tarjima qilishni yo‘lga qo‘yish va ular yuzasidan davra suhbatlari tashkil qilish;
5. ShHT xalqlari madaniyatini yoritib beruvchi multfilm, badiiy filmlar va ko‘rsatuvlarni yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar tashkilot doirasidagi madaniy aloqalarni amalga oshirishda samarali yordam beradi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ShHT xartiyasi. // SanktPeterburg. 200

2. Mirziyoyev. Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.// T.: “O‘zbekiston” 2017.

3. https://iiv.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-Shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashining-majlisidagi-nutqi 15.03.23

4. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=toshkentda_Shanxay_hamkorlik_tashkilotiga_a%CA%BCzo_davlatlar_madaniyat_vazirlarining_19-yig%E2%80%98ilishi_bo%E2%80%98lib_o%E2%80%98tdi-A13 15.03.23

5. https://www.uzdaily.uz/en/post/75973 15.03.23

POKISTONNING OLIY TA’LIM IDORALARIDA ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMI XUSUSIDA

Omina FAYZULLAYEVA
ShFT 1-kurs, urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi U. Zakirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pokiston hukumati tomonidan ta’lim tizimini yanada yaxshilash maqsadida olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar, hamda ayollarni ta’limga jalb qilish orqali savodxonlik darajasini oshirishga erishish kabi masalalar haqida gap boradi. Shuningdek, Pokistonning ta’lim tizimini takomillashtirish va zamonaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yishga oid loyihalar keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: eski ta’lim tizimi, oliy ta’lim komissiyasi, madrasalar, QS World University Ranking, Pass – Honors, federal byudjet, ayollarning ta’limi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining siri ta’limdadir. Ta’lim shaxsni shakllantirish bilan birga jamiyatga ijobiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi va shu bilan birga ongli jamiyatni shakllantiradi. Pokiston hukumatining avvalgi yagona o‘quv dasturi konsepsiyasi yaxshi bo‘lsa-da, unda bir qancha kamchiliklar ham bor edi. Barcha manfaatdor tomonlar, bamaslahat ta’lim tizimini takomillashtirishga erishishlari lozim edi. Ammo Pokiston o‘quv dasturi va rejalari, maqsad va standartlari, darsliklari,

o‘qituvchilari va kutubxonalari sifati bundan 10 yillar oldin qanday bo‘lsa, xuddi shundayligicha qolmoqda. Shu sababdan, hukumat butun mamlakat bo‘ylab yagona o‘quv dasturini joriy qilishi va bu o‘quv dasturini har 4-5 yilda bir marta qayta ko‘rib chiqishi zarur. Bunda barcha manfaatdor tomonlar, ya’ni o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-onalar va muassasa ma’muriyatini jalb qilish zarur. Pokistonda shu kabi islohotlar oshirilsa, ta’lim tizimi zamon bilan hamnafas bo‘la oladi, aks holda bugungidek taraqqiyot yo‘lidan ancha orqada qoladi.

Pokistonda ta’lim Federal Ta’lim vazirligi va viloyat hukumatlari tomonidan nazorat qilinadi, federal hukumat esa asosan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda yordam beradi. 2002-yilda tashkil etilgan Oliy ta’lim komissiyasi barcha universitetlar uchun javobgardir. Bunga Atta-ur-Rahman 2002 yilda asos solgan va unga o‘zi raislik qiladi.

Hozirda YuNESKOning 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Pokistonlik 59 784 nafar talaba xorijda tahsil olmoqda. Savodxonlik darajasi jins va mintaqaga qarab farq qiladi. Hukumatning 2021-22-yillardagi Pokiston Ijtimoiy So‘roviga ko‘ra, texnik va kasb-hunar ta’limida taxminan 500 000 ta talaba, diplom beruvchi kollejlarda taxminan 760 000 ta va universitetlarda 1,96 million talaba tahsil olgan. Pokistonda butun mamlakat bo‘ylab 200 dan ortiq universitet va 3000 ta kollej mavjud.[1]

Pokistonda diniy ta’lim katta ahamiyatga ega bo‘lib, aksariyat madrasalarda talabalarga asosan tafsir, hadis, fiqh, arab tili kabi islomiy fanlar, shuningdek mantiq, falsafa, matematika kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitiladi. Madrasalar soni Pokistonning eng kambag‘al oilalari orasida mashhurdir, chunki ular o‘z talabalarini turar joy va yegulik bilan ta’minlaydi. Madrasalar soni haqidagi taxminlar 12 000 dan 40 000 gacha. Pokistonning ayrim hududlarida ular davlat maktablaridan ko‘p hisoblanadi.

Diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlarni o‘qitish ham sust emas. Bunga misol qilib, 2021-yilda o‘tkazilgan QS World University Ranking (Umumjahon universitetlar reytingi)da Pokistonning 10 ta yetakchi universiteti dunyoning eng yaxshi universitetlari qatoridan joy oldi. Islomobod shahrida joylashgan Milliy Fanlar va Texnologiya universiteti (NUST) 355-o‘rinni egalladi. Bu universitet ilm-fan, tadqiqot va ishlanmalar uchun zamonaviy markaz sifatida ko‘riladi va ilg‘or, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan Pokistonning yetakchi universiteti hisoblanadi. Ushbu universitetda muhandislik, axborot texnologiyalari va menejment yo‘nalishlari mavjud. 373-o‘rinni Pokiston muhandislik va amaliy fanlar universiteti (PIEAS) egallaydi. Bu nufuzli universitet kimyo, fizika fanlari

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Pakistan

bo‘yicha ixtisoslashgan. Bu universitet ham Islomobod shahrida joylashgan. Islomobod shahridagi yana bir universitet Qayd Azam (Quaid-i-Azam) 454-o‘rinni egallaydi. Unda tibbiyot, biologiya, fizika va ijtimoiy fanlar fakultetlari mavjud.[1]

Pokistonda yiliga 445 000 ga yaqin universitet bitiruvchisi va 25 000-30 000 kompyuter fanlari bitiruvchilari tayyorlanadi. Pokistonda bakalavr kurslarining ikki turi mavjud: *Pass* yoki *Honors*. *Pass* darajasi ikki yillik o‘qishni talab qiladi va talabalar odatda deyarli teng miqdordagi majburiy fanlardan (masalan, ingliz tili, islomiyat va pokistonshunoslik)ni, hamda qo‘shimcha ravishda uchta ixtiyoriy fanni (masalan, kimyo,biologiya, iqtisodiyot)ni o‘qiydi. *Honors* daraja to‘rt yillik o‘qishni talab qiladi va talabalar odatda biokimyo kabi tanlangan ta’lim sohasiga ixtisoslashgan fanni o‘qiydi. Davlat tili – urdu tili bo‘lishiga qaramay, Pokiston universitetlarida barcha darslar ingliz tilida olib boriladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari o‘zlarining yillik byudjetlaridan ta’limga ko‘p miqdorda mablag‘ ajratadilar, zero eng katta sarmoya bu – ta’limga kiritilgan sarmoyadir. O‘z navbatida, ta’lim islohoti jamiyatga farovonlik olib kelishi mumkin, chunki katta o‘zgarishlarni faqat bilimli, malakali, madaniyatli shaxslargina olib kelishi mumkin, lekin birinchi o‘zgarish ta’lim tizimidagi o‘zgarish bo‘lishi kerak. Pokistonda ta’lim doimo hukumatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. 2014-yilda hukumat milliy strategik reja tuzgan bo‘lib, Pokiston 2025 Vision loyihasini ishga tushiradi. 25 ta maqsaddan ikkitasi ta’lim sohasiga qaratilgan va 2025- yilga borib quyidagilarga erishish nazarda tutiladi:[2]

1) boshlang‘ich sinflarni tashkil qilish va imkon qadar ko‘proq aholini qamrab olish, hamda bu bilan bitiruv darajasini 100 foizga, savodxonlik darajasini esa 90 foizga oshirish;

2) oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishni 7 foizdan 12 foizga va fan nomzodlari sonini 7 mingdan 15 ming nafarga oshirishdan iborat.

Ushbu maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash uchun hukumat 2021-yilda jami federal byudjetning taxminan bir foizini ta’lim bilan bog‘liq sa’y-harakatlarga ajratdi. Oliy ta’lim komissiyasi 44,174 milliard rupiy (taxminan 208 million dollar) ni tashkil etdi.[3] Hukumat ta’lim byudjetini jiddiy ravishda oshirish, undan mas’uliyat bilan foydalanishni ta’minlashi zarur .Har qanday ta’lim tizimini takomillashtirish uchun o‘qituvchining malakasini oshirish juda muhimdir. Pokiston hukumatida o‘qituvchi

[1]https://www.topuniversities.com/university-rankings/ world-university-rankings /2021

[2] https://www.trade.gov/pakistan-country-commercial-guide

[3] https://www.trade.gov/country-commercial-guides/pakistan-education

malakasini oshirish boʻyicha Kengash mavjud boʻlsa-da, u ham koʻplab kamchiliklarga ega. Malaka oshirish oʻqituvchi uchun majburiy boʻlishi kerak. Pokiston ta’lim tizimi PhD darajasiga ega boʻlgan, biroq malakasiz nomzodlarga ham ega boʻlishi mumkin, ya’ni a’lo baho va diplom bilan ham yaxshi ishga joylasha olmaydi. Bu tizim yordamida talaba ilmiy darajaga ega boʻlishi mumkin, lekin u oʻz sohasida malakali mutaxassis boʻla olmaydi. Shuning uchun imtihon tizimi, darsliklar va oʻquv dasturlariga zarur oʻzgartirishlar kiritilishi kerak. Oʻqituvchi shunga mos ravishda tayyorgarlik koʻrishi kerak. Bu oson boʻlmaydi, lekin bu oʻzgarish samarali boʻlishi kutilmoqda, deb hisoblaydihukumat.

Pokiston ta’lim muassasalarida turli institutlar oʻrtasidagi hamkorlik ahamiyatsiz hisoblanadi. Muassasalar bir-biri bilan hamkorlik qilsa, oʻz tajribalari, muvaffaqiyat va qiyinchiliklarini boʻlishsa, qoʻllab-quvvatlasa, Pokiston ta’lim tizimi yanada rivoj topar edi. Hozirgi zamonda texnologiya va boshqa zamonaviy resurslardan foydalanish juda muhim. Afsuski, Pokiston ta’lim muassasalari texnika va zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmagan. Pokistonning koʻplab muassasalarida zamonaviy kompyuterlar, multimedia, smart doskalar, laboratoriya jihozlari va minglab kitoblarga ega boʻlsa-da, ulardan kam foydalaniladi. Pokistonlik ota-onalar farzandi oʻqisin deb oʻzi och qolsa-da, bolasining kitoblari, kiyim-kechaklarini oʻz vaqtida ta’minlashga harakat qiladi, ammo ta’limda uning qaror va fikrlari ahamiyatsiz deb qaraladi. Ota-onani ta’lim-tarbiya ishlariga jalb etish sifatli ta’lim yoʻlidagi qadamlardan biri hisoblanadi.

Xotin-qizlar imkoniyatni kengaytirishning eng muhim vositasi bu ta’limdir. Ta’lim nafaqat bilim va koʻnikmalarni egallashga yordam beradi, balki gender tenglikni ta’minlashga ham yordam beradi. Xotin-qizlarni munosib Ta’lim bilan ta’minlash jamiyatda, mamlakatda va butun dunyoda ijobiy oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin.

Ta’lim ayollarga shaxsiy rivojlanishi va baxtli hayot kechirishi uchun zarurdir. Shuningdek, oʻz huquqlarini tushunishga va himoya qilishga yordam beradi.

Ta’limning koʻplab afzalliklariga qaramay, butun dunyo boʻylab koʻplab ayollar hali ham ta’lim olishda toʻsiqlarga duch kelmoqda. Qashshoqlik tufayli koʻplab qizlar maktab toʻlovlarini toʻlashga qodir emas, bu ularni maktabni tashlab ketishga yoki umuman oʻqishga bormaslikka majbur qiladi. Ayollarning bilim olishiga toʻsiqlardan yana biri erta turmush qurish va farzand koʻrishdir. Ayniqsa, Pokistonda bu hol keng tarqalgan boʻlib, erta turmushga chiqqan qiz koʻpincha maktabni tashlab ketishga majbur boʻladi va oʻqishni yakunlash imkoniga ega boʻlmasligi mumkin.

Ta’lim olgan qizda esa, erta yoshda turmushga chiqish ehtimoli kamroq va sog‘lom hayot kechirish ehtimoli ko‘proq. Yana, ta’lim orqali o‘ziga taalluqli masalalar bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganishi mumkin. Shuningdek, farzandlarini tarbiyalashda ona muhim rol o‘ynaydi. U o‘z farzandining asosiy tarbiyachisi bo‘lib, qadriyatlarni singdirish va muhim hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish imkoniyatiga ega. Ona bu imkoniyatdan foydalanib farzandiga ta’limning ahamiyati haqida o‘rgatishi kerak. Ona bolani o‘qish uchun tinch joy, muntazam o‘qish vaqti bilan ta’minlash orqali uyda ijobiy ta’lim muhitini yaratishga yordam berishi mumkin. Ta’lim orqali ayollar ham ta’lim va jamiyatni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. U o‘z tajribasi va g‘oyalarini muammolarni yechishda foydalanishi mumkin. Shuningdek, u olgan ta’limi orqali jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayollar ta’limiga sarmoya kiritish orqali hamma uchun teng va adolatli jamiyatni yaratish mumkin.

Pokiston oliy ta’lim idoralarida zamonaviy ta’lim tizimi xususida, bugunga kelib biq qator islohotlar oshirilmoqda. Ta’lim tizimini yanada yaxshilash maqsadida, Pokiston hukumati talabalar va o‘qituvchilar uchun yetarli sharoitlarni yaratib berish yo‘lida xizmat qilmoqda. Ayollarni ham ta’limga jalb qilish islohotlari kuchaytirilib, ularni savodsizlikdan qutqarish rejalashtirilmoqda. Pokiston ta’lim tizimi kelasi yillarda zamonaviy ko‘rinishda namoyon bo‘lishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizova F.V. Xorijiy Sharq mamlakatlari geografiyasi: 1-qism; o‘quv qo‘llanma- 2010

2. Abdalova Z.T, Tojiyeva Z.N; Iqtisodiy geografiya: o‘quv qo‘llanma

3. G‘iyosov T. G‘,Abdullayev, Qodirov Z.M Hindiston tarixi o‘quv qo‘llanma 2015 y

4. https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Pakistan

5. https://www.trade.gov/pakistan-country-commercial-guide

6. https://www.topuniversities.com/university-rankings/world-university-rankings/2021

7. https://www.trade.gov/country-commercial-guides/pakistan-education

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ДЎСТОНА ВА ТИНЧЛИКСЕВАР ТАШҚИ СИЁСАТИ

Шухрат КАМИЛОВ
ТДШУ, Халқаро муносабатлар ва жаҳон сиёсати
2-курс магистранти
Илмий раҳбар: с.ф.д., проф С.А. Жўраев

Аннотация: Бугун дунёда кечаётган глобаллашув жараёни инсоният тараққиётига ижобий таъсир кўрсатиш билан бирга, ўзида турли таҳдид ва хавф-хатарларни ҳам намоён этмоқда. Ҳозирги таҳликали даврда фаровонликни таъминлаш учун нафақат ички сиёсат, дўстона ва тинчликсеварлик ташқи сиёсат ҳам муҳимдир.

Калит сўзлар: тинчликсевар, мустақиллик, суверинитет, хавфсизлик, янги ренесанс, минтақа, Марказий Осиё, стратегия, ташқи сиёсат.

Ўзбекистоннинг дўстона ва тинчликсевар ташқи сиёсатида Марказий Осиё минтақаси Ўзбекистон учун стратегик нуқтаи назардан доимий равишда устуворлик касб этиб келади. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган илк дамларданоқ мустақилликни сақлаш, суверинитетни мустаҳкамлаш, хавфсизликни таъминлаш ҳамда халқаро ҳамжамиятга интеграциялашиш борасида муайян ислоҳотларни амалга оширди. Аммо, эски тузумнинг асоратлари ўлароқ сақланиб қолган чегараларнинг миллий номувофиқлиги, йўл ва трансчегаравий дарёлар билан боғлиқ турли муаммолар секин аста сиёсий характер касб эта бошлади. Бу эса Марказий Осиё давлатларининг ўзаро интеграциясига, шунингдек, минтақанинг халқаро ҳамжамият билан алоқалари ривожига тўсқинлик қилиб келди.

2016 йилдан бошлаб бу йўналишда янгича ёндашувлар, муаммоларни босқичм-босқич, амалий саъй-ҳаракатлар асосида ҳал қилишга интилиш вужудга келди. Биринчидан, 2016 йилнинг иккинчи ярмидан бошланган ички сиёсатдаги очиқлик, инновация ва янгиланишлар, иқтисодий соҳадаги либераллаштириш жараёнлари, янги ренесанс ғоясининг шакллана бошланиши ташқи сиёсатда янги тенденцияларни келтириб чиқарди. Бундан ташқари, маданий гуманитар соҳалардаги кенг ўзгаришларни юзага келиши, аҳолининг ижтимоий онги ва фаоллигидаги ўзгаришлар, албатта, ички сиёсатнинг мантиқий давоми сифатида ташқи стратегиямизга ҳам ижобий таъсир қилди. Муҳими, мамлакат ички ҳаётида кузатилаётган таълим ва

маърифат, фуқаролар фаоллиги ва инсон ҳуқуқлари ҳимоясига эътибор –давлатимизнинг ташқи сиёсатида ҳам бўй кўрсатди.

Минтақавий ташқи сиёсатда, яъни Марказий осиёда тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш масаласи устуворлик касб этаётир. Янги Ўзбекистон қўшнилари билан дўстона, яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли мунособатларни ривожлантириш ва мустаҳкамлаш йўлида фаол иш олиб бормоқда.

Икки томонлама ва кўп томонлама алоқаларни барча йўналишларда, шу жумладан, давлат раҳбарларининг мунтазам учрашувларини ўтказиш, савдо ва сармоявий ҳамкорликнинг доимий ўсиши, транспорт соҳасидаги ўзаро алоқалар муҳим тенденцияга айланди.

Маслаҳат учрашувлари халқаро миқёсдаги энг янги дипломатия

Президент Шавкат Мирзиёевнинг энг муҳим халқаро ташаббусларидан бири – БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида биринчи марта эълон қилинган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг маслаҳат учрашувларини ўтказиш тўғрисидаги таклиф амалга ошди. Ушбу ташаббус халқаро миқёсда кенг тан олинди ва минтақа давлатларининг барча раҳбарлари томонидан қўллаб-қувватланди. Ҳозирги кунгача бундай учрашувлар тўрт марта ўтказилди ва мунтазам тус олиб бормоқда. Ўзбекистон томонлар ўртасидаги мулоқотга кўмаклашиб, Афғонистондаги тинчлик жараёнини қўллаб-қувватлаш ва илгари суришда фаол иштирок этмоқда, шунингдек, Афғонистон иқтисодиётини тиклаш ва ушбу мамлакатни минтақавий ҳамда халқаро савдо-иқтисодий муносабатларга жалб қилишга ёрдам берадиган муҳим иқтисодий ва инфратузилмавий лойиҳаларни амалга оширмоқда.Ўзбекистоннинг Афғонистонга нисбатан сиёсати Марказий Осиёда барқарор ривожланиш истиқболлари қўшни Афғонистонда тинчликка эришиш билан чамбарчас боғлиқлигини англашга асосланади. Таъкидлаш жоиз, Афғонистондаги тинчлик жараёни узоқ вақт давомида боши берк кўчада қолиб кетди. Бундан ҳам ачинарлиси шундаки, Яқин Шарқ ва Шимолий Африкадаги бошқа инқирозли вазиятлар фонида Афғонистондаги уруш жаҳон ҳамжамияти эътиборидан бутунлай четда қолди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан дунё миқёсидаги ушбу ўткир муаммони халқаро ҳамжамият кун тартибига қайта киритишга эришилди. 2018 йил 26- 27 март кунлари Тошкентда Афғонистон бўйича юқори даражали халқаро конференция бўлиб ўтди. Анжуманда Афғонистон

Президенти Ашраф Ғани, Европа Иттифоқининг ташқи ишлар ва хавфсизлик сиёсати бўйича Олий вакили Федерика Могерини, БМТ Хавфсизлик Кенгашига аъзо давлатлар вакиллари иштирок этди. Афғонистон муаммосини ҳал қилишга бағишланган бундай кенг қамровли форум биринчи марта ана шундай юқори даражада ўтказилди. Афғонистондаги можарони ҳал қилишга кўмаклашиш, қўшни давлатлар билан яхши қўшничилик алоқаларини йўлга қўйиш Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни таъминлаш масаласи ва афғон муаммосини ҳал этишдаги стратегик қарашларига, шунингдек, давлатимиз раҳбари томонидан мамлакат ташқи сиёсатининг асосий устувор йўналишларини аниқ белгилаб олинганига асосланади**.** Ўзбекистоннинг Афғонистонга нисбатан сиёсати афғон можаросини ҳал қилиш бўйича халқаро саъй-ҳаракатларнинг фаоллашишига, тинчлик жараёнини илгари суришга қаратилган минтақавий савдо-иқтисодий ва инфратузилмавий лойиҳаларга ушбу мамлакатни жалб қилишга олиб келди.

Ўзбекистон Президентининг Минтақавий маслаҳат учрашувининг ташаббуси нуфузли халқаро тадбир даражасига олиб чиқилиши, унинг мунтазамлигини тъминланиши минтақа давлатларнинг манфаатларига тўлиқ мос келиши, мавжуд муаммоларни кенг ва батафсил очиқ муҳокама қилиниши ва натижадорлиги XX1 аср жаҳон сиёсатининг янги босқичи учун марказий осиёда янги тенденцияларни йўналишларни шакллантирувчи стратегияни ишлаб чиқишга сабаб бўлиб, амалий тарихий сиёсий воқеа сифатида тарихга кирди. Амалий жиҳатдан, Марказий Осиё мамлакатлари ўртасидаги ҳамкорлик истиқболлари савдо, инвестициялар, транспорт, энергетика ва инновациялар, “яшил” технологиялар соҳаларида ўзаро мунособат-ларни янги босқичга олиб чиқиш, борасида аниқ лойиҳа ва дастурларни амалга ошириш, туризм, таълим, соғлиқни сақлаш, фан ва маданият соҳаларида кўп қиррали мунособатларни кенгайтириш, минтақа барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш юзасидан мушоҳада юритиш замонавий мулоқатни йўлга қўйиш биринчи марта амалга оширилмоқда. Унинг давомийлиги ўзаро ҳамкорликнинг тараққиёт драйверларини аниқлаш асосида қарорлар қабул қилишга шарт шароитлар ва имконият берувчи механизм сифатида ўз ўрнига эгалигини ва минтақа ривожланишувига сезарли таъсир этувчи тартиб эканлигини кўрсатади таҳлил олиб боришни имконини беради. Ушбу янги модель доирасида илгари сурулган ташаббусларнинг амалга

тадбиқ этилиши эса яқин келажакда минтақа давлатларининг стратегик ривожланиши пировардида минтақа аҳолисининг турмуш даражаси ошишига олиб келади. ва Ўзбекистоннинг Учунчи Ренессанс ғояларининг тарқалишига ва унинг таъсирини ошишига кенг имкониятлар яратади.

Масалан, мустақиликнинг 30 йили давомида минтақавий масалаларни муҳокама этиш учун Қозоғистон ва Ўзбекистон раҳбарларининг 34 марта ташрифи амалга оширилди, шунингдек, 17 та учрашув бўлиб ўтди. 2018 йилдан мамлакатларнинг минтақалараро ҳамкорлиги форуми янги механизм сифатида ташкил топди ва мунтазам ривожланиб бормоқда. 2021 йил икки давлат ўртасида Иттифоқчилик шартномаси ўрнатилди. Давлат раҳбарлари ўртасида эса ўзаро яқинлик ва ишонч янада мустахкамланди.

Минтақавий ҳамкорликда парламент дипломатиясининг тобора ривожланиб бориши ҳам ўзига хос янги институт. 2016 йилдан буён Тожикистон ва Ўзбекистон парламентлари ўртасида 4 та учрашув бўлиб ўтди. 2018 йилда Қирғизистон Жўғарғи Кегаши ҳамда Ўзбекистон Олий Мажлиси парламентлараро комиссиясининг биринчи йиғилиш бўлиб ўтди ва ҳозиргача коммиссия аъзолари учта йиғилиш ўтказиб ўзаро муҳим масалаларни муҳокама қилмоқдалар. Худди шунда анъана Ўзбекистон ва Туркманистон парламентлари ўртасида ҳам йўлга қўйилган. Бу шаклдаги учрашувлар минтақавий ҳамкорликни кенгайтиришда парламентлар иштирокини янада оширишга қаратилган. Янги минтақавий сиёсат нафақат ўз вақтидалиги, балки вужудга келиши мумкин бўлган хавф хатарларни олдин кўра олиши ва Марказий Осиёда кейинги йилларда шаклланган янги сиёсий реалик – халқаро сиёсатнинг Осиё ва Европани боғловчиси сифатидаги аҳамияти ҳам муҳим бўлмоқда.

Ўз навбатида, ёш давлатимизнинг очиқлик, яхши қўшничилик, стратегик шерикчилик, ўзаро ишонч ва мавжуд муаммоларни муросаа келишуви, дипломатик йўл орқали ечиш тамойилларига асосланган янги минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашда қанчалик самарадорлигини тасдиқлайди. Шу билан бирга, минтақанинг замонавий ҳамкорлик маконига айланишида айниқса, долзарбдир.

Қўшни давлатлар билан узоқ вақтдан буён ечилмай қолаётган ва бошқа амалий алоқаларга тўсқинлик қилиб келган черага масалаларини ҳал қилиш бўйича эришилган натижаларни стратегик аҳамиятга эга бўлмоқда.

Авваламбор, шуни айтиш керакки, минтақа давлатлари мустақилликка эришганидан сўнг мустақил давлат сифатида ўз чегараларини делимитация ва демаркация қилишлари керак эди. Бошқача айтадиган бўлсак, ҳар бир давлат ўзига тегишли ҳудудларини географик белгилаб, кейин шу чизиқлар орқали чегарани ажратидаган барча ташкилий – ҳуқуқий ишларни амалга оширишлари керак эди. Бу жараёнда уларга эски тизимдан қолган қоидалар тўсқинлик қилди. Бир қанча муаммолар, масалан, айрим давлат ҳудудларининг бошқа давлат ҳудудида қолиб кетиши, чегаралар белгиланганда манфаатлар мос келмаслигига дуч келдилар. Бундай муаммолар узоқ вақт ечилмади ва тўпланиб борди. Натижада, бир бировига нисбатан ишончсизлик шаклланди. Ўзаро савдо ва барча турдаги алоқаларга салбий таъсир эта бошлади. 2016 йилдан кейин Президент Шавкат Мирзиёев мардлиги ва ташаббуси билан бу муаммоларни ечишга киришилди. Бу ташаббусни минтақа давлатлари қўллаб қувватладилар ва биргаликда ҳал этишга киришдилар.

Натижада, бугунга келиб, Ўзбекистон давлат чегараларининг катта қисми ўзаро мувофиқлаштирилган. Ҳар бир давлат бўйича алоҳида қарайдиган бўлсак, Қозоғистон ва Туркманистон билан 100 фоизга, Тожистон билан 99 фоиздан ортиқ, Қирғистон билан 90 фоиздан ортиғи чегаралар делимитация қилинган.

Бу нима дегани? Биринчидан, фуқораларининг ўзаро бориш келиш механизми, виза тартиблари соддалаштирилди, қўшни давлатлар билан чегараларда ўнлаб назорат пунктлари очилди. Иккинчидан, чегара пунктлардаги баъзи бир тўсиқларнинг олиб ташланиб, Ўзбекистон ва Марказий Осиё давлатлари фуқаролари ўртасида алоқалар тубдан яхшиланди. 2020 йилга келиб ҳар куни ўзбек – қирғиз чегарасини кесиб ўтган фуқаролар сони 30 минг кишига, ўзбек – тожик чегарасида эса 20 минг кишига етди. Таққослаш учун, 5 йил олдин Ўзбекистон ва Қирғизистон ўртасидаги чегара пунктларидан бир суткада 200-300 нафар фуқаро ўтган бўлса, ҳозирги кунда бу рақам 30 мингга етди. Тожикистон билан ҳам чегара пунктларини суткасига 20 минг нафар фуқаро кесиб ўтмоқда. Бундан ташқари, 2018 йилда “Ўзбекистон ва Тожикистон фуқароларининг ўзаро сафарлари тўғрисидаги” битим имзолангани туфайли мамлакатларимиз ўртасида виза режими бекор қилинди ва айнан шу йили 17 та назорат пунктлари очилди. Мазкур тадбирлар икки томонлама мунособатлар ривожланишида муҳим ахамиятга эга бўлди. Учинчидан, бу ҳаракатлар мамлакатлар ўртасида транспорт қатновларини тўлиқ

йўлга қўйишга имконият яратди. 2017 йилда Тошкент – Душанбе авиа қатновлари қайта йўлга қўйилгани, Ғалаба – Амузанг темир йўлининг қайта тикланиши, А-377 халқаро йўли Самарқанд – Пенжикент қисмининг очилиши фикримизнинг ёрқин далилидир.

Буларнинг барчаси минтақа давлатлари халқлари учун ўзаро иқтисодий савдо, гуманитар маданий алоқаларни ривожлантиришда катта имкониятларни очди. Чегара масалаларини сиёсийлаштиришга ва салбий тенденциялар вужудга келишига йўл қўйилмади.

Дўстона ташқи сиёсатда иқтисодий омилларнинг асосий ўринга олиб чиқилиши минтақа давлатлари ўртасидаги мунособатларга муҳим аҳамиятга эга бўлди.

2016 йилнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ўзбекистоннинг ташқи сиёсий муносабатларининг иқтисодийлашуви вужудга келди ва бугун у жадал ривожланиб бормоқда. Бошқача айтадиган бўлсак, иқтисодий дипломатия минтақавий кўптомонлама алоқаларда ўз аксини топди. Бунинг асосий сабаблари бор, албатта.

Бир томондан, Марказий Осиё давлатларининг геоиқтисодий ва геосиёсий жиҳатдан жаҳон бозорига чиқиш имкониятларининг чекланлиги, яъни окенлардан узоқдалиги, жаҳон бозорига чиқиш учун камида иккита давлат чегарасини кесиб ўтишга мажбурлиги бўлса, иккинчи томондан, минтақа давлатларининг иқтисодиёти кўпроқ хом ашё маҳсулотлари билан боғлиқлигига бориб тақалади. Барчада жаҳоннинг ривожланган давлатлари билан илғор технологияларга асосланган мунособатларни ўртанишга эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Учинчи омил – минтақа давлатлари иқтисодиёти бир бирини тўлдирувчидир. Тўртинчи томондан йирик давлатлар, халқаро тансмиллий корпорациялар минтақада ҳамкорликни ўрнатиш ва ривожлантиришдан манфаатдор бўлса ҳам, улар учун бу каби омиллар тўсқинлик қиларди. Лекин жаҳон бозори ўта рақобардошликка асосланган. Халқаро талаблар доирасига чиқиш ва тенглар ичида тенг бўлиш учун минтақа давлатлари ўртасида савдо иқтсисодий алоқаларни ривожлантириш орқали халқаро иқтисодий мунособатларга кириш вазифаси турарди. Юқорида айтганимиздек, 2016 йилларгача бўлган даврда бу жараёнлар жуда секинлик билан ривожланди. Албатта иқтисодий интеграция бўйича анча ҳаракатлар қилинган эди, лекин бу ерда янги шароитда янги йўл топиш керак эди. Ўзбекистон ана шундай ташаббус ва амалий ҳаракатлар билан дадил чиқди. Муҳим ташаббускорликни кўрсата олди. Бошқача айтадиган бўлсак, иқтисодий толерантликни намойиш этди.

Ислоҳотлар тезда ўз натижасини бера бошлади. Масалан, 2017 йил якунига кўра мамлакатимизда Марказий Осиё давлатлари иштирокида 312 та корхона, 2021 йилда эса 1451 та корхона ташкил этилди. Агар 2017 йилда Ў збекистоннинг минтақа давлатлари билан савдо айланмаси 2,47 милиард, 2020 йилда эса 4,95 миллиард доллардан иборат бўлди.

Замонавий Ўзбекистон ташқи сиёсатининг янги тенденцияларидан бири бу Афғонистоннни Марказий Осиёдаги иқтисодий лойиҳаларга жалб этиш бўйича ҳатти ҳаракатлари ва унинг кутилаётган истиқболлари.

Афғонистон Марказий Осиё тизимининг муҳим бўғини ҳисобланади. Афғонистон бир вақтнинг ўзида Ғарб ва Осиёни, Шимол ва Жанубни боғловчи геосиёсий ва геомаданий, геоиқтисодий макон ҳисобланади. Лекин узоқ вақт давомида Афғонистондаги вазият бундай имкониятни амалга оширишга йўл бермаётган эди. Ўзбекистон замонавий шароит ва стратегик мувозатдан келиб чиқиб, Афғонистоннни Марказий Осиёдаги иқтисодий лойиҳаларга жалб этиш таклифи билан чиқди ва амалга оширишга киришди. Давлат раҳбарининг бундай стратегик қарори чуқур таҳлилга асосланганлиги ва бўлиши мумкин бўлган хавф хатарларни ҳисобга олганлиги унинг ҳаётийлигини таъминлади. Бундай сиёсат нафақат Ўзбекистон ва минтақа давлатлари манфаатлари балки Европа, Россия, Хитой, АҚШ, Покистон, Афғонистон, Ҳиндистон ва Эроннинг манфаатларига мос келиши амалда ўз тасдиғини топди. Зеро, шундай улкан ҳудудда манфаатлар уйғунглигини таъминлашнинг янги модели сифатида эътироф этилмоқда.

Рақамларга эътибор берайлик, 2017 йилда кейинги 15 йилда биринчи марта Афғонистон Президентининг Ўзбекистонга давлат ташрифи амалга ошрилди. Ташриф давомида икки томрнлама шартномалар имзоланди. Шу даврдан бошлаб 60 дан ортиқ турли даражада расмий ва амалий учрашувлар ўтказилди. Натижада 2020 йилда давлатлар ўртасидаги ўзаро савдо айланмаси ўртача 776,9 миллион долларни ташкил этди. Бундан ташқари, 2019 йилда Сурхондарё вилоятида “Термиз Карго” экспорт маркази ҳамда Ўзбекистон Афғонистон чегара зонасида чегара олди савдо зонаси ташкил этилди.

Марказий Осиё давлатлари учун ечилиши ўта муҳим бўлган сув ва энергетика соҳасида мавжуд муаммолар қандай ҳал этилди? Транспорт инфраструктураси соҳасида қандай силжишлар рўй берди?

Минтақавий ташқи сиёсатнинг конструктивлиги ва очиқлиги минтақа давлатлари ўртасида сув – энертика соҳасида ўтган асрнинг 90-йилларидан бошланган зиддиятли муаммоларни нафақат ечишга, балки сувдан фойдаланишнинг янги модели шаклланишига имкониятлар яратди. Бир томондан, иқлим ўзгариши натижасида сув манбаларини камайиб бориши, шунингдек, минтақа бўйича сувдан фойдаланишга бўлган талабнинг кундан кунга ортиб бориши шароитида, иккинчи томондан, Ўзбекистон иқтисодиётининг катталиги туфайли минтақада сувни энг кўп истеъмол қилишини ҳисобга олганда, бу муаммонинг ечилиши жуда катта силжиш эди. Амударё ва Сирдарёнинг юқори оқимида жойлашган Тожикистон ва Қирғизистонда баъзи объектларнинг қурилиши, масалан, Тожикистонда Роғун ГЭСи ёки Қирғизистонда Қамбарота-1, Қамбарота-2 ГЭСларининг қурилиши бўйича чигал масалалар кун тартибидан олиб ташланди. Марказий Осиёда бундан кейинги йирик гидротехник объектлар қурилишларда ҳамма томонни манфаатларини ҳисобга олган ҳолда олиб боришнинг ташкилий-ҳуқуқий, иқтисодий асосларини яратишга киришилди.

Тожикистон томони Зарафшон дарёсида иккита ГЭС қурушни ўз зиммасига олди. Яъни сув-энергетика муаммоси бўйича ўзаро англашувга эришилди. Бу ҳаракатлар Марказий Осиё энергетик ҳалқасини тўлиқ форматда ишга туширишдан иборатдир. Ҳозир Ўзбекистон Қозоғистон ва Қирғизистон билан мавсумий равишда, Тожикистон билан умумий энергетик ҳалқа доирасида муваффақиятли иш олиб бормоқда. Бу, ўз навбатида, аҳоли ва саноат соҳаларининг электр энергиясига бўлган эҳтиёжини, айниқса, қиш мавсумида талаб энг юқори пайтда тўлиқ қондириш имконини бермоқда.

Янги минтақавий ташқи сиёсат минтақада транспорт йўлаклари соҳасида ҳам истиқболли лойиҳаларга замин яратди. Бу борада “Ўзбекистон – Туркманистон – Эрон – Ўмон” транспорт йўлагининг муҳим участкасини амалга оширишга старт берилди, Амударё орқали “Туркманобод – Фороб” темир йўл ва автомобиль кўприклари очилди. Уларнинг ишга туширилиши “Ўзбекистон – Туркманистон – Каспий денгизи – Жанубий Кавказ” йўналиши бўйича Боку – Тбилиси – Карс ҳамда Грузия, Туркия, Руминия ва бошқа давлатларнинг Қора денгиз портларига чиқиш йўллари билан оралиқ транспорт-коммуникация магистралини яратиш ғоясини амалга ошириш имконини берди.

Бундан ташқари, 20 йиллик музокаралардан сўнг Хитой ва Марказий Осиёни Қирғизистон орқали боғловчи темир йўл қурилиши

бўйича жиддий ривожланишга эришилди. Дастлабки баҳоларга кўра, ушбу лойиҳа амалга оширилганида юкларни етказиб бериш муддатлари 7-8 суткага қисқаради, Шарқий Осиёдан Яқин Шарқ ва Жанубий Европа мамлакатларига йўл масофаси 900 км. га қисқаради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ҳар томонлама асосланган минтақавий дўстона ташқи сиёсат – тараққиёт ва хавфсизлик, ривожланиш кафолати бўлиб қолмоқда. Қисқа муддатларда ташқи сиёсатдаги изчиллик, прагматизм ва конструизм, ҳар қандай шароитда давлат манфаатларини ҳимоя қилиш стратегияси, изчиллик ва очиқлик туфайли амалий халқаро аҳамиятга эга натижаларга эришилди. Ташқи сиёсий кун тартибидаги барча тенденцияларни моҳирлик билан англаш ва миллий манфаатларни ҳисобга олиш асосида қўшнилар билан бутунлай бошқа минтақавий мулоқотни ўрнатиш стратегияси – янги минтақавий дипломатия Ўзбекистоннинг қиёфасига айланди.

Минтақавий сиёсат соҳасидаги воқеалар ривожи шуни кўрсатадики, бу жараёнлар қайтариб бўлмайдиган ва улар нафақат Ўзбекистоннинг, балки бутун Марказий Осиё минтақаси, шу жумладан Афғонистоннинг келажагини белгилаб беради. Энг асосийси, Марказий Осиё, Осиё ва Европани боғловчи муҳим стратегик бўғин сифатида шаклланишига янги шарт шароитлар яратди.

Буларнинг барчаси нафақат минтақавий, балки глобал миқёсда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган мамлакатимизнинг янги минтақавий дипломатиясининг бағрикенглиги ва истиқболларидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон–Қозоғистон: азалий ҳамкорликнинг янги босқичи https://www.uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qozogiston-azaliy-hamkorlikning-yangi-bosqichi_246372

2. Ўзбекистоннинг 2020 йилда қайси давлатлар билан ташқи савдо айланмаси юқори? https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonning-2020-jilda-qajsi-davlatlar-bilan-tashqi-savdo-ajlanmasi-yuqori

3. Ўзбекистон тинчликсевар ва прогрессив ташқи сиёсат тарафдори http://www.adolatgzt.uz/policy/munosabat1/4817

4. Янги Ўзбекистоннинг барпо бўлиши: ислоҳотларнинг биринчи босқичи натижалари ва кейинги тараққиёт вазифалари https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekistonning-barpo-bolishi-islohotlarning-birinchi-bosqichi-natizhalari-va-keyingi-taraqqiyot-vazifalari_393789

5. Ўзбекистон — ташқи сиёсатда дўстона ва тинчликсевар давлат https://yuz.uz/news/ozbekiston--tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-

davlat?view=msk-yigilishida-referendumga-tayyorgarlik-masalasi-muhokama-etildi.

КОЛЛЕКТИВНЫЕ ИНСТИТУТЫ БЕЗОПАСНОСТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННУЮ СИСТЕМУ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Шохжахон АБДУЖАЛИЛОВ
ТГУВ, Факультет экономики, политики и туризма стран востока
Магистрант кафедры "Мировая политика и международные отношения"
Научный руководитель: PhD О. Алимов

Аннотация: После окончания «холодной войны» в международной системе безопасности и международном праве начались глубокие изменения. Проблема обеспечения международного мира и безопасности приобрела новые черты. Главы государств и правительств членов Совета Безопасности ООН на заседании 31 января 1992 г. пришли к единому мнению о том, что впервые с момента создания ООН появился наилучший шанс для достижения международного мира и безопасности. В то же время они признали, что перемены, происходящие в международных отношениях, сколь бы желательны они ни были, создали угрозу стабильности и безопасности мира. Ряд острых проблем возникли после прекращения идеологического противоборства и исчезновения биполярного мира, также резко увеличилось число локальных конфликтов, чаще всего внутри государств, а не между ними. К застарелым очагам вражды прибавились новые, еще более опасные, порожденные агрессивным национализмом, этнической, религиозной и клановой нетерпимостью. Так же остро встала проблема распространения оружия массового уничтожения, международный терроризм и торговля наркотиками. Глобализация, изменившая мировую экономику и политику, оказывает серьезное воздействие на безопасность всего мирового сообщества, в том числе увеличивая опасность, которой оно подвергается в связи с активизацией международного терроризма.

Анализ международно-политической обстановки свидетельствует о том, что она претерпевает существенные изменения. В межгосударственных отношениях намечается активизация процессов, способствующих снижению напряженности и укреплению стабильности в некоторых потенциально кризисных районах. В то же время еще не устранены причины, препятствующие ликвидации очагов напряженности и налаживанию широкого сотрудничества в интересах безопасности, наблюдается противоборство ведущих стран мира за обеспечение лидирующих позиций. Существенным дестабилизирующим фактором в мире остается наличие внутри-региональных противоречий – политических, территориальных и этно-конфессиональных [1].

Ключевые слова: коллективная безопасность, национальная безопасность, международная безопасность, международный мир, сотрудничество государств, суверенитет, внутренние и внешние угрозы, споры, отношения.

Международная безопасность затрагивает многие вопросы и сферы общественной жизни, безопасность каждого государства связана с безопасностью мирового сообщества в целом. Она строится на совокупности специальных принципов и норм, направленных на поддержание мира и безопасности, пресечение актов агрессии, обеспечение политической, военной, экономической, продовольственной, экологической, информационной безопасности государств и стабильности международных отношений.

Юридическую основу права международной безопасности составляют:

1) основные принципы права международной безопасности:

• неприменение силы или угрозы силой,

• мирное разрешение международных споров,

• невмешательство во внутренние дела,

• разоружение,

• сотрудничество государств;

2) специальные принципы права международной безопасности:

• равная безопасность,

• ненанесение ущерба,

• равенство и одинаковая безопасность,

• неделимость международной безопасности [**2**].

Данные принципы в полной мере отражают взаимодействие государств в области обеспечения безопасности на всех территориях и

определяют соответствующие мероприятия. Система совместных мероприятий государств всего мира или определенного географического района, проводимых для предотвращения и устранения угрозы миру, подавления актов агрессии, называется коллективной безопасностью.

В настоящее время региональными системами коллективной безопасности являются:

• Организация Американских государств (ОАГ);
• Организация Африканского единства (ОАЕ);
• Лига арабских государств (ЛАГ);
• Организация Североатлантического договора (НАТО);
• Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ);
• Система коллективной безопасности в рамках СНГ.

Организация Объединенных Наций появилась на свет в 1945 году после опустошительной Второй мировой войны с целью поддержания международного мира и безопасности. Организация добивается осуществления этой цели путем предотвращения конфликтов, оказания содействия сторонам конфликта в примирении, осуществления миротворческой деятельности, а также создания условий, способствующих установлению и укреплению мира. Для того чтобы быть эффективными, эти виды деятельности должны дополнять друг друга или осуществляться одновременно.

Совет Безопасности ООН несет главную ответственность за поддержание международного мира и безопасности. Генеральная Ассамблея и Генеральный секретарь играют важные и взаимодополняющие роли в деле укрепления мира и безопасности наряду с другими органами и учреждениями ООН.

Методы. Совет Безопасности играет ведущую роль в определении наличия угрозы миру или акта агрессии. Он призывает стороны в споре урегулировать его мирным путем и рекомендует методы или условия урегулирования. В соответствии с главой VII Устава, Совет Безопасности может принимать принудительные меры для поддержания или восстановления международного мира и безопасности [**3**]. Такие меры варьируются от экономических санкций до международных военных действий. Совет также учреждает операции ООН по поддержанию мира и специальные политические миссии.

Генеральная Ассамблея является главным совещательным, директивным и представительным органом Организации Объединенных Наций. Ассамблея предлагает возможности для достижения консенсуса по трудным вопросам, являясь форумом для ведения дипломатических переговоров и высказывания претензий. Вопросами мира и безопасности занимаются Первый комитет (вопросы разоружения и международной безопасности) и Четвертый комитет (специальные политические вопросы и вопросы деколонизации) [**4**].

Региональная безопасность является ключевым элементом, формирующим и обеспечивающим поддержание международной безопасности. Она представляет собой международно-правовую подсистему, обеспечивающую поддержание мира и осуществление коллективных мер членами регионального сообщества, направленных на предотвращение, локализацию и устранение различных угроз нарушению мира, а также его восстановление как в пределах своего региона, так и за его пределами. На состояние региональной безопасности существенное влияние оказывает расстановка центров силы в масштабах региона, а также взаимодействующие или пересекающиеся интересы основных полюсов силы формирующегося нового мирового порядка. Взаимосвязанность международной и региональной безопасности обуславливают существование общих для них черт развития, вызванных тенденциями глобализации, которые сочетаются с множественными формами их различия, обусловленными региональной спецификой [**5**].

Главным алгоритмом региональной безопасности является ее международно-правовая система, включающая совокупность упорядоченных международно-правовых и военно-политических мер государств региона, направленных на обеспечение поддержания мира, локализацию и устранение различных угроз нарушению мира, а также его восстановление, как в пределах своего региона, так и за его пределами. Организация функционирования системы региональной безопасности может осуществляться посредством создания для этого специальных организаций или же объединениями государств универсального характера, имеющих соответствующие институциональные органы. Во вновь формирующихся регионах мира отсутствие собственной системы региональной безопасности может компенсироваться двусторонними и многосторонними договорами, заключенными странами региона или же системами безопасности рядом расположенных региональных организаций.

Результаты. Международные институты – самое значительное достижение XX века, которое сейчас становится его пережитком. Как, впрочем, и большинство институтов на национальном уровне, также созданных в эпоху индустриализации, от начала которой нас отделяет уже почти 150 лет.

Попытки сохранить международные институты в существующем виде могут лишь ещё больше дискредитировать саму идею систематического сотрудничества государств по решению наиболее важных и представляющих угрозу для всех проблем.

Обсуждение. Драматические события 2020 г. привлекли всеобщее внимание к вопросу о международных институтах, поскольку их роль и место в ответах на важнейшие вызовы безопасности оказалась ничтожной – и глобально, и регионально. Этот диагноз в равной степени относится к Организации Объединённых Наций, парализованной принципиальным разногласиями между её лидерами, Европейскому союзу или Всемирной организации здравоохранения. Мы можем долго настаивать, что альтернативы этим и остальным институтам нет. Но такие утверждения основаны на опыте решения важных проблем середины прошлого столетия или, что еще более распространено, связаны с отсутствием пока признаваемых альтернатив институционализации международной политики [6].

Углублённое региональное сотрудничество не является убедительным ответом на распад системы управления миром в глобальном масштабе. Более того, чем сильнее такое сотрудничество, тем больше проблем для международной безопасности оно создаёт, когда осуществляется в рамках традиционных институтов-коллективов.

Однако в современном многообразном контексте их сила теряет уже не только наступательные, но и оборонительные возможности в отношении их собственных интересов и ценностей. В результате ООН, конечно, уберегает нас от ада всеобщего ядерного конфликта, но даже главенствующие в них страны-олигархи и их коллективный орган не способны остановить конкретный кровопролитный конфликт на Южном Кавказе или движение Пхеньяна к собственному ядерному потенциалу. Принцип баланса сил, лежащий в основе глобального института безопасности, уже не просто ведёт к его дезорганизации в результате торга основных участников между собой, но и просто лишает ООН всякого практического смысла. В свою очередь отказ от этого принципа немедленно вернёт ООН к состоянию Лиги Наций, последствия чего для международной безопасности хорошо известны.

Что же касается второго аргумента против международных институтов, то здесь дело обстоит ещё более драматически. Углублённое международное сотрудничество на региональном уровне не сокращает, а увеличивает эгоистичность поведения участников. Более того, политика таких объединений (ЕС, АСЕАН, НАТО) в отношении внешних игроков (Россия, США, Турция) неизбежно становится воплощением умноженного эгоизма. В своём эпохальном произведении «Моральный человек и аморальное общество» (1932) Райнхольд Нибур указывает на феномен, когда в коллективе «индивидуальный разум становится слугой коллективного интереса». Региональный международный институт, вне зависимости от того, основан ли он, как ЕС, – на балансе сил или, как АСЕАН, – на равенстве участников, является результатом «контракта» стран-членов. Этот контракт отражает компромисс между их национальными интересами, и нет никаких оснований учитывать интересы тех государств, которые в таком компромиссе не участвуют.

Выводы. Понятие «коллективной безопасности» можно определить как систему совместных мероприятий государств, предпринимаемых для предотвращения и устранения угрозы миру, подавления актов агрессии или других нарушений мира в целях поддержания международного мира и безопасности, установленную Уставом ООН и международным правом, осуществляемую в рамках Универсальной организации (ООН) и региональных организаций безопасности в интересах международного сообщества [**7**]. Безопасность может быть наилучшим образом обеспечена в результате коллективного взаимодействия всех государств или почти всех, только как следствие коллективной безопасности.

Список использованной литературы:

1. Клименко Л.Ф. Проблемы безопасности и стабильности в Азиатско-Тихоокеанском регионе и их обеспечение в XXI веке. https://flot.com/publications/books/shelf/safety/6.htm

2. Международные организации, обеспечивающие безопасность https://studme.org/55104/bzhd/mezhdunarodnye_organizatsii_obespechivayuschie_bezopasnost

3. Устав Организации Объединенных Наций. 1945. // Действующее международное право (избранные документы): Учеб. пособие. М., 2002. С. 8-26. https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text

4. Поддержание международного мира и безопасности. https://www.un.org/ru/our-work/maintain-international-peace-and-security
5. Маккамбаев П.А. Современное состояние формирующейся системы региональной безопасности Центральной Азии // Экономика Центральной Азии. – 2021. – Том 5. – № 3. – С. 273-296. – doi. https://1economic.ru/lib/112997
6. Конец международных институтов. https://globalaffairs.ru/articles/konecz-institutov/
7. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций, утверждена резолюцией 55/2 Генеральной Ассамблеи от 8 сентября 2000 г. // Московский журнал международного права. 2001. № 41.

ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИДА МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Шохиста АМИРОВА
ТДШУ магистранти
Илмий раҳбар: PhD. А.Назаров

Аннотация. Ушбу мақола Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятида Марказий Осиё хавфсизлиги масалалари, чегарадош давлатлар билан муносабатлар, ўзаро алоқаларнинг ривожи ва келгусидаги амалга оширилиши мумкин бўлган режаларни аниқлашга қаратилган.

Калит сўзлар. Ўзбекистон Республикаси мудофаа доктринаси, Ўзбекистон Республикаси Призидентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи, Афғон муаммоси, Тошкент конференцияси, Самарқанд конференцияси.

Халқаро муносабатлардаги ҳозирги мураккаб шароитда мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашувини янада чуқурлаштириш Ўзбекистон ташқи сиёсати олдида турган муҳим вазифа ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсатида Марказий Осиё хавфсизлиги масаласи энг устувор саналганлигини хисобга олсак тадқиқот мавзуйимиз долзарб ҳамда ушбу мавзуни ўрганиш муҳим саналади

Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиёдаги сиёсати Ш.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида таъкидлаганидек: “Тинч – осойишта, иқтисодий жиҳатдан тараққий этган Марказий Осиё – биз интиладиган энг муҳим мақсад ва асосий вазифадир” [1] ёндашувларга асосланган. Бундан келиб чиқадики, Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг асосий вазифаларидан бири – ўз атрофида тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ҳисобланади. Кўриниб турибдики Марказий Осиё минтақасида тинчлик ва барқарорликни таъминлашда Ўзбекистоннинг ташаббуслари ўз самарасини бермоқда.

Ўзбекистон ҳукумати томонидан минтақа хавфсизлигини таъминлаш борасида кўплаб амалий, муаммоларнинг келиб чиқиши, унинг олдини олиш борасида прагматик ташқи сиёсати ўзининг мудофаа доктринасида ҳам белгилаб қўйган.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси томонидан 2017 йил 18 декабрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонунида глобаллашув давом этаётган ва халқаро муносабатларнинг бутун тизими ўзгариб бораётган шароитларда жаҳондаги ҳарбий-сиёсий вазият халқаро ва минтақавий хавфсизликка хавф-хатар ҳамда таҳдидлар кўлами кенгайиб бораётганлиги – геосиёсий қарама-қаршиликнинг кучайиши, можаролар ва танг вазиятларни куч ишлатиб ҳал этишга бўлган ёндашувнинг устунлик қилиши, куч ишлатиш, шу жумладан оммавий қирғин қуролини қўллаш эҳтимоли ошганлиги, ҳарбийлаштириш, халқаро терроризм ва экстремизм фаоллашганлиги, ахборот макони ва кибермаконда ўзаро кураш кучайганлиги билан тавсифланади[2].

Доктринада минтақада тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, минтақавий хавфсизликнинг энг муҳим муаммоларини ҳал этиш, шу жумладан Афғонистондаги вазиятни тартибга солишга кўмаклашиш, трансчегаравий сув оқимлари ресурсларидан фойдаланиш масалаларини ҳал этиш, чегараларни делимитация ва демаркация қилиш жараёнларини тугаллаш, экологик барқарорликни таъминлаш, фавқулодда вазиятларга ҳамда табиий ва техноген хусусиятдаги трансчегаравий таҳдидларга эътибор қаратиш юзасидан таъсирчан чора-тадбирларни кўриш, минтақа давлатлари ўртасида ҳарбий соҳадаги ҳамкорликни кенгайтириш, ишонч ва хавфсизликни мустаҳкамлаш;” [3] масалалари белгилаб қўйилган.

Ушбу бобнинг ўн биринчи бандида, “Ўзбекистон Республикаси тинчликсевар сиёсатни олиб борар экан, ҳарбий можароларнинг олдини олишда фаол иштирок этишни устувор вазифалардан бири деб ҳисоблайди.

Ўзбекистон ташқи сиёсати учун яна бир илғор ғоя – “Марказий Осиё муаммоларининг ташқи кучлар аралашувисиз минтақадаги давлатларнинг ўзлари томонидан ечилиши зарур” [4] лигини алоҳида қайд этиш жоиз. Бу ўта принципиал ёндашув бўлиб, Ўзбекистоннинг минтақадаги барча долзарб сиёсий, иқтисодий, экологик ва бошқа турли муаммоларни ҳам ўзаро манфаатларни ҳисобга олган ҳолда халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган нормалари асосида ҳал қилиниши тарафдори эканлигини билдиради. Бошқача айтганда, минтақадаги мавжуд муаммолар ва масалалар Марказий Осиё халқлари томонидан ўзаро ҳамжиҳатлик ва муроса йўли билан ҳал қилиниши керак, четдан туриб бизга бу муаммоларни ҳеч ким ҳал қилиб беролмайди. Бу ғоя ташқи сиёсатимизнинг ўзагини ташкил қилади, десак ҳеч қандай муболаға бўлмайди.

Президент Ш.М.Мирзиёев минтақанинг долзарб масалаларини биргаликда ҳал этиш бўйича саъй-ҳаракатларни мутлақо янги даражага кўтариш мақсадида 2017 йил сентябрь ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида, 2017 йилнинг ноябрь ойида Самарқандда БМТ шафелигида ўтказилган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқида Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг мунтазам норасмий, алоҳида кун тартиби белгиланмайдиган Маслаҳат учрашувини ўтказиш форматини таклиф этган эди[5].

Афғонистон муаммосини ҳал этишнинг конструктив ечимларини топиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан белгилаб берилган муносабатларнинг янги босқичи бошланиши бу 2018 йил 27 март куни Тошкентда Афғонистонда тинчлик жараёни бўйича юқори даражадаги халқаро конференцияни ўтказиш имконини берди.

Қабул қилинган Афғонистон тўғрисидаги Тошкент декларация-сида тинчлик жараёни учун бир қатор муҳим чора-тадбирлар ўз ифодасини топди.[6]

Анжуманда турли мамлакатлар ва халқаро ташкилотларнинг 25 дан ортиқ вакиллари иштирок этди. Афғонистон ташқи ишлар вазири С.Раббоний Ўзбекистон Республикаси Президентига нафақат

Афғонистонда, балки бутун минтақада тинчлик ва барқарорликни таъминлашга қўшган ҳиссаси учун алоҳида миннатдорлик билдирди. Ҳужжатда минтақада тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш, барча соҳалардаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, яхши қўшничилик муносабатларини янада кенгайтириш каби мақсадлар қўйилган эди. Наркотрафикка қарши кураш ва давлатлар чегараларини мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилди[7].

Афғонистон масаласида бундай ташаббуслар кейинги даврларда ҳам тўхтаб қолгани йўқ, 2020 йил феврал ойида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев минтақавий хавфсизлик бўйича ўз қарашларини баён қилиб, АҚШ ва Афғонистон Толибон ҳаракати ўртасида имзоланган битим алоҳида аҳамиятга эга эканини ҳамда Афғонистон минтақанинг ажралмас қисми сифатида қаралиши ва Афғонистондаги муаммони ҳал қилмасдан минтақада тўлиқ хавфсизликка эришиш имконсиз эканлигини таъкидлади[8].

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегиясининг бешинчи йўналиши Хавфсизлик ва ташқи сиёсатда яхши қўшничиликка йўналтирилган давлатимиз мустақиллиги ва суверенитетини мустаҳкамлаш, Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш, мамлакатимизнинг халқаро нуфузини мустаҳкамлаш, давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалаларини ҳал этиш сингари масалалар кўзда тутилган[9].

Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегясида 94-максад “Марказий Осиёда хавфсизлик, савдо-иктисодий, сув, энергетика, транспорт ва маданий-гуманитар сохалардаги якин хамкорликни сифат жихатидан юқори босқичга олиб чикиш” [10] этиб белгилаб қўйилганлигининг ўзи Ўзбекистоннинг минтақа хавфсизлигини таъминлашдаги келгуси режалари борлиги ва бунда қатъий харакат қилишининг тасдиғидир.

Мазкур Тараққиёт стратегияси, Ташқи сиёсий фаолияти Концепциясида белгиланган устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Марказий Осиё давлатлари билан олий даражадаги мулоқот ва икки томонлама хамкорликнинг барча форматдаги механизмлари асосида (хукуматлараро комиссиялар, сиёсий маслахатлашувлар, парламентлараро ҳамкорлик комиссияси ва бошкалар) йиғлишларни ташкил этилди. Ҳар йили мунтазам ташкил килинаётган Марказий

Осиё давлатлари рахбарларининг Маслахат учрашувларинидаги фаол иштирок бунинг ёрқин намунасидир.

Шунингдек, Марказий Осиё буйича минтакавий хамкорлик стратегиясини ишлаб чикиш ишларини бошлаш, минтакавий ташкилотлар доирасида Ўзбекистоннинг миллий манфаатларини фаол илгари суриш, Ўзбекистон Республикасининг чегараолди назорат-утказиш пунктларини реконструкция килиш ҳамда Марказий Осиёда экологик хавфсизликни таъминлаш вазивалари хам белгиланган.

Марказий Осиёда минтақавий хавфсизлик бўйича комплекс ўзаро боғлиқлик тизимини шакллантиришнинг муаммо ва истиқболлари миллий тадқиқот ва таҳлил марказлари ҳамкорлик фаолиятини ташкил этиш хавфсизликни таъминлашда ўз самарасини бериши айни хақиқатдир. Шу нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак Ўзбекистон Республикасида “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти”, “Марказий Осиё халқаро институти”, “Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази”, “Тараққиёт стратегияси маркази”, “ШҲТ халқ дипломатияси маркази”, “ШҲТнинг минтақавий аксилтеррор тузилмаси”, каби сиёсий институтларнинг фаолият олиб бориши давлат ташқи сиёсати ҳамда минтақа ҳавфсизлигини таъминлаш борасида режа ва таклифлар ишлаб чиқишига замин яратади. Шу каби миллий тадқиқот ва таҳлил марказлари Қозоғистон Республикасида “Қозоғистон стратегик тадқиқотлар институти”, Тожикистон Республикасида “Тожикистон Республикаси Президенти ҳузуридаги стратегик тадқиқотлар институти”, Қирғизистон Республикасида “Қирғиз Республикаси Миллий стратегик тадқиқотлар институти” ва бошқа фаолият олиб боради. Умумий олиб айтадиган бўлсак минтақа давлатларида фаолият олиб бораётган шундай миллий тадқиқот ва таҳлил марказлари ҳамда сиёсий институтларнинг ҳамкорлигини йўлга қўйиш орқали Минтақада юзага келган муаммоларнинг ечимини топишда комплекс ёндашувга эришилиши мумкин. Бундан ташқари келажакда келиб чиқиши мумкин бўлган сиёсий, иқтисодий, миллий ва этник инқирозларни прогнозлаш ҳамда уларнинг олдини олиш чораларини кўриш бўйича комплекс хулоса ва таклифлар ишлаб чиқиш эхтимоллари юқори.

Тўпланган ва таҳлил этилган маълумотлардан умумий хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, Ўзбекистон Республикасида тарихий жиҳатдан қисқа бир даврда халқаро муносабатларнинг тенг ҳуқуқли иштирокчилигини йўлга қўйиш ва ривожлантириш бобида бир неча ўн

йилликларга арзийдиган ишларни амалга ошира олди. Ўзбекистон ўзининг тинчликсевар, яхши қўшничилик, ўзаро фойдали ҳамкорликка қаратилган сиёсати ва фаолияти билан бутун дунёга танилди, жаҳон ҳамжамиятида ўзининг муносиб ўрнини эгаллади, бунинг тасдиқи ўлароқ унинг мавқеи йилдан-йилга мустаҳкамланиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолияти унинг миллий мустақиллиги, сиёсий ва иқтисодий эркинлиги, суверинитетини мустаҳкамлаш ва кескин ижтимоий-сиёсий муаммоларни муваффақиятли ҳал қилиш учун пухта ишлаб чиқилган. Уни амалга оширишдаги прогматик очиқлик асосида олиб борилаётган амалий ишлар мамлакатни минтақа тинчлигини таъминлашдаги нуфузини белгилаб бермоқда.

Ўзбекистоннинг халқаро муносабатлардаги эришган қарийб ўттиз йиллик тажрибаси шуни кўрсатадики, мустақил ташқи сиёсат олиб бориш, давлатлараро муносабатлар йуналиши ва устуворлигини белгилаш, уни янада ривожлантириш, тинч-тотув яшаш тамойилларини барқарорлаштириш, тенг ҳуқуқли муносабатлар ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик, кенг миқёсдаги кичик ва ташқи муаммоларни ҳал қилишга имкон беради. Марказий Осиёда минтақавий хавфсизлик бўйича комплекс ўзаро боғлиқлик тизимини шакллантиришнинг муаммо ва истиқболлари миллий тадқиқот ва таҳлил марказлари ташкил этиш ҳамда уларнинг мунтазам ҳамкорлигини таъминлаш минтақа хафвсизлигини таъминлашнинг асоси бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсати минтақада тинчлик ва хавфсизликни таъминлашга қаратилган бўлиб, ташқи сиёсий фаолиятнинг асосини минтақада тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ҳисобланади. Сўнгги йилларда Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев ташаббуслари билан амалга оширилаётган Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги минтақа хавфсизлиги ва хамкорлигининг мустаҳкамланиши, ягона минтақавий кўп томонлама муносабатларнинг ривожланишиЎзбекистон ташқи сиёсатидаги ютуқлардан саналади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. www.prezident.uz/uz/lists/view/1063

2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўз.Рес. 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон. https://lex.uz/docs/3107036

3. Ташкентская декларация по Афганистану // МИД Узбекистана. URL: https://mfa.uz/ru/press/news/2018/03/14326/ (дата обращения 10.05.2020)

4. Процесс принятия «Ташкентской декларации» по Афганистану // МИД Узбекистана. URL: https://mfa.uz/ru/press/news/2018/03/14331/ (дата обращения: 10.05.2020)

5. МИД Узбекистана. URL: https://mfa.uz/ru/press/news/ 2020/02/23576/ (дата обращения 10.05.2020) Видение президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, о вопросах обеспечения региональной безопасности и пути решения афганской проблемы.

6. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. https://strategy.uz/index.php?news=1513

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. www.prezident.uz/uz /lists/view/1063

AFG‘ONISTONDA TABIIY RESURSLAR MUAMMOSI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

Mohidil NIZAMOVA
“Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati” yo‘nalishi
1-bosqich magistranti,
Ilmiy rahbar: PhD S.M. Bo‘ronov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg‘onistondagi tabiiy resurslar muammosi va iqtisodiyoti haqida tahlil qilinadi. Afg‘onistonda bu mo‘l-ko‘l boyliklarni qazib olish va sotishga, bu orqali aholi turmush tarzini oshirishga, tibbiyot, ta’lim va fanni rivojlantirishga, davlatning rivojlanishi uchun bir necha loyihalarni amalga oshirish kerakligi haqida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Doing Business, Transparency International, MAIL, MWP, BMT, YUNESKO.

20 yil mobaynida Afg‘onistonda harbiylarini saqlab turgan amerikaliklar ketishga qaror qilgach, toliblar hokimiyatni egalladi. O‘n yillab davom etgan urushlar oqibatida vayronaga aylangan mamlakatda rejim o‘zgarishi yangi hukumat tabiiy boyliklar, inson kapitali va sayyoraning eng ko‘p aholi yashaydigan davlatlari o‘rtasidagi savdo yo‘llari chorrahasidagi geografik joylashuvdan qanchalar omilkorlik bilan foydalanishi dolzarb muammoga aylanadi. Sovetlar va Amerika geologlari Afg‘onistondagi minalar bilan qoplangan tog‘lari va daralari bag‘rida o‘n millionlab tonna mis va boksit (alyuminiy rudasi), milliardlab tonna temir rudalari, shuningdek, oltin, marmar va boshqa qimmatbaho mineral boyliklar yashirin ekani haqida xulosa qilishgan. Ammo shu vaqtgacha Afg‘onistonda bu mo‘l-ko‘l boyliklarni qazib olish va sotishga, bu orqali aholi turmush tarzini oshirishga, tibbiyot, ta’lim va fanni rivojlantirishga, yoki hech bo‘lmaganda davlatni boyitishga muvaffaq bo‘linmagan. Jahon banki mamlakatlarda biznes yuritish uchun yaratilgan sharoitlar baholanadigan “Doing Business” reytingida Afg‘onistonni 190 mamlakat orasida 173-o‘ringa joylashtirgan. “Transparency International” korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro nodavlat tashkiloti reytingida esa bu mamlakat 180 dan 165-o‘rinni egallagan.

Yangi hukumat xorij kapitalisiz uzoqqa bora olmaydi. 90-yillardagi toliblarning tog‘ rudalarini o‘zlashtirishdagi yutuqlari mahalliy konchilar ishtirokida qimmatbaho toshlarni qo‘lbola usullarda qazib olish bilan cheklangandi. Agar hozir hokimiyatga kelgan toliblar xalqaro biznes vakillarini o‘z kafolatlari ostida milliardlab mablag‘larni sarflash uchun tavakkal qilishga ishontira olmasa, Afg‘onistonning yer osti boyliklari bundan keyin ham shundayligicha tegilmagan holda qolib ketadi. O‘tgan yillarda Afg‘oniston iqtisodiyotining asosiy tayanchi mineral resurslar emas, opium (afyun) xomashyosi bo‘lgan. BMT baholariga ko‘ra, mamlakatdagi iqtisodiy faollikning 10 foizlik qismi opiumchilarga to‘g‘ri keladi, ularning ishlab chiqarish, eksport qilish va iste’mol hajmi Afg‘onistondagi boshqa barcha mahsulotlar rasmiy eksporti hajmidan ikki barobar ko‘proqdir.

Xitoyliklarning muvaffaqiyatsizligi. Litiy zaxiralari va boshqa nodir metallar ham hisobga olinsa, Afg‘onistondagi mineral xomashyo zaxiralari bahosi 3 trln dollargacha yetadi. Lekin aniqlangan zaxiralarni qazib olish va sotish uchun pul, texnologiya, infratuzilma va xavfsizlik kerak. 2008 yildayoq Xitoy davlat kompaniyalaridan biri Kobuldan uzoq bo‘lmagan hududda, dunyodagi eng yirik mis konlari joylashgan «Mes Aynak»da o‘zlashtirish ishlarini olib borish uchun konsessiya (kondan foydalanish

bo‘yicha davlat va kapitalist firma o‘rtasida tuziladigan shartnoma) oladi. Bu hududda Afg‘oniston mis zaxiralarining uchdan bir qismi – 11 mln tonna mis YUNESKO tomonidan umumjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan budda yodgorliklari ostida joylashgan. Ammo 12 yil o‘tdi, budda haykallari joyida, rudalar yer ostida qolmoqda. Xitoyliklarning o‘tgan vaqt ichida toliblar bilan munosabati faqat ikki epizod bilan cheklangan. Afg‘onistonda hukm surgan rejimlarning hech biri shu vaqtgacha foydali qazilma boyliklarini o‘zlashtirishga yirik investitsiyalarni jalb etish uchun talab etiladigan barqaror va jozibali muhit yarata olmadi.[1]

Afg‘onistonda odamlarni tashvishga soladigan asosiy sohalar: qishloq xo‘jaligi/oziq-ovqat, tog‘-kon sanoati, o‘rmon xo‘jaligi, biologik xilma-xillik, energiya ta’minoti, chiqindilarni boshqarish, odamlar resurs va resurs nazoratchisi sifatida, havo ifloslanishi, xavfsiz jamoat transporti tizimi yo‘qligi sababli transport va yer. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘oniston yalpi ichki mahsulotining 97 foizi xorij pullari, asosan yordam guruhlari va viloyatlarni qayta tiklash bo‘yicha harbiy guruhlar hisobidan keladi.[2]

Afg‘oniston milliy daromadi. Afg‘oniston hukumati milliy daromadning kelajakdagi asosiy manbai sifatida konlarga e’tibor qaratmoqda. Konlarni qazib olish bo‘yicha standart qonunlar ishlab chiqilgan, ammo asosiy muammo qonunlar va siyosatlarni amalga oshirishda imkoniyatlarning yetishmasligidir. Jamiyatlar foydali qazilmalarni qazib olish bo‘yicha qarorlar qabul qilish va ushbu hududlarda xususiy sektor faoliyatini monitoring qilishda faol rol o‘ynashi uchun jamiyatning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ko‘p ish qilish kerak. Muqobil manbalar (gidroenergetika, elektr energiyasi ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimini takomillashtirish) bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar e’tibor qaratishimiz, olingan daromadni esa boshqa tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga yo‘naltirishimiz kerak.[3]

